76.10
E-91

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ERKIN AXUNJANOV

KUTUBXONASHUNOSLIK, ARXIVSHUNOSLIK, KITOBSHUNOSLIK: NAZRIYASI VA TARIXI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatoda tavsiya etilgan.

«TAFAKKUR-BO‘STONI»
Toshkent - 2011

BUXORO YUQORI TEXNOLOGIYALAR MUHANDISLIK-TEXNIKA INSTITUTI
№ 11576 20__ yil

76.10
E-94

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ERKIN AXUNJANOV

KUTUBXONASHUNOSLIK, ARXIVSHUNOSLIK, KITOBSHUNOSLIK: NAZRIYASI VA TARIXI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

«TAFAKKUR-BO‘STONI»
Toshkent - 2011

BUXORO YUQORI TEXNOLOGIYALAR MUHANDISLIK-TEXNIKA INSTITUTI
№ 7/5576 20__ yil

UDK:
76.10
E94

Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazriyasi va tarixi / Erkin Axunjanov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T. : «Tafakkur-Bo'stoni», 2011. 520 b.

BBK 76.10

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor **Azizxon Qayumov** umumiy tahriri ostida

Mas'ul muharrirlar:

Tarix fanlari doktori, professor **Mirsodiq Mirsulton o'g'li Ishoqov**
Sotsiologiya fanlari doktori, professor **Abdusalom Odil o'g'li Umarov**

Taqrizshilar:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori, professor **Abdulahad Rahimjon o'g'li Muhammadjonov,**
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori, professor **Edvard Vasilevich Rtveladze.**
Tarix fanlari doktori, professor **Shamsiddin Kamoliddin**.

ISBN - 978-9943-362-25-3
№ 1551-6351

«Tafakkur-Bo'stoni» 2011

Kitobimni qadimgi Turon-Turkiston alifbeli yozuv tizimlarining buyuk va noma'lum kashfiyotchilari, yozuv va kitobat madaniyatimizning ikki yarim ming yillik muqaddas an'analarini har qanday zamonlarda qo'llab-quvvatlagan va rivojlantirgan tabarruk zotlarning xotirasiga bag'ishlayman.

Muallif

KIRISH

Kitob va kitobat tarixi kam o'rganilgan mavzu. Ushbu kitob O'rta Osiyoning kitobat va yozuv madaniyati tarixiga bag'ishlangan. Unda qadimiyat va ilk o'rta asrlarda bu mintaqada qo'llanilgan oromiy, xorazmiy, parfiyoniy, bohtariy, sug'diy, o'rta forsiy, yunon, yunon-bohtariy, manixey, avesto, eftalit, qadimgi turkiy, turkiy uyg'ur, suryoniy-turkiy, kxaroshtxi, braxmi, "issiq" yozuv tizimlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari, bular asosida yuzaga kelgan kitobatchilikning etakchi tendentsiyalari fanda birinchi marotaba umumlashtirilgan holda yoritib beriladi hamda eng ahamiyatli yozuv yodgorliklarining tavsifi keltiriladi. Kitobat madaniyati tarixida ro'y bergan Avesto to'liq matnini kitobiylashtirishning olti holati (shulardan dastlabki uchtasi Xorazm, Baqtriya va Parfiyada amalga oshirilgan) ko'rib chiqiladi hamda qadimiyatdan o'rta asrlarga, "Avesto" (zardushtiylik) madaniy dunyosidan musulmon madaniy dunyosiga o'tish jarayonida yozuv va kitobat madaniyati an'analarining vorisiylik yo'llari, turkiston qog'ozini ishlab chiqarish tarixi ochib beriladi. Alohida boblarda Turkiston O'rta asrlar va keyingi zamonlarda arab alifbesidagi qo'lyozma va toshbosma kitoblarning turlari, ularni ko'chirish, bezash, nashrga tayyorlash va chop etish bilan bog'liq jarayonlar, kitob va uning badiiy-estetik tavsifi, xattotlar, noshirlar, musavvirlar, lavvohlar va sahhoflar mehnati va san'ati tahlil etiladi, qo'lda ko'chirilgan va chop etilgan kitoblarning mavzuiy manzari keltiriladi, kutubxonalar, kitob savdosi, bibliografiya, toshbosmaxonalar va nashriyotlar tarixi yoritiladi.

I bob. KITOBShUNOSLIK VA KITOB TARIXI: NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Ushbu kitobda nazariy va metodologik darajadagi masalalarga murojaat etish zaruriyati ikki muhim omil bilan belgilanadi. Birinchidan, bizga ma'lum bo'lgan biron-bir mamlakatning kitobat madaniyatiga doir tadqiqotlarning birortasida ham kitob tarixiga nisbatan sistemali tarixiy-tipologik yondashuv printsipi izchil amalga oshirilmagan, binobarin, tadqiqotlarda sistemali yondashuv hamda tarixiy-tipologik metodlarning butun majmuidan hali to'la foydalanilmagan va ular amalda qo'llanish jarayonida muayyanlashtirilmagan. Masalan, Rossiya, MDH mamlakatlari va jahonning boshqa mamlakatlari kitob va kitobat ishi tarixiga doir tadqiqotlarda kitob tarixi, kitob noshirligi ishi tarixi, kitob savdosi tarixi, kutubxonachilik ishi tarixi va bibliografiya tarixi ob'ektiv tarzda va eng ajablanarlisi, deyarli bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda yoki hech bo'lmasa muvoziy tarzda mavjud bo'lgan holat saqlanib qolmoqda. Bunda kitob tarixi odatda juda tor ma'noda, asosiy tematik bo'limlar tahlilidan iborat nashrlar tarixi sifatida yoki juda bo'lmasa o'rganish ob'ekti va predmeti fan sifatidagi kitob tarixining ob'ekti va predmetiga uncha mos kelmaydigan kitob noshirligi ishi tarixi sifatida talqin qilinadi. Vaholanki, tadqiqotning yagona ob'ekti («kitobat ishida kitob» tizimi), uning tarkibiy o'ziga xosliklari, sistemali birligi, tarkibiy qismlarining o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etishi, ularning tarixiy rivojlanish qonuniyatlari, ya'ni ob'ekt tarixiy rivojlanishining mohiyati uni o'rganish va tegishli tadqiqot metodlaridan foydalanishda sistemali yondashuvni taqozo etadi.

Ikkinchidan, metodologiya masalalariga bag'ishlangan bobning zarurligi qadimgi va o'rta asrlar, yangi va eng yangi davrlar vatan kitobi tarixi muammolari yaxshi o'rganilmaganligi bilan belgilanar ediki, bu asosiy ilmiy muammolarni aniqlash, kitob va kitobat ishi tarixini davrlashtirish, uning rivojlanish qonuniyatlarini muayyanlashtirish va ularga aniqlik kiritish kabi masalalarni tadqiq etishni taqozo qildi. Ushbu darslikda kitobshunoslikka oid bilimlar tizimi va kitobshunoslikning sistemali-tipologik metodi asosida nafaqat fan sifatidagi kitob tarixining ob'ekti va predmeti, uning vazifalari muayyanlashtirilgan, balki bevosita tarixiy tadqiq qilish jarayonida kitob va kitobat tarixini o'rganish muayyan

usullari, metodlari va metodikalari ma'lum darajada yoritilgan.

Mazkur birinchi bobda kitobshunoslikning dunyo miqyosida tan olingan nazariyachilari, filologiya fanlari doktorlari, Moskva davlat matbuot universiteti professorlari A.A.Belovitskaya va S.P.Omilyanchukning kitob va kitobat ishi haqidagi eng yangi metodologik ishlovlari asosida kitobshunoslik hamda kitob tarixining ba'zi bir muhim masalalari yoritilgan. Vaziyatdan foydalanib, ushbu darslik muallifi o'z ustozlari Alisa Aleksandrovna Belovitskaya va Sergey Pavlovich Omilyanchukka o'z matnlari hamda ilmiy ishlovlarining asosiy g'oyalaridan foydalanishga ruxsat berganliklari, shuningdek, o'ziga xos ilm va hayot maktabini o'tashda ustozlik qilganliklari va so'nggi qirq yil mobaynida unga sidqidildan do'stona munosabatda bo'lib kelayotganliklari uchun chuqur minnatdorchilik va hurmat-ehtirom tuyg'ularini izhor etadi.

1-§. «Kitob» so'zi va tushunchasining kelib chiqishi va ma'nosi

Qadimda Turon xalqlari – parfiyaliklar, xorazmiylar, sug'dlar, baqtriyaliklar, farg'onaliklar muayyan tarzda yozilgan (ko'chirilgan) va bezalgan biron-bir matnni belgilash uchun «po'stak» so'zidan foydalanganlar. Po'st so'zi "teri" degan ma'noni anglatadi. Bunday ma'no ko'chirilishi qadimda va ilk o'rta asrlarda teridan yozish uchun material sifatida keng foydalangani bilan bog'liq bo'lsa kerak. Masalan, buddaviylarning «Mast qiluvchi ichimliklarni qarg'ash kitobi» degan axloqiy-falsafiy risolasining nomi sug'd tilida quyidagicha yangraydi: «Mast karak chashont parg'un pustak». Abu Rayhon Beruniy o'zining «Mineralogiya» kitobida sug'dlarning bizgacha etib kelmagan «Nupusta» kitobini tilga olib o'tadi. Bizningcha, ayni holda ma'lum kitoblar orasidagi yangi bir kitob yoki biron-bir kitobning yangi tahriri sifatida qabul qilingan kitob to'g'risida so'z yuritiladi.

«Yozuv» so'zi sug'd tilida «nipik» ko'rinishida yangraydi. U etimologik jihatdan yozish, chizish degan ma'noni anglatuvchi hind-evropacha «pik» o'zagi bilan bog'lanadi. (Taqqoslang: ingl. paint – chizish va picture – rasm).

Sug'd tilida podshoning yozma farmonlari, uning nomalari, ayrim xatlar «namak» deb atalgan bo'lib, undan tojik va o'zbek tillarida «xat», «murojaat», «asar» degan ma'nolardagi «noma» so'zi kelib chiqqan. «Namak», «noma» so'zlari ilk o'rta asrlar va o'rta asrlar

mumtoz adabiyotida «asar, kitob» ma'nolarida yirik asarlar nomiga kiritilgan, masalan: «Kamamaki Artaxsheri Papakon», «Xvataynamak», «Shohnoma», «O'g'uznoma», «Siyosatnoma» va boshqalar[1].

«Kitob» so'zi o'zbek va tojik tillariga ham, boshqa turkiy va yangi eron tillariga ham Turon-Turkiston zaminiga arablar va islom dini kelishi bilan birga kirib kelgan. Biroq «kitob» o'z kelib chiqishiga ko'ra arabcha so'z emas. Etimologik jihatdan u arab tiliga qardosh oromiy tili (semit tillari oilasi) bilan bog'liq bo'lib, undan o'zlashtirilgan. Arab tilidan bu so'z tabiiy o'rin olgan. U semitcha «ktb» o'zagining nomi sifatida tushunilgan va «yozmoq» degan yangicha ma'no kasb etgan. O'z navbatida, semit tillarida o'zak ma'nosi undosh harflar bilan bog'liq, unli tovushlar esa so'zning grammatik va so'z hosil qiluvchi elementlarini ifodalaydi, shu bois mazkur ma'nodagi fe'ldan ko'plab yangi so'zlar hosil bo'lgan: kotib – «mirza», «munshiyxona xizmatchisi», «yozuvchi, muallif», maktaba – «kutubxona», mukataba – «yozishma, xat almashish, matnlarni uzatish usuli», kitob va h.k. Xullas, arab tilida nafaqat har qanday bichim, hajmdagi nashr, balki har qanday yozilgan matn, xususan tilxat, xat yoki hujjat «kitob» deb ataladi. Arab tilidan o'zlashtirilgan «kitob» so'zi eroniy va turkiy tillarda asar va qo'lyozmani, keyinchalik esa bosma kitobni ifodalovchi atama sifatida qo'llanila boshladi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati» kitob so'ziga shunday izoh beradi:

1. Biror tekst yozilgan varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan bosma (qadimda qo'lyozma ham) asar.

2. Yirik adabiy asarning (odatda romanning) katta bir bo'limi (1-tom. 389-b.).

Evropa va Old Osiyo tillarida tarixan atamaning mazmuni (uning ma'nosi) bir xil. Yunoncha «biblio», lotincha «liber», semitcha «sefer», arabcha «kitob», slavyancha «kniga» kabi, bir xilda talqin qilinadi: 1) predmet, 2) asar, 3) asarning bir qismi. Bu atama paydo bo'lganidan beri uning o'zagi hozirgacha daxlsiz holda saqlanmoqda.

V.I.Dalning «Jonli buyuk rus tilining izohli lug'ati»da «kniga» («kitob») so'zi uch xil ma'noda berilgan. Birinchi – «bir muqova ichiga tikilgan qog'oz yoki pergament varaqlari» (ya'ni kitobning moddiy

[1]Antik tadqiqotlar Xalqaro akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori, professor M.M.Ishoqovga turonzamin xalqlarining qadimgi tillarida kitob bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarning so'zda ifodalanishi haqida ilmiy axborot taqdim etgani uchun chuqur minnatdorchilik bildiramiz (muallif).

predmet sifatidagi formal obrazi), ikkinchi – «bitik, kitobda yozilgan barcha narsa» (ya'ni, hozirgi til bilan aytganda, tushunchaning mazmun jihati). Nihoyat, uchinchi – «yirik yozma asardagi bo'lim, qism». Noilmiy talqinlarni hisobga olmasak, «kniga» so'zining asosiy mazmuni u yoki bu tarzda ilm, axborot hamda o'ziga o'xshashlar o'rtasida ma'lumot tarqatish, ya'ni bilim va obrazlar tarqatish bilan bog'liq. Rossiyalik olimlar ruscha «kniga» so'zi umuman bilimni anglatgan tushunchalar bilan qardosh ekanligiga ishonchlari komil. Ularning taxminiga ko'ra, avliyo Kirillning Korsunga sayohati davriga (863 yil) kelib (ma'lumki, bu sayohatdan keyin u slavyancha alifbeni tuzishga kirishgan), slavyanlar tilida qadimgi, barqaror va mutlaqo aniq «kniga» atamasi mavjud bo'lgan. Bu erda ajablanarli hol shundaki, ular mazkur maqsadda eng yaqin madaniy xalqlarning ularga tanish bo'lgan «biblio», «liber», «manuskript», «xartiya», «gramota» kabi so'zlaridan foydalanmaganlar, balki ilk slavyancha «kneti», ya'ni «znat» («bilmoq»)dan so'z hosil qilishni afzal ko'rganlar.

Savollar va topshiriqlar:

1. "Kitob" so'zining kelib chiqishi.

2-§. «Kitob» tushunchasi funktsional yondashuv va metod nuqtai nazaridan

Fan borliqni nazariy o'zlashtirish usuli sifatida nazariy bilish jarayoni va uning ilmiy bilim shaklida mavjud bo'lgan, o'zagini nazariya tashkil etuvchi oraliq mahsul hamdir. Ilmiy bilish – ko'p darajali, ko'p bosqichli cheksiz jarayon va anglab etilmagan narsalarni anglab etilgan narsalarga, noma'lum narsalarni ma'lum narsalarga, tushunarsiz narsalarni tushunarli narsalarga aylantirishning oraliq mahsuli, bilimning pastroq darajasidan yuqoriroq darajasiga (empirik darajadan nazariy darajaga, bir darajadagi nazariyadan yuqoriroq darajadagi nazariyaga) yuksalishdir.

Inson ongi nazariy ongdan, odatda, yuzada aniq-ravshan ko'rinib turgan va ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalar va hodisalarni idrok etishi bilan ajralib turadi. Nazariy ong yoki ilmiy yondashuv tadqiqotchidan predmetning muhim xossalarini, uning barcha aloqalari va munosabatlarini aniqlashni taqozo etadi, chunki faqat ular o'rganilayotgan hodisani yaxlit

tasavvur qilish imkonini beradi. Oddiy ong darajasida kitob – bu moddiy madaniyat hamda jamiyat ma'naviy hayoti mahsuli. Moddiy madaniyat mahsuli sifatida kitob juzlab tikilgan, muqovalangan, matn yoki grafik tasvir ifodalangan qog'oz varaqlari (yoki boshqa yozuv materiali)dan iborat qo'lyozma yoki bosma nashrdir. Jamiyat ma'naviy hayoti mahsuli sifatida kitob g'oyaviy va siyosiy kurash, ta'lim va tarbiya, bilim va biron-bir ma'lumotlar tarqatish quroli bo'lib xizmat qiluvchi adabiy, ilmiy yoki amaliy mazmundagi asardir. Barcha davrlar va xalqlarning buyuk arboblari kitobning rang-barang foydali funktsiyalarini «maqtab» aytgan ko'plab fikrlarni keltirish mumkin. Kitob – «hayot darsligi», «qalb ozig'i», «do'st», «suhbatdosh», «hayot ko'zgusi», «erning eng buyuk va sirli mo''jizasi». Darhaqiqat, kitob – madaniy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning qudratli vositasi, bilim va ma'rifatning boy manbai. Inson tafakkurining eng katta yutuqlari, dohiyona ilmiy g'oyalar, ajoyib texnologik kashfiyotlar kitob orqali yorug'lik yuzini ko'rgan. Kitob yordamida insoniyat o'z serqirra faoliyatining barcha jabhalarida tajriba to'plagan, o'z bilimini kelajak avlodlarga qoldirgan, taraqqiyot yo'lidan olg'a siljigan. Odamlar kitobning beqiyos madaniy, ilmiy, ma'rifiy va tarbiyaviy rolini munosib baholaganlar.

Kitob o'ziga xos hodisa – mutolaa va u bilan ruhan bog'liq bo'lgan barcha narsalar, shu jumladan alifbe, shrift, kitob tiraji, bichimi, ichki va tashqi bezaklari, qo'lyozma kitobda xattot dastxatining o'ziga xos uslubi mahsuli. Bu tug'ilgan fikrni o'sha zahoti ehtimol tutilgan har bir kitobxonga etkazish uchun imkoniyat yaratadi. Matnni uzoq ijodiy o'zlashtirish jarayonida kitobni nafaqat mutolaa qilish, balki ko'zdan kechirish, varaqlash, to'la yoki tanlab o'rganish, shunchaki saqlash mumkin. Kitob shakllari va undan foydalanish usullari asrdan-asrga o'zgarib borgan. Sopol parchalari ko'rinishidagi kitoblarni idrok etish va ulardan foydalanish papirus o'ramlari ko'rinishidagi kitoblardan foydalanish boshqacha tarzda kechgan, qog'oz tashuvchilardagi kitob-kodekslarni mutolaa qilish va o'rganish monitor (displey) ekranidagi elektron kitobni idrok etish va u bilan ishlash usullaridan farq qiladi.

Kitobning yuqorida qayd etilgan xossalari va funktsiyalari, shuningdek, unga berilgan baholar ahamiyatini inkor etmagan holda funktsional metodning samaradorligi shu bilan chegaralanishini ham tan olish lozim. «Kitob», «kitobat ishi» kabi murakkab, yaxlit, tizimli va ko'p

darajali tuzilmalar ayrim unsurlarining funktsiyalari faqat qayd etiladi. Funktsional yondashuvda kitob haqidagi fanning bosh vazifasi – ijtimoiy borliqning ob'ektiv hodisalari sifatidagi va ilmiy kategoriyalar, ya'ni kitobshunoslikning eng umumiy fundamental tushunchalari sifatidagi kitob va kitobat ishining mohiyati hamda rivojlanish qonuniyatlarini bilish va aniqlash hal qilinmaydi.

3-§. «Kitob» va «kitobat ishi» tushunchalari sistemali yondashuv hamda kitobshunoslikning sistemali-tipologik metodi nuqtai nazaridan

Sistemali yondashuv funktsional yondashuvdan asosan hodisani oddiy tavsiflashdan uni tushuntirishga, uning mohiyati va tuzilishini, tizimlari va jarayonlarini tadqiq qilishga, funktsiyalarni oddiy qayd etishdan ularni aniqlangan mohiyat negizida asoslashga o'tishi bilan ajralib turadi. Tizimlilikni ob'ektiv borliqning, dunyodagi hodisalar rivojlanishi va o'zaro bog'liqligi umumiy aloqasining xossalaridan biri sifatida tushunib etish fan va amaliyot tadrijiy rivojlanishi hozirgi bosqichining o'ziga xos xususiyatidir.

Kitobshunoslikda sistemali yondashuvdan foydalanish o'tgan asr 70-yillarining o'rtalarida S.P.Omilyanchuk va A.A.Belovitskayaning nazariy qarashlarida va A.A.Belovitskaya yaratgan «Umumiy kitobshunoslik» darsligi (1987)ning birinchi nashrida amalga oshirilgan[2]. Darslik amalda kitob va kitobat ishi haqidagi fanning metodologik bo'limi edi. Sistemali yondashuv va tipologik metod nuqtai nazaridan unda ijtimoiy borliqning ob'ektiv hodisasi sifatidagi kitob mohiyatini o'rganish jarayoni va natijalari, uni amalga oshirish, uning harakati, rivojlanishining eng umumiy usullari va shakllari bayon etiladi, shuningdek, kitob haqidagi ilmiy bilim (uning ob'ekti, predmeti, tarkibi, tuzilishi, uni fan sifatida tashkil etish, kitobshunoslikni bilish metodi tizimi) asoslanadi va tizimga solinadi.

Kitobshunoslikning sistemali-tipologik kontseptsiyasi zamirida kitob va kitobat ishi uning mavjudlik usuli sifatida nafaqat o'zicha sistemali, balki rivojlanayotgan umumiy faol tizim – tabiat va jamiyatda ob'ektiv mavjud bo'lgan axborot jarayonining kichik tizimlari ekanligini anglash yotadi.

[2]Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Kniga, 1987. – 256 b.; Taqqoslash uchun: Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. Uchebnik dlya Vuzov.–M.: Kniga, 2007.–268 b.

Hozirgi zamon falsafasi, ijtimoiy fanlari, kitobshunoslik va boshqa bilim sohalari, chunonchi, informatika, semiotika, ommaviy kommunikatsiyalar nazariyasi, fanshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va boshqalarning yutuqlari kitob va kitobat ishi tarkibiy qismi sanalgan materiya shaklini ham, jarayonni ham aytish uchun asos bo'ladi. Bu harakat, ya'ni tabiat va jamiyatda mavjudlik jarayonidagi axborotdir.

Axborot va uning harakat jarayonining birligi haqidagi tezis kitobshunoslik uchun metodologik ahamiyatga ega. Hamonki kitob axborotning jamiyatda mavjudlik shakllaridan biri ekan, uning mavjudlik usulidan tashqarida kitob mavjud bo'lishi mumkin emas. Kitobat ishi kitobning mavjudlik usulidir.

3.1. «Kitob» tushunchasining ta'rifi

«Kitob» va «Kitobat ishi» tushunchalari hozirgi zamon tarixiy-nazariy-madaniy sistemali ilmiy fanda, harakatlanish jarayonidagi kitob haqidagi fan, ya'ni kitob tarixiy shakllarining jamiyatda mavjudligi va rivojlanishi qonunlari haqidagi fan – kitobshunoslikdagi fundamental, muhim tushunchalar hisoblanadi. O'z navbatida, kitobshunoslik madaniyat haqidagi umumiy sistemali fanning tarkibiy qismi, kichik tizimi sifatida qaraladi.

«Madaniyat» kommunikatsiyasi usuli darajasida «Kitob» (bu tushunchaning kategoriya sifatidagi ma'nosida) «adabiyot, musiqa, tasviriy san'at asarini «nashr»ga (asar kontekstini nashr kontekstiga, asar matnini nashr matniga) uyushtirish usuli – bu uyushtirish dialektik birligi jarayoni va uning mahsuli»[3] sifatida tushuniladi. Bunday talqinda «Kitob» tushunchasi nafaqat belgilar sistemalari vositalari, balki ma'lum moddiy vositalar yordamida ham aks ettirilgan har qanday matnni qamrab oladi. Bunda «Matn» «Kontekst»ning namoyon bo'lish va mavjudlik shakli sifatida, sub'ekt (inson, jamiyat)ning ijtimoiy axborot mazmuniga nisbatan munosabatining umumiy ifodasi sifatida, kontekst va matnning dialektik birligi, ya'ni «Til» belgilar sistemasi vositalari bilan aks ettirilgan kontekst, bunday aks ettirish jarayoni va uning oraliq mahsuli, «Asar» sifatida tushuniladi.

Keng ma'noda, nafaqat badiiy adabiyot asari, balki tabiiy, ijtimoiy,

[3]Belovitskaya A.A., Omilyanchuk S.P. K soderjaniyu ponyatiya «sovetskaya kniga» (Kniga v protsesse dvijeniya) G'G' Sovetskaya istoriografiya knigi: Sb. nauchn. tr. – M., 1979. – 123 b.

texnikaviy, tibbiy, qishloq xo'jaligi va hokazolarga oid har qanday ilmiy-axborot, tarmoq adabiyotlari sifatida tushuniladigan adabiy asar mazmun va matn, ya'ni uning belgilardagi ifodasi birligini tashkil etadi. Qo'lyozma kitob yoki bosma kitobni yaratish jarayoni, ya'ni noshirlik jarayonida bu asar o'ziga xos tarzda uyushtirilib, kitob nashrining mazmuni va matniga aylanadi. Bu qayta ishlangan mazmun bilan uni yozma nutq va kitob ishlab chiqarish vositalari yordamida ifodalash belgili shakllarining dialektik birligi kitobat ishida hamda kitob va kitobat ishi haqidagi fanda kitobni tashkil etadi. «Kitob» tushunchasining bu ta'rifi qo'lyozma kitobga nisbatan ham tatbiq etiladi, chunki uning bosma kitobdan farqi faqat shundan iboratki, qo'lyozma kitobning mavjudlik shakli bosma nashr emas, balki qo'lyozma hisoblanadi. Mazkur talqin nuqtai nazaridan kitoblar qatoriga zardushtiylikning muqaddas kitobi – "Avesto" matnlarini ham, miloddan avvalgi II–I asrlarga mansub bo'lgan, parfiyoniy yozuvda bitilgan Nisa yozuv yodgorliklarini ham, milodiy 312–317 yillarga mansub «Eski sug'd xatlari» yodgorliklar majmuasini ham, Mug'qal'adan topilgan milodiy 710–722 yillarga mansub sug'd hujjatlarini ham, Sibir, Mo'g'uliston va Markaziy Osiyoning I-IX asrlarga mansub qadimgi turkiy yozuvi yodgorliklarini ham, Turkiston hududida arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan o'rta asrlar arab yozuvidagi yodgorliklar majmuini ham kiritish mumkin.

Yuqorida keltirilgan ta'rif XX asr oxirida paydo bo'lgan kitobning elektron shakliga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bugungi kunda «kompyuter kommunikatsiyasi», «elektron kitob», «elektron nashr», «gipermatn», «giperkitob», «giperadabiyot», «virtual kitob», «virtual kutubxona», «virtual kitob do'koni» kabi yangi iboralar muomaladan o'rin oldi. «Biroq ularning ortida ziddiyatsiz ma'nolar tizimi ham, hatto to'g'ri belgilangan semantik maydonlar ham mavjud emas, – deb qayd etadi A.A.Belovitskaya. – Kitob mazmunining kitobshunoslikda asoslangan kitobat ishi vositalari bilan aktuallashtirilgan muallifning adabiy, musiqiy, tasviriy asarini kitob nashriga uyushtirish hamda kitob nashrida ifodalangan asarni taqsimlash, qayta taqsimlash va individual, gruppaviy va ijtimoiy ongda ayni shu vositalar yordamida mujassamlashtirish usuli sifatidagi talqini asarning kibermuhitdagi harakatini o'rganish uchun metodologik asos bo'lishi mumkin. Bu erda u muallif asari matnining elektron nusxasi sifatida (har qanday – verbal, audial, vizual

semantik shaklda), odatdagi kitob nashrining elektron nusxasi sifatida (yoki bunday nusxalar kutubxonasi sifatida) mavjud bo'lishi mumkin. Biroq elektron nashr, ya'ni asar ham mavjud bo'lishi mumkin, ayni holda bu faqat kibermuhit uchun yaratilgan, kompyuter texnikasi va texnologiyasi vositalari yordamida elektron nashrga uyushtirilgan va kompyuter orqali idrok etish uchun mo'ljallangan integral audio-video-verbal va hatto semiotik jihatdan murakkabroq asar bo'lishi mumkin. Asarni nashrga uyushtirish mafkurasi kitobshunoslik predmeti doirasida amal qiladi. Boz ustiga, «Elektron kitob», muallif asari (asarlari) matnining elektron nusxalarini elektron kitob nashriga uyushtirish hamda elektron kitob nashrini ayni shu vositalar bilan taqsimlash, qayta taqsimlash va gavdalantirish jarayonlari va natijalarining birligi sifatida, kitobshunoslikning kitob haqidagi fan predmeti doirasida o'rganiladigan qonuniy ob'ektiga aylanishi mumkin»[4].

«Madaniyat» tizimida «Kitob»ning mavjudlik usuli «Nashr» hisoblanadi. U kontekst va matnning ifodalangan, aktuallashtirilgan dialektik birligi, yozuv yoki matbuot asari. «Madaniyat»da amalda mavjud «Kitob» sifatida amal qiladi. «Madaniyat» kommunikatsiya usulidagi «Kitob» harakatining eng umumiy jarayoni – «Kitobat ishi»da «Kitob» mavjudligining moddiy shakllari sifatida «Nashr» shakllari, shu jumladan kitob nashrlari qaraladi.

«Kitob – Kitobat ishi» tizimining mazmuni «Kitob» shaklida mavjud bo'lgan semantik axborot bilan «Kitobat ishi» shaklida mavjud bo'lgan kommunikatsiya jarayonining dialektik birligi sifatida tushuniladi. Binobarin, kitobat ishi «Madaniyat» kommunikatsiya usulida ijtimoiy va semantik axborotning mavjudlik va harakat jarayoni shakli sifatida, ayni vaqtda «Madaniyat»da «Kitob»ning mavjudlik va harakat usuli hamdir. Shu sababli «Kitobat ishi» «Kitob» moddiy shakllarini yaratish va ularning amal qilish jarayoni, bu shakllarning jamiyat, makon va vaqtda mavjudlik va harakatlanish jarayonidir. Ayni shu sababli «Madaniyat» kommunikatsiya usulida «Kitobat ishi» bir-biriga o'tuvchi, bir-birini taqozo etuvchi, «Kitobat ishi»ning «Madaniyat»da mavjudlik usuli hisoblanuvchi kitob ishlab chiqarish, kitobni taqsimlash va kitobni takror

[4]Belovitskaya A.A. Metodologiya knigovedeniya i ee fundamentalno'e zadachi G'G' Materialo' odinnadtsatoy mejdunarodnoy nauchnoy konfe-rentsii po problemam knigovedeniya. T. 1. Sektsiya metodologii i teorii knigovedeniya: Tez. dokladov. - M.: Nauka, 2004. - 17-18-b.

ishlab chiqarish jarayonlarining dialektik birligi sifatida amal qiladi».[5]

Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, kitob – bu bizga sezgi idroki orqali ma'lum bo'ladigan nashr, hayotimizdan mustahkam o'rin olgan, boshqa ko'plab narsalar orasidan biz vizual ajratib oladigan predmet. Biroq biz bu tushunchalar ayniy emasligini, kitob nashri – bu kitobshunoslik fanidagi «Kitob» kategoriyasi mavjudligining moddiy shakli ekanligini yodda tutishimiz lozim. «Kitob» kategoriyasining mazmuni ob'ektiv xossalar, jarayonlar, shakllar va munosabatlar tizimi sifatida eng abstrakt ta'riflardan bu xossalar, jarayonlar, shakllar va munosabatlarning birligini aks ettiruvchi muayyan ta'riflarga. rang-barang ta'riflar sinteziga o'tish orqali yoritiladi. Shu sababli «Kitob» kategoriyasining mazmuni ayrim darajalarning birortasiga ham bog'lanmaydi va faqat ularning tizimli birligida yaxlit ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi endi kitob tushunchasini kitobshunoslik nuqtai nazaridan ta'riflash imkonini beradi. Yana prof. A.A.Belovitskayaning «Umumiy kitobshunoslik» darsligiga murojaat etamiz. Bu erda 161–162 betlarda quyidagi ta'rifni o'qish mumkin:

«Kitob quyidagilar:

- adabiy, musiqiy, tasviriy asarni kitob noshirligi ishi bilan ob'ektivlashgan va noshirlik-tahrir jarayonlarida moddiylashgan kitob ishlab chiqarish vositalari yordamida kitob nashriga uyushtirish usuli;

- bu asarning ijtimoiy ongda mavjudlik shaklini kitob nashrida aks ettirish va taqsimlash, ya'ni kitob nashrining tirajini jamiyatda kitob savdosi va kutubxonachilik ishi bilan ob'ektivlashgan va kitob savdosi va kutubxonachilik jarayonlarida moddiylashgan vositalari yordamida taqsimlash usuli;

- adabiy, musiqiy, tasviriy asarning kitob nashri bilan o'zgartirilgan mavjudlik shaklini bibliografiya ishi bilan ob'ektivlashgan va bibliografiya jarayonlarida moddiylashgan kitobni takror ishlab chiqarish vositalari orqali ijtimoiy ongda gavdalantirish usulining kitobat ishi bilan aktuallashtirilgan dialektik birligini ifodalash uchun mo'ljallangan kitobshunoslik kategoriyasidir»[6].

---

[5]Belovitskaf A.A. Ponyatiya «Kniga» i «Knijnoe delo» v sovremennom knigovedeniiG'G'Tretya Vsesoyuznaya nauchnaya konferentsiya po problemam knigovedeniya. Sektsiya obhix problem knigovedeniya: Tez.dokladov. –M.,1977. –S.17.

[6]Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Kniga, 1987. – 161-162-b.

«"Kitob" ilmiy kategoriyasi» – «kitob nashri» - «biron-bir kitob tirajining bir qismi sifatidagi kitob nashrining muayyan nusxasi» tushunchalarining o'zaro nisbati botanika sohasidagi quyidagi tushunchalarning o'zaro nisbatini eslatadi: «biron-bir daraxtning mevasi, ya'ni so'zning o'z ma'nosidagi meva» - «olma daraxtining mevasi, ya'ni olmalar» - «muayyan olma daraxtining muayyan mevalari yoki olmalari yoki muayyan olma daraxtining muayyan yildagi butun hosili».

3.2. Fan sifatidagi kitobshunoslik ob'ekti va predmeti

Fan sifatidagi kitobshunoslik – «ijtimoiy borliqning ob'ektiv hodisasi sifatidagi kitob, chunonchi: kitobning tabiati va mohiyati, uning mavjudligi, harakati, rivojlanishi va faoliyatining mantiqiy va tarixiy shakllari, jarayonlari va qonuniyatlari haqidagi tizimga solingan ilmiy bilim; kitob haqida yangi bilim olish metodi; kitobni bilish natijalarini yo kitobshunoslik sohasidagi bilimning nazariy komponentlari va elementlari (kategoriyalar, tushunchalar, ta'riflar, mushohadalar, kontseptlar, kontseptsiyalar, nazariyalar)ga, yo nazariy jihatdan ishlab chiqilgan qoidalar, usullar, taomillarga uyushtirish usuli – ya'ni kitobat ishining u yoki bu jabhasidagi kitobshunoslik (kitob noshirligi, kitob savdosi, kutubxonachilik, bibliografiya) faoliyatining metodikalari»[7].

Umumiy kitobshunoslikning maxsus ilmiy metodologiya sifatidagi maqomi shunday nazariy masalalar doirasini belgilab beradiki, ularni echish kitobshunoslik bilimining mazkur nisbatan mustaqil kichik tizimining mazmunini tashkil etadi:

- ijtimoiy borliqning ob'ektiv hodisasi sifatidagi kitobning, shuningdek kitobning mavjudlik usuli sifatidagi kitobat ishining yuzaga kelishi, rivojlanishi va mavjudlik usullari (ya'ni jarayonlari va shakllari) ning mohiyatini va eng umumiy mantiqiy va tarixiy qonuniyatlarini aniqlash va o'rganish;
- kitobshunoslik bilimi tarixiy jarayonini tadqiq etish va uning yuzaga kelish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish;
- kitobshunoslik bilimining ob'ekti, predmeti, tuzilishi, fanlararo va fan doirasidagi aloqalarini asoslash;

[7]Belovitskaya A.A. Metodologiya knigovedeniya i ee fundamentalno'e zadachi G'G' Materialo' odinnadtsatoy mejdunarodnoy nauchnoy konfe-rentsii po problemam knigovedeniya. T. 1. Sektsiya metodologii i teorii knigovedeniya: Tez. dokladov. – M.: Nauka, 2004. – 16-b.

- kitobshunoslik bilimi metodi nazariyasini ishlab chiqish va izchil bayon etish;

- kitobshunoslikning kategoriyalar va tushunchalar apparatini ishlab chiqish va tizimga solish;

- kitob nashrlarining maxsus-kitobshunoslik va ayrim fanga doir tipologiyasi va tasnifining metodologik asosi sifatidagi kitob tipologiyasini ishlab chiqish;

- kitobshunoslik fanida ilmiy bilishning umumiy printsiplari: ob'ektivlik, aks ettirish va rivojlanish, sistemalilik, nazariya va amaliyot birligi, shuningdek tarixiy va mantiqiy yondashuvni talqin qilish;

- kitobshunoslikning boshqa ilmiy fanlar bilan o'zaro aloqalari mohiyati va shakllarini o'rganish;

- kitobat ishi amaliyoti hamda kitobning jamiyatda amal qilishi jarayonlarini boshqarishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish.

Sanab o'tilgan muammolar umumiy kitobshunoslik predmetining tizimini ancha to'liq ifoda etadi. Uni umumiy tarzda kitob umumiy nazariyasi va u haqdagi ilmiy bilim umumiy nazariyasini ishlab chiqish va izchil bayon etish deb ta'riflash mumkin[8].

Umumiy kitobshunoslikning ob'ekti – «kitobat ishida kitob» ko'p darajali tizimining nazariy modeli. Prof. A.A.Belovitskaya kitob va kitobat ishi haqidagi fanning ob'ektlar sohasini tahlil qilar ekan, shunday deb yozadi: «...maxsus-kitobshunoslik bilimi ob'ektining tarkibiga kitobshunoslik sohasidagi amaliy faoliyatning tegishli turi – kitob noshirligi, kitob savdosi, kutubxonachilik, bibliografiya faoliyatining modeli kiritiladi, zero kitob shakllari va uning ayrim fan ob'ektlari sohasida mavjudlik usuli shakllari darajasida kitob nashri tarzidagi haqiqiy kitob va uning mavjudlik shakllari amal qiladi. Amaliy kitobshunoslik faoliyati uni yaratish, kitob savdosi va kutubxonachilik ishi vositalari bilan bibliografiyalash, tarqatish, taqsimlash va qayta taqsimlashga qaratilgan»[9].

Kitob nashri, noshirlik-tahrir jarayonlarida kitob kichik shakllarining izchil rivojlanishi mahsuli sifatida, kitob noshirligi ishidagi haqiqiy kitob, bu kichik shakllarning o'zi – adabiy (musiqiy, tasviriy) asarni kitob nashriga uyushtirish jarayonining oraliq mahsullari, bu asar

[8]Qarang: Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Kniga, 1987. – 8-9-b.
[9]Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Kniga, 1987. – 172-173-b.

mazmuni va shaklini noshirlik-tahrir faoliyati vositalari yordamida aks ettirish bosqichlari. darajalari.

Kitobshunoslik bilimi boshqa barcha sohalari ob'ektining tarkibi va tuzilishi ham shunga o'xshash printsipga binoan tashkil etiladi. Ularda ob'ekt yaxlitlik sifatida quyidagilarni hisobga olgan holda tuziladi:

- kitob savdosida kitobning eng umumiy shakli – kitob savdosi faoliyatining ob'ekti sifatidagi kitob savdosi assortimenti;

- kutubxonachilik ishida kitobning eng umumiy shakli – kutubxonachilik faoliyati ob'ekti sifatidagi kutubxona fondi;

- bibliografiya ishida kitobning eng umumiy shakli – bibliografiya faoliyati ob'ekti sifatidagi kitob nashri.

Ko'rsatilgan kitob shakllaridan hir birining yaxlitligi kitobat ishining tegishli jarayonida uning kitob savdosi, kutubxonachilik, bibliografiya ishining muayyan jarayonlaridagi kichik shakllari va ularning o'zaro aloqalari, bir-biriga o'tishining dialektik birligi bilan belgilanadi.

Prof. A.A.Belovitskaya ta'kidlaganidek, «umuman olganda, "kitobat ishida kitob" kitobshunoslik bilimi har bir sohasining ob'ekti hisoblanadi, biroq yaxlit holda emas, balki bu yaxlitlikning namoyon bo'lish shakllaridan birida (kichik shakllar tizimida).

Ilmiy kitobshunoslik bilimi ob'ektining tarkibi va tuzilishi umuman olganda «harakatlanish jarayonidagi kitob» bosqichlarining ketma-ketligini, ijtimoiy borliqning bu ob'ektiv hodisasi tarkibiy qismlari va ichki darajalarini aks ettiradi.

Harakatlanish jarayonidagi, shu jumladan kitobat ishidagi kitobning nazariy modeli – umumiy kitobshunoslik ob'ekti. U ob'ekt haqidagi bilimda kitobni «Ong» kommunikatsiya jarayonining boshqa kichik tizimlari bilan, binobarin, o'z ob'ektini – boshqa ilmiy fanlarning ob'ektlari bilan taqqoslaydi.

Kitobat ishidagi kitobning, so'zning o'z ma'nosidagi kitobning, uning shakllari va harakat jarayonlari, ya'ni kitobat ishi shakllari darajasidagi kitobning nazariy modeli maxsus ilmiy kitobshunoslik bilimining ob'ektidir.

Kitobat ishining u yoki bu sohasidagi muayyan jarayonlarda kitob muayyan shakllarining nazariy modeli – muayyan ilmiy kitobshunoslik, kitob noshirligi, kitob savdosi, bibliografiya, kutubxonachilik bilimining

ob'ekti.

Harakatlanish jarayonidagi kitob haqidagi fan sifatidagi kitobshunoslik ob'ekti darajasida umumiy kitobshunoslik ob'ekti kitobshunoslikdagi umumiy bilimning in'ikosidir; maxsus kitobshunoslik bilimining ob'ekti kitobshunoslikdagi maxsus bilimlar in'ikosidir; ayrim ilmiy kitobshunoslik bilimining ob'ekti kitobshunoslikdagi ayrim bilimlar in'ikosidir.

Shunday qilib, kitobshunoslik ilmiy bilimi ob'ektining tarkibiy darajalari kitobning umumiy, maxsus va ayrim nashr sifatida aks etish darajalariga mos keladi».[10]

Savollar va topshiriqlar:

1. "Kitob" tushunchasi oddiy ong nuqtai nazaridan.
2. "Kitob" va "Kitobat ishi" ilmiy nazariy ong nuqtai nazaridan.

4-§. Kitob va kitobat ishi tarixi kitobshunoslik tarixiy-tipologik tadqiqotining ob'ekti va predmeti sifatida

Kitobning mavjudlik, harakatlanish va rivojlanish usuli, ma'naviy madaniyat kichik tizimi, ma'naviy ishlab chiqarish tarmog'i va nisbatan mustaqil kitob kichik tizimi sifatida kitobat ishi quyidagi darajalardan tarkib topishi mumkin:

Kitobat ishi (kitobning mavjudlik usuli) -

Kitob ishlab chiqarish Kitobni taqsimlash Kitobni takror ishlab chiqarish (kitobat ishining mavjudlik shakli) -

Kitob noshirligi Kitob savdosi Kutubxonachilik ishi Bibliografiya ishi (kitob ishlab chiqarish, kitobni taqsimlash va kitobni takror ishlab chiqarish jarayonlari mavjudligining zamonaviy shakllari)

Kitob ishlab chiqarish, kitobni taqsimlash va kitobni takror ishlab chiqarish jarayonlari o'z ichki darajalarida tegishli ravishda kitob noshirligi, kitob savdosi, kutubxonachilik va bibliografiya ishi bilan ob'ektivlashadi va kitob noshirligi, kitob savdosi, kutubxonachilik va bibliografiya ishi jarayonlarida moddiylashadi1. Kitobat ishida kitobning eng umumiy shakli harakatlanish jarayonidagi kitob nashri, bu harakat mavjudligining eng umumiy shakli esa kitob ishlab chiqarish – kitobni taqsimlash – kitobni takror ishlab chiqarish bo'lsa, kitobat ishi

[10]Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Knig[illegible]. 1987. – S. 1748-175.

TEXNOLOGIYALAR
№ 41557 6

mavjudligining bu jarayonlarida kitobning eng umumiy shakli adabiy, musiqiy, tasviriy asarlarni kitob nashrlariga uyushtirish va bu kitob nashrlarini kitobni taqsimlash va kitobni takror ishlab chiqarish vositalari bilan aks ettirish usullarining kitob ishlab chiqarish vositalari bilan aktuallashtirilgan majmui sifatida tushuniladigan kitob repertuaridir[11].

Kitob tarixi – «Kitob» rivojlanishining tarixiy qonunlari va uning «Kitobat ishi» tizimida mavjudligining muayyan tarixiy shakllari haqidagi, demak, «Madaniyat» tizimida «Kitobat ishi»ning rivojlanish qonunlari haqidagi fan. Tarixiy-madaniy tizimli fan sifatida kitob tarixi borliqning ob'ektiv hodisasi sifatidagi «Kitob»ning vujudga kelish va harakatlanish qonuniyatlarini, «Kitob» muayyan tarixiy shakllarining yuzaga kelish va rivojlanish qonuniyatlarini, «Kitob»ning mavjudlik va harakatlanish usuli sifatidagi «Kitobat ishi» rivojlanishining tarixiy qonuniyatlarini, mazkur usulning jamiyatda rivojlanishi muayyan shakllarini aniqlaydi va o'rganadi. Kitob tarixi ob'ekti va predmetining tarkibiga «Kitob – Kitobat ishi» tizimining yuzaga kelishi, mavjudligi va tadrijiy rivojlanishi tarixi, uning tarixiy rivojlanishi umumiy qonunlari, bu qonunlarning borliqda namoyon bo'lish shakllari va usullari; mazkur tizim rivojlanishining tarixiy shakllari, ularning ob'ektiv tarixiy mazmunini, mazkur tizim elementlarining xossalari va munosabatlarini aniqlash, bir shakldan boshqa shaklga o'tish jarayonlari, bu o'tish qonunlari; kitob va kitobat ishining tashqi, moddiy shakllari, ya'ni har xil yozuv tizimlari va yozuv madaniyati rivojlanishning tarixiy qonuniyatlari, qo'lyozma kitoblarning tarqalish tarixi, kitob nashr etish va kitob repertuari tarixi, kitob noshirligi, kitob savdosi, kutubxonachilik, bibliografiya ishi rivojlanishining tarixiy qonuniyatlari, ularning amalda mavjudlik shakllari kabi masalalarni o'rganish kiradi[12].

Kitob tarixi va kitob noshirligi, kitob savdosi, kutubxonachilik, bibliografiya ishi tarixining ob'ekti va predmeti sohasini tarixiy-kitobiy bilimni ifodalashning quyidagi o'zaro bog'langan shakllari tashkil etadi:

Kitob noshirligi va noshirlik-tahrir ishida kitob tarixi:

- kitobat ishida kitob ishlab chiqarish shakli sifatidagi kitob noshirligi ishi shakllarining vujudga kelish, rivojlanish va o'zgarish

[11]Qarang: Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Kniga, 1987. – 155-b.

[12]Qarang: Omilyanchuk S.P. Tipologicheskiy podxod k istorii knigi G'G' Tretya Vsesoyuznaya nauchnaya konferentsiya po problemam knigovedeniya. Sektsiya obhix problem knigovedeniya: Tez. dokladov. – M., 1977. – 18-23-b.:

jarayonlarini tarixiy o'rganish, shuningdek kitob noshirligi repertuari mavjudligining tarixiy shakllarini kitobat ishida kitob rivojlanishining tarixiy qonuniyatlari haqidagi umumiy kitobshunoslik tasavvuri asosida tadqiq qilish;

- kitob noshirligi ishi shakllari va kitob noshirligi repertuari, noshirlik-tahrir ishi va undagi kitob nashri shakllarining vujudga kelish, rivojlanish va o'zgarish shakllarining tarixiy qonuniyatlarini aniqlash va asoslash.

Kitob savdosida kitob tarixi va kitob savdosi tarixi:

- kitobat ishida kitobni taqsimlash shakli sifatidagi va kitob savdosi assortimentining mavjudlik usuli sifatidagi kitob savdosi shakllarining vujudga kelishi, rivojlanishi va o'zgarishini tarixiy o'rganish;

- kitob savdosi assortimentining mavjudlik shakllarini kitobat ishida kitobning rivojlanishi tarixiy qonuniyatlari haqidagi umumiy kitobshunoslik tasavvuri asosida tarixiy tadqiq qilish;

- kitob savdosi shakllari va kitob savdosi assortimentining vujudga kelish, rivojlanish va o'zgarish tarixiy qonuniyatlarini aniqlash va asoslash.

Kutubxonachilik ishida kitob tarixi va kutubxonachilik ishi tarixi:

- kitobat ishida kitobni taqsimlash shakli va kutubxonachilik fondining mavjudlik usuli sifatidagi kutubxonachilik ishining vujudga kelishi, rivojlanishi va o'zgarishini tarixiy o'rganish;

- kutubxonachilik fondining tarixiy shakllarini kitobat ishida kitob rivojlanishining tarixiy qonuniyatlari haqidagi umumiy kitobshunoslik tasavvuri asosida tadqiq qilish;

- kutubxonachilik ishi va kutubxonachilik fondi shakllarining vujudga kelish, rivojlanish va o'zgarish tarixiy qonuniyatlarini aniqlash va asoslash.

Bibliografiya ishida kitob tarixi va bibliografiya tarixi:

- kitobni bibliografiya vositalari bilan takror ishlab chiqarish shakli va bibliografiya axborotining mavjudlik usuli sifatidagi bibliografiya ishi shakllarining vujudga kelishi, rivojlanishi va o'zgarishini tarixiy o'rganish;

- bibliografik axborot mavjudligining tarixiy shakllarini kitobat ishida kitob rivojlanishining tarixiy qonuniyatlari haqidagi umumiy kitobshunoslik tasavvurlari asosida tadqiq qilish;

- bibliografiya ishi va bibliografik axborot shakllarining vujudga kelish, rivojlanish va o'zgarish tarixiy qonuniyatlarini aniqlash va asoslash[13].

Kitob ishi madaniyat tarixining bir qismi sifatida murakkab, tizimli fandir. Harakatlanish jarayonidagi kitob haqidagi fan kabi, kitob tarixining ham tizimliligi kitobning tarixiy rivojlanish masalalarini o'rganishda kitobga har xil nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi. Bu kitob ishlab chiqarish, uni jamiyatda taqsimlash, saqlash va undan foydalanish, kitobxonlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olish muammolari. Bu jamiyat, fan, madaniyat, ijtimoiy tafakkurning rivojlanishiga kitobning ta'siri omillari, jamiyatda kitobning o'z mafkuraviy, siyosiy, ma'rifiy, tarbiyaviy, estetik funktsiyalarini bajarishi va h.k.

Kitob tarixi, umumiy tarixga, madaniyat, adabiyot, fan va texnika tarixiga tayanib, yozuv hamda qo'lyozma va bosma kitoblarni ko'paytirishning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, kishilik jamiyati rivojlanishining turli bosqichlarida kitob va kitobat ishining rolini aniqlash bilan shug'ullanadi. Bunda muhim vazifalardan biri kitobning u yoki bu davrdagi ijtimoiy vazifasini, uning roli va ahamiyatidagi o'zgarishlarni, kitobning mafkura, ijtimoiy, ilmiy va madaniy taraqqiyot quroli sifatidagi asosiy funktsiyalarini aniqlashdan iborat.

Savollar va topshiriqlar:

1. "Kitob tarixi" fanining ob'ekti va predmetini ta'riflab bering.

5-§. Kitob va kitobat ishining rivojlanish qonuniyatlari

Insoniyat kitobat madaniyatining ko'p asrlik tarixi kitob va kitobat ishining tarixiy rivojlanish jarayonida namoyon bo'luvchi ma'lum qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi. Hamonki kitob tarixi tarixiy fan, madaniyat tarixining tarkibiy qismlaridan biri ekan, tarixiy fanlarga xos bo'lgan barcha qonuniyatlar kitob tarixiga ham xosdir. Jamiyat tarixidagi o'zgarishlar doim kitobat ishi sohasida tub o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Masalan, Turkiston arablar tomonidan istilo qilinishi, quldorlik ishlab chiqarish munosabatlariga qaraganda ilg'orroq feodal munosabatlarga o'tilishi, Turkiston xalqlari islom madaniy dunyosiga va arab tili va yozuvidan foydalangan mamlakatlarning ilmiy, siyosiy va madaniy

[13]Qarang: Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Kniga, 1987. – 196-202-b.

vorisiylik jarayoniga qo'shilishi bilan bu katta mintaqa kitobat ishidagi muhim o'zgarishlar bog'liq.

Umumiy qonuniyatlar bilan bir qatorda, faqat kitob tarixiga xos bo'lgan qonuniyatlar ham mavjud. Masalan, qo'lyozma kitob shakli va tashqi ko'rinishining yozuv asarlarini yaratishda foydalanilgan ishlab chiqarish kuchlari, qurollari va materiallarining rivojlanish darajasiga bog'liqligi aniq-ravshan ko'rinib turadi (sopol bo'laklari, toshlardagi bitiklar, papirus va pergament o'ramlari, «taxtachalar», qog'oz kitob-kodeks (qo'lyozma va bosma) va nihoyat, bugungi kunda elektron kitob).

Kitob mavzusi va mazmuni ijtimoiy tafakkur, fan, madaniyat, texnika, hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivojlanish darajasi va ijtimoiy ehtiyojlar bilan ham belgilanadi. Kitob rivojlanishining asar janri va kitob tipining o'zaro aloqasi, kitob tipining asar janriga bog'liqligi kabi qonuniyatlari ham bo'rtib ko'rinadi.

Kitob tarixida shunday bir tarixiy qonuniyat – bilim va adabiy-badiiy kitobning turli tarmoqlarida kitobning notekis rivojlanishi kuzatiladi. Bu holat bilim tarmoqlari, ishlab chiqarish, tabiiy, texnika va ijtimoiy fanlar, jamiyatning notekis rivojlanishi bilan belgilanadi. Masalan, X–XIII asrlarda Turkistonda kitobat ishining yuksalish davrida o'sha davrda muomalada bo'lgan kitoblarning umumiy miqdorida ko'p ko'paytirilishi va ulushiga ko'ra diniy va ilohiyotga doir adabiyotlar va musulmonlarning muqaddas kitobi - Qur'on birinchi o'rinda, tabiiy ilmiy va ijtimoiy kitob ikkinchi o'rinda, adabiy-badiiy kitob uchinchi o'rinda turgan. XIV—XIX asrlarda vaziyat o'zgaradi - diniy va ilohiyotga doir adabiyotlardan keyin ikkinchi o'ringa adabiy-badiiy kitobning rang-barang turlari chiqadi, tabiiy ilmiy va ijtimoiy kitoblar esa uchinchi va to'rtinchi o'rinlarga tushadi.

Sho'ro davrida kitobning ichki bezagi va tashqi ko'rinishi, matn tuzilishi va ruknlarga ajratish, noshirlik-tahrir jarayonlari, universal va ixtisoslashgan nashriyotlar, kutubxonalar, kitob savdosi korxonalari tizimi, bibliografiya faoliyati jarayonlarini yo'lga qo'yishda jahon andozalariga o'tilishi muhim qonuniyat hisoblanadi.

Qadimiyatdan o'rta asrlarga, zardushtiylik madaniyat tipidan islom madaniyat tipiga o'tish tarixiy jarayonida yozuv madaniyati va kitobat ishi an'analarining vorisiyligi Turon-Turkiston kitobi tarixining o'ziga xos qonuniyatlaridan biridir.

Milliy kitob tarixining yana bir qonuniyati – kitobat ishida arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozma kitoblarning birgalikda mavjudligi va muvoziy rivojlanishi, shuningdek Turkiston milliy kitobat ishining tarixiy tadrijiy rivojlanishi jarayonida arab, fors va turkiy kitobat madaniyatlari elementlarining integratsiyalashuvi va tabaqalanishi ham aniq-ravshan ko'zga tashlanadiki, bu Turkiston milliy madaniyati bo'lingunga qadar uch o'zakli asosga ega bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Savollar va topshiriqlar:

1. Uitob va kitobat ishining tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini sanab bering.

6-§. Kitob va kitobat ishi tarixini tadqiq qilish printsiplari va metodlari

Fanda metod tadqiqot maqsadiga bo'ysundirilgan harakatlar va mushohadalar majmui, ularning ketma-ketligidir. Metodlar tadqiqotchining umumiy dunyoqarashini, uning mavjud borliqni bilish darajasini, nihoyat, o'rganish predmetining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Nazariyalar, gipotezalar, maktab va ta'limotlar son-sanoqsiz bo'lganidek, metodlar soni cheksizdir. Shunday bir metodlar ierarxiyasi vujudga keldiki, ularning zamirida bilishning umumiy metodi, so'ngra fundamental fanlarning metodlari va nihoyat, maxsus fanlarning muayyan maxsus metodlari yotadi.

«Kitob – Kitobat ishi» tizimi tarixiy rivojlanish jarayonlarini, kitob va kitobat ishining barcha hodisalarini bevosita mavjud holda ham, kitob tarixi, kitobshunoslik va boshqa ijtimoiy va filologik fanlar, kitobshunoslik faoliyatining barcha turlari (noshirlik-tahrir, kitob savdosi, bibliografiya, kutubxonachilik) jamlagan tayyor bilim yoki uning elementlari ko'rinishida ham ilmiy o'rganish, ijtimoiy borliqning murakkab hodisasi – kitob kitobat ishi bilan dialektik birlikda va «Kitob tarixi» fanining ob'ektlar sohasi sifatidagi «kitobat ishida kitob» tizimli hodisasining shakllanish va tadrijiy rivojlanish tarixining ko'p darajaliligi va ko'p tarkibliligi tadqiqotchidan muqarrar tarzda maxsus kitobshunoslik va kitob tarixi metodlari majmuidan ham, boshqa, kitobshunoslik va kitob tarixi bilan turdosh fanlar metodologiyasida yaratilgan metodlardan ham foydalanish va ularni kitob tarixi ob'ekti va predmetiga nisbatan tatbiq

etishni taqozo qiladi. Kitob tarixi va kitobat ishi hodisalariga nisbatan yondashishda, tarixiy faktlarni anglab etish va talqin qilishda, ularni analiz va sintez qilishda ilmiy ob'ektivlik, tarixiylik va tizimlilik muhim printsiplar hisoblanadi.

Kitob tarixini o'rganishda empirik bilishning kuzatish va taqqoslash kabi metodlari, empirik va nazariy darajalarda foydalaniladigan metodlar: analiz va sintez[14], induktsiya[15] va deduktsiya[16], modellashtirish[17], abstraktlashtirish[18], bavosita ifodalash[19], umumlashtirish[20] hamda nazariy tadqiqot metodlari: abstraktdan muayyanga sari yuksalish, ideallashtirish – ideal ob'ektlarni fikran gavdalantirish qo'llaniladi. Dialektika borliq va bilishning shakllanishi, rivojlanishi va umumiy qonuniy aloqalari haqidagi ta'limot sifatida, bilishning tabiati, bilim va borliqning munosabatlari, bilishning umumiy omillari muammolarini o'rganadi, har qanday tadqiqotchining tafakkurini bilishning umumiy falsafiy usuli va printsiplari, ya'ni dialektika metodi bilan boyitadi[21]. Ilmiy bilishning umumiy metodlari, maxsus ilmiy metodlar tizimi va ayrim fan metodlari zamirida bilishning falsafiy usuli va printsiplarini tushunish va qo'llash yotadi[22]. Bizni qiziqtirayotgan bilim sohasi, ya'ni kitob tarixi predmetida dialektika metodi, shuningdek tarixiy fan universal metodlari tizimining talablari va printsiplari kitobning mavjudlik, harakatlanish va rivojlanish tabiati, mohiyati, jarayonlari va oraliq shakllari, fan sifatidagi kitob tarixining ob'ekti va predmeti bilan bog'lanadi va o'z ko'rinishini o'zgartirib, kitob tarixi va kitobat ishini o'rganish metodlarining talablari va printsiplariga aylanadi.

---

[14]Qarang: Filosofskiy slovar G' Pod red. I.P.Frolova. – 5-e izd. M.: Politizdat, 1987. – 15-16-b.

[15]O'sha erda. – 165-166-b.

[16]O'sha erda. – 110-b.

[17]O'sha erda. – 289-290-b.

[18]Qarang: Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar. – M.: Mo'sl, 1983. – 6-7-b.

[19]O'sha erda. – 446-b.

[20]Masalan, qarang: Kopnin P.V. Dialektika kak teoriya i logika poznaniya. – M., 1973. – 202 b.; Kumpf F.F., Orudjev Z. Dialekticheskaya logika: Osnovno'e printsipo' i problemo'. M.: Politizdat, 1979. – 286 b.; Sheptulin A.P. Dialekticheskiy metod poznaniya. M.: 1983. – 268 b.

[21]O'sha erda. – 289-290-b.

[22]Masalan, qarang: Rakitov A.I. Istoricheskoe poznanie: Sistemno-gnoseologicheskiy podxod. – M.: Politizdat, 1982. – 30 b.

Kitob tarixi va kitobat ishi hodisalariga nisbatan tatbiq etish nuqtai nazaridan kitobshunoslik metodologiyasida ishlab chiqilgan tipologik metod yoki tiplashtirish metodi nazariyasi va tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Tiplashtirish jarayoni yoki tipologik metod bu «o'rganilayotgan hodisani aniq aks ettirish maqsadida fikrlashning asosiy taomillari (abstraktlashtirish, bavosita ifodalash, umumlashtirish)dan foydalanuvchi ilmiy fikrlashning ko'p bosqichli usuli»[23]. Ob'ektni tashkil etishning umumiy, maxsus va ayrim darajalariga va bilimni tashkil etishning shunga o'xshash darajalariga muvofiq kitobshunoslikning tipologik metodi o'z mavjudligining umumiy kitobshunoslik tipologik, maxsus kitobshunoslik tipologik (kitob noshirligi tipologik, kitob savdosi tipologik, kutubxonachilik tipologik, bibliografiya tipologik) metodi, ayrim fan tipologik (tarixiy-kitob noshirligishunoslik, tarixiy-bibliopolistik[24] tipologik, tarixiy-kutubxonashunoslik tipologik, tarixiy-bibliografiyashunoslik tipologik) metodlari kabi darajalarining dialektik birligida mavjud bo'ladi[25]. Biroq kitobshunoslik tipologik metodi mavjudlik darajalarining bu ierarxiyasi bilan uning tizimi va bilish imkoniyatlari cheklanmaydi. Tadqiqotchi qo'yilgan maqsadga muvofiq olishni ko'zlagan bilimlarni tipologik metodning o'zi uning yuqorida aytib o'tilgan mavjudlik darajalarining har birida yana bir jihatdan tiplashtiradi. Tipologik metod o'z mavjudligining tarixiy-tipologik kitobshunoslik metodi va mantiqiy-tipologik metod kabi umumiy shakllarining dialektik birligi hisoblanadi.

Ularning o'xshashligi va farqlari ilmiy bilishda tarixiylik va mantiqiylikning dialektikasini aks ettiradi. Uning mohiyati tarixiylik va mantiqiylikning birligi printsipida ifodalanadi: «Tarixiy yondashuv nafaqat o'rganilayotgan hodisani bilishda aks ettirishni, balki bir-birining o'rniga keluvchi hodisalar, ob'ekt shakllanishi va rivojlanishining bir bosqichidan boshqa bosqichiga o'tishni belgilovchi qonunlar o'rtasidagi muhim aloqalarni aniqlashni ham nazarda tutadi; shu sababli dialektik metoddagi tarixiylik mantiqiylikni istisno etmaydi, balki u bilan uyg'un aloqada bo'ladi. Bu erda tarixiylik tasodiflardan xoli, tarixiy jarayon qonuniga muvofiq to'g'rilangan o'rinishda amal qiladi. U o'rganilayotgan ob'ektning shakllanish va rivojlanish jarayonida namoyon bo'lgan muhim

[23]Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Kniga, 1987. – 227-b.
[24]Bibliopolistika – kitob savdosi haqidagi bilimlar tizimi.
[25]Qarang: Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Kniga, 1987. – 231-b.

aloqalar va munosabatlarni aks ettiruvchi mantiqiylik harakatining shakli hisoblanadi»[26]. Tipologik metodning tarixiy-tipologik va mantiqiy-tipologik kichik tizimlari o'z navbatida tiplashtirish jarayonining izchilligiga qarab o'z turlari ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin: «komponent-tipologik metod, funktsional-tipologik metod. Ularning har biri kitobshunoslik hodisasi tarkibi, tuzilishi va funktsiyalarining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi o'rganilgan va bayon etilgan holda o'zining tarixiy jihatida amal qiladi, kitobshunoslik hodisasining mavjudlik mohiyati, usuli va shakllari, uning tarkibi, tuzilishi va funktsiyalarining nazariyasi ishlab chiqilgan va bayon etilgan taqdirda esa o'z mantiqiy jihatidan amal qiladi. Har qanday muayyan va yaxlit kitobshunoslik tadqiqotida tipologik metodning tarixiy va mantiqiy jihatlaridan odatda parallel foydalaniladi...»[27].

Kitob (qo'lyozma va bosma kitob) tarixi va kitobat ishini o'rganishda tadqiqotlarning ayrim fan darajalarida kitob tarixi bilan turdosh fanlarning metodlaridan foydalaniladi. Ular faktologik materialni qidirib topish, qayd etish, yig'ish va dastlabki tarzda qayta ishlash, kelgusida tarixiy-kitobshunoslik sikli mazkur fanining predmetida va uning vositalari bilan anglab etish, umumlashtirish, analiz va sintez qilish uchun oraliq xulosalarni tayyorlash uchun jalb qilinadi. Bular adabiyotshunoslik, matnshunoslik, lingvistika, grammatologiya (yozuv tarixi va nazariyasi), adabiyot tarixi, adabiy manbashunoslik, madaniyat tarixi, madaniyatshunoslik, san'atshunoslik, fanshunoslik, fan va texnika tarixi, kodikologiya, tahrir nazariyasi va amaliyoti kabi barqaror fanlar, shuningdek yordamchi tarixiy fanlar: manbashunoslik, paleografiya, tarixiy dastxatshunoslik, statistika metodlaridir. Kitob tarixi ob'ekti va predmetiga qo'shilish va uning tarkibiy qismiga aylanish uchun turdosh fanlarning «begona metod» bilan topilgan «begona faktlari», shuningdek ilmiy ma'lumotlar va tayyor fragmentlar tadqiqotchining tafakkurida umumiy kitobshunoslik nuqtai nazaridan va kitob tarixi nuqtai nazaridan qayta anglab etish, analiz va sintez, abstraktlashtirish, bavosita ifodalash va umumlashtirishning barcha izchil bosqichlaridan o'tishi, ya'ni tarixiy-kitobshunoslik metodi tizimining vositalari yordamida tiplashtirilishi lozim.

Masalan, paleografik, kodikologik, manbashunoslik, san'atshunoslik va dastxatshunoslik analiz metodlari yordamida muayy-

[26]Sheptulin A.P. Dialekticheskiy metod poznaniya. – M.: Mo'sl, 1983. – 191-b.
[27]Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Kniga, 1987. – 232-233-b.

an kitoblar guruhi yoki kollektsiyasini tekshirish amalga oshiriladi, kitoblar guruhi va har bir kitobning kelib chiqish holatlari va tarixiy tafsilotlari aniqlanadi, kollektsiya egalari, kitob mualliflari, ularni yaratishga hissa qo'shgan xattotlar, musavvirlar va boshqa ustalar haqidagi ma'lumotlar qidiriladi. Kitob haqida umumiy tasavvur hosil qilishga uning tashqi bezagi, dastxat uslubi va shrift uslubi xususiyatlari, kitob belgilari, muhrlar, kitob egasining bitik va belgilari (ekslibrislar) yordam beradi. Tarixiy-kitobshunoslik analizi jarayonida adabiyot va san'at, fan va texnika tarixi, shuningdek paleografiya, matnshunoslik, tarixiy dastxatshunoslik, arxeografiya, bibliografiya usullari va metodlaridan foydalaniladi. Ma'lum davr kitoblarining repertuarini tashkil etuvchi qo'lyozma va bosma nashrlar haqidagi bibliografik ma'lumotlarni yig'ish, tizimga solish va taqqoslashga asoslangan bibliografik metod kitoblarning miqdor ko'rsatkichlarini ham, ularning tematik va tipologik belgisi, hajmi, bichimi, tashqi ko'rinishi, tiraji va hokazolar bo'yicha o'zaro nisbatining tavsifini ham tahlil qilish imkonini beradi.

Kitob va kitobat ishi tarixini faqat madaniyat tarixi, shu jumladan adabiyot tarixi, fan tarixi, texnika tarixi, san'at tarixi kabi fanlar bilan uzviy aloqada o'rganish mumkin. Kitob tarixini o'rganishda bu fanlarning yutuqlari va tadqiqot metodlaridan foydalanish amalda haqiqiy ilmiy kitob tarixini yaratishga yordam beradi. Tarixiy fan sifatida, kitob tarixi umumiy tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan evristik, qiyosiy-tarixiy metodlardan va statistik guruhlash metodidan foydalanadi. Tarixiy materialga bu metodlar yordamida ishlov berishda avvalo faktlarni topish va tizimga solish, ularni tavsiflash va tasniflash, so'ngra hodisalar va faktlarni solishtirish va taqqoslash, kitob tarixi asosiy jarayonlarini madaniyat, fan, adabiyot, ijtimoiy tafakkurning umumiy rivojlanishi bilan uzviy aloqada gavdalantirishga erishiladi va nihoyat, umumiy kitobshunoslik nuqtai nazaridan umumlashtirish, analiz va sintez amalga oshiriladi.

Evristik metod tarixiy faktlarni qidirib topish va baholash tizimi sifatida muhimdir. Bunda ayrim faktlarni emas, balki ko'rib chiqilayotgan masalaga doir faktlar majmuini to'laligicha olish lozim. Faktlar majmui manbalardan izchil qidirish va topilgan faktlarni tasniflash, guruhlash, muhim faktlarni ikkinchi darajali faktlardan, isbotlangan faktlarni taxminiy faktlardan ajratish yo'li bilan yaratiladi. Bunda axborot ifodalangan manbaning isbotlanish darajasi uning ishonchlilik darajasiga

to'g'ri proportsionaldir.

Jahon fani va milliy fan uchun an'anaviy bo'lgan qiyosiy-tarixiy metod nafaqat tarix fanida, balki sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiy nazariya, filologiya va boshqa fundamental fanlarda ham keng qo'llaniladi. Uning barcha mulohazalari va xulosalari zamirida fakt yotadi. Tarixchi faktlar (voqealar, hodisalar, tarjimai hollar, jarayonlar)ni ularning dialektik bog'lanishi nuqtai nazaridan o'rganar ekan, ularning oldingi yoki muvoziy hodisalarga muvofiqligini qidiradi, eng umumiy belgilari, ularda jarayon qonuniyatlarining aks etish darajasiga ko'ra guruhlashni amalga oshiradi. Qiyosiy-tarixiy metod kitobning madaniyat, iqtisodiyot, texnika, sanoat umumiy rivojlanishi bilan bog'liq o'tmishini tiklash uchun ham bosh mezon ekanligi kitob tarixchisi uchun muhimdir.

Iqtisodiy fanda qo'llaniladigan statistik guruhlash metodi kitob tarixini o'rganish uchun ham samaralidir. Tadqiqotga iqtisodiy ma'lumotlar (tovar aylanishi, narxlar, umumiy xo'jalik ko'rsatkichlari) ham, sotsiologiya (aholi demografiyasi, madaniy va iqtisodiy daraja, etnik tarkib) va kitobshunoslik (kitoblar hajmi, tiraji, turlari, mavzulari) ma'lumotlari ham kiritiladi. Statistik guruhlash metodining predmetini tarixiy fakt sifatida qaraladigan miqdor ko'rsatkichlari tashkil etadi, ularga statistik-matematik ishlov berish esa jarayonning sifati haqida xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi.

Analitik tadqiqotda nafaqat tarixiy fanlar, balki tabiiy fanlar, shuningdek yordamchi tarixiy fanlarning metodlari va xulosalaridan ham foydalaniladi. Kitob tarixidagi muhim voqealar, jarayonlar va hodisalar haqidagi materialni o'zida mujassamlashtirgan manbalarni topish, tanqidiy baholash va qayta ishlash uchun umumiy tarixiy yordamchi ilmiy fan – manbashunoslik metodlari va ma'lumotlaridan foydalaniladi. Paleografiya, kitob geraldikasi, tarixiy dastxatshunoslik materiallari va metodlaridan kitob tarixida yozuv tarixini rekonstruktsiya qilish, qo'lyozmalar yaratilgan sanani aniqlash, ularni atributlash (asar muallifini, uni ko'chirgan hattot yoki chop etgan noshirni, kitobning ma'lum kitobxona repertuari, bosmaxona yoki kutubxona fondiga mansubligini aniqlash), kitoblarni tarqatish geografiyasi va doirasini, u yoki bu tarixiy davrdagi kitob repertuarini aniqlash uchun foydalanilishi mumkin.

Kitob tarixi muammolarini o'rganishda mafkuraviy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy yondashuvlarning zarurligi «Madaniyat», «Mafkura»

kabi tizimlarning tarkibiy qismi bo'lgan «Kitob – Kitobat ishi» tizimining tabiati bilan belgilanadi. Ayni vaqtda, kitob tarixini o'rganishda «Kitob»ga uning kitobat ishi bilan dialektik birligi nuqtai nazaridan yondashish, ya'ni «Kitob»ni uning jamiyatda mavjudlik va amal qilish jarayoniga bog'lab tadqiq etish lozim. Boshqacha aytganda, muammoga nisbatan tarixiy-madaniy, ijtimoiy, mafkuraviy yondashuv ijtimoiy borliqning ob'ektiv hodisasi bo'lgan «Kitob – Kitobat ishi» tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib muayyanlashtirilishi darkor. Bu o'ziga xoslikni quyidagicha tushunish o'rinli bo'lsa kerak. «Kitob» - ijtimoiy muomala usuli. Shu bois «Kitob – Kitobat ishi» tizimini o'rganishda dialektika metodi, tarixiy fanlarning metodlari va metodologiya sifatidagi tipologik kitobshunoslik metodi tizimidan foydalanish lozim. Ayni vaqtda «Kitob» belgilar, til bilan bog'liq hodisa, shu sababli uni tarixiy-kitobshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishda adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, lingvistika, grammatologiya, adabiyot tarixi, madaniyat, fan va texnika tarixi, binobarin, manbashunoslik, arxeografiya, paleografiya, kodikologiya, tekstologiya, bibliografiya, kutubxonashunoslik, tahrir nazariyasi va amaliyoti, noshirlik, kitob savdosi, axborot ishi tarixi kabi maxsus fanlarning metodlaridan ham foylalanilishi muqarrardir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, matbaachilik vujudga kelgunga qadar kitob qo'lyozma tarzida mavjud bo'lgan. Kitob nashri «Kitob»ning jamiyatda moddiy mavjudlik shakli, kitob ishlab chiqarish, kitobni taqsimlash jarayonlari esa, «Kitobat ishi»ning moddiy mavjudlik shakllari hisoblanadi. Kitob, ya'ni kitob nashri yoki qo'lyozma kitobning jamiyatda mavjudligi va harakatining mazkur shakllari ushbu harakat jarayonlari texnologiyasining mohiyatlarini, so'zning keng ma'nosidagi texnologiyani o'rganishni taqozo etadi. O'z-o'zidan ravshanki, bu masalalarni o'rganish qo'lyozma kitoblar ishlab chiqarish, noshirlik, kitob savdosi, kutubxonachilik ishining iqtisodiy muammolari (masalan, narx belgilash)ni, shuningdek ularni tashkil etish va boshqarish shakllari, ularning ma'lum tarixiy davrlardagi tashkiliy-xo'jalik holati va faoliyati, kitob marketingi va menejmenti muammolarini tadqiq etishni o'z ichiga oladi.

Turli fanlarning sanab o'tilgan metodlari o'z izchil birligida kitob tarixidagi analiz metodlari hisoblanadi. Ularning yordamida kitob va

kitobat ishi tarixidagi muhim voqealarni rekonstruktsiya qilish, kitob tarixining yaxlit manzarasini yaratish, kitobning tarixiy rivojlanishi va jamiyatda amal qilishi jarayonlarini tavsiflash uchun muayyan empirik faktlar yig'indisini aniqlash mumkin va lozim. Biroq bu faktlarni faqat umumiy kitobshunoslik nuqtai nazaridan, ya'ni «Kitob»ning «Madaniyat» tizimidagi haqiqiy o'rnini «Asar»ni «Nashr»ga uyushtirish usuli shaklida muayyanlashtirilgan va kitob nashri yoki qo'lyozma kitob shaklida moddiylashtirilgan ijtimoiy muloqot usuli sifatida tushunish nuqtai nazaridan ilmiy umumlashtirish lozim. «Nashrlar», jarayonlar, shakllar va ularning rivojlanish qonuniyatlari darajasida umumlashtirish borliqning ob'ektiv hodisasi sifatidagi kitobning mohiyatini to'la aniqlash va o'rganish uchun imkoniyat yaratadigan haqiqiy ilmiy xulosalar chiqarish imkonini bermaydi, chunki namoyon bo'lish shakli – «Nashr» va mazmun – «Kitob» mos kelmaydi. Biroq kitob tarixini, shu jumladan qo'lyozma kitob tarixini o'rganish yo'li faqat bitta bo'lishi mumkin: «Nashr» yoki qo'lyozma kitobning rivojlanish jarayonlari, shakllari va qonuniyatlarini o'rganish va so'ngra ularning rivojlanish faktlari va qonuniyatlarini «Kitob»ni ijtimoiy muloqot usuli sifatida tushunish, uning falsafiy ma'nosi nuqtai nazaridan umumlashtirish. Zero, «...materiya va harakatni faqat ayrim moddalar hamda harakatning ayrim shakllarini o'rganish yo'li bilan bilish mumkin»[28]. Biroq bunda shuni ham unutmaslik kerakki, «...narsalarning namoyon bo'lish shakli va mazmuni bir-biriga bevosita mos kelganida, har qanday fan ortiqcha bo'lur edi»[29].

Binobarin, kitob tarixini «Nashr», jarayonlar, shakllar va ularning rivojlanish qonuniyatlari darajasida o'rganar ekanmiz, biz «Kitob»ning namoyon bo'lish shakllari bilan ish ko'ramiz, kitobat madaniyati hodisalarini har bir muayyan holda umumiy kitobshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilib, kitob tarixidan olingan tarixiy faktlarning jami yig'indisini tarixiy-nazariy-madaniy nuqtai nazardan umumlashtirar ekanmiz, biz kitob tarixining haqiqiy ilmiy manzarasini yaratamiz.

Shunday qilib, kitob tarixiga nisbatan tarixiy-kitobshunoslik va tarixiy-tipologik yondashuvi va tadqiqot metodi har xil kitobshunoslik fanlari va kitobshunoslik bilan turdosh fanlarning metodlarini shunchaki birlashtirish emas, balki ularning dialektik birligi, tizimidir. Biroq bu tizim harakatchan, faol bo'lib, tadqiqotning muayyan vazifalariga muvofiq

[28]Engels F. Dialektika prirodo'. – M.: Politizdat, 1975. – 203-b.
[29]Marks K., Engels F. Sochineniya. – 2-e izd. T. 25. Ch. 2. – 384-b.

unda tadqiqotning muayyan metodlari birinchi o'ringa chiqishi mumkin.

Savollar va topshiriqlar:

1. Kitob va kitobat ishi tarixini tadqiq etish printsip va metodlarini ta'riflang.

7-§. O'zbekistonda kitob va kitobat ishi tarixini davriylashtirish

O'zbekistonda kitob va kitobat ishi tarixi muammolarini analitik o'rganish muqarrar tarzda asosiy tarixiy bosqichlarni aniqlash va milliy madaniyatning bu muhim tarkibiy qismining rivojlanish tarixini ilmiy asosda davrlarga ajratish masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bunda vazifa hozirgi zamon tarix fanining O'zbekiston, umuman Turon va Turkistondagi ayrim davlatlarning tarixini davriylashtirish masalalaridagi yutuqlariga va tarixiy-kutubxonashunoslik tipologik metodiga asoslanib, kutubxonachilik ishi tarixining xususiyatlariga va sodir bo'lgan tarixiy jarayonga mos keladigan davriylashtirish sxemasini taklif qilish hamda tarixiy bosqichlar chegaralarini belgilashdan iborat. Bunda mamlakatlar va xalqlarning hayotidagi muayyan tarixiy davrni ularning sivilizatsion, etnogenetik, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlanishidagi etakchi tendentsiyalar, mazkur rivojlanishning asosiy yo'nalishlari, mazmuni va xususiyatlariga qarab belgilash muhim metodologik talab hisoblanadi. Tarixiy bosqichlarning mustaqil metodologik ahamiyatga ega bo'lgan chegaralarini to'g'ri belgilash muayyan tadqiqot predmeti rivojlanishining asosiy bosqichlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Mazkur chegaralar, odatda, mutlaq emas, balki shartli, nisbiy xususiyatga ega bo'ladi, shuning uchun ham ularning sanasini to'g'ri aniqlash ancha mushkul ish.

Turli sivilizatsiyalar shakllarining almashishi va jamiyatda moddiy ne'matlarni taqsimlash usullarining o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy tarixiy jarayon kitob va kitobat ishi tarixini ilmiy davriylashtirishning bosh mezonidir. Kitob ishlab chiqarish usullari (qo'lyozma, bosma), davlat siyosati, turli diniy konfessiyalar, alohida shaxslar, noshirlar, kitobfurushlar, kutubxonachilarning kitob ishlab chiqarish, taqsimlash va takror ishlab chiqarish sohasidagi faoliyati, kitob repertuari va kutubxona fondining tuzilishi singari omillar har bir tuzum doirasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunga muvofiq biz O'zbekistonda kitob va kitobat ishi tarixini

besh asosiy tarixiy davrga bo'lamiz: 1. Qadimgi va ilk o'rta asrlar davri – miloddan avvalgi V asr – milodiy VIII asr. 2. Rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar davri – IX asr - XIX asrning birinchi yarmi. 3. Rossiya mustamlakasi ostida rivojlanish davri – 1867-1917 yillar. 4. Sho'ro mustabid tuzumi ostida rivojlanish davri – 1917-1991 yillar. 5. Mustaqil suveren O'zbekistonning rivojlanish davri – 1991 yil 1 sentyabrdan.

Birinchi tarixiy davrda O'zbekiston va butun Turonzamin hududi sivilizatsion va ijtimoiy-madaniy jihatdan zardushtiylik, aniqrog'i – avesto madaniyati yoki avesto sivilizatsiyasining etakchi bo'g'ini va muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Mazkur bosqich miloddan oldingi V asrdan – O'rta Osiyodagi qadimgi xalqlar o'z xorazmiy, parfiyoniy, sug'diy, bohtariy, qadimgi turkiy va boshqa yozuv tizimlarini qo'llay boshlagan, ularda dastlabki yozma hujjatlar, kitoblar va dastlabki kitob maxzanlari paydo bo'lgan davrdan milodiy VIII asrning birinchi o'n yilliklari - arablar istilosi va Turonzamin xalqlari arab grafikasiga asoslangan yozuvga o'tgan davrgacha bo'lgan katta tarixiy davrni qamrab oladi. Mazkur tarixiy davr doirasida shakli va tayyorlash usullariga qarab tosh, yog'och, teri, qog'oz kitoblar, o'rama kitob, kitob-majmua (ya'ni kitob-kodeks) farqlanadi; turli yozuv tizimlari – xorazmiy, parfiyoniy, bohtariy, sug'd, qadimgi turkiy va boshqa yozuvlarga mansub yozma yodgorliklar, shuningdek kitob maxzanlarining quyidagi turlari: a) podsho saroylari qoshidagi kitob maxzanlari; b) turli diniy konfessiyalar (zardushtiylar, moniychilar, buddaviylar, yahudiylar, xristian-nasroniylar)ning ibodatxonalari qoshidagi kitob maxzanlari; v) shaxsiy kutubxonalar o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Turli tarixiy viloyatlar va davlat tuzilmalari – Xorazm, Parfiya, Baqtriya, Sug'd, Farg'ona, Choch, Qang', Yunon-baqtriya, Kushon podsholiklari va Turon xoqonligidagi kitob maxzanlarining rivojlanish jarayonlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Keyingi tarixiy bosqich VIII asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrni – Turonzamin xalqlari sivilizatsion, ijtimoiy-madaniy va etnik-konfessional jihatdan musulmon madaniy dunyosi yoki islom sivilizatsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan davrni qamrab oladiki, bu kitobat ishi tarixining shakllari, mazmuni va o'ziga xosligini belgilaydi. Mazkur uzoq davr mobaynida O'zbekistonning rivojlanishida sodir bo'lgan siyosiy, davlat-hududiy va tarixiy-madaniy jarayonlar, shuningdek

qo'lyozma kitob ishlab chiqarish, taqsimlash, takror ishlab chiqarish va uning repertuaridagi o'zgarishlar davriylashtirishning yanada mufassal sxemasini tuzishni va ushbu tarixiy davr doirasida mustaqil bosqichlarni ajratishni talab etadi. O'rta asrlar kitobat ishi tarixida, mazkur katta madaniy-tarixiy davr doirasida, har bir asrning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligiga qaramay, quyidagi uch muhim tarixiy bosqichni ajratish mumkin: ilk mumtoz davr (IX asr – XIII asrning boshi, 1220 yildagi mo'g'ullar istilosiga qadar); mumtoz davr (XIII asrning ikkinchi yarmi – XVII asr); so'nggi mumtoz davr (XVIII asr – XIX asrning birinchi yarmi).

Yuqorida qayd etilgan davrlarning birinchisi, ya'ni ilk mumtoz davr – diniy mutaassiblik va aqidalar bilan chegaralanmagan inson bilimining har xil tarmoqlari erkin rivojlangan, ma'naviy qadriyatlar arab tilidagi kitob vositasida xalqaro miqyosda keng tarqalgan, arabiyzabon fan va madaniyatga ulkan hissa qo'shgan Turon-Turkiston olimlarining qudratli ijodiy ruhi namoyon bo'lgan, yuzlab boshqa forsiygo'y va turkiygo'y olimlar, shoirlar, faylasuflar va tarixchilarning ilmiy va badiiy dahosi yuksalgan davr. Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayoti hodisalariga o'z mezon va andozalari bilan yondashuvchi G'arbiy Evropa maktabi olimlarining ilmiy tadqiqotlarida bu davrga «Musulmon Renessansi», «Sharq Renessansi» deb berilgan ta'riflarga ko'p duch kelish mumkin.

Turkistonning mustaqil feodal davlatlarida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, qadimiyat va ilk o'rta asrlarda to'plangan o'ziga xos madaniyatning ijodiy salohiyati va an'analari yangi tarixiy davrda Turkiston xalqlari adabiyoti, fani va madaniyatining uyg'onishi va rivojlanishi uchun zarur zamin yaratdi. Shaharlarning o'sishi va shahar hayotining jonlanishi, shahar va qishloq aholisining ma'lum tabaqalari orasida savodxonlikning tarqalishi yuqorida zikr etilgan jarayonlarga turtki bergan muhim omillardan biri bo'ldi. Maxsus ta'lim muassasasi - madrasa musulmon madaniy dunyosida birinchi bo'lib aynan Turonzamin shaharlarida vujudga keldi va keyinchalik boshqa musulmon mamlakatlariga tarqaldi. «Madrasa o'quv yurti sifatida hatto musulmon dunyosining poytaxti – Bag'dodda ham faqat XI asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan..., vaholanki, Movarounnahrda madrasalar bu vaqtga kelib ko'pdan beri faoliyat ko'rsatar edi», deb yozadi atoqli sharqshunos,

akademik V.V. Bartold[30]. Boshqa bir joyda u madrasa ilk bor Narshaxiy (899-959)ning «Buxoro tarixi» asarida 937 yilgi Buxoro yong'ini munosabati bilan tilga olinganligini qayd etadi. Tarixchi Narshaxiy bergan ma'lumotga qaraganda, o'sha yong'inda katta Forojik madrasasi o'zining noyob qo'lyozmalar kutubxonasi bilan birga yonib ketgan[31].

O'sha davrdagi urbanizatsiya jarayonlarining sur'ati qay darajada yuqori bo'lganligidan taniqli olim prof. S.P. Tolstov tomonidan keltirilgan quyidagi ma'lumotlar dalolat beradi: X asrning boshida Xorazmda 12 ta shahar ma'lum bo'lsa, mazkur asr oxiriga kelib ularning soni 40 taga etgan[32]. Buxoro, Xiva, Samarqand, Gurganj, Termiz, Marv, Hirot, Balx, Kesh, Xo'jand, Shosh (Toshkent), Ho'qand (Qo'qon), Andijon, Marg'ilon va boshqa o'nlab shaharlar bir necha asrlar davomida dam ravnaq topib, dam inqirozga uchrab , so'ng yana ilmiy va badiiy tafakkur hamda intellektual hayot markazlari sifatida nom chiqarib keldi. Shaharlarda o'nlab madrasalar va maktablar, xonaqolar va shifoxonalar, kutubxonalar, bozorlar, sahhoflar (muqovasozlar) va kitobfurushlarning do'konlari faoliyat ko'rsatar, ular olimlar va adabiyotchilar, shoirlar va mohir xattotlar, tabiblar, hunarmandlar va oddiy xalqning savodxon va o'qimishli vakillarini o'zida jamlagan edi.

Ibn Sino va Beruniy, Forobiy va Hakim Termiziy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy va al-Farg'oniy, Rudakiy va Firdavsiy, al-Buxoriy va at-Termiziy, Umar Xayyom va Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib kabi buyuk allomalar, arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan yuzlab olimlar, shoirlar, faylasuflar, tilshunoslar, tarixchilar, tibbiyotchilar, badiiy ijod bilimdonlari va muxlislari hamda kitobsevarlarning ilmiy va badiiy dahosi va ko'nikmalari Buxoro va Samarqand, Termiz va Hirot, Marv va Balx, Xorazm va Farg'ona shaharlarining yuksak tafakkur va madaniy muhiti sharoitida shakllandi.

Turkistonda yashaydigan barcha xalqlar va elatlarning, bu erda tarixan shakllangan barcha madaniy viloyatlarning vakillari jahon fan va adabiyoti xazinasiga o'zining betakror hissasini qo'shdi. Turkiston fani va madaniyatining yirik tadqiqotchisi akademik P.G.Bulgakov ta'biri bilan aytganda, «...faoliyati tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarda chuqur iz qoldirgan O'rta Osiyo olimlarining nomlari ro'yxati juda uzun...

[30]Bartold V.V. O pogrebenii Timura. Soch. T. II. Ch. 2. – 429-b.
[31]Bartold V.V. Ucheno`e musulmanskogo Renessansa. Soch. T. VI. – 619-b.
[32]Qarang: Belovitskaya A.A. Obhee knigovedenie. – M.: Kniga, 1987. – 231-b.

Mazkur olimlar faoliyatining qamrovi O'rta Osiyo doirasidan ancha chetga chiqadi. Fan oldidagi shaxsiy xizmatlari nisbatan katta bo'lmagan, ammo birgalikda ilm-fanni taraqqiyot yo'lidan harakatlantirgan ulkan kuchni hosil qiluvchi O'rta Osiyo olimlari nomlarining ro'yxati bir necha sahifani band etgan bo'lur edi»[33].

1219–1222 yillarda Turkistonga ko'chmanchi mo'g'ullar qo'shinlari bostirib kirdi. Asrlar mobaynida to'plangan ko'p sonli moddiy va madaniy boyliklar, ko'plab kutubxonalar va qo'lyozma kitoblar yong'in va bosqin olovida nobud bo'ldi, olimlar, adabiyotchilar, kitob ustalari va muxlislari qilichdan o'tkazildi. Mo'g'ullar istilosi oqibatida milliy madaniyat ko'rgan talafot shundan iborat ediki, aholi ommaviy qirg'in qilinishi natijasida barcha zamonlarda har qanday xalqning o'zagini tashkil etuvchi aqliy mehnat vakillarining asosiy qismi halok bo'lgandi. Shu tariqa Turkistonda X–XII asrlarda yuksalgan dunyoviy fanlarning ildiziga bolta urildi, o'qimishlilik, bilimlilik va kitobat madaniyati an'analariga putur etkazildi.

Mo'g'ullar istilosidan keyingi davrda asta-sekin bir yarim asr mobaynida Turkistonning an'anaviy madaniy markazlari kultepalar orasidan qad rostladi, hunarmandchilik, qo'lyozma kitoblar yaratish san'ati tiklandi. Kitobat faoliyati sezilarli darajada o'zgardi va maydon jihatidan avvalgidan ham kengroq hududlarni qamrab oldi. Muhim o'zgarishlardan biri shundan iborat ediki, arab tilidagi kitoblar XIII asrdan keyin kitob bozori, kutubxona va qo'lyozma kitoblar repertuarida o'zining ustun mavqeini yo'qotdi. Shunga qaramay, XIV-XVI asrlarda arab tilidagi kitoblar miqdor jihatidan muomalada mavjud barcha kitoblarning kamida yarmini tashkil etardi.

Turkiston kitobat madaniyati tarixidagi ikkinchi – mumtoz davr bu Temur va Temuriy, Shayboniy va Ashtarxoniylar sulolalarining oldinma-ketin bir-birining o'rniga kelgan davlatlari davri. Feodal ichki urushlar olovi qisqa vaqt yonib o'chib turgan ma'lum darajadagi barqarorlik va ichki osoyishtalik sharoitida Turkiston umumiy bozorining shakllanish jarayoni yuz berdi, muayyan mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqalar tiklandi, bolalar uchun an'anaviy majburiy boshlang'ich ta'lim ishlari qayta yo'lga qo'yildi, yangi madrasalar, kutubxonalar ochildi, badiiy adabiyot va fanda yangi asarlar yaratildi va qo'lyozma kitob ko'rinishida

[33]Bulgakov P.G. Jizn i trudo` Beruni. – T.: Fan, 1972. – 10, 12-b.

tarqatildi. Davrning yuksak madaniyat darajasi qayta tiklangan shaharlar, bog'-rog'lar va go'zal me'morlik majmualari qiyofasida, xalq xunarmandchiligi, amaliy san'at buyumlarida, adabiyot, ayniqsa she'riyat asarlarida, fan va san'atning ayrim tarmoqlari yutuqlarida o'z aksini topdi.

Bu tarixiy bosqichni to'la asos bilan kitobat san'ati o'z cho'qqisiga ko'tarilgan va gullab-yashnagan davr deb nomlash mumkin. Bu tarixiy davr bizga hattotlik san'ati, miniatyurachilik, sahhoflik ishining tengi yo'q namunalarini qoldirdi. Fors va turkiy tillardagi adabiy-badiiy kitoblar qo'lyozmalarining eng ko'p miqdori ayni shu tarixiy davrda muomalaga chiqarildi va aholi qo'lida jamlandi.

Qo'lyozma kitob va kitobat ishi tarixidagi uchinchi, so'nggi mumtoz davr XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi va Turkistondagi Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklari davrida kechadi. Qariyb bir yarim asr (XIX asrning birinchi choragi oxirigacha bo'lgan davr) Movarounnahrda sillani quritadigan feodal nifoqlar, xonliklarning chet el bosqinchilari bilan va o'zaro urushlarida o'tdi. Bu xalqlarni ishlab chiqarish kuchlari, tabiiy va moddiy boyliklar shafqatsizlik bilan behuda yo'q qilinishiga, kuchli iqtisodiy va madaniy inqirozga yo'liqtirdi. XIX asrning 30-yillariga kelibgina tinch hayot o'z mevasini bera boshladi: qishloq xo'jalik va hunarmandchilik ishlab chiqarishi jonlandi, shahar hayoti va kitobat madaniyati rivojlandi.

Ayni vaqtda qo'shni mamlakatlar bilan odatdagi xo'jalik aloqalarining uzilishi, Turkiston xonliklari iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jihatdan bir-biridan uzoqlashishi, shuningdek madaniyat va rasmiy mafkurada islom jaholatparastligi, ta'lim va ilmiy faoliyatda – mutaassiblik va aqidaparastlikning yakka hukmronligi yaratilayotgan qo'lyozma kitoblarning mazmuni va tematik rang-barangligi sezilarli darajada qashshoqlashuviga olib keldi. XVIII–XIX asr qo'lyozmalarida badiiy bezash umumiy darajasining pasayishi kuzatiladi, uning tashqi qiyofasining standartlashuvi va bir xillashuvi yuz beradi, uning ichki tuzilishi, muqovalarni bezash soddalashadi va bir qolipga solinadi, nisbatan arzon materiallar ishlatila boshlanadi.

XIX asrning 70-yillaridan bosma kitob bilan birga rivojlanib, qo'lyozma kitob asta-sekin unga kitob bozoridagi o'z mavqeini boy berib bordi. Gap faqat qo'lyozma kitob bosma kitobga qaraganda ancha

qimmatligi tufayli unga bo'lgan talab pasayganida emas. Qo'lyozma kitob tarix sahnasidan ketishida doim betakror muallif nusxasi va alohida kitobat san'ati asari sifatida yaratiladigan bu kitobat ishining mahsuli XX asr boshiga kelib o'zgargan ijtimoiy shart-sharoitlarda avvalgi asrlarda keng miqyosda mavjud bo'lgan o'zining haqiqiy muxlisini yo'qotganligi ham muhim rol o'ynadi.

Turonzamin davlatlarini chor Rossiyasi istilo qilganidan so'ng ularning davlat-huquqiy maqomi, siyosat va madaniyat sohalarida sodir bo'lgan chuqur o'zgarishlar, shuningdek ishlab chiqarishning kapitalistik usuliga, milliy matbaachilikka hamda kutubxonachilik, kitob savdosi va bibliografiya ishi sohalarida yangi burjua shakllariga asta-sekin o'tilishi Turkiston chor Rossiyasining hukm ostida bo'lgan davr – 1865-1917 yillarni kitob va kitobat ishi tarixida alohida yarim asrlik bosqichga ajratishni talab etadi.

Rus chorizmining ag'darilishi, markazda va joylarda hokimiyatning bolsheviklar partiyasi qo'liga o'tishi, milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi – Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi, sovetlar «andozasi» asosida Turkiston Avtonom Respublikasining tashkil etilishi, fuqarolar urushi, «harbiy kommunizm» siyosati va yangi iqtisodiy siyosat – bularning hammasi Turkiston ASSR davri – 1918 yilning aprelidan 1924 yil oktyabrgacha bo'lgan davrni kitob va kitobat ishi tarixi rivojlanishining alohida bosqichiga ajratishni talab etadi.

1920–1930 yillarda hukmron bolsheviklar partiyasi diktatorlik rahbariyati tomonidan Turonzaminda milliy-hududiy chegaralanish o'tkaziladi. Bolsheviklarning asosiy maqsadlaridan biri milliy, etnik jihatdan yagona bo'lgan turonzamin xalqini qismlarga ajratish va bepoyon Turon-Turkiston hududida yagona markazga bo'ysundirilgan, sovetlar andozasiga asoslangan nosuveren va huquqsiz ma'muriy-davlat tuzilmalarini tashkil etish edi. Bu «davlat qurilish» jarayoni 1920 yil 26 avgust kuni Qirg'iziston avtonom respublikasi tashkil etilishi bilan boshlandi. Tuzilma 1925 yil 19 aprelida Qozog'iston avtonom respublikasi deb qayta nomlandi. O'n bir yarim yildan keyin 1936 yil 5 dekabrida bu avtonom respublika Qozog'iston sovet respublikasi deb nomlandi va sovet ittifoqi tarkibiga kiritiladi.

1924 yil 10 oktyabrida Rossiya Federatsiyasi tarkibida Qora-Qirg'iz avtonom oblasti tuzilib, 1925 yil 22 may kuni Qirg'iz avtonom

oblasti deb qayta nomlanadi. 1936 yil 5 dekabrda Qirg'iziston ittifoqdosh respublikasi sifatida sovet ittifoqiga kiritiladi.

Turkiston ASSR. Buxoro va Xorazm xalq respublikalarini tugatish va qismlarga ajratish natijasida 1924 yil 27 oktyabrda yana ikkita ittifoqdosh respublika – O'zbekiston va Turkmaniston tuzildi. Tojikiston avtonom respublikasi 1929 yil 16 oktyabrda O'zbekiston tarkibidan alohida sovet respublikasi sifatida ajrab chiqdi. 1936 yil 5 dekabrda O'zbekiston tarkibiga Qoraqalpog'iston avtonom respublikasi kiritildi.

O'zbekiston SSRda kitob va kitobat ishi tarixi (1924-1991 yillar) ni biz mazmuni va rivojlanish xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ikki tarixiy bosqichga ajratdik. Bular – O'zbekiston SSR tashkil topgan dastlabki yillar va Ikkinchi jahon urushi yillaridagi kitobat ishi (1924-1945 yillar) hamda mustabid tuzum asoslarining darz ketishi va uning emirilishi davridagi kitobat ishi (1946-1991 yillar).

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi yillarida (1991 yilning sentyabridan) kitobat ishining rivojlanishi kitob va kitobat ishi tarixining so'nggi bosqichini tashkil etdi.

Savollar va topshiriqlar:

1. O'zbekistonda kitob va kitobat ishi tarixini qanday tarixiy davrlarga bo'lib o'rganamiz?

8-§. O'zbekistonda kitob va kitobat ishi tarixining asosiy ilmiy muammolari tizimi

Har qanday tarixiy tadqiqot muammolarini aniqlash va muayyanlashtirish, uning tarixiy bilish taraqqiyotining muhim ko'rinishi sifatida rivojlanish va kengayish yo'llarini tahlil qilish mustaqil metodologik ahamiyat kasb etadi[34]. O'zbekistonda qadimiyat, o'rta asrlar, yangi va eng yangi davr kitob va kitobat ishi tarixining asosiy ilmiy muammolari, bizning nazarimizda, quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi.

1. Yozuv madaniyati va kitobat ishi an'analarining vujudga kelish asoslari.

[34]Qarang: Rakitov A.I. Ponyatie nauki i ee struktura G`G` Problemo` metodologii i logiki nauki. – Tomsk, 1965. – Vo`p. 5. – 105-126-b.; Rakitov A.I. Istoricheskoe poznanie: Sistemno-gnoseologicheskiy podxod. – M.: Politizdat, 1982. – 303 b.

2. Turon-Turkiston qadimgi xalqlarida harfli-ovozli yozuv tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi muammolari.

3. Turon-Turkiston xalqlari tomonidan har xil yozuv tizimlari qo'llanilishining tarixiy shart-sharoitlari va o'ziga xos xususiyatlari.

4. Turon-Turkistonda xorazmiy, parfiyoniy, bohtariy, sug'd, o'rta fors, moniy, yunon, yunon-bohtariy, eftalit, qadimgi turkiy, turkiy-uyg'ur, siro-turkiy, kxaroshtxi, brahmi, «issiq», arabiy yozuvlari rivojlanishi va muomalada bo'lishining asosiy tarixiy bosqichlari va eng muhim tendentsiyalari.

5. Kitob tarixi predmetida eng muhim yozuv yodgorliklarining umumiy tavsifi.

6. Qadimgi va ilk o'rta asrlar Turon-Turkiston kitobi shakllari va tashqi ko'rinishining umumiy tavsifi: ostrakonlar, sopol, tosh, yog'och taxtachalar, o'ramlar, kitob-kodekslar.

7. Yozuv materiallari va qurollari: gil, tosh, yog'och, teri, daraxt po'stlog'i, qog'oz, tush, siyoh, yog'och va temir chiviqlar, qamish chiviqlari - qalamlar.

8. Turkistonda qog'oz ishlab chiqarishning paydo bo'lishi hamda rivojlanishining asosiy bosqichlarini o'rganish.

9. «Avesto (zardushtiylik) madaniy dunyosi» tushunchasini asoslash, uning ijtimoiy-madaniy xususiyatini aniqlash, ta'riflash va ilmiy muomalaga kiritish, «Avesto (zardushtiylik) madaniyat tipi» va «Avesto (zardushtiylik) kitobat madaniyati tipi» tushunchalarini Turon va Eron xalqlari tarixining qadimgi va ilk o'rta asrlar davriga nisbatan tatbiq etish.

10. Qadimiyatdan o'rta asrlarga, Avesto (zardushtiylik) madaniyat tipidan islom madaniyat tipiga tarixiy o'tish jarayonida Turon-Turkiston xalqlari yozuv madaniyati va kitobat ishi an'analarining vorisiyligi muammosi.

11. Turkistonda qadimiyat va ilk o'rta asrlarda kitob ishlab chiqarish, kitob savdosi va kutubxonachilik ishining dastlabki tarixiy shakllari.

12. O'rta asrlar Turkiston jamiyatida kitob ishlab chiqarish, kitob taqsimlash va kitobni takror ishlab chiqarish shakllari sifatida qo'lyozma kitoblar ishlab chiqarish, kitob savdosi, kutubxonachilik va bibliografiya ishi shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari va ijtimoiy-madaniy o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

13. Turkiston kitobat ishida arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozma kitoblarning birgalikda mavjudligi va muvoziy rivojlanishi, shuningdek Turkiston kitobat ishining tarixiy tadrijiy rivojlanish jarayonida arab, fors va turkiy kitobat madaniyatlari elementlarining integratsiyalashuvi va tabaqalanish jarayonlarining tarixiy qonuniyatlarini aniqlash va asoslash.

14. Musulmon madaniy dunyosi kitobat madaniyati an'analari birligining muammolari.

15. Qadimiyat, o'rta asrlar va yangi davrda har xil milliy kitobat madaniyatlarining tarixiy rivojlanish jarayonida ularning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'siri va bir-biriga o'tishi, bu madaniyatlar elementlarining sinkretizmi, integratsiyalashuvi va tabaqalanishi. O'rta asrlarda va to XX asrning ikkinchi yarmi boshiga qadar Turon-Turkiston kitobat madaniyatining uch o'zakli (arab, fors, turkiy tillaridagi zardushtiy, islomiy, turkiy dunyo madaniyati) negizi.

16. O'rta asrlarda qo'lyozma kitoblarni ko'chirish va ko'paytirish texnikasining umumiy masalalari va uni tashkil etish.

17. Qo'lyozma va eski bosma (toshbosma) kitob yangi tiplari va shakllarining paydo bo'lishi va tabaqalanishi, nashrga uyushtirilayotgan asar janri, asarda material mazmunini bayon etish shakli va usuli (ommaviylashish va ilmiy bayon etish darajasi), bilim tarmoqlari va kitob tiplari shakllarining dialektikasi va bir-birini taqozo etishi tarixiy qonuniyatlarini aniqlash va asoslash.

18. Kitob repertuari tarkibi va nashrlar tematik rang-barangligining tahlili (qadimiyat, o'rta asrlar, yangi davr).

19. Qo'lyozma kitobni badiiy bezash masalalari, qo'lyozma kitobni bezash san'ati rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlari tavsifi, matn tuzilishi va uni ruknlarga ajratish, qo'lyozmalarni yaratish va bezash asosiy bosqichlarining tahlili: a) hattot mehnati, kasbi va san'ati; b) miniatyurachi-rassom mehnati va miniatyura san'ati, Turkiston qo'lyozma kitobida miniatyura mazkur tarixiy davr kitobat madaniyatining holatini tavsiflash uchun noyob manba sifatida; v) bezovchi-rassom – lavvoh mehnati va san'ati; g) muqovasoz – sahhof mehnati, muqovasozlik kasbi va san'ati.

20. Milliy, vaqf, jamoat va xususiy (shaxsiy) kitob mahzanlari va kutubxonalarning tashkil topish va rivojlanish tarixi muammolari: a) kitob mahzanlari va kutubxonalarning tashkil topish shart-sharoitlari;

b) Turkiston milliy madaniyati tarixida ularning roli va ahamiyati, jamiyatning holati va rivojlanishiga ta'siri; v) ularning fondlari tarkibini kitob tarixi predmetidagi moddiy, bilvosita va sharhlangan (narrativ) manbalarga ko'ra tavsiflash va baholash; g) o'rta asrlarda Turkistondagi kutubxonalarning har xil tiplarini aniqlash va asoslash: milliy kutubxonalar (podsho kutubxonasi yoki ma'lum davlat tuzilmalarining davlat kutubxonalar, madrasalarning kutubxonalari, masjidlarning kutubxonalari, shahar va qishloq mahallalarining umumistifoda kutubxonalari, musulmon jamoalarining kutubxonalari, xonaqolar qoshidagi kutubxonalar, kasalxonalar qoshidagi kutubxonalar, maqbaralarda darvishxona va qalandarxonalar qoshidagi kutubxonalar, xususiy (shaxsiy) kutubxonalar.

21. Jamiyatda kitobdan foydalanish muammolari: a) kitobat madaniyati rivojlanishining turli tarixiy davrlarida kitobxonlarning toifalari; b) kitob va kitobat madaniyati tarixida kitob muxlislari va homiylari; v) jamiyat turli tabaqalari vakillari bo'lgan kitobxonlarning talab va ehtiyojlari doirasi.

22. Kitob savdosi tarixi muammolari: v) o'rta asrlarda Turkistonda kitob savdosi shakllanishi tarixiy jarayoni; b) o'rta asrlar va yangi davrda islom madaniy dunyosi mamlakatlari qo'lyozma kitoblari umumiy, yagona bozorining mavjudligi va faoliyatini aniqlash va asoslash; v) xalqaro kitob almashinuvida Turkistonning ishtiroki, Turkiston kitob muomalasida chet el kitob mahsulotining ulushi; g) Turkiston qo'lyozma va eski bosma kitobining tarqalish geografiyasi va tarixiy areallari; d) kitob savdosining tarixiy shakllari va metodlari; e) narx belgilash muammolari, qo'lyozma va eski bosma kitobining turli davrlardagi narxi va qiymati.

23. Kitob tarixi predmetida bibliografiya ishi har xil shakllarining paydo bo'lishi va tarixiy rivojlanishini o'rganish, bibliografiyaga oid axborot mavjudligining tarixiy shakllari va bibliografik qo'llanmalar tizimini tadqiq qilish. bibliografiya ishi va bibliografiya axboroti shakllarining yuzaga kelishi, rivojlanishi va o'zgarishi tarixiy qonuniyatlarini aniqlash va asoslash.

24. Kitob bosish va milliy kitob noshirlik ishi muammolari: a) Turkistonda bosmaxona va toshbosmaxona kitob ishlab chiqarishi boshlanishining tarixiy va madaniy asoslari; b) Turkiston xalqlari kitob

ko'paytirishning qo'lyozma usuli an'analaridan milliy kitob bosishga o'tish tarixiy jarayonining o'ziga xos xususiyatlari; v) asosiy bosmaxonalar va toshbosmaxonalar, ularning noshirlik faoliyati va kitob repertuari; g) milliy noshirlar faoliyati; d) kitob noshirligi ishini tashkil etish, uning yuzaga kelishi va rivojlanishining tarixiy qonuniyatlari masalalari.

25. Sho'ro davrida va mustaqillik yillarida kitob noshirligi, kitob savdosi, kutubxonachilik va bibliografiya ishining o'ziga xos muammolari, asosiy tendentsiyalari va rivojlanish qonuniyatlari.

26. «Kitob – kitobat ishi» tizimining vujudga kelishi, shakllanishi, mavjudligi va rivojlanishi masalalarini, uning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini, bu qonuniyatlarning amalda namoyon bo'lish usullari va shakllarini, mazkur tizimning qadimiyat, o'rta asrlar, yangi va eng yangi davrda rivojlanishining tarixiy shakllarini tarixiy o'rganish va umumlashtirish.

II bob. QADIMIYaT VA ILK O'RTA ASRLARDA YoZUV VA KITOBAT MADANIYATI

Miloddan. avv. V – milodiy VII asrlar

1-§. "Turon" va "Turkiston" atamalari Vatanimiz nomlari sifatida

"Turon", "Turkiston", "Movarounnahr" (arab. "daryo ortidagi er") atamalarining, arabcha "Movarounnahr"ning fors tilidagi muodillari sanalgan "Vararud" va "Varajayhun" atamalarining va nihoyat, "Xuroson" atamasining geografik, etno-geografik, siyosiy-huquqiy va etno-madaniy mazmuni va ma`nosi tarixchilar e`tiborini doimo o'ziga tortib kelgan. Bu nomlar talqini atrofida ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarning muayyan qatlami vujudga kelgan[35].

Ko`rsatilgan nomlar bilan bog'liq bo'lgan tarixiy muammolar yaxlit tizimining xolisona ilmiy tahlilisiz Turkiston tarixi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin bo'lmasa kerak. Hozirgi tarixiy adabiyotlar orasida bu masalaga bag'ishlangan, ko'rsatilgan geografik nomlar genezisi atroflicha o'rganilgan eng mufassal tadqiqotlardan biri prof. Sh.Kamoliddinning "Movarounnahr" va "Turkiston" geografik nomlarining qo'llanilishi masalasiga doir" deb nomlangan maqolasidir. Quyida "Turon" va "Turkiston" nomlari Sh.Kamoliddin va boshqa mualliflarning asarlarida chiqarilgan tahliliy xulosalar, shuningdek, mazkur masalaga doir faktik

[35]Masalan, qarang: Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. Ch. 2. Issledovanie. – SPb., 1990; Mushketov I.V. Turkestan. Geologicheskoe i orograficheskoe opisanie po danno`m, sobranno`m vo vremya puteshestviy s 1847 po 1880 gg. T. 1. – Petrograd, 1915; Ptitso`n G.V. K voprosu geografii «Shax-name» G`G` Trudo` Otdela Vostoka Gosudarstvennogo Ermitaja. T. 4. – L., 1947; Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: Fan, 1965; Kogay N.A. Turanskaya fiziko-geograficheskaya provintsiya G`G` Nauchno`e trudo` TashGU. Vo`p. 353. – Tashkent, 1969; Lukonin V.G. Kultura Sasanidskogo Irana. – M.: Nauka, 1969; Onomastika Sredney Azii. – M., 1978; Karaev S.K. Drevnetryurkskie nazvaniya Sredney Azii. Iz istorii Sredney Azii i Vostochnogo Turkestana XV-XIX vv. – T., 1987. – 104-130-b.; Baevskiy S.I. Geograficheskie nazvaniya v rannix persidskix tolkovo`x slovaryax (XI-XV vv.) G`G` Strano` i narodo` Vostoka. Vo`p. 22. – M., 1980; Ahmedov A. Nega Turon deb ataladi? G`G` Turon tarixi, 1992 y., 1-son. – 5-7-b.; Ishoqov M.M. Nomi azal Turkiston G`G` O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1993 y., 12 noyabr; Rahimbekov R., Zokirov Sh., Soatov A. "O'rta Osiyo"mi yoxud "Turkiston" G`G` Fan va turmush, 1995 y., 3-son. – 7-9-b.; Mannonov B. Turkiston va Markaziy Osiyo G`G` Muloqot, 1998 y., 2-son. – 6-8-b.; Kamoliddin Sh.K. K voprosu ob upotreblenii geograficheskix nazvaniy "Maverannaxr" i "Turkestan" G`G` O'zbekiston tarixi, 2002, 4-son. – 61-68-b.

materiallar majmui nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

Turon hududi g'arbda Kaspiy dengizidan sharqda Markaziy Qozog'istongacha va shimolda cho'l mintaqasidan janubda Osiyodagi eng yirik sahrolar Qoraqum va Qizilqumning janubiy chegarasigacha bo'lgan maydonni qamrab olishi geograflar tomonidan belgilangan[36]. Akad. V.V.Bartold ta'biri bilan aytganda, Turon geografiya fanida "Orol dengizi havzasi"dir[37]."Qadimda Turon etnogeografiyasi. Miloddan avvalgi VII asr – milodiy VIII asr" deb nomlangan fundamental tadqiqot muallifi B.I.Vaynberg qayd etishicha, qadimda va ilk o'rta asrlarda "ayni shu mintaqa yarim cho'l va cho'l mintaqalarining murakkab madaniy, etnik va siyosiy munosabatlar bilan o'zaro bog'langan ziroatchilari va chorvadorlarini o'z ichiga olgan yagona ekologik tizim bo'lgan"[38].

Tur xalqi (turk – ko'plikdagi shakli) yashaydigan joy yoki mamlakat nomi sifatida "Turon" (turlar mamlakati) geografik nomi "«Avesto»"ning eng qadimgi qatlamlarida Sug'd, Xvarazmi, Baxdi, Mouru, Parsav nomlari qatorida qayd etilgan[39].

"Turon" so'zi O'rta Osiyo mintaqasining barcha nomlaridan eng qadimgisidir. Uning zamirida O'rta Osiyoning qadimgi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarining umumiy qabilaviy nomi – tur etnonimi yotadi[40]. Bu xalqlar miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida qudratli harbiy-siyosiy birlashma sanalgan. Ilk bor «Avesto»da qayd etilgan tur etnonimi negizida keyinchalik Turon toponimi vujudga kelgan. Mazkur toponim Eron va O'rta Osiyoning qadimgi afsonalari va miflarida[41], milodiy VI-IX asrlarda e'lon qilingan o'rta fors tilidagi tarixiy adabiyotlarda, o'rta asr mualliflarining arab, fors va turkiy tillardagi tarixiy, geografik asarlarida ko'p karra tilga olinadi.

Sosoniylar sulolasiga mansub bo'lgan Eron shahanshohlarining milodiy III asr o'rtalaridagi monumental bitiklarida geografik nomlar

---

[36]Qarang: Entsiklopedicheskiy slovar geograficheskix nazvaniy. – M.: Sovetskaya Entsiklopediya, 1973. – 675-b.

[37]Bartold V.V. Istoriko-geograficheskiy obzor Irana. – Soch. T. VII. M.: 1971. – S. 223.

[38]Vaynberg B.I. Etnogeografiya Turana v drevnosti. VII v. do n.e. – VIII v. n.e. M.: Izdat. firma «Vostochnaya literatura» RAN. 1999. – S. 3.

[39]Avesta. Izbranno`e gimno` G` Per. s avestiyskogo I.M. Steblin-Kamenskogo. Dushanbe. 1990. – S. 30.

[40]Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlikG`A.maxkamov tarjimasi. T.:2001. –356 b.

[41]Firdousi. Shax-nameG`Kriticheskiy tekst v 9-ti tomax. M., 1966-1971. T.1. –S.90; T.3.-S.60; T.4. –S.239 i dr.

sifatida "Turon" bilan bir qatorda "Turiston" nomi "Turon" bilan bir xil ma'noda – "turlar mamlakati" ma'nosida zikr etilgan2. "Keyinchalik, eftaliylar (V asr) va turkiylar (VI-VIII asrlar) davrida u "Turkiston" deb o'zgartirilgan bo'lib, bu "turklar mamlakati" degan ma'noni anglatadi. - deb yozadi prof. Sh.Kamoliddin. – Tur va turk (turkiy) etnonimlarining, shuningdek, Turon va Turkiston toponimlarining ayniylashtirilishiga avvalo islom dini paydo bo'lishidan oldingi va islom dini davridagi eroniygo'y tarixiy-geografik an'anada, so'ngra arab-musulmon va O'rta Osiyo an'anasida duch kelish mumkin. Turk (yoki turkiy) etnonimi ikki elementli (tur-k) bo'lib, bu erda ikkinchi element -k yig'ma ko'plikdagi affiksdir. Umuman olganda bu so'z eroncha tur-on so'zining turkiycha shakli bo'lishi mumkin"[42]

"Turon" va "Turiston" toponimlarining keyinroq paydo bo'lgan muqobili sifatida "Turkiston" toponimi yozma shaklda ilk bor milodiy VII asr manbalarida ilgari surilgan. O'rta Osiyo mintaqasining nomi sifatida "Turkiston" so'zi 639 yilgi sug'd (oldi-sotdi) hujjatida ishlatilgan[43]. "Turkiston" nomi VII asrda yashab ijod qilgan arman mualliflari Ananiy Shirkatsi va Sebeosning tarixiy asarlarida bir necha marta zikr etilgan[44]. "Turkiston" nomi Toharistondagi yunon-bohtariy bitiklaridan birida qayd etilgan[455]. Zardushtiylarning Hindistonda Erondan olib chiqib ketilgan VII asr matnlari asosida tuzilgan "Bundahishn" kitobida "Turkiston" nomi bir necha marta tilga olingan[46].

Firdavsiy (X asr) "Shohnoma" mamlakatlarini Eron va Turonga ajratadi. Yusuf Xos Hojib – Yusuf Bolasog'uniyning "Qutadg'u bilig" – "Saodatga eltuvchi bilim" asarida (1069) quyidagi satrlarga duch kelish mumkin: "Turkiston ellarinda Bugraxon tilincha bu kitobdin yaxshiroq hargiz kim ersa tasnif qilmadi"[47]. "Turkiston" nomi Majiddin Muhammad ibn Adnanning "Tarixi mulki Turkiston" asari (XI asr) sarlavhasida keltirilgan. "Turkiston" atamasiga Mahmud Koshg'ariyning "Devoni

[42]Kamoliddin Sh. K voprosu ob upotreblenii geograficheskix nazvaniy "Maverannaxr" i "Turkestan"G`G`Ozbekiaton tarixi.2002. № 4. –S. 61-68.

[43]Qarang: Ishoqov M.M. Yangi topilgan sug'dcha hujjat G`G` Adabiy meros, 1993 y., 3-4 (65-66)-son. – 37-41-b.

[44]Qarang: Ter-Mkrtchyan L.X. Armyanskie istochniki o Sredney Azii. V-VII vv. –M.,1979.

[45]E'lon qilinmagan ma'lumotlarni Sh.Kamoliddin O'zR FA akad. E.V.Rtveladzedan olgan.

[46]Qarang: Pahlavi texts. Bundahis. P. 37, 41, 120.

[47]Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. T.: Fan, 1971. –B.48.

lug'atit turk" asarida (1073) ham duch kelamiz. Buyuk Amir Temur o'z hukmlarini: "Bizkim, mulki Turon, amiri Turkiston", deb boshlagan.

Arablar istilosi davri bilan bog'liq manbalarda Turkiston erlarining bir qismi Movarounnahr deb nomlangan. O'rta Osiyoni Rossiya bosib olganidan so'ng bu mintaqaga nisbatan "Turkiston o'lkasi" degan yagona atama qo'llanila boshlagan. Ilmiy adabiyotlarda Xitoyning g'arbiy hududlari (hozirgi Sintszyan-Uyg'ur avtonom okrugi)ga nisbatan "Sharqiy Turkiston" atamasiga ham ishlatiladi. O'rta asrlar va yangi davr uchun O'rta Osiyoning ulkan hududini Turkiston deb nomlash Rossiya sharqshunosligida odat tusini olgan. "Turkiston" toponimi O'rta Osiyoning butun hududini egallagan mamlakat nomi sifatida XIX asr – XX asr boshlari Evropa ilmiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarida umumiy qabul qilingan. O'rta Osiyoning mahalliy aholisi u 1920 yillarda bolsheviklar tomonidan bo'lib tashlangunga qadar o'z mamlakatini Turkiston deb atagan.

Sh. Kamoliddin mavzuning umumiy metodologik masalalariga murojaat etar ekan, asli tabiiy-geografik makrotoponimiya qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. "...u, ma'lumki, o'ziga xos hujjatli manba sifatida qaralishi va muayyan tarixiy-madaniy viloyatlar va mintaqalarning haqiqiy geografik chegaralarini aniqlashda birinchi darajali ahamiyat kasb etishi mumkin. Agar mintaqaviy tarixiy-geografik mikrotoponimiya asrlar mobaynida siyosiy va etnik vaziyatdagi o'zgarishlar natijasida ma'lum darajada o'zgarishi mumkin bo'lsa, undan farqli o'laroq, asli tabiiy-geografik makrotoponimiya o'ta barqarorlik bilan tavsiflanadi1 va siyosiy va etnik chegaralarning o'zgarishidan qat'i nazar, u yoki bu hududning muayyan xalqlarning etnik birligiga mansubligini aks ettirishi va mazkur birlik qadim zamonlarda va uzoq vaqt mobaynida yashagan hududning haqiqiy chegaralarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, Arabiston yarim orolida qadim zamonlardan beri arablar, Armaniston tog'li hududida – armanlar va ularning ajdodlari, Mesopotamiya past tekisligida – Mesopotamiyaning qadimgi xalqlari, Eron platosida – hind-eron qabilalari va xalqlari yashab kelgan. Orol tabiiy-geografik havzasida joylashgan, ulkan hududni egallagan va O'rta Osiyoning tekislik qismini deyarli to'la qamrab olgan Turon past tekisligi[48] ham bundan mustasno emas. Shimoli-sharqdan unga Balxash havzasi

[48]BSE. T. 26. – M., 1977. – 320-b.

kelib tutashadi va ular birgalikda hamma tomondan tog'lar bilan o'ralgan, tekisliklar, tog'lar va daryolarning bir-biri bilan uzviy bog'langan yagona tizimini tashkil etadigan va Osiyo submintaqasi markazida alohida o'rin egallaydigan Turkiston deb nomlangan tabiiy-geografik mintaqani tashkil etadi[49]. Mintaqa aniq belgilangan chegaralarga ega: g'arbda chegara Kaspiy dengizi va Ural daryosining sharqiy qirg'oqlaridan; shimolda – Orol-Irtish suv ayirgichi bo'ylab; sharqda – Tyan-Shan, Pomir va Oloy tog'lari bo'ylab; janubda – Hindikush, Xuroson va Elburs tog'lari bo'ylab o'tadi"[50].

Sh.Kamoliddinning teran fikriga ko'ra, "Turon" nomi ham, uning keyinroq paydo bo'lgan muqobili "Turkiston" ham, "O'rta Osiyo" va "Movarounnahr" nomlaridan farqli o'laroq, geografik tushunchadan ham ko'ra ko'proq etno-geografik tushunchani aks ettiradi va siyosiy-huquqiy ahamiyat kasb etadi. "Turon nomini ilk bor Ahomaniylar sulolasidan oldingi davrda qadimgi ziroatchilar o'zlariga qo'shni bo'lgan O'rta Osiyoning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalari va xalqlarining amalda mavjud davlat tuzilmasini ifodalash uchun qo'llay boshlaganlar, - deb ko'rsatadi u. – Shundan beri Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan barcha davlat tuzilmalarini ziroatchilar "Turon" deb, eftaliylar va turkiylar davridan boshlab esa – "Turkiston" deb ataganlar. Binobarin, shuni komil ishonch bilan aytish mumkinki, bu ikki toponim zamirida qadimgi ziroatchilarning afsonaviy tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan geografik tushunchagina emas, balki amalda mavjud bo'lgan davlat tuzilmalari yotadi. Bu davlat tuzilmalarining oxirgisi arablar istilosiga qadar bo'lgan davrda G'arbiy Turk xoqonligidir"[51].

Sh.Kamoliddin o'z maqolasida sanab o'tgan O'rta Osiyo mintaqasining barcha nomlari orasida tarixiy-madaniy va siyosiy-huquqiy nuqtai nazarlardan birdan-bir to'g'ri nom "Turon" yoki "Turkiston" ekanligini qayd etadiki, bu fikrga qo'shilmaslik mumkin emas. "O'rta Osiyo" va "Markaziy Osiyo" atamalariga kelsak, - deb yozadi olim, -

[49]Mushketov I.V. Turkestan. Geologicheskoe i orograficheskoe opisanie po danno`m, sobranno`m vo vremya puteshestviy s 1847 po 1880 gg. T. 1. – Petrograd, 1915. – 15, 23-b. va boshq.; Kogay N.A. Turanskaya fiziko-geograficheskaya provintsiya G`G` Nauchno`e trudo` TashGU. Vo`p. 353. – Tashkent, 1969. – 7-9-b.

[50]Kamoliddin Sh.K. K voprosu ob upotreblenii geograficheskix nazvaniy "Maverannaxr" i "Turkestan" G`G` O'zbekiston tarixi, 2002, 4-son. – 62-63-b.

[51]Kamoliddin Sh.K. Ko'rsatilgan asar. – 64-b.

ularni mahalliy zaminga va tarixiy-geografik an'anaga, "Movarounnahr" atamasi kabi, chet ellik istilochilar olib kirgan va umuman olganda, ular hech qanday tarixiy-madaniy va siyosiy-huquqiy ahamiyatga ega emas. Binobarin, "Turon" va "Turkiston" toponimlarining qo'llanish sohasi kengaytirilsa, ular tabiiy-geografik, adabiy-badiiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlardagina emas, balki O'rta Osiyo mintaqasi mamlakatlarining ilmiy, tarixiy-geografik adabiyotlarida ham uning butun tarixiga, shu jumladan, qadimiyat va o'rta asrlarga nisbatan yanada kengroq qo'llanilsa, ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq bo'lar edi"[52].

Turon-Turkiston qadimda va ilk o'rta asrlarda, B.I.Vaynberg aytganidek, yagona ekologik tizimgina bo'lmagan. Mahalliy etnoslar va subetnoslar etnogenetik va tarixiy-madaniy jihatlardan yagona superetnik tizimni – eroniygo'y va turkiygo'y «Avesto» (zardushtiylik) madaniy dunyosini ham (turli mahalliy e'tiqodlarning rang-barangligidan qat'i nazar) tashkil etgan. O'rta asrlarda (VIII asrdagi arablar istilosidan keyin) «Avesto» (zardushtiylik) madaniy dunyosi murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlar natijasida asta-sekin musulmon madaniy dunyosining tarkibiy qismiga aylandi, uning ma'naviy madaniyatiga ulkan hissa qo'shdi.

"Turon" va "Turkiston" geografik nomlari va tarixiy atamalarining integral sifati bu yurt xalqlarining qadimgi va o'rta asrlardagi yozuv va kitobat madaniyati tarixiga tipologik jihatdan yagona deb yondashish imkonini beradiki, ushbu kitob ayni shunga bag'ishlangan[53].

Bugungi kunda Turon-Turkiston mintaqasidagi O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston davlatlari mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan va uzoq tarixi mobaynida bu mamlakatlar xalqlarining birortasi ham boshdan kechirmagan sifat jihatidan mutlaqo yangicha, milliy qadriyatlar qayta tiklanayotgan, xalqlar o'zlarining milliy o'zliklariga qaytish bilan birga jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan joy olishga intilayotgan, ijtimoiy-tarixiy bir vaziyatda xalqlarning yozuvi va kitobati tarixiga aloqador muammolarni ilmiy tadqiq etish va ularni qayta idrok qilish masalasi nihoyatda dolzarb vazifalarga

[52] O'sha erda. – 68-b.

[53] Turon-Turkiston xalqlarining oxirgi 3 ming yillik etnik tarixi, ularning davlatchiligi, xo'jalik-iqtisodiy va ijtimoiy hayoti, moddiy va ma'naviy madaniyati, mc'morchiligi, shaharsozligi, tasviriy san'ati, musiqa madaniyati, estetik, etnik, diniy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi, fan, falsafa, adabiy-badiiy ijod tarixi kabi, chinakamiga hali yozilganicha yo'q.

aylanib qolmoqda. Aynan yozuv va kitobat madaniyati, xususan, qadimgi qo'lyozma va toshbosma usulidagi kitoblar, Turonzamin xalqlari uchun umumiy meros hisoblanib, ularning madaniy jihatdan yaxlit bir o'zlikka daxldor ekanini tasdiqlovchi omildir. Ayni shu omil ushbu hududdagi xalqlar madaniyati tarixida ularni uyg'unlashtiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

2-§. Turon-Turkiston jahon yozuvi va kitobati tarixida

Yozuv insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri. Jahon miqyosida yozuv yaratish bilan bog'liq bir necha madaniy mintaqalar bo'lgan. Bular Mesopotamiya, Misr, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Turonzamin kabilardir.

Jahon alifbeli yozuv madaniyatining rivojida Turonzaminning o'rni alohida diqqatga sazovor. Bu qadimiy madaniyat o'chog'i harf-chizma belgili alifbelarni mahalliy tillarga muvofiqlashtirishda hamda O'rta va Uzoq Sharq o'lkalariga harf-tovush mosligiga asoslangan yozuvlarning tarqalishida muhim rol o'ynadi. Jumladan,, miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan boshlab Turonzaminga kirib kelgan oromiy yozuvi grafik belgilarini takomillashtirish va mahalliy tillarga moslashtirish natijasida xorazmiy, sug'diy, parfiyoniy, bohtariy kabi yozuvlar shakllandi. Farg'ona vodiysidagi xalqlarning ham oromiy harflariga asoslangan o'z yozuvi bo'lgan. Milodiy VI–VII asrlarda sug'd yozuvi asosida uyg'ur yozuvi kelib chiqdi. Sug'd tili va yozuvi esa milodiy I ming yillik davomida xalqaro munosabatlar tili (linqua fransa) va yozuvi vazifasini o'tagan. Keyinchalik, XII asrda uyg'ur yozuvi asosida mo'g'ul yozuvi XVI asrda esa manjur yozuvi shakllandi.

Turonzamin mazkur yozuvlardan tashqari yana bir qator qadimiy yozuvlar uchun makon bo'lgan. Bular moniy yozuvi (Moniy dini jamoalari ehtiyojiga xizmat qilgan), suryoniy yozuvi (qadimgi sharqda tarqalgan nestor mazhabidagi xristian jamoalariga xizmat qilgan). Hindistonda tarqalib, Turon o'lkalarida ham amal qilgan brahmi va kxaroshtxi yozuvlari, yunon yozuvi, yunon yozuvi harfli belgilari asosida shakllangan yunon-bohtariy yozuvi va uning transformatsiyalashgan shakli – eftalit yozuvi, IV asrdan boshlab kashf etilgan «Avesto» yozuvi.

Milodiy VI asr o'rtalarida Buyuk turk hoqonligi davlati tashkil

topishi miloddan avvalgi V–IV asrladan boshlab rivojlanib kelayotgan qadimgi turkiy yozuvining ommaviy tarzda qo'llanilishiga sharoit yaratdi. Bu yozuv fonetik jihatdan eng mukammal yozuvlardan biri bo'lgan.

Mahalliy yozuv tizimlari arab istilosidan so'ng ham uch asrdan ziyod vaqt mobaynida arab yozuvi bilan parallel ravishda ishlatib kelindi. Yozuv madaniyatimizning mukammalligi va qadimiyligi tufayli ajdodlarimiz arab tilini va arab yozuvini o'rganib, o'zlashtirib, bu tilda jahonni lol qoldirib kelayotgan buyuk ilmiy kashfiyotlar qilishga, arab yozuvida o'n ikki asr mobaynida ko'chirilgan o'z ulkan milliy qo'lyozma kitoblar repertuarini yaratishga qodir bo'lganlar.

Bilim va ma'rifat manbai – kitobni ta'rif va tavsif qilish lozim bo'lsa, bunday ta'riflarning son-sanog'i yo'q, albatta, biroq shunday bo'lsa-da, bu tengsiz qadriyatni ilmiy jihatdan ta'riflaydigan bo'lsak, uning quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratmoq lozim bo'ladi. Kitob - avvalo jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatining ajralmas bir qismidir, insoniyatni uning o'tmishi hamda kelajagi bilan bog'lab turuvchi ijtimoiy muomala va muloqot vositasidir. Jamiyatning umumiy taraqqiyoti muayyan bir tabaqasi yoki muayyan shaxs ongining rivojlanishi jarayonida kitob madaniy-tarixiy meros sifatida avlodlar o'rtasidagi vorislikni ta'minlovchi tengsiz va nihoyatda faol muqaddas ma'naviy omildir.

Turonzamin qo'lyozma kitobi o'zining tarixiy rivojlanishi jarayonida matn ma'lumotlarni tashkil etish usullarining toshga o'yilgan bitiklar, sopol va yog'och taxtachalarga yozilgan bitiklardan tortib, to teri va qog'oz o'ramlarigacha, keyinroq esa bir necha daftarlardan iborat holda muqovalanadigan kodeks kitoblar darajasigacha bo'lgan bosqichlardan o'tdi. Mil. av. III ming yillikda Qadimgi Misrda va Mesopotamiyada vujudga kelgan kitobning qadimgi shakli sopoldagi bitiklar bilan bir qatorda, papirus o'rami bo'lgan. Yozma xabar berishning qonuniy shakli sifatida o'ram Qadimgi Yunonistonda ham qaror topdi, so'ngra Qadimgi Rimda qabul qilindi. O'ramda matn tor ustunlar shaklida joylashtirilar, satrlar yo'nalishi o'ram uzunligiga parallel tarzda bo'lar edi. Papirus o'ramining o'rtacha kengligi 15-30 sm, uzunligi 5-6 m bo'lgan, ayrim hollarda esa 20-40 m ga ham etgan. O'ram-kitob hukm surgan bir necha yuz yillardan so'ng taxminan milodiy I asrda kodeks kitobning paydo bo'lishi kitob shaklining rivojlanishida muhim hodisa bo'ldi. Kitob yangi

shaklining paydo bo'lishi va tarqalishi yozuv materiali sifatida pergamen (maxsus usulda ishlov berilgan teri)dan foydalanilishi bilan bog'liq. Kodeks quyidagi tarkibiy qismlardan iborat edi: ikki bukilgan pergamen varag'i «diploma» deb atalardi. ustma-ust qo'yilib ikki bukilgan to'rtta shunday varaq «tetra» (qad. yunon. tetra – to'rt) – daftar hosil qilardi, birgalikda tikilgan daftarlar to'plami esa "kodeks"ni tashkil etardi. Tuzilish jihatidan kitobning nisbatan progressiv shakli bo'lgan kodeks funktsional va utilitar xususiyatli bir qancha ustunliklarga ega edi: o'ramdan farqli o'laroq, kodeksda matn sahifaning ikkala tomoniga yozilardi, uni tez varaqlab chiqish mumkin edi, kodeks mustahkam, yozish va bezash uchun qulay edi. Jahon kitobat madaniyati tarixida mavjud kitob shakllarining rang-barangligi kitobning eng ko'p tarqalgan klassik shakllari bo'lgan o'ram va kodeks kitob bilan cheklanmaydi. Ularning barchasida hozirgi zamon kitobining dastlabki shakllari muayyan darajada o'z aksini topgan.

Xuddi jahonning boshqa xalqlari kitobati kabi, Turonzamin qo'lyozma kitobi ham asrlar davomida avloddan-avlodga o'tuvchi o'lmas ma'naviy qadriyatlarni, ilmiy tafakkur yutuqlarini o'zida mujassam etib bordi. Uning sahifalarida jahon fani va adabiyoti xazinasiga katta hissa qo'shgan, dunyoda dong taratgan o'nlab-yuzlab allomalarning, shoir va faylasuflarning ijodiy merosi muhrlanib qoldi. Mazkur kitoblar orqali bizga etib kelgan ularning o'lmas fikrlari, tajriba va bilimlari bugungi kunda ham kishilarga xizmat qilmoqda. Qadimiy davrlarda, o'rta asrlarda hamda undan keyingi davrlarda, bir so'z bilan aytganda o'tmishda yashab ijod etgan barcha allomalarning ilmiy tadqiqotlari, shoir va yozuvchilarning asarlari, faylasuf va tarixchilarning ilmiy risolalari faqat bizning milliy madaniy merosimizning tarkibiy qismi yoki ma'naviy madaniyatimizning bebaho boyliklarigina bo'lib qolmasdan, ayni paytda ular ma'naviyatimiz va madaniyatimizning kelgusidagi taraqqiyotining ham garovidir.

Ushbu kitobda yozuv madaniyati va kitobat ishi an'analarining vujudga kelish qonuniyatlari, rivojlanish tendentsiyalari, turli yozuv tizimlarining Turonzamin xalqlari tomonidan shakllantirilishi va qo'llanilishining ijtimoiy-madaniy, tarixiy shart-sharoitlari va o'ziga xos jihatlari yoritib beriladi.

Shuningdek, kitobda Turonzamin xalqlarining yozuv madaniyati va kitobat ishi borasida bosib o'tgan muayyan tarixiy yo'li va

an'analaridagi vorisiylik, qadimgi davrlardan o'rta asrlarga o'tish, kitobat madaniyatining zardushtiylik tipidan musulmon kitobat madaniyati tipiga o'tish jarayonini tahlil etish orqali oydinlashtirilgan va atroflicha yoritib berilgan. Turon-Turkistonning tarixiy-madaniy jihatdan o'ta muhim bu ikki davri oralig'idagi yozuv va kitobat madaniyati an'analari rivojlantirilishidagi vorisiylik muammolari ilk bora tadqiq etilgan.

Ilmiy asosda va bunday umumlashtirilgan tarzda qadimgi davrlar hamda ilk o'rta asrlar Turonzamin yozuvi tarixi masalalari kitob va kitobat ishi paydo bo'lishining asosiy sharti va omili sifatida birinchi bor tahlil etilgan. Mazkur hududda mavjud bo'lgan xorazmiy, parfiyoniy, bohtariy, sug'diy, o'rta forsiy, moniy, yunon, yunon-bohtariy, qadimgi turkiy, turkiy-uyg'ur, suryoniy-turkiy, kxaroshtxi, brahmi, eftalit, issiq, arab yozuv tizimlarining asosiy tarixiy bosqichlari, etakchi rivojlanish tendentsiyalari hamda mavjudlik asoslari tahlil etiladi; kitobat madaniyati tarixi fani doirasida eng e'tiborli yozma yodgorliklarga umumiy tavsifnomalar beriladi. Bu esa o'z navbatida qadimgi turkiy, xorazmiy yozuvi, parfiyoniy yozuvi, bohtariy yozuvi, sug'diy yozuvi kabi Turonzamin xalqlari yozuv tizimlarining tadrijiy tug'ilish jarayoni va shakllanish davri miloddan avvalgi V–III asrlarga borib taqaladi, degan fikrni tasdiqlash uchun asos yaratadi. Turonzamin xalqlari yozuvi tarixi o'z ibtidosini ana shu davrlardan, ya'ni ularning kitobat madaniyati evolyutsiyasiga poydevor qo'yilgan va asos solingan o'sha qadimiy davrlardan boshladi. Ana shu sababli Turonzaminda istiqomat qiluvchi hozirgi xalqlar ajdodlarimizning 2300 yillik tarixga ega yozuv an'analari va izchil kitobat madaniyatining merosxo'rlarimiz va sohiblarimiz deyishiga to'la asos bor.

3-§. Turonzamin xalqlari yozuv madaniyati va kitobat ishi an'analarining yuzaga kelishiga xizmat qilgan tarixiy-madaniy shart-sharoitlar

3.1. Etnik-madaniy mintaqalar va mahalliy davlatchilik shakllari

Tariximizning qadimgi va ilk o'rta asrlarining turli bosqichlarida Turon-Turkiston zaminida bir qancha katta va kichik o'ziga xos etnik madaniyatga ega bo'lgan mintaqalar paydo bo'lib shakllangan edi, ular

qadimiy Katta Xorazm, Baqtriya, Parfiya, Marg'iyona, Sug'd, Farg'ona, Ustrushana, Choch, Isfijob, Taraz, Bolasag'un, Toxariston, Kobadiyon, Chag'oniyon, Xuttaliyon, Bomiyon, Shugnon, Chitrol va boshqalardan iborat edi. Turli tarixiy davrlarda Turon-Turkistonning har qaysi hududida o'nlab xilma-xil mustaqil davlatlar vujudga kelar, hukm surib, yana inqirozga yuz tutardi yoki hududlarimizning ayrim qismlari yirik davlatlar tarkibiga kirardi. Shunday ulug' davlatlardan biri butun Evroosiyo (shu jumladan,. O'rta Osiyo) bo'ylab cho'zilgan sak-skif dunyosidir. Janubiy Sibir va Oltoydan Dunay daryosining o'rta oqimiga qadar yoyilgan bu ulkan tarixiy-madaniy va ma'naviy dunyo o'z davrida Shumer va Vavilon qadimgi lokal sivilizatsiyalariga, Yunon-Rim madaniy dunyosiga, Midiya hamda Eronning ilk Xaxamanusha saltanatiga yuzma-yuz turgan. Sak-skif dunyosi turkiy dunyo bilan chambarchas birlikni tashkil etgan.

Qadimgi o'tmishimizning «sak-skif zamonasi» masalasidan keyin tariximizning yozma yodgorliklarida aks etgan «yozma manbali» davri boshlanadi. Bu davr ahomaniy podsholarining Behistun qoyatosh bitiklarida aks etgan. Keyinroq yunon va boshqa xalqlar tarixnavislik an'analarida qayta-qayta tilga olinadi. Ularda ajdodlarimizning etnogenetik evolyutsiyasiga doir, hayotining ijtimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy-maishiy tarixi, ma'naviy dunyosi haqidagi ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ayni shu yozuv manbalari bilan ta'minlangan davr boshida Ahomaniylar Eroni imperiyasi turadi (miloddan avvalgi 558-330 yillar). Makedoniyalik Iskandar o'z harbiy yurishlari natijasida qisqa muddatda Yunonistonu Misr, Old va Kichik Osiyoni, O'rta Sharqni, shu jumladan, bizning o'lkamizni ham birlashtirdi. Iskandar tuzgan imperiya uning o'limidan so'ng (miloddan avvalgi 323 y.) tezda parchalanib, Salavkiylarga tekkan qismi tarkibiga Parfiya, Sug'd, Baqtriya erlari ham kirdi.

Miloddan avvalgi 312 yilda yuzaga kelgan Salavkiylar davlati ham yo'qlik sari keta bordi. 250 yillarda undan Parfiya va Baqtriya davlatlari ajralib chiqdi. Yunon-Baqtriya davlati (miloddan avvalgi 256 yildan I asr o'rtalarigacha), Parfiya davlati (miloddan avvalgi 250 yildan milodiy 224 yilgacha), Qadimgi Xorazm davlati (miloddan avvalgi IV asrdan milodiy I asrgacha), Afrig'iylar Xorazm davlati (milodiy IV asr boshidan VIII asrgacha), qadimgi Farg'ona davlati (xitoy manbalarida Davan atalgan yurt-miloddan avvalgi II asrdan milodiy III asrgacha). Qangli davlati

(xitoy manbalarida kangyuy) - miloddan avvalgi II - milodiy III-IV asrlar, Qushon davlati (miloddan avvalgi I - milodiy IV asrlar). Eftalitlar davlati, Kidarlar va Xionlar davlati (IV-V asrlar), qadimgi Turk xoqonligi (milodiy 545-744), Sug'd konfederativ davlati (V-VIII asr o'rtalari), Uyg'ur davlati (milodiy 744 yildan 980 yillargacha) - bular hammasi ajdodlarimizning qadimgi davlatchilik tarixi bosqichlari bo'lib, hozir ular o'zbek, tojik, turkman, uyg'ur, qozoq, qirg'iz va boshqa xalqlar yashab turgan erlarda yuzaga kelgan.

Arab istilosi arafasida (VII asr ikkinchi yarmi - VIII asr boshlari) o'lkamizda siyosiy tarqoqlik hukmron edi. O'nlab mayda hokimliklar o'zaro nizo va talashlarda edilar. Bular o'rtasida birlashishga urinishlar (elchiliklar, madaniy va iqtisodiy munosabatlar) umumiy tarqoqlikni tugatish uchun etarli emas edi. Jumladan., Surxon–Sherobod vohalarida Chag'oniyon nomli davlat tuzilmasi bor edi. Buxoro vohasida Sug'dning bir qismi bo'lishiga qaramay buxorxudotlar tomonidan boshqarilgan yarim mustaqil hokimlik bo'lgan. Kesh, Naxshab vohalarida ham bir qator yarim mustaqil mulklar mavjud edi. Samarqand shahri Zarafshon vohasi va Sug'dning markaziy qismida joylashgan podsholikning poytaxti bo'lib, konfederativ munosabatlarni muvofiqlashtirib turgan. Toshkent vohasi, Ustrushana o'lkasi kabilar ham alohida siyosiy birliklar bo'lib o'z mahalliy hokimlari tomonidan boshqarilgan. Xususan, Toshkent turk hoqonligining tayanch mulklaridan bo'lgan. Unda hoqonning noibi sifatida davlat ishlari ustidan tudun lavozimidagi shaxs nazorat ishlarini amalga oshirgan. Lekin bu Toshkentda o'z mahalliy hokimi (A-14 raqamli sug'd hujjatida - Mug' tog'i arxividan - Chochinak xvabu deb ko'rsatilgan) bo'lishiga monelik qilmagan[54]. Sug'dning Panch viloyatidan 719 yili elchi bo'lib Chochga kelgan Fatufarn o'z hokimi - Devashtichga yozgan maktubida hokim, uning yordamchisi va turk hoqoni vakili tudun bilan uchrashgani haqida xabar beradi. Ushbu tarixiy hujjatda turk hoqoni bilan, uning Choch yaqinidagi qarorgohida aloqa o'rnatishga bo'lgan intilish etakchi ma'no kasb etgani alohida diqqatga sazovordir.

Farg'ona vodiysining ham ilk o'rta asrlarda o'z mustaqil podsholigi bo'lgani ma'lum. Yuqoridagi sug'd hujjatida Fatufarn «Fraganik ixshid» nomiga yozilgan maktubni Fraganik tutuq (Turk xoqonligining

[54] Isxoqov M.M. Unutilgan podsholikdan xatlar. Bir turkum sug'd hujjatlarining o'zbek tiliga tarjimasi va izohlari. T.: «Fan», 1992, 5-12 b.

Farg'onadagi harbiy noziri) orqali jo'natgani haqida yozadi. Bulardan ko'rinadiki, qadimiyat asrlari hamda ilk o'rta asrlarda Turon o'lkasi Sug'd, Choch, Farg'ona, Toxariston, Marg'iyona, Xorazm va boshqa hududiy asoslarda o'z ichki konfederativ mulklarining uyushmalari sifatida hayot kechirgan. Bu o'lkalarda o'nlab katta-kichik shaharlar rivoj topgan. Qishloq xo'jaligi, irrigatsiya, hunarmandchilik ishlab chiqarishi yuksak darajada o'sdi. Shahar qurish va arxitekturaning o'ziga xos shakllari yuzaga keldi. Saroy, ibodatxonalar, shahar mahallalari, bozor rastalarining bir butun tizimi paydo bo'ldi. Badiiy-madaniy yodgorliklarning jahon ahamiyatiga ega yuksak namunalari yaratildi.

3.2. Eroniyzabon va turkiy tilli elatlarning etnogenetik asoslari va ma'naviy birligi, «Avesto» (zardushtiylik) superetnik madaniy dunyosi

Turon va Eronning qadimgi ijtimoiy-madaniy, ma'naviy va diniy tarixiga oid ikki o'ta muhim xulosa bugungi kunda ko'pchilik olimlar orasida hech bir shubha uyg'otmaydi. Ulardan birinchisi «Avesto»ga asos epik, mifologik dunyo va tafakkur hosilalarning ilk vatani ayni Turonzaminligi bo'lib, bularni yaratishda hozir Amu va Sirdaryo havzalarida yashab turgan o'zbek, tojik, turkman, qozoq va boshqa xalqlarning ajdodlari asosiy o'rin tutganligidadir. Ikkinchi ilmiy xulosa shundan iboratki, zardushtiylik o'z zamonasi madaniyatining eng yaxshi va ahamiyatli jihatlarini uyg'unlashtirgan, shuningdek, yakkaxudolik g'oyasi, ya'ni monoteizmni ifodalovchi diniy ta'limot sifatida aynan O'rta Osiyoda, tub erli xalqlarning diniy va madaniy tajribalari asosida paydo bo'lganligi va zardushtiylikning Turondan Eron o'lkalariga kirib borganligidir.

Zardushtiylikkacha bo'lgan madaniy an'analarning xalq urf-odatlari, afsonalari, rivoyat, asotir, turli ma'budlar va qahramonlarga bag'ishlangan hamdu sanolar – madhiyalar shaklida tug'ilgan dastlabki unsurlari qadimgi Turon xalqlari orasida miloddan avvalgi II hamda I ming yillik boshlarida paydo bo'lgan. Ahomaniylar imperiyasining miloddan avvalgi VI asrlar o'rtasida paydo bo'lishi Turonzamin uchun qadimgi Eron davlatining sharqiy bo'lagi sifatida G'arbiy Eron davlatiga qo'shilishini (Midiya, Persida, ya'ni hozirgi Eron va Ozarbayjon

hududlari) bildirar edi. Bu davrga kelib Turon xalqlarida xalq og'zaki ijodining ko'plab namunalari vujudga kelgan bo'lib, ular asosan turli asotirlar turkumlaridan, diniy rivoyatlar, epik qahramonlik afsonalaridan tarkib topgan edi. Ularning juda ko'pchiligiga xos motivlar va o'ziga xos jihatlar zardushtiylikning muqaddas kitobi va asosiy qomusi sanalmish «Avesto»da o'z ifodasini topgan.

Ko'plab nufuzli olimlarning fikriga ko'ra Sharqiy Eron (o'qing: Turon) eposining butun eroniy zabon xalqlar mulkiga aylanishi hamda zardushtiylikning diniy ta'limot sifatida Sharqdan G'arbga tomon tarqalishi Ahomaniylar imperiyasi vujudga kelishi bilan boshlanib, keyingi bir necha yuz yilliklar mobaynida davom etgandir. Masalan, akademik V.V.Bartoldning fikricha, mazkur jarayonning jadallashuvi va sezilarli darajada to'ldirilishi Parfiyaliklar sulolasiga mansub Arshakiylar davrida yuz bergan[55].Taniqli eronshunos olim, prof. V.A.Livshits «qadimgi eroniylar mifologiyasi epik rivoyatlar va afsonalar turkumidagi umumiylikdan farqli bo'lib, G'arbiy Eron va Sharqiy Eron xalqlari eposi bilan faqat Arshakiylar davridagina, ya'ni Sharqiy va G'arbiy viloyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar Ahomaniylar davridagiga qaraganda ancha yaqinlashgan bir davrda tanishishga muvaffaq bo'lgan. Faqat Parfiya davridan boshlab Keyoniylar haqidagi qahramonlik afsonalari umumeron eposining manbaiga aylangan»[56]- deya uqtiradi.

Zardushtiylikning G'arbiy Eron erlariga yoyilishi to'g'risida ham bir-biriga yaqin bo'lgan ko'plab nuqtai-nazarlar mavjud. Bularning muhim birlashtiruvchi nuqtasi shuki, barchasida ham zardushtiy ta'limoti. «Avesto» an'analarining ilk vatani Turonzamin ekani tan olinadi: «Zardushtiylik Sharqiy Eronda tug'ilgan (an'anaga aylangan fikrga ko'ra Baqtriya yurtida), keyinchalik G'arbga tarqalgan. So'nggi bosqichlardan birida uning markazlaridan biri Midiya bo'ldi, midiyalik mag(afsungar)lar zardushtiylik aqidalarining saqlovchilari va targ'ibotchilariga aylandi», - deyiladi eron tilshunosligining zamonaviy qomusida.[57]

Qadimgi Eron tarixi bo'yicha yirik mutaxassislar M.A.Dandamaev va V.G.Lukoninlarning fikriga ko'ra, zardushtiylik Eronda miloddan

[55]Qarang: Bartold V.V. Vostochno-iranskiy vopros G`G` Sochineniya. T. 7. M., 1971. S. 123.

[56]Livshits V.A. Predislovie G`G` Bartold V.V. Sochineniya. T. 7. M., 1971. S. 16.

[57]Osnovo` iranskogo yazo`koznaniya. Drevneiranskie yazo`ki. M.: Nauka, 1979. S. 131.

avvalgi VI-V asrlar chegarasida mustahkamlana boshlagan.[58] Hozirgi zamon ingliz tarixchisi, zardushtiylik tarixi bo'yicha yirik fundamental tadqiqotlar muallifi Meri Boysning ta'kidlashicha, zardushtiylik nafaqat uch buyuk imperiyalar (ya'ni Ahomaniylar, Parfiya, Sosoniylar imperiyalari) davrida davlat dini darajasida bo'lgan, balki Midiya podshohi Astiag davrida ham (miloddan avvalgi 584-549 yillar) davlat dini sifatida xizmat qilgan bo'lishi mumkin.[59] Qolaversa, ayni shu muallif Zardusht dinining shakllanishi tarixini miloddan avvalgi XIII-XII asrlardan qidirish kerakligini uqtiradi.[60]

Etnosferaning populyatsion darajasida[61] Turon va Eronning sharqiy fors va turkiy til guruhlariga mansub qardosh tillarda so'zlashuvchi etnik jihatdan yaqin barcha qabilalari, etnos va subetnoslari qadimgi davrda va ilk o'rta asrlarda yagona tizim – fors-turkiy superetnik birlikni tashkil qilgan. Ushbu superetnosning rivojlanish vektorini, bir tomondan, elatlararo integratsiya va differentsiatsiya, har xil subetnos va etnoslar vakillarining birdan biriga o'tishi, o'zaro chatishishi, bir-birining tili, dini, madaniyati unsurlari va tizimlarini o'zlashtirishi, alohida xalq va elatlarning etnogenetik evolyutsiyasi jarayonlari, ikkinchi tomondan esa, madaniy o'zaro ta'sir va sinkretizm jarayonlari belgiladi. Qadimgi davrda va ilk o'rta asrlarda bu superetnos ijtimoiy-madaniy jihatdan o'zining ko'pgina parametrlariga ko'ra turdosh hodisa sifatida rivojlandi. Jahon tarix fanida ishlab chiqilgan shumer-bobil va misr «qadimgi dunyosi», yunon-rum «antik dunyosi» yoki Janubi-Sharqiy Osiyo va Xitoyning bir qator mamlakatlariga tatbiqan «buddizm dunyosi» kabi tushunchalar bilan analogiya bo'yicha, fors-turkiy madaniy dunyosini biz to'liq asos bilan fors-turkiy «Avesto» (zardushtiylik) superetnik madaniy dunyosi» deb atay olamiz.

Darhaqiqat, madaniyat tarixi jihatidan qadimgi davr va ilk o'rta asrlar Turon va Eronda yagona ijtimoiy-madaniy davr bo'lgan. Turon

[58]Qarang: Dandamaev M.A. Axemenidskoe gosudarstvo G`G` Istoriya Irana. M.: 1977. S. 71; Dandamaev M.A., Lukonin V.G. Kultura i ekonomika drevnego Irana. M.: 1980. S. 331

[59]Qarang: Boyce M. History of Zoroastrianism. Vol. II. Under the AchaemeniansG`Zeiden-Koln. 1982. P. 116.

[60]O'sha erda.

[61]Qarang: Gumilev L.N. Pismo v redaktsiyu jurnala G`G` Voproso` filosofii. 1989. №5. S. 159. Gumilev L.N. Etnogenezi biosfera Zemli. T.: TOO «Mishel i K°», 1993. -503 s.; Gumilev L.N. Etnosfera: Istoriya lyudey i istoriya prirodo`. M.: Ekopros, 1993. -544 s., Gumilev L.N.To`syacheletie vokrug Kaspiya. M.: TOO «Mishel i K°», 1993. -336 s.

madaniyati negizida dunyoga kelgan zardushtiylik eng avvalo mahalliy xalqlar – xorazmiylar, parfiyonlar, sug'dlar, turkiylar, saklar, bohtariylar, marg'iyonlar, farg'oniylar orasida tarqalgan. Zardushtiylik g'oyasi jamiyat hayotining barcha bo'g'inlariga chuqur kirib borgan. Xalq tomonidan yaratilgan boy mifologiya, afsonaviy tarix, xalq og'zaki ijodini o'zida jamlagan ijtimoiy ong shakli hamda kundalik madaniy an'analar va xalq urf-odatlarining ifodasi sifatida, zardushtiylik va uning tamoyillari turmush tarzining asosiy parametrlari, shaxs moyil bo'lgan qadriyatlar tizimi, ma'naviy-axloqiy, etik va estetik me'yor va qoidalarni tartibga solib, turmushning tarkibiy qismiga aylandi, ko'p asrlar mobaynida xalqlarning tirikchilik tarzi, yashash va ijtimoiy o'zini o'zi boshqarish shakllarini belgilab keldi.

Xalq madaniyati va zardushtiylik g'oyasining sinkretizmi va o'zaro bog'liqligi shu qadar kuchli ediki, masalan, kishi e'tiqodi va shaxsiy moyilliklariga ko'ra zardushtiylik turmush tamoyillari va diniy tasavvurlari tashuvchisi bo'lgani holda, o'zi uchun diniy aqidalar sifatida ilk o'rta asrlarda Turonda keng tarqalgan buddizm, moniy yoki xristian dinlari unsurlari va tizimlarini juda oson qabul qila olardi.

Qadimgi davr va ilk o'rta asrlar mobaynida fors-turkiy superetnosi bo'lmish «Avesto» (zardushtiylik) madaniy dunyosi zardushtiylik madaniyatining tashuvchisi sifatida qo'shni mamlakatlarning madaniyati bilan bog'liq holda rivojlandi va ko'pgina xalqlarning madaniy yutuqlarini o'zida mujassam qildi. Turon xalqlari o'z madaniyatlariga kuchli ta'sirni u yoki bu tarixiy bosqichda xalqaro muloqot tillari – [linqua fransa] funktsiyasini bajargan alohida tillar orqali his qildilar. Chunonchi, Ahomaniylar davri (miloddan avvalgi VI-IV asrlar) da kundalik turmushda va mahkamachilik amaliyotida oromiy tili hukmronlik qilib, oromiy yozuvi asosida «milliy» turon yozuv tizimlari dunyoga keldi. Iskandar Zulqarnaynning Turon-Turkistonga yurishidan keyingi davrda ham Salavqiylar davlati va Yunon Baqtriyasida shunday bo'ldi. Bu erda ellinlar an'analarining mustahkam o'rnashishi yunon tili va yunon yozuvining rasmiy til va yozuv sifatida faoliyat ko'rsatishi bilan birga kechdi. Yunon yozuvining xuddi shunday holati Parfiya podshohligi davrining birinchi yarmi va Qo'shon imperiyasining birinchi yuz yilligida (miloddan avvalgi I asr) ham kuzatildi.

Turon erlarining Ahomaniylar davlati tarkibiga qo'shib olinishi

va turon xalqlari davlat tuzilmalarining keyingi evolyutsiyasi o'z rivojlanishining turli tarixiy bosqichlarida xalqaro savdo-sotiq va madaniy aloqalarni jonlantirish, xalqlarning til topishi uchun qulay sharoit tug'dirdi. Chunonchi, Ahomaniylar imperiyasidagi turli xalqlarning o'zaro madaniy ta'siri masalasiga to'xtalib, akademik B.G'.G'afurov shunday qayd etgan edi: «Turli xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyati amalgamalandi, (ya'ni o'zaro kirishuv va sintezga kirdi – E.O.) va natijada sekin-asta Ahomaniylar davlati madaniyati yuzaga keldi. U turli mamlakatlarning ilmiy bilimlari, san'at usullari va diniy e'tiqodlarini ma'lum darajada o'zida mujassam qildi. Bu madaniyatga ko'pgina mamlakatlar, shu jumladan,, tabiiyki, Turon xalqlari ham o'z hissasini qo'shdi. Ahomaniylar davlatida bohtariylar, xorazmiylar, sug'dlar, parfiyonlar, marg'iyonlar, saklar va boshqa xalqlar katta rol o'ynadi».[62]

Madaniy yutuqlarni o'zaro almashish va o'zlashtirish jarayoni, xalqlar va ularning ayrim vakillarining bevosita aloqalari turli darajada: davlat, tijorat va madaniy miqyoslarda kechdi. «Jumladan,, miloddan avvalgi IV asrda parfiyalik Amminasp Misr hukmdori bo'lgan... Sippar shahridan topilgan Doro I davriga doir hujjatda Sakieta ismli sak tilga olinadi... Uzoq Elefantin orolida xorazmiy Dargman yashagan va o'z uyiga ega bo'lgan... Bobilning Nippur va boshqa shaharlarida bobilliklar, misrliklar, kariyaliklar, lidiyaliklar, midiyaliklar, hindlar, saklar, bohtariylar, xorazmiylar yashab, birga ishlaganlar...»[63]. Kelib chiqishi turonlik bo'lgan juda ko'p jangchilar qadimgi Eron, Salavkiy, Yunon-Baqtriya, Parfiya shohlarining Kichik Osiyo, Misr, Yunoniston, Rum, Hindistonga yurishlarida qatnashib, bu mamlakatlarning yirik shaharlarida katta-katta koloniyalarga bo'linib yashar edilar. O'z navbatida, Turonda ham juda ko'p g'arbliklar istiqomat qilgan. Miloddan avvalgi V asrda bu erda Yunonistonning Milet shahridan bo'lgan muhojirlar yashagan. Shimoliy Afrikadagi Barka shahri aholisining bir qismi Doro I davrida Baqtriyaga ko'chirildi. Turonning deyarli barcha yirik shaharlarida Ahomaniylar davlati munshiyxonasi vakillari, jumladan,, oromiy yozuvi mirzalari yashaganlar. Yunon qo'shinining lashkarlari va yunon ma'murlari Salavkiylar va Yunon-Baqtriya podshohligi davrida Turon

[62]Qarang: Gafurov B.G. Tadjiki. Drevneyshaya, drevnyaya i srednevekovaya istoriya. Kniga 1. – 2 izdanie. – Dushanbe: Irfon, 1989. - S. 104.

[63]Qarang: Gafurov B.G. Tadjiki. Kniga 1, S. 104-105.

shaharlarida doimiy istiqomat qilganlar.[64]

Savollar va topshiriqlar:

1. "«Avesto» madaniy dunyosi" tushunchasi mazmunini ta'riflab bering.

4-§. Turon–Turkiston harfli-tovushli yozuv tizimlarining kelib chiqishi va shakllanish qonuniyatlari

4.1. Yozuv – kitobat madaniyati rivojining asosiy omili sifatida

Kitob va uning mavjudlik usuli – kitobat ishining, kitob ishlab chiqarish va kitob taqsimoti jarayonlarining dialektik birlikda, kitobning jamiyatdagi harakati va umuman kitobatchilikning mavjudlik shakllari sifatida paydo bo'lishi genetik va tarixiy jihatdan yozuvning paydo bo'lishi va ijtimoiy aloqa usuli sifatida qo'llanishi bilan bog'liqdir. U yoki bu xalq, u yoki bu sivilizatsiyada inson ijtimoiy-amaliy faoliyatining rang-barang shakllarini qayd etish uchun ma'lum yozuv tizimi va yozuv yodgorliklari majmui, yozuvni qo'llash an'analarining mavjudligi «Kitob-Kitobat ishi» tizimining yuzaga kelishi va faoliyatining eng zarur va asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Taraqqiyotning eng muhim yutug'i - rivojlangan yozuvning mavjudligi xalq ma'naviy madaniyatining ahamiyati va saviyasini belgilab, ijtimoiy ong shakllarining rang-barang ko'rinishlari rivojlanishi uchun qulay imkoniyat tug'diradi. Ijtimoiy ong shakllarining rang-barang ko'rinishlari (din, ilm-fan, adabiyot va h.k.) avvalo asarda o'z ifodasini topib, so'ngra kitobat madaniyati jarayonlarida kitob holiga keladi.

4.2. Oromiy yozuvining genezisi

Qadimgi davrlarda va ilk o'rta asrlarda Turon xalqlarida mavjud bo'lgan yozuv tizimlari xuddi boshqa sharq harfli-tovushli yozuv tizimlari kabi finikiya yozuvidan oromiy yozuvi orqali kelib chiqqan. Qadimgi semit finikiya harfli konsonant (tovushli) yozuvi barcha alifbe yozuvlarining tarixiy manbai bo'lib xizmat qildi. Miloddan avvalgi 1500 yillar atrofida vujudga kelgan finikiya alifbesida jami 22 belgi (harf) mavjud bo'lib, ularning hammasi undosh tovushlarni ifodalar edi. Semit tillarining o'ziga xos jihati shundan iborat ediki, ularda so'zlarning ma'nosini anglatuvchi o'zagi asosan undosh harflar bilan ifodalanar, unlilar esa

[64]Qarang: Gafurov B.G. Tadjiki. Kniga 1, S. 105.

asosan so‘z yasalishida hamda uning grammatik unsurlarini ifodalashda zarur bo‘lardi. Shuning uchun ham bu tillardagi unli tovushlarni ifodalash uchun harflarga zaruriyat yo‘q edi. Yozuvning bunday tizimi nutqni tovushlar bo‘yicha, eng kam va tezda esda qoluvchi belgilar (harflar) vositasida ifodalash imkoniyatini berardi. Keyinchalik Finikiya alifbesi Kichik Osiyoda, Yunoniston va Italiyada ham qabul qilindi. Ushbu alifbe mazkur davlatlardagi g‘arbiy alifbelarga, ya’ni yunon, keyinchalik esa lotin alifbesiga ham asos bo‘ldi. Bu alifbe miloddan avvalgi 1000 yillar atrofida finikiya tiliga qardosh til bo‘lgan oromiy tili uchun ishlab chiqilgan qiya tez yozish shakli (kursiv) tarzida butun Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga tarqalib, oromiy, yahudiylarning to‘rt burchakli, fors, barcha «milliy» turon yozuvlari, shuningdek, arab yozuvi kabi sharq yozuv tizimlarining vujudga kelishida tamal toshi vazifasini o‘tadi.

D.Diringer oromiy yozuvi tarixida ikki muhim bosqichni alohida ta’kidlab ko‘rsatadi: 1) birinchi davr – miloddan avvalgi IX-VII asrlar. 2) oromiy yozuvining «oltin asri», ya’ni bu davrda oromiy tili xalqaro muloqot - jahon tili (Lunqua fransa) darajasiga ko‘tarildi va Yaqin Sharqning rasmiy tili maqomini oldi. Qadimgi Eron imperiyasida oromiy tili rasmiy til maqomiga ega bo‘ldi.1 Dastlabki davrda oromiy yozuvining tarqalish hududi asosan Old Osiyo mamlakatlaridan iborat edi. Keyinchalik o‘zining «oltin asri» davrida esa oromiy yozuvi tobora sharqqa tomon keng tarqala boshladi, xususan Ahomaniylar saltanatining janubi-sharqiy qismlarini ham butkul ishg‘ol etib, hind daryosi vodiylaridan tortib Turonzaminning shimoliy chegaralarigacha etib bordi.

Ahomaniylar imperiyasi hududida Buyuk Doro I ning farmoniga ko‘ra oromiy tili va yozuvi rasmiy davlat tili va yozuvi sifatida qabul qilingan edi. Doro I tuzgan Behistun qoyatoshidagi bitikning 70-bobidagi matnga muvofiq bu voqea miloddan avvalgi VI asr oxirlarida sodir bo‘lgan. («...ilgari mavjud bo‘lmagan boshqacha usuldagi ariycha yozuvni ixtiro etdim... Keyin men bu yozuvni barcha mamlakatlarga yubordim. Xalq uni qabul qildi»).[65] Shu boisdan ham oromiy yozuvining Turonzamin hududiga kirib kelish vaqtini miloddan avvalgi VI asr oxiri – V asr boshlari bilan belgilash lozim bo‘ladi. Turon hududidan topilgan oromiy yozuviga oid eng qadimiy yodgorlik sifatida Shimoliy Xorazmda

[65]Oranskiy I.M. Vvedenie v iranskuyu filologiyuG`Sost. I.M. Steblin-Kamenskiy. - 2 izd. – M.: Nauka, 1988, S. 97.

joylashgan Katta Oybo'yirqal'adan topilgan xumdagi yozuvni tilga olish mumkin. Mazkur xumning yasalgan sanasi olimlar tomonidan miloddan avvalgi V-IV asrlar deb belgilangan. Mazkur xumdagi yozuv haqida gapiriladigan bo'lsa, Markaziy Osiyo xalqlari yozuvi tarixi bilan jiddiy shug'ullanib kelayotgan, bu sohadagi jahonda dong'i ketgan, eng nufuzli olimlar professor V.A.Livhits va O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi E.V.Rtveladzelarning fikriga ko'ra, "xumchadagi yozuvning tili ehtimol hali qadimgi xorazm tili emas, balki oromiy tilidir"[56]

Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida o'z tarkibida O'rta Osiyo erlarini ham qamrab olgan Ahomaniylarning jahonshumul imperiyasining tashkil topishi tufayli bu erning qadimgi xalqlari oldida ulardan ancha yillar ilgari kundalik turmushda oromiy yozuvidan foydalana boshlagan Old Osiyo xalqlarining yozuv madaniyati borasidagi boy tajribalarini o'zlashtirish imkoniyati ochildi. Qadimgi Eron davlatida ilgaridan mavjud ponasimon yozuv bilan birga oromiy tili va yozuviga ham davlat maqomi berildi. Darvoqe, o'rni kelganda shuni ham alohida ta'kidlash joizki, agar ponasimon yozuv asosan monumental, ma'muriy-memorial inshootlarda ishlatilgan bo'lsa[57] , oromiy yozuvi butun imperiya bo'ylab to'la-to'kis kundalik turmushda, oddiy muomala darajasida qo'llanar edi, ya'ni savdo-sotiq, xo'jalik munosabatlarida, idora-yozuv ishlari yuritishda hamda ma'muriy-boshqaruv ishlarini

[56]Rtveladze E.V., Livshits V.A. Pamyatniki drevney pismennosti. – T.: Uzbekistan, 1985. - S.8-9.

[57] Bularga misol qilib, barchaga yaxshi ma'lum bo'lgan miloddan avvalgi VII asr oxiri-VI asr boshlariga mansub Ahomaniy podsholari Ariyaramna va Arshamalar tomonidan oltin taxtachalarga o'yib yozilgan ponasimon yozuvlarni, Buyuk podshoh Kirning 3 ta yozuvini (miloddan avvalgi 558-529 yillar), Doro I ning (miloddan avvalgi 522-486 yillar) Persepoldagi (Taxti Jamshid), Naqshi Rustamdagi hamda Suzadagi yozuvlarini, uning o'g'li Kserks I tomonidan ohak va tosh parchalariga bitilgan yozuvlarni (miloddan avvalgi 486-465 yillar) keltirib o'tish mumkin. Ular orasida eng yirigi hamda mazmunan ahamiyatlisi Doro I ning yozuvlaridir. Ayniqsa, yirik qoyaga o'yib yozdirilgan Bexistun yozuvi alohida e'tiborga molik. Mazkur bitikda miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida yuz bergan tarixiy voqealar haqqoniy bayon etilib, O'rta Osiyo, Kavkazorti hamda fors shohlari tomonidan bosib olingan boshqa mamlakatlar xalqlarining o'z ozodliklari va mustaqilliklari yo'lidagi sonsiz-sanoqsiz qo'zg'olon va isyonlari ifodalangan. Naqshi Rustamdagi yozuvlar bilan birga Bexistundagi mazkur yozuvlar Turonzamin xalqlarining o'ziga xos qabila va elatlari ilk bor nomma-nom tilga olingan hamda Xorazm, Baqtriya, Sug'd, Marg'iyona kabi mintaqalar aholisining xo'jalik yuritish usullari, diniy e'tiqodlari to'g'risida ma'lumot beruvchi eng qadimiy yozma yodgorlik sanaladi.

amalga oshirishda faqat oromiy tili va yozuvidan foydalanilar edi. Ahomaniylar imperiyasining barcha qismlarida har qanday hujjat oromiy tilida to'ldirilar edi. Mahalliy amaldorlar, asl millati kim bo'lishidan qat'i nazar, u xorazmlikmi, parfiyalikmi, baqtriyalikmi, sug'dlikmi, hujjat to'ldiruvchi mirzaga hujjat matnini o'z tillarida aytib turar, matnni yozayotgan asl millati oromiy bo'lgan mirza uni oromiy tiliga tarjima qilib, oromiy tilidagi hujjatni tayyorlab berardi. U yoki bu hujjatni o'qish kerak bo'lib qolganida oromiy tilida bitilgan mazkur hujjatning mazmuni mahalliy tillarga og'zaki ravishda tarjima qilib etkazilardi.

4.3. Dipiristonlar ilk maxsus o'quv yurtlari sifatida

Idora ishlarini yuritishdagi bunday tajriba yillar o'tishi bilan rasmiy oromiy tiliga bir qator mahalliy tillardan ko'plab so'zlar va hujjatlarda ishlatiladigan so'z va iboralarning singib ketishiga olib keldi. Natijada Turonzaminda oromiy-xorazmiy, oromiy-parfiyoniy, oromiy-bohtariy, oromiy-sug'd tillarining qorishmasidan hosil bo'lgan o'ziga xos yozuv tili paydo bo'la boshladi. Buning ustiga asta-sekinlik bilan millati oromiy bo'lgan mirzalarning o'rnini mahalliy xalqlar orasidan chiqqan mirzalar egallay boshladilar. Qolaversa, oromiy tilining o'zi ham miloddan avvalgi III asrga kelib o'lik tilga aylanib bo'lgan edi, ya'ni unda kundalik turmushda hech kim so'zlashmas, faqat yozuvdagina oromiy tili qo'llanilardi, xolos.[68] Eronshunos olimlarning kuzatishlariga qaraganda, miloddan avvalgi III asrning o'rtalaridan boshlaboq Baqtriya, Parfiya, Farg'ona, Sug'd, Xorazm davlatlarida oromiy tilidagi idora ishlarini mahalliy mirzalar amalga oshira boshlaganlar. Bu mirzalar oromiy tili va yozuvini maxsus mirzalar tayyorlaydigan mahalliy maktablarda o'qib-o'rganar edilar (ya'ni dipiristonlarda o'qishardi, dipir – «mirza», «xattot», iston – «joy» ma'nosini anglatadi). «Biroq bu mahalliy mirzalar oromiy tilini u qadar mukammal egallashlari shart emas edi, mazkur maktablarda ularga asosan davlat idora ishlarida qo'llaniladigan so'z va iboralar, turli hujjatlarni to'ldirish, oromiy tilidagi idora ishlarini yuritish bo'yicha saboq berilardi, xolos».[69]

Qadimiy va ilk o'rta asrlar Turon — Turkistonida mirzalarni tayyorlashga alohida ahamiyat berilgan edi. Qadimgi Nisa shahar xarobalaridan topilgan hujjatlarda qariyb o'n nafar parfiyalik mirzalar

[68]Ilmda bu tilni «imperiya davlatidagi oromiy tili» deb atashadi.

[69]Rtveladze E., Livshits V. Pamyatniki drevney pismennosti. - S. 11.

nomi tilga olingan, ularda «shogird mirzalar» ham eslatiladi. Bir qancha ostraklarda[70] xattotlik mashqlari — aynan bir xil iboralar va manzil-maqomlar formulalarini husnixatda ko'chirish namunalari mavjud. Vertikal bo'ylab yozilgan (devorlar va tosh stellalardagi sug'd yozuvlari hammasi uchun odatdagi o'ngdan chapga gorizontal yozuv yo'nalishi o'rnida vertikal yozish xosdir) va Afrosiyob — eski Samarqand shaharchasidagi saroy devoriy naqshlari sahnalari bilan yonma-yon joylashgan 16 satr sug'd yozuvida milodiy VII asr ikkinchi yarmida hukmdorlik qilgan Samarqand podshosi Varxuman huzuriga elchilarga bosh bo'lib Chag'ondan (ilk o'rta asrlardagi Chag'on, Chag'oniyon — Surxondaryo vodiysidagi mulk) kelgan «Chag'on mirzalari boshlig'i» eslatib o'tilgan. Sug'ddagi mirzalar haqida qadimgi Ustrushana hududidagi Chilhujra qo'rg'onidagi (Tojikiston Respublikasi Xo'jand viloyati) qazishmalarda topilgan yog'ochga yozilgan hujjatdan ayrim ma'lumotlarni bilib olamiz. «Podshoh Chovus» (arab mualliflarida bu nom Qovus tarzida keltirilgan) hukmronligining 30-yili bilan sanalashtirilgan ana shu hujjatda matn oxirida «shunday kishi farmoyishi bilan shunday kishi ko'chirdi» degan odatiy eslatma — formula ham bor. Boshqa bir til — baqtriya tilida va boshqa bir yozuv qobig'ida — yunon yozuvida bitilgan xuddi shunday formula Ayritom shaharchasidagi (Termizdan 30 kilometr sharqda, Amudaryo bo'yida) qazishmalarda topilgan tosh relef postamentidagi bitikda ham bizga asrlar qa'ridan sado beradi.

Sug'd ostraklari orasida qadimgi Panjikentdagi (Samarqanddan 60 kilometr sharqda) qazishmalarda topilgan uch boshchanoq alohida o'rin tutadi. Ularda sug'd alifbesi saqlangan: ulardan biri butun saqlangan va unda 23 harf sanab o'tilgan, ana shu harflardan bittasi ikki marta uchraydi: birinchi holatda u d tovushini, ikkinchi holatda esa, sug'd tiliga asosan faqat hind va turkiy tillardan o'zlashtirilgan so'zlarda uchraydigan l undoshini ifodalaydi. Alifbedagi harflar tartibi oromiy o'tmishdoshiga to'g'ri keladi.

VII asr — VIII asr boshlariga oid bo'lgan Panjikent alifbesi mirzalik maktablari — dipiristonlardan (keyinchalik, o'rta asrlarda bu so'z o'zgarib dabiriston deyilgan) bizga meros bo'lib qolgan deya taxmin qilish mumkin. Alifbe tugaganidan keyin ostraklardan birida "yaxshi yozish mahorati" haqida so'z yuritiladi.

[70] Ostrakonlar yoki ostraklar – sopol idishlar parchalari bo'lib, qadimgi vaqtlarda ulardan xat yozish materiali sifatida foydalanishgan.

4.4. «Milliy» turon yozuv tizimlarining paydo bo'lishi va shakllanish xususiyatlari

Barcha hujjatlar tarix sari ravona bo'lib ketgan. Ahomaniylar davri an'analariga ko'ra allaqachon o'lik tilga aylanib bo'lgan oromiy tilida yozilib, og'zaki tarjima qilinadigan, boz ustiga amaldor ham, mirza ham mahalliy tillardan birida gaplashadigan bir sharoitda, shak-shubhasiz, hujjatlar bitiladigan oromiy tiliga ham mahalliy xalqlarning so'zlashuv tilidan ayrim so'z va birikmalar kirib, singib ketishga ulgurgan edi. Vaqtlar o'tishi bilan amaliyotda qo'llanilib kelayotgan bunday holatning bir qancha noqulayliklari yaqqol namoyon bo'la bordi. Bizgacha etib kelgan yozma yodgorliklarga asoslanib shuni aytish mumkinki, bunday noqulay amaliyotga Turonzamin davlatlarida miloddan avvalgi III-II asrlar chegarasida barham berilgan va barcha hujjatlar mahalliy tillarda, biroq oromiy alifbesi harflarida tayyorlana boshlagan.

Taniqli eronshunos olim I.M.Dyakonov oromiy yozuvining Eron va Turonga kirib kelishi, shuningdek, oromiy yozuvi asosidagi o'rta forsiy (pahlaviy) va Turonzamin yozuv tizimlarining vujudga kelishi borasida quyidagi taraqqiyot bosqichlari ro'y bergan deb ta'kidlaydi: «Hali Ahomaniylar davlati hukmronlik qilib turgan vaqtlardayoq (miloddan avvalgi VI-IV asrlar) davlat idoralaridagi mirzalar o'zlari oromiy tilida to'ldirgan hujjatlarni boshliq yoki mansabdor bo'lgan forslarga fors tilida o'qib berishni odat qilgandilar: ana shu jarayonda ayrim hujjatlarga oid so'z birikmalarining oromiy tilidan fors tiliga muqobil tarjimalari vujudga kela boshlagan. Ahomaniylar saltanati qulab, Eron va Yaqin Sharqda bir qator mayda davlatlar tashkil topgach, davlat va mahalliy idoralarda hujjat ishlarini yuritishda oromiy tilida egallangan tajribani saqlab qolishga harakat qilishsa-da, ulardagi har bir so'z, ifoda va iboralarning mahalliy eron tilidagi muqobil tarjimalari allaqachon mavjud edi. Qolaversa, bu davrga kelib endi oromiy tilida ish yurituvchi mirzalar orasida asl millati oromiy bo'lgan kishilar soni ham tobora kamayib borar, oromiy tilini mukammal o'zlashtirmagan eroniy mirzalar esa fikrni ifodalashga qiynalib qolgan kezlarida hech ikkilanmasdan bemalol eron tilida hujjat to'ldira boshladilar, biroq ular hamon oromiy alifbesida yozishar edi. Shunday qilib, endi hujjatlar matni, ahyon-ahyonda uchrab turuvchi va eron tilida ham muqobil tarjimasi mavjud bo'lgan oromiycha so'z birikmalarini hisobga olmaganda, batamom eron tiliga o'tib bo'lgandi.


Keyinchalik esa eron tilidagi so‘zlarni (masalan, fe’l shakllarini) oromiy tilidagi ideogrammalar bilan (yoki yanada to‘g‘riroq qilib aytsak, geterogrammalar bilan) ifodalash joriy etildi hamda geterogrammalarni qo‘llash bo‘yicha boshqa imloviy qoidalar ishlab chiqildi».[71]

Idora ishlarini yuritish jarayonida oromiy tilini o‘z tiliga almashtirish, ayni paytda buni oromiy yozuvi an’analarini saqlab qolgan holda amalga oshirishni Xorazm, Parfiya, Baqtriya, Farg‘ona, Sug‘d milliy alifbelarining hamda yozuv tizimlarining shakllanishi tomon tashlangan ilk qadamlar deb baholash mumkin. Oromiy tili asosidagi Turon xalqlarining bir-biridan farq qiluvchi «milliy» yozuv tizimlarining shakllanishi, oromiy yozuvini bir-biriga qardosh bo‘lgan qator Turonzamin xalqlari tiliga moslashtirish orqali yuz berdi. Bunda asosan mavjud yozuv shaklini takomillashtirish, ayrim hollarda unga biroz o‘zgartirishlar kiritish, muayyan til taqozosiga ko‘ra harf belgilarini qo‘shish yo‘lidan borildi.


Turonzamin mahalliy yozuv tizimlari har biri alohida, ma’lum ma’nodagi biqiq davlat va etnik madaniy chegaralar doirasida shakllanar ekan, ularning har biri o‘ziga xos ichki qonuniyatlar asosida takomillasha bordi. Turonzamin yozuv tizimlaridagi harflarning qobig‘i va shakli transformatsiya, ya’ni ko‘chish jarayonida o‘zlarining asl shakli – prototiplari bo‘lgan oromiy yozuvidan keskin farq qila boshlab, bora-bora bir paytlardagi «imperiya davriga oid oromiy yozuvi»dan mutlaqo boshqacha qiyofa kasb etdilar. Yangi paydo bo‘layotgan alifbelardagi belgilar (harflar)ning yozilish shakllari toboro bir-biridan uzoqlashib, muayyan tilning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda har biri alohida, mustaqil ravishda rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi, har bir yozuv tizimi o‘zgalarga o‘xshamagan, o‘zigagina xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.


[71] Dyakonov I.M. O pismennosti G`G` Diringer D. Alfavit: Per. s angl. – M., 1963. – S. 19-20.

Yunon alifbesiga asoslangan yozuv tizimlarining rivojlanish sxemasi (chizmasi)



Oromiy yozuviga asoslangan qadimgi harfli-tovushli yozuv tizimlarining genetik, xronologik va etnik-geografik taraqqiyoti hamda tarqalishi sxemasi (shizmasi)





4.5. Parfiyon, xorazmiy, sug‘d va bohtariy yozuv tizimlarining geterografiklik darajasi haqida

Oromiy yozuvi asosida paydo bo‘lgan qadimgi Turonzamin yozuv tizimlarining barchasini birlashtirib turuvchi umumiy bir jihat mavjud: ularning barchasi (faqat eng so‘nggi davrlarda paydo bo‘lganlaridan tashqari) geterografik yozuvlardir (yunoncha – Heteros – boshqacha va grapho – yozaman – degan ma`noda). Ya’ni ular ayrim hollarda ona tilidagi so‘zlarni ifodalash uchun ba`zi bir oromiy tilidagi so‘zlardan ham foydalanadilar. Mazkur yozuvlar uzoq asrlar amal qilib kelgan idora ishlarini oromiy tilida yuritish ta’siridan oxirigacha xalos bo‘la olmadilar va hatto idora ishlarini yuritishda ko‘p qo‘llaniladigan butun-butun so‘z va iboralarni istifoda etish an`anasini ham saqlab qoldilar. Faqat yozma nutqda ishlatiladigan hamda asosan mahalliy Turonzamin tillaridagi muayyan so‘z va iboralarning belgisi vazifasini o‘tovchi bu oromiy so‘z va iboralar nari borsa matnni o‘qiyotgan o‘quvchiga o‘ziga xos signal–belgi vazifasini bajarardi.

Eron tilli xalqlarning o'z mustaqil geterografik yozuv tizimiga o'tishining tarixiy jarayonini eronshunos olim I.M.Dyakonov quyidagicha tasvirlaydi: «Idora ishlarini yuritishning birinchi bosqichida ikki tilli mirzalar faoliyat olib borganlar, ular odatda hujjatlar matnini oromiycha yozishar, ammo uning mazmunini (oliy martabali eroniy amaldorlar uchun) eroncha bayon qilib berishardi. Ikkinchi bosqichda esa hujjatlarda doimiy ravishda takrorlanib turuvchi oromiycha so'z birikmalari, boshqacha aytganda, formulalar uchun ma'no jihatidan ularga aynan muqobil keluvchi og'zaki tarjimalari ishlab chiqilgan va hujjatlarni tarjima qilishda yoki ular matnini eroncha bayon qilishda qo'llanilgan. Uchinchi bosqich, chamasi, eng asosiy, hal qiluvchi bosqich bo'lgan. Bu davrga kelib oromiycha ish yuritish tajribasi barcha hujjatlar uchun muqobil tarjimalar (mazmunan teng keluvchi tarjimalar)ni ishlab chiqildi va natijada eronchadan oromiy tiliga, oromiy tilidan eron tiliga istalgan hujjatni tarjima qilish va tayyorlash imkoniyati vujudga keldi. Bu davrga kelib aksariyat qismi eroniyzabon millat vakillaridan tarkib topgan mirzalar oromiy tilini mukammal bilishmasdi. Ular bor-yo'g'i idora ishlarini yuritishda lozim bo'ladigan so'z birikmalarini, shakllarni hamda eng oddiy imlo qoidalarinigina bilishardi, xolos. Ammo yozma muomalaga bo'lgan ehtiyojning tobora oshib borishi mirzalar oldiga yangi va murakkab vazifalarni ko'ndalang qilib qo'yardi. Mirza o'zi ilgari duch kelmagan hamda o'qish davrida o'qitilmagan so'z va birikmalarga duch kelganda tobora eroncha so'zlarni ishlatishga, albatta oromiy yozuvida ishlatishga harakat qilardi. To'rtinchi, eng so'nggi bosqichda esa geterografik yozuv tizimi ishlab chiqildi, ya'ni endilikda barcha matn fors tilida bitilardi. Shunday bo'lsa-da, hamon ish qog'ozlarida oromiycha so'z va iboralar mavjud edi. Biroq geterografik matnlarda bu oromiycha iboralar muayyan eroncha so'z va birikmalarni belgilovchi birikmalar sifatida qo'llanilgan hamda ular butunlay eron tili qoidalariga bo'ysungan»[72]. Taniqli olimlar I.M.Dyakonov hamda V.A.Livshitslar o'z asarlarida ta'kidlab ko'rsatganlaridek, Eron va Turon yozma yodgorliklarida geterogrammalar sifatida odatda oromiy tilining ilk «imperiya davri»ga xos o'zgarmas so'z shakllari namoyon bo'ladi. Bir tomondan ushbu hol va yozuvning geterografikligi har qanday yozuv

[72] Dyakonov I.M. O geterogrammax i ix meste v istorii razvitiya pisma (Mesopotamiya i Iran) G'G' Peredneaziatskiy sbornik. Drevnyaya i srednevekovaya istoriya i filologiya. M., 1986. – S. 15-16.

shakliga xos bo'lgan konservativlikni – o'zgarmaslikni bildirsa, ikkinchi tomondan ular, bizning fikrimizcha, u yoki bu xalqning o'ziga xos turmush tarzi, mentalligi bilan ham izohlanadi. Binobarin, har qanday yozuv ham o'zi xos bo'lgan xalqning turli madaniyat shakllari, tafakkur tarzi, turmush sharoitlarining doimiy ta'siri ostida bo'ladi. Ko'plab qadimgi Turonzamin xalqlari yozuvlarida geterogrammalar sifatida faqat bir xildagi oromiycha so'z va birikmalar yoki ularning muqobili ishlatilmagan. Zero, har bir yozuv tizimi o'zi mustaqil ravishda rivojlanar ekan, o'ziga xos bo'lgan geterogrammalar to'plamini hosil qilgan. Masalan, ayrim matnlarda birgina so'zni geterografik tarzda ham, nogeterografik tarzda ham yozish hollari kuzatiladi. Sug'd yozma yodgorliklarining paleografiyasini o'rgangan taniqli mutaxassis M.M.Ishoqovning kuzatishlariga ko'ra, «sug'dcha matnlarda geterogrammalar soni u qadar ko'p emas. Ular asosan kelishik yoki boshqa yordamchi nutq bo'laklarini ifodalaganlar, xolos»[73]. Tuproqqal'adan topilgan miloddan avvalgi III asrga oid yozma yodgorliklar to'plamidagi xorazmcha yozuvlar orasidan V.A.Livshits boshqalarga nisbatan ko'proq qo'llaniladigan so'z va so'z birikmalarini ifodalash uchun xizmat qiluvchi 32 ta geterogrammani qayd etgan. Vaholanki, bu davrda xorazm yozuvi o'zining kursiv bosqichiga ko'tarilmagan edi[74] . Xorazm yozuvida, odatda, bog'lovchilar, old qo'shimchalar hamda olmoshlar geterogrammalar bilan ifodalangan[75]. Quyida keltirilayotgan yozuv tizimlarining tarixiy evolyutsiyasi hamda yirik yozma yodgorliklarning tahlili va sharhi shuni ko'rsatadiki, qadimgi Turon va Eron yozuv tizimlari taraqqiyotida matnlardagi geterogrammalarni qisqartirib borish tendentsiyasi asosiy o'rinda turgan.

Savollar va topshiriqlar:

1. Mahalliy turon-turkiston yozuv tizimlarining kelib chiqishi va shakllanish yo'llarini ta'riflab bering.

---

[73]Isxakov M.M. Paleograficheskoe izuchenie sogdiyskix pismenno`x pamyatnikov: Avtoref. diss... dokt. ist. nauk. Tashkent, 1992. – S. 80.

[74]Livshits V.A. Dokumento`. Toprak-kala. DvoretsG`G`Trudo` Xorezmskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii. Sb. 14. – M.: 1984. – S. 251.

[75]Isxakov M.M. Paleograficheskoe izuchenie sogdiyskix pismenno`x pamyatnikov: Avtoref. diss... dokt. ist. nauk. 1992. – S. 19.

5-§. Kitob va kitobat madaniyati tarixida «Avesto»ning tutgan o'rni va ahamiyati

«Avesto» (qadimgi forscha apastak, keyinchalik – abastay asos, boshqa talqinlarga ko'ra nizom) – muqaddas qonun, zardushtiylik matnlari to'plami bo'lib, unga hali matn og'zaki shaklda bo'lgan holatdayoq miloddan avvalgi VII asrda Zardusht tomonidan amalga oshirilgan xalq e'tiqodlari tizimi islohotidan so'ng tartiblangan va ma'lum ma'noda muqaddas tus berilgan. Zardushtiylik Turonzamin xalqlarining ma'naviy borlig'i negizidan tovlanib chiqqan, rasmiy din (ba'zi tarixiy davrlarda davlat dini) deb qabul qilingan din sifatida miloddan avvalgi I ming yillikning boshlaridan milodiy X-XI asrlargacha, arab istilosining dastlabki uch asrdan ziyod vaqt davomida ijtimoiy-madaniy hayotda o'z o'rniga ega bo'lib, xalq orasida yashab keldi. "«Avesto»" – butun qadimgi Turon davri va ilk o'rta asrlarning eng buyuk kitobi, ulkan tarixiy manba va ma'naviy adabiyot namunasi, yagona fors-turkiy superetnosi bo'lmish «Avesto» (zardushtiylik) madaniy dunyosini tashkil qiluvchi qabila va elatlar uchun umumiy sanalgan kitobat madaniyatining ulkan yodgorligidir. Yasna, Visprat, Videvdat, Yasht, Xurtak Apastak deb nomlangan ma'lum qismlar, kitob-nasklar, bob-fragardlar ketma-ketligida tartiblangan, maxsus yozuv materiali, ayni holda pergamenga qayta ko'chirilgan va ma'lum tartibda joylashtirilgan, ya'ni kitobatchilik jarayonlarida ifoda etilgan «Avesto» butun holda yoki uning alohida qismlari va parchalari kitob tarixi fani ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Aynan mana shu eng qadimgi va yirik yozuv yodgorligi sanalgan «Avesto» matnlarining ilk yozuvi va kodifikatsiyasi[761] давридан эътиборан Турон ва Эрон халқлари китоб ва китобат маданиятининг тўлақонли тарихи бошланади.


5.1. «Avesto» - dunyodagi ilk monoteistik zardushtiylik dinining muqaddas kitobi

[761] Kodifikatsiyalash – kodeks (muqovaga olingan bir nechta daftar (tetra)larning birligi) so'zidan kelib chiqadi va muayyan tartibga keltirilgan matnni kitobat qilingan shaklini anglatadi. Kitob shakli birlashtirilgan yozuv materiali parchalari, o'ram yoki kodeks bo'lishi mumkin. Bugungi kunda kitobning elektron shakli namoyon bo'lishiga guvoh bo'lib turibmiz.

«Avesto» Turon o'lkalarida, xususan Katta Xorazmdan boshlab to Amu va Sirdaryoning o'rta oqimigacha hamda janubda tarixiy Marg'iyona (Marv vohasi) hududlarigacha, Zarafshon va Farg'ona vodiysiga, Toshkent, Taraz, Isfijob (hozirgi Qozog'iston) vohalariga tegishli bo'lgan erlarda yashagan ibtidoiy qabilalarning diniy dunyoqarashlari, mifologik tasavvurlari asosida turli davrlarga oid qatlamlarni o'zida birlashtirgan. Zardushtgacha, ya'ni miloddan avvalgi VIII-VII asrlargacha bo'lgan madaniy an'analar - xalq urf-odatlari, rivoyatlar, ertaklar, asotirlar, turli butlar va xudolar sha'niga aytilgan alqovlar kabi ko'rinishlari ibtidoiy tasavvurlardan boshlab murakkab mifologik ijod tizimlarigacha va nihoyat o'ziga xos kosmogoniya manzaralari bilan qorishgan asotiriy davlatchilik mafkurasi shakllarigacha rivojlanishda uzluksiz davom etdi. Nihoyat, Turon o'lkalarining xalqlari miloddan avvalgi II ming yillik ichida bu qadar ulkan mafkuraviy, g'oyaviy-axloqiy, falsafiy, badiiy quramani tartibga, bir tizimga keltirdilar. Shu kabi tarixiy zaruriyat Zardusht paydo bo'lishi bilan, ayniqsa Axura Mazdaning yolg'iz ezgu yaratuvchi ekanini o'z qavmlariga xabar qilganidan keyin barcha qirralari bilan yaqqol ko'zga tashlanib qoldi.

«Avesto»ning butun holda tarkib topish tarixini belgilash lozim bo'lsa, bu davr 2 ming yildan ham ko'proq davom etganligini ta'kidlash kerak bo'ladi. Shuningdek, uning yozma matnlarining ham yuzlab yillar davomida qayta-qayta yozilishi, sayqallanishi, ayrim boblarining yo'qolib ketishi, yangi va yangi boblarning kiritilishi ham shundan dalolat beradiki, mazkur yozma yodgorlik bir vaqtning o'zida yaxlit holda yaratilmagan va uning tarkibidagi qismlar ham bir xildagi tuzilishga, qiyofaga ega bo'lishi mumkin emas, aksincha ular turli davrlarga xos geterogen, ya'ni xilma-xil xususiyatlarga ega, tarkibiy qismlarni chatishtirish-qo'shish orqali hosil qilingan. Nihoyatda uzoq davom etgan tarixiy davr mobaynida «Avesto»ning mazmuniga asos bo'lgan xalq udumlari va rivoyatlari, asotirlari va afsonaviy hikmatlari, turli-tuman sanam va xudolar sha'niga to'qilgan madhiya va hamdu sanolari xalq og'zaki ijodining tarkibiy qismi sanalgan. Eroniyzabon qabila va elatlarning diniy dunyoqarashlarining ifodasi hamda xalq og'zaki ijodining namunalari sifatida bu rivoyat va afsonalar og'izdan-og'izga o'tish, avlodlardan-avlodlarga meros bo'lib qolish jarayonida yangi-yangi afsonalar, madhiya va qo'shiqlar bilan, alohida ma'budlar va sanamlar sha'niga aytiladigan hamdu sanolar, diniy

marosim qoidalari va hokazolar bilan boyitib borilgan.



««Avesto»» kitobining ikkita har xil nusxasidagi mujassamlashgan «Avesto» yozuvining farqlanuvchi uslublarining namunalari

«Avesto»ning tarkibiga keyinchalik kiritilgan mazkur unsurlar va tarkibiy qismlar Turonzaminning turli hududlarida turli-tuman ijtimoiy-madaniy muhitlarda yaratilganligi sababli, ular nihoyatda xilma-xildir, qolaversa, ularning yaratilish davrlari ham bir-biridan farq qiladi. «Avesto»ning eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi II mingyilliklarda hamda I mingyillikning dastlabki asrlarida o'sha davrlarda Baqtriya, Katta Xorazm, Parfiya, Farg'ona hamda Sug'd davlatlarida yashagan xalqlarning madaniy va ma'naviy-ijtimoiy muhitida dunyoga kelgan. Ularda ko'chmanchi tarzda turmush kechirgan chorvadorlarning asotirlari, e'tiqodlari hamda maishiy hayotlari aks ettirilgan. «Avesto»ning payg'ambar Zardusht (Zaratushtra) nomi, uning pandu nasihatlari bilan bog'liq qismlari miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda yaratilgan bo'lib (har holda miloddan avvalgi VII asrning ikkinchi yarmidan ilgariroq)[77], unda xususan, xo'jalik yuritishdagi sezilarli taraqqiyotlar o'z ifodasini topgan, ya'ni endi aksariyat elatlar o'troq turmush tarziga o'tib, erga ishlov berish, dehqonchilik va ziroatchilik bilan shug'ullanishi, chorvachilik bilan ham

[77] Qarang: Gafurov B.G. Kn. I. 1989, S. 64; Dyakonov I.M. 1956. S. 390-399.

o'troq tarzda shug'ullanishi aks etgan.

Yangi din asoschisi Zardushtning (yunonlar uni Zoroastr tarzida talqin qilishadi) inson tomon va oliy Xudo - Axura Mazdaga murojat qilib aytgan madhiya qo'shiqlari - ya'ni Gatalari hamda zardushtiylarning eng qadimgi va muqaddas Axunovar duolari vaqt o'tishi bilan «Avesto»ning eng mo"tabar qismiga aylandi. Zardusht «Avesto»dagi Gatalarning bevosita muallifligiga fanda shak-shubha yo'q, aniqrog'i, «Avesto» matnining adabiy tahlili olimlarning uni albatta bir kishi yozgan, degan xulosa chiqarishlariga asos berdi.[78] «Bugungi kunda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilayotgan fikrlarga ko'ra, «Gatalar» har holda Ahomaniylar imperiyasi paydo bo'lgunga qadar yaratilgan bo'lib, ular o'zlarining kelib chiqishi jihatidan G'arbiy Eronga mutlaqo aloqador emas». (akad. B.G'.G'afurov)

Zardushtning yangi dinni shakllantirilishidagi o'rnini alohida ta'kidlar ekan, prof. V.A.Livshits quyidagi jihatlarini ko'rsatib o'tadi: «... Gatalarning tushunilgan ma'nosidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Zardusht ariy hamda hind-ariy qabilalariga xos bo'lgan qadimiy e'tiqodlarni, diniy tushunchalarni isloh qilgan, mazkur diniy e'tiqodlar yuqoridagi elatlar hali yonma-yon yashagan va o'zlarini yagona bir qavm– ariylar deb atagan davrlarda paydo bo'lgan edi. Zardusht ta'limotining yangiligi, chamasi, shundan iborat ediki, u Axura Mazdani (ma'no jihatidan aytilganda «Donishmandlik Xudosi»ni) yagona, abadiy mavjud, barcha yaxshilik va ezguliklarni yaratuvchi, biroq o'zi yaratilmaydigan, ammo boshqa barcha ma'budlarni ham yaratishga qodir Xudo sifatida e'lon qildi»[79]. Taniqli «Avesto»shunos olim S.N.Sokolov zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»ning shakllanishidagi asosiy yo'nalishni shunday tavsiflaydi: «Zardushtiylik dastlab barcha qadimgi ariylarga xos diniy aqidalarni inkor etib, ular o'rniga barpo etuvchi va borliqdagi jamiki ezgulik va yaxshiliklar timsoli bo'lgan oliy Xudo – Axura Mazdani olib chiqdi. Albatta, bunday yo'l tutish qadimiy diniy e'tiqodlarni halokatga olib kelishi lozim edi. Biroq amalda bunday bo'lmadi, qadimgi diniy aqida va udumlar ham o'ta yashovchan chiqib qoldi. Shundan so'ng zardushtiylik ham barcha yangi tashkil topgan

[78]Qarang: Osnovo' iranskogo yazo'koznaniya, Drevneiranskie yazo'ki. – M.: Nauka, 1979. – S. 130.

[79]Livshits V.A. Predislovie G'G' Avesta. Izbranno'e gimno'. G'Per. s avestiyskogo i kommentarii I.M. Steblina-Kamenskogo. – Dushanbe: Adib, 1970. – S. 6-7.

dinlar kabi ilgari mavjud bo'lgan diniy afsonalar va aqidalar bilan murosa qilish yo'lini tanladi. Shuning uchun ham qadimgi ma'budlar yana asta-sekinlik bilan Axura Mazda atrofida o'zlarining munosib o'rinlarini egallay boshladilar»[80].

Zardushtiylik an'analariga ko'ra Axura Mazda butun olamni o'zida mujassam etuvchi yagona Xudodir. Boshqa barcha ma'budalar esa Axura Mazda tomonidan yaratilgan bo'lib, shunchaki topinish uchun foydalaniladigan sanamlardir. Axura Mazdaga qarama-qarshi kuch sanalmish Axriman haqida gapirilganda shuni aytish joizki, Axriman ham Axura Mazda tomonidan u o'zini yomonliklardan xalos qilish jarayonida ana shu yomon xislatlardan, ya'ni yovuz illatlardan yaratilgan bo'lib, u yovuz kuchlarning ifodasidir. Mazkur monoteistik (yakkaxudolik) dinning asosiy tamoyillari yagona Xudo Axura Mazda va uning timsolida namoyon bo'luvchi azaliy va abadiy hayotning asosini tashkil qilgan yaxshilik va yomonlik, ezgulik va jaholat, yorug'lik va zulmat o'rtasidagi kurash va mazkur kurash jarayonidan iborat olam mavjudligi hamda alal oqibatda albatta ezgulik, yaxshilik va yorug'lik tantana qilishiga ishonchdan iboratdir[81]. Bu dunyoqarashning optimistik ruhi, hayotga va kelajakka doim komil ishonch bilan qarash, har bir ishga e'tiqod bilan kirishish, har bir narsani yaxshi va porloq tomonini ko'rishga moyillik, odamiylik munosabatlardan, tabiatning qayta-qayta bahordan kuzgacha, kuzdan bahorgacha aylanishi va quyoshning har kuni charaqlab chiqishidan zavqlana bilishlik barcha Turonzamin xalqlarida bugungi kunda ham saqlanib kelmoqda.

Mahalliy va chet el «Avesto»shunos olimlarining tan olishicha, dunyoning o'zaro mangu jang qiluvchi ikki asos-Ezgulik va Jaholat, Yorug'lik va Zulmatga ongli ravishda bo'linishi aynan «Avesto»dan boshlanadi. Bu abadiy kurash va o'zaro qarshilik har bir tarixiy bosqich va har bir ming yillik chorrahasida qayta tug'iladi va yangi qiyofada namoyon bo'ladi. «Avesto»ning hayot qimmatini aniqlash borasidagi tamal toshi hisoblangan Ezgulik va Jaholat o'rtasidagi mangu kurash

[80] Osnovo` iranskogo yazo`koznaniya. 1981. - S. 130.

[81] Zardushtiylikning monoteistik (yakkaxudolik) jihatlari haqida yana qarang: Livshits V.V. Avesto – istoricheskiy istochnik G`G` Avesto i ego mesto v istorii razvitiya chelovechestva. Teziso` dokladov Mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii, posvyahennoy 2700-letiyu svyahennoy knigi zoroastrizma «Avesto`». T.: Fan, 2001. – S. 71-76; Isxakov M.M. Avesto i ego mesto v istorii chelovechestva. Tam je. – S. 63-66; Ishoqov M.M. Zardusht mashaqqati va islom haqiqati G`G` Guliston, 2003, №1. – 24 b.

inson umrining ma'nosini anglab etish usuli bo'lib ham xizmat qiladi. Ammo u XX asrda yashab o'tgan rus diniy faylasufi Nikolay Berdyaev aytib o'tgan, «jaholatga qarshi kurash yanada shafqatsiz jaholatga olib keladi, yovuzlik dushmanlari o'zlari yovuzga aylanadi» degan ma'noni anglatuvchi «manixey dualizmining yovuz ma`naviy dialektikasi» bo'lmay, balki hozirgi zamon terminologiyasi bilan aytganda, ontologik (borliqqa doir) va ma'rifiy yo'nalishga egadir. «Shunday ekan, o Mitra... bizga dushmanni uzoqdan ko'ra bilish qobiliyatini berginki, toki biz g'alaba qilaylik...» («Avesto». Mitra madhi. 10-yasht. XXVIII bob.)

Inson olamga qarshi turmaydi, balki unga ulkan bir butunning uzviy bo'lagi sifatida kiradi, binobarin, u o'zining dono qilmishlari va toat-ibodati bilan tabiatni madh qilishi kerak, degan fikr «Avesto»ning barcha Gatalarida uzluksiz takrorlanadi. «Avesto»ga ko'ra, inson uchun eng katta baxt - bu «quyoshning porlashi», «quyoshning issiqlik taratishi»dir (6-yasht. Xurshid Yasht. Quyosh Madhi). Baxt mutlaq moddiy yoki mutlaq ma'naviy bo'lishi mumkin emas. Baxtda u ham, bu ham teng uyg'unlikda mujassam bo'ladi. Buyuk Ruh moddiyda, uning turli shakl va ko'rinishlarida o'z yakuniga ega bo'ladi. Baxtning bunday badiiy-ramziy ifodasi zardushtiylikning uch birlik – ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ish haqidagi ta`limotida o'zining chuqur tajassumini topadi.

Agar kishilik turmushida o'tmish va bugun, turg'un va o'zgaruvchan narsalar doimo o'zaro bog'liqlikda bo'lishi haqidagi boqiy haqiqatdan kelib chiqilsa, «Avesto», shubhasiz, umuminsoniy madaniyatning negizi hisoblangan boqiy va turg'un qadriyatlarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, payg'ambar Zardusht dunyoda birinchi bo'lib yolg'iz Iloh tushunchasiga etishdi, yorug' dunyodagi barcha narsa yolg'iz Ilohdan ekanini tushuntirib berdi va shu tufayli o'zi ham abadiyatga doxil bo'ldi. Odamzotning yakkayu yagona yaratguvchi, parvardigor, tushunchasi tomon uzoq va mashaqqatli yo'lida bu g'oyalar chin ma'nodagi vahdoniyatga ilk qo'yilgan qadamlar edi. Keyinchalik o'lkamizda qadimiy dinlar o'rniga islom dini joriy etilgan VIII–X asrlarda ajdodlarimiz uchun vahdoniyat tushunchasi begona bo'lmagani hal qiluvchi omilga aylandi. Vatanimizda dini islom asta-sekin o'ziga yo'l topa borib, ota-bobolarimiz haqiqiy ilohning yakka-yagonaligini Ollohda topishdi va islomga kirishdi. Aftidan, bu jarayonda mazmunan zardushtiylik bilan islom o'rtasidagi ayrim o'xshashliklar katta ta`sirga

ega bo'lgan. Masalan, Ollohning yakkayu yagonaligi, butun borliq yakka yolg'iz Xudo tomonidan yaratilganligi, farishtalar va shayton g'oyasi va hokazolar avval zardushtiy bo'lganlarning asta-sekin islomni qabul qilishlariga yo'l ochgandir. Zardushtiylik diniga o'z vaqtida xalqning turli xil inonchlari, urf-odatlar sifatida kirib amal qilgan ko'plab unsurlar islom sharoitida ham, aslo unga ziyon keltirmay, kundalik amaliyotda saqlanib kelmoqda.[82]

* * *

An'anaviy diniy qarashlar, qabilalararo din masalalaridagi ixtiloflar kuchli bo'lgani tufayli Zardushtning diniy tizimi o'zi tug'ilgan yurtda dastlab muvaffaqiyat qozonmadi. Zardushtning Axura Mazda haqidagi, Mazdayasna dini haqidagi targ'iboti osonlik bilan kechmadi. U o'z Vatani, qavmlarini tark etishga majbur bo'ldi. Natijada payg'ambar Zardushtning sarson-sargardonlik davri boshlandi. Nihoyat, bu bosqich podsho Kivi Vishtasp tomonidan Zardusht dinining qabul qilinishi bilan tugadi. Shunday qilib Zardusht dini Eron erlarida ham keng tarqala boshladi. Ayni paytda yangi dinga qarshilik ham so'nmadi. Ziddiyatlar oqibatda Zardushtning fojiali halokati bilan tugadi.

Payg'ambar Zardushtning taqdiri boshqa dunyo dinlari payg'ambarlariga xos mashaqqatlar bilan juda o'xshashligi hayratomuzdir. U ham o'z Vatanida quvg'inga uchradi. Uzoq Seiston yurtida shahid bo'ldi. Lekin Zardusht g'oyalari Axura Mazdaning vahiylari sifatida Turonu Eron o'lkalari bo'ylab keng yoyildi.

Miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida ahomaniylar saltanatining paydo bo'lishi, uning Sharq va G'arb mamlakatlariga nisbatan bosqinchilik yurishlari oqibatida Turonda yashagan ko'plab xalqlar ustidan Eronning siyosiy hukmronligi yuzaga keladi. Lekin, sharqiy hududlar – Baqtriya, Xorazm, Sug'd, Marg'iyona, Farg'ona, Parfiya va boshqalar ahomaniylarga tobe bo'lgani bilan o'zining asl madaniy-tarixiy taraqqiyot yo'lidan og'ishmay rivojlanaverdi. Ildizlari qadimiy va baquvvat bo'lgani uchun bo'lsa kerak, ahomaniylar Eroni davri Turondagi madaniy tarixiy jarayonga tub o'zgarishlar kirita olmadi. Xalq taraqqiyoti tadrijiyligida jiddiy uzilishlar ro'y bermadi. Aksincha, Turon xalqlaridan ahomaniylar Eroni asosiy g'oyaviy, mafkuraviy negizni - Mazda e'tiqodini o'zlashtirdi. Nafaqat o'zlashtirdi, balki uni

[82] Qiyos qiling: Isxoqov Mirsodiq. Zardushtik mashaqqati va islom haqiqatiG`G` Guliston, 2003, №1. –27 b.

o'z maqsadlari yo'lida siyosiy e'tiqodi darajasiga etkazdi. Oliy ilohiy mavjudot bilan payg'ambar vositachiligi vazifasidan voz kechib, Eron podsholari dinda o'zlarini Axura Mazdaning irodasini erda ro'yobga chiqaruvchilar sifatida talqin qildilar.

Zardusht ko'tarib chiqqan va targ'ib qilgan yagona hukmron Axura Mazda g'oyasi ahomaniylar Eroni davlat mafkurasi, ayniqsa, sulola va saltanatning legitimligini - qonuniyligini asoslash uchun juda qo'l keldi. Endi Eron ahomaniylari, xoh Kir bo'lsin, xoh Doro, «menga Eronu Aneron (Erondan tashqari yurtlar) ustidan podsholikni Axura Mazda berdi. Men Axura Mazdaning xohish-irodasi bilan podsho bo'ldim...», deya o'zlarini ulug'lashardi. Ayni paytda ular biror erda Zardusht haqida og'iz ochishmaydi. Zardushtning ta'limoti qo'l keldi-yu, o'ziga e'tibor berilmadi. Gap shunda ediki, Eron saltanati hokimiyat tuzish uchun kurasha turib payg'ambarga suyanishdan ko'ra, o'zlarini Axura Mazda bilan erdagi xalqlar o'rtasida vositachi qilib ko'rsatishni afzal bildilar.

5.2. "«Avesto»" kitob tarixi va kitobat madaniyati kontekstida

Uzoq qadimda yuzaga kelgan matnlarning og'izdan og'izga o'tish tartibi asrlar mobaynida yuzaga kelgan zardushtiylik dini qonunlarining saqlanib qolishida juda muhim o'rin tutadi. Bu an'ana «Avesto»ning alohida matnlari yozib olinganidan keyin ham saqlanib qoldi. Shuning uchun tarixdagi "«Avesto»"ni kodifikatsiya (kitobat) qilish borasidagi dastlabki urinishlar uning rivojlanishi to'liq to'xtaganini anglatmas edi. «Avesto»shunos olim, e'tiqodi bo'yicha zardushtiy bo'lgan X.Mirzaning fikricha, «Avesto»ni davrdan davrga og'zaki va yozma etkazish shakllari Ahomaniylar davri bilan parallel ravishda mavjud bo'lgan va bu ««Avesto»» qo'lyozmalarining tarqalishiga imkon bergan, muqaddas matnlarni o'qiy bilish uquvi ularni eslab qolishga to'sqinlik qilmagan, aksincha, bu xislatlar dindor shaxsning o'ziga xos individual o'qimishliligi sifatida ko'zdan kechirilgan[83].

Qadimgi davr va ilk o'rta asrlarda bir necha marta amalga oshirilgan «Avesto» matnlarini yozma qayd etish tarixi masalalarida olimlar bizgacha etib kelgan moddiy manbalar sifatida ham XIII-XIV asr «Avesto» qo'lyozmalariga, ham narrativ (talqin etilgan) manbalarga

[83] Қаранг: Mirza H. On the oral and the writen transmissions of the Avecta text//All Jidia Oriental Conference. Delhi, 1959. Vol. 19. pt.//s.2.

tuyanadilar. Bular asosan qadimgi Yunon, Vizantiya, Suriya yozuvchilari, arab va fors tillarida ijod qilgan mualliflarning asarlari bo'lib, ular bizgacha etib kelmagan Sosoniylar davri manbalaridan foydalanganlar. Tarixda yashagan shaxslarning guvohliklari, voqea-hodisalarning mantig'i hamda «Avesto» matnlarining zamonaviy lingvistik, filologik va tarixiy-madaniy tahlili va talqini bilan tasdiqlanuvchi real tarixiy faktlarga va afsonaviy hodisalarga asoslangan izchil nuqtai nazar VI-IX asrlardagi «Bundaxishn», «Arda Viraf namak», «Denkard», «Din Vigirgard», «Tansar noma», «Shaxriston-xai Eron» singari o'rta forsiy tilidagi zardushtiylik asarlarida ishlab chiqilgan.

Zardushtiylik asarlaridagi «Avesto» matnlarining kodifikatsiyalariga doir barcha ma'lumotlar orasida «Denkard»da qayd etib o'tilgan ma'lumot eng afsonaviy hisoblanadi. Unda «Avesto» matnlari ilk bor zardushtiy olim. Zardushtning dastlabki izdoshlaridan biri Jamasp tomonidan yozilgani qayd etiladi[84]. «Avesto», qadimgi fors va o'rta fors adabiyoti tarixi» asarining muallifi O.Klima, ushbu ma'lumotga asoslanib, zardushtiy manbalarda an'anaviy tilga olinuvchi «Avesto»ning ikki rasmiy nusxasi pergamenga zarhal harflarda bitilgan ushbu arxetipdan ko'chirilgan, deb tushuntiradi. Ular Ahomaniylarning Persepoldagi (Taxti Jamshid) xazinasida saqlangan va Iskandar Zulqarnayn bosqini paytida halok bo'lgan.[85] «Avesto»ning dastlabki matnlari Jamasp tomonidan yozilgan bo'lishi mumkinligini boshqa «Avesto»shunos olim G.Vindfur ham taxmin qiladi. Uning fikricha, qadimgi «Eron ziyolilari Hindistondagi fonetika fanidan yaxshi xabardor bo'lgan bo'lishi kerak, shuning uchun Jamasp Gatalarni yaxshi rivojlangan shimoliy hind yozuv turi – kxaroshtxida yozgan bo'lishi mumkin; bu Vishtasp saroyida amalga oshirilgan bo'lishi mumkin»[86] .Zamonaviy turkman kitob madaniyati tarixchisi Olmos Yazberdiev ularga haqli ravishda e'tiroz bildiradi: ««Avesto» matnlarining yozilishi masalasini faqat Ahomaniylar davlati tashkil topganidan va oromiy yozuvi Eron va Turon hududlariga tarqalganidan keyin, ya'ni miloddan avvalgi VI asrning birinchi yarmidan

[84]Qapaur: Madan D.M. The complete text of the Pahlavi Dinkard. Bombey, 1911. 2 Vols. S. 18.

[85]Klima O. Istoriya avestiyskoy, drevnepersidskoy i srednepersidskoy literaturo`G`G`Ripka Ya. Istoriya persidskoy i tadjikskoy literaturo`. M.: Progress, 1970. – S. 15.

[86]Qarang: Windfuhr L. Diacritinc and distinctive Feature in Avectan. – Jurnal of the American Oriental Society. 1971. Vol. 91. Num.1. s.121-122.

so‘ng qo‘yish mumkin»[87].

Darhaqiqat, yozuv tarixiga doir faktlarning guvohlik berishicha, «Avesto» matnlarining Turon-Turkiston xalqlarining «milliy» arameografik yozuv tizimlariga o‘tish va yozuv materiali sifatida pergamenning qo‘llanishi shaklida yozma qayd etilishi uchun zarur shart-sharoitlar bevosita yunon-makedon qo‘shinlarining Eron va Turonga bostirib kirishidan oldingi davrda yuzaga kelgan. Ushbu nuqtai nazardan «Avesto»ning dastlab og‘zaki, so‘ng esa yozma an’analarda yuqorida tilga olingan VI-IX asrlardagi o‘rta fors tilidagi asarlarga muvofiq tavsiflangan tarixdagi barcha keyingi nashrlari, ya’ni kodifikatsiyalari, yanada tushunarli va real tus oladi. Ushbu an’anaga va uni tasdiqlovchi sharq va g‘arb, qadimgi va o‘rta asrlar mualliflari va manbalariga asoslanib, shuni qayd etish mumkinki, «Avesto»ning yozuv tarixidagi birinchi qaydi (kitob tarixi terminlarida – uning birinchi nashri) Baqtriya va Katta Xorazm hududida miloddan avvalgi V asrda amalga oshirilgan. «Avesto» matnlari oromiy yozuvida ikki nusxada o‘n ikki mingta maxsus oshlangan ho‘kiz terisida qayd etilgan. Yunon-makedon qo‘shinlarining miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmidagi Eron va Turonga istilochilik yurishi davrida uning bir nusxasi Iskandar Zulqarnaynning buyrug‘i bilan yoqib yuborilgan, ikkinchi nusxasi esa Misrdagi Aleksandriya kutubxonasiga saqlash uchun jo‘natilgan. «Denkarda»da aynan shu «Avesto»ning birinchi nashri va Zend deb nomlangan «Avesto» izohi matnlari haqida gap boradi: «Doro o‘g‘li Doro2 Zardushtga Ahramazdadan berilgan «Avesto»ning jami ikki nusxasi va Zendni saqlab qo‘yishni amr etdi; ulardan birini Shopigon[88] xazinasiga, ikkinchisini esa – yozma hujjatlar qal’asiga joylashni buyurdi»[89].

---

[87] Qarang: Yazberdiev A. Istoki pismennoy traditsii i knijnogo dela v Sredney Azii. Istoricheskiy obzor G`G` Bibliotechno-bibliograficheskoe i knijnoe delo v Turkmenistane. Sbornik statey. Ashgabat. O`lo`m. 1988. - S. 69.

[88] Shopigon – eng qadimgi podsholik xazinalaridan biri, zardushtiylik an’analariga ko‘ra, u erda Avestoning asl nusxasi hamda unga bitilgan sharhlar, ya’ni Zend, shuningdek, boshqa zardushtiylik kitoblari saralangan. Yirik olim-pars, avestoshunos J. Modi ayrim o‘rta fors tarixiy manbalaridagi ma’lumotlarga asoslanib («Shaxristoni Eron» va boshqalar) mazkur kitoblar xazinasining joylashgan o‘rni Samarqandda bo‘lgan deya taxmin qiladi. Ammo boshqa bir qancha olimlar mazkur xazina Urmiya ko‘li yaqinidagi Shize shahrida (G`arbiy Eron) joylashgan deb hisoblaydilar.

[89] «Yozma hujjatlar qasri» – «Denkardda» - bu Persepoldagi davlat arxivi – Dar-i Nipishte (Yozuvlar qal’asi)dir.

Zardushtiy manbalardagi «Avesto» matnlari Ahomaniylar davrida (miloddan avvalgi V-IV asrlar) kodifikatsiya qilinganligi va ularning Iskandar Zulqarnayn tomonidan yo'q qilinganligi haqidagi ma'lumotlarda «shubhasiz, haqiqat urug'i mavjud»[90] ligiga bo'lgan ishonchini mashhur tarixchi, Old va Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi til va yozuvlari bilimdoni I.M.Dyakonov ham bildiradi. Uning fikricha, «Avesto»ning eng muhim bo'limlari Iskandar Zulqarnaynning sharqqa yurishidan oldingi davrda Doro I tomonidan miloddan avvalgi VI asrda joriy qilingan va Ahomaniylar davlatining sharqiy Eron (Turon) viloyatlarida amalda bo'lgan oromiy grafikasidagi mahalliy yozuvida yozilgan bo'lishi mumkin. Bilaks, miloddan avvalgi IV asrdan keyin biron-bir olim ««Avesto» tilidek o'ta arxaik tilning o'lik grammatik fleksiyasi, fonetik xususiyatlari va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini rekonstruktsiya qila olishi mumkinligini tasavvur ham qilib bo'lmasdi»[91]. «Avesto»ning dastlabki matni qayd etilgan yozuv tizimining namunasini I.M.Dyakonov Parfiyon davlatining qadimgi poytaxti Ashgabat shahri yaqinidagi Nisa shaharchasining qazilmalaridan topilgan sopolaklardagi matnlarda ko'radi. «Avesto», Zend va boshqa zardushtiylik kitoblarining Iskandar Zulqarnayn tomonidan yo'q qilinganligi dalili sifatida Diodor (17, 72), Plutarx (Qiyosiy tarjimai hol. Aleksandr. XIII), Arrian (5, 18), Kvint Kurtsiy (5, 7) singari antik mualliflarning xrestomatiyalarga kiritilgan ma'lumotlarini keltirish mumkin. Ular miloddan avvalgi 330 yil bahorida Iskandar Zulqarnayn va uning mast askarlari tomonidan Taxti Jamshiddagi shoh saroyi va arxiviga o't qo'yilishi haqida yozadilar. Yirik nemis sharqshunosi, zardushtiylik bitiklari bilimdoni va tarjimoni M.Xaug, zardushtiylikning «Arda Viraf namak» kitobidagi Taxti Jamshid saroyi va arxiviga o't qo'yilishi haqidagi ma'lumotni izohlab, shunday deydi: «Bu varvarlik akti, aftidan, saroy xizmatkorlar, a'yonlar va kohinlarga to'la bo'lgan tunda sodir etilgan shoshmashosharlik natijasi bo'lgan; bu arxivlarga qaragan kohinlar, tabiiyki, o'z xazinalarini qutqarishga intilganlar, ammo mast greklar bunga qarshilik ko'rsatganlar va ko'pchiligini o'ldirganlar. Diniy kitoblar, chamasi, ular saqlangan arxivlar bilan birga yonib ketgan, bu to'qnashuvda juda ko'p forslar (kohinlar va boshqalar) halok bo'lgan; g'arb mualliflari tomonidan tilga

[90] Dyakonov I.M. Istoriya Midii. Ot drevneyshix vremen do kontsa IV v. do n.e. M.-L.: 1956. – S. 48.
[91] O'sha erda.

olinuvchi faktlarning tabiiy oqibatlari shunday bo'lishi mumkin, bizning matndagi sharq muallifining fikri ham shundaydir».[92]

Shuningdek, A.Xaugning fikricha, zardushtiylikka sig'inilgan barcha hududlardagi ibodatxonalarda «Avesto» qo'lyozmasining turli qismlari saqlangan bo'lishi kerak. Keyinchalik ulardan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi qayta to'plangan. A.Xaugning bu fikri oradan yuz yil o'tib rus olimlari I.M.Dyakonov va V.A.Livshits tomonidan tasdiqlandi. Ular «Avesto»ning bizgacha etib kelgan Sosoniylar tahriridagi matnlarining va Nisadan topilgan parfiyon tilidagi miloddan avvalgi II–I asrlarga taalluqli matnlarning paleografik va grammatik xarakteristikalarini hamda bu hujjatlardagi parfiyonlar dini va zardushtiylik taqvimi haqidagi noyob guvohliklarni solishtirib va tahlil qilib, «Sharqiy Parfiyada miloddan avvalgi I asrda «Avesto»ning, hech bo'lmasa uning alohida qismlarining yozma matni mavjud bo'lgan»[93], degan ilmiy taxminga keldilar.

	a		i		c		l		z
	ā		ī		t		m		v s
	ā		u		d		n		v s
	o ā		ū		th		n'		v s
	ē		k		d		r		y
	e		ly		dh		n		v z
	ə		h		p		v		h
	ə̄		g		f		uv		h'
	o		gh		b		x		h^{v}
	ō		ğ		w		s		n,m

«Avesto» alifbesi

[92]Haug M. Essays on the sacred language writing and religion of the Parsis. London, 1878. - s. 142.

[93]Dyakonov I.M., Livshits V.A. Novo'e naxodki dokumentov v Staroy NiseG'G'Peredneaziatskiy sbornik. – M.: 1966. – Vo'p.2. – S. 157.

Olimlarning tahliliy xulosalari «Avesto» kodifikatsiyalariga doir zardushtiylik an'anasini tasdiqlaydi. Zardushtiylik muhitida «Avesto» matnlarining aylanishi va uning ming yilliklar chegarasida yozma qayd etilishi haqida «Denkarda»da shunday deyiladi: «Ashkanning[94] avlodi Valkash[95] qaysi viloyatga kelmasin, o'sha zahoti (fuqarolarga) qirol shahri uchun «Avesto» va Zendning to'liq matnlarini hamda yozma shaklda qolgan va kohinlar orasida og'izdan og'izga o'tib kelgan, Iskandar Rumiyning otliq va piyoda askarlari shahri Eronga etkazgan vayronliklar tufayli parokanda holatda bo'lgan («Avesto» va Zend bilan bog'liq) har qanday qonun-qoidalarni ularga qanday etib kelgan bo'lsa, o'shanday ko'rinishda yozib olish va saqlashni amr etar edi»[96]. Bu parcha kamida ikkita aniq xulosaga olib keladi.

Birinchidan, Vologez I ning ««Avesto» va Zendning... yozma shaklda qolgan va kohinlar orasida og'izdan og'izga o'tib kelgan to'liq matnlarini yozib olish» haqidagi qat'iy talabidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Vologez I hukmronligi davrida, ya'ni milodiy I asrning o'rtalarigacha bo'lgan tarixiy davrda «Avesto»ning juda ko'p og'zaki va yozma matnlari real mavjud bo'lgan. I.M.Dyakonov va V.A.Livshitsning fikr-mulohazalari bu xulosani faqat mustahkamlaydi va miloddan avvalgi II asrda Sharqiy Parfiyada dastlabki Arshakiylar davrida «Avesto»ning qonuniy matni tiklangan degan fikrga olib keladi.

Ikkinchidan, keltirilgan parchaning kontekstidan bevosita shunday xulosa kelib chiqadiki, Vologez I «Avesto» variantlari qo'lyozmasini to'plash va oliy ruhoniy shaxslarning og'zidan «Avesto» matnlarini yozib olishdan ularning asosida «Avesto»ning yangi tahririni, uning yangi qonuniy matnini yaratishni ko'zlagan. Kitob tarixi terminologiyasida bu to'liq «Avesto» miloddan avvalgi II asrda dastlabki Arshakiylar davrida ikkinchi marta nashr qilinganligi va milodiy I asrning o'rtalarida xuddi o'sha Sharqiy Parfiyada Vologez I tomonidan uchinchi marta nashr qilinganligini anglatadi.

Turkman kitobat madaniyati tarixchisi Olmos Yazberdievning fikricha, «Avesto» Vologez I amriga ko'ra kodifikatsiya qilinganligi

---

[94] Yani Arshak I – parfiyaliklar sulolasining asoschisi (taxminan miloddan avvalgi 250 yil).
[95] Vologez. Bu nomda tarixda beshta Parfiya podshohi o'tgan. Bu erda aksariyat olimlarning fikriga ko'ra 51-78 yillarda hukmronlik qilgan Vologez I nazarda tutilmoqda.
[96] Iqtibos O. Yozberdievdan olindi. Istoki... 1988. – S. 19.

foydasiga jiddiy dalil bo'lib shu narsa xizmat qiladiki, shoh tomonidan ko'rilgan bu choralar uning davlat madaniy hayotida ellincha yo'nalishdan voz kechishi va mahalliy an'analar tomon qat'iy burilishi bilan yaxshi uyg'unlashadi. Aynan Vologez I davrida tangalardagi grekcha yozuvlar parfiyoniy yozuvlar bilan almashtirila boshlangani tasodifiy emas.

«Avesto» matnlari Vologez I amriga ko'ra yozilganligi haqidagi ma'lumotlar tasdig'i tarzida ko'pgina «Avesto»shunoslar keyingi davr manbalariga doir ma'lumotlarni, masalan, Vologez I davridan yuz yil keyin yashagan qadimgi yunon yozuvchisi Pavsaniyning ma'lumotlarini keltiradi. Pavsaniy Kichik Osiyo (xususan, Lidiya) bo'ylab sayohat davomida fors ibodatxonalarida kohinlar ibodat paytida «greklarga mutlaqo tushunarsiz tildagi kitob bo'yicha tangriga hamd-sano»[97] o'qishlari guvohi bo'ladi. Moniychilar dini payg'ambari Moniy (216-277)ning Parfiyon davri oxiri va Sosoniylar davri boshlarida zardushtiylikning muqaddas kitoblari mavjud bo'lganidan dalolat beruvchi quyidagi so'zlari ham keltiriladi: «Fors yurtiga shoh Gistaspga nur yoqlovchisi, olam shamchirog'i keldi. U bu erda sodiq va nekbin izdosh va targ'ibotchilarini tanladi; Zarades (Zardusht) kitob yozmadi, ammo uning shogirdlari o'z ustozining o'limidan keyin uning so'zlarini esladilar va ular bugun o'qiyotgan kitoblarni bitdilar»[98]. «Bu ikkala manbada ham gap «Avesto» va Zend qo'lyozmalari haqida ketayotganiga shubha yo'q. Bu qo'lyozmalar mazkur asarlarning Vologez I amriga ko'ra yoki undan ham avval yozilgan nusxalari bo'lishi mumkin. Parfiyon davridagi forslarning kitob madaniyatiga doir uch asosiy manba – Pavsaniy, Moniy va «Denkard»da mavjud ma'lumotlarning o'xshashligi ham buni tasdiqlaydi»[99], deb xulosa chiqaradi A.Yazberdiev.

«Avesto» matnlari Parfiyon davrida mavjud bo'lganiga V.B.Xening va J.Dyuyshen-Giymen singari yirik «Avesto»shunos va fors tilshunosligi bilimdonlari ham shubha qilmaganlar. V.B.Xening bu haqda, jumladan,, shunday yozadi: «Agar zardushtiylar faqat og'zaki an'analarga tayanganlarida, Moniy buni bajonidil aytib o'tgan bo'lardi. Gap shundaki, u har doim uning o'z dinidan boshqa barcha dinlarning muqaddas bitiklari shubhali asosga egaligini, chunki ularni din asoschilarining o'zlari

[97] Haug., 1878. – S. 11.
[98] O'sha erda.
[99] A. Yazberdiev. Parfiyonskoe knijnoe deloG`G`Izvestiya AN Turkmenskoy SSR. Seriya gumanitarno`x nauk. – 1990. - №6. – S. 16.

tuzmaganligini ta'kidlashga intiladi. Yozma «Avesto» esa Moniy uchun aslo yangilik emas, balki aniq ma'lum fakt hisoblangan. Shuning uchun ham «Avesto»ning arshakiylar matni mavjud bo'lganiga shubha yo'q. Ayni holda ushbu masalaga doir zardushtiylik an'anasi o'z tasdig'ini topadi»[100]. J.Dyuyshen-Giymen ham xuddi shunday xulosaga keladi: «Nima bo'lganda ham bu kitob («Avesto» – E.O.) Moniy davridan ancha burun mavjud bo'lgan... Agar zardushtiylar faqat yozma an'alarga asoslanganida, Moniy buni albatta ta'kidlab o'tgan bo'lardi. Arshakiylar davrida «Avesto»ning yozma matni mavjud bo'lganiga shubha qilish uchun asos yo'q»[101].

Zardushtiylik dunyosining davlat tuzilmalarida qadim zamonlardan boshlab kuzatiluvchi zardushtiylikka rasmiy davlat dini maqomini berish (bir necha bor shunday qilingan) tendentsiyasi milodiy III asrning o'rtalarida Sosoniylar imperiyasining yuzaga kelish davrida yana kuchaygan. Bu tendentsiyaning asosiy ifodasi yana davlat hokimiyati va etakchi din peshvolarining zardushtiylikning muqaddas bitigining parokanda qismlari va variantlarini to'plash va tartibga solish hamda «Avesto»ning qonuniy matnini yaratishdan iborat bo'ldi. «Avesto»ning tarixdagi to'rtinchi rasmiy nashri Sosoniylar davlatining asoschisi Ardasher I Papakan hukmronligi davri (226-242)da amalga oshirildi. «Avesto» matnini qonuniylashtirish bilan davlatning bosh diniy peshvosi Tansar shug'ullandi. «Denkard»da «Avesto»ning qonuniylashtirilish fakti haqida shunday deyiladi: «Shohlar shohi Ardasher Papaka o'g'li janobi oliylari, din peshvosi Tansarning maslahatiga quloq solib, saroyga ta'limotning barcha parokanda qismlarini to'plab keltirishni amr etdi. Tansar o'z ishiga kirishdi va bitta an'anani tanladi, qolganlari qonunga kirmay qoldi. U navbatdagi buyruqni berdi: «Mazda diniga sig'inishning boshqa har qanday talqiniga bizning javobgarligimiz ostida ruxsat etiladi, zotan ayni vaqtda bunga doir bilimlarga kamchilik yo'q»[102].

Sosoniylarning ikkinchi shohi Shopur I hukmronligi davrida (242-272) «Avesto»ning ushbu qonuniy matni imperiya hududidan tashqarida muomalada bo'lgan alohida bo'limlar bilan to'ldirildi. «Denkard»da bu

[100] Henning W.B. The disinteguation of the Avestic Studies. – In: Henning W.B. Selected papers. – Vol. II. Leiden, 1977. – S. 158.

[101] Duchene-Guillemin S. La fixat de la Avesta. – In. Festshrift G. Morgenstierne, Wiesbaden. 1964.

[102] Iqtibos A. Yazberdievdan olindi. Istoki..., 1988. – S. 27.

haqda shunday ma'lumot mavjud: «Shohlar shohi Shopur, Ardasher o'g'li, Hindiston, Vizantiya va boshqa mamlakatlarga tarqalib ketgan, tibbiyot, astronomiya, zamon, makon, materiya, yaratilish, mavjudlik, fano, sifat o'zgarishi, rivojlanish va boshqa jarayon va a'zolarga doir masalalar talqin qilingan diniy asarlarni to'plashda davom etdi, ularni «Avesto»ga qo'shdi va ulardan yaxshi ro'yxat tuzib, podsholik xazinasiga joylashni amr etdi: u bularni Mazdaga sig'inish diniga bog'lash imkoniyatlarini tadqiq qildi»[103].

«Avesto» qonuniy matnining beshinchi nashri milodiy IV asrda Shopur II hukmronligi davrida (309-379) amalga oshirildi. Zardushtiylik an'anasi «Avesto»ning yangi tahririni yaratish va uning matnini qonuniylashtirishda asosiy o'rinni davlatning oliy kohini Adurbad Maxraspandan (290-371)ga beradi. «Avesto»ning navbatdagi qonuniylashtirilishi haqida «Denkard»da shunday deyiladi: «Shohlar shohi Shopur, Hurmuzd o'g'li, barcha viloyatlar ahli tomonidan diniy ixtiloflarni muhokama qilish bo'yicha tribunal ta'sis etdi va barcha nizomlarni batafsil ko'rib chiqdi; Adurbadning ma'qullashidan keyin va turli mazhablarning vakillari bilan muzokara o'tkazib, nasklarni baholash orqali, u (ya'ni shoh) hatto dahriy hisoblanganlarga ham: «Endi, dinni barchamiz tan olganimizdan so'ng, biz bor kuchimizni hech kim dinga e'tiqodsizlikka yo'l qo'ymasligiga qaratamiz», deb murojaat qildi va shunga muvofiq ish tutdi»[104].

O.Yazberdiev ««Avesto»ning Sosoniylar qonuni va uning yozilish tarixi» maqolasida turli olimlarning «Avesto»ni kodifikatsiya qilish jarayonlari va «Avesto»ning qonuniy matnini yaratishda Adurbad Maxraspandanning o'rni haqidagi fikrlarini batafsil keltirib o'tadi: «Muhimi shundaki, dunyoning XIX-XX asrlardagi deyarli barcha yirik «Avesto»shunoslari Adurbad faoliyatiga doir ko'zdan kechirilayotgan parchani deyarli bir xil talqin qiladilar. Chunonchi, K.Geldner ushbu kohin «Avesto» matnlarining yakuniy taftishini amalga oshirgani va u Shopur II davrida qonun sifatida e'lon qilinganini tan oladi. «Bugungi kungacha faqat parchasi etib kelgan 21 nask (kitob)li «Avesto» Sosoniylar davri asari, shoh Ardasher hukmronligi davrida to'plovchi va noshirlar Tansar boshchiligida amalga oshirgan mehnatning mahsuli hisoblanadi,

[103]O'sha erda.

[104]O'sha erda. – S. 20.

- deb yozadi olim. – Bunga yo'l qadimgi. Vologezlar (ya'ni parfiyon shohlari – E.O.)dan birining hukmronligi davrida matnlarni to'plash bilan ochilgan edi. Bu matn, aftidan, Adurbad Maxraspandan amalga oshirgan tekshiruv tufayli o'zining yakuniy ko'rinishiga ega bo'lgan». E.Vest nasklar sonining to'liq tartibga keltirilishi, ularning IV asrgacha amalga oshirilgan o'rta fors tilidan tarjimasining tahrir qilinishi va ularga zamonaviy nomlarning berilishi Adurbadning xizmati deb hisoblaydi. J.Darmsteter Adurbadning zimmasiga mushkul vazifa – III asrdagi manixey dahriyligi jiddiy putur etkazgan qadimgi zardushtiylik dinining ustivorligini tiklash vazifasi yuklanganini ta'kidlaydi. U ham, xuddi K.Geldner va E.Vest singari, «Adurbad Maxraspandan Shopur II davrida «Avesto»ni tekshirgan va nasklar sonini belgilagan», deb qayd etadi. Bu xizmatlari uchun, deb davom etadi J.Darmsteter, zamondosh forslar uni «Avesto»ning Zardushtdan va Jamaspdan keyingi uchinchi asoschisi deb hisoblaganlar. K.G.Zaleman bizgacha «Avesto»ning Adurbad tahriridagi qo'lyozmasi etib kelgan, deb hisoblaydi. Bugungi kundagi Eron va Turon tarixiga doir tadqiqotlarda ham bu kohin va olimning faoliyatiga shunday baho beriladi. Chunonchi, R.Fray zardushtiylik ortodoksalligini e'lon qilish tufayli Adurbad tugab borayotgan Sosoniylar davri mualliflari nazarida «din tayanchi» bo'lib hisoblanganligini ta'kidlaydi. Nihoyat, shuni qayd etish lozimki, E.Xertsfeld hatto uni «Avesto» yozuvining asoschisi, bu yozuv bilan u payg'ambar nomining «Zaratustra» shaklidagi haqiqiy milliy ifodasini birinchi bo'lib yozgan, deb hisoblaydi»[105].

Darhaqiqat, «Avesto» alifbesi, bugungi kunda fanda qabul qilinganidek, milodiy IV asrda Sosoniylar Eronidagi kohinlar muhitida «Avesto»ning yangi tartiblangan va qonuniylashtirilgan matnini yozish uchun yaratilgan. Gap shundaki, zardushtiylik diniy an'anasi muqaddas bitikning o'lik (miloddan avvalgi IV asrdan boshlab) tildagi to'g'ri talaffuziga jiddiy ahamiyat bergan. Agar qat'iy rioya qilingan matnlarni (albatta, faqat ayrim liturgik matnlarni) og'izdan og'izga o'tkazish an'anasi originalga yaqin talaffuzning chiqishiga hali ma'lum darajada imkon bergan bo'lsa, yozma matnda zardushtiylik dunyosi xalqlari arameografik yozuv tizimining barcha unsiz o'zaklari singari fonetik yozuv tashqarisida muqaddas matnlar o'z ohangini yo'qotgan va unutilib

[105] Yazberdiev A. Sasanidskiy kanon Avesto` i istoriya zapisi ego tekstovG`G`Izvestiya AN Turkmenskoy SSR. Seriya obh. nauk. – 1987. №1. – S. 32.

borgan. Shuning uchun yangi qonuniy matnni barcha unli va undosh harflarni to'g'ri talaffuz qilish imkonini beruvchi sifat jihatidan yangi vokallashtirilgan alifbeda yozish zaruratining anglab etilishi nafaqat zardushtiylik dinining mustahkamlanishi va tarqalishi, balki yozuv madaniyatining rivojlanishida ham muhim qadam bo'ldi.

Yangi vokallashtirilgan alifbe, o'rta fors tillari va yozuvlari bo'yicha mutaxassislar yakdillik bilan tan olishicha, vokallashtirilgan yunon yozuvi printsiplarini ijodiy qo'llash asosida, yangi belgilar kashf etish hamda parfiyon va o'rta fors yozuv tizimlari belgi va elementlaridan foydalanish yo'li bilan yaratilgan. Ammo «Avesto» yozuvi belgilarini farqlash va ularning sonini belgilash borasida olimlar yakdil bir fikrga ega emas. Chunonchi, X.Bartolome 52 belgini farqlab, ularning uchtasi ligatura, bittasi fors qo'lyozmalarining hind qo'lyozmalaridan farqli varianti deb qayd etadi[106]. X.Rayxelt 51 belgini farqlaydi (48Q3 ligatura)[107]. V.B.Xennig alifbeda 48 harf bo'lib, shulardan 14 tasi unli ovozlar uchun deb hisoblaydi[108], G.Vindfur esa 60 ta belgini sanaydi[109]. «Avesto» alifbesida 46 ta harfni ajratuvchi M.Boysning fikricha, bu alifbe shu qadar puxta ishlab chiqilganki, bu jihatdan uni hozirgi davrda keng tarqalgan fonetik alifbega qiyoslash mumkin[110].

Fanda «Avesto» alifbesi nomini olgan va keyinchalik faqat «Avesto» matnlarida qo'llangan bu yozuv vositasida yangi qonuniy matn yozildi va unga o'rta fors tilida yozilgan batafsil izohlar – ilmiy nomi bilan aytganda «Zend» yoki «Zend-Avesto» ilova qilindi. V.B.Xeningning fikricha, yangi yaratilgan vokallashtirilgan alifbe vositasida muqaddas bitik matnlari puxta tanlab olingan kohinlar tomonidan aytib turib yozilgan. Bu kohinlar qadimgi matnlarni boshqalardan yaxshiroq yodda saqlab qolganlariga ishonganlar. «Bu kohinlar o'z xotiralarini qadimgi qo'lyozmalarga qarab tiklashga uringanlarmi, yo'qmi – buni biz hech qachon bilmaymiz», deb yozadi olim. «Avesto»ning bu tahrirdagi qonuniy matnlari, mazkur asarning oldingi davrlarda kodifikatsiya qilingan qo'lyozmalari singari

[106] Osnovo' iranskogo yazo' koznaniya. 1979. - S. 137.
[107] O'sha erda.
[108] Henning W.B. 1977. – S. 155.
[109] Windfuhr G.L. Duacritic and distinctive Features in Avestan. – Journal of the American Oriental Society, Vol. 91. Num. 1. 1971. – S. 121.
[110] Boys M. Zoroastriytso'. Verovaniya i obo'chai. 2-e izd., ispr. – M.: Nauka, 1988. – S. 116.

bizgacha etib kelmagan.

Oradan ikki yuz yil o'tib «Avesto» yozuvi zardushtiylik muqaddas bitigining yangi qonunini yozishda – «Avesto»ning tarixdagi so'nggi, oltinchi to'liq rasmiy nashrida yana qo'llandi. Bu fan va madaniyat homiysi, ulkan qo'lyozmalar kutubxonasining asoschisi, davlat miqyosidagi katta tarjimonlik faoliyatining tashkilotchisi bo'lgan Eron shohi Xusrav I Anushirvon hukmronligi davrida (531-579) sodir bo'ldi. Aynan uning maslahatiga ko'ra davlatning bosh kohini Vex-Shopur «Avesto»ning yangi tahrirdagi matnini yaratdi. Bu 21 kitob-naskdan iborat bo'lgan so'nggi qonuniy matnning qo'lyozma ro'yxatlaridan XIII-XIV asrlarda ko'chirilgan nusxalarida bizgacha to'liq «Avesto»ning faqat to'rtdan bir qismi etib keldi.

«Avesto»ning kodifikatsiya qilinishi bilan bog'liq muammolar majmuini kitobat madaniyati tarixi kontekstida ko'rib chiqish jiddiy qiziqish uyg'otadi. Har bir alohida olingan to'liq «Avesto»ni yozuvda qayd etish tarixiy hodisasi «Avesto» (zardushtiylik) madaniy dunyosining kitob va kitobat madaniyati tarixidagi muhim bosqichlardan birini ifodalaydi. O'tkazilgan «Avesto» nashrlari sharhi «Avesto» matnlari Ahomaniylar davridan boshlab uzluksiz yozma qayd etilib va qonuniylashtirilib kelinganini ko'rsatadi. Miloddan avvalgi V asrdan milodiy XIII-XIV asrgacha bo'lgan bir ming sakkiz yuz yildan ortiq davr mobaynida «Avesto» matnining turli qismlari ko'p marta qayta ko'chirildi, to'liq «Avesto» barcha qo'shimcha va turli variantlari bilan jami olti marta tiklandi va kodifikatsiya qilindi, ya'ni «Avesto»ning yangi tahrirdagi matni, uning qonuniy matni yaratildi. «Avesto» matnlarining bir necha marta qayta ko'chirilishi va kodifikatsiya qilinishi, uning to'liq qismlarining hukmdorlar xazinasi va zardushtiylar ibodatxonalarida saqlanishi qadimgi davr va ilk o'rta asrlarda, Turon va Eron xalqlari ijtimoiy-madaniy jihatdan yagona fors-turkiy zardushtiylik madaniy dunyosini tashkil qilgan davrda bu xalqlar kitobat madaniyatining umumiy darajasi yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

Savollar va topshiriqlar:

1. Qadimiyat va ilk o'rta asrlar davrida «Avesto»ni kitobiylashtirish haqida so'zlab bering.

6-§. Turonzaminda turli yozuv tizimlari rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlari va etakchi tamoyillari. Eng muhim yozuv yodgorliklari

Turonzaminning turli tarixiy-madaniy mintaqalarida juda xilma-xil etnik guruhlar, subetnoslar va etnoslarning mavjud bo'lishi va birgalikda hayot kechirishi, savdo-sotiq va o'zaro madaniy aloqalar, bosqinchilik yurishlari, ayni bir vaqtda va ayni bir mintaqada bir qancha tillar va dinlarning mavjud bo'lishi bir qancha yozuv tizimlari va yozma yodgorliklar majmuining muvoziy tarzda va bir vaqtning o'zida rivojlanib borishiga sabab bo'ldi. Masalan, miloddan avvalgi III-II asrlarda Yunon-Baqtriya podsholigida oromiy grafikasi asosidagi baqtriya yozuvi bilan bir qatorida yunon yozuvi ham iste'molda bo'ldiki, uni yunonlar harbiy ma'muriyati o'zi bilan birga olib kelgan edi. Milodning boshlarida yunon yozuvi mahalliy ma`murlar tomonidan baqtriya tilini qayd etish uchun ishlatilardi. O'sha Baqtriyaning o'zida hind yozuv tizimlari bo'lgan brahmi va kxaroshtxi ham mavjud edi; sosoniylar Eronidan kelib chiqqan eroniylar yashaydigan joylarda va Turonzaminning xristianlar istiqomat qiladigan ayrim hududlarida pahlaviy (o'rta forsiy) va suriya nestorian yozuvlari ishlatilardi.

Qadimgi Termizda va uning atrofidagi qishloqlarda hamda budda ibodatxonalarida Kushon davlati zamonlarida (miloddan avvalgi I asr - milodiy III asr) kam deganda olti xil turli yozuv tizimlari: baqtriya yozuvi (u yunon yozuvi asosida paydo bo'lgan); brahmi va kxaroshtxi hind yozuvlari; pahlaviy (o'rta forsiy) yozuvi (u mazkur mintaqaga milodiy III asrning 20-nchi yillaridan kirib kela boshlagan edi, bu mintaqa birmuncha vaqt sosoniylar Eroni tomonidan zabt etilgan davrda) va hozirgacha to'liq ma'nosi ochib berilmagan «issiq» deb atalgan yozuv ishlatilgan.

Miloddan avvalgi asrlarda va milodiy dastlabki asrlarda Turonzaminning Baqtriya singari viloyatlarida muomalada bo'lgan tangalarda parfiya va sug'd yozuvlari uchragan. Bu va boshqa deyarli barcha yozuv tizimlarining namunalarini, masalan, Eski Termizning shimoliy qismida va hozirgi vaqtda Qoratepa nomi bilan mashhur bo'lgan joyda milodiy I-III asrlariga mansub g'orlardagi budda monastirlari devorlarida ko'rish mumkin.[111]

[111]Qarang: Buddiyskiy pamyatnik Kara-tepe v Starom Termeze. Materialo' arxeologicheskoy ekspeditsii. - 1976.

Keltirilgan misollarning ko'rsatishicha, muayyan yozuv tizimlari yozuv yodgorliklarning, shuningdek, biror til yoki tillar guruhining grafika, alfavit, orfografiya kabi tushunchalarni o'z ichiga olgan yozma vositalar majmuidan iborat bo'lgan odatda bitta yozuv yoki alfavit tizimi bilan birlashtirilgan bo'lib, muayyan madaniy-yozma shakllarga tarixan qaror topgan tillar guruhiga kiritilgan bo'ladi. Bu tillar faqat alfavitlar va orfografiyalarning mushtarakligi bilan birlashib qolmay, shu bilan birga, asosan, til institutlari: idora, maktab, kitob chiqarish va taqsimlash, shuningdek, adabiy ko'p tillilik bilan ham birlashgan bo'ladi. Shu munosabat bilan Turon-Turkiston xalqlari til madaniyati va kitobat ishi tarixiga doir masalalarni tadqiq qilishda ikkita asosiy til guruhlari - eron tili va turkiy til vakillarining deyarli uch ming yil mobaynida madaniy-tarixiy jihatdan birga yashab, o'zaro aloqada bo'lib, bir-biriga ta'sir ko'rsatib kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'p asrlar mobaynida eramizdan avvalgi I ming yillik va eramizning I ming yilligida turkiy elatlarning skiflar, sak-massaget qabilalari, eroniy tiliga mansub sug'dlar, parfiyaliklar, xorazmliklar, baqtriyaliklar, marg'iyonlar va farg'onaliklar bilan aralashib va qo'shilib ketish jarayoni davom etdi. Eramizning ikkinchi ming yilligining boshlarida Turonu Turkistondagi eron tiliga mansub tojik va turkiy tilga mansub o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz xalqlarining shakllanish va rivojlanish jarayonining yakunlanishi sodir bo'ldi. Bu xalqlar madaniy jihatdan o'zlariga qadimgi qabilalar va elatlarning moddiy va ma'naviy boyliklarini qamrab olgan. Shu davrda Turkiston aholisini tavsiflash uchun «turkutojik» iborasi keng yoyiladi.

So'nggi uch ming yillikda Turonzaminda turli til guruhlari rivojlanishining tarixiy davrlari chegaralarini to'g'ri belgilash bu mintaqada kitobat madaniyati rivojlanishining asosiy bosqichlarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Eronshunoslik fanida qabul qilingan an'anaviy davrlashtirish sxemasiga ko'ra eron tillari tarixida uch asosiy davrni ajratish qabul qilingan. Birinchisi - qadimgi eron tillari davri - mil. av. IV-III asrlargacha bo'lgan davrni qamrab oladi; ikkinchisi - o'rta eron tillari davri - mil. av. IV-III asrlardan milodiy VIII-IX asrlargacha bo'lgan davrni; uchinchisi - yangi eron tillari davri VIII-IX asrlardan hozirgi paytgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ushbu sxemaga ko'ra qadimgi eron tillari davriga qadimgi fors, «Avesto», midiya, skif tillari. O'rta Eron tillari davriga o'rta fors, parfiyoniy, sug'diy, xorazmiy,

bohtariy va sak-xotan. Yangi eron tillari davriga - yangi fors, doriy va fors-tojik tillari kiradi.

Turonzaminda turkiy tilning rivojlanishini davrlashtirish sxemasi o'ziga besh asosiy tarixiy davr yoki zamonni qamrab oladi. Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridan boshlab milodiy IV asrigacha xunnlar tili davri, IV asrdan IX asrgacha qadimgi turkiy yozma til davri davom etadi. Ayniqsa, xunnlar tili davri bo'yicha yozma yodgorliklarning kam ekanligi, ba'zan esa butunlay yo'qligi, har ikkala til yuzasidan tilshunoslik tadqiqoti olib borish uchun manbaviy bazaning nochorligi hozirgi olimlarga bu birliklar ichida biron-bir tarzda tillarga va til shevalariga tabaqalashtirish yuzasidan ish olib borish imkonini bermaydi.

XI asrdan XIV asrgacha o'rta turkiy yoki eski turkiy til davri kechadi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» (1078) asarida Turonzamin uchun aynan shu til birligi normalari qayd etilgan bo'lib, shu bilan birga bu til turkumi ichida turli qabilaviy va tilga oid farqlar ajratib ko'rsatilgan. Mahmud Koshg'ariy quyidagi til guruhlarini ta'riflaydi. Masalan, qarluq, uyg'ur va chigil guruhlari asosida birmuncha keyinroq tarixiy davrda uyg'ur va o'zbek tillari vujudga keladi. Keyinchalik ozarbayjon, turk, turkman va boshqa bir qancha tillarga, shuningdek, o'zbek tilining xorazm shevasiga yo'llanma bergan o'guz til guruhi. Qipchoq til guruhi va undan kelib chiqqan qozoq, qirg'iz, qozon tatarlari, boshqird, qoraqalpoq tillarini ta'riflaydi.

XV asrdan e'tiboran yangi turkiy til davri boshlanadi. Yangi mumtoz adabiy tilning, ya'ni XV asrda qaror topgan o'zbek tilining (u chig'atoy tili deb ham atalardi) sarchashmasida Lutfiy, Durbek, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Haydar Xorazmiy, Amiriy, Yaqiniy, Xorazmiy, Alisher Navoiy turishgan. Yangi turkiy til davri asrimizning 30-yillarigacha davom etadi. Badiiy adabiyotda yangi mumtoz o'zbek tilining bu davrdagi vakillari Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Botu, Elbek bo'lishdi. Fuqarolar urushi va bolsheviklar qizil terrorining 20-yillarida Turkistondagi halokatli oqibatlari, 30-yillarda sobiq sho'rolar Ittifoqi xalqlari hayotida stalincha shafqatsiz terror, kollektivlashtirish va ataylab tashkil etilgan ocharchilik yillarida, so'ngra ikkinchi jahon urushi yillarida ro'y bergan ayanchli halokatlar, 40–70 - yillarda sobiq Ittifoqning Ovrupo qismidan Turonzaminga aholining ma'lum qismi muntazam ko'chib kelishi, 70-90-yillarda O'rta Osiyoning

ijtimoiy ishlab chiqarish va sotsial tarkibida ro'y bergan o'zgarishlar, alifbe tizimining ikki marta o'zgartirilishi, ya'ni 30-yillarda arab yozuvidan lotin yozuviga, keyin 40-yillarda lotin yozuvidan rus grafikasiga o'tilishi, mahalliy xalqlarning madaniy-tarixiy vorisligi jarayonida, ular tarixiy xotirasining saqlab qolinishida, ma'naviyati va milliy an'analarida qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi, milliy, ijtimoiy-madaniy hayotga, ijtimoiy va milliy psixologiyaga, tafakkur shakllari, usullari va uslubiga jiddiy putur etkazdi. Oqibatda milliy tillarning o'zgarishi yuz berdi. 30-yillarning oxiri - 40-yillarning boshlaridan e'tiboran turkiyzabon xalqlar adabiy va jonli so'ziashuv tillarining rivojlanish tarixida zamonaviy, eng yangi bosqich boshlandi.

6.1. Xorazmiy yozuvi va kitobati

Qadimgi Xorazm miloddan avvalgi VI asr oxirlarida Ahomaniylar imperiyasi tarkibiga kirgan edi. Bu haqda Bexistun yozuvi matnida ma'lumot berilgan.[112] Katta Aybuyirqal'a shaharchasidan (Shimoliy Xorazm) topilgan xumdagi yozuvni olimlar miloddan avvalgi V-IV asrlarga oid oromiy yozuviga kiritadilar. Bu Turon hududidagi oromiy yozuvining eng qadimgi yodgorligidir. Tarixiy manbalarning ma'lumotlari rasmiy oromiy tili va oromiy idora yozuvi Xorazmning ish muomalasiga miloddan avvalgi V-asrda kirib kelganligi haqida ancha aniqlik bilan gapirish imkonini beradi. Yunon qo'shinlarining bergan zarbalari ostida qadimgi Eron davlati qulagandan keyin (miloddan avvalgi 330 yilda) va imperiya tarqalib ketgandan so'ng Xorazmda mustaqil davlat tashkil topdi. Oromiy grafikasi asosidagi mustaqil xorazmiy yozuvi shakllanishining boshlang'ich davri miloddan avvalgi IV asr oxiri - III asrning boshlarida Qadimgi Xorazm davlatining tashkil topish davriga to'g'ri keladi. Umuman olganda mazkur yozuv tizimining mavjud bo'lish va rivojlanish davri kamida o'n to'rt asrni (miloddan avvalgi IV asrdan milodiy XI asrigacha) qamrab oladi.

Xorazmiy yozuvi yodgorliklarining muhim xususiyati shundan iboratki, ularning deyarli hammasi (ayrim tangalarni e'tiborga olmaganda) arxeologlar tomonidan qadimgi Xorazm hududidan topilgan. Yigirmanchi asrning 30-60-yillarida Xorazmda ish olib borgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xorazmiy yozuviga oid ko'pgina yodgorliklarni

[112] Dandamaev M.A. Iran pri pervo'x Axemenidax (VI v. do n.e.). – M.: Nauka, 1963. – S. 43.

topgan. Ekspeditsiya rahbari SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi S.P.Tolstov, O'zbekiston fanlar akademiyasining akademigi Yahyo G'ulomov va ekspeditsiyaning boshqa ishtirokchilari tomonidan teri, yog'och, sopol, ossuariylarga yozilgan yozma manbalarni topish, ularni o'qish, ma'nosiga tushunib etish va izohlash sohasida juda katta ishlar olib borilgan. 1938 yilda S.P.Tolstov Xorazm tangalarini o'rganish asosida birinchi marta Xorazm alifbesini qayta tiklashga urinib ko'rgan.[113]

Xronologik printsiplardan kelib chiqib, hozirgi vaqtda ma'lum bo'lgan xorazmiy yozuvining barcha yodgorliklarini, shuningdek, xorazm tili yodgorliklarini to'rtta muhim majmuaga bo'lish mumkin.

Birinchi majmua miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid sopol idishlardagi qisqa yozuvlarda odatda faqat Xorazm atoqli otlari yoki voqeotlari ifodalanadiki, bu matnlar deyarli bir xil yozuvda bitilgan oromiy matnlarimi yoki xorazmiy matnlarimi ekanligini hal qilish imkonini bermaydi. Miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid boshqa bir eng qadimgi yodgorliklar majmuini esa aniq xorazmiy tilida bitilgan yozuvlar tashkil etadi. Bu yozuv Qo'yqirilganqal'a shaharchasidan topilgan xumdagi yozuv bo'lib, faqat bitta so'z-aspabarak-chavandoz degan so'zdan iborat edi. Prof.S.P.Tolstov tomonidan miloddan avvalgi IV-III asrlar sanasi qo'yilgan va o'ziga xos belgilariga ega bo'lgan mazkur yozuv arxeologik va paleografik ma'lumotlarga ko'ra eng qadimgi xorazm yozuvi yodgorligi va O'rta Osiyo sharqiy eron guruhi tillaridan birida yozilgan yozuv tizimlarining eng qadimgi yodgorligi hisoblanadi. «O'n uch mari» (mari-hajm o'lchovi) yozuvi ham miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid bo'lib, hali pishirilmagan idish sirtiga yozilgan, shuningdek, xom g'ishtga yozilgan «Nam» yozuvi ham shu davrga taalluqlidir.

Birinchi majmua miloddan avvalgi I ming yillikning so'nggi asrlariga va milodiy dastlabki asrlariga taalluqli ko'plab qadimgi afrigidlargacha bo'lgan xorazm tangalari kursiv-oldi bosqich xorazm yozuvida bitilgan yozuvlarni ham o'z ichiga olgan. Bular Artaux; Vazamar, Sanabar va boshqa shohlar tomonidan chiqarilgan tangalar edi.

Yozuv yodgorliklarining ikkinchi majmuasini milodiy II-III asrlariga oid xorazm ma'muriy-xo'jalik yozuviga xos yozma yodgorliklar tashkil etadi, ularni 1948-1949 yillarda arxeologlar Tuproqqal'a shaharchasini qazish chog'ida topgan edilar. Bu erda taxta lavhachalarga 18 ta hujjat,

[113]Tolstov S.P. Moneto' shaxov Drevnego Xorezma i drevnexorezmiyskiy alfavitG'G'Vestnik drevney istorii. – 1939. №4. – S. 14-16.

teriga yozilgan 8 ta yirik matn parchalari, shuningdek, chirib ketgan teri o'ramlaridagi matnlarning izlari bo'lgan 200 tadan ziyod parcha bo'lib, ular bir vaqtlar mazkur o'ramlarni qoplagan va ular oralig'ida ikkilamchi loy qavatlari hosil qilgan loy tufayli bizga qadar etib kelgan bo'lib, ularda matnning bir necha yorqin izlari saqlanib qolgan edi. Qadimgi Turonzamin yozuv tizimlari paleografiyasini tadqiq qilgan tarix fanlari doktori M.M.Ishoqovning qayd qilishicha. Tuproqqal'adan topilgan yozuv yodgorliklarida «kursivlik (qiya yozma harflarga o'xshashlik) darajasi ancha yuqori»1 bo'lgan. «Tuproqqal'adan topilgan hujjatlarga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, - deb ta'kidlaydi M.M.Ishoqov, - xorazm yozuvi milodiy III asrga kelib o'zining kursivlik bosqichiga etgan va grafik tomondan «impercha oromiy yozuvidagi belgilardan ko'p jihatdan uzoqlashgan...»[114]



Xorazmiy alifbe

Xorazmiy yozuvi yodgorliklarining uchinchi majmui uning rivojlanishidagi ancha keyingi davrni, yozuv grafikasi erkin rivojlangan kursiv bosqichiga o'tgan davrni aks ettiradi va VI-VIII asrlardagi xorazm yozuvi yodgorliklarini qamrab oladi. U VI-VIII asrlardagi kumush qadahlardagi yozuvlardan[115] To'qqal'a qabristonidan topilgan ossuariylardagi yozuvlardan[116], Giyour qal'adagi (Mizdaxkon) yozuvlardan[117] tashkil topgan. Keyingi yozuvlar VII-VIII asrlarga oiddir,

[114]O'sha erda.

[115]Qarang: Livshits V.A., Lukonin V.G. Srednepersidskie nadpisi na serebryanoʻx sosudaxGʻGʻVestnik drevney istorii. - 1964. – №3. - S. 159; Livshits V.A. Xorezmiyskiy kalendar i eroʻ drevnego XorezmaGʻGʻPalestinskiy sbornik. - 1970. – №21 (84). - S. 165.

[116]Qarang: Gudkova V.A. Tok-kala. – T.: Fan, 1964. – S. 15.

[117]Livshits V.A. Xorezmiyskie nadpisi na ossuariyax s nekropolya Mazdaxkana. – T.: Fan,

60-yillarning boshlarida qabristonlarda o'tkazilgan dastlabki qazish ishlari natijasida 100 dan ortiq yozuvlar topilgan bo'lib, ular orasida butunligicha saqlanib qolgan bir qator matnlar ham bor edi. Yozuvlarni o'qish fanga Xorazmdagi musulmon davridan oldingi zamon va zardushtiylik dini, jamiyatning tuzilishi, oilalar tarkibi va ularning o'ziga xos xususiyatlari tarixi to'g'risidagi g'oyat qimmatli manba bo'lib, betakror ilmiy material berdi, Xorazmning o'ziga xos yil hisobi - Xorazm taqvimi, xorazm tili leksikasi haqidagi ma'lumotlarni jiddiy ravishda to'ldirdi. Qadimgi Xorazm hududida o'tkazilgan shundan keyingi arxeologik qidiruv ishlari, shak-shubhasiz, yangidan-yangi tarixiy materiallarni beradi, xorazm yozuvining rivojlanishi bosqichlari haqidagi tasavvurimizni yanada boyitadi. Tadqiqotchilar A.V.Gudkova va V.A.Livshitsning yozishlaricha. «To'qqal'adagi ko'mish kameralarida, chamasi, butun bir «kutubxona» joylashgan bo'lib, u o'zining tuzilishi, mazmuni va O'rta Osiyo xalqlari madaniyati tarixida tutgan ahamiyatiga ko'ra butunlay noyobdir»[118] .



Tuproqqal'adan topilgan taxtachadagi xorazmiy yozuvi namunasi. Milodiy II asr

Yozuv yodgorliklari to'rtinchi majmuining qolgan barcha yodgorliklardan farqi shundaki, unga XI-XIV asrlarda yashab o'tgan mualliflarning arab yozuvida bitilgan asarlari kiritilgan, ularning matniga arab grafikasida yozilgan xorazmcha sharhlar ham ilova qilingan. Bu

1970. – S. 247, 252.

[118]Gudkova V.A., Livshits V.A. Novo'e xorezmiyskie nadpisi iz nekropolya Tok-kalo' i problema «xorezmiyskoy ero'»G'G'Vestnik KKFAN UzSSR (Nukus). – 1967. - 1967. №1. – S. 3.

bosqich xorazm tilining sekin-asta barham topib borishi natijasida tarixan uzilib qolgan. Buyuk qomusiy olim, kelib chiqishi jihatidan xorazmlik bo'lgan Abu Rayhon Beruniy (973-1048)ning e'tirof qilishicha, xorazm tili uning uchun «ona tili» bo'lgan. U o'zining «Al asr al baqiyaan al qurun al holiya» («O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar» yoki «Xronologiya») asarining boblaridan birini xorazmliklarning bayramlari va taqvimini tasvirlashga bag'ishlab, unda hafta kunlarining, oylar, yulduzlar turkumi, bayramlarning xorazmcha nomlarini keltirib o'tadi. X-XII asrlardagi arab mualliflari Makdisiy, Ibn Fadlan, Istaxriy, Muqaddasiy, as-Saolibiy, Yoqut Hamaviyning jug'rofiya, filologiya va tarixga oid asarlarida, Abul-Fazl Bayhaqiyning «Tarixi Mas'udiy» asari va boshqalarda o'nlab xorazmcha so'zlar uchraydi.

Xorazmlik az-Zamaxshariy XII asrda yaratgan arabcha-forscha lug'at «Muqaddimat al-adab» («Yaxshi xulqlarga kirish»)da 40 ga yaqin xorazmcha so'zlar (13 ibora) uchraydi. XII asrning birinchi yarmiga mansub bo'lgan arab tilida yozilgan fiqhga doir xorazm tilidagi bir qancha yuridik formulalar tarjimasiz shundoq keltirib o'tilgan.[119] Lekin eng ko'p xorazmcha sharhlar–qariyb ikki yarim mingta xorazmcha ayrim so'z, ibora va hatto butun-butun dialoglar XII asrda Xorazmda yashagan qonunshunos Muxtor az-Zohidiyning «Kun'at al-muni'at...» («Istalgan narsaga ega bo'lish...») kitobida mavjuddir. XIV asrda qayta ko'chirilgan bu asar qo'lyozmasini 1936 yilda SSSR FA Sharqshunoslik instituti qo'lga kiritgan edi. Bu qo'lyozma asar arab tilida yozilgan bo'lib, fors tiliga o'girilgan va uning asosiy matniga xorazmcha iboralar ham kiritilgan. Kitobning boblari nikohdan o'tish va uni bekor qilishga, qasamyodga, xulq-atvor va taqvo qoidalariga bag'ishlangan. Qo'lyozmaga Jalol al-Imodiyning asari (asosan lug'at va sharhlar) bitilgan daftar ilova qilingan edi. Asar «Kun'at al-mun'at» kitobida xorazmcha keltirilgan so'zlarni tushuntirish» deb atalardi.

Lug'at muallifi bunday yozadi: «Bu xorazmcha iboralar mazkur tilga mansub bo'lmaganlar uchun tushunarsizdir va qiyinlik qiladi, va ularni tarjima qilib berishga ehtiyoj seziladi... Muallif o'zi uchun noaniq tuyulgan so'zlarni bu tilni yaxshi biladigan kishilardan so'rab bilib olmaguncha ularning tarjimasini yozmagan. Bu tilning nozik

[119]Qarang: Oranskiy I.M. Vvedenie v iranskuyu filologiyu. – M.: Izd-vo vostochnoy lit., 1960. – S. 210.

tomonlarini va xususiyatlarini yaxshi biladigan kishilarga murojat qilib, qanday ma'no so'zning haqiqiy ma'nosini anglatishini bilib olgandan keyingina uni o'z asariga kiritgan»[120] . Ushbu lug'at muallifini 1335 yilda Urganchda arab sayyohi Ibn Batutta ko'rib qoladi[121]. «Kun'at al-mun'at» kitobida mavjud bo'lgan har bir xorazmcha so'zning batafsil sharhlanishi va tushuntirilishiga, so'z va iboralarning, nikoh, ajralish, qasamyod shakllari, xorazmcha o'ziga xos ahloqiy va ma'naviy tushunchalarning tarjimasiga qarab, Jalol al-Imodiy Xorazm tarixini, xorazmcha turmush tarzining nozik tomonlarini, Xorazm ijtimoiy-madaniy muhiti va xorazm tilini yaxshi bilganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Arab yozuvida bitilgan xorazmiycha matnlar eronshunos M.N.Bogolyubovning maxsus o'rganish ob'ekti bo'lib xizmat qildi, u mazkur matnlarni alohida arab grafikasidagi xorazmiy yozuvi namunasi sifatida qaragan. «Xorazm tilidagi arab-xorazmiy alifbesida yozilgan talay materiallarning imloviy usullari o'zining bir xilligi bilan ajralib turadi, - deb ta'kidlaydi M.N.Bogolyubov. - Bu narsa shunday xulosaga kelishga imkon beradiki, mazkur materiallar muayyan imlo tizimiga izchillik bilan amal qiladi, bu tizim xorazmliklarda arabcha alifbe yozuvi amaliyoti jarayonida vujudga kelgan. Mazkur tizimning shartli tomonlari birmuncha qiyinchilik bilan ochib beriladi, chunki ular ayni vaqtning o'zida xorazm tilining tovush tarkibi to'g'risidagi, bu tildagi so'zlar, urg'ular va iboralar fonetikasi haqidagi tasavvurlarimizning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Fonetik jihatlar xorazm tilida juda muhim rol o'ynagan. Xorazmiycha matnlardagi o'zlashtirma so'zlar yozilishining o'zgarishi ana shundan dalolat beradi. Xorazm imlosidagi yozuvning fonetik jihatlari tarixiy-morfologik printsipdan ustunlik qilgan».[122]

Professor A.A.Freyman xorazmcha til materialini o'z ichiga olgan arab yozuvi manbalari asosida 1951 yilda Xorazm tili tovush tarkibi va morfologiyasining asosiy xususiyatlarini tiklashga birinchi marta urinib ko'rgan.[123]

---

[120]Volin S.L. Novo`y istochnik dlya izucheniya xorezmiyskogo yazo`kaG`G`Zapiski in-ta vostokovedeniya AN SSSR. UP. – L., 1939. – S. 85-86.

[121]Qarang: Ibragimov N. Ibn Batutta i ego puteshestviya po Sredney Azii. – M., Nauka, 1988. - S. 74.

[122]Bogolyubov M.N. O nekotoro`x osobennostyax arabo-xorezmiyskoy pismennostiG`G`Narodo` Azii i Afriki. - 1961. – №4. - S.182.

[123]Qarang: Freyman A.A. Xorezmskiy yazo`k. – M., 1951. – S. 120.

Hozirgi vaqtda xorazmiy yozuviga oid ko'plab yodgorliklar mavjud bo'lishiga qaramasdan, xorazm tilining fonetik va grammatik tuzilishiga doir batafsil diaxronik tavsif mavjud emas. Olimlarning bu masalaga doir mulohazalari ham izchillikdan yiroq. Biroq, V.B.Xenning, D.N.Makkenzi, V.A.Livshitsning asarlarida Xorazm grammatikasining asosiy nazariy masalalari amaliy jihatdan ishlab chiqilganligini qayd etib o'tish kerak. Bu hol mazkur muammoning yaqin kelajakda hal etilishiga umid tug'diradi.

Xorazmiy yozuvi yodgorliklarini bir tizimga keltirish va paleografik jihatdan o'rganish jiddiy muammolardan biri bo'lib, mazkur muammo ustida prof. M.M.Ishoqov ko'p yillardan buyon ish olib bormoqda. Hozirgi vaqtda u ilk bosqichdagi yodgorliklarning batafsil ilmiy obzorini tuzib chiqqan, xorazmiy yozuvining kursiv bosqichiga doir materiallar to'plash, ularni bir tizimga keltirish va paleografik jihatdan tavsiflash ishlarini davom ettirmoqda. Mazkur ish qadimgi va ilk o'rta asr Xorazm yozuvi va kitobat madaniyati tarixiga doir ko'pgina savollarga javob beradi, degan umiddamiz.


6.2. Parfiyoniy yozuvi va kitobati

Parfiya tili qadimgi zamonlardan boshlab milodiy V-VI asrlarigacha Janubiy Turkmaniston va Xuroson aholisining o'zaro aloqa vositasi bo'lib xizmat qilgan[124]. U Parfiya imperiyasida rasmiy til hisoblangan. Sosoniylar davlati hukmronlik qilgan davrning birinchi yarmida ham o'z mavqeini ko'p jihatdan saqlab qolgan. Ma'lumki, Sosoniylar davlatida rasmiy til o'rta fors–pahlaviy tili bo'lgan. Sosoniylarning dastlabki yozuvlarida parfiya rivoyatlarining mavjudligi Sosoniylar sulolasining boshlang'ich davrida parfiya tili etarli darajada keng tarqalganligidan dalolat beradi. Bular Ardasher I ning (224-241 yillar) Naqshi Rustamdagi va Shopur I ning (241-271) Naqshi Rajabdagi uch tilli (o'rta fors, parfiya va yunon tillari), Shopur I ning Hojioboddagi va Narsening (293-303 yillar) Payqulidagi ikki tilli (o'rta fors va parfiya tillari) yozuvlarida bitilgan yozuvlaridir.[125]

---

[124]Qarang: Rastorgueva V.S., Molchanova E.K. Parfyanskiy yazo'kG'G'Osnovo' iranskogo yazo'koznaniya, Sredneiranskie yazo'ki. – M.: Nauka, 1981. – S. 153.

[125]O'sha erda. – S. 150.



Parfiyoniy yozuvli sopolak. Nisa topilmasi. Mil. avvalgi I asr.

Yunonlarning bosqinchiligi va ellin davlatlarining tashkil topishi natijasida miloddan avvalgi oxirgi asrlarda va milodiy dastlabki yillarida Turonzaminda yunon tilining roli birmuncha oshganligiga qaramay Parfiyaning ma'muriy muassasalari ichki tajribasida parfiya tili ancha keng ishlatilardi.2 Davlat ish yuritishida yunon tili va yozuvi bilan bir qatorda oromiy idora tajribasidan foydalanish an'anasi ham saqlanib keldi.

I.M.Dyakonov oromiy yozuvidan geterografik parfiya yozuviga o'tishning xronologiya masalalarini tahlil qilib, bunday deb yozgan edi: «Miloddan avvalgi II asrning o'rtalarida Parfiya shohlari Vaviloniyani zabt etib, kotiblar vavilon kotiblari bilan ish yuzasidan muloqotga kirishganlarida ular oromiy tilidan tashqari yana akkad va hatto shumer tillarini hamda ponasimon xat-savodini ham egallashgan edi. Chamasi, ana shu vaqtda eron kotiblari tajribasi tizimga aylangan»3. U mazkur fikrini boshqa bir ishida rivojlantirib, Vaviloncha idora andozasini (bunda shumer yozuvidan foydalanuvchi akkadchi-kotiblar endi akkadcha yozishar, lekin shumer geterogrammalari, «shumerogrammalar»dan foydalanishardi. - bu ko'pincha shumer tili nuqtai nazaridan noto'g'ri edi, shumercha so'z shakllarida akkadcha fonetik «qo'shimchalardan», shuningdek, akkadcha

bog'lovchilardan va boshqa so'zlardan foydalanishardi) parfiya idora tajribasiga ko'chirish mumkin, degan xulosaga kelgan, shu bilan birga, ancha ilgariroq vaqtda, hali Mitridat I ning miloddan avvalgi 141 yil istilolariga qadar oromiy yozuvidan geterografik parfiya yozuviga o'tish mumkin, deb hisoblagan.[126]

,	𐫀	M	𐫄
B	𐫁 𐫂	N	𐫅 𐫆
C		S	
H	𐫇	P	𐫈
W	𐫉	Č (Ş)	
Z	𐫊	R	𐫋
X (H)	𐫌	Š	𐫍
J	𐫎 𐫏	T	𐫐 𐫑
K	𐫒		
D (L)	𐫓 𐫔	h	

Parfiyoniy alifbe (Nisa va Marv yozuv obidalari asosida)

Parfiyoniy alifbesida oromiycha prototipning barcha 22 harfi an'anaviy ravishda mavjud edi. Biroq yozuv amaliyotida parfiya yozuviga xos bo'lmagan semit tovushlarini ifodalovchi to'rtta harf faqat geterogrammalarda mavjud edi. «Sh» harfi ikkita vazifani bajarar, ya'ni sh va ch tovushlarini ifodalay olardi. M.M.Ishoqovning ko'rsatib o'tishicha, bu eroncha «ch» tovushini «sh» orqali oromiycha ifodalashning o'ziga xos turi edi. Keyinchalik **sh** harfining **j** harfiga o'tishi sodir bo'ladi, u ham yozma yodgorliklarda aks etardi.

Oromiy grafikasi asosidagi parfiya yozuvi yodgorliklari soni juda katta. Ularning hozirgi vaqtdagi umumiy miqdori 2800 taga yaqinlashib

[126] Dyakonov I.M. O geterogrammax i ix meste v istorii razvitiya pisma (Mesopotamiya i Iran)G'G' Peredneaziatskiy sbornik. Drevnyaya i srednevekovaya istoriya i filologiya. – M., 1986. – S. 5.

qolgan.[127] Xronologik jihatdan ular miloddan avvalgi II asrdan milodiy III asrgacha bo'lgan, ya'ni Parfiya davlati mavjud bo'lib turgan deyarli butun davrni qamrab oldi. Masalan, miloddan avvalgi I asrda Qumisda (Eron) ostrakonlar mavjud bo'lgan, milodiy 88-yilida ishga doir hujjat Avromanda (Eron Kurdistoni) pergamenga yozilgan, milodiy I asr oxiri - II asr boshlarida Nippurdagi (Iroq) idishlar va sopollarga yozuvlar yozilgan, Janubiy Turkmanistondagi Kosha-depedan va Marvdan topilgan sopol parchalari milodiy II-III asrlariga taalluqlidir.[128]

Parfiyoniy yozuvi yodgorliklarining asosiy qismi (2700 dan ko'proq) Parfiyaning qadimgi hududidan, davlatning qadimgi poytaxti - hozirgi Eski Nisa shaharchasidan topilgan, uning markazida Mixrdatkirt qal'asi bor, bu joy hozirgi Ashgabatga tutashib ketadi. Bu erda shohning vino saqlanadigan omborlari joylashgan edi. Keltirilgan vinolar katta hajmli humlarga qo'yilib, ularga kirish hujjati tuzilgan. Sopol parchalarida «Yosh vino», «Sirka», «Boshqa idishga quyilgan» degan yozuvlar bo'lgan, shuningdek, keltirilgan vinoning miqdori, etkazib beruvchining nomi va unvoni, joyning va uzumzorning nomi, sana, vinoning navi qayd etilgan. Vino berilishi talab etilgan sopol parchalari ham uchraydi.[129]

Eski Nisa shaharchasidan miloddan avvalgi II asr milodiy I asrga doir Parfiyaning yozma xo'jalik hujjatlari XX asrning 40-yillari oxiri - 50-yillarining boshlarida janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi tomonidan professor M.E.Masson rahbarligida topilgan. Bu yozma yodgorliklarni o'qish, tahlil etish va sharhlash eronshunos olimlar M.M.Dyakonov, I.M.Dyakonov va V.A.Livshits tomonidan amalga oshirilgan.[130] Yodgorliklar qisqa va bo'lak-bo'lak bo'lishiga, ularda geterogrammalar ko'p bo'lishiga qaramay, ular birgalikda olganda dastlabki manbalarni tashkil etadi, ularning Parfiya davlati davridagi Turonzamin tarixini, madaniyat va yozuv tarixini ko'p tomonlama

---

127Qarang: Diakonoff M., Livshits V.A. Parthian economic documents from Nisa., London, 1976. – S.2.

[128]Qarang: Rastorgueva V.S., Molchanova E.K., 1981. – S. 150.

[129] Qarang: Dyakonov I.M., Livshits V.A. Parfyanskoe sarskoe xozyaystvo v Nise I v. do n.e.G`G`Vestnik drevney istorii. - 1960. – №2. S. 134-136.

[130]Qarang: Dyakonov I.M. i dr. Dokumento` iz drevney Niso` (deshifrovka i analiz) G`Dyakonov I.M., Dyakonov M.M., Livshits V.A.G`G`Materialo` YuTAKE. – Vo`p. 2.- 1951. – S. 55.

o'rganishdagi ahamiyati juda kattadir. Butun Parfiya davridan bizgacha etib kelgan yozuv matnlarining birdan-bir yirik to'plami bo'lgan Nisa sopol parchalari parfiyaliklarning ma'muriy xo'jalik tizimi to'g'risidagi, ularning e'tiqodlari, dini, taqvimi haqidagi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shimoli-sharqiy Parfiya xalqining ma'naviy madaniyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Xususan, Sosoniylar tahriridagi «Avesto»ning bizgacha etib kelgan matnlarini va Nisadan topilgan miloddan avvalgi II-I asrlarga doir Parfiya tilidagi matnlarning paleografik va grammatik ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish I.M.Dyakonov va V.A.Livshitsga «miloddan avvalgi I asrda Sharqiy Parfiyada «Avesto»ning yozma matni ham hech bo'lmaganda, ayrim qismlarining matni mavjud bo'lgan»[131], deb taxmin qilish imkonini bergan.

Parfiyoniy yozuvi yodgorliklarini paleografik tahlil qilish M.M.Ishoqovni shunday xulosa chiqarishga olib keldiki, parfiya yozuvi eroniy tillardagi boshqa yozuvlar orasida oromiy ideogrammalari (geterogrammalari)ga boyligi bilan ayniqsa ajralib turadi. «parfiya tilida kursiv yozuviga o'tish milodiy I asrda (Avroman pergameni) boshlangan bo'lib, bu vaqtda harflar pastki qismlarini birlashtirishga intilish payd bo'ladi. Bu belgi, - deb ko'rsatadi muallif, - so'nggi parfiya bosqichi uchun asosiy belgi hisoblanadi»[132].

Parfiya tili parfiyoniy yozuvida dunyoviy xususiyatga ega qator asarlar bitilgan. 1890 yili nemis eronshunos olimi V.Geyger «Zarernoma» nomli qadimgi parfiyonlar kitobining mavjudligini ishonarli qilib isbotlab berdi. Keyinchalik uning asosida kitobning «Ayadgari Zareran» nomli o'rta fors varianti yaratilgan. Shuningdek, Geyger Parfiyada yozilgan bu kitob oradan qariyb ming yil o'tib, Firdavsiy «Shohnoma»si uchun bir manba bo'lib xizmat qilganini ham isbotladi.[133]

E.Benveniste tadqiqotlarining ko'rsatishicha, «Ayadgari Zareran» bilan «Draxti Asurik u buz» (Ossuriya daraxti va echki») asarlari dastlab parfiya tilida yozilgan va keyinchalik o'rta fors tiliga tarjima qilingan[134].

[131]Dyakonov I.M., Livshits V.A. Novo`e naxodki dokumentov v Staroy Nisse // Peredneaziatskiy sbornik. – M., 1966. – Vo`p. 2. - S. 157.

[132]Isxakov M.M. Dissertatsiya na stepen dokt.ist.nauk. 1992. – S.87.

[133]Geyger W. Das Jatkar-i Zeriran und sein Verhalthis zum Sahname//Sitzungsberichte der konigtichen bayerischen Academie der Wissenscharten. Phil-hist Kl., Bd. 2. Heft [illegible] Munchen, 1890. – S. 43-84.

[134]Benveniste E. Le texte du Draxt Asurik et versification pehlevie//Journal Asiatique


o'tish mumkin. Bu yozuv yodgorliklarining kam sonli ekanligi, ularning mavjud tarkibi mazkur yozuvning rivojlanish jarayonini o'sib borishda, shuningdek, vujudga kelgan paytdan boshlab, yo'q bo'lib ketgunga qadar bo'lgan bosib o'tgan yo'lini to'liq tasavvur qilish imkonini bermaydi. Bu yozuv tizimining mavjud bo'lgan davrini topilmalar asosida miloddan avvalgi II asrdan milodiy III asrgacha deb belgilash mumkin.

6.4. Sug'diy yozuvi va kitobati

Miloddan avvalgi I ming yillikning so'nggi asrlarida sug'dlar yozuvi mustaqil tizim bo'lib ajralib chiqadi. Sug'dlar Turonzaminning eng qadimgi elatlaridan biri bo'lib, Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida va unga tutash bo'lgan tumanlar, xususan Sug'd, (qadimgi yunon manbalarining tilida Sogdiana)da istiqomat qilishardi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda sug'dlar Ahomaniylar imperiyasi tarkibiga kirgan. Yunonlar Sug'dga bostirib kirib, Samarqand istilo qilingach, ko'pgina sug'd manzilgohlari xonavayron etiladi, ularning aholisi qirib tashlangandan keyin sug'dlarni Zarafshon vodiysidan tashqarisiga ko'chib o'tish va joylashish jarayoni boshlanadi. Xitoy manbalari ma'lumotlariga qaraganda, miloddan avvalgi III asrdayoq sug'dlar Xitoy bilan chegaradosh bo'lib qoladilar. «Sharqiy Turkiston vohalari va Mo'g'ilistonda o'z manzilgohlarini barpo etgan sug'dlarning mashg'ulotlari, turmushi, madaniyati va dini haqida XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida ana shu vohalardan topilgan xitoy, xo'tan va turkiy manbalardan, shuningdek, sug'd manbalarining o'zidan ma'lumdir»[1423]. Sug'dlarning, sug'd tili va yozuvining Farg'ona vodiysida, Toshkent vohasida va Ettisuvda tarqalishi, ularning Issiqko'l atroflarigacha yoyilish jarayoni asrlar mobaynida sodir bo'ldi. Sug'dlarning xalqaro karvon yo'llaridagi savdosi tufayli asoslangan ko'pdan-ko'p savdo faktoriyalarning (aholisi muqim yashaydigan, bir necha karvonli savdo bilan shug'ullanuvchi oiladan va karvon saroylardan iborat qishloqlar) alohida roli, shuningdek, ularning uchta jahon dini - ya'ni budda, manixey va xristian dinlarning tarqalishida faol ishtirok etishi janubi-g'arbda Marv va Buxorodan Sharqiy Turkistongacha, sharqda va shimoli-sharqda Mo'g'ulistongacha bo'lgan juda katta madaniy makonda sug'd

[142]Qarang: Osnovo` iranskogo yazo`koznaniya, 1981. – S. 348.

yozuvining faoliyat ko‘rsatilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.




Sug‘doq alifbosi

Aynan Mo‘g‘ulistonda 1889 yilda tarixda birinchi marta sug‘d yozuvi yodgorligi XI asrda hukmronlik qilgan uyg‘ur xoqoni sharafiga qabr ustidagi toshlavhaga bitilgan yozuv topiladi. Yigirmanchi asr boshlarida esa Sharqiy Turkistonning sobiq sug‘d savdo faktoriyalarida teriga va qog‘ozga bitilgan sug‘d diniy va dunyoviy adabiyotiga doir yozma yodgorliklardan bir qancha namunalar topiladi. Ular qatorida avvalo pahlavon Rustam haqidagi xalq dostonidan ikkita parcha, «Kalila va Dimna» masallarining sug‘dcha bayoni, fanda «Qadimgi sug‘d maktublari» (milodiy IV asr) nomi bilan mashhur bo‘lgan va faktoriyalar bilan Samarqand va Buxorodagi sug‘d aholisining xususiy yozishmalaridan iborat hujjatlar, shuningdek, VIII-IX asrlarga doir diniy mazmundagi (budda, xristian, manixey dinlaridagi) matnlar, budda

ilohiyoti, budda adabiyoti asarlari matnlarini o'z ichiga olgan bir guruh hujjatlar diqqatga sazovor bo'lib, ular sug'd tilida va sug'd yozuvida bitilgan edi.

Dastlab sug'diy alifbesi oromiy prototipining barcha harflari - 22 ta belgini saqlab qolgan. Keyinchalik alifbega (oromiy lamedi) bo'g'iq interdental oraliq tovushini (V) yoxud boshqa til leksikasidagi l tovushini ifodalash uchun kiritildi (sug'd tilining o'zida l fonemasi yo'q edi). Alifbeda bu harf oxirgi 23-o'rinni egalladi.1 Birinchi marta bu harfga tadqiqotchilar qadimgi Panjikent qazilmalarida topilgan VII asr oxiri yoki VIII asr boshlari sanasi qo'yilgan sopol parchasida duch kelganlar.[143]




Mug' qal'asidan topilgan teri o'ramidagi hujjat –
VII asr nikoh bitimi

Sug'diy yozuvi yodgorliklari xronologik jihatdan miloddan avvalgi II-I asrlardan to milodiy XI asr birinchi choragigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Sug'd yozuvi rivojlanishining ilk bosqichi qadimgi Sug'dning turli viloyatlaridan topilgan tangalardagi yozuvlarda o'z

[143]Livschtits V.A. Sogdian alphabet from Panjikent. – In: Henning W.B. Memorial Volume. – London, 1970. – S. 12.

ifodasini topgan. Ulardan eng qadimgilari yunon-baqtriya shohlarining tangalariga taqlid qilib chiqarilgan, lekin, sug'd yozuvlari bitilgan sug'd tangalaridir. Birmuncha keyinroq, miloddan avvalgi I asrda, har xil mayda kumush tangalar paydo bo'ladi, ular harflari alohida qo'yilgan lapidar yozuv bilan bajarilgan edi. Ulardan alohida guruhni yoyotarning sxematik tasviri ifodalangan sug'd skifat tangalari tashkil etadi. Ayrim olimlarning fikricha ilk sug'd tangalari emissiyalari muomalada bo'lib, ular Sug'dning siyosiy hayotida ro'y bergan o'zgarishlarga qaramasdan ancha uzoq vaqt mobaynida, keyingi bosqich sug'd pul tizimi paydo bo'lguncha, ya'ni milodiy V-VI asrlariga qadar an'anaviy ravishda saqlanib kelgan. Bu davrlarda ilk o'rta asr sug'd konfederativ davlati qaror topa boshlaydi, dastlab uning poytaxti Kesh, keyin VII asrning o'rtalaridan boshlab esa Samarqand bo'ladi.[144]



Sug'd tili va sug'd yozuvidagi buddaviy «Vimalakirtinirdeshasutra» o'ram shaklidagi kitobining 110-120 satrlari.

Samarqand tarixi muzeyida A-19 shifri ostida saqlanayotgan, M.M.Ishoqov tomonidan kashf etilgan terrakota haykalchasidagi yozuv ham sug'd yozuvi tarixining eng ilk davriga (milodiy I-II asrlari) mansubdir.[145] Afrosiyobdan topilgan sopol idish parchalaridagi uch

[144]Qarang: Zaymal E.V. Moneto' drevnego Tadjikistana. Dushanbe, 1983. – S.112.

[145]Isxakov M. Cogdiyskaya nadpis na cherepke iz AfrasiabaG'G'Adabiy meros. - 1983. – Sb. 4 (28). S. 28-29.

harfdan iborat yozuv esa milodiy II-III asrlariga taalluqlidir.[146]

Samarqandga, Buxoro va boshqa shaharlarga yo'llangan to'qqizta maktub mualliflari Sharqiy Turkistondagi sug'd savdo faktoriyalarida istiqomat qiluvchilar bo'lib, ularning maktublari sanasini olimlar milodiy 313-317 yillar deb belgilashgan. Bu yozma yodgorliklar majmui fanda «Qadimgi sug'd maktublari» deb atalgan. Ular faqat muhim tarixiy hujjatlar bo'lib qolmay, shu bilan birga sug'd maktub nasrining namunalari ham edi. A.A.Livshitsning ta'rifiga ko'ra, mazkur maktublar o'sha vaqtlarda «sug'd yozuv tilining asosiy me'yorlari qaror topgan va kam deganda ular X-asrgacha saqlanib qolganligini ko'rsatadi».[147]


1933 yilda Tojikistonning Xayrobod qishlog'i yaqinidagi Mug' tog'ida Mug'qal'ani qazish vaqtida bir qancha sug'd matnlari kashf etiladi. Ular arablar istilosi arafasidagi Turonzaminning ilk o'rta asrlari tarixi, sug'd xalqining mafkurasi va madaniyatini, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini o'rganish uchun katta ahamiyat kasb etdi. Qal'a vayronalari orasidan VIII asrning dastlabki o'n yilliklariga (712-722) oid 89 ta qo'lyozma hujjat topilgan, ulardan 74 tasi sug'd tilida, shu jumladan, 29 tasi teriga, 22 tasi qog'ozga va 23 tasi yog'ochga (uzunligi, hajmi va shakli turlicha bo'lgan yog'ochlarga) yozilgan edi. Professor A.A.Freyman rahbarligidagi ekspeditsiya to'plagan bu hujjatlar haqiqiy Sug'd hududidan topilgan dastlabki sug'd matnlari edi. Eronshunos olimlar A.A.Freyman, V.A.Livshits, M.N.Bogolyubov va O.I.Smirnovalarning amalga oshirgan tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha (ular mazkur matinlarni o'qish, tarjima qilish va sharhlash ishlarini bajarganlar). Mug' to'plami Panjikent hukmdori Devashtich arxivining qoldiqlaridir. U 720-721 yillarda Samarqand afshini va Sug'd podshosi unvoniga ega bo'lgan. Shuningdek, bu to'plamda Devashtich bilan birgalikda arablarga qarshi kurashgan va o'zlariga Mug' tog'idagi qal'adan manzil topgan Devashtich ma'muriyati kishilarining ham hujjatlari bo'lgan. Matnlarning aksariyat qismi o'z mazmuni va mavzusiga ko'ra, xo'jalik va yuridik hujjatlardan iboratdir. Shular bilan bir qatorda Mug' to'plamiga sug'd hokimlari va ularga qarashli kishilarning diplomatik yozishmalari, Devashtichga uning elchilari yo'llagan xabarnomalar, Devashtichning turli muzofotlarning

---

[146]Meshkeris V. Terraktovo`e statuetki Samarkanda. – M., 1962. – S. 109.

[147]Livshits V.A. Iranskie yazo`ki narodov Sredney AziiG`G`Narodo` Sredney Azii i Kazaxstana. – T., 1962. T. 1.– S.135-136.

vassallari, noiblari bilan yozishmalari, turli shaxslarning Devashtich vassallariga yozgan maktublari ham kiritilgan.



Mug' qal'asidan topilgan sug'dcha hujjat. VIII asr boshlari

Mug' arxivi yozma manbalari bo'yicha olimlar tomonidan yigirmaga yaqin o'ziga xos yakka tartibdagi dastxat namunalari topilgan bo'lib, ular shak-shubhasiz sug'dlar orasida savodxonlik va yozuv madaniyati darajasi yuqori bo'lganligidan dalolat beradi. Ayni vaqtda Panjikent hukmdorlarining arxividagi hujjatlar VII asrning oxiri - VIII asrning boshlarida idora ishiga doir sug'd yozuvining xiyla rivojlanganligini namoyish etadi. Tarixdan sug'diy yozuvi rivojining mazkur bosqichiga qadar ilk o'rta asr Sug'd idora ishiga doir yozuv namunalari mavjud bo'lib, unga misol tariqasida yog'ochga bitilgan yozuvni (kattaligi 15x25 sm) - VI-VII asrlarga doir Afrosiyobdan topilgan qarz tilxatini keltirib o'tish mumkin.[148]

Mutaxassislar budda va manixeycha mazmundagi matnlarda o'z

[148] Livshits V.A. Sogdiyskiy dokument iz drevnego SamarkandaG'G'Tsentralnaya Aziya. Novo'e pamyatniki pismennosti i iskusstva. – M., 1987. – S. 53-62.

ifodasini topgan sug'd yozuvining kitob xattotligi namunasini VI-IX-X asrlarga taalluqli deb hisoblaydilar. Yozuvning mazkur turini V.B.Xenning «sutralar yozuvi» deb atagan. Bu yozuv turi bilan jatak matnlari, turli buddaviy sutralar parchalari, dxaranilar va hokazolar bitilgan.[149]

V.A.Livshits «sutralar yozuvi» deb ataluvchi kitob kursivining ilk bosqichini Bugutdan topilgan bitikka asoslanib milodiy 583-588 yillar deb belgilaydi.3 Idora ishiga doir eng so'nggi sug'diy yozuvi Sharqiy Turkistondan topilgan ikkita xat matnida o'z ifodasini topgan bo'lib, G.Rayxelt uni X asrga doir deb belgilagan, M.Ishoqov esa mazkur matnni paleografik nuqtai nazardan o'rganib chiqqan . Sug'd yozuvining eng so'nggi bosqichini olimlar Qulansoy va Teraksoy qoyalariga o'yib yozilgan bitiklarda qayd etganlar.

6.5. O'rta forsiy (pahlaviy) yozuvi va kitobati

O'rta forsiy yozuvi Turonzamindagi oromiy yozuv tizimlariga kiruvchi xorazmiy, parfiya, sug'd, baqtriya yozuvlari bilan bir vaqtda vujudga kelgan va xronologik jihatdan parallel rivojlangan. Biroq manbalarning kamligi tufayli bu yozuv tizimi aynan miloddan avvalgi III-II asrlarda vujudga kelganligini tarixan mavjud yozuv yodgorliklarining imlosi hamda tangalar va boshqa yozuv ashyolaridagi o'rta fors tili materialiga oid qayd etilgan oz miqdordagi faktlar (voqealar, unvonlar, atoqli otlar) aniqlash imkonini berdi.

O'rta forsiy yozuvi vujudga kelgan davrdan e'tiboran bir necha asrlar mobaynida uning alifbesi 22 ta belgidan iborat bo'ldi. Milodiy V-VII asrlarda alifbe grafikasi va tarkibi ma'lum darajada rivojlandi: belgilarning shakli va qiyofasi birmuncha o'zgarishlarga uchradi, qiya yozuv (tezkor, kursiv) shakli rivojlandi, uning kitobiy shakli, xususan pahlaviycha kitobiy shakli tarkib topdi,5 unda faqat 15 ta belgini aniq farqlash mumkin edi.[150]

O'rta forsiy yozuvi umuman olganda, geterografik yozuvdir - unda yuzlab geterogrammalar mavjud. Matnlarda fonetik elementlar tez-tez uchrab turadi, eroncha qo'shimchalar va suffikslar harfiy kelib chiqishi jihatidan oromiy harflariga birlashib ketadi, ularda eski ideogrammalar uchraydi. Matnlardagi grafik shakllar ko'p sonli ligaturalar (harflarning

[149]Qarang: Osnovo` iranskogo yazo`koznaniya, 1981. – S. 356-357.

[150]Qarang: Osnovo` iranskogo yazo`koznaniya. 1981. – S. 16.

zich yozilishi) bilan ancha murakkablashadi. ayrim qo'shni harflarning mustaqil elementlari ana shu ligaturalar bilan ko'pincha birlashib, silliqlashib qoladi, natijada harflarning shakli jiddiy ravishda o'zgarib ketadi.

O'rta forsiy yozuvi yodgorliklarida o'rta eron tili aks etgan bo'lib, uning rivojlanish tarixida ikkita eng muhim davr - ilk (arshakidlar) davri va keyingi (sosoniylar) davri ko'zga tashlanadi. O'rta eron tilining faoliyat ko'rsatishidagi xronologik davrlar taxminan miloddan avvalgi IV asrdan boshlab milodiy VIII asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. O'rta eron tilidagi yozuvlar aks etgan ilk tangalar Fors hukmdorlariga tegishli bo'lib, miloddan avvalgi II asrga oiddir.[151] Shu dastlabki eron tangalarida muhrlangan ayrim unvonlar va atoqli otlardan boshqa mazkur tilning miloddan avvalgi IV asrning o'rtalaridan boshlab milodiy III asr o'rtalarigacha bo'lgan davrdagi rivojlanishini aks ettiruvchi hech qanday material saqlanib qolmagan. Sosoniylar davridagi Eronda (224-651 yillar) keyingi o'rta eron tili (pahlaviy) birmuncha o'zgargan holda davlat tili va hukmron zardushtiylik dinining tili bo'lib keldi. U yozma-adabiy til sifatida zardushtiylar muhitida yana bir necha asr mobaynida va Eronni arablar bosib olgandan keyin ham davom etdi. Bu til manixey jamoalarida ham ishlatilardi.

Ana shu qarab chiqilayotgan davrdan bizga o'rta eron tilida bitilgan ko'p miqdordagi yozma yodgorliklar etib kelgan. Ularning hammasi yozuv xususiyati, mavzusi jihatidan, shuningdek, matn tuzilishi uslubi jihatidan g'oyat xilma-xildir: papirus o'ramlari, teri, qog'oz, kodeks shaklidagi kitoblar, sopol parchalari, turli-tuman inshootlardagi, qoyalar, qabr toshlari, tangalar va idishlardagi yozuvlar, diniy va dunyoviy mazmundagi zardushtiylik adabiyoti, manixey diniy e'tiqodiga doir mazmundagi matnlar shular jumlasidandir.

O'rta eron tilidagi o'rta forsiy yozuvi yodgorliklari eramiz chegarasidan boshlab, ayniqsa sosoniylar davridan boshlab butun Turon-Turkistonning bepoyon hududida keng tarqaldi. Bunga bir qator omillar sabab bo'lgan. Avvalo buni zardushtiylik dini va madaniyat dunyosi hamda an'analarining mushtarakligi bilan izohlash mumkin. Ikkinchidan, milodiy III asr ikkinchi yarmidan boshlab o'rta eron tili zardushtiylar adabiyotini («Zend-»Avesto»», «Denkard», «Bundaxishn».

[151] Henning W.B. Mitteliranisch. – HbO, 1958. Abt. I. Bd. 4. Abschn. 1. – S. 25, 33.

«Zardushtning maslahatlari kitobi», «Aql-idrok ruhi», «Arda Viraf kitobi» va boshqalar) sharhlash tili, shuningdek, ham original, ham tarjima adabiy yodgorliklar tili bo'lib qoladi. Ular orasida kitobiy yozuvlar–kitobiy pahlaviyning eng qadimgi va ajoyib namunalari - o'rta eron tiliga suriya tilidan tarjima qilingan xristian «Psaltiri», ideogrammalar lug'ati bo'lgan «Farxangi paxlavig», shuningdek, «Zarera to'g'risida esdalik kitobi» (parfiya tilidan tarjima), «Ardashir Papakanning qilmishlari haqida kitob», «Shohlar haqida kitob», «Ossuriya daraxti (palma) va echki», «Shohmot to'g'risida qissa», «Xusrav Kobadon va mahram to'g'risida qissa», «Eron shaharlari», «Tabariston podshosiga Tansarning xati» kabi asarlar bor edi. Shuningdek, nasihatlar janri namunalaridan «Yigitning vazifalari», «Bolalarga nasihat» singari pandnoma va andarznoma kitoblarni, «Mingta sud qarori» - Sosoniylar davridagi sud kitobi, sanskrit tilidan tarjima qilingan qadimgi hind ertak adabiyotining «Panchatantra» nomli masallar to'plamini (keyinchalik butun musulmon olami va Evropa adabiyotlarida «Kalila va Dimna» nomini olib keng mashhur bo'lib ketgan), «To'tinoma», «Sindbod haqida kitob»ni ko'rsatib o'tish mumkin.

Zardushtiylarning original va dunyoviy kitoblarini yozilishida yunon va sanskrit tilidan (qadimgi Hindistonning adabiy tili) o'rta eron tiliga o'girilgan kitoblarning yaratilishida, ularni ko'chirish va ko'paytirishda (keyinchalik bu asarlar o'z davrida ko'p nusxada tarqalgan hamda Eron va Turon davlat (saroy) va xususiy (shaxsiy) kitob to'plamlarini to'ldirgan) o'sha vaqtdagi butun zardushtiylik madaniy dunyosi ma'rifatining markazi bo'lgan Jundishopur shahridagi Akademiya muhim rol o'ynadi. Bu erda ilm-fan va adabiyotning ulkan homiysi, sosoniylar podshosi Buyuk Xusrav I (531-579)ning kuch-g'ayrati va juda katta tashkilotchilik-bunyodkorlik faoliyati tufayli o'sha davrning eng ilg'or ilmiy, ijodiy kuchlari to'plandi. «Xusrav I ning o'z davlati doirasida xorijiy ilmiy adabiyotlarni to'plash, ularni o'rta eron tiliga tarjima qildirish, ilm-fanning turli soxalarida (ayniqsa, tibbiyot va falsafa sohalarida) ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish borasida sarflagan kuch-g'ayrati ko'p jihatdan o'zining mashhur ajdodlari Ardasher I (225-241), Shopur I (241-272) va Shopur II (309-379)ning sa'y-harakatlarini eslatadi va hatto ulardan ortiq darajadadir», deb ta'kidlaydi turkman kitobat tarixchisi A.Yazberdiev[152].

[152] Yazberdiev A. Xosrov I Velikiy i knijnoe delo v Irane i Srednev Azii v IV v.G`G`Izvestiya AN Turkmenskoy SSR. Seriya obhestvenno`x nauk. - 1989. – №5. - S. 22-30.

Ayni shu Jundishopurda yunon nestorian olimlari, dinsiz neoplatonchilar o'z vatanlari bo'lgan Vizantiyadan uning imperatorlari Zenon va Yustinian quvg'in qilgan kishilar «suriyaliklar, eronliklar va hindistonlik donishmandlar bilan uchrashdilar. Shu tariqa ilmiy sinkretizm sodir bo'ldi, keyinchalik u islom falsafasining rivojlanishida muhim rol o'ynadi»[153].Bu voqea milodiy VI asrda ro'y berdi. Biroq shu narsa ma'lumki, hali V asrdayoq Aristotelning asarlari, yangi arestotelchilar maktabi faylasuflarining asarlari, milodiy II asrda o'tgan qadimgi yunon olimi Ptolemey Klavdiyning (iskandariyalik) «Almagest» nomli asari va boshqa matematik asarlar, Gippokratning risolalari, bir qator tibbiy asarlar, astronomiya-astrologiyaga doir turli asarlar o'rta eron tiliga tarjima qilingan.[154]

Qo'shni mamlakatlar bilan kitob ayirboshlash boshqa yo'llar bilan ham amalga oshirilgan. Sosoniylar podsholari Hindistonga olimlardan iborat maxsus ekspeditsiya tashkil etganlar, bundan maqsad - tibbiyot va falsafaga doir kitoblarni, boshqa fan sohalariga doir asarlarni qidirib topish va Eronga etkazishdan iborat edi. Shunga ko'ra ekspeditsiya muayyan miqdordagi kitoblar kollektsiyasi bilan qaytib kelgan edi. Bu erda mazkur kitoblar sanskrit tilidan pahlaviychaga (o'rta eron tiliga) tarjima qilinadi[155]. Bu hol zardushtiy madaniy dunyosining vakillariga hind ilmiy fikrini bilib olish, falsafa, mantiq ilmi, ritorika bo'yicha hind asarlari bilan tanishish, Vaviloniya olimlarining sakskrit tiliga tarjima qilingan asarlari bilan tanishish imkonini berardi.

Jahon ilmiy adabiyotida o'rta eron adabiyotiga doir bir necha obzorlar mavjud, bular: E.Vestning «Pahlaviy adabiyoti»[156], J.Tavadianing «O'rta eron tili va zardushtiylar adabiyoti»6 hamda, M.Boysning «O'rta eron adabiyoti»[157] kitoblaridir. Rus tilida chop etilgan nashrlarda ham o'rta fors yozuvi yodgorliklari va o'rta eron (pahlaviy) adabiyotining batafsil obzorlari keltirilgan.[158]

---

[153]Meyerhof M. Science and Medicine//The Legacy of Islam. – Oxford, 1974. – S. 313.

[154]Boyce M. Middle Persian literature. – In. Handbuch der Orientalistik: T. 1, Abt. IV. Bd. 2. Abschn. Leipzig, 1968. – S. 36.

[155]Meyerhof M., 1974. – S. 313.


[156]West E.W. Pahlavi literature//Grundriss der Iranischen Philologie. Abschn. II, Literatur, Geschichte und Kultur. Nr. III. – Strassburg, 1896-1904.

[157]Qarang: Boyce M., 1968.

[158]Qarang: Oranskiy I.M. 1960; Osnovo' iranskogo yazo'koznaniya, 1981.

6.6. Moniy yozuvi va kitobati


Kelib chiqishi va genetik ildizlariga ko'ra parfiyalik bo'lgan, lekin semit madaniy muhitida o'sib ulg'aygan Patikning o'g'li Moniyning (216-277) diniy ta'limoti o'sha vaqtdagi ma'rifatli dunyoda olib borilgan jadal diniy izlanishlar avj olgan tarixiy davrda vujudga keldi. Bu ta'limot shaxsning ichki mohiyati namoyon bo'lishining o'ziga xos shakli sifatida uning madaniy olamiga xos barcha tomonlarni aks ettirgan edi. Moniy o'z ta'limotida Yaqin Sharq, Yunoniston, Rim, Hindiston, Eron va O'rta Osiyo qadimgi xalqlari ilmiy-badiiy tafakkuri yutuqlarini ijodiy jihatdan qayta ishladi va tahlil qildi. Butun insoniyat uchun yagona diniy ta'limot yaratishga intilish Moniyning ko'p asarlarida aks etgan bo'lib, mazkur g'oya uni o'sha zamonda mavjud bo'lgan zardushtiylik, xristianlik kabi diniy qarashlardan ko'pgina narsalarni o'zlashtirishga undadi. «Moniy asarlariga qomusiy tafakkur xos bo'lib, ularni o'qishda sharhlarga ehtiyoj seziladi, - degan edi I.S.Braginskiy. - U o'z davrining afsonaviy va ilmiy, tarixiy va falsafiy bilimlarini (falakiyot, jo'g'rofiya, alkimyo, astronomiya, matematika, botanika, tibbiyot va hokazolar) qamrab olishga hamda ularni o'zining olam tabiati falsafasi bilan tom ma'noda yoritib berishga harakat qilgan, o'zi amal qilgan yaxshilik odobi va insonsevarligi bilan odamlar ommasini hayotga yaqinlashtirishga uringan».[159]



Moniy alifbesi

[159] Braginskiy I.S. Iranskoe literaturnoe nasledie. – M.: Nauka, 1984. – S. 106.

Moniy yozuvining yaratilishini an'anaviy ravishda payg'ambar Moniy bilan bog'laydilar. Bu yozuv eramiz III asrining birinchi yarmida oromiy yozuvining palmircha qiya yozuvi asosida yaratilgan va faqat moniychilar diniga doir matnlarni ko'chirish uchun ishlatilgan. Moniy yozuvi alifbesi boshqa oromiy yozuviga asoslangan tizimlardan farqli o'laroq 29 ta harfdan tashkil topgan, ya'ni u undosh tovushlarni ancha to'liq aks ettirishga moslashgan. Moniy imlosining fonetikasi o'z tabiatiga ko'ra so'zlarni o'z davrida qanday talaffuz qilingan bo'lsa, yozuvda ham xuddi shunday aks ettirish imkonini bergan, bunda, albatta, iloji boricha yozuvning qisqa undoshlar uchun maxsus belgilar va shu kabilarning yo'qligi kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda ish ko'rilgan[160]. Bu yozuvda geterogrammalar yo'q. Harflarning grafik shakllari ko'pgina elementlar va ularning birikmalarini bir xillashtirish tamoyiliga egadir. Chamasi bu hol moniychilar payg'ambarining o'zi tomonidan yaratilgan yozuvga ilohiy mo''jiza sifatida munosabatda bo'lishi bilan bog'liqdir. Ikkinchi tomondan, bu moniychilar jamoalarida yozuvga va husnixatga o'rgatishning barqaror an'analari mavjud bo'lganidan dalolat beradi.



Моний ёзуви намунаси. Қадимги туркий тилидаги о'рам шаклидаги «Инжил» китобидан варақ

[160] Qarang: Osnovo' iranskogo yazo'koznaniya. 1981. – S. 17-18.

Moniy yangi diniy ta'limotini yoyish maqsadida uning tarafdorlari va izdoshlari moniychilikning muqaddas kitoblarini va diniy targ'ibotlarini ko'chirganlar va Turon hamda Eron xalqlarining turli tillariga - parfiyoniy, o'rta forsiy, sug'diy, qadimgi turkiy, uyg'ur tillariga tarjima qilganlar. Moniychilikni targ'ib qiluvchilar orasida ko'pgina rassomlar va kasbi kitoblarni chiroyli ko'chirishdan iborat bo'lgan husnixat xattotlar ham bo'lgan. Payg'ambar Moniy o'zi o'ta mahoratli musavvir sifatida nom chiqargan. Moniychilar jamoalarida kitoblar va tasviriy san'atga e'tiqod kuchli edi.

Moniychilarning kitoblar va tasviriy san'atga bo'lgan munosabatidan ular barpo etgan ibodatxonalarning tuzilishi ham guvohlik beradi. Bu ibodatxonalarda beshta asosiy zaldan biri, albatta, muqaddas kitoblarga va tasviriy san'at asarlariga ajratilgan. Turonzaminlik buyuk olim Beruniyning guvohlik berishicha, «turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilardan ko'plari, chunonchi, yahudiylar, xristianlar va keyin esa ayniqsa moniylar kitoblarda va ibodatxonalarda tasvirlar yaratishga moyildirlar». Turli-tuman manbalarda saqlangan ayrim ma'lumotlarga qarab fikr yuritiladigan bo'lsa, moniylarning kitoblari miniatyuralar (mo"jaz rasmlar) bilan bezatilar, ularda odamlar ham, hayvonot va o'simliklar dunyosi ham, geometrik va o'simlik ornamentlari ham aks ettirilar, kitoblar charm muqovalar bilan ziynatlanardi. Moniychilarda ularning o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan turli tarkibdagi bo'yoqlar, siyohlar, ularning o'zlari ma'qul ko'rgan ohanglar va naqsh kompozitsiyalari mavjud edi. Moniy diniy qonunlarini qamrab olgan etti muqaddas kitobdan iborat to'liq to'plamni X asrdayoq Turonzamin shaharlaridan bemalol topish mumkin edi.

Moniy yozuvi yodgorliklariga avvalo payg'ambar Moniy tomonidan yozilgan kitoblar mansub bo'lib, ulardan ettitasi manixey diniy qonunlariga kiritilgan, shuningdek, uning izdoshlari tomonidan yozilgan o'nlab asarlar ham mazkur yodgorliklar sirasiga kiradi. Ulardan bizgacha ayrim parchalar holida etib kelgan kitoblarga qarab muallifning va asarning nomini bilib olish qiyin albatta, biroq ular M.Boysning «Katalog»ida alohida qayd etilgan.[161]

[161]Boyce M. A catalogue of the Iranian manuscripts in Manichaean script in the German Turfan Collection Berlin, 1960. Iqtibos ushbu maqoladan olindi: A. Yazberdiev. Manixeyskoe uchenie i knijnoe delo v Srednev Azii v III-IV vv.G' G'Izvestiya AN TSSR. Seriya gumanitarno'x nauk. – Ashgabat: O'lo'm, 1992. - №1. S. 36. Ushbu faslning bun-

Moniy kitoblari haqida ham deyarli shunday fikr bildirish mumkin. Uning asarlaridan birortasining ham matni bizgacha to'liq etib kelmagan, ular yo umuman saqlanmagan, yoxud parcha-parcha holdagi qo'lyozmalar shaklida saqlangan, ba'zi parchalar xristian va musulmon mualliflarning asarlarida keltirilgan. Shunga qaramasdan, olimlar tomonidan uzoq vaqtlar mobaynida olib borilgan tarixiy-filologik izlanishlar natijasida Moniy asarlaridagi moniylik qonunlarining nomlari va joylashtirish izchilligini aniqlash bilan bir qatorda, uning ayrim kitoblari mazmunini ochib berishga va tafsiflashga ham muvaffaq bo'lingan.

Shunday qilib, moniy diniy qonuniga Moniyning quyidagi kitoblari kirgan: «Injil» kitobi, Turon-Turkiston xalqlariga bu kitob parfiya, o'rta eron va sug'd tillarida yunoncha-eroncha «Avangelon zindig» - «Jonli injil» nomi ostida ma'lum; «Hayot xazinasi asari (Sharqiy Turkistondagi o'rta eron va sug'd tillarida faqat oromiycha «Simtixa» va eroncha «Niyane zindegan» nomlari bilan tilga olinadi: «Pragmateya»; «Sirlar kitobi» (o'rta eron va parfiyacha nomlari «Razan» - «Sirlar»); «Pahlavonlar haqida kitob»; «Xatlar», manixeylik qoidalari to'g'risidagi xitoy hujjatida o'rta eron tillaridagi maktublar to'plamiga «Nivan»[162], ya'ni «Divan» degan nom berilgan; u «div» (xat) so'zining ko'plik shaklidir; «Divan» so'zi to'plamning nomi sifatida suriya va mandey tillariga o'rta eron tilidan o'zlashtirib olingan, shunga asoslanib olimlar bu Moniy xatlarining payg'ambarning o'zi tomonidan birinchi marta berilgan chinakam nomidir, degan xulosaga kelganlar: «Oyatlar va duolar»: Moniy asarlari ro'yxatidan shu narsa ma'lumki, u ayrim ibodat asarlari ham yaratgan, lekin bularni payg'ambarning o'zi mustaqil kitob qilib birlashtirgan, deb aytish qiyin; har holda moniycha «Oyatlar kitobi» o'rta eron tilida «Afrinsar» nomi bilan, parfiya tilida esa «Afrinvansar» nomi bilan mashhur bo'lib, IV asrdayoq mavjud bo'lgan. O.Yazberdievning yozishicha, diniy qoidalar tarzidagi asarlar jumlasiga ettita asardan tashqari, Moniy asarlari mazmuniga mos keladigan rasmlar

---

dan keyingi bayonida A.Yazberdievning ushbu maqolasi va uning «Parfiyada kitobat ishi» maqolasiga tayandikG'G' Izvestiya AN TSSR. Seriya gumanitarno'x nauk. - Ashgabat: Ilim, 1992. - №5. S. 13-23. Bu maqolalar, mualliining aytishicha, «manixeylikka doir eng so'nggi ilmiy ishlar asosida yaratilgan. Ular esa, o'z navbatida, manixeylikka doir manbalarning butun majmuidan олинган энг yangi ma'lumotlarga muvofiq yozilgan» (A. Yazberdiev. 1992. - S. 28-37).

[162]Braginskiy I.S., 1984. - S. 107.

kitobi ham kirardi, mazkur rasmlarni uning o'zi ishlagan edi. Parfiya tilida bu kitob «Arjang» deb atalardi. Mazkur kitob qanchalik o'zoq vaqt saqlangani to'g'risida Abu-l-Ma'alining bergan ma'lumoti asosida hukm chiqarish mumkin. U eron tilidagi nodir asar hisoblangan «Beyane al-aydan» («Din haqida hikoyalar») asarining muallifidir. Mazkur kitobda u quyidagilarni ta'kidlagan: «Aytishlaricha, Moniy bir parcha oq shohiga rasm chiza olardiki, bordiyu, undan aqalli bitta ip sug'urib olinsa, barcha chizilgan narsalar yo'q bo'lib qolardi; u xilma-xil rasmlar solingan kitobning muallifi bo'lib, bu kitobni «Arjang Moniy» deb atashardi: bu kitob, G'azna shahrining xazinasida (ya'ni kutubxonasida - E.O.) saqlanadi»[163].

Bu so'zlar 1092 yilda yozilgan. «Arjang», shak-shubhasiz, buyuk san'at asaridir, chunki uning nomi keyinchalik «Eronda va butun Yaqin Sharqda san'at durdonasini ifodalaydigan turdosh otga aylanib ketdi».[164] «Arjang» kitobiga kiritilgan rasmlar mazmunini ochib beradigan mustaqil bir kitob ham bor edi. Bu kitob «Arjang vifraz» («Arjang talqini») deb atalardi. Bu kitobdan olingan parchalar parfiya tilida bizning kunlarimizgacha etib kelgan.

Diniy qoidalarga taalluqli bo'lmagan kitoblar jumlasiga «Shapurakan» kitobini («Shopurning kitobi») kiritish mumkin. Unda Moni o'z ta'limoti qoidalarini maxsus tarzda Shopur I ning o'zi uchun bayon qilib bergan. «Kefalaya» kitobi esa Moniyning o'z asarlari asosida uning ta'limotiga yakun yasaydigan kitobdir. Mazkur kitob payg'ambarning shogirdlari tomonidan IV asrda tuzilgan.

6.7. Yunon yozuvi va kitobati

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, Iskandar Zulqarnayn imperiyasi qulagandan keyin qadimgi Baqtriya hududi Selevkidlar davlati tarkibiga kirdi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, Baqtriya zodagonlari dastlab sharqiy viloyatlarning birligi g'oyasini qo'llab-quvvatladilar, bunda, Iskandar Zulqarnaynning Baqtriya jamiyati yuqori tabaqalari bilan qarindosh urug'chilik aloqalaridan foydalanmoqchi bo'ldilar. Lekin bu rejalar to'liq amalga oshmadi. Selevkidlar sharqdagi ayrim erlarga bo'lgan hukmronligini saqlab qoldilar, buning uchun Parfiya va

[163]Haloun G. and Henning W.B. The Compendium of the doctrines and styles of the teaching of Mani, the Budda of Light//Asia Major. 1952, vol. 3. – S. 210.
[164]Braginskiy I.S., 1984. – S. 107.

Baqtriyadagina noiblik boshqaruvi shaklini o'rnatdilar. Siyosiy hayotda voqealarning bunday tus olishi Baqtriyaning muayyan doiralarida separatchilik tamoyillarining boshlanishiga asos soldi. Biroq bu hol Baqtriyada yunoncha-sharqcha davlat boshqaruvi shaklini o'rnatishga halaqit bermadi, buning natijasi o'laroq davlat boshqaruvi sohasida yunon yozuvi va tili rasmiy tarzda joriy etildi. Ana shu davrdan bizgacha ko'p miqdordagi tangalar etib kelganki, ularda yunon yozuvlari aks ettirilgan va turli buyumlarda yozuvlar saqlanib qolgan. Turon-Turkiston mintaqasida hozirga qadar yunon tilida ma'muriy, xo'jalik yoki adabiy tarzdagi yirik matnlar topilmagan. Faqat papirus qoldiqlari saqlanib qolgan bo'lib, ularga Platonning dialoglariga, shuningdek, Aristotelning «Metafizika»siga o'xshagan shaklda yozilgan dialoglarga o'xshash falsafiy risola bundan mustasno bo'lib, ular yunonlar Baqtriyasida Oyxonim shaharchasi kutubxonasidan topilgan. Yunon yozuvining Baqtriyada hukm surish davri miloddan avvalgi IV asrning oxirgi o'n yilliklaridan boshlab to milodiy I asrgacha bo'lgan davrni qamrab olgan.

6.8. Yunon-bohtariy yozuvi va kitobati

Yunon yozuvi va tili rasmiy yozuv va til sifatida dastlabki Kushon podsholari Kudjula Kadfiz va Vima Kadfiz davridagi ayrim tangalarda foydalanilgan. Bu podsholarning boshqa mamlakatlar bilan aloqalarida hind yozuvi va tilidan ham foydalanilgan. Kudjula Kadfiz tangalarining tuzilishi yunon, hind-sak va rim tangalariga taqlid sifatida belgilangan. Ularda aks ettirilgan yozuvlar ko'pincha ikki tilda - hind va yunon tillarida bo'lgan. B.Ya.Staviskiyning izohlashicha, bu «Kushon imperiyasini jahon miqyosida qaror toptirishga urinishdan guvohlikdir...»[165] Bundan tashqari, shuni ham hisobga olish kerakki, dastlabki kushon podsholari ellinlar bilan aloqalarni o'z hokimiyatining tayanchi deb bilgan va Hindikushdan janubgacha cho'zilib ketgan zabt etilgan erlarni saqlab qolish vositasi hisoblab, ichki va tashqi siyosiy yo'lda shunga amal qilgan.

Biroq hokimiyat tepasiga podsho Kanishka kelgan vaqtdan buyon (milodiy 78 yili) Kushonlar Baqtriyasidagi ichki va tashqi vaziyat keskin o'zgardi. Kushon davlatining ta'siri Markaziy va Sharqiy Turkistonga, Shimoliy va Shimoli-G'arbiy Hindistonga ham yoyildi. O'sha vaqtga kelib Rim imperiyasining Sharqda Arshakidlarning Parfiya saltanatiga

[165]Staviskiy B.Ya. Kushanskaya Baktriya: Problemo` istorii i kulturo`. – M.: Nauka, 1977. – S. 211.

qarshi siyosiy da'volari cheklandi. Baqtriyaning ichki iqtisodiy ahvoli ancha mustahkamlandi. Jamiyatning tutgan mafkuraviy yo'lida yangi tamoyillar paydo bo'ldi. Bular hammasi madaniy qadriyatlar tizimini qayta ko'rib chiqishga, shu jumladan, yozuv madaniyatini qayta tashkil etishga olib keldi. Masalan, Kanishkaning tangalarida baqtriya tilida yunon imlosida bitilgan yozuvlar o'ziga xos islohot ro'y berganligini va uning baqtriya yozuv materialini qayd qilishga moslashganlgini bildirar edi. Olimlarning aniqlashlaricha, bunda yunon alifbesi an'anaviy tarkibda saqlanib qolgan, faqat «R» harfining vazifasi o'zgargan, u baqtriya tilida Sh tovushini anglatgan.



Ayritomdan topilgan haykal bo'lagidagi monumental yunon-boxtariy yozuvi

Tangalardagi yozuvlardan tashqari bizga qadar ko'p miqdordagi qisqa-qisqa yozuvlar ham etib kelgan. Bular orasida milodiy II asrlarda qora bo'yoq bilan sopol parchalariga bitilgan yozuvlar, eski Termizdagi Qoratepa g'orida joylashgan budda ibodatxonasi devoriga yozma harflar bilan bitilgan III-IV asrlarga taalluqli tashrif yozuvlari.

Yunon-bohtariy yozuviga oid eng yirik yodgorliklar orasida katta Surx-Ko'tal yozuvi (u 1957 yilda Shimoliy Afg'onistonning Bog'lon viloyatida topilgan bo'lib, u tosh taxtaga o'yib yozilgan va 25 qatordan

iborat[166] dastlabki ancha ravon va ko'zga ko'rinarli matndir), shuningdek, O'zbekistonning Surxondaryo viloyatidagi Ayritom shaharchasidan topilgan olti qator yozuv bor bo'lib, u monumental yunon-bohtariy yozuvida mergeli ohangida ishlangan haykallar to'plami postamentiga bitilgan (1979 yilda arxeolog B.Tursunov tomonidan topilgan). 1980 yillarning boshlariga qadar topilgan yunon-bohtariy yozuvi yodgorliklari X.Xumbax, G.Davari, I.Gershevich, V.A.Livshits, Ya.Xarmatti, V.B.Xenning, N.Sims-Vilyams asarlarida to'plangan va tushuntirilib berilgan[167].



Термиздан топилган сопалакдаги юнон-бохтарий дия ёзуви

Yunoncha asosdagi bohtariy yozuvining hozirgi kungacha eng muhim namunalaridan biri Termizdan o'ttiz kilometr g'arbda joylashgan qadimgi Kampirtepa shaharchasida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida kashf etilgan. Bu erda milodiy II asrga oid arxeologik qatlamlarda chinakam nodir topilma - qayin po'stlog'iga bitilgan baqtriya qo'lyozmalaridan parchalar topilgan. Bu haqdagi birinchi xabar «Surxandarinskaya pravda» viloyat gazetasida (1984 yil avgust) bosildi. «Kampirtepa qal'asi» nomli maqolada arxeologlar E.Rtveladze va S.Savchuk mazkur topilmani quyidagicha tasvirlab berganlar: «Dastlabki parchalar tuproqdan xoli edi, garchi material (bu, chamasi, qayin

[166] Qarang: Oranskiy I.M., 1960. – S. 208-209.

[167] Baqtriya yozuvi bo'yicha asarlarning to'liq bibliografiyasi quyidagi kitobda keltirilgan: Osnovo' iranskogo yazo'koznaniya. Srednеiranskie yazo'ki. – M.: Nauka, 1981. – S. 515-539.

po'stloqqa bitilgan edi) yaxshi saqlanmagan bo'lsa-da, qo'lyozmalarning o'zi juda yaxshi saqlangan: xatning o'ta chiroyliligi, xusnixat ko'chirgan xattotning tajribali ekanligini ko'rsatadi va bu boradagi mavjud uzoq an'anadan guvohlik beradi. Yozuv o'ramiga nazar tashlab, bu erda bir-biriga yopishib ketgan va naycha shaklida o'ralgan bir necha varaq bo'lganligiga ishonch hosil qilamiz, shu bilan birga yozuvlar har ikkala tomondan gorizontal qatorlar bilan bir-biridan va varaq chetidan joy qoldirgan holda berilgandi. Harflar etarli darajada yirik bo'lib, bir-biri bilan qo'shilib ketgandi - bu qiya harflarda bitilgan yozuv edi»[168] .

1983 yilgi bu noyob topilma haqida ancha batafsil axborot E.Rtveladze va V.Livshitsning «Qadimgi yozuv yodgorliklari» nomli kitobchasida keltirilgan: «Qayin po'stlog'i parchalari binolarning deyarli butun pollari sirtidan buyumlar ostidan va orasidan topilgan, lekin ularning ko'pchilik qismi binolardan birining sharqiy devori yonida to'plangan edi. Hammasi bo'lib turli kattalikdagi (2,2x1.6 sm; 2,9x1,2-1.3 sm; 0,8x0,3 sm va hokazo) 30 ga yaqin parchalar, shuningdek, bir-biriga yopishib ketgan va naycha qilib o'ralgan hamda tozalash vaqtida bo'laklarga bo'linib ketgan bir qancha yupqa varaqlar topilgan, varaqlarning kengligi taxminan 5,0 sm. bo'lib, qalinligi 0,1-0.2 sm.. chap tomonida 1,5 sm.gacha hoshiyasi bor edi. Yozuvlar ikki tomondan qora tush bilan ravon qatorlarda yozilgan, ular uch-to'rt va hatto undan ham ko'proq satr bo'lib, ular oralig'i 2,0-2,5 sm edi. Harflarning balandligi 3-6 mm kelardi. Yozuvlar baqtriya qiya harflarida yozilgan. Xususan, ayrim qo'shimchalar va baqtriya tiliga xos bo'lgan «da» qo'shimchasini yoki «suv» ma'nosini ifodalovchi so'z mavjud. Bitta bo'lakda mansabdor shaxslarni ifodalashda ishlatiladigan baqtriya qo'shimchasi mavjud bo'lgan ikkita so'zning birikmasi saqlanib qolgan. Binobarin, bu so'zda qandaydir bir mansabdor shaxs haqida gap borgan. Boshqa bir bo'lakda katta Surx-Ko'tal yozuvidan ma'lum bo'lgan so'zlar va qo'shimchalarning qoldiqlari saqlanib qolgan. Yana bir ikki harfli va birnecha harfli ko'pgina parchalar ham bor, lekin umuman olganda parchalardan birortasi ham ravon o'qish imkonini bermaydi. Lekin ishonamizki, o'tkazilayotgan ta'mirlash ishlari hamma matnlarni bo'lmasa ham, ayrim gaplar va so'zlarni o'qish imkonini beradi»[169]. Bu keltirib o'tilgan tasvirdan tashqari, olimlar tomonidan mazkur bohtariy qo'lyozmalarning matnlarini o'qish,

[168]Rtveladze E., Savchuk S., «Surxandarinskaya pravda», 1984, 1 avg.

[169]Rtveladze E., Livshits V.,1985.

ma'nosini anglash yoki sharhlash yuzasidan ilmiy ishlar olib borilmagan. Bu qayin po'stlog'iga yozilgan qo'lyozmalar konservatsiya etilgan va Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sant-Peterburg bo'limining maxsus laboratoriyasida ta'mirlash jarayonidadir.[170]

Turonzamindagi boshqa yozuv tizimlari kabi yunon-bohtariy yozuvining tarixiy taraqqiyotida o'ziga xos ikkita bosqichni ajratib ko'rsatish mumkinki, ularga ikkita yozuv varianti yoki turi mos keladi: monumental (hashamatli), aniq va yozma harfli yozuv. Birinchi variantga harflarni alohida-alohida yozish, belgilarning o'tkir uchli va dumaloq shakllari almashib va aralash kelishi xosdir. Ikkinchi variant uchun matnni qo'shib (ba'zan so'zlarni oromiy-bohtariy yozuvida bo'lganidek, ajratmasdan) yozish xosdir. Yunon-bohtariy yozuvining rivojlanishidagi birinchi tarixiy bosqich milodiy I-II asrlariga to'g'ri keladi. Yunon-bohtariy yozuvidagi Kushon davri o'rtalarida, Kampirtepa qal'asidan topilgan topilmalarga qaraganda, yozma harf tamoyili ustunlik qilgan. Kushon davridan keyingi (milodiy IV asrdan boshlab) yozma harflarning ancha rivojlanishi Baqtriya hududi eftalitlar hukmronligi ostida bo'lgan davriga to'g'ri keladi. Bu yozuv fanda «eftalit yozuvi» deb nom olgan va milodiy IX asrgacha mavjud bo'lib kelgan. Xitoylik sayyoh budda monaxi missioner Syuan-Tszyan taxminan 629-630 yillarda Turonzaminning ayrim mintaqalarida bo'lgan vaqtida aynan eftalit yozuvi haqida quyidagilarni yozgan: «Til tarkibi bo'yicha (Toxariston) boshqa saltanatlardan birmuncha farq qiladi. Yozuvdagi harflar soni yigirma beshtadan iborat, ular bir-biri bilan qo'shilib turli kombinatsiyalar hosil qiladi, ular yordamida hamma narsa tasvirlanadi. Yozuv gorizontal bo'yicha, chapdan o'ng tomonga qarab o'qiladi. Adabiy asarlar katta miqdorda yaratiladi va hajm jihatidan sug'd tilidagi asarlardan ustunlik qiladi...»[171] (R.Pelliot. Tokharien on KoutcheenG'G'JA. T.CCXXIV, 1934, r.50. I.M.Steblin-Kamenskiy ruschaga qilgan tarjimasidan).

«So'ngroq Syuan-Tszyanning qayd etishicha, 25 ta harfdan (chamasi, yunoncha harflardan) iborat alifbedan Tu-xo-lo mamlakatidan tashqari Bamian, Shug'non, Chitral va boshqa qo'shni mamlakatlar ham

---

[170]Bu ma'lumotlarni bizga Hamza nomidagi San'atshunoslik institutining bo'lim mudiri, O'zbekiston FA akademigi, tarix fanlari doktori, professor E.V. Rtveladze ma'lum qilgan.

[171]Osnovo' iranskogo yazo'koznaniya, 1981. – S. 316.

foydalanishgan»[172], deb yozadi I.M.Steblin-Kamenskiy. XII asrdagi arab tarixchisi as-Sam'anining guvohlik berishicha, kitoblar yozilgan alohida alifbe «islomning ilk davrida», ya'ni arablar istilosidan keyin ham (VIII asr) Xuttaliyonda mavjud bo'lgan.[173] Xullas, yunon-bohtariy yozuvini birmuncha kechroq ham mavjud bo'lganligini IX asrga oid ayrim yodgorliklar, chunonchi Tochi vodiysidan topilgan yozuvlar va 1905 yilda Tuyoka vodiysida (Sharqiy Turkiston, Turfon vohasi) ibodatxona vayronalaridan fon Le Kok tomonidan topilgan va fanda «Berlin eftalit parchalari» deb nomlangan - qayin po'stlog'iga, qog'ozga va palma yaprog'iga yozilgan matnlarning ettita parchasi ham tasdiqlaydi.

6.9. Kxaroshtxi yozuvi va kitobati

Tarixiy manbalarda kxaroshtxi yozuvi haqida dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi V asrga taalluqlidir. Bu yozuvda berilgan yozuvlar faqat miloddan avvalgi III asrdan e'tiboran uchray boshlagan. Bular ilmiy adabiyotda ancha mashhur bo'lgan podsho Priyadarshaning yoki Ashokaning (miloddan avvalgi 272-231 yillar) budda tuzuklari, shuningdek, hind-yunon va hind-skif podsholarining miloddan avvalgi III asr - milodiy I asrga oid tangalaridir. Bu yozuv oromiy grafikasi asosida yaratilgan, lekin xatda aspirat va ayrim shipildoq tovushlarni, ya'ni oromiy yozuvida yo'q bo'lgan maxsus hind tovushlarini ifodalash uchun yangi belgilar bilan to'ldirilgan.



Dalvarzintepadan topilgan yombining vaznini ifodalovchi kxaroshtxi yozuvidagi bitig

[172]O'sha erda.

[173]Bartold V.V. K voprosu o yazo'kax sogdiyskom i toxarskomG'G'Sochineniya. – M.: Nauka, 1964. – T.2, ch. 2. - S. 151.

Kxaroshtxi yozuvi Shimoli-G'arbiy Hindistonda tarqalgan va ishlatilishi muddati jihatidan miloddan avvalgi III asr - milodiy III asrga to'g'ri keladi, shundan keyin u brahmi yozuvi tomonidan siqib chiqarilgan. Biroq milodiy dastlabki asrlarda u Turonzaminning janubi-sharqida Kushonlar Baqtriyasida ham iste'molda bo'lgan. Turonzaminning qadimgi tarixi, eron tilshunosligi va yozuvlar sohasidagi mutaxassislarning yakdillik bilan bildirgan fikrlariga qaraganda kxaroshtxi yozuvi yunon-bohtariy yozuvi bilan bir qatorda Kushon imperiyasida rasmiy yozuvlardan biri bo'lgan. Yozuvning nomi uni yaratgan muallif ismidan olingan. Ayrim tadqiqotchilar uni hind-bohtariy, hind-skif, oriyon yoki shimoli-g'arbiy yozuv deb atashadi.[174]

Sopol va toshga bitilgan kxaroshtxi yozuvining aksariyat namunalari milodiy I-III asrlariga taalluqli bo'lib, ular eski Termizdagi Qoratepa nomli budda diniy markazidan[175], Fayoztepa budda ibodatxonasi majmuidan, Dalvarzintepa va Dulbarjin shaharchalari xarobalari orasidan topilgan.

6.10. Brahmi yozuvi va kitobati

Brahmi yozuvi miloddan avvalgi VII-VI asrlar oralig'ida finikiya alifbesi asosida rivojlangan bo'lib, qadimgi eron shohlari hukm surgan davrga deyarli to'g'ri keladi. Agar miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmida zarb etilgan tangadagi yozuv brahmi yozuvining eng qadimgi namunasi bo'lib, xatning yo'nalishi hali o'ngdan chapga qarab borgan bo'lsa, milodiy III asrdan boshlab chapdan o'ngga qarab yozilgan. «Brahmi yozuvi, - degan edi I.Fridrix, - eng qadimgi ikkita yozuv turlaridan biri bo'libgina qolmay, u pirovard natijada kxaroshtxi yozuvi ustidan g'olib keldi va yakka hukmron mavqeini egalladi. Hindistonning barcha keyingi yozuvlari o'sha yozuvdan boshlangan va taxminan yangi era chegarasida shimoliy va janubiy yozuv tiplari vujudga kelgan»[176].

Kxaroshtxi yozuvi singari brahmi yozuvi ham milodiy I-III asrlarda Kushonlar Baqtriyasining budda jamoalarida ishlatilib kelingan.[177]

---

[174] Qarang: Fridrix I. Istoriya pisma. M.: Nauka, 1979. – S. 154.

[175] Qarang: Xarmatta Ya. Kinterpretatsii nadpisey na keramike iz Kara-tepeG`G`Buddiyskie pehero` Kara-tepe v Starom Termeze. – M., 1969. – S. 32-39.

[176] Fridrix I. Istoriya pisma. – M.: Nauka, 1979. – S. 155.

[177] Qarang: Vertogradova V.V. Ob odnoy iindiyskoy nadpisi na sosude iz Kara-tepe v Starom TermezeG`G`Kara-tepe. - 1975. – S. 73.

Bu yozuvda ikki qator qilib sopol idish parchasiga bitilgan yodgorlik qadimgi Panjikent shaharchasidan topilgan. Brahmi yozuvidagi barcha o'qishi mumkin bo'lgan yozuvlar (masalan, kxaroshtxi yozuvidagi kabi) budda mazmunida edi.

Demak, hind yozuv tizimlarining Turonzaminda tarqalishini budda dinining tarqalishi bilan bog'lash zarur. B.G'. G'afurovning «Tojiklar» nomli kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Toxariston poytaxtida yuzlab budda ibodatxonalari. Termizda o'nga yaqin, Shugnanda - ikkita, Kabadiyonda - uchta ibodatxona bo'lgan va hakazo. «Har bir ibodatxonada muayyan miqdorda rohiblar bo'lgan, odatda ular 2 nafardan 50 nafargacha bo'lishgan. Budda dini Pomirga ham kirib kelgan... Zangtepada qayin po'stlog'iga yozilgan budda diniga oid qo'lyozmalar topilgan. Ular mahalliy turonzamin brahmi yozuvida bitilgan bo'lib, tili mahalliy tillar bilan qorishgan gibrid sanskrit tilidir. Bu erda budda matnlarining butun bir to'plami mavjuddir, ular orasidagi «Vinaya» kitobi, rohiblar va budizmni qabul qilgan qavmlar uchun xulq-atvor qoidalaridan iborat bo'lib, u hayotning hamma tomonlarini tartibga solardi, unda ibodatxona qoidasi ham bor edi. Bunday qo'lyozmalarning qoldiqlari Kofirqal'adan ham topilgan».[178]

Brahmi yozuvidan Xo'tanning (Sharqiy Turkiston) eron tilida so'zlashuvchi aholisi ham foydalangan. Sak (xo'tan) tilidagi V-X asrlariga oid budda mazmunidagi matnlar ham shu yozuvda bitilgan.

60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlaridagi topilmalarning ahvoliga ko'ra. O'rta Osiyodagi hind yozuvi tizimlari yodgorliklari obzorini tadqiqotchi olima M.I.Vorobyova-Desyatovskaya e'lon qilgan.[179]


6.11. Qadimgi turkiy yozuvi va kitobati

Qadimgi turkiy yozuv yoki sekin-asta iste'moldan chiqib borayotgan termin bilan aytganda sursimon o'rxun-enasoy alifbesi turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar tarixidagi eng birinchi va eng qadimgi alifbe va yozuv tizimi hisoblanadi. Ayrim olimlar bu yozuvning paydo bo'lish vaqtini miloddan avvalgi I ming yillikka mansub deyishadi. Hozirgi vaqtda Evropa va Osiyoning turli mintaqalarida bu yozuvga doir topilgan

[178]Gafurov B.G. Tadjiki. Kn. 1, 1989. – S. 309-310.

[179]Qarang: Vorobeva-Desyatovskaya M.I. Pamyatniki indiyskoy pismennostiiz Sredney AziiG`G`Indiya v drevnosti. – M., 1964. – S. 210-217; Novo`e nadpisi pismom kxaroshtxi iz TermezaG`G`Vestnik drevney istorii. – 1974. - №1. – S. 116-126.

yodgorliklarning umumiy soni uch yuztaga yaqinlashib qoldi. Enisey va O'rxun (Baykal ko'lining janubrog'ida) daryolari havzasidan topilgan dastlabki yodgorliklarning joylashish o'rniga va belgilarning o'ziga xos sursimon shakliga ko'ra u dastlab «o'rxun-enasoy» sursimon yozuvi deb atala boshlagan.



Qadimgi turkiy alifbe

38 ta harfdan iborat bu alifbe o'sha tarixiy davrda Janubiy Sibir, Markaziy va O'rta Osiyoning turkiygo'y qabila va elatlari o'rtasida ayniqsa keng tarqaldi va qo'llanildi. O'sha davrda ular ilk o'rta asrlardagi eng yirik Markaziy Osiyo davlatlari – VI-VIII asrlardagi Sharqiy turk va Qadimgi xakas davlatlarining, I Turk hoqonligi, G'arbiy va Sharqiy hoqonliklari tarkibiga kirar edi.

Sursimon yozuvlarning kattagina qismi qoyalarga, yodgorlik toshlariga, toshdan yasalgan butlarga, qabr toshlariga o'yib yozilgan, ozroq qismi esa metaldan ishlangan idishlarda, sopol, tanga, qog'oz va yog'ochda uchraydi.

O'rxun-enisey yozuvi yodgorliklari o'zining janriy mansubligi jihatidan bir necha turlarga bo'linadi. Avvalo, bular tarixiy-biografik matnlar bo'lib, turk, uyg'ur, qirg'iz zodagonlari, hoqon urug'idan chiqqan mashhur kishilarning xizmatlari va qahramonona hatti-harakatlarini maqtashga bag'ishlangan edi. Mazkur matnlar bu shaxslarning yaqin kishilari va qarindosh-urug'lari yoki o'zlari tomonidan yozilar edi. Shuningdek, bular epitafik lirikasi - Enisey va Ettisuv (hozirgi Qirg'iziston hududi) qabr usti yozuvlaridan iborat bo'lib, ularni turkolog S.E.Malov «qadimgi turk davrining qabrlarga oid she'riyati»[180] deb ta'riflagan edi. Bular, nihoyat, qoyalar, toshlar va imoratlardagi yozuv yodgorliklari bo'lib, ular muallifning hayotida sodir bo'lgan muhim voqealarga bag'ishlangan. Qog'ozlarga yozilgan yuridik hujjatlar, shuningdek, sehrli va diniy matnlar (masalan, toshlarning sehrli xususiyatlari haqidagi risola), manixeycha mazmundagi parchalar, ro'zg'or buyum-ashyolaridagi yozuv parchalari, metall idishlar va ko'zgulardagi, sopol va tangalardagi yozuvlar alohida guruhlarni tashkil etadi.



Qadimgi turkiy tosh bitigi. 732 yil.

Qadimgi turkiy yozuvning eng yirik yodgorliklari va ayni vaqtda turkiy tildagi eng qadimgi nasriy asarlar «Folbinlik kitobchasi» («Irk bitig») - qariyb 100 sahifadan iborat kichik bichimli kitob[181],

[180]Qarang: Malov S.E. Eniseyskaya pismennost tyurkov. – M.-L. 1952. – S. 116; Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii. – M.L., 1959. – S. 111.

[181]Qarang: Stebleva I.B. Drevnetyurkskaya kniga gadaniyG'G`Istoriya, kultura i yazo`kı narodov Vostoka. – M., 1970. – S. 152-159.

Bilga-hoqon va Kultegin sharafiga qurilgan yodgorliklar (Shimoliy Mo'g'ulistondagi Qo'sha-tsaydam yodgorlik toshlari), O'ngin yozuvi, shuningdek, To'nyuquq, Mo'yin-chur va Quli-chur sharafiga qurilgan yodgorliklardir, ular asosan O'rxun, Tola va Selenga daryolari havzasida to'plangan.[182] Sibir va Shimoliy Mo'g'ulistondan tashqari, sursimon yozuvi yodgorliklari Sharqiy Evropada, Oloyda, Sharqiy Turkistonda va O'rta Osiyodan ham topilgan. O'rta Osiyodan topilgan yodgorliklar ikkita kichik guruhga bo'linadi. Ettisuv guruhi, unga yumaloq katta toshlardagi, qabr usti toshlaridagi yozuvlar (Talas vodiysidan topilgan beshta yozuv), tangalardagi, ro'zg'or buyum-ashyolaridagi va yog'och tayoqchalariga yozilgan yozuvlar kiradi. Farg'ona guruhi - u qog'ozga yozilgan bitiklar (Sug'ddan, Mug' tog'idan topilgan qo'lyozma hujjat[183]) metalga, sopolga va toshga bitilgan yozuvlardan iboratdir.

Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari haqidagi dastlabki ma'lumotlar XVII asr oxiri - XVIII asr boshlaridayoq ma'lum bo'lgan edi. Ularni muntazam ravishda e'lon qilib borish va ilmiy jihatdan o'rganish esa XIX asrdan boshlangan bo'lib, hozir ham davom ettirilmoqda. Qadimgi turkiy yozuvining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishiga doir ilmiy bahs yuz yildan ortiq davrdan buyon tinmayapti. Chunonchi XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida ilmiy doiralarda qadimgi turkiy alifbe harflariga turkiy urug'lar belgilari, ramzlari bo'lgan turkiy tamg'alar shakli asos qilib olingan, degan faraz keng tarqalgan edi. Turkiy yozuv belgilarining kelib chiqishini bevosita tamg'alarga bog'laganlar A.Vamberi[184], A.A.Shifner[185], P.M.Melioranskiy[186], N.A.Aristov[187], N.G.Mallitskiy[188]

[182] D.D.Vasilevning «Graficheskiy fond pamyatnikov tyurkskoy runicheskoy pismennosti orxonskogo areala (Opo't sistematizatsii)», - M., 1983 kitobida keltirilgan 80-yillarning boshlariga oid ma'lumotlarga ko'ra, jami 28 ta yodgorlik topilgan.

[183] Qarang: Drevnetyurkskiy slovarG'G'AN SSSR. Institut yazo'koznaniya. L.: Nauka, 1969. - S. 676.

[184] Qarang: Vambery H. Das Turkenvolk in seinen ethnologischen und ethnographischen Beziehungen. Leipzig, 1885.

[185] Qarang: Schiefner A. Uber verschiedene sibirische Eigentums-Zeichen. «Melanges russes». T. 4. St.-Pbg.,1858.

[186] Qarang: Melioranskiy P.M. Pamyatnik v chest Kyul-TeginaG'G'Zapiski Vostochnogo otdeleniya Russkogo Arxeologicheskogo Obhestva. – Spb, 1899. – T. XII. Vo'p. II-III. - S. 11-16.

[187] Qarang: N.A. Aristov. Opo't vo'yasneniya etnicheskogo sostava kirgiz-kazaxov Bolshoy Ordo' i karakirgizovG'G'JS. - 1984. – Vo'p. 3-4. – S. 410.

[188] Qarang: MallitskiyN.G. OsvyazityurkskixtamgsorxonskimipismenamiG'G'Protokolo'

bo'ldi. Daniyalik olim, prof. V.Tomsen 1893 yilda birinchi marta o'rxun-enasoy yozuvlari butun alifbesiga doir to'liq kalit topishga va ayrim yodgorliklar matnini o'qishga muvaffaq bo'ldi. Uning fikricha, mazkur alifbe o'z negizida finikiya alifbesiga borib taqaladi. bunga esa oromiy yozuvining tarmoqlaridan biri vositasida erishilgan, ko'pgina belgilar esa pahlaviy yozuvi belgilariga, ya'ni o'rtafors yozma harflari belgilariga nisbat berilishi mumkin[189]. Shu bilan birga V.Tomsen qadimgi turkiy alifbe qisman boshqa belgilar bilan ham to'ldirilgan bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi. O.Donner turkiy yozuvning oromiy yozuvi bilan bog'lanishi, parfiya tangalaridagi yozuvlar harflarining yozilishi orqali sodir bo'lgan, deb hisoblaydi.[190]

A.Steyn 1906 yilda Dunxuandan topgan hujjatlarining tilini sug'd tili hisoblashiga asoslangan R.Goto «Eski sug'd xatlari»ning yozilishi turkiy alifbe harflarining modeli va timsoli deb qaralishi mumkin. degan taxminni bildirgan.[191] Qadimgi turkiy yozuvni mustaqil ravishda o'qishga muvaffaq bo'lgan V.V.Radlov uning oromiy yozuvidan kelib chiqqanligini bildiradi. lekin unga xunnlar tomonidan kiritilgan skandinaviya elementlari ham borligini ta'kidlab o'tadi.

1929 yilda E.D.Polivanov tomonidan ilgari surilgan va asosan quyidagilardan iborat bo'lgan faraz ancha asosli va samarali bo'ldi: 1) turkiy alifbe turkiy tillar muhitida yaratilgan va shuning uchun ham turkiy tillarning grammatik tuzilishini va singarmonizm printsiplarini hisobga oladi; 2) alifbe yodgorliklarda qayd etilgan til mavjud bo'lishidan birmuncha oldin yaratilgan; buning isboti imlodagi uzilishlardir; 3) yozuv g'arbiy alifbelar – oromiy, sug'd, pahlaviy alifbelarining kuchli ta'siri bilan vujudga kelgan; 4) faqat Mo'g'ulistondagi O'rxun yozuvlaridagina xitoy yozuvining ta'sirini kuzatish mumkin.[192]

---

zasedaniy i soobheniya chlenov Turkestanskogo krujka lyubiteley arxcologii. – T., 1897-1898. – Vo p. 3. – S.41-47.

[189]Qarang: Tomsen B. Turcied. Etudes concernant l'interpretations turques de la Mongolie et de la Siberie – «Samlede Abhandeiger». Bd. 3. Kabenhavn. 1892.

[190]Qarang:Donner O. Worterververzeichniss ZU den «Inscriptions de lenissee». – MSFOu. SSFOu. Vol. 15, 1892.

[191]Guanthiot R. Note sur la lanque et lecriture inconnues des documents Stein-Cowley. IRAS, 1911

[192]Qarang: Polivanov E.D. Ideograficheskiy motiv v formatsii orxonskogo alfavitaG'G'Byulleten SAGU. - 1929. - №9. – S. 31.

XX asrning 60-70-yillarida qadimgi turkiy yozuvning kelib chiqishi masalasida bir qator yangi muhim kuzatishlar amalga oshirildi va aniqliklar kiritildi. Turk tilshunosi K.Mirshanning tadqiqotida qadimgi turkiy yozuvning qadimgi O'rta er dengizi yozuv tizimlari bilan genetik jihatdan o'zaro bog'liqligini aniqlashga urinib ko'rilgan.[193] Qozoq turkiyshunos olim va tarixchi A.S.Omonjo'lov o'zining doktorlik dissertatsiyasida bu yozuvning, bir tomondan, qadimgi yunon alifbesining ilk tiplari bilan, ikkinchi tomondan, shimoliy semit–finikiya va janubiy semit alifbelari bilan genetik jihatdan yaqindan bog'liqligini isbotlab berishga uringan. Natijada u qadimgi turkiy alifbesi kam deganda miloddan avvalgi I ming yillikda vujudga kelgan, deb xulosa chiqargan.[194]

V.A.Livshits Osiyo va Sharqiy Evropadan topilgan sursimon yozuv yodgorliklari genetik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin emasligi to'g'risida qadimgi til yozuvi tarixi nuqtai nazaridan muhim ilmiy xulosa chiqaradi. Shuningdek, u sug'd yozuvi belgilarining bir vaqtning o'zida ongli ravishda ishlab chiqilganligi va ularning monumental turkiy yozuvlar uchun lapidar yozuv belgilariga aylanganligi to'g'risidagi farazni ilgari surgan. Zamonaviy tadqiqotchi I.L.Kizlasov ancha maqbul va mantiqiy fikrlar asosida unga quyidagicha e'tiroz bildiradi: «Kursiv (qiya bosma) yozuvni bilgan kishilar qanday qilib alohida kesma harflar tizimini ixtiro qilishlari, bu bilan yozuvning rivojlanishida bir qadam orqaga qaytishlari mumkin? Yozuv sohasidagi tarixchilarning bunday o'zlashtirishning - o'rta asrlardagi tilshunos-ixtirochilarning faqat jamoa bilimlariga emas, balki shaxsiy bilimlariga ham qarama-qarshi bo'lgan orqaga ketishining nazariy va amaliy imkoniyatlari haqidagi fikrlarini bilishni istardik»[195].I.L.Kizlasov qadimgi turkiy yozuvning kelib chiqishi masalasida ehtiyotkordir. «Bunday vazifa juda murakkab va batamom mustaqil vazifadir, - deb yozadi u. - Bir narsa butunlay ehtimoldan uzoq bo'lmagandek tuyuladi, ya'ni ularning boshlanishini O'rta Osiyo yozuvlaridan izlash kerak, bu yozuvlarning ilk darakchilari qadimgi semit alifbelaridir... O'rxun Enisey va German-sursimon yozuvlarining tashqi o'xshashligi ana shu umumiy va g'oyat chuqur ildizlar bilan

[193] Qarang: Mirsan K. Proto-turkce yazitear. – Ankara, 1970.

[194] Amanjolov A.S. Materialo' i issledovaniya po istorii drevnetyurkskoy pismennosti: Avtoref. dis... dok. filol. nauk. – Alma-ata, 1975. – S. 61-65.

[195] Ko'zlasov I.L. Drevnetyurkskaya runicheskaya pismennost Evrazii (Opo't paleograficheskogo analiza)G'In-t arxeologii AN SSSR. – M.: Nauka, 1990. – S. 152.

izohlanmaydimi, bu o'xshashlik turkiy yozuv yodgorliklarini sursimon yozuvlar deb atashga olib keldi»[196].

I.L.Kizlasov o'z monografiyasida bir qator yangi epigrafik materiallarni qarab chiqqan, ular unga turkiy alifbelarning ilgari sharqshunoslikda tasnifga kiritilmagan alohida guruhi mavjudligi haqidagi farazni ilgari surish imkonini bergan. Bu alohida guruhga u Don, Kuban, Achchiqtosh, Isfara va Janubiy Enisey alifbelarini kiritadi. «Turkiy sursimon alifbelarning paleografik jihatdan farq qiluvchi ikkita guruhining mavjudligini e'tirof qilish zarur, - deb ta'kidlaydi I.L.Kizlasov. - Birinchi guruh - ilgaridan yaxshi tanish bo'lgan va ancha ko'p sonli yozuv yodgorliklarni o'z ichiga olgan guruh bo'lib, uchta mustaqil alifbening: enisey, o'rxun va talas alifbelari asosiy belgilarini birlashtiradi. Ikkinchi guruh - biz birinchi marta ajratib ko'rsatayotgan va bugungi kunda ancha kamtarona materialga ega bo'lgan guruh bo'lib, bu erda tasvirlangan beshta alifbedan tashkil topgan. Har ikkala guruh kelib chiqish va rivojlanishi jihatidan o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir, ayni vaqtda esa genetik jihatdan bir-biriga begona bo'lib, mustaqil ravishda tarkib topgan. Birinchi guruh yozuvlarning tarqalish jo'g'rofiyasini hisobga olib (Janubiy Sibir - Markaziy Osiyo - Ettisuv), uni Osiyo qadimgi turkiy sursimon yozuvi deb atashni taklif qilamiz. Ikkinchi guruh sobiq SSSR Evropa qismining janubida, Farg'ona vodiysi, Ettisuv va Janubiy Sibirda mavjud bo'lib, evroosiyo qadimgi turkiy sursimon yozuvi deb atalishi mumkin... Evroosiyo sursimon guruhining turkiy tilda ekanligi ularning alifbesini tashkil etuvchi har biri uchun o'z joyida keltirilgan tasdiqlardan tashqari uning belgilangan mintaqasidan ham kelib chiqadi. Ilk o'rta asrlarda faqat turkiy nutq Don va Kuban havzalari aholisini, Sirdaryo va Talas, Yuqori va O'rta Eniseyning boshlanish qismlaridagi aholini birlashtirib turgan. Ana shu nuqtai nazardan bizning oldimizda aytib o'tilgan alifbelar egalarini ta'riflash masalasi ko'ndalang bo'lib turadi. Bu satrlarning muallifi uchun shu narsa aniqki, bunday ta'riflash hozirgacha etnik ta'rif bo'lmaydi. Etnik-siyosiy birlashmalarni, oddiyroq qilib aytganda, u yoki bu alifbe mavjud bo'lgan davlatlarni izlab topish kerak bo'ladi»[197].

«Qadimgi turkiy yozuv» tushunchasi bilan birlashtirilgan turkiy alifbe tizimlarining qadimgi birinchi negizidan boshlangan tabaqalanish

[196]Ko'rsatilgan asar. – S. 152-153.

[197]Ko'zlasov I.L. Ko'rsatilgan asar. - S. 152, 155, 156.

(kurtaklanish) jarayonlariga hozirgi ilmiy qarash ana shundaydir.


6.12. Turkiy uyg'ur yozuvi va kitobati

Turkiy uyg'ur yozuvi milodiy VI asr oxiri - VII asrning boshlarida sug'd yozuvi tizimi asosida yaratilgan. Ushbu yozuvning rivojlangan sug'd kursiv yozuvi asosida qaror topishi, tarixiy evolyutsiyasi va uzil-kesil shakllanish jarayoni VII-VIII asrlargacha cho'zildi. Unga nisbatan «uyg'ur» nomining ishlatilishi shartlidir. Hali XI asrdayoq atoqli turkiyshunos olim Mahmud Koshg'ariy uni butun Sharqiy, G'arbiy va Janubiy Turkistonda istiqomat qilayotgan turkiy tilli xalqlar yozuvi deb atagan edi.[198] «Qashqardan tortib Xitoygacha bo'lgan barcha turkiy shaharlarda, – degan edi u, – kitoblar va barcha hoqonlar hamda sultonlarning boshqa yozuv yodgorliklari uzoq zamonlardan tortib bizning kunlarimizgacha ana shu yozuvda ko'chirilgan» . Bu yozuv alifbesi 18 harfdan iborat bo'lib, turkiy til fonetikasining faqat konsonant («a» harfidan tashqari) qatorini ifodalagan. Undosh tovushlarni ifodalash imkoniyatlari «v» va «y» singari harflarning funktsional universaliyasi hisobidan ta'min etilgan. Turkiy undosh qatorning boshqa o'ziga xos xususiyatlari (undoshlarning old va orqa qatorligi, tovushlarning yumshoqligi va qattiqligi) uyg'ur yozuvining aniq ishlab chiqilgan imloviy tizimi yordamida ifodalangan. Gap digrafalar, diakritik belgilar - harf ustidagi ikki nuqta va ayrim tovushlarni ifodalashning boshqa usullari haqida bormoqda. Yuqorida aytilganlarning hammasidan ko'rinib turibdiki, turkiy uyg'ur yozuvi alifbening harflar qatori funktsional muvofiqlik jihatidan o'zining sug'd prototipidan ma'lum darajada uzoqlashgan.


X asrning oxirlaridan e'tiboran Turon-Turkiston hududining muayyan qismida g'aznaviylar, saljuqiylar va qoraxoniylar sulolalarining turkiy markazlashgan davlatlari yuzaga kelishi aholi orasida turkiy yozuvning keng yoyilishi va ommalashuviga imkon berdi. Masalan, Toshkent va Samarqand vohalari, Farg'ona vodiysi, Ettisuv va Qashqariston kabi katta hududlarni qamrab olgan Qoraxoniylar davlatida X asrdan boshlab yagona turkiy tilga va yagona yozuv madaniyatiga ega bo'lgan etnik madaniy birlik tarkib topdi. Bu vaqtga kelib qiya (kursiv) turkiy uyg'ur yozuvi ham iste'molda bo'lgan. So'ngra bu yozuv XIII asrda O'rta Osiyoning yangi istilochilari tomonidan qabul qilindi

[198] Qarang: M. Koshgariy, 1960. – S. 46-47.

va mo'g'ullarning jahon imperiyasidagi rasmiy yozuvi maqomini oldi. Xuddi shu davrga kelib turkiy uyg'ur yozuvi asosida mo'g'ul yozuvi tashkil topdi (XII asr), undan esa o'z navbatida - XVI asrning oxirlarida manchjur yozuvi o'sib chiqdi.



Turkiy uyg'ur alifbesi



Uyg'ur ornamental yozuvining namunasi. Shoir Lutfiy «Devoni» varag'i. Kitob XV asr o'rtalarida Hirotda ko'chirilgan Hoshiyalaridagi yozuv arab grafikasida bajarilgan. Britaniya muzeyi, London

Milliy tiklanishning yangi tarixiy sharoitlarida Turonzamin davlatlarida mo'g'ullar hukmronligi qoldiqlari barham topgandan keyin XIV-XVII asrlarda Temuriylar, Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatlarida arab yozuvi bilan muvofiq ravishda turkiy yozuv ham qo'llangan. Bu yozuvdan davlat farmoyishlari va hujjatlarini, diplomatik va rasmiy qog'ozlarni, huquqiy va xo'jalik hujjatlarini yozishda, shuningdek, ayrim adabiy yodgorliklar yozuvi sifatida foydalanilgan. Masalan, XV asrda atoqli shoir Lutfiyning uyg'ur yozuvida ko'chirilgan lirik she'rlari keng tarqalgan.

XX asrning boshlarida Sharqiy Turkistondan topilgan qo'lyozmalar tufayli VIII asr uyg'ur yozuvi yodgorligi hisoblangan manixeylarning diniy mazmundagi «Manixeylarning toat-ibodat duolari», X asr yodgorligi bo'lgan buddaviy mazmundagi «Oltin shu'la», XIII asr yodgorligi hisoblanmish xristian dini mazmunidagi «Volxovlarning ibodat qilishi», X-XIII asrlarga oid turkiy yuridik hujjatlar, shuningdek, XVII-XVIII asrlarga oid qo'lyozmalar bizgacha etib kelgan. Yusuf Xos Hojibning 1069 yili yozilgan axloqiy risolasi «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilimlar»), Ahmad Yugnakiyning XIII asr birinchi choragiga oid axloqiy-didaktik dostoni «Hibatul-haqoyiq« («Haqiqat in'omlari»), XIII-XIV asrlar chegarasida yozilgan «O'g'uznoma», 1353 yilda Xorazmda yozilgan Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari turkiy tilda yozilgan musulmon mazmunidagi yozma yodgorliklardir. XV asrdan bizgacha etib kelgan, turkiy tilda yozilgan asarlar orasida Kamol Xo'jandiyning «Sirojul-qulub», «Latofatnoma», Yusuf Amiriyning «Dahnoma», Mir Haydarning «Mavzul asrori», shuningdek, «Baxtiyornoma», «Me'rojnoma», Fariduddin Attorning forschadan turkiy tilga tarjima qilingan «Tazkirai avliyo» nomli asarlari ham bor.

6.13. Suryoniy-turkiy yozuvi va kitobati

Suryoniy-turkiy yozuvi suriya qiya (kursiv) yozuvi (shuningdek, genetik jihatdan oromiy yozuvidan kelib chiqqan) asosida yaratilgan bo'lib, XII-XIV asrlarda nestorian mazhabidagi O'rta Osiyo xristianlari shu yozuvdan foydalanganlar. Bu yozuv kundalik madaniy muomalada qo'llanilgan, har xil mazmundagi matnlarni qayd etish uchun ishlatilgan. Turkiy yozuvdan foydalanuvchi xristianlar o'zlarining qo'lyozma kitoblariga, ilohiy va boshqa turdagi adabiyotlarga ham ega bo'lganlar.

Bu jihatdan N.V.Pigulevskayaning maxsus maqolasida bayon qilingan xulosalar ko'p ma'lumotlar beradi. Maqolada aytilishicha, Xara-Xotodan topilgan suryoniy-turkiy qo'lyozma turklarning kitob holidagi yozma yodgorliklari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.[199] Biroq qog'ozda yozilgan bir nechta matn parchalarini hisobga olmaganda, suryoniy-turkiy yozuv namunalari bizgacha asosan Sharqiy Turkiston, Qirg'iziston (Ettisuv) va O'zbekistondan topilgan qabr usti toshlaridagi va boshqa toshlardagi turli yozuvlar orqali etib kelgan. Suryoniy-turkiy yozuviga oid epigrafik yodgorliklarning batafsil obzori Ch.Jumagulov tadqiqotlarida keltirilgan.[200]

6.14. «Issiq» yozuvi va kitobati

Bu yozuvga doir dastlabki topilma namunalari XX asr 50-yillari o'rtalariga taalluqlidir. 1954 yilda frantsuz arxeologi A.Marik bir idish parchasini topgan bo'lib, unda noma'lum yozuv namunasi mavjud edi.[2012] 1966 yilda G.A.Pugachenkova Xolchayondan (Surxondaryo viloyati) topilgan ana shu yozuvdagi lavhani e'lon qilgan edi. Bu yozuv ham noma'lumligicha qolgan edi[2023]. Shundan keyin ko'p o'tmay, 1967 yilda Dashti-Navur (Markaziy Afg'oniston) degan joydagi qoyadan topilgan trilingva[2034] kashf etiladi, u milodiy I asrga mansub bo'lib, hind shevalaridan biri bo'lgan prakritda kxaroshtxi yozuvida, baqtriya tilida yunoncha grafika asosidagi yunon-bohtariy yozuvida va ana shu noma'lum yozuvda bitilgan edi.

---

[199]Qarang: Pigulevskaya N.V. Ehe raz o siro-tyurkskomG'G'Tyurkologicheskiy sbornik K 60 letiyu A.N. Kononova. – M.: 1966. – S. 228-232.

[200]Qarang: Djumagulov Ch. Epigrafika Kirgizii. Vo'p. 1. – Frunze, 1963. – S. 203; Epigraficheskie pamyatniki KirgiziiG'G'Pamyatniki Kirgizstana. – Frunze, 1970. – Vo'p. 1. – S. 3-96; Yazo'k siro-tyurkskix (nestorianskix) pamyatnikov Kirgizii. – Frunze: Ilim, 1971. – S. 161.

[201]Qarang: Maricg A. Inscriptions de Surch – Kotal (Baghlan) IIJA-Paris, 1958, №7.

[202]Qarang: Pugachenkova G.A. Xalchayan. – T., 1966. – S. 287.

[203]Trilingva – uch tilli yozuv.



Barratepadan topilgan «issiq» yozuvi namunasi

Mashhur frantsuz olimi, qadimgi tillar sohasida mutaxassis bo'lgan J.Fyusman trilingvani birinchi marta ilmiy tahlil qilishga urinib, tekshirilayotgan noma'lum yozuv sillabik yozuv bo'lib, o'ng tomondan chap tomonga qarab yozilishini, Surx-Kotal va Xolchayondan topilgan yozuvlar ana shu yozuv bilan bitilganligini aniqladi.[204] 1970 yilda Almati yaqinidagi Issiq qo'rg'onidan topilgan kumush barkashga yozilgan yozuv[205] kechi bilan miloddan avvalgi V asrga mansub bo'lib, u noma'lum yozuvga nisbatan qiziqishni oshiribgina qolmasdan, shu bilan birga yozuvning xususiyati, xronologiyasi, madaniy-tarixiy mintaqasi, uning jo'g'rofiy va areal tarqalishi masalalariga muayyan aniqlik ham kiritdi. Masalan, V.A.Livshits kumush barkashda bu noma'lum yozuvning eski varianti taqdim etilgan, degan fikrni bildirdi.[206] Issiq qo'rg'onidan topilgan yozuv mazkur noma'lum yozuv yodgorlik joyiga qarab shartli ravishda «issiq» yozuvi deb yuritila boshladi.

«Issiq» yozuvi yodgorliklariga doir topilmaning so'nggi bosqichi O'zbekiston va Tojikistonning janubi, Turkmanistonning shimoli bilan

---

[204] Qarang: Fusman G. Documents epigraphiques Korachans, D. 1974 (BEFEO).

[205] Qarang: Akishev K.A. Kurgan Isso`k. – Alma-ata, 1977. – S. 131.

[206] Qarang: Livshits V.A. Nadpisi iz DilberdjinaG`G`Drevnyaya Baktriya. – M., 1976. - S. 160.

ko'proq bog'liqdir. Masalan, Termizdagi Xotinrabot vayronalarida, Qoratepadagi budda g'or ibodatxonasida, Eski Termizdagi Fayoztepa, To'qqiztepa, Kampirtepa, Qo'shtepa degan tepaliklardagi VI-VII asrlarga doir qatlamlarda bir qancha yozuv namunalari topilganki, ular afsuski, parcha-parcha bo'lib ketgan. VII asr - VIII asrlarning boshlariga doir «issiq» yozuvi bor idish parchalari eski Marvdan topilgan,[207] miloddan avvalgi II asrga doir «issiq» yozuvi bor kumush taxtacha Oyxonim shaharchasidan (Afg'oniston) topilgan.

1982 yilda V.V.Vertogradova bir maqola e'lon qilib, unda shu davrgacha topilgan «issiq» yozuviga doir materiallar va tadqiqotlarni tahlil qilib «issiq» yozuvining ikki turi: ilk yozuv (Issiq qo'rg'oni va Oyxonim shaharchasidagi yozuvlar) va keyingi yozuv (uning ham bir qancha variantlari bor) mavjud bo'lganligini faraz qilgan.[208] Uning fikricha, «issiq» yozuvining umumiy tuzilishi oromiy va kxaroshtxi yozuvlariga borib taqaladi, xatning o'zi esa bitta tilni emas balki bir nechta tilni aks ettiradi. Ilgariroq «issiq» yozuvi belgilarining oromiy alifbesi harflari bilan aloqasi bo'lishi mumkinligini V.A.Livshits ta'kidlab o'tgan edi.[209]

«Issiq» yozuvi yodgorliklarining tadqiqotchilari va mualliflaridan biri E.V.Rtveladze mazkur yozuvni yuechjey qabilalari bilan bog'laydi.[210] V.A.Livshits bu yozuv o'zining arxaik variantida (Issiq qo'rg'onidagi yozuv) saklarga mansubdir,[211] degan fikrni bildiradi (faqat so'roq belgisi bilan). Uning o'zi «issiq» yozuvini Kushon imperiyasi yozuv tizimlarining rasmiy shakllaridan biri (yunon-baqtriya va kxarashtxi yozuvlari bilan bir qatorda) deb hisoblagan.[212]

Keyingi vaqtlarda turkologiyaning eng muhim muammolarini muhokama qilish va O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvlarini o'rganish jarayonida «issiq» yozuvining yodgorliklari turkiy tillarga oidligi to'g'risida turli taxminlar bildirilmoqda. Biroq bugungi kunda

---

[207]O'sha erda. – S. 166.

[208]Qarang: Vertogradova V.V., 1982. – S. 167.

[209]Qarang: Livshits V.A. Nadpisi iz DilberdjinaG`G`Drevnyaya Baktriya. – M., 1976. – S. 166.

[210]Qarang: Rtveladze E.V., 1998. – S. 24-25.

[211]Qarang: Livshits V.A. Nadpisi iz DilberdjinaG`G`Drevnyaya Baktriya. – M., 1976. – S. 168.

[212]O'sha erda. – S. 166.

«issiq« yozuvi haqida bildirilgan barcha fikrlar (uning qaysi etnik guruh va tilga mansubligi, alifbesining tarkibi va hokazolar to'g'risidagi mulohazalar) faqat ilmiy taxminlar darajasida qolayotganligi xususida gapirish mumkin xolos. Yangi topilmalar, ehtimol, bu barcha masalalarga aniqlik kiritishi mumkin. «Noma'lum yozuv tilini aniqlash, - degan edi E.V.Rtveladze, - bu muammoga (yozuvning muayyan etnosga taalluqligiga - E.O.) uzil kesil tuzatishlar kiritadi. Har holda uni yuechjey qabilasiga mansub deb ta'riflash uning ancha keng mintaqada tarqalganligini va turli sohalarda ishlatilganligini ko'rsatadi. U faqat rasmiy yozuv emas, balki Baqtriyaning bir qator qishloq joylaridan topilgan sopol idishlarga bitilgan yozuvlarga qarab hukm chiqaradigan bo'lsak, xalq orasida keng ishlatilib kelgan yozuv ham bo'lgan. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda tadqiqotchilarning asosiy vazifasi noma'lum yozuv haqida material to'plash va uning to'liq alifbesini tuzib chiqishdan iboratdir»[213].

Bugungi kunda issiq yozuvi xususida quyidagi fikrlarni ma'lum darajada ishonch bilan gapirish mumkin: a) bu yozuv mustaqil, mutlaqo original yozuvdir, oromiy yozuvidan, kxaroshtxi va brahmidan ayrim ichki shakl belgilarini o'zlashtirgan o'ziga xos ixtirodir; b) yozuv sillabik bo'lib, chapdan o'ngga qarab yoziladi; v) yozuv o'z taraqqiyotida uchta asosiy bosqichni: ilk (miloddan avvalgi V-II asrlar), o'rta (miloddan avvalgi I asr - milodiy IV asr) va so'nggi (milodiy V-VIII asrlar) bosqichlarni boshdan kechirgan, shu bilan birga so'nggi bosqich bir necha variantlardan iborat; g) mazkur yozuvning paydo bo'lgan markazi - Turonzaminning janubi-sharqiy qismi va Afg'onistonning shimoli-g'arbidir; d) yozuv yodgorliklarining tarqalish mintaqasi–shimolda Ettisuvdan janubda to Hindikushgacha va sharqda Shimoliy Afg'onistondan g'arbda to Sharqiy Turkmanistongacha, asosiy ishlatilgan viloyati - Baqtriya-Toxariston; e) bu yozuvning mavjud bo'lgan va tatbiq etilgan xronologik doirasi miloddan avvalgi V asrdan boshlab, milodiy VIII asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Issiq yozuvi haqida yuqorida aytilganlar nuqtai nazaridan 1971 yildayoq Olmati yaqinidagi Issiq qo'rg'oni (mil. av. V asrga oid arxeologik qatlam)dan topilgan kumush barkashdagi bitiklarni o'qigan yirik qozoq turkshunos olimi, qadimgi turkiy yozuvi nazariyotchisi va tarixchisi A.S.Omonjo'lovning fikri diqqatga sazovordir. U mazkur

---

[213] Qarang: Rtveladze E.V., 1998. – S. 25.

yozuv turkiy tilda, qadimgi turkiy yozuvining ilk shaklida bitilganini isbotlab berdi[214]. Uning ta'kidlashicha, «kumush barkashdagi bitikning paleografik xususiyati shundan iboratki, unda, Yoyiq daryosi bo'yidan topilgan kumush lagandagi yozuvdagi kabi, so'zlar ajratib yozilmagan. Umuman olganda, mazkur tolasimon yozuvning paleografik tahlili u mil. av. I mingyillik o'rtalariga taalluqli degan fikrni tasdiqlaydi»[215].

Maqolaning oxirida A.S.Omonjo'lov shunday deb yozadi: «Kumush barkashdagi ilk turkiy tolasimon yozuvining 1971 yilda taklif qilingan turkiy matn sifatida o'qilishi bugungi kungacha rad etilmay kelmoqda... Bundan tashqari, 1986 yili Issiq qo'rg'onidan topilgan bronzadan yasalgan ko'zguni tadqiq qilishda ko'zguda (ko'zgu gardishining yuqori qismida) «homiy» degan ma'noni bildiruvchi qadimgi turkiy yozuvining harflari mavjudligi aniqlandi»[216].

Umid shuki, yangi topilgan bitiklarni, shuningdek, issiq yozuvi yodgorliklari jamlamasini o'qish Turonzamin qadimgi tarixiga oid juda ko'p savollarga javob topish imkonini beradi. Ularning turkiy matn sifatida o'qilishi esa olimlarning qadimda va ilk o'rta asrlarda Turonzamin hududida yagona va rang-barang turkiy tilli va eroniyzabon superetnik madaniy dunyo mavjud bo'lgani haqidagi fikrini tasdiqlaydi.

* * *

O'tkazilgan tadqiqotning asosiy natijalarini xulosa qilib, shu rad etib bo'lmaydigan ilmiy faktni qayd etish zarurki, oromiy yozuvi asosida yuzaga kelgan va shakllangan qadimgi Turonzaminning xorazmiy, parfiyoniy, bohtariy, sug'diy yozuvlariga xronologik nuqtai nazardan miloddan avvalgi IV-III asrlarda asos solingandir. Turon xalqlari kitobat madaniyatining poydevori bo'lgan yozuvning tarixi aynan shu davrdan boshlanadi.

Qadimgi Turonzaminda turli yozuv tizimlarining paydo bo'lishi va asosiy rivojlanish bosqichlari hamda yozuv yodgorliklarini topish, tartibga solish va tarixiy-tipologik tahlil qilish bilan bog'liq muammolar majmuini o'rganish kitobat madaniyati tarixiga doir masalalarni ham yoritib, kitoblar

[214]Qarang: Amanjolov A.S. Runopodobnaya nadpis iz sakskogo zaxoroneniya bliz Alma-Ato'. «Vestnik AN KazSSR», 1971, №12 (320), s. 64-66.

[215]Amanjolov A.S. Istoriya : teoriya drevnetyurkskogo pisma. Almato': ZAO «Izdatelstvo «Mektep», 2003. S. 219.

[216]O'sha joyda, 222 b.

turi va kitobat ishining umumiy manzarasini qayta tiklashga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan sharh va tahliliy materialdan ko'rinadiki, qadimgi va ilk o'rta asrlar davrida Turonda qadim-qadimdan asos oluvchi yozuv madaniyati va kitobat ishi an'anasi mavjud bo'lgan. Bu an'ana bir-ikki xalq yoki etnosnigina o'z ichiga olmagan, u juda serqamrov bo'lib, fors-turkiy superetnosi bo'lmish «Avesto» (zardushtiylik) madaniy dunyosini tashkil qiluvchi barcha etnos va subetnoslarni qamrab olgan. Janubda Hindiqushdan tortib, shimolda Ettisuvgacha, Shimoliy Afg'onistondan tortib, g'arbda Sharqiy Turkmanistongacha bo'lgan ulkan hududda yozuv madaniyati va kitobat ishi an'analarining tarixiy vorisiylik tarzida keng yoyilganligi va ijtimoiy ongda chuqur ildizlarga egaligi faqat zardushtiylik madaniy dunyosini tashkil qiluvchi har bir xalq o'ziga xos ekanligidan dalolat berib qolmay, qadimda va ilk o'rta asrlarda ularning madaniyati an'anaviy nuqtai nazardan mushtarak bo'lganligini ham tasdiqlab, shuningdek, bu madaniyatning teranligi va kuch-qudratini ham ko'rsatadi.



Budrachdan topilgan kodeks shaklidagi kitob ko'targan odamning sopol haykalchasi. Janubiy O'zbekiston. Mil. IV-V asr

Ushbu bobda bayon etilgan materiallardan ko'rinadiki, qadimgi davr va ilk o'rta asrlarda mavjud bo'lgan barcha yozuvlar o'zining eng yirik yoki eng salmoqli yodgorliklari va matnlarini saqlab qolgan hamda ular

bizgacha etib kelgan, deb bo'lmaydi. Sanab o'tilgan yozuv tizimlarining barchasi bir xil sur'atda rivojlangan yoki bitta tarixiy davrda qo'llanilgan, ularning hammasi ayni bitta maqsad va kitobxonlar uchun xizmat qilgan, ommabop va xalqchil bo'lgan, deb aytish mushkul. Masalan, «Avesto»ni qayd etish uchun birgina «Avesto» yozuvidan foydalanilgan. Shuningdek, manixey diniga oid muqaddas kitoblarni ko'chirish uchun Eron va Turonning turli tillarida manixey yozuvi ishlatilgan. Ko'proq epitafiyalar (qabr toshlaridagi bitiklar)ni bitish va xristian diniy kitoblarini ko'chirish uchun suryoniy-turkiy yozuvi qo'llanilgan. Turkiy jamoalarning keng qatlamlari uchun tosh yodgorliklar va «tosh sanam»lardagi bitiklar qadimgi turkiy yozuvida bitilgan. Agar kxaroshtxi, brahmi, yunon, suryoniy-turkiy yozuvlari ikki yuz, uch yuz va to'rt yuz yil iste'molda bo'lgan bo'lsa, xorazmiy, parfiyoniy, bohtariy, sug'd va «issiq» yozuvlari singari oromiy grafikasi asosida vujudga kelgan yozuv tizimlari miloddan avvalgi IV-III asrlarda paydo bo'lib, arablar istilosi davrigacha (VIII asr) va IX-X asrlarda ham arab yozuvi bilan birgalikda ishlatilib kelindi (parfiyoniy yozuvi milodiy V asrgacha). Turkiy uyg'ur yozuvi milodiy V asrda vujudga kelgan bo'lib, u Turkiston davlatlarida XVII-XVIII asrlargacha qo'llanib kelindi.

7-§. Turonzamin kitob va yozma yodgorliklar ilk maxzanlari

Ahomaniylar davlati tarkibiga Turonzamin erlarining qo'shib olinishi (er avv.VI asr), bu imperiyani yunon-makedoniyaliklar tomonidan tor-mor keltirilishi (er.avv. IV asr) va natijada Turon xalqlari davlat tuzilmalarining rivojlanishi natijasida tarixning turli bosqichlarida xalqaro savdo-sotiq va madaniy aloqalarning jonlanishi, xalqaro aloqalarning faollashishi uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Madaniy yutuqlarni o'zaro baham ko'rish va o'zlashtirish jarayoni, xalqlarning va ularning alohida vakillarining bevosita aloqalari turli darajada: davlat, savdo, tafakkur, madaniy va shaxsiy darajada amalga oshdi. Aynan boshqa mamlakatlar bilan keng madaniy aloqalarni rivojlantirish natijasida turkiygo'y va forsiygo'y superetnosi bo'lmish – «Avesto» madaniy dunyosi oromiy va yunon yozuvlari, hindlarning braxmi va kxaroshtxi yozuv tizimlarini o'zlashtiribgina qolmasdan, balki o'ziga zamondosh Old Osiyo, Misr, Hindiston, Xitoy, Yunon-Rim antik madaniyatining bosh unsurlari va mazmuni, shu jumladan,, kitobat madaniyatining

asosiy jihatlari bilan tanishish imkoniyatiga ham ega bo'ldi. Yuqorida zikr etilgan sivilizatsiyalarning madaniy yutuqlarini o'zlashtirish, mazkur madaniyatlarning unsurlarini Turonzamin xalqlarining o'ziga xos sivilizatsiyasiga singdirish, ularni «Avesto» madaniy negizida, mahalliy xalqlarning o'ziga xos dunyoqarashi va dunyoni anglash tarzi asosida qayta ishlash va qayta idrok etish pirovard natijada mahalliy madaniy tuzilmalar o'sishiga, o'ziga xos madaniy an'analarning rivojlanishiga olib keldi. Bu yozuv madaniyati va kitobat ishi sohalariga ham to'la ravishda tegishli.

Mazkur mamlakatlarning o'z davri uchun ancha yuksak darajada rivojlangan kitobat madaniyati, kitobat ishi jarayonlarini tashkil etish, shu jumladan, kitoblarni qo'lyozma shaklida ko'paytirish va kitob mahzanlari – kutubxonalar tashkil etish sohasida to'plagan boy tajribasi Turonzamin hududida kitobat ishining turli sohalari vujudga kelishi va keyingi davrlarda jadal rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. G'arbdagi qo'shnilar (Midiya, Eron, Bobil, Assiriya, Misr) bilan yaqin madaniy aloqalar, ular orqali qadimgi Turonzaminga oromiy yozuvining kirib kelishi bu erda solnomalar tuzish, yirik va muhim hodisalar, istilochilik yurishlari, muhim tarixiy faktlarni yozma qayd etish an'analarining vujudga kelishini belgilab berdi. Podsholarning dastlabki yozma hujjatlar mahzanlarida xalq og'zaki ijodining yuqorida zikr etilgan ilk namunalari saqlanar edi. Ahomaniylar saltanati parchalanib, Xorazm, Parfiya, Baqtriya, Sug'd, Farg'ona va Isfijobda mustaqil davlatlar tashkil topganidan so'ng ularda yozma hujjatlar, davlat farmonlari, og'zaki ijodning boshqa namunalarini saqlash an'anasi qabul qilindi va davom ettirildi. Dastlab yozma hujjatlar mazkur davlatlar podsholarining xazinalarida tilla yombilari, boshqa qimmatbaho metall va toshlar hamda zeb-ziynatlar bilan yonma-yon saqlanar edi. Asta-sekin g'azna ajralib chiqdi va yozma hujjatlar bilan kitoblarni alohida tashkil etilgan mahzanlarda, ya'ni kutubxonalarda saqlash an'anasi vujudga keldi.

Yozma hujjatlar va kitoblarni saqlashni tashkil etishning Midiya orqali, Assiriya-Bobil madaniyati vorislaridan o'zlashtirilgan mazkur Old Osiyocha an'anasi Turonda kutubxonalar tashkil etishning sof yunoncha an'anasi bilan tabiiy ravishda qo'shnichilik qildi va unga qo'shilib ketdi. Masalan, Panj daryosining (Yunon-Baqtriyaning sharqidagi Badaxshon viloyati) chap qirg'og'ida joylashgan, Baqtriyada Makedoniyalik Iskandar

bo'lib turgan vaqtda asos solingan qadimgi Oyxonim shahrida arxeologlar hukmdorning saroyi, aslahaxona, ibodatxonalar, mahkamalarning binolari bilan bir qatorda kutubxona binosini ham topdilar. Mazkur kutubxona fondi talon-toroj qilingan edi. Arxeologlar faqat uslubi Platonning dialoglari va Aristotelning «Metafizika»siga yaqin bo'lgan, dialog shaklida yozilgan falsafiy asar bilan she'riy uslubda, qadimgi yunon tilida yozilgan dramatik asar matni bitilgan papirus qoldiqlarini topishga muvaffaq bo'ldilar[217].

Shunday qilib, Turonzaminda har xil ahamiyat va xususiyatga ega kutubxonalar va yozma yodgorliklarning mahzanlari faoliyat ko'rsatgan dastlabki davrdanoq ularning turlari farqlana boshladi. O'z ahamiyatiga ko'ra, kutubxonalarning birinchi tipiga podsho sulolalarining saroy (mohiyat e'tibori bilan - davlat) ganja - g'aznalari mansub bo'lib, ular qonunlar, davlat farmonlari va hujjatlari, og'zaki ijod asarlari va kitoblarni o'z ichiga oladi hamda arxiv va kutubxona vazifalarini bajaradi. Vaqt o'tib, ularda davlat ahamiyatiga molik hujjatlar va moliya hujjatlari yopiq arxivlarga, kitob maxzanlari esa – kutubxonalarga ajratiladi. Bunday saroy kutubxonalarini tashkil qilish miloddan avvalgi II-I asrlardan boshlab qadimgi Turon davlatlarida odat tusiga kirdi va an'anaga aylandi. Qadimiyat davrida bunday kutubxonalardagi yozma asarlar fondining tarkibiga zardushtiylarning muqaddas kitobi – «Avesto»ning turli qismlari va unga yozilgan izohlar (Zend-»Avesto»), sulolalar tarixi, solnomalar kirar edi. Ilk o'rta asrlarga kelib fond sanskrit (qadimgi Hindistonning adabiy tili), yunon va lotin tillaridan tarjima qilingan asarlar, falsafa, tibbiyot, farmakologiya, geografiya fanlariga oid va adabiy-badiiy yo'nalishdagi asarlar bilan boyidi.

Qadimiyat va ilk o'rta asrlarda Turonzaminda yunoncha tarzda jamoaviy foydalanishga mo'ljallangan kitoblar jamlangan kutubxonalar o'z ahamiyatiga ko'ra ikkinchi tipga kiradi. Mazkur kutubxonalar asosan dunyoviy mazmundagi kitoblardan tuzilgan (qadimgi Oyxonim shahridan topilgan kutubxonaga o'xshash).

Turli diniy mazhablarning kitobxonalari (kitob omborlari) qadimiyat va ilk o'rta asrlarda Turonzaminda faoliyat ko'rsatgan kutubxonalarning uchinchi tipini tashkil etadi. Bular zardushtiylarning otashgohlari va boshqa ibodatxonalari bo'lib, ularning alohida xonalarida

[217] Qarang: Gafurov B.G. Tadjiki. Dushanbe, 1989. Kn. 2. – S. 347-348.

«Avesto» matnining alohida qismlari va parchalari hamda unga yozilgan izohlar saqlangan. Bular shuningdek, Kushon Baqtriyasi, Sug'd, Farg'ona va Toxaristondagi buddaviylarning ibodatxonalari (pagodalari) bo'lib, ularda buddaviylarning diniy-axloqiy, ma'naviy-tarbiyaviy, falsafiy va tibbiy mazmundagi kitoblari hamda diniy ibodatni ato etish bilan bog'liq matnlarning mahzanlari jamlangan. Moniychilar dini vakillarining ibodatxonalari ham diniy kitobxonalar jumlasiga mansub bo'lib, ular milodiy III asrdan boshlab Eron va Turonning barcha viloyatlarida barpo etilgan. An'anaga ko'ra, ibodatxonaning beshta majburiy xos xonalaridan bittasi moniychilarning muqaddas diniy kitoblarini saqlashga ajratilgan. Bular xristian dinining nestorianlik (nasroniy) mazhabi vakillari bo'lmish yunonlar milodiy V asrda diniy ta'qibdan qochib, Vizantiyadan Turonzamin hududiga kelganlaridan so'ng bu erda qurgan ibodatxonalarda jamlangan kitob mahzanlaridir.

Nihoyat, ilk o'rta asrlarda yashagan Xorazm, Baqtriya, Parfiya va Farg'ona olimlari va zardushtiylik dini arboblarining shaxsiy kutubxonalari (ularning mavjudligi haqida bilvosita ishoralar Beruniy asarida qayd etilgan[218]), buddaviy diniga mansub zohidlar, Turonzaminga Vizantiyadan ko'plab kitoblar olib kelgan xristian dinining nestorianlik mazhabiga mansub yunonlarning shaxsiy kitob mahzanlari qadimiyat va ilk o'rta asrlarda Turonzaminda faoliyat ko'rsatgan kutubxonalarning to'rtinchi tipini tashkil etadi.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda hukm surgan va Turonzamin hududini ham o'z ichiga olgan Ahomaniylar saltanatida «ganj» deb atalgan podsho saroy kutubxonalari faoliyat ko'rsatganligi haqida ma'lumotlar Tavrot (Ezdra kitobi, Esfir kitobi)da, qadimgi yunon tarixchilari Knid Ktesiyning «Eron tarixi», Diodorning «Tarixiy kutubxona», rimlik muallif Avl Gelliyning «Attika tunlari» asarlarida va boshqa shunga o'xshash qadimgi manbalarda uchraydi. Bunday kutubxonalar davlat g'aznasi, arxiv va kutubxona vazifalarini bajarar edi. Ular saltanatdagi ko'p sonli satrapliklarning[219] yirik shaharlarida, shu jumladan, Turonzaminda ham

[218] Qarang: Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. I-jild. T.: 1959. – 9, 18, 63-betlar.

[219] Satrapliklar – Ahomaniylar saltanatining satrap-hokimlar tomonidan boshqarilgan viloyatlari. Gerodotning fan tarixiga oid ma'lumotlariga qaraganda (Istoriya. T. III. – S. 89-94), Doro I hukmronligi davrida (miloddan avvalgi 522-486 yillarda) saltanat 20 ta satrapliklka bo'lingan. Shulardan to'rttasi Turonzamin hududida bo'lgan. Bular: XI – Kaspiy

faoliyat ko'rsatardi. Mazkur kitobxonalarda saqlangan teridan ishlangan o'ram shaklidagi alohida qadimgi kitoblarning nomlari ma'lum. Masalan, Tavrotda «Solnoma kitoblar» (yoki boshqa nomi «Xotira kitoblar») – podsholarning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi kitoblar tilga olinadi.

Knid Ktesiy (miloddan avvalgi V asr)ning ma'lumotlari ham qadimda Ahomaniylar saltanati podsholarining kutubxonalari faoliyat ko'rsatganligidan dalolat beruvchi ilk tarixiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'zining «Eron tarixi» asarida u mazkur asarni yaratish uchun «forslar o'z qonuniga binoan podsho pergamentlarida qayd etgan qadimgi voqea-hodisalarga taalluqli barcha holatlarni mufassal o'rganganligini» ko'rsatgan[220]. Taniqli turkman kitobshunosi, qadimgi Eron va Turon kitobat ishining bilimdoni Olmos Yazberdiev, podsholarning kutubxonalari masalasi yuzasidan ba'zi bir olimlar bilan bahsga kirishib, shunday deb qayd etadi: «Mazkur solnomalar bilan Ktesiyning tanishligiga shubha bildiruvchi olimlarning fikriga qo'shilgan taqdirimizda ham, uning o'sha davrda kutubxonalar mavjudligi haqidagi axborotini inkor eta olmaymiz. Ahomaniylar saltanati podsholarining saroyida 17 yil (miloddan avvalgi 415-398 yillarda) tabiblik qilib, nafaqat Artakserks II (miloddan avvalgi 405-358 yillar), balki undan oldin podsholik qilgan Doro II (miloddan avvalgi 425-405 yillar) davrida ham faoliyat ko'rsatib, u hatto mazkur kutubxonada saqlanuvchi kitoblardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan taqdirda ham, uni ko'rgan yoki u haqda eshitgan bo'lishi mumkin»[221].

Zardushtiy olimlar tomonidan milodiy III-IX asrlarda yaratilgan diniy, tarixiy, tarixiy-jug'rofiy mazmundagi kitoblarda qadimiyat va ilk o'rta asrlardagi kitobat madaniyatiga oid ko'plab qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Mazkur kitoblarda «Avesto» madaniy dunyosining ikki yirik qadimgi kutubxonalari – «Ganji Shapigon» va «Dizi Nipisht» juda ko'p tilga olingan. Qadimgi fors tilidan o'girganda, kutubxonalarning nomlari «Shapigon xazinasi» va «Bitiklar uyi» yoki «Bitiklar qal'asi»

---

dengizi qirg'og'i yoqalab yashagan ko'chmanchi qabilalar, XII – Baqtriya, XV – saklar, XVI – Xorazm, Sug'd va Parfiya. Ular ham, boshqa mintaqalardagi satrapliklar singari, Ahomaniylar saltanati podsholarining g'aznasiga belgilangan hajmda soliq to'laganlar.

[220] Dandamaev M.A. Iran pri pervo`x Axemenidax (VI v. do n.e.). M.: 1963. – S. 123.

[221] Yazberdiev A. Knijnoe delo v drevney Srednev Azii (doislamskiy period). Ashgabat, O`lo`m, 1995. – S. 269.

degan ma'nolarni bildiradi. Zardushtiylarning manbalarida keltirilgan mazkur kutubxonalar haqidagi ma'lumotlarni ko'pgina taniqli olimlar sharhlaganlar. Jumladan, yirik «Avesto»shunos olim, diniy e'tiqodiga ko'ra zardushtiy bo'lgan J.J. Modi «Avesto»ning to'liq matni sosoniylar podshosi Shopur I (242-272 yillar) tomonidan tiklanishi va «Ganji Shopigon»da saqlanishi haqida so'z yuritib, mazkur kutubxonani podshoning Shopigondagi kutubxonasi deb ataydi[222]. Boshqa bir o'rinda[223] esa u «Avesto»ning qadimgi qo'lyozmalari xuddi o'sha «Ganji Shopigon»da va podshoning Istahr shahridagi (boshqa bir nomi – Taxti Jamshid, yunonlar bu shaharni Persepol, ya'ni forslar shahri deb atagan) arxivida saqlanganligini qayd etadi. Podshoning mazkur arxividan keyinchalik boshqa bir kutubxona ajralib chiqadi. Qadimgi manbalarda mazkur kutubxona «Dizi Nipisht» deb ataladi. «Bu ikki yirik kutubxona, - deb qayd etadi J.J.Modi, - Britaniya muzeyi kutubxonasi va Oksford universitetining Bodlean kutubxonasi hozirgi Angliya uchun qanday ahamiyatga ega bo'lsa, qadimgi Eron uchun ham shunday ahamiyatga ega edi»[224].

«Dizi Nipisht» kutubxonasining joylashgan o'rni yozma manbalarning ma'lumotlari va bizgacha etib kelgan kutubxona xarobalarining qoldiqlariga ko'ra aniq ma'lum. U G'arbiy Eronda, Istahr shahrining yaqinida joylashgan. «Ganji Shopigon» kutubxonasining joylashgan o'rni masalasida olimlar yakdil emaslar. J.J.Modi, o'rta fors tilida yozilgan «Shahristonxoi Eron» – «Eron shaharlari» (milodiy VI asr) tarixiy manbasida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, «Ganji Shopigon» kutubxonasi Samarqanddagi zardushtiylar ibodatxonasida saqlangan, degan fikrni ilgari suradi[225]. I.Markvart[226] va I.S.Braginskiyning[227] fikriga ko'ra, mazkur kutubxona Urmiya ko'lining yaqini (G'arbiy Eron)dagi Shiza shahri ibodatxonasida joylashgan. Ammo, bu ikki kutubxona

[222] Modi J.J. The antiquity of the Avesta // JBBRAS. 1895-1897. Vol. 19. – P. 271.

[223] Modi J.J. Alexander the great and the destruction of the ancient Literature of the Persess at his Parsees at his hands. – In: Oriental conference papers. Papers read at the Oriental conferences Held in India. Vol. III. Bombay. 1932.

[224] Ibid. – P. 102.

[225] Ibid. – P. 64-65.

[226] Markwart I. Catologue or the Provicial Capitals of Eran Jahr. – P. 108.

[227] Braginskiy I.S. Iz istorii tadjikskoy i persidskoy literaturo'. Izbranno'e trudo'. M.: Nauka, 1972. – S. 82.

qaerda joylashganligidan qat'i nazar, biz uchun eng muhimi shundaki, mazkur kutubxonalarda «Avesto» to'liq matnining eng qadimgi ro'yxatlari (qo'lyozmalari), zardushtiylarning mazkur muqaddas kitobiga yozilgan sharhlar («Zend-»Avesto»»)ning asl nusxalari, Ahomaniylar sulolasiga mansub podsholarning solnomalari, zardushtiylarning boshqa diniy kitoblari saqlangan. Bu kitoblarning hammasi forsiygo'y va turkiygo'y «Avesto» madaniy dunyosining ilk kitoblari va umumiy mulki hisoblanadi.

Savollar va topshiriqlar:

1. Qadimiyat va ilk o'rta asrlar O'zbekiston kutubxonalari turlari.

8-§. Turonzaminda qog'oz ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Qog'oz ishlab chiqarishning paydo bo'lishi dunyo madaniyatining oqibatidagi taraqqiyotda qadim va o'rta asrlarda suratli ideografik shakllardan alfavitlargacha turli-tuman yozuvlarning kashf etilishi kabi hodisa bilan bir qatorda turadi. Qog'oz ishlashni o'z ahamiyatiga ko'ra to'qimachilik, poroh, qiblanamo, qo'l tegirmon, suv tegirmon, soat, yog'ochga o'yib tushirilgan qoliplar vositasida kitob nusxalash, erkin surila oladigan yog'ochdan ishlangan yo'nma harf shakllari va matbaa kitob bosish kabi olamshumul kashfiyotlar bilan qiyos qilgulikdir.

Qog'oz ayni yozuv ashyosi, madaniyat va kitobat belgisi, ikki ming yildan ortiq vaqt davomida insoniyat ma'naviy dunyosining rang-barang ko'rinishlarini qayd etish vositasi sifatida paydo bo'lganligi shubhadan holi tarixiy hodisadir.

Qog'ozning tarixiy vatani Xitoy deb hisoblanadi. Uning kashf etilgan vaqti haqida fanda aniq ma'lumot yo'q. Kim kashf etgani ham noma'lum. Lekin xitoy manbalarining xabar berishicha, ipak tolalarining to'pini suvda qaynatib, hosil bo'lgan bo'tqani qattiq tekis yuzali taxtachaga yupqa surtish, quritilgan varaqalarni bosoq yordamida siqish va chetlarini qirqib tekislash yordamida qog'oz yoki unga o'xshash yozuv ashyosi miloddan avvalgi so'nggi asrlardayoq yasalgan.[228]

[228]Istrin V.A. Vozniknovenie i razvitie pisma. M.: Nauka. – 1965. S. 177. Qiyoslang: Fotiev S.A. o'z kitobiga turli mamlakatlarda qog'oz ishlab chiqarish tarixi va texnologiyasi bo'yicha kirish hikoyasi yozar ekan, bunday deydi: «Miloddan avvalgi V asrga qadar Xitoyda yo-

Qog'oz haqida eng birinchi yozma ma'lumot Xitoy manbalarida milodiy 12 yiliga to'g'ri keladi.[229] Uning kitobat ishida qo'llanishi xronologik jihatdan shu vaqtga yaqin bo'lishi kerak. Jumladan, milodiy 76 yilida kitob qog'ozga yozilgani haqida ma'lumot bor.[230]

Shimoli-Sharqiy Xitoyda Etszinaxe daryosi bo'yida joylashgan Xan podsholar sulolasi davriga mansub arxeologik yodgorliklarni qazish davomida yozuv bitilgan qog'oz parchalari topilgan edi. Ularda yil, vaqt belgilari bo'lib, eng qadimgi sana 93 yil, eng so'nggi sana esa 98 yil. Mazkur qog'ozni o'simlikshunoslar tekshirib, uning asosini chindan ham o'simlik tolalari tashkil etadi, deb xulosa qildilar.[231] Xara-Xoto yaqinidagi Edzingol qadimgi qishloq xarobalarini arxeologik qazish chog'ida bir parcha qog'oz bilan birga topilgan ipak mato o'rovlari va yog'och taxtachalardagi yozuvlarda ham ular bitilgan sanalar milodiy 94-98 yillari ekanligi aniqlandi. Bu va boshqa topilmalarga asoslanib Xitoy arxeologi Lao Kan Edzingol qog'ozining ishlab chiqarilgan vaqti 98 yildan kech emas, deb xulosa qilgan.[232] Arxeologik qatlamlarning buzilmay saqlangani ham ular orasiga qog'ozning tasodifan tushib qolishi mumkinligini mustasno qiladi. Demak, Edzingol bitiklari uchun ishlatilgan qog'oz milodiy birinchi asrning 2-yarmida ishlab chiqarilgan.

Turonzaminda qog'oz paydo bo'lishining aniq sanasi, qog'oz ishlab chiqarishning dastlabki bosqichi va rivojlanish yo'llari haligacha uzil-kesil ta'riflab berilgan emas. Bu haqdagi tadqiqotlar oz va muayyan aniq tarixiy manbalarga suyanmagan. Bir so'z bilan aytganda Turon qog'oz tarixi hozirga qadar etarli o'rganilmay qolmoqda. Qog'oz tarixi va ishlab

---

yoz ashyosi sifatida bambuk taxtachalari ishlatilgan. Keyinroq ommaviy qo'llash uchun qimmatlik qiladigan ashyo-loklangan ipak matodan foydalanilgan. Miloddan avvalgi II-I asrlarda ipak mato parchalari keng qo'llanilgan. Shu parchalarni taxta yuzasida bosoqlab namixushk holdagi namatsimon mo'rt, quriganda qog'ozsimon holga keluvchi ashyo olingan. Bu endi nisbatan arzon tushgan va keyingi davr qog'ozlarining ilk ajdodi bo'lgan». - Qarang: Fotiev S.A. Texnologiya bumagi. T. I. – M., Goslesmexizdat. – 1933. S.11.

[230] Qarang: Knigovedenie. Entsiklopedicheskiy slovar. M.: Sovetskaya entsiklopediya. – 1982. S. 94.

[231] O'sha erda.

[232] Qarang: Yuan-Xan-tsin. Vozniknovenie i razvitie proizvodstva bumagi v Kitae(G'G'Voproso' istorii estestvoznaniya i texniki. Vo'p.2. M., 1956. S. 199.

[233] Carter T.F. The invention of printing in China and its spead westward. – New York, - 1925. S.

chiqarish texnologiyasini maxsus o'rgangan tadqiqotchi N.N.Xabibullaev yozishicha, «qog'oz ishlab chiqarishning O'rta Osiyoda vujudga kelishi masalasi hamon aniqlangan emas. Bu sohada tadqiqotchilarning fikri hech bir-biriga yaqin kelmaydi, mazkur masala hali qayta-qayta sinchiklab o'rganilishi zarur»[233].

Yirik sharqshunos, Turonzamin xalqlari tarixi asl manbalarining chuqur bilimdoni, professor A.A.Semyonov qog'oz tarixiga maxsus bag'ishlangan ilmiy ishida Samarqand va uning atroflarida arab istilosidan ancha muddat avval qog'oz ishlab chiqarish ishi amal qilgan va bu shaharda qadimdan yuqori sifatli qog'ozsozlik markazi bo'lgan, deb ilmiy faraz bildirgan. Jumladan, u bunday yozadi: «...Samarqand azaldan ipakdan ajoyib qog'oz bilan ishlash bo'yicha mashhur bo'lgan. Samarqand qog'oz fabrikalari 650-651 yillardayoq - arablar Xuroson va O'rta Osiyoni bosib olishga kirishgan dastlabki bosqichdayoq ma'lum bo'lgan... Aftidan, Arab xalifaligi, so'ngroq esa butun Ovrupo bo'yicha qog'oz ishlab chiqarish paydo bo'lishi Samarqand qog'ozchiligini o'zlashtirish orqali yuzaga kelgan. Har holda, Samarqand qog'ozining yuksak sifati unga shuhrat keltirdi, keyingi asrlarda ham bu ish yuksak darajada amalga oshirib kelingan. X asrga oid fors manbasi bergan ma'lumotga ko'ra Samarqand qog'ozi dunyoning turli mamlakatlariga olib ketilardi. XI asrda esa fors shoirlari, aftidan, o'sha vaqtda mashhur bo'lgan Samarqand qog'oz ustaxonalarini o'z she'rlarida yuksak ta'riflaganlar»[234].

Xitoy tarixnavisligida II asrda Shinjon (Sharqiy Turkiston)ga qog'oz kirib kelgani va V asrdayoq Turkiston xalqlari orasida qog'oz keng ma'lum edi, degan fikr etakchi bo'lib qolmoqda.[235]

Tarixiy manbalar guvohlik berishicha, Xitoy xalqining qog'oz

[233]Xabibullaev N.N. O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarish tarixi. Feodalizm davri. Toshkent, Fan, 1992. – 6-bet.

[234]Semenov A.A. O sredneaziatskoy bumage (Sorta sredneaziatskoy bumagi, ee proizvodstvo i sposobo` okraski). – Izvestiya otdeleniya obhestvenno`x nauk AN Tadjikskoy SSR. Dushanbe, 1963, №1(32). – S. 3.

[235]Chjou I-lyan. Bumaga i knigopechatanie – velikiy vklad Kitaya v mirovuyu sivilizatsiyu. – V kn.: O nauchno-texnicheskix izobreteniyax i o deyatelyax nauki i texniki v Kitae. Sb statey pod red. Li Guan-bi i Szin Szyun-yuya. Izdatelstvo San lyan shudyan. Pekin. 1955. S. 1-20 (Na kitayskom yazo`ke); Kukushkin K.V. Interesnaya kniga po istorii kitayskoy kulturo`G`G`Vestnik istorii mirovoy kulturo`. M.: BSE, 1957, №2. – S. 169 taqrizidan iqtibos olindi.

ixtiro qilish kabi buyuk kashfiyoti mevasidan Turonzaminda birinchi bo'lib sug'dlar bahramand bo'lishgan. Xitoy qog'oz varaqlari madaniy hayotning ajralmas unsuriga aylana borgan sari, qog'oz ishlab chiqarishning tobora kengayib borgani sari qog'ozdan foydalanish dastlab Buyuk ipak yo'li bo'ylab chin ma`nodagi infrastrukturaga aylangan sug'd savdo qishloqlarida (savdo faktoriyalarida), keyinchalik Turonning barcha mintaqalarida odatiy holga aylandi. Masalan, Sharqiy Turkistonda savdogarchilik qilib turg'un bo'lib qolgan bir guruh sug'dlar tomonidan ularning Ona Vatani Sug'dga, xususan, Samarqand va boshqa shaharlardagi qarindoshlariga yozilgan, 312-317 yillarda jo'natilgan 9 dona sug'dcha maktub (bu maktublar fanda «Eski sug'd maktublari» deyiladi) ayni mana shu kabi ilk davr xitoy qog'ozlariga yozilgan. Demak, aytish mumkinki, samarqandliklar va Buxoro ahli III asrdayoq qog'ozni bilishgan. Qolaversa, Sharqiy Turkistonda XX asr boshlarida o'tkazilgan arxeologik qazish ishlari davomida II-VIII asrlarga oid ko'plab xatlar, hujjatlar, qog'ozdan qilingan kitoblar va ularning parchalari, muqova parchalari kabilar topilgan.1 Bu hol Xitoy qog'ozi milodiy hisobdagi dastlabki asrlardayoq (II-III) Xitoydan tashqariga tarqala boshlaganligidan dalolat beradi.

Ehtimolki, Koreya bilan bir qatorda Sug'd va Baqtriya yurtlari xitoy qog'ozi tashqi savdo bozoriga aylangan. Arxeologlar tomonidan Kucha shahri xarobazorlarida yaxlit charm muqovalar topilgan. Ular manixey diniy kitoblar muqovalari bo'lib, milodiy IV asrga oid deb baholangan. Ma'lumki, Sharqiy va G'arbiy Turkistondagi manixey e'tiqodi jamoalarida IV asrdayoq kitob ishlab chiqarishda qog'ozdan foydalanilgan edi.

Zarafshon daryosining yuqori oqimida joylashgan Qalai Mug' nomli ilk o'rta asr qasri xarobasidan 1932-1933 yillarda 80 ga yaqin sug'dcha hujjatlar jamidan iborat Sug'd podsho va amaldorlarining arxivi tarkibiga kirgan hujjatlarning 22 tasi qog'ozga yozilgan (qolganlari charm, yog'och kabi materiallarda). Bu hol VII asr oxiri - VIII asr boshlarida Sug'd davlat boshqaruvi sohasida qog'ozdan keng foydalanilganini ko'rsatadi. Xususan, Panjikent hokimlari Chakin Chur Bilga (700-708), Devashtich (708-722), Sug'd podshosi Tarxun (700-710), Go'rak (710-738 yillar) davrlarida qog'oz boshqa yozuv materiallari qatoridan mustahkam o'rin egallagan edi. Mug' qasri hujjatlaridan A-5 raqamli matnda Devashtich

saroyining turli xil harajatlari ro'yxati aks etgan. Sarf qilingan pul draxma deb atalgan. Bu kumush pul birligi bo'lib, dastlabki o'lchami 4,25 g. kumushga teng yurgan. Shu pul bilan hujjatda ta`kidlanishicha, qog'oz uchun va ipak mato uchun 8 draxma berilgan.[236]

Demak, VII-VIII asr boshlarida Samarqand va Buxoroda qog'oz bozori bo'lib, unda nafaqat Xitoydan keltirilgan, balki shu erda ishlangan qog'oz ham savdoga chiqarilgan.

Sug'dlar tomonidan xitoy qog'oz ishlab chiqarish usuli to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirilgani hech qanday shubha uyg'otmaydi. Bu o'zlashtirish, bir tomondan, xalqlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalar doirasi orqali ishonchli dalillansa, ikkinchi tomondan, Samarqand va Buxoroda qog'oz ishlatilishi an'anasining nihoyat uzoq tarixga egaligi bilan tasdiqlanadi. Qolaversa, Turkiston xalqlarining qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi xitoy texnologiyasining yo aynan o'zi kabi yoki shu usulning biroz takomillashgan ko'rinishida bo'lib kelgan.

Turon ustalari qog'oz ishlab chiqarishning xitoycha usulini qo'llab, uni rivojlantirib kelgani haqida rus sayyohi, O'rta va Markaziy Osiyoning tadqiqotchisi A.P.Fedchenko yozib qoldirgan guvohlik juda qiziqarli. A.P.Fedchenko XIX asrning so'nggi choragida Qo'qonda bo'lib, shaharning Muyimuborak darvozasidan tashqariga chiqishda qurilgan qog'oz ustaxonalarini ko'rgan. Olgan taassurotlarini u shunday yozadi: «Men tasodifan qog'oz ishlab chiqarishning xitoycha usuli bilan tanishdim. Qo'qonda Objuvozni (qog'oz masallig'ini maydalash, ezish uchun foydalanilgan suv tegirmon - E.O.) ko'rar ekanman, uning xitoyda qog'oz tayyorlash bilan aynan o'xshashligi meni hayratga soldi»[237]. A.P.Fedchenkoning bu kuzatuvini izohlar ekan, prof. A.A.Semyonov shunday deydi: «...Bu ishlab chiqarish o'z ildizlari bilan islomga qadar xitoyliklar usuliga borib taqaladi. Lekin u so'nggi davrlargacha qog'oz tayyorlashning xitoy usuli xususiyatlarini saqlab kelgan... Shu sababli ajablanarli eri yo'qki, O'rta Osiyo ustalari qog'oz ishlab chiqarishda xitoy

---

[236]Bogolyubov M.N., Smirnova O.I. Xozyaystvenno`e dokumento`. Chtenie, perevod i kommentariiG`Sogdiyskie dokumento` s goro` Mug. Vo`p. 3. M.: Izd-vo Vostochnoy literaturo`, 1963. – S. 53; Ishoqov M.M. Unutilgan podsholikdan xatlar. Toshkent, Fan, 1992. – 55 bet.

[237]Fedchenko A.P. Obi-djuvaz – pischebumajnaya fabrika v Kokande. – V kn.: «Russkiy Turkestan», vo`p. II, M., 1972. Shu muallif: Puteshestvie v Turkestan. Vo`p. 7. T. I., ch. II. O Kokandskom xanstve. SPb.-M., 1875. S. 50.

an'analari va ko'nikma shakllarini saqlab avaylaydilar. Qo'lda bajariladigan ishlarning ibtidoiy va qadimiy usullaridan qat'i nazar ular qog'oz sifatini shu qadar yuksak darajaga olib chiqdilarki, hatto hozirgi fabrika qog'oz ishlab chiqarishi bu sifat talabiga javob berolmaydi. Qog'oz ishlab chiqarish usuli va ko'nikmalari yuz yillar davomida avloddan avlodga o'tib hunarmandlarning oilaviy tirikchilik vositasi bo'lib kelgan. Haq gapni aytadigan bo'lsak, Qo'qon ustalari eng qadimiy texnologiyaning ayrim jihatlarini unutishgan. Lekin qog'oz bo'tqasiga ishlov berish, undan qog'oz varaqlari olish yo'llari o'zgarishsiz qolavergan»[238].

Turonzaminda qog'oz tayyorlash va ishlatishning qadimiy ekanligini XI asrga kelib amalda unutila boshlagan sug'd tilidagi «kog'ziak» so'zi ham isbotlab turibdi. Bu hozirgi tilimizdagi qog'oz so'zining qadimiy ko'rinishi edi. Qog'oz so'zi, shunday qilib, sug'd tilidan tojik, fors, o'zbek va yana ko'pgina tillarga kirgan. Arab tilida bu so'z «kag'id» shaklida mavjuddir.

Sug'd, Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Qushon saltanati arxeologiyasi va tarixi bo'yicha yangi tadqiqotlar, Turon qadimiy xalqlari tillari va yozuvlari bo'yicha manbalar taxlili hamda qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha ilmiy adabiyotda bayon etilgan nuqtai nazarlar shuni ko'rsatadiki, o'lkamizda dastlabki qog'oz ishlab chiqarish ilk o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Yozuv ashyosi sifatida qog'oz sug'd madaniyatiga III asrdan kira boshlagan. Bu davr Xitoyda qog'oz ayni ko'p miqdorlarda chiqarila boshlagan davr edi. Qog'oz ishlash Shinjonga ham shu vaqtda yoyilgan. Qog'oz ishlab chiqarishni sug'dlar bevosita xitoyliklardan o'zlashtirishgan. Qog'ozning ilk o'rta asr Turonda ham bozor orqali, ham ishlab chiqarish va texnologiyasining tarqalishi orqali yoyilishi jamiyatning qog'ozga ehtiyojlari, Xitoy bilan savdo va madaniy sohalardagi aloqalarning izchilligi bilan bog'liq holda ro'y berdi. Bu masalada hal qiluvchi tarixiy mavqeini sug'dlar va turkiy xalqlar o'ynashgan edi.

Arab istilosidan keyingi Turon xalqlari ijtimoiy-madaniy hayoti mazmunining sifat o'zgarishi tufayli qog'ozga ehtiyoj kuchayib ketdi. Qog'oz ishlab chiqarish Samarqanddan Turonzaminning boshqa shaharlariga yoyila boshladi. Qog'oz ustaxonalari birinchi galda madaniy hayot qaynagan shaharlarda paydo bo'la boshladi. IX-XIX asrlar orasida

[238] O'sha erda. - S. 15.

qog'oz ustaxonalari Balx, Marv, Termiz, Gurganj, Xiva, Toshkent kabi shaharlarda paydo bo'ldi. Turli vaqtda bu ish shu shaharlarda turli darajalarga etdi, goh yuksaldi, goh so'ndi, lekin qog'oz tayyorlash an'anasi saqlanib keldi. Masalan, Buxoroda qog'oz ustaxonasi 1252 yilda paydo bo'ldi. Hirotda qog'oz ishlab chiqarish XV asrda yuksak darajada edi.[239]

XVIII asrning boshlarida Qo'qonda dastlabki qog'oz ustaxonalari paydo bo'lgan. Ularni Samarqanddan Farg'ona vodiysiga feodal nizolar, xalqni azob-uqubatlarga solgan bitmas-tuganmas jabr-zulm, bosqinlar tufayli qochib kelib joylashgan hunarmandlar tashkil qilishgan edi. XVIII asr oxirida Samarqand va Buxoroda qog'oz ishlab chiqarish tushkunlikka uchragach, Turonzaminda uning markazi Qo'qon bo'lib qoldi. XIX asr davomida va XX asrning boshlarida Qo'qon Turkiston o'lkasining hamma joylariga qog'oz etkazib berar, Qo'qon qog'ozi chet ellarga ham chaqirilar edi. Bu haqda A.A.Semyonov bunday deb yozadi: «Samarqand va Buxoro singari qadimgi markazlarda qog'oz ishlab chiqarish mutlaqo to'xtab qolganidan so'ng Xitoydan Orol dengizigacha sobiq rus Turkistonning barcha markazlarini qog'oz bilan ta'minlashda Qo'qon yakka hokimlik qila boshladi. (Qo'qon qog'ozi Qashqarga, hatto Shimoliy Afg'onistonga ham olib chiqilgan)»[240] .

Kitobatchilikda qog'ozning ishlatilishi bilan arab yozuvining barcha bezak va zeb hamda naqsh uchun qo'llash imkoniyatlarini to'la-to'kis ishga solish mumkin bo'ldi. Natijada Turonzaminda qo'lyozmalarni o'ziga xos bezash san'ati estetik qoidalari sistemasi, kitob ko'chirish, uni kitobxonalarda ustalar jamoasi mehnati orqali ko'paytirish bo'yicha butun bir usullar va uslublar majmuasi yuzaga keldi. Bularning barchasiga asosiy sabab kitobatchilikda qo'llangan qog'ozning tabiiy xususiyatlarida edi. Qog'ozning tarkibiy tuzilishi, uning yupqa varaqlangan shakli, tekis yuzasi yozuv jarayoni uchun va matnni o'qish uchun, zarur axborotni aks yozma ravishda saqlash uchun, qolaversa, uni zamon va makon osha uzatish uchun shu qadar qulaylik tug'dirdiki, buning ahamiyatini bir so'z bilan ifodalash qiyin.

Butun Turonzaminga va undan Yaqin Sharq hamda Evropaga qog'oz ishlab chiqarishning Samarqanddan yoyilishi ulkan tarixiy hodisa bo'ldi va dunyo kitobat madaniyatida burilish ahamiyatiga ega bo'ldi. Bu

[239]O'sha erda. – S. 8.

[240]O'sha erda. – S. 15.

hol qo'lyozma kitoblari ishlab chiqarishning keng imkoniyatlarini ochdi. Mahalliy kitob ko'chirish, kitob yig'ish ishining yangi, arab yozuviga asoslangan bosqichini boshlab berdi. Qog'oz ishlab chiqarish bilan bog'liq holda Turonzaminning kitobat tarixida yangi davr boshlandi. Bir me'yorda va sobit tarzda qog'oz ishlab chiqarishning amal qilishi Turon xalqlari madaniyatida arab yozuvining mustahkam o'rnashuviga xizmat qilgan omillar qatorida eng muhimlaridan biri bo'lib qoldi.

Qog'oz ishlab chiqarish paydo bo'lishining kitobat ishidagi, qolaversa, yana ham kengroq ma'noda, Turon xalqlari madaniy yuksalishidagi beqiyos rolini baholash juda qiyin. Yozuv uchun qulay, charmga nisbatan arzon, lekin chidamlilikda undan qolishmaydigan qog'ozning ishlab chiqarilishi qo'lyozma kitoblar ko'chirish, kitob holiga keltirish, nusxalar ko'paytirish, saqlash, nihoyat, jamiyatda kitobning yoyilishining kengayishiga olib keldi. Qog'oz ishlab chiqarishning takomillashuvi o'z-o'zidan bosma usul bilan kitob tayyorlash uchun dastlabki asoslardan biri bo'ldi. Karl Marksning kitob chop etish «burjua taraqqiyotiga zamin bo'ldi», degan fikrini Turkiston orqali qog'oz ishlab chiqarish butun musulmon dunyosi bo'ylab yoyilishi o'rta asrlar va yangi zamon madaniyati taraqqiyoti uchun zamin bo'ldi, deb ko'chirsak xato bo'lmaydi. Oqibatda ayni qog'oz musulmon madaniyatining cho'qqiga ko'tarilishiga xizmat qildi. Ayniqsa, IX-XIII asrlardagi Turkiston madaniy yuksalishining misli ko'rilmagan darajasini qog'ozsiz tasavvur etib bo'lmas edi. XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Evropada qog'oz fabrikalarining paydo bo'lishi 1445 yili Evropa kitob chop etish ishi shakllanishi uchun ilk texnologik asosni yaratgan edi. Bu hodisa to'laligicha hozirgi zamon insoniyat madaniyatining asosiy tamal toshlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Savollar va topshiriqlar:

1. O'zbekistonda qog'oz ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlari haqida gapirib bering.

9-§. Arablar istilosi va qadimgi davrdan o'rta asrlarga o'tish jarayonida Turonzamin xalqlari yozuv madaniyati va kitobat an'analarining vorisiyligi masalalari

Arab istilochilari Eron (651) va Turon (722 yil)ni bosib olganlaridan

keyingi dastlabki yillarda zardushtiylik dunyosi xalqlarining ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti darajasi ancha yuqori ekanligiga duch keldilar. Bu daraja shahar va qishloq jamoalari hayotini tashkil etishning rivoj topgan ilk o'rta asr shakllari, ularning o'z-o'zini ijtimoiy boshqarishi, mazkur xalqlar ma'naviyatining o'ta yuqoriligi bilan izohlanardi. Xalqlarning diniy va mifologik ongi ularning zardushtiylik hayot tamoyillariga, axloqiy, ma'naviy, estetik, shuningdek, oilaviy-maishiy va turmush yo'l-yo'riqlariga sodiqligini taqozo etardi. Mazkur xalqlar umumiy madaniy darajasining yuqori bo'lishi asrlar mobaynida vujudga kelgan qudratli an'anaviy mifologiya, epik rivoyatlar bilan, xalq og'zaki ijodi asarlari, afsonaviy og'zaki va yozma tarix asarlari umumiy tizimining mazmunini tashkil etuvchi narsalar bilan belgilanardi.

Kitobat tarmoqlari xususida ham ilk o'rta asrlar uchun ancha rivojlangan darajani qayd etish mumkin. Deyarli har bir elatning o'z «milliy» yozuvi va o'z yozma yodgorliklari bo'lgan. Arablar istilosi arafasi va boshlanishi tarixiy davri uchun muayyan ma'noda fikr bildirilar ekan, unda gap zardushtiylik madaniy dunyosiga xos bo'lgan umumiy kitoblar repertuari[241] haqida ham borishi mumkin. Bu repertuar asosini zardushtiylar ma'naviy adabiyoti, chunonchi fanning tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, huquq sohalari, o'rta fors, xorazmiy, baqtriya, sug'd, shuningdek, yunon tillaridagi folklor va badiiy adabiyot namunalari, sanskrit va yunon tillaridan tarjima qilingan kitoblar, budda, manixey va xristian dinlari mazmunidagi qadimgi turkiy tildagi diniy asarlar tashkil etadi. (Ular haqida 6- paragrafda batafsil gapirib o'tilgan.)

Garchi kitoblar qadimgi davrlardan boshlab oldi-sotdi ob'ekti bo'lib kelgan bo'lsa ham, kitob mahsulotlari kam sonli bo'lganligidan kitob savdosi o'ta ibtidoiy shakllarda davom etardi. Zardushtiylar dunyosida kitoblarning muomalada bo'lishi va qo'shni mamlakatlar bilan kitob savdosi orqali kitob ayirboshlash odatda favqulodda, elitar xususiyatga ega edi va muntazam olib borilmasdi. Biroq qadimgi davrda va ilk o'rta asrlarda kitob savdosi, garchi kam hajmda bo'lsa ham, mavjudligi albatta muhim voqeadir.

Zardushtiylik madaniy dunyosining umumiy ma'naviy boyligi,

[241]«Kitoblar repertuari» (yoki «kitob repertuari») tushunchasi muayyan tarixiy vaqt mobaynida mazkur davlat yoki mamlakatlar guruhi hududida mavjud bo'lgan (nashr etilgan) yoki muomalada bo'lgan kitob nashrlari (yoki qo'lyozma kitoblar)ning butun jamini, ya'ni mavjud kitob savdosidagi kitob xillari va kutubxona fondini anglatadi.

«Avesto» kitobi, uning ayrim qismlari va parchalari zardushtiylarning ibodatxonalarida saqlangan. Moniychilar ibodatxonalarida beshta majburiy zallardan bittasi hamisha kitoblarga ajratilardi. Bunday kutubxonalarda asosan payg'ambar Monining muqaddas kitoblari, uning sharhlari va tarafdorlarining asarlari saqlanardi. Diniy kutubxonalar bilan bir qatorda dunyoviy kutubxonalar ham mavjud edi. Bular saroylardagi hujjatgohlar va hukmron sulolalarning maxsus kitob omborlari[242], boshqa badavlat shaxslarning kutubxonalari edi. O'rta asrlardagi narrativ (ta'riflangan) manbalarda eron, xorazmiy va sug'd olimlari va zardushtiy ruhoniylarning shaxsiy kutubxonalari ham bo'lganligi haqidagi dalillar mavjud[243] .

VII asr o'rtalarida sosoniylar sulolasi shohlarining eng yirik kutubxonasi Turonzaminga to'laligicha ko'chirib keltirilgan edi. Bu voqea 651 yilda arablar hujumi vaqtida so'nggi sosoniylar shohi Yozdigard III ning Marvga qochib ketishi paytida sodir bo'lgandi. Bu haqda V.V. Bartold tarixchi Ibn Tayfur ma'lumotlariga tayanib, quyidagilarni ma'lum qilgan: «Xurosondagi arab noiblarining ko'pchiligi qadam ranjida qilgan Marvda hali Ma'mun davriga qadar pahlaviycha qo'lyozmalar (ya'ni o'rta fors yoki pahlaviy tilida yozilgan qo'lyozma kitoblar. Bu til o'sha vaqtda Eronda qabul qilingan umumiy til edi – E.O.) kutubxonasi saqlanib qolgan edi. Mazkur qo'lyozmalar bu erga ...sosoniylar shohi bilan birgalikda kelib qolgan; qo'lyozmalarni bu erda hech bir to'siqsiz o'qish va ulardan ko'chirmalar olish mumkin edi; biron-bir cheklovchi choralar haqida hech narsa deyilmagan»[244] .

O'rta asrlarda arab yozuvida bitilgan eng nufuzli manbalardan biri bo'lmish an-Nodimning «Fixrist» asarida IX asrning astronomi Abu Ma'shar Ja'far ibn Muhammad ibn Umar al-Balxiyning (886 yilda vafot etgan) bizgacha etib kelmagan kitobidan parcha keltiriladi. Unda Erondagi ilk o'rta asr kutubxonasi to'g'risidagi qimmatli axborot mavjud. Parchada aytilishicha, X asrning o'rtalarida Isfaxon yaqinidagi Jey shaharchasida, chamasi arablarning Eronga qilgan hujumi arafasida yoki bu hujum vaqtida (651 yil) o'rab suvab tashlangan kutubxona

[242]Qarang: Bartold V.V. Xranenie dokumentov v gosudarstvax musulmanskogo VostokaG`G`Sochineniya. M., 1973. – T. 8. - S. 350.

[243]Qarang: Beruni. O'tgan avlodlardan qolgan yodgorliklarG`G`Tanlangan asarlar. T.1. T.,1957.

[244]Bartold V.V. Persidskaya shuubiyya i sovremennaya naukaG`G`Sochineniya. –M., 1975. – T.7. - C. 369.

topilgan. Kutubxonada oq terak (tuz) po'stlog'iga yozilgan ko'pgina qadimgi kitoblar bor bo'lib, ular ajdodlarimiz davridagi fanlarning barcha tarmoqlarini qamrab olgan va qadimgi fors yozuvi (aftidan, o'rta fors yozuvi) shakli bilan yozilgan[245] .

«Fixrist» muallifi o'zining nufuzli zamondoshi fikrlariga tayanib, uning bir hikoyasini keltiradi, unga ko'ra o'sha shaharchadagi boshqa bir binoning erto'lasidan 961 yilda boshqa kitoblar kollektsiyasini topishadi, bu kitoblar ham suvab yuborilgan bo'lib, oshlangan va maxsus tayyorlangan teri varaqlariga yozilgan edi, lekin ularni qanday o'qishni hech kim bilmasdi3. Yana biroz oldinroq, -an-Nodimning xabar berishicha, - 951 yilda Eron hukmdorlari Muayid va Rukn ad-Davlaning vaziri bo'lib xizmat qilgan Abu al-Fadl ibn al-Amid (971 yili vafot etgan) Isfaxondan yunon tilida yozilgan kitoblarni topgan. Ular maxsus qutilarga solinib, bino devori orasiga joylashtirilgan edi. An-Nodimning ma'lum qilishicha, bu kitoblarni al-Amid Bag'dodga yuborgan. Bu erda yunon tilini yaxshi bilgan Yuxanna al-Keys va boshqalar mazkur kitoblarni arab tiliga tarjima qilganlar. Keyinchalik bu kutubxonadagi ayrim kitoblarni an-Nodim o'z ustozi, shayx va olim Abu Sulaymon Muhammad ibn Bahromnikida (986 yili vafot etgan) ko'rgan. Kitobat madaniyati tarixchisi O.Yazberdiev devorlar orasiga qo'yib suvab yuborilgan kutubxonalarda o'rta eron tilida yozilgan kitoblar bilan bir qatorda yunon tilidagi kitoblar ham borligiga alohida e'tibor berib, ularning sosoniylar davrida ko'chirilganligi katta ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlab, shuni ko'rsatib o'tadiki, «bu kitoblar zardushtiylar manbalarida dastlabki sosoniy shohlar chet mamlakatlardan kitoblar to'plagani haqidagi axborotning to'g'riligini tasdiqlovchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu xildagi ma'lumotlar sosoniylar davrida ko'p miqdorda kitoblar mavjud bo'lganligiga shubha qoldirmaydi»[246].

Eron va Turon xalqlarining arab bosqinchilariga qarshi o'z ozodligi

[245]The Fixrist of an-Nadim. Vol. II. New-York-London, 1970.-S. 577.

[246]Sosoniylar davridagi devorlar orasiga qo'yib suvab yuborilgan kutubxonalar haqidagi ma'lumotlarni biz O.Ezberdievning quyidagi kitoblaridan olingan ma'lumotlar asosida tuzdik: Istoki pismennoy traditsii i knijnogo dela v Sredney Azii (istoriograficheskiy obzor). Bibliotechno-bibliograficheskoe i knijnoe delo v Turkmenistane: Sb. statey. - Ashxabad, 1988. – S. 66; Xosrov I Velikiy i knijnoe delo v Irane i Sredney Azii v VI v. // Известия АН ТССР. Серия общественных наук. – 1989. №5. –S. 28. Biz keltirgan faktlarga quyidagi manbadan batafsilroq qarang: The Fixrist of an-Nadim. Vol. II. S. 575-579, 958, 1041-1042, 1128.

va mustaqilligi uchun olib borgan qurolli kurashi shunchaki turli xalqlar, bosqinchilar va qarshilik ko'rsatuvchilar urushigina emas, shu bilan birga ikki xil diniy qarashga va madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlar to'qnashishi hamdir. Arablar istilosi jarayonidagi ayovsiz janglar vaqtida odatda hamisha asosan tinch aholi, lashkarlar, ayniqsa zardushtiylik vakillari qirilgan, shu bilan birga ko'pgina ibodatxonalar, xazina omborlari, yozma hujjatlar va kitoblar majmualari talon-taroj qilingan, mahalliy moddiy madaniyat yodgorliklari vahshiylarcha yo'q qilingan. Istilochilarning boshqa diniy e'tiqodlar, urf-odatlar va dunyoqarash ko'rinishlariga toqatsizligi o'sha vaqtlarda mavjud bo'lgan ko'p sonli yozuv yodgorliklariga bosqinchilarcha munosabatida ham o'z ifodasini topgan edi.

Bosqinchilar Eron va Turon xalqlarining mahalliy «milliy» yozuv tizimlarida bitilgan kitoblarining harfiy belgilarini o'z arab yozuviga qarama-qarshi qo'yishar, asarlarning o'zi esa islomga zid soxta diniy ta'limot deb hisoblanib, yoppasiga yo'q qilib yuborilar edi. Beruniy «O'tgan avlodlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida bu haqda quyidagicha guvohlik bergan: «Qutayba xorazmiylar yozuvini, ularning rivoyatlarini bilgan va xorazmiylarda mavjud bo'lgan fanlarni o'rgangan kishilarni yo'q qilgan va har qanday azob-qiynoqlarga duchor qilgan». Kitobda yana bunday deyilgan: «So'ngra, Qutayba ibn Muslim al-Baxiliy xorazmiylik xattotlarni yo'qotgan, din peshvolarini o'ldirgan, ularning kitoblari va o'ramlarini yoqib yuborgan, natijada xorazmliklar deyarli savodsiz bo'lib qolishgan va ular kerak bo'lgan barcha bilimlarni faqat xotiralarida saqlashga majbur bo'lishgan»[247].

Turonzamin xalqlari o'z kitob fondlarini amalda yangidan to'play boshlashlariga to'g'ri keldi va bu fond Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida yangi arab yozuvida bitilgan kitoblardan, turkistonlik va eronlik olimlar, shoirlar, faylasuflarning arab yozuvida ko'chirilgan, shuningdek, forsiy-doriy va turkiy tillarda yaratilgan asarlaridan, sanskrit, yunon, o'rta eron, suryoniy va nabatey tillaridan arabchaga tarjima qilingan qadimgi mualliflarning kitoblaridan tashkil topa boshladi.

Vaqt o'tishi bilan faqat Xorazm, Parfiya, Sug'd, Baqtriya va Farg'ona yozuvlarining o'zi iste'moldan siqib chiqarilib qolmay, shu bilan birga bu tarixiy-madaniy viloyatlarning qadimgi tillari ham ishlatilmay, o'lik tillarga aylanib qoldi. IX-X asrlarda Eron, Turon, Afg'oniston va

[247] Beruni, 1957. 18, 63-betlar.

Ozarbayjonning ulkan hududida til davrlarining almashinishi sodir bo'ldi. Ularda sekin-asta yangi eron tillari – forsiy, dariy, tojik va eski turkiy tillarga o'tish yuz berdi. Shu narsa shak-shubhasizki, zardushtiylik madaniy dunyosining so'nib borishi va Eron bilan Turon zardushtiy aholisining yangi islom diniga o'tish jarayoni ancha uzoq tarixiy muddatga cho'zildi. Vaqti-vaqti bilan unda sakrashlar yuz berdi, gohida bu jarayon asta-sekinlik bilan, ba'zan zo'ravonlik, ba'zan tinch yo'l bilan bordi. Bu xildagi mulohazalarni tasdiqlash uchun shunday tarixiy voqelikni keltirish mumkin: deyarli har bir Eron viloyatida arablar istilosidan keyin o'tgan uch asr mobaynida zardushtiylarning ibodatxonalarining faoliyati, ruhoniylarining aholi orasidagi ta'siri ma'lum darajada davom etib keldi1. Beruniyning bergan ma'lumotiga qaraganda, Turonzaminda ham X-XI asrlardayoq sug'diy va xorazmiy zardushtiylarining ibodatxonalari hali mavjud bo'lgan2. Zardushtiylikdan musulmonchilikka o'tish davrining dastlabki ikki asri mobaynida eski o'rta eron, xorazmiy, sug'diy, qadimgi turkiy adabiyotlar va kitoblar qoldiqlari, shuningdek, yangi yoki mahalliy arab yozuvidagi adabiyotlar va kitoblar tengma-keng mavjud bo'lib keldi[2483] . Shu bilan birga, mahalliy tillardagi kitoblar ham zardushtiylik, budda, moniychilar ilohiy, diniy-axloqiy, ma'naviy mazmundagi matnlarga hamda folklor va dunyoviy adabiyot matnlariga asoslangan edi. Avlodlarning bir necha bor almashinishi pirovard natijada zardushtiylar jamoalarining, zardushtiylik dinidagi kishilarning yo'q bo'lib ketishiga olib keldi. Oqibatda zardushtiylik mazmunidagi kitoblarning o'quvchilari ham qolmadi.

Turonzamin zardushtiylik madaniy olami va kitobat madaniyatidagi buzilish va o'zgarishlar kiritilish jarayonlariga bizning qarashlarimiz printsipial jihatdan ana shunday. Voqealarning borishini bu xilda tushunishga Eronning (Turonzamindan farqli o'laroq) kitobat ishidagi tarixiy voqealarni hisobga olgan holda tuzatishlar kiritish va chuqurlashtirish mumkin. G'arbiy Evropa olimlari o'z tadqiqotlarida ko'proq ularga tayanganlar. Masalan, E. Vest arablarning Eronga bostirib kirganidan keyingi uch asr mobaynida (VII asr o'rtalari – X asr o'rtalari) zardushtiylar kitoblari va boshqa kitoblarning ko'p miqdorda mavjud bo'lganligi va jamiyatda foydalanib kelinganligi, «Avesto»ning deyarli barcha qismlari o'rta eron tiliga qilingan tarjimasining «Denkard» yaratilgan vaqtlarda

[248]Qarang: Browne E.G., 1977. – S. 206, 175-284.

ham (IX asr) saqlanganligi sabablarini tahlil qilib, kitob repertuari asosiy o'zagining yo'qolib ketganligini arablar istilosi bilan bog'lab bo'lmaydi, degan xulosaga keladi. «Forslarning anchagina qismi o'zining qadimgi diniga amal qilishar ekan, ular o'z adabiyotini ham hatto bir necha asrlar mobaynida saqlab qolishga qodir edilar, - deb yozadi E. Vest, - biroq zardushtiylarning boshqa dinga o'tishi va qirib yuborilishi sababli Mazda tarafdorlari juda ozayib ketdi; so'ngra ular mo'g'ullarlarning vahshiylarcha hukmronligiga duch keldilar va tezda o'zlarining qadimgi adabiyotidan mahrum bo'ldilar, chunki undan har kuni diniy ruhda foydalanib bo'lmasdi. Shu boisdan kitoblarning yo'q bo'lib ketishiga qo'lyozmalarga bosqinchilar tomonidan putur etkazilishidan ko'ra ularni ko'chirish ishlariga e'tiborsizlik bilan qaralganligi ko'proq sabab bo'lgan»[249]. M.Boysning fikriga ko'ra ham ayni XIII asrda, Turon va Eronga mo'g'ullar bostirib kirgan davrda zardushtiylar adabiyoti qolgan qismi, shu jumladan, sosoniylar «Avesto»sining nusxasi ham (ayrim kitoblardan tashqari) batamom yo'q qilingan edi[250].

Yakka tartibdagi va ijtimoiy ishlab chiqarishni, ijtimoiy hayotni tashkil etishning yangi shakllariga o'tilishi va deyarli ikki yuz yil davom etgan musulmonlashtirish Turonzamin jamiyatining eng muhim tomonlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmas edi. X asr boshlariga kelib bu jamiyat VIII asr boshlaridagi jamiyatdan ancha farq qilar edi. Uning ijtimoiy tuzilishida, jamiyatni boshqarish institutlarida, xalqlarning madaniy hayoti va faoliyatida, fikrlash tarzida bir qator sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi. Yangi din aqidalarini qabul qilgan va tashqi tomondan islom qobig'iga o'ralgan Turon xalqlari ichki tomondan inson shaxsining mazmuni va ma'naviy o'zligini, uning etik, madaniy, axloqiy, ijtimoiy-psixologik va maishiy yo'l-yo'riqlarini saqlab qoldilar.

Xalqlarning qurolli qarshilik ko'rsatishini engish, genotsid yo'li bilan xalq ommasi orasidan uning eng bilimdon va o'qimishli qismini mahv etish, madaniyat yodgorliklarini yo'q qilish orqali bir necha avlodlar hayoti davomida aholining asosiy qismini islom diniga kiritish mumkin edi. Lekin jamiyatning ma'naviy tuzilishini yo'q qilib bo'lmasdi, chunki u ko'p asrlik an'anaviy xalq madaniyatiga asoslangan

[249] West E.W. Introduction. – In: Sacred Books of the East. Dehli, 1969. Vol. XL VII, pt. V.– S. 39.

[250] Qarang: Boyse M. Zoroastrians. Their Religions, Beliefs and Practices. – London, 1979. – S. 161.

va u bilan shaxsning ijtimoiylashuvi orqali bog'langan ediki, bu aslida bir vaqtlar zardushtiylik diniy tizimini vujudga keltirib, o'z navbatida bir yarim-ikki ming yil mobaynida xalq ommasiga juda katta ta'sir ko'rsatib keldi. Xalq madaniyati bilan zardushtiylikning xuddi ana shu birlashuvi va o'zaro bog'lanib ketishi diniy qarashlar tizimi sifatida jamiyatning ma'naviy tuzilishini, xalqlarning butun an'anaviy madaniyatiga madad berdi, qo'llab-quvvatladi. Turon jamiyati madaniy an'analar vorisiyligi ob'ektiv qonunlarining amal qilishi tufayli o'zining bu negizini, oilada shakllanadigan ijtimoiy ongini o'zgartira olmas edi. Zero, bu an'ana inson ongiga ona suti bilan birga singib, madaniyatni tashkil qiluvchi asosiy tabiiy vositalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham xalqlarning madaniy, diniy-axloqiy, ma'naviy va boshqa an'analarida ayniqsa sezilarli darajadagi kuchli uzilishlar sodir bo'lmadi. Bu erda gap faqat xalqlar madaniyatlari (aslida zardushtiylarcha madaniyatlar) an'analarining o'zgarishi va musulmon dini aqidalari tizimi bilan birlashuvi, ularning o'zaro maqbul sinkretizmi va yanada rivojlanishi haqidagina borishi mumkin. (Bu erda ijtimoiy ongning ijtimoiy omillar ta'siri ostida va vaqt o'tishi bilan o'zgarish xususiyati o'z kuchini ko'rsatadi.) Islom dinini joriy qilishning dastlabki ikki yuz yili mobaynida ro'y bergan xuddi shunday evolyutsion rivojlanish X asrga kelib Turon xalqlarining yangi, o'zgargan qiyofasini, uning yangi fikrlash tarzini (u o'ziga endi sinkretik an'anani meros qilib olgan edi), o'ziga eski va yangi madaniyat tarkibiy qismlarini singdirgan fikrlash tarzini belgilab bergan edi.

Aholining o'z kitob repertuaridan mahrum bo'lishi, yangi tillarga o'tishi, islom dinini qabul qilishi va arab yozuvining joriy etilishi ham yozma madaniyat va kitobat ishining an'analari, yozma asarlar yaratish va ularni ko'chirish an'analari, qoidalarining uzilib qolishiga sabab bo'lolmadi. Turon xalqlari arablar istilosi vaqtiga kelib o'ziga xos boy madaniyatga, betakror madaniy an'analarga ega bo'lganligi nihoyatda ijobiy va muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuning uchun ham Turonzamin xalqlarining fanning turli sohalarini, san'at turlari va adabiyotni,. kitobat ishi tarmoqlarini rivojlantirishdagi shundan keyingi yutuqlari o'sha davrlarda arab yozuvidan foydalanadigan musulmon dunyosi mamlakatlarining ilmiy, siyosiy va madaniy vorislik jarayoniga kirish bilan bir qatorda avvalgi davrlardagi o'z ilmiy va madaniy yutuqlariga ham asoslangan edi. Buning eng yaxshi isboti buyuk turonzaminlik al-

Xorazmiy (783-850), at-Termiziy (VIII-IX asrlar), al-Buxoriy (VIII-IX asrlar), al-Forobiy (873-950), Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980-1037) larning yaratgan asarlari bo'lib, ularning ijodiy faoliyati qadimgi Xorazm, Baqtriya, Sug'd, Isfijobning ilmiy va madaniy an'analarini davom ettirdi hamda boyitdi. Mahalliy tarixiy-madaniy va adabiy-badiiy an'analarini davom ettirishning buyuk namunasi X asrning ulkan shoiri Firdavsiyning butun jahonga mashhur «Shohnoma» dostoni bo'ldi. Mazkur asar bundan oldingi butun Eronu Turon tarixi va tarixnavisligiga asoslangan. Uchta juda katta davr – mifologik (afsonaviy), qahramonona va tarixiy davrlarga bo'lingan bu dostonning eng muhim tarixiy manbalari pahlavon Rustam to'g'risidagi sak-sug'd rivoyatlari turkumidan. Siyovush haqidagi sug'd-xorazm afsonalaridan. Isfandiyor to'g'risidagi baqtriya afsonasidan, Turon va Eronga doir ko'pgina boshqa afsonalar va rivoyatlardan iborat bo'lib, ularning ildizlari ma'lum darajada «Avesto»da ham aks ettirilgan edi.

Shundan keyingi o'rta asr kitobat madaniyatida o'zining ta'sirchanligi jihatidan g'oyat muhim va tarixan qaror topgan ko'pgina tamoyillarni belgilab bergan narsa yangi eron, doriy, eski turkiy va tojik tillariga o'tgan Turon xalqlarining ko'p asrlik o'z yozuv an'anasi bo'lib, u nisbatan qisqa muddat ichida arab yozuvini o'zlashtirish va unga o'tishga, uni o'z tillariga moslashtirishga imkon berdi[251].

Dastlab o'zini «Avesto» an'analarida, kitobiy pahlaviy va sug'd amaliy qiya yozuvi sohalarida namoyon qilgan xattotlik yozuvi san'ati o'rta asrlarda Turonzamin xalqlarining kitobat ishi zaminida o'zgarib, mustaqil kitob san'ati sohasiga aylandi. U o'ziga badiiy-obrazli ifodalilik, o'qishga qulaylik talablarini va insonning ijtimoiy-amaliy faoliyati sohasini qamrab olib, kitob boyliklarining ko'payishi va bilimlarning tarqalishiga xizmat qildi.

Birmuncha oldinlab ketib shuni qayd etamizki, keyinchalik, oradan bir necha asrlar o'tgandan so'ng, Turon, Ozarbayjon va Eronning forsiygo'y va turkiygo'y xalqlari orasidan etishib chiqqan xattotlari arab yozuvining yangi uslubiy turlarining ijodkorlari sifatida ham maydonga chiqdilar. Ular tomonidan yaratilgan o'ziga xos ta'liq, nasta'liq, shikasta, mojariy, ijozat, devoniy, jali-devoniy, riq'o, qirma va siyog'at uslublari yaqqol mahalliy koloriti bilan ajralib turdi, o'zida milliy kitobat madaniyati ta'sirini va birinchi navbatda mazkur xalqlar yozuvlarining

[251]Ilmiy suhbat va munozaralarimiz davomida M.Ishoqov tomonidan bildirilgan bu fikr uchun minnatdorlik izhor etamiz.

qadimgi an'analarini aks ettirdi. Masalan, Eronda yaratilgan ta'liq yozuvi uslubi kitobiy pahlaviy uslubiga (o'rta fors alifbe tizimining qiya yozuvi) juda yaqin. Turonda paydo bo'lgan siyog'at uslubi sug'd qiya yozuvi asosida rivojlangan uyg'ur yozuvi va uslubiga yaqindir.

Bizgacha etib kelgan «Avesto» qo'lyozmalari shundan dalolat beradiki, uni tartibga keltirishda, ayniqsa «Avesto» yozuvi yaratilgandan keyin va chamasi u bilan bir vaqtda matnni bo'limlarga bo'lish, matnni ko'chirish chog'ida uni eng muhim mantiqiy tarkibiy qismlar: bo'lim, qism, rukn, fasl va shu kabilarga ajratish qoidalari ham ishlab chiqildi. «Avesto» (zardushtiylik) bosqichlari bo'yicha bular ayrim nomlarni (Yasna, Visprat, Videvdat, Yasht) o'z ichiga olgan qismlardan tashqari, «Avesto»shunoslar tomonidan kitob deb atalgan nask, fragardlar (boblar) kabi bo'limlari ham bor edi. Parfiya, sug'd, o'rta eron, qadimgi turkiy tillardagi kitoblarda, zardushtiylarning diniy va tarixiy kitoblarida ancha yangi, amaliy jihatdan ilg'or shaklga – kodeksga o'tish amalga oshirilib qolmasdan (u kitobning o'ram shakliga nisbatan, qo'llanish va saqlanish xususiyatiga ko'ra bir qator ustunliklarga ega edi), shu bilan birga matnni tartibga solish va qismlarga bo'lishning barqaror qoidalari ham tatbiq etilgan. Ayni paytda sahifalar va muqovani bezatishga ham e'tibor berilgan. Bu barcha yangiliklar va matnni mantiqiy tarkibiy qismlarga bo'lish qoidalari Turkiston xalqlarining o'rta asrlardagi yangi arab yozuvidagi eron, turkiy va arab tillaridagi kitoblarida o'zlashtirilib, meros qilib olingan edi.

Moniy diniy jamoalari kitobida original texnika va estetik bezatish bilan bir qatorda matnni qismlarga ajratishning o'ziga xos qoidalari ishlab chiqilgan va tatbiq etilgan. Moniychilik kitoblarini bezatish, mo"jaz tasviriy asarlari (miniatyurachilik) san'ati, xattotlik, sahhoflik sohasida erishilgan yutuqlar uchun manba bo'lgani ko'zga tashlanadi.

Milodiy II-VIII asrlarda Xorazm, Baqtriya, Sug'd, Toxariston, Ustrushanada (Afrosiyob, Panjikent, Varaxsha, Bunjikat, Dalvarzintepa, Xolchayon, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Ajinatepa, Fayoztepa) mavjud bo'lgan devoriy tasviriy san'at an'analarining shundan keyingi davrlardagi Turkiston xalqlari kitobat san'atining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligini hisobga olmaslik mumkin emas.

Turonzaminda arab yozuvining mustahkamlanishiga imkon bergan omillar qatorida arab yozuvi asosida vujudga kelgan va rivoj

topgan arab-xorazmiy, eski tojik, eski o'zbek, eski turkman, eski qozoq, eski qirg'iz singari yangi turkiston yozuv tizimlarining paydo bo'lishida bu erda qog'oz ishlab chiqarishning keng yo'lga qo'yilganligi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qog'ozning yozuvda tatbiq etilishi arab yozuvi grafikasi va uslublarining rivojiga, xattotlik san'ati, kitobat ishi va qo'lyozmalarni bezatishga samarali ta'sir ko'rsatdi, shu bilan birga qo'lyozma kitoblar shakli va tashqi ko'rinishining yana rivojlantirilishi yo'llarini belgilab berdi.

Turonzaminda kitob yozish, qo'lyozmalar ko'chirish va ko'paytirish an'analari, kitob to'plash va har xil kutubxonalar: sulolaviy (saroy), diniy (masjidlar huzurida), shaxsiy (xususiy) kutubxonalar, shuningdek, madrasa, maqbara, xonaqolar (pansionlar), kasalxonalardagi kutubxonalar, shahar va qishloq mavzelaridagi (mahallalardagi) kutubxonalar hamda musulmon jamoalari mulki bo'lgan kutubxonalar tashkil etish ishlari yangi tarixiy sharoitda va yangicha tarzda davom ettirildi.

Savollar va topshiriqlar:

1. Qadimiyatdan o'rta asrlarga o'tish davrida yozuv va kitobat madaniyatining qanday an'analari meros qilib olindi va davom ettirildi?

ILOVA

Jahon yozuv tizimlari kelib chiqishi va rivojlanishi tarixidan ma'lumotlar

Yozuv – bu inson nutqi orqali bildiriladigan axborotni muayyan masofaga uzatishga va uni ayni shu zamonda chizma unsurlar yordamida qayd qilib qo'yishga imkon beradigan belgilar tizimidir.

Hozirgi vaqtda amal qiladigan, odatda alohida bir belgi (harf) bitta tovushni anglatadigan harfli-tovushli (alifbelik) yozuvga etib kelish yo'lida insoniyat bir necha ming yillik tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Shu yillar ichida inson fikrini va nutqini boshqa kishilarga etkazish yuzasidan turli usullar qo'llanib ko'rilgan. Er yuzidagi deyarli barcha xalqlar o'zlarining madaniy taraqqiyotining dastlabki yozuvni ixtiro qilishgacha bo'lgan davrlari mobaynida buyumlar va suratlar vositasida anglatiladigan har xil

usullarni ishlatib ko'rishgan. Hali eng qadimgi davrlardayoq inson muayyan tushunchalarni va hatto ayrim fikrlarni ham belgi va ramzlar yordamida anglatadigan turli ashyolarni keng qo'llagan. Masalan, biron-bir qabila boshqa bir qabilaga urush e'lon qilayotganligini bildirish uchun unga o'q yoki qilichni yuborishi mumkin edi. Mabodo yashil novda (butoq) etib kelsa, bu tinchlik so'ralishini anglatgan. Grek tarixchisi Gerodot (eramizdan oldingi 490-425 yillarda yashab o'tgan) o'zining "Tarix" asarida skiflardan forslar shohi Doriyga olib kelingan o'ziga xos bir diplomatik hujjat to'g'risida guvohlik beradi. Mazkur "maktub": qush, sichqon, qurbaqa va beshta yoy o'qidan iborat bo'lgan. Ushbu qat'iy xitobni shunday tushunish mumkin edi: "Agar siz, forslar, mabodo qushlar kabi osmonga uchib ketmasangiz yoki sichqonlar kabi er tagidan joy izlamasangiz yoxud qurbaqalarga o'xshab botqoqliklar uzra sakrab ketmasangiz, unda mana shu o'qlar sizni halok etar va qaytib o'z joyingizga kelolmassiz".

Axborotlarni etkazishning yozma shaklidan ilgarigi yana bir vositasi suratlar orqali ifodalanadigan "yozuv" – piktografiya (ramzli yozuv) bo'lgan. Ushbu so'z lotin tilidagi pictus (chizilgan) va grek tilidagi grapho (yozilgan) so'zlaridan tashkil topgan. Chiziladigan "yozuv" so'zlarni yasovchi harflardan emas, balki surat (piktogramma)lardan iborat bo'lib, bunda har bir surat grafik shaklda alohida bir tovush yoki hijo (bo'g'in)ni emas, balki muayyan buyumni yoki hodisani, hattoki butun buyumlar majmuini, fikrlarni anglatuvchi birliklarni, yaxlit hayotiy vaziyatni ham bildirishi mumkin edi. O'zbekistonning tog'lik joylaridagi qoyalarda qadimda yashab o'tgan ajdodlarimiz qoldirgan har xil yovvoyi hayvonlar, ov manzaralari tasvirlangan juda ko'p suratlarni uchratish mumkin. Ana shunday joylar janubiy tumanlardagi Bobotog', Zarao't-qamarda va Chotqol tog' tizmalari, Farg'ona vodiysidagi tog'larda mavjud. Masalan, professor A.N.Bernshtam faqat Farg'onadagi tog'larda qoyalarga bundan 5-7 ming yil va hatto 10-20 ming yillar oldin chizib qoldirilgan 20 mingdan ortiq suratlar majmuini ko'rib chiqqan! Lekin ushbu suratlarda qanday yozuvlar ifodalanganligini bilish mumkinmi? Bu savolga javob berish uchun tadqiqotchilar mazkur hodisalarni sinchiklab o'rganishi kerak bo'ladi.

Piktografiyani tushunish uchun alohida tarzdagi savodxonlik zarur emas. Buning ustiga, ushbu ifoda usuli mutlaqo turlicha tillarda so'zlashuvchi kishilar uchun birdek tushunarlidir. Fikrlarni aniq, lo'nda va ko'rgazmali tarzda ifodalash uchun piktogrammalar hozirgi kunda ham axborotlarni etkazish vositasi sifatida qo'llaniladi. Masalan, savdo-sotiqga doir reklamada, do'konlardagi yozuvlarda, yo'llarda ilib qo'yilgan belgilarda

ular keng ishlatiladi. Transformator qutisiga yopishtirilgan yoki dorixonada mijozga beriladigan dori yorlig'ida tasvirlangan ikki bilak suyagi orasidagi kalla suyagi, elektr uzatish liniyasida aks ettirilgan chaqmoq surati kishilarni xavf-xatardan ogoh qiladi.

Avvalboshda piktografiya muayyan vaziyatlarni, masalan, yovvoyi hayvonlar ovini aks ettiruvchi yaxlit suratlar tarzida ifodalangan. Keyinchalik bunday suratlar ayrim tarkibiy qismlarga bo'linib, alohida tushuncha yoki so'zlarni bildiradigan tasvirli belgilar shaklini olgan. Bunday tasvirli belgilar majmui endi suratni emas, balki matnni anglatardi. Ayrim piktogrammalar manzaraning tuzilishiga qarab emas, balki fikrning mantiqiy yo'nalishiga muvofiq tarzda ishlangan. Buning natijasida suratli "yozuv" sekin-asta logografik yozishma tusini oldi. Piktogrammalar yanada soddalashib, ixcham tus olib, ifodasidagi tasviriy unsurlarini yo'qotadi, endi ular shartli belgilar, grafik ramzlar, logogrammalarga aylanadi.

Logogramma piktogrammadan ham, harfdan ham farqlanib turadi. Logogrammaning o'zi ramzini aks ettirayotgan buyum bilan sirtdan o'xshash bo'lishi shart emas. Biroq u so'zning mazmuniy, semantik jihatini ifodalaydi va fonetik, ya'ni tovushli tarkibiga daxl qilmaydi.

Hozirgi kunda logografiya Xitoyda asosiy yozuv tizimi vazifasini bajaradi, shu bilan birga tovushli yozuv qatorida logografiyaning ayrim unsurlardan yana boshqa ko'pchilik xalqlar ham foydalanib kelishadi.

Yozuvning paydo bo'lishi ko'p asrlik tarixga ega: tilning rivoj topishi jarayonida insonning abstrakt tafakkur qobiliyati rivojini ifodalovchi asosiy lug'at fondi, tarkibi, grammatik tuzilishi shakllandi. Shu bilan birga yozuvning paydo bo'lishi tilning yanada qat'iyroq va rasman tus olishiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Yozuv va yozuv tizimi belgilar tarkibining doimiyligi bilan tavsiflanadi, ya'ni u har bir tarixiy davrga to'g'ri keladigan belgilar turkumiga ega bo'ladi. Bunday belgilarning har biri butun bir so'zni, belgilarning alohida majmui – nutqdagi biron bo'g'in yoki tovushni ham anglatishi mumkin. Bundan tashqari, yana qo'shimcha xizmat qiluvchi unsurlar, masalan, matnni yanada tushunarli va ifodali qiladigan tinish belgilari ham yozuv tarkibiga kiradi.

Yozuvni turlarga ajratish uchun belgilar shakli emas, balki nutq unsurlarini belgilar orqali etkazish tusi muhimroqdir. Nutq unsurlarini belgilar orqali etkazish tusiga qarab yozuv ideografik, og'zaki-hijoli, sillabik va alifbeli turlarga bo'linadi. Ideogramma ("g'oyalar yozuvi") bevosita til birliklarini etkazadi, bunda har bir belgi har qanday so'zni har qanday shaklda ifodalashi va shunday belgi aniq bir tushuncha yoki voqea-hodisani

hamda ayrim shartli, tasavvur qilinmaydigan, masalan, "issiq", "sovuq" kabi tushunchalarni ham anglatishi mumkin. Ideogrammada aks etadigan aniq bir narsa mazkur narsaga tegishli hamma tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi. Parranda ovqat holida ham, uchib ketayotgan qush va uning qanotlari tarzida ham tasavvur qilinishi, masalan, xitoyliklar uyi tomining chizilgan tasviri uyni, oilani va shu oila ichidagi o'zaro munosabatlarni ham anglatishi mumkin. Hammaga tushunarli ifodalar o'rnida shartli suratlar va doira, kvadrat, uchburchak yoki ular turkumi kabi geometrik chizmalar ham ishlatilishi mumkin.

Ideogrammalar axborotni juda ham aniq etkazmasligi mumkin, shuning uchun ular yozuvning piktografiyadan og'zaki-hijoli yozuvgacha bo'lgan rivojlanish jarayonida o'tish bosqichi bo'lgan. Aniq bir so'zning belgi orqali ifodalanishi logogramma deyiladi. Asosiy, eng muhim so'zlar va tushunchalarni belgilovchi ajratuvchi ideogrammalar (oraliq, tinish belgilari) va tasniflovchi ideogrammalar alohida o'rin tutadi. Og'zaki-hijoli yozuv har qanday mazmundagi matnni etkazgan, u yozilgan yozuv mazmunini ishonarli tarzda etkazishga imkon bergan. Ancha batafsil va murakkab suratlar shaklidagi ideogrammalar hashamatli, monumental yozuvlarni qoldirish uchun ishlatilgan, shu bilan birga soddalashtirilgan rasmlardan ham foydalanilgan (Qadimgi Misrdagi papiruslar va sopolaklar, Old Osiyodagi sopol plitkalar, Uzoq Sharq mamlakatlaridagi bambuk tayoqchalari).

Qadimgi Misrdagi yozuvlar (miloddan avvalgi 4-ming yillik oxiri), shumerlar yozuvlari (miloddan avvalgi 3-ming yillik boshi) va ular asosida shakllangan turlicha ponasimon xatlar, elamlar ieroglifikasi (miloddan avvalgi 3-ming yillik), qadimgi hindlar, krit va xitoy yozuvlari ancha mashhur. Misr, Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya) va Xitoy yozuvlari ko'proq o'rganilgan va ko'rib chiqilgan. Bugungi kunda og'zaki-hijoli yozuv tizimlari Xitoy, Koreya va Yaponiyada ishlatiladi.

Koreya va Yaponiyada xitoy ierogliflari bilan bir qatorda mahalliy yozuv tizimlari – Yaponiyada sillabik "kana" yozuvi va Koreyada harfli-sillabik "kunmun" yozuvi qo'llaniladi. Og'zaki-hijoli yozuv xalqaro tusda bo'lib, matn ichida kam sonli belgilarga ega. Biroq xitoyliklar gazetasini o'qish uchun kamida 6-7 ming ieroglifni bilish zarur.

Raqamlar, kimyoviy elementlar, algebraik ramzlar, ko'pgina yo'l belgilari logografik belgilar hisoblanadi. Bundan tashqari, logografik ramzlar kibernetikada ham keng qo'llaniladi. Kompyuter ekranidagi fayllar, matnli va chizilgan tahrirlar kabi har xil dasturlar, ma'lumotlar bazalarini boshqaruvchi tizimlar, o'yinlar va ma'lumotlarning boshqa tuzib chiqilgan turkumlari ham

o'zlarining logografik ifodalariga egadir. Logogrammalarning asosiy ustunligi – ularning qisqaligidir: bitta belgi butun bir so'z yoki ba'zan hatto cho'zilib ketgan gapning o'rnini oladi. Lekin logografik yozuvning ustunlikdan ko'ra nuqsonlari ko'proq: texnologiyalar gurkirab rivojlanayotgan, yangi-yangi tushunchalar paydo bo'layotgan zamonda logogrammalarni o'ylab topish va xotirada saqlab qolish insonning yagona mashg'uloti bo'lib qolishi ham mumkin. Masalan, xitoy yozuvida ierogliflar soni hozirga kelib 50 mingtadan oshib ketgan.

Har bir belgi so'zni emas, balki tovushlar izchilligini beradigan yozuv tizimi sillabik yozuv tizimi deyiladi. U unli va undosh tovushlar yoki undosh va unli tovushlar turkumidan iborat bo'lishi mumkin. Kamchilik hollarda undosh va unli tovushlar birmuncha murakkabroq guruhlarga birikadi. Sillabik yozuv Hindistonda va Janubi-Sharqiy Osiyoda keng tarqalgan. Bu guruhga kiradigan eng muhim yozuv tizimi – milodning XI-XIII asrlaridan beri hindu, sanskrit va boshqa ayrim tillarda qo'llanib kelayotgan, Hindistonda hozir rasmiy yozuv bo'lib hisoblanadigan devanagari tizimidir.

Yozuvning alifbeli tizimlarida har bir harf bitta tovushni (fonema yoki allofonni) bildiradi. Ayrim tovushlarni ifodalash uchun harflar guruhlarga birikishi, ya'ni bir necha harflar yagona tovushni anglatishi mumkin. Fonetik yozuv misrliklar tomonidan ieroglif orqali ifodalash mumkin bo'lmagan so'zlar ohangini bildirish uchun o'ylab topilgan. Bunda ular harflar uchun yangi belgilarni ixtiro etishmagan, balki mavjud ierogliflarni qo'llashgan. Bundagi farq shundan iborat ediki, butun bir so'zni ifoda etuvchi ieroglif ana shu so'zning birinchi harfiga muvofiq bo'lgan. Mazkur tamoyil akrofonik printsip deyiladi. Biroq misrliklar fonetik yozuvga o'tishmagan, ular yuzlab ierogliflarni qo'llashda davom etaverishgan, fonetik "alifbe" esa qo'shimcha, xizmat qiluvchi vositaligicha qolavergan. Notalarni belgilarni shakllantirishning akrofonik tamoyiliga misol qilib keltirish mumkin – notalar nomlari lotin tilidagi diniy madhiyaning birinchi harflari bo'yicha ifodalangan.

Yozuvlarning asosiy vositasi sifatidagi alifbening paydo bo'lishida protosemitlarning xizmati katta. Qadimgi semitlarning Finikiyadagi harfli konsonant yozuvi alifbeli yozuvning hamma turlarining tarixiy asoschisi bo'lgan. Qadimgi semitlar protoalifbesining genetik ildizlari (miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalari) aniqlanmagan. Ehtimol, u qadimgi Finikiyadagi sillabik yozuvdan ("protobibl yozuviga oid") kelib chiqqandir. Finikiyaliklar misrliklar belgilarining bir qismini o'zlashtirib olishgan, deb hisoblanadi. Finikiyaliklarning "mumtoz" alifbesida yigirma ikkita belgi

bo'lgan: bu undosh tovushlar sonidan ham kamroqdir. Bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan uchta qadimgi somiy protoalifbe tizimlari – finikiyaliklarning chiziqli, ugaritlarning ponasimon va janubiy araviyaliklarning chiziqli yozuv tizimlari negizida umumiy og'zaki yoki og'zaki-hijoli prototip yotadi. O'zagi undosh tovushlar bilan bog'liq, unli tovushlar esa so'zlarni hosil qiluvchi va grammatik unsurlarni ifodalaydigan som tillarida unli tovushlar uchun belgilarni ishlatishmaslik mumkin bo'lgan. Yozuvning yangi tizimi nutqning yozib olinishini ancha soddalashtirdi, chunki yuzlab va minglab ierogliflarga nisbatan ancha kam sonli harflarni yodlab qolish va yozish osonroq edi. Biroq bu turdagi yozuvlar hozirgi yozuvdan jiddiy farq qilardi, chunki unli harflarning yo'qligi va harflarning oraliqlarsiz qo'shib yozilishi, mabodo matnning mazmuni oldindan ma'lum bo'lmasa, uning o'qilishini qiyinlashtirgan.

Finikiyaliklarning chiziqli protoalifbesi Kichik Osiyoda, Gretsiyada va Italiyada keng tarqalgan edi va u g'arbdagi alifbelarga asos bo'lib xizmat qildi, uning qadimgi som tiliga urug'dosh bo'lgan – oromiyliklar tilida (u miloddan ilgarigi 1000-yilda shakllangan) qo'llanilgan soddalashtirilgan tez qiya yozuv usulidagi yozuv shakli esa Yaqin va O'rta Sharqdagi oromiyliklarning "suriyacha" yozuvi, yahudiylarning kvadratli, nabatiyaliklar yozuvi kabi alifbelarga asos solgan. Oromiyliklarning tez qiya yozuv usulidagi yozuvining qo'shimcha tarzda satr ustiga va satr ostiga diakritik belgilar qo'yiladigan alohida bir turi arab yozuviga (milodning VI asrida) asos bo'lgan.

Oromiyliklar alifbesi eramizdan ilgarigi IV asrda qadimgi forsiy tilida qo'llanila boshlagan, biroz so'ngroq (miloddan avv. III asrdan boshlab) O'rta Osiyodagi parfiyaliklar, so'g'dlar, xorazmliklar, baqtriyaliklar, qadimgi turkiy tillari kabi boshqa mahalliy turonzamin tillarga ham kirib kelgan.

O'rta asrlar sharoitida har bir alifbening tarqalishi muayyan din bilan bog'liq bo'lgan, hozirgi yahudiy tili – ivritning kvadrat harflari iuadizm, arab harflari – islom dini bilan birga tarqalgan. Arab harflari hozirgi vaqtda arab, doriy, eron, urdu tillarida ishlatiladi. Oromiy tezkor qiya yozuvi turli xristian mazhablari va moniychilar tomonidan tarqatilgan. Masalan, nestorian va yakovit yozuvlari, moniychilar yozuvidir. Milodning IV asrida zardushtiylikning muqaddas kitoblari uchun «Avesto» alifbesi yaratilgan bo'lib, unda unli tovushlarni belgilovchi harflar ham bor edi. Unli tovushlarni ifodalash tamoyili grek tilidan qabul qilingan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ning to'liq matni birinchi marta miloddan avvalgi V asrda Ulkan Xorazmda teridan qirqilgan varaqlarga qadimgi fors tilining

shu joydagi shevasida oromiylar alifbesi harflari bilan yozilgan.

Xristian dinining tarqatilishi Kavkazorti yurtlarining mahalliy tillaridagi yozuv yaratilishini taqozo etdi va milodning V asri boshlarida oromiy va parfiya yozuvlari asosida arman, gruzin va alban alifbelari yaratildi.

G'arbdagi barcha alifbelar uchun miloddan avvalgi VIII asrda paydo bo'lgan grek yozuvi asos bo'ldi. Qadimgi grek yozuvi harflari shakliga ko'ra deyarli to'laligicha finikiyaliklar yozuviga to'g'ri keladi, unli tovushlar qadimgi grek yozuvida ham bo'lmagan va keyinroq joriy etilgan. Qadimgi grek matnlaridagi yozuv avval-boshda o'ngdan chap tomonga qarab yozilgan, keyinchalik yozuvning bustrofedon turi qo'llanilgan: bunda bir satr o'ngdan chap tomonga, ikkinchi satr esa chapdan o'ng tomonga qaratib yoziladi va, nihoyat, yozuv bizga hozir odat bo'lib qolgan shaklda – chapdan o'ng tomonga qaratib yoziladigan bo'ldi. Grek harflari bilan qadimgi somiy harflarining bir-biriga yaqinligi harflarning nomlanishida va ularning alifbeda joylashuvi tartibida o'z aksini topgan.

G'arbiy grek alifbesi italiya, etrusklar alifbelariga asos soldi, qadimgi german runlari ham shu alifbeda yaratilgan. Etrusklar alifbesi lotin yozuviga prototip bo'lib xizmat qilgan. Lotin yozuvi Rim imperiyasi davrida xalqaro yozuvga aylangan. Lotin yozuvi evropaliklar: inglizlar, italiyaliklar, portugaliyaliklar, ispanlar, frantsuzlar, nemislar, polyaklar, chexlar, Shimoliy Evropa va Lotin Amerikasi xalqlarining milliy tillarida ham ishlatiladi. Lotin tili va Evropa tillari ohangidagi tafovut shunga olib keldiki, bir tovushni etkazish uchun bir necha, ikkita yoki hatto uchta harf (masalan, nemis tilidagi – shc – sh tovushi) birikmasi qo'llaniladiki, bu matnlarni yozishni qiyinlashtiradi.

O'z tarkibida unli tovushlarga ega bo'lgan grek yozuvi slavyanlar yozuvi bilan ham bog'liq, biroq slavyan yozuvining bir turi sifatidagi glagolitsa o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Slavyan xalqlarining kirilcha yozuvi – kirillitsa milodning IX asri o'rtalarida grek monaxlari Kirill va Mefodiy tomonidan ishlab chiqilgan. Rusda esa xristian dini qabul qilinishi munosabati bilan XI asrda joriy etilgan. 700 yil o'tgach, 1708-1710 yillarda rus imperatori Petr I ning tashabbusiga ko'ra va uning shaxsan ishtirokida eski slavyan alifbesi isloh qilindi. Ilgari qo'llanib kelingan, endilikda ruscha nutqni etkazishda zarur bo'lmay qolgan grekcha harflar – "omega", "psi", bog'lovchi "ot" harfi, kichik va katta "yus"lar chiqarib tashlandi. "Ia" dan iborat ikkita harf orqali etkaziladigan tovush uchun yangi "ya" harfi, "e" harfi joriy etildi. "P" va "t" harflarini ifodalash uchun lotin alifbesidagi "n" va "m" harflari olindi; yangi: "i", "i", "z" harflari joriy qilindi. Matematik

amallarning bajarilishini g'oyat qiyinlashtiradigan sonlarning harfli ifodalari o'rniga universal tarzda qo'llanish uchun arabcha raqamlar rasman tasdiqlandi. Yangi alifbe cherkovda diniy adabiyotlar uchun saqlab qolingan eski kirillitsadan farqli ravishda "rus fuqarolik shrifti" nomini oldi.

O'z mohiyati bilan yangi rus alifbesining yaratilishi savod chiqarish jarayonini ancha osonlashtirdi, kitoblar olamiga demokratik ruh olib kirdi, mamlakatda maorif va ta'limning keng ommalashuviga yordam berdi. Islohot ruscha nutqning cherkov-slavyan tili ta'siridan xalos bo'lishiga va jonli xalq nutqi negizidagi rus adabiy tilining shakllanishiga, rus madaniyati taraqqiyotidagi dunyoviy yo'nalishga asos soldi. Keyinchalik yangi alifbe 1735-, 1758-, 1918-yillarda alifbe va orfografiya sohalarida yana bir qator islohotlarni boshdan kechirdiki, buning natijasida hozirgi zamondagi ruscha nutq tovushlarini aks ettirmaydigan hamma harflar bu alifbedan chiqarib tashlanib, yangi "y" va "yo" harflari joriy qilindi.

Savollar va topshiriqlar:

1. Jahonda harf-tovush yozuv tizimlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida gapirib bering.

XULOSA

1. Qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixiy davrida Turonzaminning bir-biriga yaqin sharqiy eron va turkiy guruhlar tillarida so'zlashuvchi barcha etnik birliklari, etnoslari va subetnoslari yagona tizim – eroniyzabon va turkiy tilli superetnosini tashkil etdilar. Mazkur superetnosni ijtimoiy-madaniy jihatdan to'la asos bilan ilgari xuddi shu tariqa jahon tarix fani tomonidan ishlab chiqilgan tushunchalar, ya'ni shumer-vavilon olami va madaniyatining shumer-vaviloncha tipi, qadimgi misr olami va misrcha madaniyat tipi, yunon-rim «antik olami» yoki Janubi-sharqiy Osiyoning bir qancha mamlakatlari va Xitoy tarixining qadimgi davriga nisbatan «buddaviy olami» kabi – «zardushtiylik superetnik madaniy dunyosi» deb atash mumkin. Yagona ijtimoiy-madaniy davr hisoblangan qadimgi va ilk o'rta asrlar zardushtiylik madaniy dunyosi o'zining tarixiy rivoji bilan uning o'ziga xos madaniyat tipi bo'lgan zardushtiylar madaniyati tipi va shunga muvofiq ravishda zardushtiylarcha kitobat madaniyati tipini ham belgilab berdi. Aynan Turon madaniy zaminida vujudga kelgan zardushtiylik avvalo mahalliy xalqlar – xorazmiylar, parfiyaliklar, sug'dlar, saklar, baqtriyaliklar, marg'iyonlar, farg'onaliklar orasida keng yoyildi. Zardushtiy xalqlar madaniyati va mafkurasining bir-biriga qorishib ketganligi va o'zaro bog'liqligi shu qadar

kuchli ediki, oqibatda bu hol ijtimoiy va xususiy hayotning ko'pgina eng muhim tomonlarini belgilab berdi. Ijtimoiy ong shakli bo'lgan va o'zga xalqlar tomonidan yaratilgan g'oyat boy afsonalarni, afsonaviy tarixni, xalq og'zaki ijodini qamrab olgan va xalqning kundalik madaniy an'analari, urf-odatlari va diniy tasavvurlarining in'ikosi hisoblangan zardushtiylik va uning tamoyillari, umuman olganda, shaxs va jamiyat turmush tarzining asosiy mezonlarini, ularning qadriyatlari, ma'naviy-axloqiy, estetik me'yorlari va yo'l-yo'riqlari tizimini tartibga solib, bu xalqlar turmushining tarkibiy qismiga aylandi. Ko'p asrlar mobaynida xalqlar va elatlarning yashash usullari, hayot tarzi va ijtimoiy o'z-o'zini boshqarish shakllarini belgilab keldi.

2. Qadimgi va ilk o'rta asrlar davrida quldorlik ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi taqozo qilgan moddiy ishlab chiqarish darajasi va kitobat madaniyati tipi kitobat ishi jarayonlarining barcha shakllarini, kitob tayyorlash texnikasi va texnologiyasini, yozuv materiallari va qurollarini, qo'lyozma kitoblarning tashqi ko'rinishini, shuningdek, ularning mazmuni, saqlanish shakllari va jamiyatda tarqalish usullarini belgilab berdi.

3. Turon-Turkiston kitoblari va kitobat ishi tarixi o'zining ildizlari bilan yozuv madaniyati boshlang'ich davrlariga borib taqaladi. U davrlarda yozuvning qo'llanishi bilan bir qatorda ob'ektiv ravishda kitoblarning paydo bo'lishi uchun ham shart-sharoitlar vujudga keladi. Qadimgi Turonzamin harf-tovush yozuv tizimlari qaror topgan ilk bosqichda vujudga kelgan mahalliy xalqlar kitoblari o'z shakli va tashqi ko'rinishi jihatidan toshdan yasalgan butlar va yodgorlik toshlariga, sopol idishlar bo'laklariga, yog'och tayoqlarga va mum taxtachalarga (fanda umumiy qabul qilingan nomi – «O'rta Osiyo taxtachalari»), daraxt po'stlog'iga, turli shaklda alohida usul bilan ishlov berilgan teriga bitilgan yozuvlar singari matnli aloqani tashkil etish eng qadimgi usullaridan tortib charm va qog'oz o'ramiga bitilgan kitoblar, keyinchalik esa zamonaviy kodeks shaklidagi kitoblargacha bo'lgan barcha taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirdi.

4. Kitobning paydo bo'lishi va uning mavjud bo'lish usuli bo'lgan kitobat ishi, kitob ishlab chiqarish, kitoblarni taqsimlash va ularni takror ishlab chiqarish jarayonlarining vujudga kelishi o'zining dialektik birligida jamiyatda kitoblarning harakat qilish va kitobat ishi mavjudligining shakli sifatida kelib chiqishi va tarixiy jihatdan ijtimoiy aloqa vositasi bo'lgan yozuvning paydo bo'lishi va tatbiq etilishi bilan uzviy bog'liqdir. U yoki bu xalqning, u yoki bu sivilizatsiyaning muayyan yozuv tizimiga, yozuv yodgorliklari majmuiga ega ekanligi, axborotni zamon va makonda uzatishni mustahkamlash, inson ijtimoiy-amaliy faoliyati namoyon bo'lishining xilma-

xil shakllarini qayd qilish uchun yozuvni qo'llanish an'analarining mavjudligi «Kitob-Kitobat ishi» tizimining vujudga kelishi va amal qilishining zarur sharti va asosiy omili hisoblanadi. Sivilizatsiyaning muhim yutug'i bo'lmish rivojlangan yozuvning mavjudligi xalq ma'naviy madaniyatining yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi, ijtimoiy ong xilma-xil shakllarining rivojlanishi uchun potentsial imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy ong turli shakllarining (din, ilm-fan, adabiyot va hokazolarning) namoyon bo'lishi esa aynan muayyan bir asarda ro'yobga chiqadi, u keyin kitobat ishi jarayonida kitobga aylanadi.

5. Turonzamin xalqlarida qadimda va ilk o'rta asrlar davrida mavjud bo'lgan yozuv tizimlari, boshqa ko'pgina sharq harf-tovush tizimlari singari, o'zining kelib chiqishini oromiy yozuvi vositasida finikiya yozuvidan boshlagan. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahomaniylar Eronida (Turon erlari ham viloyatlar sifatida uning tarkibiga kirar edi) Mesopotamiyadan kirib kelgan oromiy yozuvi ponasimon yozuv bilan bir qatorda davlat yozuv tizimlaridan biriga aylandi. Ahomaniylar davlatining barcha viloyatlarida dastlab ma'muriy boshqaruv va idora ish yuritish tili bo'lgan oromiy tili Turon o'lkalarida ikki asr mobaynida qo'llanilgandan keyin miloddan avvalgi III asrdan boshlab Xorazm, Parfiya, Sug'd, Farg'onaning mahalliy tillari tomonidan siqib chiqariladi.

Ish yuritish jarayonlarida oromiy grafikasi an'analarining saqlanib qolishi bilan bir qatorda oromiy tilining o'z tiliga almashinuvi mahalliy xorazmiy, parfiyoniy, bohtariy, sug'diy alifbelari va yozuvlarining shakllanish yo'lida dastlabki qadam bo'ldi. Oromiy grafikasi asosida Turonzamin «milliy» yozuv tizimlarining tabaqalanishi va rivojlanishi oromiy yozuvini bu mintaqa elatlarining bir-biriga yaqin turli tillariga moslashtirish usuli orqali sodir bo'ldi. Bunda mazkur holatlarda muqarrar bo'ladigan grafikani birmuncha o'zgartirishga, bu tillarga xos bo'lgan yangi tovushlarni ifodalash uchun qo'shimcha harfiy belgilar joriy etishga doir takomillashtirishga e'tibor berildi. Turonzaminning mahalliy yozuv tizimlari paydo bo'lgandan keyin ular o'zining nisbatan biqiq davlat va etnomadaniy chegaralari bilan o'ralgan makonda o'z ichki qonunlari asosida rivojlana boshladi. Bu yozuvlardagi grafik qobiq va harflarning shakllari o'zgarishga uchrashi natijasida o'zining prototipi – oromiy yozuvidan uzoqlasha boshladi, u bir vaqtlar o'lik «imperiyacha oromiy» tilini ifodalash uchun qo'llanilgan edi. Belgilar (harflar)ning shaklidagi va yangi ajralib chiqqan alifbelar o'rtasidagi farqlar vaqt o'tishi bilan tobora ko'proq ahamiyat kasb etadi. Mazkur farqlar tillar va yozma nutqning rivojlanish ichki qonuniyatlari bilan birgalikda har

bir yozuv tizimi rivojlanishining mustaqilligini, o'zining betakror yo'lini ham belgilab berardi.

6. «Avesto»ni kodifikatsiyalash, ya'ni matnini tartibga keltirish va kitobiylashtirish masalalarini kitobat madaniyati tarixi nuqtai nazaridan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, to'liq «Avesto» matnini yozma qayd qilishga doir har bir alohida olingan tarixiy hodisa kitob va kitobat ishi tarixidagi eng zarur bosqich va muhim ahamiyatga molik hodisadir. Zero, ilk va g'oyat yirik yozma yodgorlik bo'lgan «Avesto» matnlarining ayni birinchi marta yozib olinishi va tartibga keltirilishi vaqtidan e'tiboran Turon va Eron xalqlari kitob va kitobat ishining to'laqonli tarixi boshlanadi. «Avesto» – zardushtiylik madaniy dunyosining eng buyuk kitobi, uning yuksak ma'naviyatga erishganligining dalili, zardushtiylik madaniyatining eng yorqin namunasidir.

«Avesto» matnini yozma qayd qilish va rasmiylashtirish an'anasi ahomaniylar davridan boshlab to'xtovsiz davom etdi. Miloddan avvalgi V asrdan milodiy XIII-XIV asrlarigacha bo'lgan bir yarim ming yildan ortiq davrda «Avesto» matnining turli qismlari ko'p marta qayta ko'chirildi. To'liq «Avesto»ni tiklash va tartibga keltirish ishlari hammasi bo'lib olti marta amalga oshirildi. «Avesto» matnlarining bir necha marta qayta ko'chirilishi va tartiblanishi, uning to'liq qismlarining hukmdorlar xazinasi va zardushtiylar ibodatxonalarida saqlanishi qadimgi davr va ilk o'rta asrlarda. Turon va Eron xalqlari ijtimoiy-madaniy jihatdan yagona fors-turkiy «Avesto» (zardushtiylik) madaniy dunyosini tashkil qilgan davrda bu xalqlar kitobat madaniyatining umumiy darajasi yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

7. Qadimgi Turonzamin turli yozuv tizimlarining vujudga kelishi va asosiy rivojlanish bosqichlari, eng muhim yozuv yodgorliklarini aniqlash, tartibga solish va tarixiy-tipologik jihatdan tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan muammolar majmuini o'rganish ob'ektiv tarzda kitobat madaniyati tarixi masalalariga ham aniqlik kiritadi, kitob va kitobat ishi tarixi umumiy manzarasini tiklashga yordam beradi. Kitobimizda keltirilgan tahliliy materiallar qadimda va ilk o'rta asrlar davridagi Turon zaminida ming yillar mobaynida davom etib kelayotgan yozuv madaniyati va kitobat ishining uzluksiz an'anasini ko'rsatib turibdi. Bu an'ana bir-ikki xalq yoki etnoslar bilan cheklanmagan, u keng qamrovli bo'lib, fors-turkiy superetnos bo'lmish «Avesto» (zardushtiylik) madaniy dunyosini tashkil etuvchi barcha etnoslar va subetnoslarni o'z ichiga olgan. Janubda Hindikushdan va shimolda Ettisuvgacha, sharqda Shimoliy Afg'onistondan g'arbda Sharqiy Turkistongacha bo'lgan ulkan hududda yozuv madaniyati va kitobat ishi

an'analarining hamma joyda tarqalishi va ijtimoiy ongda chuqur ildizlarga egaligi zardushtiylar olamini tashkil etgan xalqlardan har birining o'ziga xosligini, qadimda va ilk o'rta asrlarda ular an'anaviy madaniyatining mushtarakligini yaqqol ko'rsatib qolmay, shu bilan birga bu madaniyatning teranligi va qudratidan ham guvohlik beradi.

Qadimda va ilk o'rta asrlarda mavjud bo'lgan barcha yozuvlar ham saqlanib qolgan va ulardan bizgacha yirik yoki birmuncha salmoqli yodgorliklar va matnlar etib kelgan, deb bo'lmaydi. Sanab o'tilgan yozuv tizimlarining hammasi ham bir xilda jadal rivojlangan yoki ayni bir tarixiy davr mobaynida tatbiq etilgan, ularning hammasi ham ayni bir xil maqsadga va kitobxonlarga xizmat qilgan, yuqori tabaqaga mo'ljallangan yoki ommabop bo'lgan deyish ham o'rinsizdir. Masalan, birgina «Avesto»ni qayd qilish uchun «Avesto» yozuvidan foydalanilgan. Shuningdek, Eron va Turonning turli tillaridagi moniychilar diniga oid muqaddas kitoblarni ko'chirish uchun moniy yozuvidan foydalanilgan. Aksariyat hollarda qabr toshlariga o'yib yozish va xristian diniy kitoblarini ko'chirish uchun suryoniy-turkiy yozuvi qo'llanilgan. Turkiy jamoalarning keng qatlamlariga qaratilgan yozuvlar odatda qadimgi turkiy yozuvda toshdan yasalgan butlar va yodgorlik toshlariga bitilgan.

Agar kxaroshtxi va brahmi yozuvi, yunon va suryoniy-turkiy yozuvlari ikki yuz, uch yuz va to'rt yuz yil qo'llanib kelingan bo'lsa, oromiy grafikasi asosida vujudga kelgan xorazmiy, parfiyoniy, bohtariy, sug'diy va o'rta forsiy (pahlaviy) singari miloddan avvalgi IV-III asrlarda paydo bo'lgan yozuv tizimlari arablar istilosi davrigacha (VIII asr), (parfiyoniy yozuvi milodiy V asrgacha), sug'diy yozuvi asosida vujudga kelgan uyg'ur-turkiy yozuvi Turonzamin davlatlarida XVI-XVIII asrlargacha ham iste'molda bo'ldi. «Issiq» yozuvi deb atalgan yozuv esa faqat mahalliy, Turon zaminida kelib chiqqan, boshqa qadimgi yozuv tizimlari orasida o'xshashi yo'q yozuv edi.

8. Turonzamin yozuv tizimlarining eng muhim yodgorliklari obzoridan ma'lum bo'lishicha, kitobat ishi jarayonlarida juda xilma-xil materiallar: tosh, loy, ohak, yog'och, turli hajmdagi charm (teri) o'ramlari va nihoyat qog'ozdan keng foydalanilgan.

Turonda qog'oz ishlab chiqarishning paydo bo'lishi sanasi va uning tarixiy rivojlanishini davrlashtirish masalasi hozirgi vaqtgacha ochiq qolib kelmoqda. Bu masalani tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, qog'oz Turonzamin xalqlari turmushiga yozuv materiali sifatida milodiy III-IV asrlarda kirib kelgan. Bu xalqlar qog'ozni ixtiro qilgan xitoyliklardan dunyoda birinchilardan bo'lib o'zlashtirganlar hamda uni kitob tayyorlash ishiga tatbiq

qilib ishlab chiqarish texnologiyasini o'rganishga erishganlar. Turonzaminda qog'oz ishlab chiqarishning boshlanishini biz ilk o'rta asrlar – milodiy V asrga taalluqli deb hisoblaymiz. Xitoy tarixshunosligida shunday fikr ustivorlik qiladiki, unga muvofiq qog'oz Shinjonga – Sharqiy Turkistonga milodiy II asrda kirib kelgan. V asrda esa qog'oz ishlab chiqarish barcha Turonzamin mamlakatlariga ma'lum edi, uni ishlab chiqarish V-IX asrlarda Samarqand shahrida nihoyatda ommalashdi. Arablar aynan Samarqanddan qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi sirlarini o'zlarining Mesopotamiya, Misr va Suriyadagi markazlariga olib ketib, qog'oz ishlab chiqarishning Evropa mamlakatlariga tarqalishida jahon vositachilari bo'lishdek tarixiy vazifani o'tadilar.

Turon xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayotidagi sifat jihatidan o'zgarishlar IX-XV asrlardagi yuksalish davrida yuz berdi. Bu esa qog'ozga bo'lgan ehtiyojning ortishiga sabab bo'ldi. Qog'oz ishlab chiqarish Samarqanddan Turonzaminning boshqa shaharlariga ham keng tarqaldi. Asosan madaniy hayot ancha jonlangan shaharlarda qog'oz tayyorlash ustaxonalari vujudga keldi. IX-XIX asrlar oralig'idagi turli yillarda Samarqand, Balx, Marv, Termiz, Gurganj, Hirot, Buxoro, Qo'qon, Toshkent kabi madaniyat markazlarida qog'oz ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan edi.

1252 yilda Buxoroda qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. XV asrda Hirotda qog'oz ishlab chiqarish yuksak taraqqiy topdi. XVIII asrning boshlarida Qo'qonda ham dastlabki qog'oz ishlab chiqarish ustaxonalari paydo bo'lgan. Ularni samarqandlik hunarmandlar ochgan edilar. Bu ustalar feodallarning cheksiz zulmi, o'zaro urushlar, ko'chmanchilarning tinkani qurituvchi xurujlaridan qutulish maqsadida Farg'ona vodiysiga kelib qolgan edilar. XVIII asrning oxirlarida Samarqand va Buxoroda qog'oz ishlab chiqarish tanazzulga uchraganidan keyin ayni Qo'qon shahri Turonzaminda qog'oz ishlab chiqarish markaziga aylanib qoldi. Butun XIX asr mobaynida va XX asrning dastlabki yigirma yili davomida Qo'qon butun Turkiston o'lkasini qog'oz bilan ta'minlab turdi. Qo'qon qog'ozi o'lkadan tashqariga ham yuborilar edi.

9. Qadimda va ilk o'rta asrlarda kitoblarni qo'lyozma shaklida ko'chirishdan iborat bo'lgan kitob ishlab chiqarish ahyon-ahyonda tartibsiz amalga oshirilardi. Shu bilan birga kitob savdosi ham kurtak holida bo'lsa-da mavjud edi. Kitob nusxalari kam sonli bo'lgani uchun zardushtiylar dunyosi doirasida kitob muomalasi va qo'shni mamlakatlar bilan kitob savdosi orqali kitob ayirboshlash odatda yuqori tabaqa orasida ahyon-ahyonda

olib borilardi. Lekin qadimda va ilk o'rta asrlarda, garchi u qadar taraqqiy etmagan bo'lsa ham, kitob savdosining mavjud bo'lganligining o'ziyoq o'ta muhim voqeadir.

10. Turonzaminda yozuv va kitobat ishining qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixiga doir manbalar va materiallarini o'rganish bu erda kitob omborlari va kitob to'plamlari miloddan avvalgi so'nggi asrlarda paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Qadimgi xorazmliklar, parfiyaliklar, baqtriyaliklar va sug'dlarga o'z «milliy» yozuv tizimlariga o'tish g'oyat xilma-xil yozuv yodgorliklariga ega bo'lish imkonini berdi. Bular: xo'jalik-maishiy ahamiyatga ega bo'lgan yozuvlardan tortib davlat hujjatlari, qonunlar, farmonlar, sulolalar xronikalari, diniy-axloqiy matnlar, dunyoviy mavzulardagi kitoblargacha bo'lgan yodgorliklardir. Turli xarakterdagi va turlicha ahamiyatga ega bo'lgan yozma yodgorliklar mavjud bo'la boshlagan dastlabki paytlardayoq ularning ko'rinishidagi (turidagi) tafovutlar ko'zga tashlanadi. Ko'rib chiqilayotgan davrda kitobat ishi rivojlanishiga doir hujjatlar va kitoblarning sulola (saroy) va shaxsiy (xususiy) to'plamlari, shuningdek, diniy kitoblar saqlanadigan kutubxonalar ham mavjud bo'lgan. Bular hukmron sulolalarga qarashli saroy hujjat saqlagichlari va maxsus kitob omborlari, boshqa badavlat kishilarning kutubxonalaridan iborat edi. Ular asosan sopol idishlar bo'laklaridagi, taxtachalardagi, tayoqlardagi, teri (charm) va qog'oz varaqlari (o'ramlari) dagi xo'jalik, yuridik va xususiy tarzdagi yozuvlar to'plamlari (Niso va Tuproqqal'a arxivlari, Mug'qal'adagi hujjatlar)dir. Ularning aksariyati asosan ilk o'rta asrlar Eron, Xorazm va Sug'd olimlari hamda ruhoniy zardushtiylarning shaxsiy kutubxonalari bo'lib, ularning mavjud bo'lganligi haqida o'rta asrlardagi narrativ manbalardagi bevosita ko'rsatmalar dalolat beradi. Bular olov ibodatxonalari va zardushtiylarning «Avesto» va uning ayrim qismlari, «Avesto» matnlarining parchalari saqlangan diniy imoratlar, kushonlar Baqtriyasidagi ilohiy matnlar to'plamlari va budda diniga oid odob-axloq mazmunidagi kitoblar saqlanadigan budda ibodatxonalari edi. Diniy kitoblar saqlanadigan omborlarga moniychilarning ibodatxonalari ham qo'shilib ketadiki, ular milodiy III asrdan boshlab Eronda va Turonning hamma joylarida paydo bo'lgan. An'anaga muvofiq ibodatxonaning beshta asosiy zallaridan biri moniychilar diniga oid muqaddas kitoblarni saqlashga ajratilardi.

11. Agar tarixda yozuv hujjatlari va kitoblar saqlanadigan har qanday ombor vaqt o'tishi bilan ularni hisobga olish muammosiga duch kelishini inobatga oladigan bo'lsak (bu ob'ektiv ravishda yozuv asarlarini bibliografik hisobga olishning kurtaklari edi), xronologik jihatdan «Avesto»

(zardushtiylik) madaniy dunyosining bibliografik faoliyat shakllaridan biri, ya'ni har bir kitobning mazmuniga doir annotatsiyali sharh bilan birgalikda kitoblarning bibliografik ro'yxat shakli o'zining to'liq ifodasini topgan ilk tarixiy manba – «Denkard» kitobi hisoblanadi. Bu kitob milodiy IX asrda yaratilgan bo'lib, u zardushtiylar dinining o'ziga xos ilohiy qomusidir. Unda ilohiy mazmundagi boshqa matnlar bilan bir qatorda «Avesto» haqida va uning sharhlariga doir qimmatli ma'lumotlar keltiriladi (mazkur sharhlar Zend-«Avesto» deb ataladi). «Denkard»da sosoniylar davrida tahrir qilingan «Avesto» faqat 21 ta kitobdan iborat bo'lib qolmay (ular nasklar deb ataladi), har bir nask o'z nomiga ega bo'lib, o'ziga xos «Avesto» matnidan va Zenddan – o'rta fors tilidagi sharhlardan iborat ekanligi tushuntiriladi, shuningdek, har bir naskning mazmuni haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shunday qilib, «Denkard» kitobida (IX asr) berilgan «Avesto»ning mazmuniga doir bibliografik obzorni «Avesto» (zardushtiylik) kitobat madaniyatidagi dastlabki maxsus bibliografik asar deb hisoblash mumkin.

12. Milodiy VI-VIII asrlarni o'z ichiga olgan tarixiy davrni oladigan bo'lsak, unda butun «Avesto» (zardushtiylik) madaniy dunyosi uchun muayyan ma'nodagi umumiy kitoblar repertuari haqida gap borishi mumkin. Uning negizini zardushtiylar ma'naviy adabiyoti, bilimning tibbiyot, matematika, astronomiya, kosmogoniya, tarix, huquq, xalq og'zaki ijodi va badiiy adabiyot singari sohalariga doir kitoblar tashkil etadi. Ular o'rta forsiy, xorazmiy, bohtariy, parfiyoniy, sug'diy, shuningdek, yunon tillaridagi kitoblar, sanskrit va yunon tillaridan o'girilgan kitoblar, qadimgi turkiy tildagi buddaviy, moniycha va xristiancha mazmundagi diniy asarlar edi.

13. Arablar istilosidan keyin kitobat madaniyatida ro'y bergan inqiroz, mahalliy kitob repertuarining yo'q bo'lishi, yangi tillarga o'tilishi, aholining islom dinini qabul qilishi va arab yozuvining joriy etilishi yozuv madaniyati va kitobat ishi an'analarining, ilmiy va adabiy an'analarning, yozuv adabiyotlari yaratish va asarlarni ko'chirish sohasida qaror topgan qoidalarning batamom izdan chiqqanligini bildirmas edi. Arablar istilosi davriga kelib Turon xalqlari o'ziga xos boy madaniyat merosxo'rlari, barqaror madaniy aloqalarning vorislari ekanligi o'zining hal qiluvchi rolini o'ynadi. Zardushtiylikdan musulmonlikka o'tishdan iborat dastlabki ikki asr mobaynida kitobat ishining vorisiy rivojlanish jarayonida o'z umrini yashab bo'lgan narsalarning barham topishi va mavjud bo'lgan ijobiy narsalarni bo'lak taraqqiyot uchun saqlab qolgan holda yozuv va kitobat madaniyatida an'analarning sezilarli ravishda o'zgarishi sodir bo'ldi. Islom qobig'iga singib, tashqi faoliyat sohasida yangi dinning mafkuraviy talablariga moslashgan

kitobat ishi asrlar qa'ridan chiqib kelgan chuqur mazmunli an'analar va qoidalarni o'z negizida saqlab qoldi hamda davom ettirdi. Ular endi yangicha sifat bilan o'z hayotini o'zgargan tafakkur va yozma nutq usullari hamda qoidalarida, yangi eron, tojik va turkiy yozuv nutqini ifodalash uchun arab yozuvidan foydalanishda davom ettirildi. Bu an'analar va qoidalar kitoblar sahifasidagi matnni tartibga solish, qismlar, fasllar va ruknlarga bo'lish an'analarini chuqurlashtirdi. Kitoblarning tashqi va ichki bezatilishi, kitob yozish, qo'lyozma kitoblarni ko'chirish va ko'paytirish, kitoblar to'plash va turli xil kutubxonalar tashkil etish an'analarida yaqqolroq namoyon bo'ldi.

III bob. TURON-TURKISTON O‘RTA ASR KITOBAT MADANIYaTI

1-§. O‘rta asrlarda kitobat madaniyati: rivojlanish yo‘llari va xususiyatlari

Turonzamin milliy madaniyati mazmuniga doir

Milodiy VIII asrdan XX asrning boshlariga qadar bo‘lgan bir ming ikki yuz yillik davr mobaynida Turonzamin xalqlari fanda “musulmon madaniy dunyosi” deb ataluvchi ulkan arab-fors-turk superetnosi, xalqlar va elatlar (ya’ni etnos va subetnoslar) tizimining bir qismi, tizimchasi sifatida rivojlanib keldi. Zardushtiylikdan islomga o‘tish davrida madaniy an’analarning vorisiy rivojlanishi bilan bir qatorda, ularning shaklan va mazmunan o‘zgarishi ham ro‘y berdiki, bu Turon va Eron xalqlari yangi mentalligining qaror topishi, eski madaniyatning barcha ijobiy va oqilona jihatlarini meros qilib olgan va yangi, musulmon madaniyati mazmunini o‘zida tajassum etgan yangi shaxs va jamiyat tipining vujudga kelishini belgilab berdi. Bu, shuningdek, «Avesto» madaniy dunyosi, zardushtiylik madaniyat tipining yangi sifat kasb etishdan ham dalolat berar edi. Mazkur madaniy dunyo, madaniyat tipining shunday sifat jihatidan yangi holatga o‘tishi ro‘y berdiki, bunda hali eskirmagan an’anaviy xalq (ruhi va mohiyatiga ko‘ra zardushtiylikka mansub) madaniy an’analar bilan musulmon dini qadriyatlari tizimining birlashishi, o‘sha tarixiy sharoit uchun tabiiy bo‘lgan «Avesto» (zardushtiylik) madaniyat tipining musulmon madaniyat tipiga o‘zaro ma’qul sinkretizm asosida asta-sekin chatishuvi hamda islom aqida va tamoyillari ustunligida izchil rivojlanishi amalga oshdi. O‘rta asrlarda Turonzamindagi madaniyat tipi o‘zining sof ko‘rinishida aynan shunday, ya’ni shaklan va mazmunan musulmoncha, ammo ko‘p jihatdan mahaliy forsiygo‘y va turkiygo‘y aholi an’anaviy xalq madaniyatining tabiati, mohiyati va ruhini o‘ziga singdirgan edi. Shuning uchun ham biz tarixiy nuqtai nazardan o‘rta asrlarni Turonzamin uchun an’anaviy xalq madaniyatining zardushtiylik asoslarini hisobga olganda jamiyatda musulmonlik mafkurasi, umumiy musulmonlik axloqiy, insofiy, ma’naviy-ma’rifiy me’yor va qonun-qoidalar, qadriyatlar tizimi, ommaning o‘xshash turmush tarzi, diniy va

mifologik ongi, kundalik madaniy an'ana va xalq udumlari, avlodlari vorisligi, ijtimoiy tabaqalanish va u bilan bog'liq har xil mafkuraviy va madaniy oqimlar o'rtasidagi kurash hukmronlik qilgan yagona ijtimoiy-madaniy davri bo'lgan deymiz. Turonzaminda VI-VIII asrlarda yuzaga kelgan yangi ishlab chiqarish usuli va ishlab chikarish munosabatlari, ular bilan bog'liq ijtimoiy ong shakllari va sotsial institutlar IX-XVII asrlardagi rivojlanish va barkamollikdan XVIII-XIX asrlardagi turg'unlik va tanazzulgacha bo'lgan barcha evolyutsiya bosqichlarini bosib o'tdi. Jamiyatda hukm surgan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va taqsimlash usuli hamda madaniyat tipi qo'lyozma kitoblarni ishlab chiqarish, ko'paytirish, tarqatirish va kutubxonalarda saqlash, kataloglashtirish va bibliografiyalashtirish shakllarining xususiyatini, kitoblar va kutubxonalarning tiplari, turlari, xillari va toifalarini belgilab berdi.

Turonzamin milliy madaniyatining ilmiy negizi

Turon-Turkistonning arab xalifaligi tomonidan bosib olinishi dastlabki bosqichda mahalliy moddiy va kitobat madaniyatiga katta zarar etkazish bilan birga, tub xalqlar turmushining barcha sohalarida tarixiy o'zgarishlarga asos soldi. Arab Xalifaligi VIII - XI asrlarda iqtisod va madaniyatning jadal rivojlanishiga turtki bergan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning qaror topish jarayonini boshdan kechirar edi. Quldorlik tuzumidagiga nisbatan yangi progressiv ishlab chiqarish munosabatlari va mulkchilik shakllariga o'tilishi, rivojlanib borayotgan ziroatchilik, hunarmandchilik, xalqaro aloqalar va savdo-sotiqning amaliy ehtiyojlari, shaharlarning rivojlanishi va shahar aholisi savodxonligining ortishi insonning turli bilim sohalarini rivojlantirishni shart qilib qo'ydi. Xalifalik poytaxti bo'lgan Bag'dod bu davrda Yaqin va O'rta Sharqning yirik siyosiy, madaniy va ilmiy markaziga aylandi. VIII asrning oxirida, xalifa Horun ar-Rashid (786-809) hukmronligi davrida bu erda o'ziga xos Fanlar akademiyasi vazifasini bajargan "Donishmandlik uyi" ("Bayt ul-Hikma") tashkil qilindi. Unda rasadxona hamda dunyo xalqlarining turli tillaridagi qadimgi qo'lyozmalar kollektsiyasiga ega bo'lgan, yangi qo'lyozmalar bilan uzluksiz to'ldirib turilgan boy kutubxona faoliyat ko'rsatdi. Bag'dodda qog'oz ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi eng ahamiyatli qo'lyozma kitoblarni qayta ko'chirish va ko'paytirish ishini ancha takomillashtirish va jadallashtirish imkonini berdi. Bu bilan kutubxona

qoshidagi maxsus xattotlar guruhi shug'ullanardi. IX asr boshlarida xalifa al-Ma'mun davrida "Donishmandlik uyi" da katta miqyosda ilmiy va tarjimonlik faoliyati yo'lga qo'yildi. Olimlar va tarjimonlar original kitoblar yaratish, qadimgi davr olimlarining asarlarini yunon, suriya, sanskrit, nabatiy, o'rta fors tillaridan arab tiliga tarjima qilish, qadimgi traktatlarga sharhlar yozish bilan shug'ullandilar. Qadimgi yunon-rim, Vizantiya, qadimgi hind va «Avesto» (zardushtiylik) sivilizatsiyalaridan meros qolgan bilimlar, adabiy va ilmiy asarlarning ulkan hajmi tarjimonlar mehnati bilan boshqa til va madaniyatga o'tkazildi, arab-musulmon tajribasi nuqtai nazaridan qayta ishlandi va izohlandi. Arabshunos olim A.B.Xalidovning yozishicha: "...hammasi bo'lib VIII-X asrlardagi elliktacha tarjimonning nomi ma'lum. Ular o'nlab mualliflarning yuzlab nom va jilddagi asarlarini tarjima qilganlar"[252].

Amalga oshirilgan katta tarjimonlik faoliyati tufayli arab-musulmon dunyosiga juda ko'p yunon mualliflarining asarlari ma'lum bo'ldi. Arab tiliga Aristotelning deyarli barcha asarlari va ularga sharhlar, Evklid ("Asoslar", "Cho'qqilar"), Arximed ("Shar va silindr xaqida", "Tutashuvchi doiralar", "Doiraning to'rt va etti qismga bo'linishi"), Appoloniy Pergskiy ("Konus kesimlari", "Yassi yuzadagi kesimlar"), Aristotel ("Etika", "Kategoriyalar", "Paydo bo'lish va yo'qolish haqida", "Ruh hakida", "Siyosat", "Talqin haqida", "Tahlilchilar"), Platon ("Qonun", "Timey"), Ptolemey ("Almagest", "Buyuk tuzilish"), Gippokrat ("Og'ir kasalliklar", "Inson tabiati"), Galen ("Anatomiyalash", "Tomir urishi va muolaja", "Kasb-hunar"), Aleksandr Afrodeziyskiy, Aristarx Samosskiy, Porfiriy, Teofrast, Prokl, Menelay, Gipparx, Dioskorid, Oribaziy, Eratosfen va boshqalarning o'nlab asarlari arab tiliga o'girildi.

O'rta fors tilidan arab tiliga ertaklar, ahloqiy pand-nasihat ruhidagi, matematika, tibbiyot va falsafaga oid asarlar tarjima qilindi. Ularning bir qismi sanskrit, suriya va yunon tilidan pahlaviy tiliga tarjimalar edi. Shuningdek, hindlarning "Panchatantra" (arab tiliga tarjimada "Kalila va Dimna" deb nomlangan) badiiy-didaktik afsonalar to'plami, "Fors shohlarining tarjimai holi", "Shahrizoda va Parviz" asarlari tarjima qilindi. Nabatiy tilidan "Nabatiylarning dehqonchilik kitobi", sanskritdan

---

[252] Xalidov A. B. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya traditsiya. M.: Gl. red. vost. lit-ro', 1985. - s. 55.

"Hindiston shifobaxsh giyohlarining nomlari", arifmetikaga oid kitoblar, qadimgi hindlarning sayyoralar harakati haqidagi "Siddxant" traktati (arablarda "Sidhind") va unga ilova qilingan astronomik jadvallar arabchaga o'girildi. Aynan qadimgi hind tabiiy-ilmiy kitobi arab tilli fanda matematika va astronomiyaning rivojlanishiga turtki berdi. Tarjima asarlar arab tilli arab-musulmon madaniyatida inson bilimining falsafa, geografiya, matematika, astronomiya, ximiya, musiqa nazariyasi, botanika, zoologiya, tibbiyot, veterinariya, farmakognoziya, mineralogiya va boshqa sohalarining yuzaga kelishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi xalqlar fan va madaniyati an'analari, ijtimoiy va aniq fanlar sohasidagi bilish metodlarini ijodiy o'zlashtirish va yanada rivojlantirish O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda rivojlangan arab tilli ijtimoiy-falsafiy, tabiiy-ilmiy tafakkur va progressiv madaniyatning ilmiy negizini tashkil qildi. Uni shaklantirish va rivojlantirishda olimlarning qator avlodlari, ham arab va arablashgan mamalakatlarning vakillari, ham arablar tomonidan istilo qilingan Turon, Eron, Kavkazorti, Shimoliy Hindiston, Shimoliy Afrika, Ispaniyadagi turli xalqlarning vakillari bevosita qatnashdi. Ularning asarlari arab yozuvi qo'llangan mamlakatlarda keng tarqaldi. Ularning hammasi butun musulmon madaniy dunyosida umumiy qabul qilingan din tili va ilmiy til - arab tilida ijod qildi va har biri o'zining bilim sohasida arab xalifaligida ko'plab xalqlarning madaniyatini sintez qilish va o'zaro boyitish jarayonida yuzaga kelgan (shartli ravishda "arabgo'y", "arab tilli" deb atalgan), xalifalik parchalanib, uning ulkan hududida alohida davlatlar tashkil topganidan keyin esa mustaqil ravishda rivojlana boshlagan fan va madaniyatning ravnaq topishiga ma'lum hissasini qo'shdi.

Turonzamin milliy madaniyatining uch o'zaklik negizi

Arab Xalifaligining emirilishi IX asrning o'rtalarida boshlandi. Birin-ketin undan istilo qilingan barcha xalqlar va mamlakatlar ajralib chiqdi. Pirovard natijada Xalifalik poytaxti Bag'dod bo'lgan o'sha davrdagi Iroqning hududi bilangina chegaralandi. Xalifalikning qator mustaqil davlatlarga bo'linishi ular o'rtasidagi ma'naviy aloqalarga barham bermadi, faqat qisqartirdi, xolos. Madaniyatlarning bir-biriga o'zaro ta'sir qilish jarayoni keyingi asrlarda yagona diniy dunyoqarash va ilmiy til asosida, vaqt o'tishi bilan jiddiy zaiflashib, xususiyatini

o'zgartirib va yangi shakllarga kirib davom etdi. Musulmon dunyosining poytaxti sifatida Bag'dod o'z ahamiyatini to 1258 yilda mo'g'ullar tomonidan tor-mor qilingunga qadar saqlab qoldi.

Arab Xalifaligi tarkibidagi tarixiy davrda Turon-Turkistonda Islom diniga o'tilishi, til, fan va adabiyotda arablashish tendentsiyasining kuchayishini qayd etish mumkin. Arab hukmdorlari bilan imkon qadar yaqinlashishga intilgan turonzaminlik aristokratiya va din peshvolari muhitida arab tilini egallashga qiziqish kuchayib bordi. O'zining ona tilini butkul unutgan va faqat arab tilida so'zlovchi kishilar ham paydo bo'ldi. Bu ijtimoiy tabaqalarga qarshi o'laroq, olimlar, dindorlar, adabiyotchilar, boshqa kasblardagi ziyoli kishilar orasida ko'p tillilik taomili mavjud edi. Bu forsiy-doriy, yangi eron, tojik, turkiy va arab tillarini bilishni hamda qadimgi tillar: sanskrit, yunon, sug'd, xorazm, o'rta fors tillaridan xabardorlikni nazarda tutardi. Keyinchalik bu taomil intellektual mehnat, ilmiy va badiiy ijod bilan shug'ullanuvchi kishilar muhitida arab, fors va turkiy tillarni bilimli shaxsning zarur xosliklari sifatida bilish an'anasiga aylandi. Bu an'ana Turonzaminda XX asrning o'rtalarigacha saklanib keldi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari shoirlarining ijodida ko'p tillilik holatlarini qayd etar ekan, mashhur sharqshunos olim E.E.Bertels jumladan, shunday deydi: "... Musulmon dunyosining deyarli har bir yirik shoiri o'zining ona tilidan tashqari odatda boshqa bir tilda ham ijod qilgan. Bunda ma'lum taomilni ham qayd etish mumkin. Chunonchi, turkiylar, turkiydan tashqari, ko'pincha fors va arab tillarini, forslar, fors tilidan tashqari, odatda arab tilini qo'llaganlar... Agar bu holatni G'arbiy Evropada adabiyotning rivojlanishiga solishtirsak, ko'p tillilik Sharq shoirlarining ijodida ancha keng tarqalganligining guvohi bo'lamiz"[253].

Barcha musulmon mamlakatlarida universal ilmiy til sifatida qabul qilingan arab tili (O'rta asrlarda G'arbiy Evropada fan lotin tilida rivojlangani singari) o'zaro madaniy aloqalarning o'rnatilishida hal qiluvchi o'rin tutdi. Din va musulmon mafkurasi sohasi hamda fan sohasi arab tilida edi. Chunonchi, din va musulmon mafkurasi sohasida arab tili muqaddas sanalib, faqat bu tilni bilgan odamgina Qur'oni karim va diniy adabiyotlarni o'qiy olardi. O'rta asrlarda Turon-Turkistonda juda ko'p ilmiy bilimlar arab tilida rivojlandi va ularni ifodalovchi kitoblar yaratildi. Jahon fanining o'sha tarixiy bosqichida ilmiy xususiyatga ega

[253] Bertels E. E. Izbranno`e trudo`. Nizami i Fizuli G`G` M.: Gl. red. vost. l-ro`. T. 2.1962. - S. 504.

bo'lgan eng yangi va qimmatli ma'lumotlarni chuqur va har tomonlama sintez qilgan arab tilli kitobi Turon-Turkiston olimlariga arab tilidagi bilimning turli sohalariga doir boy adabiyotiga yo'l ochdi, ularga o'sha davrdagi zamonaviy fan darajasi bilan tenglashish imkonini berdi. Arab tili vositasida keng xalqaro madaniy aloqalar sub'ektiga aylangan Turon-Turkiston xalqlari faqat O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda kechgan keng qamrovli madaniy sintez jarayoniga qo'shilibgina qolmay, balki musulmon sivilizatsiyasi madaniyatini rivojlantirishda ham bevosita ishtirok etdi.

O'rta asrlar Turon-Turkiston jamiyatining madaniy-tarixiy rivojlanish jarayonlarida uning musulmon madaniy dunyosiga qo'shilishi natijasida ro'y bergan tub o'zgarishlar, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy va diniy tafakkurining evolyutsiyasi, jamiyatda ilmiy bilimlar va badiiy adabiyotga qiziqishning kuchayishi o'sha davrning yagona va noyob universal yozma axborot tarqatuvchisi sanalgan qo'lyozma kitoblarga bo'lgan ehtiyoj va talabni kuchaytirdi. Turonzamin xalqining ijtimoiy hayotida ilk O'rta asrlardagi alohida mulklar va podsholiklarning yakkalanganligi, o'zaro va tashqi dunyo bilan munosabatlarining chegaralanganligidan keng xalqaro aloqalar va faol munosabatlarga, shahar hayotining jonlanishiga tarixiy o'tishning amalga oshishiga qarab, kitobat ishi va butun kitobat madaniyati jarayonlarida ham muhim burilish - kitobning podsholar xazinasi va ibodatxonalar mehroblaridan shahar va xalqaro kitob bozorlariga chiqishi ro'y berdi. Inson bilimi turli sohalarining jadal rivojlanishi, eng avvalo kitobda o'z aksini topgan fanlarning differentsiatsiyalashuvi (bo'linishi) sharoitlarida undan kitob ham alohida shaxs (elitaga mansub shaxslardan tashqari), ham jamiyat uchun daxlsiz ekanligini bildiruvchi qadimda yuklangan an'anaviy muqaddaslik yorlig'i olib tashlandi, kitobning bilim manbai sifatidagi asosiy funktsiyasi to'liq darajada rivojlana boshlanadi. Kitobning jamiyat ijtimoiy-madaniy va intellektual rivojlanishidagi tutgan o'rni ham o'zgarib bordi. Asosan diniy ibodat maqsadlariga xizmat qilgan qadimgi va ilk O'rta asrlar kitobi (faqat ibodatxonalardagina saqlangan va tor doirada foydalanilgan «Avesto», buddizm adabiyoti majmualari, moniychilarning etti muqaddas kitobi) dan farqli o'laroq, bu davrda kitobning ijtimoiy muloqot usuli va ommaviy aloqa, ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatidagi ahamiyati ortib bordi.

Xalifalikdan mustaqil bo'lgan dastlabki Turon-Turkiston davlatlari

poytaxti Buxoroda bo'lgan Tohiriylar, Safariylar va Somoniylar davlatlari, Xorazmda Xorazmshohlar davlati, poytaxti Samarqandda va qisman O'zganda bo'lgan Qoraxoniylar davlati qaror topganidan keyin, avval arab tilini o'rganish va qo'llanilishiga o'z mavqeini mustahkamlash vositalaridan biri sifatida qaragan hukmron tabaqalar keng xalq ommasining tillari - forsiy, doriy, tojik va turkiy tillarni bo'lak rad eta olmay qoldi. Somoniylar davlatida (X asr) forsiy-doriy tili asosan davlat tili sifatida qabul qilinib, rasmiy yozishmalar shu tilda olib borila boshlandi. Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy singari buyuk shoirlar va boshqa yuzlab ijodkorlar aynan shu tilda o'zlarining ajoyib asarlarini yaratdilar. «Doriy tilidagi adabiyotning ravnaqi natijasida bu til adabiy til sifatida keng tarqaldi, - deb yozadi o'zining «Fors-tojik adabiyoti tarixi» asarida prof.E.E.Bertels. - Doriy tilining qo'shni viloyatlarning tillari bilan turdoshligi va leksikasining ko'p jihatdan umumiyligi bu tilning tarqalishini osonlashtirdi. Buning natijasida u Eronda tarqaldi va adabiyotdan o'rta fors (pahlaviy) tilini siqib chiqardi. Adabiy til sifatida doriy bir necha asr hukm surdi va oxir natijada O'rta Osiyoda adabiy tojik tiliga, Eronda esa - fors tiliga o'rin bo'shatdi»[254].

Xalqaro kitob almashuvi va arab tili tufayli butun musulmon madaniy dunyosida muomalada bo'lgan Turon-Turkiston tuprog'ida tug'ilgan arab tilidagi tabiiy-ilmiy, ijtimoiy va adabiy-badiiy kitobdan farqli o'laroq, forsiy-doriy tilidagi kitob bu til Turon-Turkiston, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon va yondosh viloyatlarda tarqalgani tufayli, asosan O'rta Sharqda muomalada bo'ldi. Bu erda mustaqil davlatlar tashkil topganidan keyin, qadimgi musulmon davrigacha bo'lgan madaniy an'analar va xalq urf-odatlarining tiklanishi sharoitlarida yangi yozma adabiyotning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yuzaga keldi. Forsiyzabon xalqlar yozma madaniyatining qariyb o'n besh asrlik tarixi mobaynida to'plangan ulkan madaniy-tarixiy material, xalq og'zaki ijodining boy xazinasi, arab tilidagi boy adabiyotni o'rganish, eron tilli o'z milliy poetika tamoyillarini ijodiy rivojlantirish va rivojlangan arab poetikasini o'zlashtirish - bularning barchasi vaqti kelib ma'lum shaklda o'z ifodasini topmasligi mumkin emas edi. X asrda ro'y bergan mumtoz fors-tojik adabiyotining ravnaqi aynan milliy madaniyat tarixini badiiy

[254] Bertels E. E. Istoriya persidsko-tadjikskoy literaturo`G`G` Izbranno`e trudo`. T. 1. M. Gl. red. vost. l-ro`. 1960. s.110.

va ilmiy tushunib etish, xalq ommasi tomonidan ishlab chiqilgan kuchli ma'naviy salohiyatni umumlashtirish va undan foydalanishning natijasi bo'ldi. IX asrning oxiri - X asrning boshidan e'tiboran forsiy-doriy va tojik tillaridagi adabiy-badiiy kitob, u bilan birga ilmiy kitob ham Turon-Turkiston kitob repertuarida asosiy o'rinlardan birini mustahkam egalladi.

Fors tilidagi adabiyot va fanning rivojlanishi bilan bir vaqtda Turon-Turkistondagi turkiygo'y aholining madaniyati, fani va adabiyotida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Turkiy xalqlarning umumiy madaniy-tarixiy jarayon evolyutsiyasiga ta'sirining kuchayishiga X asr oxiridan boshlab G'aznaviylar, Qoraxoniylar va Saljuqiylar turkiy sulolalari hukmi ostidagi yirik markazlashgan davlatlarning yuzaga kelishiga imkon yaratdi. Masalan, Qoraxoniylar davlatining asosiy hududi, ya'ni Samarqand va Toshkent vohalari, Farg'ona vodiysi, Ettisuv va Qoshg'arda XI-XIV asrlar mobaynida turkiy til umumiy iste'molda bo'lgan, yagona yozuv madaniyatli etnik va madaniy birlik qaror topdi.[255] Chunonchi, Qoraxoniylar davlatida yozuv sifatida bu davrga kelib rivojlangan kursiv turkiy uyg'ur yozuvi, til sifatida esa qarluq-uyg'ur tili qo'llanilar edi. Qarluq-uyg'ur tili asosida, u tarkibiy qismlarga differentsiatsiyalashganidan keyin, Turon-Turkistonda shu davrda o'zining o'tmishdoshi bilan uzviy bog'liq bo'lgan eski o'zbek tili rivojlandi.[256]

XI asrda yashagan buyuk olim Mahmud Qoshg'ariy tomonidan 1073 yilda yaratilgan "Devoni lug'atit turk" asari turkiy tillarda madaniyat, adabiyot, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy tafakkurni rivojlantirish uchun ulkan ijodiy salohiyat va imkoniyatlar mavjudligining yorqin dalili bo'ldi. Bu asarda faqat boy leksikografik va lingvistik materialgina emas, balki turkiy xalqlar tarixiy demografiyasi, etnografiyasi, turmush tarzi, xalq og'zaki ijodi, yashash areali va geografiyasiga doir bebaho ma'lumotlar ham mavjud edi.

Turkiy ijtimoiy-falsafiy tafakkur darajasi nechog'li baland bo'lganligini bizgacha etib kelgan axloqiy-ma'naviy va didaktik mazmundagi ikkita adabiy doston yaqkol namoyon etadi. Bu turkiy

---

[255]Qarang: Klyashtorno'y S. G., Epoxa Maxmuda KashgarskogoG'G' Sov. tyurkologiya. 1972. N1 - S. 21.

[256]Qarang: Herbak A. M. Oguz-name. Muxabbat-name. Pamyatniki drevneuygurskoy i starouzbekskoy pismennosti. M. - Izd-vo AN SSSR. 1959. - S. 108-109.

dunyoviy adabiyotning eng yirik yodgorliklari - Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" (1069) va Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" (XII - XIII asrlar chegarasi) asarlaridir.

Turon - Turkiston kitobat madaniyatida arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozma kitoblarning parallel rivojlanishi va muomalada bo'lishi uning O'rta asrlardagi tarixiy evolyutsiyasining muhim o'ziga xosliklaridan biri bo'ldi. Nazariy jihatdan buning negizida o'rta asr turonzamin madaniyatining uch o'zakligi yotadi. Birinchi va ikkinchi o'zak forsiy va turkiy, - asosi zardushtiylik dini va umuman «Avesto» va turkiy madaniy dunyosida qabul etilgan turmush tarzi printsiplari asorati, uchinchi o'zak arabiy, - asosi musulmonchilik diniy va madaniy printsiplari va turmush tarzi odatlari. Ammo bu uch o'zak turonzamin madaniyatida dialektik birlikni tashkil etadi. Arab, fors, turkiy kitobat madaniyati elementlarining kitobat ishi rivojlanishi mobaynida integratsiyalashish (yaxlitlanish) jarayonlari X-XI asrlardayoq ularning ma'lum sinkretizmiga, sinteziga va umumiy Turonzamin kitobat madaniyati tizimini hosil qiluvchi elementlarga aylanishiga olib keldi. Turonzamin kitobat madaniyati integratsiyalashish va differentsiatsiyalashish (bo'linish) jarayonlarining bu ichki birligi, bir tomondan, Turon-Turkiston elatlari birlashish va farqlanish evolyutsiyasining ichki birligini ifoda etsa, ikkinchi tomondan - integratsiyalashish jarayonlari ularning ijtimoiy-tarixiy va madaniy rivojlanishidagi ichki birligini aks ettiradi.

Turon-Turkiston forsiyzabon va turkiygo'y aholisining madaniy evolyutsiyasi yondosh xalqlar madaniyati bilan qalin o'zaro bog'liqlikda, ham qadimgi turkiy, o'rta fors, forsiy-doriy, tojik, yangi turkiy, arab tillaridagi, ham arab tili orqali sanskrit, qadimgi yunon, suriya tillaridagi ilmiy tafakkur, hunarmandchilik, adabiyot va san'at yutuqlarini jalb qilish yo'li bilan amalga oshdi. Bunday bir-biriga o'tish va bir-birini boyitish natijasida madaniy, ilmiy va adabiy an'analarning hamda ulkan mintaqada yashovchi, arab yozuvini qo'llovchi, yangi eron, pushtun, forsiy, doriy, tojik va yangi turkiy tillarda so'zlashuvchi va yozuvchi xalqlarning lisoniy va jug'rofiy yaqinligi, o'rta asrlar davridagi tarixiy taqdirining o'xshashligi, diniy dunyoqarashi va arab alifbesiga asoslangan yozuvining umumiyligi bilan izohlanuvchi kitob ko'chirish va ko'paytirish, kitob bezash va kitob to'plash an'analarining ma'lum birligi ham rivojlanib bordi. Qayd etib o'tilgan an'analarning birligi faqat Turon-

Turkiston, Eron, Ozarbayjon va Afg'oniston bilan chegaralanmaydi. Ma'lum darajada u mazkur integratsiyalashish jarayoni doirasidagi aniq milliy va lisoniy differentsiatsiyalashishga ega butun musulmon madaniy dunyosini qamrab oladi.

Madaniy an'analarning aynan shu birligi fan, maorif, adabiyot sohalaridagi erkin va to'siqsiz o'zaro almashuvga, o'z mamlakatlarining qadimdan O'rta asrlarga o'tishining yangi tarixiy sharoitlarida har xil adabiyot turlari, yangi poetik shakl va janrlar, masalan, rivojlangan arab poetikasining forsiyzabon va turkiygo'y xalqlar tomonidan yoki yunon va hind ilmiy an'analari, ijtimoiy va tabiiy fanlar sohalaridagi bilish metodlarining musulmon madaniy dunyosi xalqlari tomonidan qabul qilinishi va ijodiy o'zlashtirilishiga imkoniyat yaratdi. Bunday jarayonlar eng avvalo kitobda: adabiy-badiiy kitobda hamda bilimning har xil sohalari bo'yicha kitobda, adabiy materialni qo'lyozma kitobga aylantirishning har xil shakllarida, Turon-Turkiston zaminida kitobning har xil turlari, tiplari, toifalari va shakllarining yuzaga kelishida o'z aksini topdi.

Kitobat ishi sohalari rivoji

VIII-IX asrlardagi madaniy-tarixiy evolyutsiya davomida Turkistonda kitobat ishining yangi sifatda vujudga kelishi va bu yangi asosda har xil kitobat ishi sohalarining rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlar ro'y berdi. Kitoblarni qayta ko'chirish va ko'paytirish hunari alohida kasbiy faoliyat sohasiga ajraldi, xattotlik, sahhoflik va kitobfurushlik kasblari paydo bo'ldi. Qo'lyozma kitoblar ishlab chiqarishning o'sishi bilan kitob savdosi hajmlari kengayib bordi, yangi-yangi kutubxonalar, bibliografik asarlar paydo bo'ldi, rang-barang kitob repertuari yuzaga keldi. Boshqacha aytganda, kitobning jamiyatdagi harakatini ta'minlovchi kitobat ishi sohalarining shakllanish jarayoni sodir bo'ldi. Bu eng avvalo kitobat ishining kitobni ham professional xattotlar tomonidan, ham havaskorlar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun qayta ko'chirilishi va ko'paytirilishi hamda muqovalar tayyorlash yo'li bilan amalga oshirilgan sohasidir. Bu jamiyatda kitobfurushlik va kutubxonachilik ko'rinishidagi kitob taqsimotidir. Va nihoyat, bu kitoblar haqidagi ma'lumotlarni kutubxonadagi kitoblar ro'yxati yoki katalogi ko'rinishida qayd etuvchi kitobat ishi, bibliografik qo'llanma va bildirgich (spravochnik)lar ko'rinishidagi maxsus asarlar yoki tabiiy-

ilmiy va ijtimoiy fanlar sohalaridagi olimlarning asarlaridagi adabiy manbalarda keltirilgan kitoblar ro'yxatidir, ya'ni bibliografiyasidir.

Savollar va topshiriqlar:

1. «Avesto» madaniy dunyosi musulmon madaniy dunyosining bir bo'lagi bo'lib transformatsiya (o'zgarishi)ni qanday tushunasiz?

2. Turkiston o'rta asr milliy madaniyatining uch o'zaklik negizini ta'riflab bering.

3. Turkiston o'rta asr milliy kitobat madaniyatida turkiygo'y, forsiygo'y va arab tilli kitoblarning parallel rivojlanishini qanday ta'riflaysiz?

2-§. Qo'lyozma va toshbosma kitoblar turlari

Asar janri va kitob tipi birligi

Kitob va kitobat ishi rivojlanishining umumiy qonuniyatlaridan biri kitob tipi, turi, xili va toifasi bilan shu kitobga kirgan asar yoki asarlar janrlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va uzviy mutanosiblikdir. Demak, bunda kitob holiga keltirilayotgan nashr yoki qo'lyozma kitob o'z turi, toifaviy va shakliy jihatlari bilan unga kirgan asarlarning janr xususiyatlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik va aloqador shartlilik mavjud. Bu bog'liqlik faqat kitobat ishininggina emas, balki ayrim olingan kitob xili va toifalarining shakllanishi uchun ham umumiy qonuniyatlardan biridir.

Turon-Turkiston xalqlari kitobat madaniyatida jahon kitobat madaniyatida mavjud bo'lgan barcha nashrlarning amaliyotdagi uchta turi vujudga keldi va tadrijiy taraqqiy etdi. Xususan, "Asarlar to'plami" yoki "Tanlangan asarlar", "To'plam" va "Yakka asarning alohida nashri", ya'ni o'zida ayrim asarning alohida bir nashrini mujassamlashtirgan qo'lyozma yoki nashr kitobi. Bir muallifning barcha asarlarini o'zida jamlagan kitob uchun kulliyot so'zi qo'llanilgan. Bunday qo'lyozma badiiy-adabiy kitoblarining ilmiy nashrlar turiga kiradi. Bundan tashqari, Turonzamin kitobat ishida boshqa ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlar xil va toifalari keng ijtimoiy iste'molda bo'lgan. Bular xamsa, devon, bayoz, tazkira, majmua, kachkul, g'azaliyot, muxammasot, qasoid, ruboiyot, fardiyot, mufradot, muqattaot, muraqqa, munshaot, muntaxab, risola, qit'a, urjuza, muxtasar, qomus, fixrist, lug'at, farhang, tafsir, sharh, izoh qo'lyozma va toshbosma nashrlar xillarining shakliy toifalaridir.

Kulliyot

"To'la asarlar to'plami"ni nashr turi sifatida anglatish uchun arabiy, forsizabon, va turkigo'y xalqlari filologiyasi va kitobat ishida umumiy hisoblangan maxsus atama - kulliyot so'zi (arabcha kulla - hammasini jamlash ma'nosiga to'g'ri keladi) qabul qilingan. Kulliyotlar to'la asarlar to'plami sifatida ma'lum talablarga javob berishi kerak edi. Qo'lyozma kulliyotlarga u yoki bu muallifning barcha merosi yoki asarlarining asosiy qismi jamlangan janr va asar turidan qat'i nazar amalga oshirilgan. Kulliyot tarkibiga kiruvchi asarlar janrlar bo'yicha muayyan tartibda joylashtirilgan. Kulliyot qo'lyozmasini tuzishga qancha vaqt ketmasin, uning barcha matni boshidan oxirigacha bitta xattot tomonidan ko'chirib yozilgan, hajmidan qat'i nazar doimo bir kitobdan (jilddan) iborat bo'lgan. O'rta Sharq kitobat ishida kulliyot ilk bor XIV asrda paydo bo'ladi. 1320-1321 yili xattot Ali bin Ahmad ibn Abu Bakr Besutun Sa'diy Sheroziy (1203-1292) asarlaridan ko'chirib kulliyot tuzdi. Kulliyot tarkibi janrlar bo'linishi asosiga qurilgan bo'lib 19 bo'limdan iborat, unda shoir adabiy merosining hammasi qamrab olingan, ular asarning turli janrlariga qarab aniq tartib asosida joylashtirilgan. Biroq bu kulliyotda Sa'diy asarlari arab alifbesi tarkibiga ko'ra joylashtirilmagan edi. 1330 yillarga yaqin, ya'ni oradan 8-9 yil o'tgach, Besutun Sa'diy kulliyotidagi she'rlarning tartibotini qayta ko'rib chiqadi va g'azal, ruboiy hamda boshqa she'rlarini qofiya va radif so'ngidagi harfga qarab joylashtiradi. Bu tartib Sa'diyning istalgan g'azal yoki ruboiysini birinchi bayt so'ngidagi qofiya yoki radifga qarab juda osonlik bilan topish imkonini yaratadi.

Badiiy asarlarni imkon boricha hammasini to'plab kulliyot tuzib, ularni bir jild holida yaxlit kitob qilish an'anasiga buyuk shoirimiz Alisher Navoiy ham amal qilganlar. Umrining oxirgi yilarida Navoiy o'z zamonasining mahoratli xattoti Darvesh Muhammad Toqiy bilan hamkorlikda o'zbek tilida yozgan deyarli hamma (faqat "Mahbub ul-qulub"dan tashqari) asarlarini o'z ichiga olgan kulliyotini tasnif etishga va uni bir kitob holida ko'rishga musharraf bo'lganlar. Navoiy asarlarining mukammal kulliyotlaridan bizgacha oltitasi, nisbatan mukammallaridan yigirmaga yaqini etib kelgan.[257]

---

[257] Qarang: Hakimov M. Sharq kitobat ishida "kulliyot"ning o'rni G'G' Adabiy meros, 1988, N 45, 74 - 77 betlar; O'sha muallif. Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalarining kitobat turkumlari G'G' Adabiy meros, 1992, N 59, 3 - 5 betlar.

Xamsa

Turonzamin kitobat ishining amaliyotida turli xil toifadagi adabiy-badiiy to'plamlar va ilmiy risolalar to'plamlari tuzish rivoj topa bordi. To'plamlarning quyidagi o'ziga xos turlari bor. Birinchisi - xamsani ko'rib chiqamiz, u o'zga to'plamlardan ancha farqlanadi. Xamsa - beshlik bo'lib, unda ma'lum shoirning Sharqda keng tarqalgan syujetlarga qurilgan beshta mustaqil dostoni jamlanadi. Ular Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Bahrom, Iskandar Zulqarnayn va boshqalar haqidagi syujetlarga yozilgan dostonlar. Xamsa doimo bir jilddan iborat. Faqat to'rt yirik shoir - Nizomiy Ganjaviy (XII a.), Amir Xisrav Dehlaviy (XIV a.), Abdurahmon Jomiy (XV a.) va Alisher Navoiy (XV a.)lar «Xamsa» tuzishga erishganlar. «Xamsa» dostonlarining avvalgi uchta shoir yozgani forsiy, faqatgina Navoiy «Xamsa»si turkiydir. «Xamsa» faqat to'rtta shoirdagina mavjudligining o'zi hamda ko'plab nusxalari ko'chirilganligi, jahon adabiyoti dostonlar to'plami ichidagi noyobligining o'zi kitobat madaniyatida xamsaga nashr yoxud qo'lyozma kitobning maxsus turi deb qarash asosini beradi.

Devon

Devon - bir shoirning turli janrlardagi lirik she'rlar to'plami. Devonda she'rlar qat'iy tartib, arab alifbesi tartibida berilib, ya'ni A (alif) dan boshlanib i (yo) bilan tugaydi. She'rlar shakllari va janrlariga ko'ra joylashtiriladi. Kitob turi g'azallar bilan boshlanadi. Tanlanib olingan g'azallar matla'alar oxiridagi harflarga ko'ra arab alifbesiga muvofiq terib chiqiladi, ya'ni alif – a, o, keyin be – b, so'ng t, se – s, jim – j va boshqa harflar bilan tugallanuvchi g'azallar beriladi. G'azallardan keyin turli janrlardagi lirik she'rlar keltiriladi: mustazodlar, muxammaslar, tarji'band va tarkibbandlar, masnaviylar, qasidalar, qit'alar, muammolar, chistonlar, ruboiylar, tuyuqlar. Ular ham g'azallar kabi matla'aning so'nggi harflari asosida arab alifbesi tartibida joylashtiriladi. Yirik shoirlarda ba'zan bir necha devonlarning to'plami yagona umumiy nom bilan berilgan. Masalan, Sharq adabiyotida bebaho sanalmish to'plam Alisher Navoiyning «Xazoyinul-maoniy»si to'rt devon "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoe' ul-vasat" va "Favoyid ul-kibar"dan iborat. Mazkur devonlar turli yillarda tuzilgan bo'lib, keyinchalik devonlarni yagona kitobga jamlash chog'ida muallifning o'zi tomonidan

nashrga tayyorlanib ko'chirilayotganda to'ldirilgan holda tahrir qilingan.

Bayoz

Bayoz - turli tarixiy davrdagi mualliflarning turli janrlardagi she'rlarining to'plami.

Tazkira

Tazkira (arabcha o'zagi zikr (eslash) so'zi) - turli mualliflarning tarjimai hollari bilan keltirilgan she'riy asarlar to'plami bo'lib, ular yozgan yoki ko'chirtirgan devonlar haqida ma'lumotlar keltirilib, agar o'shandaylar bor bo'lsa, xattotlik san'ati va umuman kitobat ishi hamda ba'zi asarlarning badiiy tahlili misol uchun keltirilib o'tiladi. Tazkira turidagi kitoblar o'zining mazmuni va ichki qurilishiga ko'ra Evropa kitobat madaniyati kitob turlari bilan qiyoslanganda biobibliografik lug'atlarga, adabiy antologiyalarga, ba'zi hollarda esa shu ikkala tur unsurlarini birlashtirganga ham o'xshab ketadi. Bunday chegaralanishga tazkiraning uch turi nisbatan muvofiq tushadi : «Tazkirat ush-shuaro» (shoirlar haqidagi tazkira), «Tazkirat ul-mashoyix» (shayxlar, avliyolar haqidagi tazkira), «Tazkirat ul-xattotin» (xattotlar va boshqa kitobat ustalari haqidagi tazkira).

Majmua

Majmua - (arabcha o'zagi jam so'zi) - qoida bo'yicha vaqt va tarixiy davr jihatidan bir-biriga yaqin yashagan bir yoki bir necha mualliflarning she'riy to'plamlari bo'lib, bayozdan farqli o'laroq, biror-bir muallifning ko'proq asarini keltiradi. Bunday risolalar majmuasiga bir mavzuga yoki bir qancha qardosh bilim sohalariga oid asarlar kirgan.

Kachkul

Kachkul - badiiy adabiyot asarining tanlangan to'plami, turli mualliflarning tabiiy-ilmiy yoki ijtimoiy fan sohalaridagi asarlari yig'masi bo'lib, bir shaxs tomonidan didi va qiziqishiga qarab tanlangan yoki uning o'zi, yo buyurtma asosida ko'chirtirilgan to'plam.

G'azaliyot - bir yoki bir necha mualliflarning g'azallar to'plami.

Muxammasot - turli mualliflarning muxammaslar to'plami.

Qasoid - bir yoki bir necha mualliflarning qasidalar to'plami.

Ruboiyot - bir yoki bir necha mualliflarning ruboiylari to'plami.

Fardiyot - bir yoki bir necha mualliflarning fardlar to'plami.

Mufradot

Mufradot - xattotlikni o'rgatuvchi metodik qo'llanma bo'lib, arab yozuvi xat san'atining turlarini harflar, bo'g'inlar, so'zlarni turli yozuv uslubida yozish namunalarida ifodalash. Mufradotlar tuzish an'anasi Ibn Muqla (IX) ning xat qonunlari haqidagi risolasiga borib taqaladi. Ibn Muqla - ilk arab xattoti. Faqat mufradot deb nomlanuvchi nazmiy shakl (janr) bilan chalkashtirmaslik kerak.

Muqattaot - qit'alar to'plami.

Muraqqa - qit'alar yoki kitob miniatyura rasmlari albomi.

Munshaot

Munshaot - nasr yoki nazmda bir muallifning turli shaxslarga yozgan maktublari to'plami. Ular goho muallifning o'zi tomonidan ko'chirilgan, goho bu ish husnixat ustalari - kotiblarga topshirilgan.

Muntaxab

Muntaxab - bir yoki bir necha muallifning bir mavzuga bog'liq asarlaridan parchalar to'plami. Muntaxabga fanning xilma-xil tarmoqlariga oid asarlar to'planishi mumkin. Muntaxab deb ataluvchi kitobni ba'zan bir yoki bir necha fanlarga oid murakkab masalalarni tushuntirib beruvchi ayrim asar ham tashkil qilishi mumkin.

Risola

Risola - ilmning biror sohasi bo'yicha yozilgan ilmiy asar. Kitobat ishi amaliyotida alohida nashrlar bilan bir qatorda bir necha muallifning risolalaridan iborat to'plamlar ham tuzilgan. Ba'zan risolalar to'plami bir umumiy nomda beriladi va bunday to'plam majmua holatiga keladi.

Qit'a

Qit'a - xattotlik mahorati bilan badiiy bezatilgan varaqqa kufiy, nasx yoki nasta'liq yozuvida jilvakor bezaklar bilan bayt yoki to'rtliklar - ruboiy, qit'a; kichik hajmdagi nazmiy asarlar - murabba, muammo, ta'rix, chiston, tuyuq, fard yoxud boshqa janrlardagi (g'azal, mustazod,

muxammas, musaddas, musamman, tarjiband, masnaviy, qasida, soqiynoma) asarlardan parchalar bitilgan bo'ladi. Qit'alarni uy devorlariga ilib qo'yishar, ulardan esa to'plab albom (muraqqa) qilishar edi.

Urjuza

Urjuza - bu atama arab she'riyatida ilmiy sohaga bag'ishlanib nazmiy «rajaz» o'lchovida yozilgan she'riy asarga nisbatan qo'llaniladi. Shu bilan birga alohida urjuzalar bir yoki bir necha «rajaz» o'lchovida yozilgan asarlarni o'z ichiga olgan. Jumladan, Ibn Sino tibbiyotga oid bir qancha urjuzalar yaratib, nazmiy usulda nafaqat badiiy asarlar, balki ilmiy risolalar ham yozish an'anasini davom ettirdi (masalan, grammatika, kimyo, matematikaga oid asarlar). Yaqin kunlargacha Ibn Sinoning tibbiyotga oid sakkizta urjuzasi ma'lum edi. Ularning eng asosiysi «Tibbiyotga oid urjuza» hamda «Anatomiyaga oid urjuza», «Sog'liqni saqlashga oid urjuza», «Sinalgan vositalarga oid urjuza», «Jinsiy mayl haqida urjuza», «Yilning to'rt fasli haqidagi tibbiy urjuza», «Tibbiyotga oid nasihatlar urjuzasi» va «Gippokrat da'vatlari haqidagi urjuza»lardir.

Bag'dodda Iroq madaniyat va axborot vazirligi tomonidan nashr etiladigan «Al-Mavrid» mavsumiy jurnalining 1985 yil to'rtinchi sonida Ibn Sinoning London tarixiy tibbiyot muzeyi Uelkem kutubxonasi zahirasida saqlanayotgan «Bezgakning sabablari haqida urjuza» nomli asari to'liq matni ilk bor nashr etildi. Matnga kirish so'zi va izohlar Davud Muzban as-Samiriy tomonidan yozilgan. Avvalda noma'lum bo'lgan bu urjuza 243 baytdan iborat bo'lib, Ibn Sino urjuzalari ichida hajm jihatdan «Tibbiyotga oid urjuza»dan keyin ikkinchi o'rinda turadi.[258]

Muxtasar

Muxtasar – ilmiy-ommabop kitob turi bo'lib, ilgari yaratilgan katta hajmli (ko'p jildli yoki bir jilddan iborat), juda keng, barcha tafsilotlar bilan, atroflicha yozilgan asarning eng muhim o'rinlarini tanlab olib, qisqartirib, sharh va izohlarsiz qaytadan yozilgan asarning kitob qilib ko'chirilgan nusxasi. Muxtasar turidagi kitoblar ko'proq tarix sohasida tuziladi. Shu bilan birga tibbiyot, falsafa, filologiyaga oid sohalarda, xususan, lug'atlar tuzishda ham uchrab turadi. Turonzamin kitobat tarixida Ibn Sinoning

[258]Qarang: Bulgakov P. G. Neizvestnaya urdjuza Ibn Sino` i nekotoro` e drugie novo` e materialo` po istorii nauki i kulturo` Srednego Vostoka G`G` Adabiy meros - 1989, n 1 (47). S. 67 - 71.

ko'p hajmli "Tib qonunlari" kitobining qisqartirilgan muxtasar nusxalari ko'p ko'chirilga

Qomus

Qomus - o'rta asr keng qamrovli entsiklopediyasi. Eng birinchi Turon qomusi Abu Abdalloh al-Xorazmiy (X asr)ning "Mafotix al-ulum" - "Ilmlar kaliti" asaridir.

Fixrist

Fixrist – o'rta asr bibliografik ko'rsatkichi yoki kitoblar katalogi.

Lug'at

Lug'at - (Farhang). Lug'atlar Turonzaminda turli xarakterda, mazmunda va maqsadda tuzilgan. Ikki, uch, to'rt tilli, izohli va frazeologik birikmalar lug'atlari tuzilgan.

Sharh

Sharh - sharh ham diniy-ilohiy, diniy-axloqiy va odob-axloq mazmunidagi kitoblarga, ham tabiiy-ilmiy, falsafiy, ijtimoiy, dunyoviy kitoblarga yozilgan. Alohida kitob shaklida yozilgan sharhlar ham bor, ba'zan sharhlar sharhlanayotgan asarning hoshiyalariga bitilgan. Keyingisi izoh atamasi bilan nomlangan. Kur'onning sharhiga nisbatan qoida bo'yicha tafsir atamasi qo'llanilgan va kitob ham shu nomda atalgan.

Tafsir

Tafsir - talqin qilish, izohlash, tushuntirish... Arabiy ilohiyot va qur'oniy adabiyot janri va maxsus kitob turi. Tafsir atamasi bu turdagi kitobda sarlavhada ko'rsatilishi odatiydir. Tafsir kitoblar mazmunini Qur'on matnini talqin qilish bilan bog'liq muammolar majmui tashkil qiladi. Unda chuqur filologik, tarixiy va ilohiyot yo'nalishidagi izohlar Qur'on so'zlari, oyatlari va suralari bo'yicha aynan muvofiq tarzda berilishi ta'minlanadi. Shu tufayli tafsir matnlari Qur'on oyatlari raqamlarini ham qayd etadi. Goho ayrim Qur'on so'zlariga alohida va maxsus yozilgan tafsirlar ham uchraydi. Masalan, "al-Fotiha" "Ya sin" kabi suralarga tafsirlar. Agar Abdulloh ibn ul-Abbos (668 y. v. e.) tuzgan tafsir kitob holida yaratilgan deb ishonish mumkin bo'lsa edi, bu tafsir arabiy kitoblar orasida eng qadimiysi bo'lgan bo'lur edi. Lekin

ibn ul-Abbos to'g'risidagi ma'lumotlar ixtiofliligicha qolmoqda. Bu ma'lumotlarning ba'zisiga ko'ra Ibn ul-Abbosdan ko'p qo'lyozmalar qolgan. Boshqa xabarlar esa uning tafsirini o'zidan keyin qolgan shogirdlari to'ldirishgan, deb ko'rsatadi. Har ne bo'lganda ham VII-VIII asrlar chegarasida bir necha kishi Qur'onga tafsirlar yozgani ma'lum. (Zaxxoq, Mujahid. Sa'id b. Jubayr). 763 y. vafot etgan as-Sa'ib al-Qalbi, Muqatil b. Sulaymon (767 y.v.e.) va bularning zamondoshlari mazkur tafsirchilarning kitoblariga, u orqali ibn ul-Abbosning tafsiriga ishoratlar qilgan.

Qur'on nozil bo'lgach, (610-632) ikki yuz yil davomida yaratilgan tafsirlar orasida Muhammad ibn Jarir at-Taboriy (838-923) tuzgan tafsir o'zining mukammalligi bilan alohida o'rin tutadi. Bu kitobning tan olingan obro'si tufayli ungacha yaratilgan boshqa tafsirlar e'tibordan chetda qolgan. Haddan ziyod hajmining kattaligidan qat'i nazar (uning zamonaviy matbaa nashri 30 jilddan iborat), bu asar juda keng tarqalgan, musulmon dunyosining turli burchaklarida ko'chirilib kitob qilingan. 750-1050 yillar orasida ellikka yaqin tafsir yaratilgan, shulardan deyarli yarmi bizgacha etib kelmagan. Qur'onga yangi tafsirlar yaratish harakati XX asrgacha davom etganiga qaramay, ularning deyarli hammasi at-Taboriyning kitobiga suyanadi desak, xato bo'lmas. Ularning ba'zilari Taboriy asarini juda katta hisoblab, ixcham, amalda qo'llash oson qilib, qayta ishlashga urinishgan. Boshqa ba'zilari esa Qur'onni ma'lum bir g'oyaviy nuqtai nazardan turib talqin qilishgan. Masalan, az-Zamaxshariyning (1144 y.v.e.) tafsiri Qur'onning tub mag'zini ochib beruvchi ratsionalistik ruhda yozilgan. Shialar va so'fiylar esa Qur'onni ko'chma, allegorik usulda tafsir qilishgan.

Mukammal, batafsil tafsirlar yaratish tajribalari ham tarixda bir necha bor amalga oshirilgan. Chunonchi, Abu Bakr Muhammad al-Udfaviy (998 y.v.e.) "Tafsir"i 120 jild, Bahouddin Naqshbandning shogirdi va izdoshi, uning g'oyalari targ'ibotchisi, so'fiylik ta'limotining islohotchisi shayx Xoja Muhammad Porso (to'liq ismi Muhammad bin Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy, 1348 - 1420 y.) tuzgan tafsir 100 jilddan iborat bo'lgan. Bir, ikki, uch yoki to'rt jildlik, sodda, tushunarli va ravon tilda yozilgan tafsirlar omma orasida mashhur va matlub bo'lgan. Iroqlik mufassir al-Baydaviy (1316 y.v.e.), misrlik al-Mahalliy (1459 y.v.e.), uning shogirdi va davomchisi as-Suyo'tiy (1505 y.v.e.) tafsirlari ana

shunday asarlar edi. Bu kitoblar qo'lyozma nusxalarining deyarli barcha o'rta asr kutubxona va zamonaviy qo'lyozmalar majmualarida, ba'zan bir necha nusxalab mavjudligi ular keng kitobxon omma tomonidan sevib o'qilganidan dalolatdir. Umuman, sharq qo'lyozma fondlarining qariyb 10% kitoblari tafsirlarning e'tiborli qo'lyozma nusxalari va boshqa qur'oniy adabiyotlardan iboratligi islom dunyosida bu kitoblarning katta amaliy ahamiyatini yaqqol ko'rsatib beradi.[259]

Hadislar to'plamlari

Hadis, hadis to'plamlari - musulmon madaniy dunyosi kitobat ishidagi alohida (maxsus) kitob turi. Hadis to'plamlari islom dinining asoschisi rasulullah Muhammad mustafo sallallohu vassallamning aytgan o'gitlari, yo'riqlari, qilgan ibratli ishlari tafsilotlaridan iborat axloqiy-falsafiy pandu nasihatlar yig'indisi. Hadis umuminsoniyat ma'naviy dunyoqarashining islomiy g'oya qobig'ida aks ettirgan bilimlarni o'ziga xos tarzda mujassam etgan ilohiyot adabiyotining janri deb qaralishi mumkin. Hadis to'plamlarini esa maxsus kitob turi sifatida ajratish ma'quldir. Hadislarning yig'ilishida Muhammad ur-rasulallohning safdoshlari - sahobalar bergan guvohliklar asosiy ishonchli manbalar hisoblanadi. Payg'ambarimizning turli hayotiy vaziyat hodisa-voqea munosabati bilan qilgan ish-a'mollari, aytgan so'zlari haqidagi xabarlar arab adabiyoti va ilohiyot ilmining mustaqil bo'limini tashkil qildi. Har bir shunday xabar (hadis) isnod bilan tasdiqlanishi lozim bo'lgan. Isnod ilk haqqoniy manbadan boshlab hadisni yozib olayotgan kishigacha shu hadis chindan payg'ambarimizga tegishliligiga guvohlik beruvchi kishilarning uzluksiz zanjiridir. Hadisning ilk manbasi odatda Muhammad payg'ambarimizning eng yaqin kishilari Abu Bakr, Umar, Oysha, Ali, Abu Hurayra, Abdulloh ibn Mas'ud, Usmon va boshqalar bilan bog'liq bo'ladiki, Alloh ularning barchasini o'z rahmatiga olib, marqadlarini nurga to'ldirsin. Hadislarning asosiy ko'pchiligi manba e'tibori bilan yigirmaga yaqin sahobaga borib taqaladi.

Dastlab hadislar ko'p bo'lmagan. Payg'ambarimiz haqidagi, u

[259]Mazkur ta'rif matni arab kitobat madaniyati tadkikotchisi Anas Bakievich Xalidov asarlarida keltirilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan. Qarang: Xalidov A.B. Knijnaya kultura G'G' «Ocherki istorii arabskoy kulturo'. V-XV vv. M.: Nauka, 1982.» kitobida, 234-235 betlar.; Xalidov A.B. Rukopisnaya kniga v kulture narodov Vostoka. Ocherki. Kniga pervaya. M.: Nauka, 1987. - 252, 260 b.

zotning qilgan ish-a'mollari, aytgan so'zlari haqidagi xotiralar yig'ila borib, ularning soni asta ko'payib, xabar beruvchilar safi ham to'la borgan. Demak, o'z-o'zidan isnod ruyhatlari ham uzaya boshlagan. Hadislarning kelib chiqishi, matnlardagi tafovutlar, ularni etkazgan guvohliklarda farqlar paydo bo'la boshlagan. Hadislar katta ixlos bilan yozib olinishi, yozilgan hadisning ishonchli ekaniga e'tiqod tufayli VIII asrda bu ibratlarni kitob qilish an'anasi etakchilik qilgan. Madina, Basra, Kufa, Damashq kabi shaharlarda hadisnavislik markazlashdi. Ibn Shihob az-Zuhriy (760 y.v.e.), Yahyo b. Sa'id al-Ansoriy (760 y.v.e.), Ibn Jurayj (767 y.v.e.) kabilar kitobatchi muhaddislar deb yuritiladi. Bu sifat ularga hadisni yozib olib tarqatishga bo'lgan ixloslari tufayli berilgan. Muhaddislar orasida az-Zuhriy alohida ajralib turgan. U asli Madinalik, lekin Damashqda uzoq yashab ishlagan. Lekin na bu ulug' muhaddis va na boshqa uning o'sha zamondagi safdoshlari hadislarni ilk bor yig'ib kitob qilganlik martabasiga da'vo qilishmagan. Ular odatda har bir hadis haqida uni xabar qiluvchilarga isnod (ishora) qilishgan. Isnod ruyxati payg'ambarimiz safdoshlariga, xatto ba'zan ular yozib qoldirgan ma'lumotlargacha etib boradi. Shunday qilib muhaddislar faoliyatining ikki yuz yildan sal ortiq yoki kam vaqti ichida son-sanog'ini aniqlash qiyin darajada hadislar to'plandi. Ularni goh 300 ming, goh 600 ming, 700 ming, hatto million yoki bir yarim millionta ham deyishadi.

Hadislarni yozib olish bir necha bosqichga bo'linadi. Dastlab hech qanday ichki tartibsiz holda hadislar yozib olinavergan. Keyinroq ular kim tomonidan xabar qilinganiga qarab guruhlarga bo'lingan. So'ngra ularni mavzusiga ko'ra tasnif qilina boshlagan. Birinchi davrdan, ayrim iqtiboslardan tashqari, butun matnlar etib kelmagan. Ikkinchi davrdan Malik ibn Anasning «Al-Muvatta» (1700 hadis), Ahmad ibn Xanbalning «Musnad» hadislar to'plami (30000 hadisdan iborat) etib kelgan. Uchinchi bosqich o'ziga xos alomatlar paydo qilib, IX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelgan. Shu vaqtda eng mashhur olti hadis majmuasi yaratilgan edi. Shu olti kitob kanon sifatida uzoq va mustahkam obro'li hadis kitoblari bo'lib qoldi. Ming yildan ko'p vaqt ichida bulardan ko'plab nusxalar ko'chirib kelingan. Olti hadis majmualaridan uchtasi «as-Sunan» umumlashtiruvchi nom bilan yuritiladi, mualliflari Abu Dovud, Ibn Majdiy va an-Nasoiy, qolgan uchtasi «al-Jomi as-sahih» umumlashtiruvchi nomi bilan mashhur («sahih»- to'g'ri, haqqoniy» demakdir). Ulardan

bittasining muallifi shomlik Muslim bo'lsa, ikkitasining mualliflari buyuk vatandoshlarimiz, turonu-turkistonlik olimlar Imom Ismoil al-Buxoriy va Imom at-Termiziy raziyallohu anhudirlar. Imom al-Buxoriy tartibga keltirib tuzgan hadislar majmuasi esa butun musulmon dunyosida eng obro'li hadis to'plami sifatida tan olingan va Kur'ondan keyin ikkinchi o'rinda yuksak qadrlanadigan kitobdir.

Omma orasida har bir muslimu muslima bilishi va amal qilishi lozim bo'lgan eng zarur hadislardan iborat «40 (qirq, forscha chihil) hadis» saylanma kitobchalar juda mushhur bo'lib kelmoqda.

Hadislarni yig'ish usullarini o'rganish, ularni og'zaki yoki yozma xabar qilish yo'llarini tekshirish, xaqiqiy ishonchli ekanligini bilish, tasnif qilish va hokazo islomiy ilohiyot ilmida maxsus fanni tashkil etib «usul» deb nomlanadi. Buning ma'nosi hadis ilmining uslubiyoti demakdir. Ilmi hadisning xabarchilarni bilish bo'limi «rijol», hadislarning shakllanish yo'llarini o'rganish bo'limi «turuq» deb nom olgan. Hadis xabarchilarining (aslida bu hadis manbashunosligidir) ro'yxatlari alifbe tartibida tuzilib, har bir hadis aytuvchiga biografik ma'lumotlar va tavsiflar berib tartibga solingan. Ba'zan hadis xabarchilari nomma-nom keltirilsa, ba'zan ular ijtimoiy tabaqalari yoki avlod silsilasi orqali ko'rsatilgan. Shu ma'lumotlardan asta-sekin ulkan biografik lug'atlar shakllanib, ma'naviyat, madaniyat tarixi manbalari sifatida qimmatli merosga aylangan.

Hadis ilmi turli davrlar osha islom dunyosining turli o'lkalarida yuzlab va minglab olim va fozil kishilar uchun mutaxassislikka aylanib kelgan. Hadis o'rganishning maxsus ilmiy maktablari paydo bo'lgan. Shunday kutubxonalar ham bo'lganki, ularda faqat hadis ilmiga oid kitoblar to'planib hadis izlovchilar, ya'ni «muhaddis»lar va «tullab ul-hadis»lar xizmatida bo'lgan.[260]

* * *

Kitob nashrlarini, shu ma'noda qo'lyozma kitoblarni tip, tur va

[260] Ta'rif matni A. B. Xalidov asarlarida keltirilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan. Karang: Xalidov A. B. Knijnaya kultura: «Ocherki istorii arabskoy kulturo'. V - XV vv. M.; Nauka 1982 .» Kitobida, 236 - 237 betlar.; Xalidov A. B. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya traditsiya. M.: Nauka, 1985, 60 - 61 betlar; Xalidov A. B. Rukopisnaya kniga v arabskoy kulture: «Rukopisnaya kniga v kulture narodov Vostoka. Ocherki. Kniga pervaya. M Nauka, 1937. «kitobida, 252 va 260 -betlar.

toifalarga bo'lish masalasida gnoseologik yondoshgan paytimizda kitobat ishi amaliyotida tarixan shakllangan nashr turlari va xillari, ularning turli ko'rinishlari va shakllari umumiy tarzda ilmiy va ilmiy-ommabop toifalariga bo'linadi. Bu bilan real voqelikni yoki bilish predmetining xususiyati orqali belgilanuvchi nashr turi va shakllari e'tiborga olinadi. Adabiy-badiiy kitob haqida so'z ketganda ilmiy toifadagi nashr sifatida biz kulliyot, xamsa va ijodkorlar hayot vaqtida tuzilgan devonlar haqida gap yuritishimiz mumkin. Bunday nashrlar yoki qo'lyozma kitoblar odatda mualliflarning o'zlari tomonidan yoki ularning bevosita ishtiroki bilan tuzilganligi ilmiy ahamiyatga egadir. Ilmiy-ommabop kitoblar toifasiga asarlarning alohida nashri yoxud qo'lyozma kitobi, to'plamlar, bayoz, tazkira, majmua, kachkul, g'azaliyot, muxammasot, fardiyot, qasoid, ruboiyot, muqattaod, muraqqa, munshaot, kit'a kitob turlarining shakllari kiradi. Adabiyotning boshqa turlari haqida gap borsa, ilmiy risolalar, risolalar to'plami (bular ba'zan majmua ham deyiladi), qomuslar, fixristlar, lug'atlar, farhanglarni nomlashimiz lozim. Ilmiy-ommabop toifadagi nashrlarga urjuza, muxtasar, muntaxab, sharh, tafsir, izohlar kiradi.

Tarixan kelib chiqishi, muayyan etnik madaniyatga mansubligi, fanda "musulmon madaniy dunyosi" shartli atama bilan yuritiluvchi gigantlarcha arab-fors-turkiy superetnosi madaniyatining tarkibiy qismi ekanligi va, nihoyat, turonzamin qo'lyozma kitobining u yoki bu toifa, tur, xil, ular shakllarining toifalarini anglatuvchi atamalarining ma'no-mohiyati jihatidan atamalar arab tilli, forsiy va turkiy tilli uch yirik guruhga bo'linadi. Bu atamalar va kitobat ishi tushunchalarini ifodalovchi qator so'zlar Turonzamin kitobat madaniyati yagona tizimi doirasida mushtaraklashibgina qolmay, balki bir vaqtning o'zida mahalliy xalqlarining har biriga bevosita tegishli bo'lgan kitobat ishi tushunchalariga aylana boradilar. Shu bilan go'yoki, umumetnik madaniy darajada shakllangan kitobat madaniyatini xos etnik daraja ehtiyojlarini ham ta'minlagan. Boshqacha aytganda arabiy, fors-tojik, turkiy atamalar yaxlit olingan holda Turonzamin elatlarining har biri kitobat madaniyati uchun yagona atamalar tizimidir. Bu xol yagona atamalar tizimini "Turonzamin kitobat madaniyati" tizimining ajralmas qismi sifatida tushunishga to'la asos beradi.

Savollar va topshiriqlar:

1. Qo'lyozma va toshbosma kitoblar turlarini ta'riflab bering.

3-§. Qo'lyozma kitoblarni ko'chirish va nusxalarini ko'paytirish

Kitob – jamiyat ta'lim darajasi – qo'lyozmalar ko'paytirish usullari

O'rta asrlarda qo'lyozma kitoblarni ko'paytirish bir necha usulda amalga oshirilgan. Qo'lyozma kitoblardan o'zi uchun nusxa ko'chirish eng oddiy usullardan biri hisoblangan. Bunda kitob ta'lim maqsadi, ilmiy maqsad hamda boshqa maqsadlarda shaxsiy foydalanish uchun ko'paytirilgan. Bunday hollarda kitobdan nusxa ko'chiruvchilik (kotiblik) vazifasini bilim izlovchining o'zi bajargan. Kitobni o'rganish maqsadida undan nusxa ko'chirish qoidasining keng tarqanganligi musulmon madaniy dunyosida qo'lyozma kitoblar sonining ko'pligi sabablaridan biri bo'lgan, chunki aholining, ayniqsa, shahar aholisining aksariyat qismi aynan kitoblar yordamida savod o'rganar yoki bilimini oshirar edi. Jamiyat oliy tabaqasi vakillari, olimlar, shoirlar va adiblarni qo'ya turaylik, ko'p sonli bo'lajak amaldorlar tabaqasi, musulmon ruhoniylarining quyi, o'rta va yuqori tabaqasi vakillari, shahar hunar va savdo ahli – hammasi kitob yordamida ta'lim olar edi. Barcha olimlar, nafis san'at va badiiy so'z ixlosmandlari ham shaxsiy foydalanish uchun kitob ko'chirish bilan shug'ullanardilar. Lekin ko'pincha qo'lyozmalarning aksariyati – ular dastavval shaxsiy foydalanish uchun ko'chirilganmi yoki sotish uchunmi, qat'i nazar – pirovard natijada, balki ko'chirilganidan keyin bir necha o'n yillar o'tib, sotishga mo'ljallangan molga aylangan va ba'zan hatto o'nlab sohiblarni almashtirgan.

Qo'lyozma alohida shaxsning xususiy mulki bo'lgan xollarda, undan qo'lyozma egasining ruxsati bilan nusxa ko'chirilgan. Agar qo'lyozma ma'lum ommaviy kutubxonaning mulki bo'lsa, undan nusxa ko'chirish shu kutubxona nozirining ruxsatiga ko'ra amalga oshirilgan. Musulmon jamoalarining kutubxonalarida, madrasa va masjidlar qoshidagi kutubxonalarda amal qilgan an'anaga ko'ra, alohida shaxslar mazkur kutubxonalardagi istalgan kitobdan o'zi uchun bepul nusxa ko'chirishi mumkin bulgan. O'sha davrda amal qilgan yana bir ajoyib an'anaga ko'ra, umr bo'yi kitob yig'ish bilan shug'ullangan kutubxonalarning egalari ularni musulmon jamoalarining ommaviy kutubxonalariga yoki madrasa

va masjidlar qoshidagi kutubxonalarga vasiyat qilib qoldirganlar. Ular o'zlarining hadyanomalarida hatto o'z ko'chmas mulki hisobidan har yili qancha mablag'ni qog'oz va yozuv anjomlari xarid qilishga ajratishlarini alohida qayd etib koldirganlar. Mazkur qog'oz va yozuv anjomlari hadya etilgan kitoblardan nusxa ko'chirilishni xohlagan ilm toliblariga bepul berilishi lozim bo'lgan.

Lekin kitob bozorida muomalada bo'lgan qo'lyozma kitoblarning aksariyati husnixat ustalari - xattotlar tomonidan ko'chirilar edi. Husnixat ustasi bo'lish uchun savodxonlikdan tashqari, tez, aniq va sarishta yozish, arab yozuvi uslublarini, sharq qo'lyozmalarining tekstologik xususiyatlarini chuqur bilish ham talab etilardi. Xattotlar kasaba jamoasi, xususan, o'rtamiyona xattotlar, boshqa kasblarda bo'lgani singari, sinashta usulda – o'z kasbining ustasi bo'lgan xattot qo'lida, "ustoz – shogird" usulida tayyorlanar edi. Mana shu usulda tayyorlangan xattotlar kitob mahsulotining asosiy ishlab chiqaruvchilari hisoblanardi. Shu bois alohida buyurtmaga ko'ra kitob ko'paytirish (kitobdan nusxa ko'chirish) usuli Turonzamin o'rta asr jamiyatida eng keng tarqalgan usul edi, desak, o'rinli bo'ladi. Ayni holda qo'lyozma kitob nusxasini o'z uylaridagi ustaxonalarida yolg'iz yoki shogirdlari bilan birga ishlagan xattotlar tayyorlaganlar. Bunday kitoblar muqovasoz – sahhoflarning maxsus ustaxonalarida muqovalangan. Ayrim sahhoflik ustaxonalari o'z xattotlariga ega bo'lib, ular zarur holda tushgan buyurtmalarni bajarganlar. Qo'lyozma kitoblar bozorining umumiy holati hamda undagi talab bilan belgilangan mehnat taqsimoti kitob ishlab chiqarish sohasiga ham kirib keldi. Shunday kitob ustalari ham bor ediki, ular xattot va sahhof vazifasini birvarakay bajarardi. Lekin bunday mushtaraklik qo'lyozma kitoblarni ko'chirish va nasxalarini ko'paytirishning ilk mumtoz davriga, qo'lyozma kitoblarni bezashga hali XV asrdagidek jiddiy e'tibor berilmagan davrga ko'proq xos edi.

Turonzamin shaharlarida to'q va osoyishta tinchlik yillarida qo'lyozma kitoblarga bo'lgan talab oshib bordi. Bunga javoban mazkur shaharlarda xattotlar, lavvohlar (kitob bezovchilar) va sahhoflarning nisbatan turg'un ishlaydigan korxona birlashmalari vujudga keldi. O'rtahol kishilarning buyurtmalariga binoan bunday korxona birlashmalarida, sahhoflik ustaxonalarida yoki xattotning uyida tayyorlangan Turonzamin qo'lyozma kitoblarining aksariyati ancha sodda bezatilgan.

Sahhoflik ustaxonalari ba'zan yollash shartnomasiga yoki boshqa shartnomaga ko'ra buyurtmachini yakka tartibda ishlaydigan tajribali xattot bilan ta'minlash imkoniyatidan foydalangani ayrim hollarda ularni kitob ustaxonalarining korxona birlashmalari deb tasniflash imkonini beradi.

Kitobxonalar faoliyati

Qo'lyozma kitoblar saroy qoshidagi maxsus ustaxonalar – kitobxonalarda ham ko'paytirilgan. Kitobxonalar podsholar, viloyat hokimlari, yirik zodagonlarning oilaviy kutubxonalari qoshida tashkil etilgan. Ularning kitob maxzanlari uchun, qoida tariqasida, alohida did bilan bezalgan kitoblar tayyorlangan. Arab yozuvining eng mashhur va go'zal usullarida ko'chirilgan, sahifalari miniatyuralar bilan, muqovasi esa naqshinkor usulda geometrik girih usuli va o'simliksimon islimiy usullarda bezatilgan bu kitoblar aksariyat hollarda alohida badiiy qimmat kasb etar, kitobat san'atining nodir namunalariga aylanar edi. Bunday kitoblar saroy ustaxonalariga yaxshi haq evaziga jalb etiluvchi atoqli xattotlar, musavvirlar, lavvohlar va sahhoflar mehnati bilan yaratilardi. Ammo bunday ustaxonalarda yaratilgan kitoblar bozordagi kitob mahsulotlarining asosiy hajmini belgilamas edi, albatta. Mazkur kitoblar saroydan, badavlat sohibning shaxsiy kutubxonasidan chetga chiqmasdi.

Zardushtiylik madaniy dunyosining Buyuk Xusrav I (531-579) davridan qolgan va musulmon madaniy dunyosida xalifa Horun ar-Rashid (786-809) davrida qayta tiklangan udumga ko'ra, Turonzamindagi ko'pgina hukmdorlar o'z saroylarida adiblar, olimlar, muarrixlar, xolnomachilar, muhaddislar, fiqh bilimdonlari, hofizlar, mug'anniylar va kitob ustalarini to'plaganlar, o'z kutubxonalariga asos solganlar yoki ota-bobolaridan meros qolgan sulolaviy kutubxonalarni yangi-yangi kitoblar bilan to'ldirganlar, qo'lyozma kitoblardan nusxa ko'chirish, ularni ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi ustaxonalar ochganlar.

Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun (997 – 1017 yillarda podshohlik qilgan) Bag'doddagi mashhur "Bayt ul - Hikma" – o'rta asrlar akademiyasi an'analarini muvaffaqiyat bilan Turonzaminga ko'chirdi. U Gurganjda o'sha davrning eng sara ilmiy kuchlarini to'pladi, ular ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Ma'mun ibn Ma'mun saroyida arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozmalardan iborat yirik kutubxona, shuningdek, kitob ustalari,

xattotlar va sahhoflar shoh bilan uning a'yonlari buyurtmasiga ko'ra qo'lyozma kitoblar tayyorlagan kitobxona faoliyat ko'rsatar edi.

Gurganjda buyuk alloma Beruniy o'z ilmiy faoliyatini davom ettirdi, bu erda matematik Ibn Iroq, faylasuf va mutarjim Abu Sahl al-Masihiy (vafoti 1010 yil), shoir, adabiyotshunos va muarrix Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038), tabib Abulxayr al-Xammor (942-1030) ijod qildilar. Buyuk alloma Ibn Sino ham Ma'mun saroyida ma'lum muddat yashadi. Ma'mun tomonidan vaqti-vaqti bilan uyushtirilgan adabiy-musiqiy va ilmiy majlislar, mushoiralar va mubohasalarga Yaqin va O'rta Sharqning ko'pgina shaharlaridan olim va fozil kishilar to'planar edi. Boshqalar qatori, bu majlislarda falsafa va axloqqa oid risolalar hamda "Xalqlar tajribalari kitobi" muallifi, yirik tarixchi va faylasuf Ibn Miskavayh ham ishtirok etgan edi. Uning mazkur kitobi jahon tarixiga oid "Tarixi Tabariy" asaridan keyin yaratilgan birinchi yirik tarixiy asardir.

Tarixiy manbalar Buxoroda Somoniylar davrida (X asr), Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida (XVI – XVII asrlar), Buxoro xonligi davrida (XVIII – XIX asrlar), Samarqandda Amir Temur va uning nabirasi Ulug'bek davrida, Hirotda Shohruh, Boysunqur, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida (XV – XVI asrlar), Marvda (XI – XII asrlar), Qo'qonda (XVIII – XIX asrlar) qo'lyozma kitoblarni ko'paytirish va ulardan nusxa ko'chirish bo'yicha saroy kitobxonalari faoliyat ko'rsatganidan dalolat beradi. XI – XII asrlarda Xorazmshohlar ham o'z kitobxonalariga ega bo'lib, bu an'ana Xiva xonligi davrida (XVI – XIX asrlar) ham davom ettirilgan.

Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush shuaro" kitobida keltirilgan Hirot kitobxonasi haqidagi ma'lumotlar saroy kitobxonalari va ularda ishni tashkil etish to'g'risida ma'lum tasavvur beradi. XV asrning 20-yillarida otasi Shohrux Mirzoning ko'rsatmasiga binoan Boysunqur Mirzo Hirotda kitobxona tashkil etgan. Mazkur kitobxonada mashhur xattot Mavlono Ja'far Tabriziy boshchiligida kitob san'atining 40 nafar ustasi faoliyat ko'rsatgan. Bu erda xattotlar, kotiblar, miniatyurachi rassomlar, bezakchi – naqqoshlar, zahhob - zargarlar, sahhof – muqovachilar, ta'mirchilar va boshqa ustalar mehnat qilganlar. Nusxa ko'chirish uchun eng muhim va noyob adabiy asarlarni tanlab olish tilshunos olimlar, adabiyotshunoslar, turli Sharq xalqlari adabiy merosi bilimdonlari ishtirokida hamda boshchiligida amalga oshirilgan. Bunday

kitoblarning birinchi sahifasiga odatda kitob belgisi (ekslibris) – Shohruh muhri bosilgan.

1426 yilda Firdavsiy qalamiga mansub "Shohnoma" asarining turli variantlari to'plandi va yaratilganidan keyin oradan 435 yil o'tgach birinchi marta uning mukammal matni tuzilib, aynan Boysunqur Mirzo kitobxonasida qayta ko'chirildi. Boshqacha qilib aytganda, bu ishni amalga oshirish uchun Hirot kutubxonasidagi "Shohnoma"ning talay qo'lyozmalari solishtirib chiqildi, o'sha davr nuqtai nazaridan ulkan matnshunoslik tadqiqoti o'tkazildi. Dostonning yangi tuzilgan matniga katta so'zboshi berildi. Boysunqur Mirzo kutubxonasining ushbu nodir qo'lyozmasi saqlanib qolgan bo'lib, hozirda Tehrondagi Guliston kutubxonasi maxzanida saqlanmoqda. XV asr tilshunos va adabiyotshunos olimlari tomonidan amalga oshirilgan katta ishni yuksak baholagan taniqli rus sharqshunosi E.E.Bertels jumladan, shunday deb qayd etadi: «... Hirot kitobxonasi bu ishni amalga oshirmaganida, hozir biz hatto bir qancha yirik tadqiqotlarga asos bo'lgan nomukammal matnga ham ega bo'lmas edik».[261]

Qo'lyozma kitoblarni ko'paytirish va ulardan nusxalar ko'chirish, kitoblarni toshbosma usulida chop etish bilan shug'ullangan yirik kitobxona XIX asrda Xivada faoliyat ko'rsatgan. Feruz taxallusi bilan she'rlar yozgan Muhammad Rahimxon II (1865 - 1910) hukmronligi davrida bu erda badiiy ijod, tarjimonlik va adabiy mutolaaga qiziqish rivojlandi. 1908 yili yozda Xiva xonligiga tashrif buyurgan rus turkiyshunos olimi A.N.Samoylovich Xorazmda kitobat ishining holati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. O'zining "Qisqacha hisoboti"da u xon, saroy a'yonlari va xattotlar bilan uchrashuvlari va muloqotlarini, xon kutubxonasi, kitobxonasi va toshbosma kitob ustaxonasiga tashrifini mufassal bayon etgan. Jumladan, u shunday deb yozadi: "Hozir xonlik qilib turgan Sayyid Muhammad Rahimxon II Xivada fan va san'atning ma'rifatli homiysidir. U menga o'z mamlakatini ilmiy o'rganishga ko'maklashishga tayyorligini bildirdi va hatto o'zining shaxsiy kitob maxzanlariga kirishim va ular bilan tanishishimga ham ijozat berdi. Men xonning Ark va Tozabog'dagi ikkala kutubxonasida ikki marta shug'ullandim, ularda turkiy tillarda yozilgan qo'lyozmalarga asosiy e'tiborimni qaratdim. Yozda Tozabog' bag'riga ko'chirilgan

[261] Bertels E.E. Izbranno`e trudo`. Navoi i Djami. M., Gl. red. vost. lit-ro`, 1965. – S.20.

xonning toshbosma ustaxonasiga ikki marta tashrif buyurdim. Xon hazratlarining Tozabog'dagi xos xonalarida saroy xattotlarining butun boshli shtati tomonidan uzluksiz tayyorlanuvchi qo'lyozmalar va bosma nashrlarning yangi nusxalari bilan tanishdim"[262].

Qo'lyozma manbalar XIX asrning birinchi yarmida Qo'qonda ham mahalliy xonlarning kitobxonalari faoliyat ko'rsatganidan dalolat beradi. Chunonchi, Alisher Navoiy "Chor devon" (boshqa nomi "Xazoyin ul-maoniy" – "Ma'nolar xazinasi")ning Qo'qonda qayta ko'chirilgan ko'pgina qo'lyozma nusxalarida xattotlarning so'ng so'zlari – xotimalarida kitob Qo'qon xoni Muhammad Alixon farmoniga ko'ra ko'chirilgani zikr etilgan. O'zbekiston Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 1709 raqamli qo'lyozmada bayon etilgan xotima yuqorida zikr etilgan holat to'g'risida eng to'liq, mufassal axborot beruvchi xotimalardan biridir. Unda Qo'qon xoni Muhammad Alixon 1838 yili chiqargan farmonga binoan Muhammad Siddiq Tunqotar zimmasiga Alisher Navoiy "Chor devon"idan 300 nusxani xonlikning eng yaxshi xattotlari tomonidan ko'chirtirish vazifasi yuklangan. Xotimada ko'rsatilishicha, Muhammad Alixon mamlakat hayotidagi bu ulkan madaniy tadbirni onasi – shoira Nodirabegim maslahati asosida amalga oshirgan. Olti oy ichida "Chor devon"dan 300 nusxa ko'chirib tayyorlangan, lavvoh va musavvirlar tomonidan bezatilgan, sahhoflar tomonidan kitob holatiga keltirilgan. Ma'lumki, "Xazoyin ul-maoniy" devonlar to'plamini Alisher Navoiy 1492 yilda, bundan oldingi yillarda tuzilgan o'zining to'rt devonidagi she'rlarni saralash, ularni ijodiy qayta ishlash hamda yangi asarlar bilan to'ldirish asosida yaratgan. To'rt devon matnining hajmi kattaligi tufayli, "Xazoyin ul-maoniy" kitoblarining nusxalari Muhammad Alixon kitobxonasida katta bichim (format)da tayyorlangan. Mazkur kitobning hozirda O'zbekiston Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan ettita nusxasi 60 x 30 sm ga yaqin bichimda tayyorlangan. Har bir kitobning og'irligi taxminan 10 kg.

Shunday qilib, kitoblarni qo'lda ko'chirish qo'lyozma kitoblar

[262] Kratkiy otchet o poezdke v Tashkent, Buxaru i Xivinskoe xanstvo komandirovannogo Sankt-Peterburgskim universitetom i Russkim komitetom privat-dotsenta A.N. Samoylovicha v 1908 g. – Izvestiya Russkogo komiteta dlya izucheniya Srednev i Vostochnoy Azii v istoricheskom, arxeologicheskom, lingvisticheskom i etnograficheskom otnosheniyax. 1909, №4. – S.21.

an'anasini saqlashning birdan-bir vositasi bo'lgan sharoitlarda kitob tayyorlash ishida kitob ustalaridan kotiblar va xattotlar ayniqsa ko'p ishtirok etgan, deb qayd etishimiz mumkin. Ular o'zlari uchun, ta'lim va ilmiy maqsadlarga yoki havaskorlik qiziqishidan kelib chiqib kitoblardan nusxa ko'chirganlar. Kitob ustalarining ishni tashkil etish shakllari turlituman bo'lgan. Avvalambor, bu kitoblar o'z uyidagi ustaxonada yakka tartibda yoki shogirdlari bilan birga ishlovchi xattot mehnatining mahsuli bo'lgan. Kitoblarni shaklga solish ishlari maxsus sahhoflik ustaxonalarida amalga oshirilgan. Sahhoflik ustaxonalari buyurtmalarni bajarish uchun chetdan professional xattotlarni jalb etgan hollarda, ular ob'ektiv tarzda qo'lyozma kitoblar tayyorlovchi korporativ tarzdagi korxona uyushmalari vazifalarini bajara boshlagan.

Bu o'rinda asosan bozor uchun ishlagan xattotlar, lavvohlar va sahhoflarning nisbatan turg'un korxona uyushmalarini, shuningdek, kitob ustalari podsholar va saroy a'yonlarining buyurtmalariga binoan yuksak badiiy saviyadagi kitoblar tayyorlash ustida ish olib borgan saroy, davlat kitobxonalarini ham alohida qayd etib o'tish lozim.

Savollar va topshiriqlar:

1. Qo'lyozma kitoblarni ko'chirish va ko'paytirish yo'llari.

4-§. Qo'lyozma kitoblarning estetik va texnologik tavsifi. Kitob yaratish jarayonlari

Kitob estetikasi va san'atiga doir

Kitob moddiy madaniyat predmeti sifatida alohida funktsiyalarga ega unsurlar – muqova, matnli sahifalar, miniatyura-suratlar, lavhalar majmuigina emas, balki ularning o'zaro munosabatlari tizimi, yaxlit organizmdir. Qo'lyozma kitob bloki (ya'ni uni tashkil etuvchi sahifalar), shuningdek, muqovaning konstruktsiyasi hamda kitobning ichki matn tuzilishi, birinchidan, o'qishga qulaylik tug'dirishdan, ikkinchidan, uni texnologik ishlab chiqarish jarayonida maqsadga muvofiqlikni ta'minlashdan va, uchinchidan, estetik qarashlar va obrazlilikdan, ramziylikdan kelib chiqib yaratilgan.

Go'zallik haqidagi ommaviy qarashlarning kitobdagi, uning dastxat uslubi, bezaklari va kompozitsion tuzilishidagi tajassumi kitob

estetikasi demakdir. Kitobning amaliy unsurlari bilan estetik talablar o'rtasida qat'iy o'zaro aloqa mavjud. Mohiyat e'tibori bilan, muayyan tarixiy davr doirasida kitob yaratishning barcha bosqichlarida kitobga nisbatan yagona yondashuv to'g'risida so'z yuritish mumkin. Bu qog'oz va muqova, siyoh va bo'yoqlar rangi va turiga, dastxatga, butun kitobni, shuningdek, uning alohida sahifalarini bezashga, kitobning lavhalari, tugallanmalari va miniatyuralariga qo'yilgan estetik talablarning yagonaligida namoyon bo'ladi.

Har xil dastxat uslublarida ko'chirilgan yoki turli shriftda terilgan, kitob shakliga solingan matn ma'lum yangi ma'no va mazmun kasb etadi, yangi, qo'shimcha ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Muayyan matnli axborotni kitob holiga keltirish uning mazmundorligiga va kommunikativ (muloqot) xossalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu erda namoyon bo'luvchi mushtaraklik, bir tomondan, matnli xabarning semantik (ma'noli) xususiyatlarini qamrab olsa, ikkinchi tomondan, kitobning shakliy (konstruktiv) va obrazli xususiyatlarini qamrab oladi. Kitobdagi rasmlar, miniatyuralar, uning bezaklari ham yangicha mazmun kasb etadi, ular kitob bag'rida oddiy varaq yoki ramkadagidan boshqacha hayot bilan yashaydi.

Turonda qo'lyozma kitoblarni hamkorlikda ishlash yo'li ilk o'rta asrlardan boshlangan. Bu zaminda kitobat san'atining yuzaga kelishi shahar madaniyatining gurkirab rivojlanishi va qog'oz ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi bilan chambarchas bog'liq. Qo'lyozma kitoblar bir necha kasb egalarining hamkorlikdagi mehnati natijasida yuzaga kelgan. Ta'kidlash lozimki, har qaysi usta o'z davri madaniy muhiti, asar mazmuni, o'sha zamonda tutgan o'rnini inobatga olgan holda ishga yondashgan. Bu esa qo'lyozma badiiy uslubining yaxlitligini ta'minlagan. Bunday yaxlitlik muqovadan tortib ichki eng mayda detallarda ham o'z aksini topgan.

Qo'lyozma qo'ldan to'la chiqqunga qadar bir necha kasb egasiga o'tgan. Dastlab qog'ozgar qog'ozni ma'lum bichimda, turli rangda tayyorlab bergan. Bir necha yozuv uslubini egallagan xattot (kotib) undan olib matnni ko'chirib chiqqan. Navbatdagi yumush bilan naqqosh, musavvir shug'ullangan. U kitob sahifalariga turli naqshlar, asar mazmunidan kelib chiqib miniatyuralar ishlagan, sahifalarni hoshiyalar bilan o'ragan. O'ta qimmatli qo'lyozmalar muzahhib qo'liga

ham topshirilgan. U sahifalar, hoshiyalarni zarhal rang bilan bezagan. Bu ishlar bitgandan keyin sahhof (muqovasoz) kitobni jildlagan. Kitob muqovalari, odatda, teri, taxta, kartondan tayyorlanib, ularga o'yma naqshlar berilgan.

Turon-Turkiston o'rta asr kitobatchiligi asosiy printsiplarining yuzaga kelishi islom dini taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Zero, keyingi asrlarda kitob kompozitsiyasi, uning elementlariga bo'lgan talab keskin o'zgargan bo'lsa-da, yozuvning ko'hna uslublari taraqqiy etdi va uning yangi-yangi xillari yuzaga kela boshladi. Ayniqsa, miniatyura san'ati misli ko'rilmagan darajada gurkiradi. Ta'kidlash lozimki, qo'lyozma bezaklari, unda qo'llanilgan xat uslubi ko'proq ko'chirilayotgan asar mazmuniga bog'liq bo'lgan. Shunga ko'ra, diniy va dunyoviy asarlarining qo'lyozmalari bir–biridan farqlangan. Diniy adabiyotlar, Qur'oni karim va unga tuzilgan sharhu tafsirlar, odatda, yirik harflar bilan kufiy, muhaqqaq yoki nashda bitilgan. Ayrim hollarda qo'lyozmaga geometrik shakllar ham ishlangan va u kufiyda bitilgan sarlavhalar bilan uyg'unlashib, kitob ko'rkiga ko'rk qo'shgan. Dunyoviy adabiyot namunalari, ilmiy asarlar uls, rayhoniy va tezkor ta'liq xatida bitilgan. XV asrdan e'tiboran tarixiy asarlar va badiiy adabiyot namunalari uchun nasta'liq keng qo'llanila boshlandi. Nasta'liqni Hirotda yashab o'tgan mashhur xattot Mir Ali Tabriziy (1330-1404) nash va ta'liq xat uslublari asosida kashf etgan edi. Nasta'liq har ikki xat uslubining eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtirganligi sababli eng go'zal va qulay uslubga aylandi va kitobatchilikda shuhrat qozondi. U xattotlar, kitobat ustalari tomonidan keng e'tirof etildi va keyingi besh asr mobaynida Turonzamin madaniy muhitida uzluksiz qo'llanilib keldi.

Badiiy adabiyot namunalari va tarixiy asarlar ma'lum badiiy uslubda ko'chirilish bilan bir qatorda, zarhal naqshlar, islimiy va geometrik shakllar bilan bezatilgan, miniatyuralar ishlangan. Matn turli rangdagi hoshiyalarga olingan. Ba'zan hoshiyalari ham bezalgan. Diniy adabiyotni ko'chirishda ma'lum qoidalar qat'iylashgan bo'lsa, dunyoviy adabiyot namunalarini ko'chirish va qo'lyozmani bezatishning imkoniyatlari ancha keng edi. Bunda milliy madaniyat, davr xususiyatlari, ma'lum bir maktabga xos belgilar, har qaysi musavvirning ko'z qarashi kabilar ham, albatta, aks etgan.

Qo'lyozmaning badiiy va estetik jihatlari xattot uni qo'liga

olmasdan burunoq hisobga olingan. Qog'oz tayyorlashda ham, zarhal suvi, qora va rangli siyoh tayyorlashda, muqova uchun karton yoki unga mo'ljallangan teriga ishlov berishda ham ustalar ana shu narsani e'tiborda tutganlar. Qo'lyozma va qo'lyozma uchun zaruriy ashyolarni tayyorlash usullari Yaqin Sharqdan tortib Turonzaminga qadar bo'lgan musulmon o'lkalarida asosan bir xil edi. Kalligrafiya va badiiy husnixat san'ati, muqovasozlik, qog'oz tayyorlash, miniatyura va kitobni bezatish san'ati arab xatini qo'llovchi mazkur xalqlar orasida doimo bir-biriga bog'liq holda taraqqiy etgan. Arabiy, eroniy, turoniy (fors-tojik va turkiy), afg'on va boshqa xalqlar kitobatchiligidagi o'ziga xosliklar ana shu xususiyatlar bilan umumiylikka ega edi. Sharq kitobatining o'ziga xosligi ham ana shu jihati bilan farqlanadi.

4.1. Yozuv ashyolari va qurollari

O'rta asrlarda butun Yaqin va O'rta Sharqda, ayniqsa, samarqandlik ustalar tayyorlagan qog'oz qadrlangan. Bu kezlarda Samarqand qog'ozining shuhrati nafaqat musulmon madaniy dunyosi, balki Ovro'po mamlakatlariga ham yoyilgan edi. Uyg'onish davrining juda ko'p namoyandalari o'z asarlarini Samarqand qog'oziga bitganliklari ma'lum. Sharqning Buxoro, Hirot, Qo'qon kabi markaziy shaharlarida tayyorlangan qog'ozlar ham o'z sifati bilan undan qolishmagan. Taniqli sharqshunos, professor A.A.Semyonovning ta'kidlashicha, Buxoro va Hirot qog'ozlari bunday o'zining oliy darajadagi sifati: pishiqligi, silliqligi, rangi va xat tekis yozilishi bilan ajralib turgan. Shuning uchun XV-XVI asrlarda Buxoro va Hirotda tayyorlangan xattotlik san'atining yuksak namunalari bo'lmish qo'lyozmalar avvalo o'z qog'ozi bilan shu darajaga etgan.[263]

Samarqand, Buxoro va Qo'qonda ishlangan qog'ozlarni sifati va turiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin.[2642] Ularning birinchi turi ipakdan tayyorlangan bo'lib, pishiqligi, o'ta silliqligi, yupqa va nafisligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi turi esa ipak va kanop aralashmasidan olingan. Bu qog'oz qalin va pishiq bo'lardi. Uchinchi navli qog'oz asosan paxtadan ishlangan. Ushbu nav ipakdan ishlangan qog'ozchalik

[263]Semenov A.A. «O sredneaziatskoy bumage» (Sorta sredneaziatskoy bumagi, ee proizvodstvo i sposobo' okraski). Izvestiya otdeleniya obhestvenno'x nauk AN Tadj. SSR. Dushanbe 1963.Vo'p.(32). S. 5.

[264]O'sha joyda. – S. 9.

bo'lmasa-da, ehtiyojlar uchun juda qo'l kelgan va ancha ommalashgan edi.

Tayyorlangan qog'oz mahsulot sifatida hali ishlatish uchun etarli bo'lmagan: uni silliqlash ishi boshqa bir usta qo'liga topshirilgan. Bu yumush bilan esa muhrokash shug'ullangan. Muhrokashning ishi ham qog'oz tayyorlash jarayonida o'ta muhim hisoblangan. Qog'ozni silliqlash uchun dastavval uning har ikki yuziga yupqa qilib bug'doy unidan tayyorlangan ohor surtib chiqilgan. Uning ohori to'liq qurigandan keyingina silliqlashga o'tilgan. Shulardan keyingina mo'ljaldagi qog'oz olingan va unga bemalol matn yozish mumkin bo'lgan. Ayrim o'ta sifatli qog'ozni tayyorlash uchun silliqlash jarayoni ba'zan etti-sakkiz marta takrorlangan. Buning natijasida xato yozilgan matnni yuvib tashlash va uni qayta ohorlab, yana bemalol ustidan to'g'rilab ketaverish ham mumkin edi, A.A.Semyonovning yozishicha.[265] Turonzamin kitobatchiligida juda noyob qo'lyozmalar hoshiyasiga turli rang berish rasm bo'lgan. Bunda matn yupqa oq qog'ozga bitilgan va u hoshiya ustiga yopishtirilgan. Qog'ozga yoki hoshiyalarga rang berishda, asosan, uning ko'zga va asabga ta'siri, rangning nafisligi, asar mazmuni va xarakteri kabi zaruriy shartlar hisobga olingan. O'z navbatida, an'ana hoshiyalar rangining turli-tumanligini, shuningdek, tanlangan rangning jozibali bo'lishini taqozo etgan. Qog'oz yuziga uni tayyorlayotganda emas, balki ohorlash chog'ida turli rang berilgan. Surtilayotgan ohorga kerakli rang qo'shib yuborilgan, xolos. Bu esa varaqning har ikki betini istagan rangga bo'yashga imkon bergan. Ba'zan qog'oz ohorlashdan avval bo'yoqqa bo'ktirib ham qo'yilgan. Bo'yoqlar, asosan, o'simliklardan olinar edi. Shafron, saflor, xina, baqan, tut shulardan hisoblanadi. Kitob ustalari orasida ko'proq pushti, sariq, ko'k ranglar xush ko'rilgan.

Qog'oz tayyor bo'lgach, xat bituvchi qo'liga o'tgan. Bunday kishilarni kotib, xattot, xushnavis deb ataganlar. Xattot qamishdan ishlangan qalam bilan siyohda yozgan. Shuningdek, u yozish chog'ida kartondan ishlanib, matn chizig'iga mo'ljallab ip tortilgan mistardan, qalam uchini o'tkirlab turish uchun qalamtarosh, suyak yoki shoxdan tayyorlangan qalamkat, xato joylarni artib qayta yozish uchun abr, qog'ozni qirqib turish uchun esa maxsus qaychi – miqrozdan foydalangan. Bu ish qurollarining bari taxta yoki misdan ishlangan qalamdonda saqlangan.

[265] O'sha joyda. - S.16.

Qalamdonlar, odatda, qunt bilan qilingan, ustiga naqshlar ishlangan.

Qalam uchun o'rtacha qalinlikdagi, lekin o'ta pishiq qamish tanlangan va uning uchini istagancha o'tkirlash mumkin bo'lgan. Uning uchi ikki xil: to'mtoq va ingichka qilib yo'nilgan. Har ikki uchining o'z nomi bor: biri unsi, keyingisi vaxshi deyilgan. Qalam tayyorlashda, ayniqsa, uning uch kesmasi – katti muhim bo'lib, u bir oz qiyaroq yo'nilgan.

Siyoh tayyorlash yo'li ham ancha murakkabdir. Sifatli siyoh olish uchun kuya, gummiarabik, yong'oqning maxsus navi va turli mag'izlar, balzamin, rayhon va o'sma suvi, gulob va boshqa organik moddalardan foydalanilgan. Bunda uning ko'rinishi va hidining o'quvchiga ta'siri ko'proq hisobga olingan. «Yaxshi siyoh so'nggi kezlargacha qunt bilan tayyorlanar edi, - deb yozadi bu haqda A.A.Semyonov, – jumladan,. Buxoroda ham siyoh tayyorlaydigan maxsus ustalar sanoqli bo'lgan va ular bu ishning siru asrorini yaxshi bilganlar. Qadimiy qo'lyozmalardagi siyoh rangining yaxshi saqlanganligi va ulardan hanuzgacha xushbo'y hid taralib turishining sababi ham ana shundadir».[266]

4.2. «Abri bahor» san'ati

Ul bahori husn mingan qatra afshon bodpoy,
Gulshani aysh ochqali abri bahorimdur mening.
Alisher Navoiy

Turkistonda qadim-qadim zamonlardan beri ipak bo'yash, teri ranglash kabi hunarlar kamol topgandir. Bu hunarlar zaminida xom ashyoni rangga botirish jarayoni yotadi. E'tiborligi shundaki, Turon-Turkiston tuprog'ida istiqomat qiluvchi hunarmandlar qog'ozni xuddi mato singari rangga «botirish» vositasi bilan bo'yash san'atini dunyoda birinchi bo'lib yaratdilar. Qog'oz bo'yamachiligi zaminida noyob bir hunar – abri, to'laroq qilib aytganda, «abri bahor»chilik yuzaga keldi. «Abri bahor» san'ati umumiy nuqtai nazardan qaraganda xalq hunarmandchiligining bir turiga, aniqrog'i, kitobat ishi atrofida rivojlangan xattotlik, qog'ozgarlik, ohorchilik, muxrokashlik, murakkabchilik (siyohchilik), musavvirlik, naqqoshlik, lavvohlik, muzahhiblik, sahhoflik

[266]Semenov A.A. Geratskaya xudojestvennaya rukopis epoxi Navoi i ee tvortso'. Alisher Navoi. Sb.statey pod red.chl.-korr.AN UzSSR A.K.Borovkova.M.-L.,1946. – S. 160.

va jildsozlik singari hunarmandchiliklar qatoriga kiradi. "Bu hunar bilan shug'ullangan hunarmandlar o'z shaxsiy mahoratlari va ijodiy kamolotlari bilan uni yuksak san'at darajasiga ko'tara bildilar va «abri bahor» san'ati kitobat ishining o'ziga xos bir shu'basiga aylandi."[267] «Abri bahor» fors tilida «bahor buluti» ma'nosini bildiradi va bu nom sharq tasviriy san'atining nazariy talablariga javob beradi. Ovro'po mamlakatlarida «abri bahor» qog'ozidagi marmarsimon jilolalarga asoslanib uni «marmarlangan qog'oz» – «marbled paper» (ingl.) yoki «olacha qog'oz» – «buntpapier» (nem.) deb ataydilar. Arab mamlakatlarida esa bu qog'oz «tomirli qog'oz» – «varaq ul-mo"jiza» nomi bilan yuritiladi.[268] Kitobat ishi va hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan tarixiy manbalarda «abri bahor» san'ati haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi.[269] Ularda bu san'atni yuksak darajada o'zlashtirgan hunarmand ustalarning ko'plab nomlari zikr etilgan. Masalan, XVI asrga mansub «Xattot va naqqoshlar haqida risola» nomi bilan fanda yuritiladigan tazkiraning muallifi Qozi Ahmad bayon qilishicha, Mavlono Muhammad Amin Jadval va Mavlono Yahyo kabi ustalar «abri bahor»ning turli tasvirlarini yaratishda yuqori mahoratga ega bo'lganlar.[270] Sharqshunos olim, xattot va milliy kitobat ishining bilimdoni Abduqodir Murodov o'zining mashhur monografiya–tazkirasida qo'qonlik xattot Mirzo Xayrullo (XIX asr oxiri – XX asr birinchi yarmi) haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: «Mirzo kitobat va ko'chirish asboblarini ham yaxshi bilar edi. Masalan, abri bahor qog'ozi, gulli, san'atli yozuv qog'ozlarini tayyorlashda ham juda mohir va ixtisosli edi. Shuningdek, jadval va muzahhiblik ishlari va lavhalar yasashni ham bilar edi».[271]

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida bu noyob va unutilib borayotgan

---

[267] Zufarov T. «Abri bahor» san'ati haqida ayrim qaydlar. G'G' Adabiy meros, 1983, №4 G' 28G'. – 50 bet.

[268] O'sha erda.

[269] Qog'oz qilish yo'li. Qo'lyozma. XIX asr. UzRFA Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, inv. №9386; Xafti rang qog'oz. Qo'lyozma, O'sha fond, inv.№5336; Javoxir us-sanoe. Qo'lyozma. XIX asr. O'sha fond, inv. №3377-11; Madjmua: us-sanoe. Qo'lyozma. 183y. Gurjiston FA Qo'lyozmalar instituti fondi, inv. №106; Qozi Ahmad ibn Mir Munshi. Gulistone hunar. Qo'lyozma 1956 y. Sharq xalqlari san'ati muzeyi. Moskva. Inv. №444-11.

[270] Kazi Axmed. Traktat o kalligrafax i xudojnikax. M.-L. Iskusstvo, 1947. – S. 189, 192.

[271] Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Toshkent, Fan, 1971. 135 b.

hunarmandchilik haqidagi ma'lumotlar asosan chet elda chiqqan bir necha kitoblarda[272] irshlarning «Vuntpapier» - «Olacha qog'oz» kitobida «abri bahor» san'atining asl vatani ko'hna Turonzamin, shu jumladan, Buxoro shahri bo'lganligi, so'ngra bu hunarmandchilik Ipak yo'li orqali avval Eron, undan Turkiyaga, keyin esa Ovro'po mamlakatlariga tarqalganligi qayd etiladi. Odil Yusuf o'g'li Qozievning kitobidagi ma'lumotlar o'zining biroz umumiyligi bilan ajralib turadi. «Abri bahor» san'ati haqidagi atroflicha ma'lumot beruvchi asarlardan biri turk san'atshunos olimi Mustafo Ugur Derman tomonidan «Turk san'atinda abru» deb nomlangan va rangli tasvirlarda nashr etilgan kitobidir.

Turk muallifi ham «abri bahorning» asl vatani Buxoro ekanligini va Turkiyada bu san'atning rivojlanishiga aynan buxorolik o'zbeklar hal qiluvchi hissa qo'shganligini alohida aytib o'tadi. Shulardan biri bo'lgan Shayx Sodiq XIX asr boshlarida Turkiyaga borib qolgan va Uskudor viloyatiga qarashli o'zbeklar dargohida 1846 yilda vafot etgan. Mustafo Ugur Dermanning ta'kidlashicha, Turkiyada «abri bahor» san'atining aksariyat namoyandalari ana shu o'zbeklar dargohidan chiqqanlar. Turkiyada hozirgi kunda ham «abri bahor» san'atini davom ettirayotgan Mustafo Duzgunman va aka-uka Sa'mi va Sa'jid Ukyoy singari usta-san'atkorlar bor. Kitobda «abri bahor» san'ati uchun qo'llaniladigan asboblar va bo'yoqlarning bayoni mukammal berilishi bilan birga, «abri bahorni» yaratish jarayoni ham rangli tasvirlarda tartib bilan keltirilgandir.

T.Zufarovning maqolasi o'zbek tilida chiqqan «abri bahor» haqidagi yagona ilmiy ish bo'lib, unda bu san'at bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Muallifning talqiniga binoan qadimiy usul bilan «abri bahor» yaratish jarayonining bayoni quyidagicha: «Abri bahor» ko'zsiz taxta, silliqlangan rux yoki boshqa biror metalldan yasalgan asos ustida yaratiladi. Agar asos yog'ochdan qilingan bo'lsa, suv shimmasligi uchun uning yuziga mum surtiladi. «Abri bahor» yaratiladigan asos doimo to'rtburchak shaklida yasalib, atrofi ikki enlik to'siq bilan o'raladi. Shu tariqa hosil bo'lgan idishni qadimda «lagan» deb ataganlar. Laganlar, qog'ozning bo'yi va eniga qarab turli kattalikda yasalgan.

272Masalan, qarang: Kaziev A.Yu. Xudojestvennoe oformlenie azerbaydjanskoy rukopisnoy knigi XIII-XVII vekov. M., Kniga, 1977, 317-319 betlar Xammerli A., Xirsh O. Olacha qog'oz. G`BuntpapierG`.-Myunxen, 1961-Nemis tilida; Ugur Derman M. Turk san'atinda abru. Istambul, 1977

«Abri bahor» yaratishga kirishilar ekan, avvalambor, lagan yaxshilab tozalangan va imkoni boricha uni yog' tegishdan ehtiyot qilingan. So'ngra uning ustiga bir oz yopishqoq modda aralashtirilgan eritma quyilgan. Bunday eritmani tayyorlashda ko'pincha yomg'ir suvidan foydalanilgan. «Abri bahor» uchun suvda erimaydigan, yog'siz, tabiiy bo'yoqlar qo'llanilgan. Bo'yoqlarni ishlatishdan oldin toshdan yasalgan maxsus «dasta sang» (tosh dasta) bilan yaxshilab eziladi. Bo'yoqlarning batamom ezilishi uchun kukun holiga kelgan bo'yoqlarga suv qo'shilib, yana ezilmasa, u holda ezilmay qolgan donachalar qog'oz bilan lagan orasida bo'shliq hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada, «abri bahor» qog'oz betiga mukammal tushmasligi mumkin.

Shu tariqa yaxshilab ezilgan bo'yoqlarning har birini alohida-alohida idishlarga solib, bir oz qaynatib olingan sigir yoki qo'y o'ti bilan aralashtirib qo'yilgan. O'tni qaynatib olishdan maqsad uning aynib qolishini oldini olishdir. Hayvon o'tining ajoyib xususiyati shundaki, u asta-sekin yoyilib, biri-birining orasiga kirib, antiqa tasvirlarning maydonga kelishiga vosita bo'ladi. Agar bo'yoqlarning ko'proq yoyilishi istalsa - ko'proq, kamroq yoyilishi istalsa - kamroq o't qo'shilgan. Ana shunday bo'yoqlar ot dumi qilidan qo'lda yasalgan oddiygina cho'tkalar yordamida lagandagi eritma ustiga sochilgan. Buning uchun bo'yoqqa botirib olingan cho'tkaning dastasi chap qo'lning ko'rsatkich barmog'iga qayta-qayta urilgan. Natijada, eritma yuzida turli rangdagi katta-kichik xol-nuqtalar hosil bo'ladi. Bu nuqtalar o'z o'rnida bir-birining orasiga kirib, ajoyib bir tasvir hosil bo'ladi. Qadimda, ana shunday tabiiy ravishda hosil bo'lgan tasvirga hech qo'l urmay, qandoq bo'lsa shundoqligicha qog'ozga ko'chirilsa, bunday «abri bahor»ni «tarzi qadim» deb ataganlar. Vaqt o'tishi va «abri bahor» san'atining kamoloti natijasida «abri bahor»ning yangi-yangi nusxalari yaratildi. Bu, albatta, «abri bahor» yaratuvchi san'atkorlarning ijodiy mahsulidir, chunki «abri bahor» san'atida haqiqiy ijod ayni shu erda, ya'ni san'atkor lagan bo'yoq socha boshlagan fursatdan boshlanadi. Bunda san'atkor xayoloti va shaxsiy mahorati asosiy rol o'ynaydi. Ammo, muhimi shundaki, «abri bahor» yaratilishidagi har qanday shaxsiy ijod qadimiy an'ana doirasida amalga oshirilgan. Bunda shu narsa nazarda tutiladiki, bo'yoqlar vositasida ro'yobga keltirilayotgan tasvir biror tomoni bilan «abri bahor» iborasining mazmuniga monand bo'lishi kerak. Jumladan,

«abri bahor»ning «Bulbul uyasi», «Charxi falak», «Chechakli abri», «Lolali abri» singari turlari borki, ular mazmunan bevosita bahor bilan aloqadordirlar. Bunday tasvirlarni san'atkorlar nihoyatda oddiy asboblar vositasida, ya'ni bir dona ot yoli o'rnashtirilgan «bigiz» yoki o'nlab ot yolidan yasalgan «taroq»lar bilan bunyod qilganlar. Odatda, bo'yoqlarni toza saqlash maqsadida har bir bo'yoq uchun alohida-alohida cho'tka ishlatilgan. Nihoyat, lagan yuzida hosil qilingan tasvirlar ustiga ehtiyotkorlik bilan bir tomondan boshlab qog'oz yopilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, qadimda «abri bahor» yaratishni «abri yopish» deb ham yuritilgan. «Abri bahor» uchun ko'proq «qog'ozi nimkatoniy» qo'llanilgan. Chunki bu qog'oz ma'lum darajada shimish qobiliyatiga ega bo'lgan. Odatda, «abri bahor» uchun o'ta silliq, qalin va yog'li qog'ozlar ishlatilmagan. Lagan ustiga yopilgan qog'oz o'n–o'n besh soniyadan keyin bigiz yordamida bir chekkasidan ohista ko'tarib olingan va salqin joydagi chiy ustiga yoyib quritilgan. So'ngra, «muhra» bilan unga jilo berilgan».[273]

O'rta asrlarda «abri bahor»li qog'oz nihoyatda ko'p qo'llanilgan. Har bir xattot va sahhof oldida ma'lum miqdorda turli xil «abri bahor»li qog'ozlar mavjud bo'lgan.

Sahhoflar bunday qog'ozlarni asosan kitobning forzatsi – «yon qog'ozi» uchun ishlatganlar. Ba'zan muqova yuziga ham «abri bahor»li qog'oz qo'llaganlar.

To'xtamurod Zufarovning ushbu kitob muallifiga 1991 yil 8 dekabrda yo'llagan shaxsiy bitigida «abri bahor» san'ati haqida quyidagi qiziqarli va chuqur optimistik ruhga yo'g'rilgan fikrlar bildirilgan: «Abri bahor» san'atidagi tavsirotga hozirgi zamonning tushunchasi bilan qarasak, mavhumiyat (abstraktsiya)dan boshqa narsani ko'rmaymiz. Ammo, sharq hunarmandchiligining noyob xususiyati shundaki, uning namoyandalari bemazmun va nokerak narsalarga vaqt sarf qilmaydilar. Shu o'lmas an'anaga ko'ra, «abri bahor» san'atining ustalari ovrupo odamlari uchun absurd, ya'ni ma'nosiz hisoblanishi aniq bo'lgan tasvirlarga o'zlarining o'tkir zakovatlari ila ma'lum mazmun baxsh eta olganlar. Qimmatli o'rni shundaki, bu mazmun sharq falsafasining

[273]Zufarov T. O'sha asar, 51-52 betlar. «Abri-bahor yaratish jarayoni bayonida biz boshqa manbalar bilan birga asosan Mustafo Ugur Dermanning «Turk san'atida abru» asariga suyandik»-T.Zufarov iqtibosi. O'sha asar, 52 bet.

go'zallik oqimlariga o'lmas makon vazifasini o'tay oladi. Shunga ko'ra, komil ishonch bilan ayta olamizki, «abri bahor» san'ati bag'oyat kuchli matkuraning qog'oz betidagi rangli ifodasidir. Shuning uchun ham «abrli qog'ozlar» kitobat san'atida qo'llanar ekan, ularning bosh vazifasi kitobga ilohiy mazmun baxsh etishga qaratilgandir». Bu so'zlarga har qanday qo'shimcha izohlar ortiqchalik qiladi, deb o'ylaymiz.

4.3. Qo'lyozma kitob matnining tuzilishi

Kitob quyosh bo'lsa.
Maktab bir jahon,
Unda kamol topar
Haqiqiy inson.
Kitobdir beminnat.
Beg'araz ustod,
Har damda qilursan
Unda bilim yod.
Abdurahmon Jomiy

Qo'lyozma kitoblarda nasriy matnlar, odatda, gorizontal, biri ikkinchisiga parallel holda bitilgan. She'riy asarlar esa 10-20 qatordan, ustun tartibida bitilib, girdi hoshiyalar bilan o'ralgan. Ba'zan qo'lyozma sahifalariga geometrik shakllar, bodom, nok shakli, turli idish-oyoqlar, tumor ko'rinishli uchburchaklar, qush va boshqa hayvon rasmlari ishlanib, matn ularning atrofiga yoki oralariga yozilgan.

Sahifa matni bir yoki bir necha chiziqli zarhal, qora va boshqa rangli hoshiyaga o'ralgan. Kotib yoki o'quvchi hoshiyadan tashqariga zarur qaydlarni belgilab borgan. Ayrim diniy-falsafiy, ilmiy asarlar hoshiyasiga sharhlar ham bitilar edi. Sharhlar ba'zida satr oralig'idagi bo'sh joylarga ham yozilgan. Ayniqsa, keyingi asrlarga mansub qo'lyozmalarda bunday sharhlarni ko'p uchratamiz. Qizig'i shundaki, ba'zan hoshiyalarga boshqa original asar ham yozilgan.

Arab yozuvli qo'lyozmalarda matn o'ngdan chapga yoki tepadan pastga qarab yozilgan. Bu, o'z navbatida, qatorlar soni, sahifalar, boblar, kitob jildidan kelib chiqqan. Qo'lyozma uni hosil qiluvchi har biri 10-12 varaqli daftarlar – juzlardan tashkil topgan. XIV asrdan e'tiboran

varaqlarga poygir belgilari (varaqlar oldinma-ketinligini ko'rsatuvchi ifodalar) qo'yilgan. Keyinchalik, XVIII-XIX asrlardan sahifalarga tartib ko'rsatkichi qo'yila boshlandi (bu ehtimol Ovro'po ta'sirida ro'y bergan bo'lishi mumkin).

Har qaysi varaqning ikkinchi sahifasiga, hoshiyadan tashqariga o'tish belgisi – hafiz qo'yib ketilgan. Odatda, hafiz navbatdagi sahifaning bosh so'zidan iborat bo'lar edi. Kotiblar ushbu belgini ish jarayonida qulaylik bo'lsin deb o'ylab topganlar va bu narsa o'z navbatida kitobdan foydalanuvchilar uchun ham juda qo'l kelgan.

Arab yozuvida bitilgan asarlarning eng yirik tarkibiy kitobiy bo'linmalari sifatida kitob va jild nomlari ishlatilgan. Qism, fasl, bob (arabcha eshik demakdir), maqola kabi nomlanishlar esa kitobning yoki jildning ichki, nisbatan kichikroq bo'laklari tushunchasini ifodalagan. Bibliografik va qomusiy asarlarda fan istilohi (termini) bilim sohalarining turi va xillariga nisbatan qo'llanilgan. Qism, bo'lim, bob va boshqa tarkibiy birliklar matn ichida odatda goh yirik yozuvda qator qilib ajratilgan, goh ularning nomiga maxsus sahifalar berilgan. Kotibning buyurtmasiga muvofiq lavvoh usta tomonidan ba'zan bu kabi ajratilgan satrlar yoki sahifalar maxsus naqsh bezaklar sifatida ishlanib, o'z o'rnida san'at namunasiga aylangan. Nomlar va bosh harflar qizil, zarhal ranglarda yozilib, jadval chizmalar, naqsh va naqsh lavhalar orasiga olingan.

Har qanday asar beistisno «Bismillohir rahmanir rahim» jumlasi bilan boshlanib, bu jumla musulmon xalqlari kitobat ishida hech qachon tarjima qilingan emas. Hozirgi zamon matnshunoslik fanida bu jumla qisqartilib «bismillo» deb qo'ya qolinadi, ruscha nashrlarda «basmala» deb beriladi. «Bismillo»dan keyin Ollohning sha'niga hamdu sano keladi, undan keyin uning payg'ambari Muhammad alayhissalom sharafiga na't keladi. Bu zaruriy unsurlar ham matnshunoslikda qisqacha qilib hamdulloh yoki na't deb yuritiladi. Har bir muallif ijodiy tarzda hamdulloh matni ichiga islom dini, islom jamoasi hamda mazkur asarga bag'ishlangan bilim sohasining maqtovlarini ham kiritishi mumkin bo'lgan. Hamd, sano va na'tdan keyin odatda «va ba'du» so'zi ishlatilib, shu erdan kitobning asl muqaddimasi boshlangan. Shuning uchun hozirgi matnshunoslar biror asarning bosh qismini tavsif etmoqchi bo'lsalar undan ikki parchani keltiradilar. Birinchisi «hamdulloh» formulasining bosh qismi, ikkinchisi – «va ba'du» so'zidan keyingi dastlabki jumlalardir.

Asarning nomi va muallifning ismi-sharifi birinchi varaqning matndan xoli birinchi sahifasini band etgan. Ba'zan asar matni boshida shu varaqning orqa sahifasida alohida ajratilgan satrda berilgan. Ko'pincha asar nomi va muallif ismi-sharifi birinchi varaqning har ikki sahifasida kelishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, shu ma'lumotlar kitob matnining so'ngida ta'rix (kolofon) sifatida berilgan bo'lishi mumkin. Eng ko'p uchraydigan holat deb ism-shariflar muallif muqaddimasida asarning birinchi sahifalarida kelishini atash mumkin. Ba'zan asarning nomi qo'lyozma egasi yoki kutubxonachi tomonidan asar muqovasi ustiga yoki yoniga yozilardi.

Qo'lyozmaning asosiy matni birinchi yo ikkinchi varag'ining orqa sahifasidan boshlanadi. Matn birinchi varaqning orqasidan boshlanganda uning o'ng yuzasi yumaloq yoki yulduzsimon gulbarchin naqsh bilan bezatiladi. Naqshning o'rtasiga oltin suvi, lojuvard, pistoqi, qizil va boshqa ranglar bilan quyoshsimon yumaloq lavh tasvirlanadi. Bu shams deb ataladi (arabcha quyosh demakdir). Shams o'rtasiga asarning nomi, muallif ismi sharifi kabilar husnixat usuli bilan joylashtirilgan. Agar shams o'rtasida faqat buyurtmachining nomi yozilgan bo'lsa, bu kitobning mansubligi, kimga tegishliligini ko'rsatadi. Ovro'po kitobat ishida bunday belgi ekslibris, ya'ni «falonchining kitoblaridan» degan ma'noni bildiradi. Birinchi varaqning orqa sahifasi va ikkinchi varaqning oldi sahifasi yirik va chiroyli unvon bilan bezatilgan bo'lsa yoki har ikki sahifaga yaxlit bitta naqsh bezak (frontispis) chizilgan bo'lsa, kitob matni ikkinchi varaqning orqa sahifasidan boshlangan. Turonzamin qo'lyozmalarining ichki bezaklari uchun zarur hisoblangan unsur (element) sifatida unvonlar va frontispislar kulliyotlarda, dostonlarda, devonlarda bir necha joyda uchrashi mumkin. Bundan maqsad shuki, bular bir asarni ikkinchisidan ajratish uchun maxsus xizmat qilgan. Masalan, xamsalar. Navoiy kulliyoti qo'lyozmalari, «Xazoyin-ul maoniy» devonlari to'plami va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Aytish lozimki, bir qo'lyozma ichida unvonlar va frontispislar bir-birini hech qachon takrorlagan emas.

Arab yozuvida tinish belgilari kamdan-kam qo'llanilgan. Odatda, gaplar va aytimlar matnning boshqa yirikroq bo'laklari singari sintaktik vositalar yordamida chegaralanadi va o'zaro birikadi. Tinish belgilari sifatida uchburchak shakldagi yulduzcha, kichik doiracha (ba'zan

o'rtasida nuqta ham bo'ladi) kabi belgilar ishlatilgan. Ular bitta, juft yoki uchtagacha ketma-ket qo'yilgan. Kitobning so'ngida, bo'lim yoki matnning bo'lagi oxirida uchraydi. Ko'pincha tinish belgilari rangli bo'yoqlar, oltin suvi (hal) bilan bezak maqsadlarida ham qo'yiladi.

Arab yozuvida qisqa unlilar aks ettirilmagani, qo'sh undoshlar orfografiyasining yo'qligi tufayli unlilarni ko'rsatish va boshqa ba'zi orfografik ifodalarni aks ettirish uchun satr osti yoki ustida maxsus ishorat belgilari qo'llangan. Shuning uchun arab yozuvidagi matn ixcham va siqiq bo'lgan. Shu xususiyat arab yozuvida tayyorlangan kitob jildiga ko'p miqdorda asarlarni joylashtirish imkonini bergan. Kitobat ishidagi devon, bayoz, tazkira, majmua kabi to'plamlar hamda kulliyot, xamsa kabi yirik to'plamlar ortiq qiyinchiliksiz, bir jild hajmida joylasha olgan.

4.4. Kotiblik mehnati va san'ati

Xushnavis kotib so'zga oroyish berur
va so'zlaguvchiga osoyish etkurur.

Alisher Navoiy. «Mahbubul qulub»

Husnixat ustasi – kotib kitobning eng asosiy ijrochisi va yaratuvchisidir. Buyurtma qilinayotgan kitob haqida barcha muzokara kotib bilan olib borilgan. U kitobning bor matnini ko'chiribgina qolmay, uning tuzilishi bilan bog'liq barcha unsurlarni rejalashtirgan. Bezak va miniatyuralar uchun ochiq joylar va sahifalar ajratgan. Umuman, musavvir va lavvohning kitobni tayyorlashdagi ishlarini oldindan belgilab bergan. Kotib kitobning mazmuni va maqsadiga muvofiq u yoki bu xat xilini tanlagan. Sahifalar bo'ylab ustunlar va qatorlar sonini belgilagan. She'riyat matnlarini kitob betlarida badiiy did bilan joylashtirish kabi vazifalarni bajargan. Masalan, yirik hajmli she'riy doston sahifada g'azal, mustazod, musaddas va boshqa kichik janrlardan farqli joylashtirilgan. Ruboiy, tuyuq, chiston, fard kabilar ham har bir asarni ajratib ko'rsatishga mo'ljallab bezaklar vositasida joylashtirilgan. Masnaviy, qasida, soqiynoma kabi poetik asarlar ham o'ziga xos kompozitsiya talablariga muvofiq o'rin topgan.

Har bir xattot «xafi» deb ataluvchi mayda va «jali» deb ataluvchi

yirik hartlar bilan yoza olgan. Yana xattotlar Turonzaminda keng tarqalgan nasx, nasta'liq va suls xat turlarini mukammal bilmog'i shart hisoblangan. Nasx xatida odatda Qur'on oyatlari, hadislar, hadislardan parchalar yozilgan. Nasta'liq xati bilan ko'proq badiiy adabiyot va tarixiy asarlar ko'chirilgan. Suls xatidan esa ilmiy asarlarni ko'chirishda, badiiy asarlar namunalarining sarlavhalarini, bo'lim nomlarini, bob va suknlarini ajratishda foydalanilgan. Bulardan tashqari Turon xattotlari tomonidan nasriy qissalar, yilnoma kabi asarlarni ko'chirish uchun rayhoni xatiga murojaat etilgan. Ba'zan badiiy-adabiy asarlar uchun shikasta, Qur'on parchalari va diniy-ahloqiy mazmunli asarlar uchun muhaqqaq, qonunchilik hujjatlari, farmon va buyruqlar uchun tavqi, kundalik ish yuritish yozishmalari va maktub-munshaot uchun riq'o kabi xat turlaridan foydalanilgan.

Musulmon dini tomonidan odamning ramzini tasvirlash man etilgani tufayli arab yozuvining naqsh bezakli shakllari rivojlanishiga keng yo'l ochilgan. (Bu qoida miniatyura san'atiga u qadar ta'sir etmagan.) Arab yozuvining bezakli imkoniyati har bir harfning turli shakllarda yozilishi bilan izohlanadi. Harfning so'z boshida, o'rtasida, oxirida yoki alohida turishida har xil yozilishi ham bezakdorlik uchun hisobga olingan. Turli xillarga bo'lingan yozuv uslublaridan tashqari turmush buyumlari yuzida, me'morchilik obidalarida, girih va islimiy naqshlar bilan birga ishlatilgan badiiy-arabiy xat chizmakashlik (grafik) san'atining etakchi tarmoqlaridan biriga aylangan. Bu kabi ikki san'atning o'zaro kirishib ketishi Turkiston me'morlari, bino sarkorlari, devorlarni bezovchi mashshoqlari, rassom va naqqoshlari, musavvirlari tomonidan bezak san'atining yaxlit va yagona ta'minoti sifatida shakllantirilgan. Naqsh ilmining o'zagini geometrik (girih) va o'simlik (islimiy) tasvirlarini tuzish usullari tashkil qilar edi. To'g'ri geometrik shakllar tuzish va mutanosiblik asosiga qurilgan islimiy shakllar va ulardan kelib chiquvchi hosila naqshlar atrofida ustalarning ijodiy xayoloti va amaliy faoliyati yuzaga chiqar edi.

Bu ta'limotning qat'iy turumlari va nizomlari avloddan avlodga uzatib kelingan. Ularning nazariy-ilmiy va amaliy asoslari matematik olimlarning asarlarida, ko'plab ustalarning chizma daftarlarida ishlab chiqilgan. Naqsh haqidagi ta'limot naqsh-tasvirning *«rupuh», «islimiy», «nilufar», «salamiy», «fasaliy», «abr», «vag», «xatayi», «tarraxiy»,*

«akra», *«farangi»*, *«bandi»*, *«rumiy»*, *«dandonamushiy»* kabi qator tur va uslublarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ma'lumki, bu turdagi naqshlar o'rta asr Markaziy va Old Osiyoda keng tarqalgan edi. Kitobat ishidan tashqari naqshlar xillari, ko'rinishlari me'morchilik, gilamchilik, badiiy san'at, hunarning boshqa turlarida keng qo'llangan. Kitobat san'atida muqova, qo'lyozma sahifalari, hoshiyalari, matn yuzasi, frontispis, lavhalar, tugallanishdagi naqshlarda, mo"jaz suratlarning chekkalari va boshqalarda naqshin bezaklar ishlatilgan. Unda harf gul, gul esa naqshga ulab ketilgan. Hammasi bir bo'lib yuksak mutanosiblik va uyg'unlik hosil qilgan. Imoratni bezash uchun girih va islimiy naqshlar bilan qo'shib ishlatilgan badiiy yozuv Samarqandning Go'ri Amir, Bibixonim, Registon me'morchilik majmui, Shohi Zinda va boshqa yodgorliklarida, Hirotning Temuriylar zamoni imoratlarida yuksak taraqqiyot darajasiga erishdi. Bu kabi yozuv–naqsh san'ati an'analari XVI-XIX asrlarga oid Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent va boshqa shaharlardagi ko'plab yodgorliklarda ham davom etdi. Bu davrga oid yirik masjid, madrasalar, minora va xonaqolarining peshtoqlari, jamoat binolarining devorlari Qur'on oyatlari, hadislar, mashhur olimlarning fikrlari, faylasuf va shoirlarning satrlaridan iborat go'zal yozuv naqshlar bilan bezatilgan. Bu naqshlarning asosini xattot - husnixat ustalari tayyorlashgan. Ulardan katta hajmli ko'chirmalarni ganchkor, koshinkor ustalar tayyorlashgan. Badiiy yozuvdan to'qimachilik, chinnisozlik, temirchilik, tosh yo'nish, yog'och, ganchkorlik, rang-bo'yoq, gilam to'qish ustachiligi kabilarda keng foydalanilgan. Shu ustakorlik mahsulotlari bo'lmish gilam, kiyim-bosh, belbog'-kamar, mis, barkash, turli idish, darcha va boshqalarda yozuv san'atining ajoyib namunalari etib kelgan. Yozuv naqshi bilan qurol-aslaha (qilich, qalqon), qabr toshlari, uy-ro'zg'or buyumlari (kumg'on, lagan, tovoq, chovgum) va boshqalar ham bezatilgan.

Badiiy yozuv taraqqiyotining tamoyili, avvalo, u yoki bu davr va uning nafosati hamda amaliy talablari bilan bog'liqdir. Manbalarning guvohlik berishicha, ming yildan ko'proq davrda tadrijiy o'sish yo'lini bosib o'tgan olti xat uslubi (nash, suls, riq'o, rayhoniy, tavqiy, muhaqqaq) asosida ularning turli-tuman uslubiy xillari yuzaga keldi. Turli tarixiy sharoit taqozosi bilan Yaqin va O'rta Sharq, Turon-Turkistonda XIX asr oxiriga qadar etmishga yaqin xat turlari bo'lib, ularning barchasi mazkur olti mumtoz uslubiga borib taqaladi. Yangi-yangi yozuv

uslublarini yaratishda Turon, Ozarbayjon va Eronning turkiygo'y va forsiygo'y xattotlari barobar ishtirok etganlar. Shunday paydo bo'lgan ta'liq, nasta'liq, shikasta, majoriy, ijoza, devoniy, jali-devoniy, riq'o, qirma, siyog'at kabi yozuvlar qadimiy mahalliy madaniyat ta'siri, yozuv madaniyati an'analari belgilariga boy bo'lgan. Masalan, ta'liq xati Eronning qadimgi va ilk o'rta asr pahlaviy yozuviga yaqin va o'rta asrlarda yaratilgan. Siyog'at xati sug'd yozuvi asosida shakllangan eski uyg'ur-turkiy yozuviga yaqin.

Badiiy yozuvga san'at sifatida qarash arab yozuvining naqshin imkoniyatlaridan badiiy adabiyotda tasviriy poetik vosita kabi foydalanishda o'z ifodasini topib kelgan. Masalan, alif yorning go'zal va xushbichim qomatiga, dol - sevikli yor ishqida g'am chekayotgan oshiqning bukilgan qaddiga, sin harfi - go'zalning tishlariga, nun harfi - g'azabkor yorning qoshi va uning ustidagi nuqta xoliga, sod harfi - yorning bodom qobog'iyu mijja-kipriklarining uzunligiga, lom-alif – seviklining qo'sh o'rma uzun sochlariga, ba'zan esa yorning bir so'zda turmay makkorlik qilgani, so'z bilan qalbi bir emasligiga va hokazo, hokazo timsoliy hollarga nisbatan tasvir vositalardir. Rayhoniy, tumor, shikasta, g'ubor, jalil, musalsal, masohif, uhud, mamzuj, mo"jaz kabi yozuv uslubiy istilohlari mumtoz adabiyotimiz tarixida istiora kabi adabiy-badiiy vosita xizmatini o'tagan. Masalan, rayhon - xushbo'y o'simlik, tumor - balo-qazodan himoyat kuchiga ega bo'lgan nishon, shikasta – g'am-anduh, ishq iztirobidan xarob, siniq ko'ngillik, g'ubor - hayot azoblarida xarobot g'ubori bilan qoplanmoq, jalil - ulkanchilik, buyuklik, musalsal - zanjirdek uzviy bog'liqlik (silsila), masohif – bitmas ko'rguliklar, g'am-alam, iztiroblar yoki baxt, najotning sahifalari, uhud - va'da va majburiyat, mamzuj – yor mizojiga, ya'ni kishi tabiatiga xoslik, mo"jaz - nafis va noziklik, ixchamlik, muallif – tuzuvchi, bitib bergiuvchi, yozuvchi, ya'ni alifdan boshlab yoygacha savodlik kishi va hokazo obrazlar ifodasi harfiy belgilar qiyofasi bilan uyg'un ekanligidan adabiy tasvirda unumli foydalanilgan.

Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Jomiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Hamza, Miskin, Xurshid va boshqa yuzlab shoirlar turkiy, fors-tojik tillarida ijod etib, bu kabi adabiy-badiiy vositalardan keng foydalanishgan. Hozirda qator g'azalnavis shoirlar Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, E'tibor Oxunovalar ijodida ham bu

an'ana uchrab turadi.

Turonzamin xattotlik san'ati tarixining ulkan bilimdoni Abduqodir Murodov badiiy-tasviriy vosita sifatida arab harflaridan foydalanishning to'rt xili mavjud ekanligini ko'rsatgan edi.

1. Shoirlar arab harflari shaklidan lirik qahramonning tashqi qiyofasi - suratini tasvirlash uchun foydalanganlar. Misol:

Tushganim Majnun bila Farhod ayog'iga ko'rib,
Goh tanimni «nun» qilib, gohi qaddim «dol» aylamish.
(Navoiy)

2. Lirik qaxramonning ichki dunyosi – surati so'z o'yini shaklida ifodalanadi:

Mushkin qoshingni hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qasdim uchun «nas» kelturur «nun» eltibon «sod» ustina.
(Ogahiy)

3. Qahramonlarning ahvol-ruhiyasi biror so'zning barcha harflariga yangi so'zlar orqali ma'no berish usuli bilan ifodalanadi.

Misol:

«Jon»imdagi «jim» ikki domingg'a fido,
Andin so'ng «alif» toza niholingg'a fido
«Nun» i dog'i anbarin hilolingg'a fido,
Qolgan iki nuqta iki xolingga fido.
(Navoiy)

4. Xat uslublari nomlaridan ham badiiy ifoda sifatida foydalanish.

Misol:

Havoi xoki poying sharhini tahqiq edan mardum
G'ubor ila bayozi diydai xunbora yozmishlar.
Gulistoni sari ko'ying sifatin bob-bob, ey gul,
Xati rayhon ila jadval chekub gulzora yozmishlar.
Bog' lavhaini xazon bargi zarafshon aylar,
Ob ul lavhda mashqi xatti rayhon aylar.
(Fuzuliy)[274]

Sharq, shu jumladan, Turonzamin kitobat ishi negizida badiiy-tasviriy va emotsional-obrazli o'ziga xoslik va o'qishga qulaylik talablarini hamda kitob boyligini ko'paytirish va bilim tarqatishga xizmat qiluvchi insonning ijtimoiy-amaliy faoliyati sohasini o'zida mujassamlashtirgan

[274]Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Toshkent, Fan, 1971.-46-47 betlar.

kitobat san'atining mustaqil tarmog'iga aylangan xattotlik san'ati ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanar edi. Miniatyura san'ati, qo'lyozmalarni bezash san'ati, sahhoflik va lavvohlik san'ati singari xattotlik san'ati va mehnati ham eng nufuzli san'atlar va kasblar qatoriga kirardi. Kitob ustalari san'atining ildizlari xalq amaliy ijodiga borib taqaladi. Umuman olganda, bu san'atni kitobat ishining qadimgi tarixiy an'analari davomi deb atash mumkin. Mohiyat e'tibori bilan o'ta xalqchil bo'lgan bu san'at xalqning ijtimoiy-estetik ideallarini va xalq ruhini ifoda etar edi. Barcha go'zal narsalar singari, kitob ustalari san'ati ham odamlarga estetik lazzat baxsh etardi. U mumtoz adabiyot qahramonlari va obrazlari olami, ilmiy va badiiy tafakkur durdonalari bilan tanishish imkonini berardi. «Kotiblik madaniy hayotning qay darajada taraqqiy etganligini aniqlovchi omillardan biri hisoblangan, - deb yozadi ustod Abduqodir Murodov. – Agar biz o'rta asrlardagi minglab madrasa va maktablarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlariga ko'z tashlasak, darslik sifatida o'qitiladigan ming-minglab kitoblar qo'lda ko'chirilib, maktab va madrasa ehtiyojlarini qondirganliklarini o'ylab ko'rsak, ko'z nuri to'kib, bu kitoblarni bunyodga keltiruvchi xattotning zahmatkashligi, madaniy hayotdagi roli, jamiyatdagi mavqei qanchalik mas'uliyatli va sharafli ekanini tasavvur qilish mumkin. O'rta asr etikasida ham xattotning qobil va fozil bo'lishidan tashqari, xalqqa munosib xizmat qilish uchun hammadan avval olijanob tabiatli, odamlarga mehribon, nafs balosini enga oladigan, pok qalbli kishi bo'lishi talab qilingan».[275]

Xattotlarning kitob yaratish bo'yicha mehnat faoliyati XIX asr o'rtalarigacha kitob chop etish amal qilmagan Turonzaminda xalqlarning ijtimoiy va ma'naviy hayotida faol mavqe tutgan. Xattotlar o'rta asr kitob majmuasining shakllanishida, ma'rifiy taraqqiyotida, mintaqada yuz yillar davomida olimlar, shoir va yozuvchilar tomonidan yaratilgan arab yozuvli kitoblarni qayta ko'chirish va tarqatishda hal qiluvchi rol o'ynaganlar. Umumbashariy madaniyat durdonalari bo'lmish minglab qo'lyozma kitoblar ayni shu xattotlarning xolis mashaqqatli mehnati tufayli bizgacha etib keldi va umuminsoniy ma'naviyat mulkiga aylandi. Xatning badiiy turida yoza bilish iqtidor va bilimdonlik, savodxonlikning bir o'lchovi bo'lib xizmat qilgan. Xattotlik va kotiblik kasbi jamiyatda e'zozlanar, qo'llab-quvvatlanar, mas'ul va hurmatga sazovor ish

[275] Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Toshkent, Fan, 1971, 13 bet.

hisoblanardi. Ko'plab olimu shoirlar, fozil kishilar etuk xattot sifatida kitobat tarixi uchun o'z meroslarini qoldirishgan. Ular o'zlariningginа emas, balki boshqa mualliflarning asarlarini ham ko'chirganlar. Masalan, Hofiz Sheroziy Amir Xusrav Dehlaviy «Xamsa»sini, Munis Xorazmiy Alisher Navoiy «Xamsa»sini va boshqa ko'pgina asarlarini, Faqiriy, Bayoniylar Sa'diyning «Guliston»ini turkiy va forsiy tillarda ko'chirishgan. Abdurahmon Jomiy ilk nastaliq xati bilan o'z «Devon»ini ko'chirgan. Munis Xorazmiy ham o'z devonini hamda o'zi yaratgan «Savodi ta'lim» darsligini ko'chirgan. Alisher Navoiy ham bir necha badiiy yozuv uslublarida mohir bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur - o'z zamonining yirik shoiri, olimi va davlat arbobi – xatti Boburiy nomli yozuv tuzgan. Arabiy alifbe asosida bu yozuv turkiy til xususiyatlarini aks ettirishga muvofiqlashtirilgan edi. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy etuk xattot bo'lgan. Uning qo'li bilan ko'chirilgan bayozlar etib kelgan. U nasta'liq va shikasta uslublaridan hassoslik bilan foydalangan. Buxoro xattotlik san'ati namoyandalarining biri – olim, shoir, davlat arbobi Ahmad Donish edi. O'ndan ortiq u ko'chirgan kitoblar hozir ma'lum.

Xattotlik, kitob ko'paytirish Turonzaminning o'rta asrlari davomida barcha shaharlar uchun keng tarqalgan hodisa edi. Masalan, Hirotda bevosita Alisher Navoiy homiyligi ostida xattot va kitobat ishi ustalarining butun bir avlodi etishib chiqdi. Mo"jaz suratkashlik-rassomlikning Hirot maktabi shakllandi. Bular Turon kitobat ishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Badiuzzamon, Muhammad ibn Nur, Muhammad Xandon, Abdujamil, Sulton Ali Mashhadiy, Xoja Abdullo Marvarid, Mir Husayn kabi ko'plab san'atkorlar Alisher Navoiyning xayrli ta'sirida va himoyatida ishlashdi. Buyuk san'atkor Kamoliddin Behzod Navoiy tarbiyatida etishib chiqdi. XVI-XIX asrlarda Navoiy zamoni eng yaxshi an'analari davom ettirildi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent, Chorjo'y, Marg'ilon, Andijon, Namangan kabi ko'plab shaharlarda xattotlik va kitobat ishi o'sib ulg'aydi. Natijada Turonzaminda Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qo'qon, Hirot va Toshkentda badiiy xattotlikning olti mustaqil xos maktabi shakllandi.[276]

Xattotning o'qimishlilik darajasi ko'chirilgan (binobarin, ma'lum darajada o'zlashtirilgan) kitoblar miqdoriga mutanosib ravishda

[276]Murodov A. O'sha asar, 163-b.

qo'lyozmadan qo'lyozmaga ortib borar, xattotlar kitobni ko'chirish jarayonida muloqotda bo'lgan mualliflar va ularning asarlari qancha salmoqli bo'lsa, ularning o'qimishlilik darajasi shuncha yuksalar edi. Xattot ko'chirish uchun tanlab olgan matnning mukammalligi, tekstologik jihatdan sifatliligi aynan xattotning umumiy madaniyati, quvvai hofizasi, kitobat ishi hamda turli xalqlarning ko'p asrlik kitob repertuari, adabiyot va fan tarixi sohasidagi bilimlariga bog'liq edi. Xullas, xattot oddiy qo'lyozma ko'chiruvchi, kotib emasdi. Turonzamin o'rta asr muhiti sharoitida o'qimishlilik va bilimning turli sohalaridan xabardorlik xattotni o'z davrining yirik madaniyat arboblari qatoriga qo'shardi. Agar xattot bunga qo'shimcha ravishda hassos usta ham bo'lsa, Turonzamin kitobat madaniyati tarixidagi Mir Ali Tabriziy, Mir Imod, Yoqut, Sulton Ali Mashhadiy, Darvish Muhammad Toqiy, Muhammad ibn Nur, Mirzo Sharif Dabir singari xattotlar ko'chirgan kitoblar muayyan ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, xattotlik san'atining yuksak namunalari qatoridan ham o'rin olgan.

4.5. Musavvirlik mehnati va san'ati

Alar zikridakim, holozamon sahoifida moiniy abkori alarning daqiq tab'lari xullabofligidin nazm libosi kindur va nazm libosi alarning amiyq zihilari mo'y shikoflig'idin san'at va salosat naqsh va nigore topadurkim, ba'zining mulozamatiga musharraf va sarbaland va ba'zining musohabatidin xushnud va bahramanddurbiz.

Alisher Navoiy. «Majolisun nafois»

Xattotdan keyin qo'lyozma tayyorlash jarayonining navbatdagi ishiga musavvir, naqqosh kasbidagi san'atkor kirishgan. Ijodiy faoliyati asosan serbezak asarlarda aks etsa ham, naqqoshu musavvirlar kitobat ishida alohida o'rin tutganlar. Mo''jaz surat (miniatyura) dastlab ingichka, nozik ochilgan qalam uchida qora bo'yoq bilan bo'lajak rasm chizgilarini, uning ishtirokchilari qiyofasini, kiyim, imorat, manzara, ko'plab turmush, hayot lavhalarini xomaki chizib olishdan boshlanadi. Kitob varag'ining kichkinaligi tufayli mo''jaz sur'atda bir sathlilik, uzoqlashuvchi orqa qatorlarni tasvirlamaslik, birinchi qatordagi tasvirlarning soyasini ifodalamaslik kabi o'ziga xos shartliliklar yuzaga kelgan va san'atda o'z

hisoblanardi. Ko'plab olimu shoirlar, fozil kishilar etuk xattot sifatida kitobat tarixi uchun o'z meroslarini qoldirishgan. Ular o'zlariningginа emas, balki boshqa mualliflarning asarlarini ham ko'chirganlar. Masalan, Hofiz Sheroziy Amir Xusrav Dehlaviy «Xamsa»sini, Munis Xorazmiy Alisher Navoiy «Xamsa»sini va boshqa ko'pgina asarlarini, Faqiriy, Bayoniylar Sa'diyning «Guliston»ini turkiy va forsiy tillarda ko'chirishgan. Abdurahmon Jomiy ilk nastaliq xati bilan o'z «Devon»ini ko'chirgan. Munis Xorazmiy ham o'z devonini hamda o'zi yaratgan «Savodi ta'lim» darsligini ko'chirgan. Alisher Navoiy ham bir necha badiiy yozuv uslublarida mohir bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur - o'z zamonining yirik shoiri, olimi va davlat arbobi – xatti Boburiy nomli yozuv tuzgan. Arabiy alifbe asosida bu yozuv turkiy til xususiyatlarini aks ettirishga muvofiqlashtirilgan edi. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy etuk xattot bo'lgan. Uning qo'li bilan ko'chirilgan bayozlar etib kelgan. U nasta'liq va shikasta uslublaridan hassoslik bilan foydalangan. Buxoro xattotlik san'ati namoyandalarining biri – olim, shoir, davlat arbobi Ahmad Donish edi. O'ndan ortiq u ko'chirgan kitoblar hozir ma'lum.

Xattotlik, kitob ko'paytirish Turonzaminning o'rta asrlari davomida barcha shaharlar uchun keng tarqalgan hodisa edi. Masalan, Hirotda bevosita Alisher Navoiy homiyligi ostida xattot va kitobat ishi ustalarining butun bir avlodi etishib chiqdi. Mo''jaz suratkashlik-rassomlikning Hirot maktabi shakllandi. Bular Turon kitobat ishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Badiuzzamon, Muhammad ibn Nur, Muhammad Xandon, Abdujamil, Sulton Ali Mashhadiy, Xoja Abdullo Marvarid, Mir Husayn kabi ko'plab san'atkorlar Alisher Navoiyning xayrli ta'sirida va himoyatida ishlashdi. Buyuk san'atkor Kamoliddin Behzod Navoiy tarbiyatida etishib chiqdi. XVI-XIX asrlarda Navoiy zamoni eng yaxshi an'analari davom ettirildi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent, Chorjo'y, Marg'ilon, Andijon, Namangan kabi ko'plab shaharlarda xattotlik va kitobat ishi o'sib ulg'aydi. Natijada Turonzaminda Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qo'qon, Hirot va Toshkentda badiiy xattotlikning olti mustaqil xos maktabi shakllandi.[276]

Xattotning o'qimishlilik darajasi ko'chirilgan (binobarin, ma'lum darajada o'zlashtirilgan) kitoblar miqdoriga mutanosib ravishda

[276]Murodov A. O'sha asar, 163-b.

qo'lyozmadan qo'lyozmaga ortib borar, xattotlar kitobni ko'chirish jarayonida muloqotda bo'lgan mualliflar va ularning asarlari qancha salmoqli bo'lsa, ularning o'qimishlilik darajasi shuncha yuksalar edi. Xattot ko'chirish uchun tanlab olgan matnning mukammalligi, tekstologik jihatdan sifatliligi aynan xattotning umumiy madaniyati, quvvai hofizasi, kitobat ishi hamda turli xalqlarning ko'p asrlik kitob repertuari, adabiyot va fan tarixi sohasidagi bilimlariga bog'liq edi. Xullas, xattot oddiy qo'lyozma ko'chiruvchi, kotib emasdi. Turonzamin o'rta asr muhiti sharoitida o'qimishlilik va bilimning turli sohalaridan xabardorlik xattotni o'z davrining yirik madaniyat arboblari qatoriga qo'shardi. Agar xattot bunga qo'shimcha ravishda hassos usta ham bo'lsa, Turonzamin kitobat madaniyati tarixidagi Mir Ali Tabriziy, Mir Imod, Yoqut, Sulton Ali Mashhadiy, Darvish Muhammad Toqiy, Muhammad ibn Nur, Mirzo Sharif Dabir singari xattotlar ko'chirgan kitoblar muayyan ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, xattotlik san'atining yuksak namunalari qatoridan ham o'rin olgan.

4.5. Musavvirlik mehnati va san'ati

Alar zikridakim, holozamon sahoifida moiniy abkori alarning daqiq tab'lari xullabofligidin nazm libosi kindur va nazm libosi alarning amiyq zihilari mo'y shikoflig'idin san'at va salosat naqsh va nigore topadurkim, ba'zining mulozamatiga musharraf va sarbaland va ba'zining musohabatidin xushnud va bahramanddurbiz.

Alisher Navoiy. «Majolisun nafois»

Xattotdan keyin qo'lyozma tayyorlash jarayonining navbatdagi bahiga musavvir, naqqosh kasbidagi san'atkor kirishgan. Ijodiy faoliyati asosan serbezak asarlarda aks etsa ham, naqqoshu musavvirlar kitobat ishida alohida o'rin tutganlar. Mo"jaz surat (miniatyura) dastlab ingichka, nozik ochilgan qalam uchida qora bo'yoq bilan bo'lajak rasm chizgilarini, uning ishtirokchilari qiyofasini, kiyim, imorat, manzara, ko'plab turmush, hayot lavhalarini xomaki chizib olishdan boshlanadi. Kitob varag'ining kichkinaligi tufayli mo"jaz sur'atda bir sathlilik, uzoqlashuvchi orqa qatorlarni tasvirlamaslik, birinchi qatordagi tasvirlarning soyasini ifodalamaslik kabi o'ziga xos shartliliklar yuzaga kelgan va san'atda o'z

qonunlariga ega bo'lgan. Mo"jaz surat ko'pincha mumtoz adabiyotning she'riy va nasriy badiiy asarlariga, tarixiy va tarixnavislik kitoblariga, kamdan kam hollarda ilmiy risolalarga ishlanardi.

Mo'g'ul istilosining oqibatlari tugatilganidan keyin Turonzamin madaniy hayotida ro'y bergan yalpi ko'tarilish davrida o'tmish davrlar tavsiriy san'atining davomchisi bo'lmish mo"jaz suratchilik o'zining yangi yuksalish bosqichiga kirdi. Mo"jaz tasviriy san'at XIV asrning birinchi yarmida Turonzamin miniatyura san'ati maktabining asoschisi bo'lgan samarqandlik rassom Ustod Gung tomonidan qayta tiklangan. Kitobiy miniatyura rassomchiligi shu vaqtda Samarqand va Buxoroda baravariga paydo bo'ldi. Sharqda «Umtodun musavvirin» deb ulug'langan buxorolik mashhur rassom Jahongir Buxoriy Samarqandda Ustod Gungdan san'at sirlarini o'rgangani ma'lum. Amir Temur saltanatining ilk davridayoq (1370 yil) bu shaharlarda ko'plab mashhur rassomlar ishlamoqda edi. Mahalliy milliy miniatyurachilarning tasvirchilik yo'nalishi avval boshdanoq mohir san'atkorlar ishlatadigan tasvir vositalari, ularning dunyoni idrok etishdagi o'ziga xosliklari, o'z ijodiy izlanishlarida xalq amaliy san'ati qadimiy davrlaridan kelayotgan an'analarga suyanishi, xususan Sug'd, Boxtar, Xorazm me'morchiligi va tasviriy san'ati an'analaridan baxramandligi tufayli betakror bir tarzda shakllandi. Hindiston, Yaqin va O'rta Sharqning turli o'lkalaridan Temur keltirgan me'morlar, kotiblar, amaliy san'at ustalari Samarqandda to'plangan davrda Turon san'at maktablari bilan ularga qo'shilgan yangi maktab va yo'nalishlar o'zaro jadal bir-birini boyita boshladi. XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Samarqandda eng mashhur yirik ustalardan Xoja Abdulhay, Ustod Shamsiddin, Pir Ahmad Bog'ishamoliy, Junaid Naqqosh kabilar yashardi. Miniatyura san'ati ulkan davlat arbobi va olim Ulug'bek (1394-1449) Samarqand taxtida o'tirgan davrda (1409-1449) ayniqsa yuksak taraqqiyotga erishdi.

XV asrning birinchi choragi tugashiga kelib Samarqand va Buxorodan tashqari Hirot shahri ham miniatyura san'atining markaziga aylanib qoldi. Ayniqsa, XV asr ikkinchi yarmida (Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrlari) Hirot miniatyura maktabi ayniqsa tez rivojlandi va yuksak natijalarga erishdi. Hirot miniatyurachilari orasida o'z ijodini 1430 yillarda boshlagan Miraki Naqqosh, Qosim Ali, Sulton Muhammad, Do'st Muhammad, Abdul Razzoq kabi atoqli san'atkorlar

bor edi. Hirot maktabining xususiyatini va uslubini belgilab berishda Sharqning buyuk rassomi, miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod (1455-1535) etakchi o'rin tutdi.

Behzodning shakllanish davri Alisher Navoiy va Abdurahoman Jomiylar bosh bo'lgan demokratik ijodiy muhitda o'tdi (1480 yillar). Buyuk shoirlarning insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan sharq mumtoz adabiyoti Behzod iqtidorini yanada yuqori cho'qqilarga olib chiqdi. Behzodning san'atkor sifatidagi buyuk xizmati shundaki, u miniatyura san'atining cheklangan, o'ziga xos shartliliklari doirasida turib nafaqat hayotning va uni o'ragan muhitning real manzaralari-yu turli-tumanliklarini, o'simlik va hayvonot dunyosini, kiyim-kechak, imoratlar, turmush-chikirlarini, musiqa asboblari va hokazolarni, balki G'arbiy Eron miniatyurachilik maktabidagi «bezak, hashamkorlik»dan farqli ravishda o'z davrining chin ma'nodagi qiyofasini chizishga muvaffaq bo'ldi. Behzod suratlarida shahar quyi tabaqalari hayoti, saroy va undagi lavhalar, yuqori tabaqa peshvolari, dehqonlar, amaldorlar, hunarmandlar va boshqa ko'plab noyob tarixiy manzaralar o'zining real tasvirini topgan. Behzodning Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma" asariga, Alisher Navoiyning «Xamsa"siga kirgan dostonlarga, Sa'diyning «Bo'ston»iga, Nizomiyning «Iskandarnoma» dostoniga chizgan suratlari mashhurdir.

Behzod miniatyura sohasidagina emas, balki psixologik portret ishlashda ham mashhur bo'ldi. Bu sohada uni G'arbiy Ovrupo rassomlari orasida eng mashhurlari Memling, Dyurer, Golbeyn kabilar bilan tenglashtirishgan.[277] Jomiy, Xotifiy, Sulton Husayn, Shayboniyxon portretlari Behzodning nozik chizmakashlik uslubidan dalolat beradi. Uning bu asarlari o'rta asr rassomchilik san'atining benazir, tengsiz namunalari sifatida g'oyat qadrlidir.

Dunyoni yorqin, hayotbaxsh va jonli idrok etish ruhi bilan sug'orilgan Behzod ijodi Turon zaminida mo"jaz tasviriy san'atning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Hirot miniatyura maktabi va uning asoschisi Behzod rassomlik an'analari Temuriylar saltanatidan keyingi davrda ham Movarounnahrda katta ta'sir kuchini yo'qotmagan. Bunga Shayboniylarning davlat poytaxtini Hirotdan Samarqandga, keyinroq Buxoroga ko'chirgani ham sabab bo'ldi, deyish

[277] Denike B. Iskusstvo Vostoka. Kazan, 1923. 122-123 b.

mumkin. Ayni mana shu XVI-XVII asrlarda shu tufayli Samarqandu Buxoroda eski, azaliy mahalliy rassomchilikning yangi qiyofadagi va darajadagi namunalari hamda Hirot maktabi ta'sirida shakllangan yangi san'at yo'nalishi namoyon bo'ldi. Behzod tasviriy san'at maktabi davomchilari orasida Buxoro va Samarqandda yashab ijod etgan usta Qosim Ali, Nizomiyning «Maxzan ul-asror» kitobining go'zal qo'lyozmasini ajoyib san'atkorona bezagan hamda Alisher Navoiyning mashhur suratini chizgan rassom Mahmud Muzahhib, uning shogirdlari Abdulla va Muhammad Chixra Muxassinlar bor edi. Samarqand, Buxoro va Hirot rassomchilik maktabi an'analarini XVI asr rassomi Muhammad Murod Samarqandiy davom ettirdi. Firdavsiy «Shohnoma»sining 1556 yilda ko'chirilgan qo'lyozmasiga ishlangan 115 ta miniatyura shu rassom ijod namunasidir.

XVIII asrda yuz bergan iqtisodiy va madaniy tanazzul qishloq va shaharlar hayotida chuqur tushkunlik paydo qildi. Bu hol miniatyura rassomchiligiga ham ta'sir etdi. Go'zal san'at o'z ixlosmanlarini yo'qotib qo'ydi. Faqatgina XIX asrga kelib shahar madaniy hayotining jonlanishi munosabati bilan kitobat va kitob mo"jaz suratchiligi (miniatyurachilik) yana qayta uyg'onib, jonlana boshladi. Ijro uslubi va tamoyillariga ko'ra qo'qonlik rassom Mirzo Kosoniy Munshiyning Alisher Navoiy «Xamsa»siga chizgan miniatyuralari alohida ajralib turadi. Bu kitob 1824 yilda Qo'qonda ko'chirilgan va hozir O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida asralmoqda.

Sharq miniatyurachiligida muayyan mavzular va voqealarni, xususan, o'rta asrlardagi kitobxon uchun izohsiz tushunarli bo'lgan narsalarni chizish odat tusiga kirgan. Sharq poeziyasida keng tarqalgan, an'anaviy mavzular bo'yicha rasmlar chizish ma'qul hisoblangan. Ularda aks etgan u yoki bu voqea adabiy lavha, hikoyat, tashbeh va tanbeh kitobxon uchun bolalikdan ma'lum bo'lgan. Ana shu tufayli ma'lum miniatyuraning san'at jihatdan baholanishi uchun g'oyat yuksak talabchan did va ixlos egalari ko'p bo'lgan. Shu kabi mashhur mavzu va lavhalar jumlasiga Firdavsiyning «Shohnoma»si bo'yicha Siyovushning olovdan o'tishi, Rustamning Afrosiyob bilan jangi, Rustam boshiga Bahoman tashlagan toshni to'sib qolgani, Bahromning ovdagi bahsi, Majnunning ishqiy kechinmalari, Layli bilan uchrashuvi, Yusuf va Zulayho qissasi voqealari va boshqalar kiradi. Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston»

ahloqiy dostonlari bo'yicha «Doro va Cho'pon», «O'tirgan shohni ag'dalayotgan odam», «Tog'da yashayotgan zohid», «Dengiz yuzida yurib ketayotgan zohid», «Hotami Toy ziyofati», «Hotami Toy va o'tinchi chol», «Sevishganlar», «Shoh va darvesh», Abdurahmon Jomiy asarlari bo'yicha «Sayohatchi toshbaqa», «Go'zal va oshiq chol», «Yusufning Misrga kelishi», «Zulayho Yusufni ketkazmaslikka urinayotgani», «Yusuf Zulayhoning go'zal bog'ida», Nizomiy va Alisher Navoiy «Xamsa»lariga ishlangan suratlardan «Layli dugonalari qurshovida», «Xusravning buloq boshida Shirinni ko'rgani», «Farhod va Shirin muloqoti», «Majnun sahroda», «Rassom Moniy Bahrom Go'rga o'zi chizgan suratlarni topshirayotgani», «Dilorom (yoki Fitna) ho'kizni ko'tarib zinadan chiqayotgani», «Iskandar va o'lim oldidagi Doro», «Iskandarning dafn etilishi» va boshqalar kirar edi.

Musavvirlar asarlarining turli belgi va alomatlari adabiy asar mazmuniga aynan mos kelmasa ham u qadar ahamiyati bo'lmagan. Aslida, rasmlar mavzuning o'quvchi orasida keng ma'lumligiga mo'ljallab chizilgan. Kitobxon rasmni jonli nazar bilan ijodiy talqin qilishi uchun imkoniyat qoldirilgan. O'qimishli kitobxon esa miniatyuraning o'qilayotgan asar mazmuniga aynan mos kelishini talab ham qilmagan. Miniatyura tasvirchiligiga bu kabi munosabat bir hil adabiy lavha va voqeani rassomlar turlicha talqin qilishi asosida asar mazmuni bilan mos kelishi shart emas, degan talabga bo'ysungan.

Sharq estetikasi ushbu muhim talabining amaldagi ko'rinishini bir syujetga turli zamonlarda va turli o'lkalarda yaratilgan o'nlab ajoyib poemalar mavjudligida kuzatishimiz mumkin.[278] Ayni choqda miniatyura rassomchilik an'anasi turli mamlakat va davrlarda mashhur mavzu va adabiy voqebandliklar badiiy ifoda xususiyatlarini e'tiborga olmaslikka urinmagan. Bu o'z navbatida rassom uslubi va tasvir ifodalarining, badiiy talqinining mustaqilligini, benazir va betakrorligini ta'minlashda muhim omil bo'lgan. Shu bilan birga rassom fikrining erkinligi uning kasb qobiliyati, mahorati, ko'nikmalarini yuzaga chiqarishga to'la imkon yaratgan. Har bir avlod rassomlari an'anaviy syujetga o'zi tushungan tarzda o'z talqinini bergan. Shu tufayli har bir surat betakror asarga aylanib,

[278] Yaqin va O'rta Sharq xalqlari orasida «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin» mavzulariga 140 taga yaqin doston bag'ishlangani ma'lum.

o‘z davrining estetik me’yorlarini va dunyoqarashini aks ettirgan.[279]

Adabiy-badiiy syujetlar bo‘yicha an’anaviy mo“jaz suratchilik bilan bir qatorda ajdodlarimiz rassomchiligining taxtu toj, shohona ov manzarasi, jangnoma suratchiligi, yakkama-yakka olishuv-kurash, chobuk o‘yin (sport) manzaralari, shohona ziyofatlar, ilmi-ma’ruf suhbatlarni tasvirlash kabi ko‘plab mavzulari ham keng tarqalgan edi. O‘rta asrlarning birorta yirik asar syujetini shu kabi manzaralarsiz tasavvur qilish qiyin. Ba’zi istisnolardan tashqari shu taxlit miniatyuralar tarixiy asarlarini ham bezagan. Shu ma’noda Sharafiddin Ali Yazdiyning Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan 1467, 1628 yillarda ko‘chirilgan «Zafarnoma» asari nusxalarini, Muhammad Solihning 1510 yili Shayboniyxon yurishlari haqida yozgan «Shayboniynoma» asarini, Mas’ud binni Usmon Ko‘histoniyning XVI asr 40-yillarida yozilgan «Tarixi Abulxayr» asari, shoir Xotifiyning XVI asrda yozgan «Temurnoma» asari kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Ilmiy asarlarga ishlangan suratlar badiiy va tarixiy asarlardagi miniatyuralardan farq qilib, bezak alomatlaridan xoli, asosan, amaliy maqsadlarga xizmat qilgan. Uslub jihatdan chizmakashlik talablaridan kelib chiqib, badiiylik da’vosidan xoli bo‘lgan. Chizma tasvir unsurlari aniq va adl qilib ifodalangan. Tibbiyot, dorishunoslik (saydana), nabotot (botanika) ilmi, kimyo bo‘yicha risolalarda kitoblarning u yoki bu qismdagi nazariy masalalarni izohlovchi turli-tuman tasvirlar ko‘p miqdorda uchraydi. Bular orasida o‘rta asrdagi har xil tibbiy asboblar – lantset, qaychi, kuydirgich asboblar, qisqichlar, tutqich, taxtakachlar, turli dorivor o‘simliklar tasviri, buta, daraxt va boshqalarning ildiz, barg, novda, gul va mevalari, hayvon tasvirlari, qushlar, baliq kabilar, ba’zan odam tasvirlari ham tez-tez uchrab turgan. Masalan, samarqandlik kotib Muhammad Xusayn bin al-Mirakiy tomonidan 1541 yili ko‘chirilgan Xoja Zayniddin Attorning «Ixtiyorati badeiy» («Tanlangan dorivorlar») nomli kitobida 601 dona rasm bo‘lib, ikki marta odam tasviri uchraydi. Abdulla Shifosiyning (Xasr) «Kimiyo» risolasining XVII asrda ko‘chirilgan qo‘lyozmasida nafaqat javharlar va boshqa moddalar, balki ular saqlanadigan idishlar, qo‘ra-o‘choqlar, shisha quyishda foydalanilgan

[279]Ovruponing VIII-XIX asrlar tasviriy san’atida ham shunga muvofiq manzarani kuzatish mumkin: goho Bibliya syujetiga, goho biror yunon-rim mifologik syujetga o‘nlab, yuzlab rassomlar-turli el, mamlakat va zamonlar vakillari-o‘zlarining minglab asarlarini bag‘ishlashgan.

qoliplar (tigl), kimyo asboblari, balki, hatto o'rta asr kimyogarlarining mo'miyoni bug'lab tozalash usullarini tasvirlashga ham urinilgan. Yana bir rasmda VIII-IX asrlarda yashagan Turon tabobat olimi Jobir al-Kindiyning shogirdlari bilan mo'miyo va boshqa dorilarni tayyorlash haqidagi suhbat-darsi tasvirlangan.

Ilmi nujum, falakiyot ilmiga oid qo'lyozma kitoblarda ham ko'plab chizmalar, mo"jaz tasvirlar saqlangan. Shunday kitoblar jumlasiga Abdurrahmon as-So'fiyning 1437 yilda ko'chirilib, Ulug'bek kutubxonasi belgisi (muhri) qo'yilgan «Sobit yulduzlar jadvali» nomli kitobi kiradi. Bu kitobdagi tasvirlar oddiy chizmalar bo'lmay, balki ularda rassomning badiiy ifodaga intilishlari ham o'z aksini topgan. Turli yulduz turkumlarini tasvirlar ekan, ularning aniq o'rnidan tashqari rassom boshqalarga o'xshamas yo'l tutgan: har bir turkumning nomi bilan bog'liq, ularning tasvirini chizishga intilgan. Masalan, asat (sher) turkumini arslon, aqrab (chayon) turkumini shu jonivor, ajdaho – shu afsonaviy maxluq, Aravakash, Qiz, O'qchi (tirandoz) kabilar shu nomlar mazmuniga mos tarzda – arava haydab ketayotgan kishi, oddiy tabaqadan chiqqan soddagina kiyingan qiz, salla o'ragan yosh o'qchi (ovchi) yigit kabi tasvirlar orqali berilgan.

4.6. Lavvohlik mehnati va san'ati

Kotib ko'chirgan kitob rassom miniatyuralarining varaqalari bilan birga lavvoh qo'liga tekkan. Lavvoh kitob tuzuvchi san'atkor bo'lib varaqlarni birlashtirish, daftarlash, tikib yig'ish bilan kitob jildiga tayyorlagan. Lavvohning san'ati yaxlit holda kitob bilan bog'liq bo'lgan. Bu kasb ustasi ijodining mahsuli barcha sahifalar yuzasi, hoshiyalar, sahifa matni orasida maxsus qoldirilgan bo'shliqlar, ba'zan kotib zarvaraq uchun qoldirgan juft varaqlar, unvon, sarlavha, oraliq lavhalar, tugallanmalar uchun qoldirilgan joylarda to'la-to'kis yuzaga chiqqan.

Lavvoh odatda birinchi galda qo'lyozma sahifalarini, ba'zan matn ustunlarini rangli chiziqlarda ishlanadigan jadval ichiga olgan. Hoshiyalar rangli bo'lishi lozim bo'lgan hollarda lavvoh avval oq qog'oz sahifasidagi matnni jadvalga olgan, so'ngra kerakli rangli hoshiyani tanlab ohista yopishtirib chiqqan. Hoshiya bilan matn jadvali orasida hosil bo'lgan chok ustidan chiroyli qo'sh chiziqli chilvir tasvir chizilgan va yagona rang-barang to'g'ri to'rtburchak matn maydoni va sahifa bo'lib shakllangan.

Hoshiya bezagiga alohida ahamiyat berilgan. Matnning ikki chetidan keng hoshiya qoldirilgan. Ba'zan sahifaning uchdan birigacha hoshiya egallab, qimmatbaho serhasham qo'lyozmalarda nozik naqshin islimiy yoki girih chizmalar bilan bezalgan. Ba'zan esa hoshiyalarda muayyan voqeabandlik yoki yovvoyi hayvonlar va qushlarning siluet tasvirlari ishlangan. Bu bezaklar suyuq qizil oltin eritmasi – hal bilan yoki rang eritmalari vositasida ishlangan. Hoshiyalarda qat'iy mutanosiblikda joylashgan bu kabi yopishtirma va chizma tasvirlar qog'oz betida o'ziga xos inkrustatsiya hosil qilardi. Ko'p hollarda sahifa va hoshiyalarga oltin eritmasini engil sachratish orqali bezak berilgan. Sachratqi berilgach, ustidan qog'oz yaxshilab muhrlanib silliqlangan. Bu ishni ishqoriy qorishma vositasida loklash deyilgan. Yuksak did, me'yoriy tuyg'u, nozik his bilan bezatilgan qo'lyozma betlari va hoshiyalari muayyan kayfiyat paydo qilgan. Lavvoh bezaklari asar g'oyasining qo'shimcha ifoda vositalari bo'lgan, muallif fikrini aniqroq berishga ko'maklashgan. Kitob matnining va umumiy mazmunining ajralmas qismiga aylangan. Keng hoshiyalar diqqatning bo'linishiga yo'l qo'ymas edi. Ular ko'zga dam berar, o'quvchi ruhiy holatiga osoyishtalik bag'ishlardi, yorqin bo'yoqlar xursandchilik o'yg'otardi, matn mazmunini singdirishga xizmat qilardi.

4.7. Sahhoflik mehnati va san'ati

Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda,
G'amxo'ring bo'lgay u g'amli zamonda,
U bilan qol tanho hech bermas ozor,
Joningga yuz rohat beradi takror.

Bilimdonlar so'zi bordir bu bobda,
«Bilimdon go'rda-yu, ilmi kitobda!»
Agar yolg'iz ersang hamdard kitobdir,
Bilim subhidagi nur ham kitobdir.

Abdurahmon Jomiy

Qo'lyozma kitobni yaratish va badiiy bezash jarayonini muqovasoz-sahhof yakunlagan. Bu kasb egasi kitob varaqlarini yig'ib sahifalagan, birlashtirib tikkan va muqovaga olgan. Muqovaning bir necha unsurlari, qismlari bo'lgan: ustki va ostki qopqog'i, qobirg'asi

bo'lgan. Qobirg'a qismi kitob to'plamini birlashtirib qopqoqlari orasiga siqib turgan. Muqovaning asl maqsadi undagi matnni, qolaversa, kitob materiali – charm, qog'oz va boshqalarni namdan va turli buzilishlardan asrashga qaratilgan. Muqova qopqog'lari yog'och taxtachadan, papemashedan yasalib, ustidan charm yoki mato qoplangan. Yana ko'p hollarda muqova toza sifatli butun charmdan ham ishlangan. XIV asr oxirlaridan boshlab muqova asosiga karton ishlatila boshlagan. XV-XVII asrlarda Samarqand, Buxoro, Hirot kitobat markazlarida kartondan muqova uchun keng foydalanilgan va bu sifat jihatidan yangi material sahhoflik san'atidan mustahkam o'rin oldi. Shu bilan bir qatorda butun o'rta asrlar davomida chinor taxtachasidan ishlangan naqshinkor o'yma bezakli, ba'zan singdirma naqshin muqovalar rasm bo'lgan.

Sharq kitobatida muqova kitob varaqlari maydoni bilan teng hajmlarda ishlangan. Sirtqi qobirg'asi yapasqi, tekis ishlangan. Uning ikki uchida charm «tilcha» – ushlagich-quloqcha qoldirilgan bo'lib, javondan olishda kitobni shundan ushlab tortib olingan. Kitob muqovasining qobirg'asi uchun qizil, qora, jigarrang berilgan qo'y terisidan foydalanilgan. Eshakning maxsus ishlov berilgan ko'kish rangli charmi ham qo'y terisidan qolishmagan. Bu charm savra deyilgan. Ko'p hollarda kitob qobirg'asi chiroyli singdirma, tishlatma usulda bo'rtma bezak bilan ta'minlangan. Kitob to'pi sherozasining ustki va ostki qirqmasi rangli ipak bilan lablangan (yo'rmab tikilgan). Kitobning yonbosh kesmasi ba'zan siyrak to'qima orqali rangli bo'yoq sepib xol-xol tarzda bezalgan. Kitob old kesmasi ustidan qayrilib tushuvchi charm qopqoq ham ishlangan. Bu qopqoq muqova yuzining davomidan bichiqdayoq chiqarilgan. Bu ko'rinishda muqovaning tashqi ko'rinishi g'ilof shaklini eslatgan. Agar kitob old qopqoqsiz bo'lsa, ko'pincha unga qalin va qimmatbaho parcha, barxit, atlas kabi matolardan maxsus jild g'ilof tikilgan. Sharq kitobi muqovasida kitob nomi odatda yozilgan emas.

Muqovaning badiiy bezatilishi, charmning, matoning rangi adabiyotning mazmuni, mavzu va kitob tipi o'zaro aloqador bo'lmagan. Masalan, ilmiy, adabiy-badiiy, tarixiy va boshqa asarlar mutlaqo bir xil muqovalarga joylanishi mumkin bo'lgan. Faqat ilohiyot adabiyoti va Qur'on muqovalarida dunyoviy badiiy unsurlar ishlatilmagan.

Muqova kitobning ajralmas qismi bo'lib o'ram kitob o'rniga kelgan taxlama – daftar, qirqma (kodeks) kitob bilan bir vaqtda paydo bo'lgan

va rivojlangan. Turonzaminda muqova ilk o'rta asrlarda paydo bo'lgan. Muqovasozlikning ajoyib san'atkor ustalari sifatida O'rta sharqda dastlab moniychilar diniy kitobatchilari, kotib va rassomlari mashhur bo'ldilar. Moniychilarning ajib pergamen qo'lyozmalari, benazir muqovalari haqida IV-V asr xristian mutafakkiri yozuvchi Valine'mat Avgustin (354-430 y.y.) eslatib o'tadi[280]. 1905 yilda Sharqiy Turkistondagi Kucha shahri xarobasidan topilgan ikki moniychilar kitob muqovasi parchalarini arxeologlar VI-IX asrga oid, deb baholashgan. Ana shu eng qadimiy butun charmli muqovalar asosida muqovasozlikning asosiy texnik va bezash xususiyatlarini tasavvur etishimiz mumkin. Muqovada geometrik naqshlar, xallash, tishlatma metall bezaklar sahhoflik kasbining o'lkamizda ilk o'rta asrlardagi yuksak darajasini ko'rsatadi.

Turonzamin va O'rta sharq o'lkalarida arab istilosi moniychilar kitobatining so'na borishi barobarida arabiy kitobatchilikning rivojlanishiga olib keldi. Muqovada girih (geometrik naqsh) bilan barobar islimiy (o'simliksimon) naqsh, oltin halli singdirma bezaklar paydo bo'ldi. Muqovaning ichki qismi ham charmdan qirqib ishlangan to'qima bezak bilan ta'minlana boshladi. Biroq, XIV asrgacha Turonzamin kitobatida muqova to'q ranglarda ishlangan. Hal yuritish, rang bo'yoqlar, boshqa ta'sir vositalari kam ishlatilgan.

XV-XVI asrlardagi kitobat ishi yuksalish bosqichi Turon kitobatining XV-XIX asrlar bo'yi davom etgan yangi davrini boshlab berdi. Bu davrda kitobat va sahhoflik tubdan o'zgardi. Kitobat bezash san'atida yangi uslubiy yo'nalish yuzaga keldi. XIV – XV asrlar oraligida Samarqand, Buxoro, Hirot ustalari muqovasozlikka muhim texnik ilg'or taqmillar kiritdilar. Karton, turli matolarning maqovaga ishlatilishi, yangi badiiy bezak motivlari va kompozitsiyalari, yangi ijro echimlarini yuzaga keltirdi. Turli va boy naqshin bezaklar imkoni tug'ildi. Muqova bezaklari kitobning umuman yangi va yuksak mazmuni bilan muvofiqlashdi. Naqshlardagi uslub badiiy bezak, kitob hashamdorligi, undagi miniatyuralar yuksak san'atiga ham mos tusha boshladi. Ilgarigi muqovalarga xos gungurtlik, bir xillik, rang bo'g'iqligi o'rniga endi jozibador, ta'sirchan, obrazli uslubda, rangin bezakli muqovalar etakchi o'ringa o'ta boshladi.

[280]Semenov A.A. Geratskaya xudojestvennaya rukopis epoxi Navoi i ee tvortsa. «Alisher Navoi». M.-L.: Izd-vo AN SSSR,1946. – S. 155.

Turon sahhoflarining karton («mag'zi»)ni kashf etishi va uning muqovada qo'llanishi mislsiz va samarador yangilik bo'ldi. Karton ishlashning ikki usuli bor edi. Birinchi usulda bir necha qabat qog'oz ustma-ust taxlab shirachlangan, hosil bo'lgan karton «mag'ziyi soxta» – «yasama karton» deyilgan. Ikkinchi usulda esa qog'oz chiqindilari va ilgari ishlatilgan karton qiyqimlari o'g'irga solib namlab yanchilgan. Suyuq bo'tqa holgacha bir xildagi xamir hosil qilingach maxsus qolipga quyib qotirish yo'li bilan karton hosil qilingan. Buni «mag'ziyi rexta» – «quyma karton» deyilgan. XVI asrda karton muqova yuzida lok bo'yoq yordamida tasvirlar ishlangan bezak paydo bo'ldi. Bu kabi muqovalar asosi karton bo'lib, uning yuziga shirach va qozon tagi qirindisi (kuyki) dan ishlangan bo'yoq surtib pardozlangan. Bu qotgach ustidan lok bo'yoq yordamida naqshin bezaklar tushirilgan. Turon kitobatida Eron va Ozarbayjon kitoblaridagi kabi muqova tasvirlari orasida odam, hayvon, qush kabilar uchramaydi.

Kartonning charmning eng exshi navlari bilan qo'shib ishlatilgandagi eng qulay xususiyatlari muqova yuzida bo'rtma va botiq tasviriy vositalar, erigan oltin va oltin yaproqchalarni tishlatma usulda qo'llash orqali bezak san'atining yuksak darajalarini yuzaga keltirdi. Muqova karton ustidan qoplash uchun charmning yuzi silliq hamadon so'fyoni qizil, jigarrang, ko'k, qora ranglarda bo'yalgan qo'y terisi kabi xillari ishlatilishi bezak sifatiga ijobiy ta'sir etgan.

XV-XIX asrlarda muqovasoz ustalar girih va islimiy serjilo va xilma-xil naqshlardan bezatish ishida foydalanishgan. Eng mashhur naqsh bezaklar qatorida «girih», «islimi», «tarraxi» kabi usullar, to'g'ri chiziqli, zanjirsimon hoshiya ayirg'ich naqshlar (S simon belgilarni tutashtirib ishlangan) hisoblangan. Cho'lpi to'rt burchak, bodomsimon bo'rtiq yoki tekis tumorcha, gulbarg ko'rinishli yoki nayzasimon yaproqchali naqsh bezaklar ham ko'p ishlatilgan. Bodomsimon tugmacha shaklli, yarim ochiq g'uncha kabi naqshlar ham uchrab turadi. Ayni XV asrda keyinchalik Turonzaminda bir necha yuz yil keng qo'llangan to'g'ri to'rt burchak ramka ichiga bodomsimon tumor ko'rinishida birlashtirilgan uch bo'lak naqshli muqova bezakchiligi paydo bo'ldi. Bu kabi bezak muqova qopqog'ining har ikki betiga – yuziga va ortiga bir xilda ishlangan. Uning tarkibiy qismlari, odatda ramka, hoshiya bezagi, to'rt xil rangda – to'q ko'k, olcharang, to'q qizil yoki oltinrang uch tumordan iborat bo'lib,

naqsh yuqoridan pastga ketma-ket joylashtirilgan. O'rtadagi tumor naqsh hajman qolgan ikki tumordan katta, ichi islimi usulda naqshlangan. Yuqori va pastdagi ikki tumor ichida muqovasozning ismi-sharifi arabiy «to'qimasimon» xat bilan bitilgan.

Bo'rtiq va botiq naqshlar bilan bir qatorda turli rangli charm tasmachalar bilan «tishlatma», «singdirma» usulda (inkrustatsiya) bezalgan muqovalar ham ishlangan. Yuzasi va ichki sathiga hassoslik bilan, nozik qilib kesilgan ingichka charm tasmachalardan to'rsimon naqsh singdirilgan muqovalar ham ko'p uchraydi. Bular oltinrang yoki kumushrang tovlanuvchi muqovalar ko'rinishida bo'lib, naqsh to'qimasi bo'rtiq chiziqlar, turli murakkab uyg'unlikdagi chatishmalarning yaxlit zavq manzarasi kabi taassurot qoldiradi. Ko'p hollarda muqova naqshin bezagining ikki usuli bir yo'la qo'llangan, ya'ni bo'rttirma va botirma naqsh bilan birga charm tasmachalarning «yopishtirma», «tishlatma» bezaklari ham uchrab turadi.

Muqovalarning ichki yuzasi naqsh va bezaklarda tashqi yuzasidan qolishmasdi. Yopishtirma charm tasmachalardan iborat bezak to'qimasidan tashqari ularda kartush, medalon, rozetka shakllarida charmni tilib tushirilgan naqshlar ham ishlangan. Ba'zan bezak uchun zarhal yoki boshqa rangda bo'yalgan qalin kartondan ingichka qirqilgan bo'laklarini naqsh qilib shirachlash usulidan ham foydalanilgan. Arab xati kabi shaklda tiliklab ishlangan naqshlar ham turli ranglarga bo'yalgan. Ular uchun ba'zan oldindan muqova «yon qog'ozi» (forzats)ning yuzasi uchun turli rangda bezalgan «abri bahor» qog'ozlari tanlangan. Shu yuzaga arabcha gulryoz yozuv naqsh yopishtirilgan. Ba'zan, aksincha, yozuv naqsh yopishtirilgandan keyin chiroyli rangda bo'yalgan.

Muqovalarning ichki tomoni va «yon qog'ozi» (forzatsi) odatda yorqin – qizil, pushti, ko'k, binafsha ranglarda bo'yalgan. Bundan o'quvchi-kitobxonda u o'qishga kirishishdan oldinoq kitob mazmuniga muvofiq keluvchi xush kayfiyat uyg'otish maqsadi ko'zda tutilgan.

Savollar va topshiriqlar:

1. Qo'lyozma kitoblarni yaratish jarayonlarida kitob ustalari ishtiroki, mehnati va san'atini ta'riflang.

5-§. Alisher Navoiy va milliy turonzamin kitobat madaniyati

Yozuv tizimi va kitobat madaniyatining mavjudligi, uning rivojlanish saviyasi u yoki bu xalq ma'naviy qimmatini belgilovchi muhim omildir. Kitobat madaniyati bevosita kitobni yuzaga keltirish bilan bog'liq kitob san'ati bilan bir qatorda, yana kitob ko'chirish va chop etish, kitobfurushlik va kutubxonachilik vositasida kitoblarni jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlash, shuningdek, kitoblar xaqida turli bibliografik ma'lumotlar tarqatish orqali ularni qayta ishlab chiqarish kabi jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Shu tariqa Alisher Navoiy davri kitobat madaniyatining yuksak taraqqiyot bosqichi ham bo'ldi. Navoiyning o'zi esa buyuk madaniyat arbobi sifatida kitobat ishi rivojiga o'zining barakali va serqirra hissasini qo'shdi.

Avvalo shuni alohida aytish lozimki, Alisher Navoiy o'z davrining qomusiy allomasi sifatida xattotlik san'atini ham yaxshi bilgan, o'zi ham barcha asosiy arab yozuvi turlarini mahorat bilan egallagan edi. U qo'lyozmalarni badiiy bezashga, matn taqsimotiga oid qonun-qoidalarning, kitob ishlab chiqarish jarayonlariga tegishli masalalarning chuqur bilimdoni bo'lgan. Yuksak badiiy did egasi buyuk alloma-shoir mahorat bilan bezak berilgan qo'lyozmalarni nihoyatda qadrlagan, ko'plab iste'dodli xattotlarga homiylik qilgan. Bunday xattotlar katorida mashhur Sulton Ali Mashhadiy, Abduljamil kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Muhammad binni Nur, Sulton Muhammad Xandon, miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod ismlarini keltirish mumkin. Jumladan, Behzodning ijodiy kamoloti XV asrning 80 - yillaridagi Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylar yaratgan va boshchilik qilgan xalqchil ruhdagi ijodiy muhitning bevosita ta'sirida shakllandi.

Alisher Navoiy arab tili va tilshunosligi, poetikasi, so'fizm ta'limoti, fiqxni chuqur egallagan olim, Qur'on va din ta'limotiga oid adabiyotlarning bilimdoni bo'lgan. U so'nggi 800-1000 yillar davomida qadimiy tillarda hamda fors, turkiy va arab tillarda yaratilgan mumtoz diniy, adabiy-badiiy, tarixiy, jo'g'rofiy, falsafiy, filologik, tibbiy kitoblar olamida o'zini nihoyatda erkin sezar, o'z zamonasi adabiy jarayonining barcha o'ziga xos, ichki muammolarini dohiyona anglab etar edi.

Alisher Navoiyning arab imlosidagi sharq qo'lyozmalari kitobat va matn xususiyatlarining naqadar nozik bilimdoni bo'lganligi uning

"Navodir un-nihoya" va "Badoyi' ul-bidoya" nomli dastlabki devonlari hamda o'zining ichki tuzilishi jihatidan biron sharq xalqlari adabiyotida uchramaydigan "Chor devon", ya'ni to'rt devondan tashkil topgan "Xazoyin ul-maoniy" asarlar to'plamini yaratish jarayonida o'z aksini topdi.

O'z davri kitobat dunyosi va muomalada bo'lgan qo'lyozmalari haqida har tomonlama ma'lumotga ega bo'lgan Alisher Navoiy o'z zamoni yirik kitobshunoslari safidan o'rin oldi. Shoirning shaxsiy mablag'lari hisobiga qurilgan ulkan kutubxonada o'n ming jilddan ortiq qo'lyozma kitoblar jamlangan bo'lib, unda Navoiyning ukasi Darvesh Ali kitobdor lavozimini bajarar edi. Kutubxonaning binosi "Unsiya" deb nomlangan mashhur arxitektura kompleksiga kirar va Navoiyning o'zi "Unsiya"da istiqomat qilar edi. Mashxur tarixchi Mirxond o'zining Turon va Xuroson tarixiga oid etti jildlik "Ravzat us-safo" asarini Alisher Navoiyning maslahatiga ko'ra va u ma'qullagan reja asosida yaratgan. Ma'lum bo'lishicha, Navoiy Mirxondga faqat ma'naviy ko'mak berish bilan cheklanmay, balki ish uchun barcha moddiy imkoniyatlarni ham yaratib bergan. Jumladan, tarixchiga "Xalosiya" madrasasidan qulay va shinam xonaqoh ajratib berilgan. U Navoiyning shaxsiy kutubxonasidan bemalol foydalanish imkoniga ega bo'lgan va tarix ustida ishlash vaqti mobaynida barcha zaruriy narsalar bilan to'liq ta'minlanib turgan. Bundan tashqari, Navoiy Mirxondga tez-tez qimmatli sovg'alar tortiq qilar edi. Navoiyning mana shunday g'amxo'rligi va ko'magidan madrasada istiqomat qilib, biron ijodiy yoki ilmiy ish bilan shug'ullangan boshqa shoir va olimlar ham bahramand bo'lar edi. Mirxondning nabirasi yosh tarixchi Xondamir shular jumlasidandir. Navoiyning boy kitob xazinasidan Xondamir ham keng foydalandi. Shu erda ishlash jarayonida 20 yoshlik chog'idayoq Xondamir kutubxonaning boy tarixiy manbalariga tayanib o'zining dastlabki ikkita tarixiy asarini yaratdi. Ularning biri Alisher Navoiyning hayot yo'liga bag'ishlangan va yosh olimning buyuk zamondoshiga chuqur ehtirom va samimiy minnatdorchilik his-tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan "Makorim ul-axloq" asaridir.

Alisher Navoiy bilimdon kitob muxlisi va jiddiy kitob to'plovchi - bibliofil sifatida qimmatbaho va go'zal bezakli qo'lyozmalarni to'plab bordi. Buxoro, Hirot va Samarqandning eng usta va iste'dodli xattot, lavvoh va sahhoflari Navoiy maxzani uchun kitoblar yaratar edilar.

Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, Sulton Ali Mashhadiy Sulton Husayn Boyqaro va Navoiylar uchun ko'plab kitoblar ko'chirib bergan. Jumladan, xattot shoh uchun kuniga o'ttiz baytdan, Navoiy uchun yigirma baytdan matn ko'chirib berar ekan. Turonu Turkiston shaharlarining mashhur xattotlari Navoiy buyurtmasi bilan yuzlab jild Qur'oni karim hamda shoirlar, faylasuflar, tarixchilar, tabiblar va boshqalarning asarlarini ko'chirganlar. Bu kitoblar Navoiyning shaxsiy kutubxonasiga kelib tushar yoki uning tomonidan boshqa shaxslarga tortiq qilinib, ularning kutubxonasidan o'rin olar edi.

Keng adabiyotshunoslar doirasida ma'lum bo'lgan faktlardan biri: Tehronda 1829 yilda vahshiylarcha o'ldirilgan muxtor vakil, ya'ni rus elchisi Aleksandr Sergeevich Griboedov xuni uchun to'langan tovon jumlasiga kirgan kitoblar orasida Sulton Ali Mashhadiy tomonidan 1465 yili (Navoiy 24 yoshligida) ko'chirilgan va oliy darajada bezakli Navoiyning "Ilk devon" she'rlar to'plami ham bor edi. Bu qo'lyozmani prof. Hamid Sulaymon 1968 yilda faksimile uslubi bilan nashr ettirgan edi.

Alisher Navoiy xattotlik va miniatyura san'atlarining bilimdoni, ko'plab shoir, olim, kitobat san'ati ustalarining homiysi bo'lishi bilan birga, juda keng miqyosda xayriya ishlari bilan shug'ullandi. Masalan, u Hirot, Astrobod, Marv, Isfizor, Saraxs kabi shaxarlarda madrasalar, masjidlar, xonaqohlar qurdirish bilan birga ularning atrofini obodonlashtirish, ichini esa jihozlash ishlarini ham nazaridan chetda qoldirmas edi, madrasalar qoshida esa kutubxonalar uchun asos yaratar edi. Navoiyning ishonchli vakillari uning ko'rsatmasi bilan bu kutubxonalarga kitobfurush va rahhollardan kitoblar sotib olar, kitobat ishi bilan shug'ullanuvchi mutahassis kishilarni qog'oz va boshqa yozuv ashyolari bilan ta'minlab turar edi.

Navoiyning mashhur "Majolisun nafois" ("Nafis yig'inlar") tazkirasini, bu asarning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi - o'quvchilarga shoir, xattot va kitobat ishining boshqa vakillari haqida turli xil ma'lumotlar berishiga ko'ra, biobibliografik asarlar qatoriga ham qo'yish mumkin. Alisher Navoiy tazkirasida bu toifadagi asarlar uchun an'anaviy bo'lgan o'z davri shoirlari va adiblarining hayoti va ijodiga oid, ularning asarlari haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

"Majolisun nafois"da Navoiy o'zigacha o'tgan ijodkorlarga bir bo'lim bag'ishlaydi. So'ngra esa o'ziga zamondosh bo'lgan shoirlar va

fozillar to'g'risida ma'lumot beradi. "Bu kitobda o'zbek va tojik tillarida she'r yozgan shoirlar baravar ko'rsatilgan. Navoiy shoirlarni qaysi tilda yozganiga qarab ajratmaydi. Bu iste'dodlarning ko'pi ham o'zbek, ham tojik tilida she'r yozganliklari inobatga olinsa, bunday yondashuvning to'g'ri ekani ochiq ko'rinadi," - deb yozadi navoiyshunos olim, akademik Azizxon Qayumov.[281]

Kotibiy ijodi to'g'risida Navoiy yozadi: "Mavlono Kotibiy o'z zamonining benaziri edi." «Va masnaviylari ham misli "Tajnisot», "Bahrayn", ("Ikki bahrli") va "Zul qofiyatayn" ("Ikki qofiyali") va "Husn va ishq" va "Nosir va Mansur" va "Bahrom va Gulandom" bor. Ammo g'azaliyot va qasoid devoni mashhurroq va yaxshiroq voqe' bo'lubtur. Oxiri umrida "Xamsa"ga tatabbu' bunyod qildi..."[282]. Shundan ma'lum bo'ladiki, Kotibiy bir necha dostonlar va o'zining «Xamsa»sini bitgan.

Navoiy Mavlono Muhammad Tabodgoniy to'g'risida yozar ekan, uning «Qasidai Burda»ni muxammas qilgani. Xoja Adulloh Ansoriyning «Manozilus-soyirin» asariga sharh yozgani to'g'risida xabar beradi.

Mavlono Husayn Xorazmiy to'g'risida so'zlab Navoiy bu kishining «Maqsadi aqso» («So'nggi maqsad») nomli asari borligi, uning Jaloliddin Rumiyning masnaviysiga sharh bitgani, «Qasidai Burda»ga Xorazmiy o'zbek tilida sharh yozganini bildiradi. Yana bu kishining «o'zga musannafoti» (asarlari) borligini ham yozadi.

«Nasoimul muhabbat» asarida Navoiy turli davrlardagi mutafakkirlar va shoirlar to'g'risida hikoya qiladi. Shunda ularning qanday asarlar yaratganliklari to'g'risida ham so'z yuritadi.

Nizomiy to'g'risidagi maqolada Navoiy yozadi: «Alarning besh masnaviysi, «Panj ganj»ga mashhurdir...

«Iskandarnoma» tarixiki, alarning kitoblarining oxiridur, besh yuz to'qson ikki ekandur «(592 xijriy yili - 1195-1196 milodiy yili).

Hofiz Sheroziyni ta'riflar ekan, Navoiy: «U g'ayb tilini biluvchi va sirlarni tarjima qiluvchidir. G'ayb sirlarini va haqiqatning ma'nosini so'z kiyimining go'zalligi orqali va majoz (dunyoviylik) libosida ko'rsatadir... Hofiz devonidan yaxshiroq hech bir devon yo'q...»

Shayx Avhadiddin nomli shoir to'g'risida «Va anga she'r

---

[281]Qayumov A.Alisher Navoiy – bibliograf G'G' Guliston, 2001, n 5. - 15b.

[282]Navoiy Alisher. «Majolisun nafois. Asarlar. O'n besh tomlik. O'n uchinchi tom. T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1966. - 12 b.

devoni bor... Va «Jomi Jam» otlig' masnaviysi bor. Shayx Sanoiyning «Hadiqa»si uslub va vazni bila. Va Sanoiyning «Rioya» kasidasig'a yaxshi javob aytibdur»[283], deb yozadi.

Navoiy o'z do'sti, maslakdoshi, ustozi va piri Abdurahmon Jomiyni (1414-1492) juda e'zozlar, barcha ezgu ishlarda bu ulug' shoir va mutafakkirni ibrat deb bilar edi. Mutafakkir o'zining ayrim asarlarida Jomiy qalamiga mansub ijod namunalarini alohida qayd qilib o'tadi. Jomiy to'g'risidagi bunday ma'lumot Navoiyning "Majolisun nafois" tazkirasida ham bor.

"Nasoimul muhabbat"da Navoiy o'z ustozi Jomiyga maxsus maqola bag'ishlagan. Bu maqolada o'qiymiz: "Nazm va nasr tasniflaridan ellikka yaqin borki, zamon ahli andin bahramanddurlar. Nazmlaridan uch devondur. "Fotihatush shabob"qa mashhur; ikkinchisi "Vositatul ikd"qa ma'rufdur va uchinchi "Xotimatul hayot"qa mavsum... Va masnaviydan "Haft avrang"dur, etti daftar tartib topibturki, "Tuhfatul ahror" va "Silsilatuz zahab" va "Yusuf va Zulayho"ni "Oshiq va Ma'shuq"qa mavsumdur va "Layli va Majnun" va "Xiradnomai Iskandariy" va "Sibhat ul-ahror" va "Salamon va Absol"dur.

Va nasrlaridan "Tafsir"dur va "Shavohidun nubuvvat"dur va "Nafohotul uns" va "Sharhi "Fusus" va "Ashi'atul lama'ot" va "Lavoeh" va "Lavome'" va "Sharhi ruboiyot"dur. Chun barchasi alarning "Kulliyoti"da mastur va mazkurdur"[284].

Alisher Navoiyning shaxsan Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan «Xamsatul mutahayyiriyn» asari shaxsiy biobibliografik ko'rsatkichlar (evropacha personalia kitob turiga) toifasiga kiradi. Kitob muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat. Muqaddimada Jomiyning hayoti, nasl-nasabi, Jomiy va Navoiyning birinchi bor tanishuvlari haqida hikoya qilinadi. Birinchi maqolatda ikki buyuk shaxs hayotida birga kechgan hamda do'stlik va ijodiy hamkorlik haqida guvohlik beruvchi damlar xususida fikr yuritiladi. Ikkinchi maqolat ularning bir-birlariga yo'llagan qator maktublari va ularning yozilish sabablari haqida. Nihoyat, uchinchi maqolatda Jomiy yaratgan 36 ta asar ro'yxati keltiriladi, ularning yozilish tarixi bayon etiladi. Ma'lumki, Jomiy va

---

[283] Navoiy Alisher. Nasoimul muxabbat. Asarlar. O'n beshinchi tom. T.:G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1968. - 176 b.

[284] Navoiy Alisher. Nasoimul muxabbat. - 184 - 186 b.

Navoiy qator asarlari bir-birlaridan ilhomlanib, yoki to'g'ridan-to'g'ri bir-birlarining maslahatlari bilan yaratilgan. Bu maqolatda Navoiy chuqur hurmat va o'ziga xos alohida tavozu' va nazokat bilan ana shunday ijodiy hamkorlik misollarini keltiradi.

Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" ("Ikki til to'g'risidagi muhokama") asarida shoirning o'zi yozgan asarlar to'g'risidagi ma'lumoti mavjud. "Muhokamatul lug'atayn"da Navoiy kitobat qilingan o'z asarlarining qisqacha ruyxati - bibliografiyasini ham keltirgan.

Tarixiy manbalar tahlili va keltirilgan misollar shuni ko'rsatib turibdiki, Alisher Navoiy o'zining kundalik hayotida muttasil kitobat ishi va kitobat san'atining turli sohalariga juda yaqin bo'lgan va o'z ijodi va faoliyati bilan milliy turonzamin kitobat madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan.

Savollar va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiyning milliy kitobat madaniyatini rivojlantirishdagi roli.

6-§. O'rta asr Turonzamin kitoblar repertuari

6.1. Kitoblar repertuarining strukturasi

"Kitoblar repertuari" tushunchasi haqida

Kitob va kitobat ishi haqidagi hozirgi zamon fani - kitobshunoslikda «kitob repertuari» yoki «kitoblar repertuari» tushunchasi ayni davlat yoki mamlakatlar guruhi hududida ma'lum tarixiy davrda yaratilgan (nashr etilgan) yoki muomalada bo'lgan. ya'ni mavjud kitob savdosi assortimenti va kutubxona jamg'armasini tashkil etgan kitob nashrlari (yoki qo'lyozma kitoblar) majmuini ifodalaydi. IX asrdayoq musulmon fani va madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasi bilan qudratli intellektual salohiyatga ega bo'lgan madaniy maydon – musulmon madaniy dunyosining muhim tarkibiy qismiga aylangan Turonzamin va uning xalqlari, boshqa xalqlar bilan bir qatorda, madaniyat sub'ektlari hamda ma'naviy qadriyatlarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonlarining faol ishtirokchilari sifatida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida muomalada bo'lgan arab, fors va turkiy tillardagi kitoblar va asarlar majmuining egalari va vorislariga

aylandilar. Islom sivilizatsiyasi mamlakatlari o'rtasidagi madaniy aloqalarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan xalqaro kitob savdosi Turonzamin kitob repertuariga arab, Suriya, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Eron, Shimoliy Kavkaz, hind mualliflarining arab, fors va turkiy tillarda yozilgan juda ko'p kitoblarning kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Kitoblarning mavzuiy tizimi va tipologiyasi

Turonzaminda turli tarixiy davrlarda muomalada bo'lgan qo'lyozma kitoblarning mavzu tuzilishi, bir tomondan, turli ijtimoiy guruhlar va tabaqalarning mutolaa bilan bog'liq qiziqishlari va ehtiyojlarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan – ilmiy bilim va adabiy-badiiy ijod sohalarining rivojlanishidagi muhim tendentsiyalarni namoyon etar edi. O'rta asrlarda Turonzamindagi har bir alohida davlat tuzilmasi kitob repertuarining yadrosini o'sha davrda ma'lum barcha bilim sohalariga oid, tuzilishi, mavzusi, turlari va shakllariga ko'ra o'xshash kitoblar majmui tashkil etardi. Shu narsa diqqatga sazovorki, mazkur kitoblar va asarlar musulmon dunyosining istalgan nuqtasida yaratilgan yoki qayta ko'chirilgan bo'lishi mumkin edi. Turonzamin kutubxona jamg'armasi va kitob savdosi assortimentining asosiy farqi shunda ediki, bu erda, butun O'rta Sharqda bo'lgani singari, asosan fors-doriy, yangi eron, tojik va eski turkiy tillaridagi kitoblar (mazkur tillar Turon-Turkiston mintaqasi, Eron, Ozarbayjon, Afg'oniston, Hindistonning ayrim hududlari va unga yondosh viloyatlarda keng tarqalganligi sababli) muomalada edi. Vaholanki, Turonzamin hamda boshqa mamlakatlardan chiqqan mualliflarning ma'naviy, ijtimoiy va tabiiy ilmiy fan sohalarida arab tilida yaratilgan asarlari xalqaro kitob savdosi va lingua franca, ya'ni xalqaro aloqa tili maqomiga ega bo'lgan arab tili yordamida butun musulmon madaniy dunyosida muomalada edi. Aynan mana shu nuqtai nazardan biz Turonzamin kitob repertuari va islom sivilizatsiyasi boshqa mintaqalarining kitob repertuaridagi o'xshashliklar va farqlar haqida so'z yuritishimiz mumkin.

IX-XIII asrlarni o'z ichiga olgan tarixiy davr, ya'ni kitobat ishi tarixining ilk mumtoz davri mobaynida ko'paytirib tarqatilishi darajasiga va muomalada bo'lgan kitoblarning umumiy sonidagi salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni musulmonlarning muqaddas kitobi - Qur'oni karim hamda ilohiyot fanlarining butun majmuiga doir kitoblar egallab keldi. Ikkinchi

o'rinni tabiiy-ilmiy va ijtimoiy kitoblar, uchinchi o'rinni esa adabiy-badiiy kitoblar egalladi. Ikkinchi guruhga mansub kitoblar orasida o'sha davrda Turonzaminning arab tilida ijod qiluvchi olimlarining asarlari etakchilik qilar edi. Davlat tuzilishi va ma'naviy hayotda mo'g'ullar hukmronligiga barham berilganidan keyingi tarixiy davrda (XIV asrdan boshlab), Turonzaminda lisoniy va etnik vaziyat o'zgarganidan so'ng, ya'ni kitobat ishi tarixining mumtoz davrida ilmiy faoliyat, adabiy-badiiy ijod va qo'lyozma kitoblar ishlab chiqarish sohalaridagi ustuvorliklar va eng muhim yo'nalishlar tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Kitob repertuarida Turonzamin xalqlarining milliy tillaridagi kitoblar etakchilik qila boshladi. Arab tilidagi Qur'oni karim va ilohiyotga doir kitoblardan keyin ikkinchi o'ringa fors tili va turkiy tillardagi adabiy-badiiy kitoblar ko'tarildi, uchinchi va to'rtinchi o'rinlarni esa, tegishli ravishda, fors tili va turkiy tillardagi ijtimoiy va tabiiy ilmiy kitoblar egalladi. Ilohiyotga doir asarlar, ilmiy tadqiqotlar, diniy asarlarga tavsif va sharhlar ham ko'proq fors tilida va turkiy tillarda yozila boshlandi. Mazkur nisbat Turonzamin kitob repertuarida XX asrning boshigacha, ya'ni kitob va kitobat ishi tarixining so'ngi mumtoz davrida ham saqlanib qoldi.

Yuqorida zikr etilgan barcha tarixiy bosqichlarning kitob repertuari, avvalambor, ijtimoiy ongning din, fan, adabiyot singari shakllarining tadrijiy rivojlanishiga muvofiq, turli bilim sohalari va fan bo'limlarining rivojlanishiga, muayyan asarlarning yaratilishi va qayta ko'chirilib, kitob maqomiga ega bo'lishiga qarab shakllandi. Shu bilan birga, kitob repertuarining shakllanish jarayoniga o'rta asrlar Turonzamin jamiyati kitobxonlarining ma'lum tabaqalari va toifalari qiziqishlari va ehtiyojlari ham katta ta'sir ko'rsatdi. Har bir yangi tarixiy bosqich, har bir ijtimoiy tabaqa faqat o'zigagina xos bo'lgan asarlarga baho berish mezonlari, didi, madaniy ehtiyojlari darajasiga ega edi. Ularning adabiy-badiiy kitob janrlariga munosabati, muayyan mavzuga va adabiyot turiga mansub kitoblarga bo'lgan talabi juda ko'p ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga bog'liq bo'lib, shu bilan bir vaqtda mualliflarni, qo'lyozma kitoblar turi va tipini tanlash, nusxa ko'chirish va tarqatish uchun turli mavzu yo'nalishlaridagi kitoblarni tanlab olishga katta ta'sir ko'rsatar edi.

Adabiyot va adabiy-badiiy janrlar, ilmiy va ma'naviy bilimning barcha sohalariga oid ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar, qo'lyozma kitoblarning barcha turlari va tiplarining butun boyligi va rang-

rangligini o'zida mujassamlashtirgan kitoblar o'rta asrlar Turonzamin kitob repertuarining negizini tashkil etdi.

6.2. IX-XIII asrlar gumanitar va tabiiy-ilmiy kitoblari. Kitobshunoslik-bibliografik tanlanma manzari

Diniy kitoblar turlari

Musulmonlarning muqaddas kitobi - Qur'oni karimning o'n minglab nusxalaridan, Qur'oni karim matniga yozilgan tafsirlardan, uni mutolaa qilishning har xil usullari - qiroatga, Qur'oni karim orfografiyasi va matni masalalari – tajvidga bag'ishlangan asarlardan, hadis to'plamlari hamda hadisshunoslik asoslari yoki usullariga, mumtoz hadis to'plamlarini qayta ishlash va yangilarini tuzishga bag'ishlangan asarlardan, maqomat (avliyolar hayoti)ga oid adabiyotlardan, sufizm, islom qonunshunosligi – fiqhga oid asarlardan iborat diniy adabiyotlar majmui o'rta asrlar kitob repertuarining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Falsafiy kitoblar

Falsafiy adabiyotlar ham yuqorida zikr etilgan davrdagi kitob repertuarining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Yunon falsafasi islom diniy qonun-qoidalari bilan muvofiqlashtirilishi natijasida X-XI asrlarda fanlarni falsafiy tasniflashning bir nechta yo'nalishi vujudga keldi. Ular yunon faylasuflarining falsafiy tasniflaridan tubdan farq qilar edi. Mazkur yo'nalishlarda yaratilgan asarlar orasida al-Forobiyning «Ixso al-ulum» – «Fanlar tasnifi», Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» – «Fanlar kaliti», Abu Ali ibn Sinoning «Aqsam al-ulum al-aqliya» – «Fanlarning tafakkurga asoslangan bo'limlari», Ibn Farigunning «Javoli al-ulum» – «Fanlar majmui» asarlari o'zining teranligi va serqamrovligi bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sinoning qomusiy xususiyatga ega bo'lgan falsafiy tadqiqoti – «Kitob ash-shifo» – «Shifo kitobi» XI asrning birinchi choragida arab tilidagi falsafa fani rivojlanishining ma'lum bosqichiga yakun yasadi. Keyinchalik Turonzaminda, nomlari yuqorida zikr etilgan allomalarning asarlari bilan bir qatorda, falsafa, geometriya, optika, astronomiya, meteorologiya, tibbiyot, musiqa sohalarida 150 taga yaqin asar yaratgan Abu Yusuf al-Kindiy (820-879), falsafa, tibbiyot, kimyo va boshqa fan sohalarida 320 dan ortiq asar yaratgan Abu Bakr Zakariya

ar-Roziy (865-925)[285], Abu Sulaymon al-Mantiqiya (vafoti 1001 y.), Ibn Miskavayx (vafoti 1030 y.) al-Xaririy (vafoti 1120 y.), al-G'azzoliy, Ibn Oqila, Faxriddin ar-Roziy, Johid, Mutanabbiy, Ispaniya falsafa maktabi faylasuflari Ibn Xazm, Ibn Badj (XI asr oxiri – 1138 yil), Ibn Tufayl (1110-1185), Ibn Rushd (Evropada Averroes nomi bilan mashhur, 1126-1198)ning falsafiy asarlari keng tarqaldi.

O'sha davrdagi falsafa kitob repertuari ilmiy monografiyalarni, risolalarni, falsafiy ta'limotlarning ommabop talqinlarini, qadimgi yunon faylasuflarining arab tiliga tarjima qilingan asarlarini hamda mazkur asarlarga yozilgan sharhlarni o'z ichiga oladi. O'sha davrda mantiq faniga oid asarlar (Porfiriyning «Isagoga»si, al-Abxoriyning «Ash-Shamsiya»si, al-Forobiy asarlari), dialektika (yoki munozara haqida ta'limot), etika va teologiya (qalam)ga oid asarlar, bilimning foydasi va bilish bosqichlari haqidagi asarlar, turli qomusiy asarlar, fanni tasniflash va tizimga solishga oid asarlar ayniqsa keng tarqalgan edi.

Turkiston kitob repertuariga mansub asarlarning nusxalarini ko'p karra qayta ko'chirish orqali yaratilgan kitoblar orasida Hakim Termiziyning (vafoti 868 y.) falsafiy va tarixiy asarlarini, hassos shoir, faylasuf, astronom va matematik Umar Xayyom (1048-1131)ning falsafiy risolalarini, Yusuf Sakkokiy (1160-1229)ning falsafiy asarlarini, Shamsiddin Muhammad ibn Ashraf Samarqandiy (vafoti 1204 y.)ning falsafa, mantiq va geometriyaga oid asarlarini qayd etish mumkin.

Filologik kitoblar

Umumiy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblangan, maktab va madrasalarda asosiy fanlardan biri sifatida o'qitilgan arab tiliga oid kitoblar ijtimoiy fanlar majmuida alohida o'rin tutadi. Arab, keyinchalik fors va turkiy filologiyasi Turonzaminning o'rta asrlar kitob repertuaridan grammatika, leksikologiya, leksikografiya, prosodiya, metrika, poetika, stilistika singari fan sohalariga oid ilmiy monografiyalar, risolalar, ularning ommabop talqinlari va o'quv qo'llanmalari shaklida o'rin olgan edi. Leksikografiya ishlovlari (etimologik, grammatik va real sharhli vokabula) printsiplari va usullarini ijodiy o'zlashtirish va amalda qo'llash

[285] Abu Bark ar-Roziyning o'zi «Falsafiy turmush tarzi» nomli avtobiografik asarida yozishicha, «kamina ushbu kitob qog'ozga tushirilayotgan paytgacha turli falsafiy fanlarga bag'ishlangan 200 ga yaqin kitob, maqola va asarlar yaratdim». Iqtibos quyidagi kitobdan olindi: Abu Bakr ar-Roziy. Duxovnaya meditsina. Dushanbe, Irfon, 1990. – 5-bet.

bir qator bilim sohalarida arab, fors va turkiy tillarda biografik, jo'g'rofiy, tibbiy, farmakologik, o'simlikshunoslik va minerologiyaga oid lug'atlar va ma'lumotnomalar yaratish an'anasini yuzaga keltirdi. Xorazmlik olim az-Zamaxshariy tilshunoslik sohasida bir nechta ajoyib asarlar yaratdi. Arab tilining morfologiyasi va sintaksisi (sarfu navh) muammolarini ilmiy o'rganishga bag'ishlangan «Al-Mufassal», arab, fors, turkiy va mo'g'ul tillarining qiyosiy leksikologiyasiga oid «Muqaddimat ul-adab», arab tili sintaksisining asosiy muammolariga hamda morfologiya va leksikografiyaning ayrim masalalariga bag'ishlangan «Al-muhojot fil-axojiy» – «Grammatika jumboqlari» asarlari, prosodiya va metrikaga oid «Al-kustos fil-aruz» risolasi, «Al-Mu'jam ul arabiy-forsiy» arabcha-forscha lug'ati, «Al-mustaqso fi amsol ul-arab» - arab maqollari va masallarining izohli lug'ati shular jumlasidan[286].

Boshqa bir misol tariqasida turkiy tillar filologiyasidagi beqiyos asar – Mahmud Koshg'ariyning 1073 yilda yaratilgan «Devonu lug'atit turk» – «Turkiy so'zlar devoni» asarini keltirish mumkin.

XIII asrda yashagan turonzaminlik tilshunos as-Sakkokiyning «Miftah al-ulum» asari ham o'z davrida katta dovruq qozongan edi. Mazkur asarda olim poetika va stilistika nazariyasini bir tizimga solgan. Mazkur asar asrlar mobaynida musulmon dunyosining turli mamlakatlarida bir necha marta qayta ishlandi va izohlandi. Masalan, damashqlik olim al-Qazviniy (vafoti 1338 y.) mazkur asarning ritorikaga bag'ishlangan uchinchi qismining qisqacha tavsifini yaratgani ma'lum.

Jo'g'rofiy kitoblar

Jo'g'rofiy adabiyotlar, mazkur fandagi ikki yo'nalish - matematik va tavsifiy yo'nalishlarga muvofiq, Turonzamin kitob repertuarida adabiy-badiiy janrlar va kitob janrlarining bir necha turlarida yaratilgan: «yo'llar va mamlakatlar (davlatlar)ning» izchil tavsifi, mamlakatlar va aholi yashaydigan joylarning koordinatalari jadvallari (zijlar), ularning nazariy tavsifi va sharhlari; muayyan sayohatlar, pochta va savdo yo'llari marshrutlarining tavsiflari: uzunlik va kenglik haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan nazariy qismdan hamda er yuzasining aholi yashaydigan joylarining tavsifi, butun olam tuzilishining tavsifi (kosmografiya), alohida mintaqalarning tarixiy-jug'rofiy tavsifi shaklidagi tavsifiy qismdan iborat

[286]Qarang: Oqilov M. Zamaxshariy asarlarining qo'lyozma va bosma nusxalari G'G' Adabiy meros. – 1982. - №4 (24). – 56-60-betlar.

aralash xususiyatga ega asarlar.

Turonzaminlik olimlar Ja'far al-Marvaziy (vafoti taxminan 887 y.) va Ahmad as-Saraxsiy (vafoti taxminan 899 y.) arab tilidagi jo'g'rofiy adabiyotlarda marshrutlarni belgilash yo'nalishiga asos solgan birinchi mualliflar hisoblanadi[287]. Ammo ularning kitoblari bugungi kungacha etib kelmagan. Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» («Er suvrati kitobi») bilan bir qatorda, Abu Zayd al-Balxiy (850-934)ning[288] «Suvar al-aqolim» - «Iqlimlar xaritasi», buxorolik Abu Abdulloh al-Jayxoniyning (vafoti 942 y.) «Kitob al-masolik va-l-mamolik» - «Yo'llar va davlatlar kitobi» asarlari, Abulqosim ibn Umar Zamaxshariyning «Tog'lar va vodiylar nomlari» jo'g'rofiy ko'rsatgichi, Abu Sa'id Sama'niyning «Kitob al-ansab» – «Shajaralar kitobi» asari ham shuhrat qozongan.

Tarixiy kitoblar

O'rta asrlar Turonzamin kitob repertuarining katta qismini rang-barang turlar va shakllardagi tarixiy adabiyotlar tashkil etadi. Muhammad payg'ambar va boshqa avliyolarning hayoti va faoliyatiga oid asarlar, alohida yirik tarixiy hodisalar va harbiy yurishlar haqidagi risolalar, sulolalarning solnomalari, mahalliy va umumiy tarixga oid asarlar shular jumlasidan.

Buxorolik Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy (taxminan 899-959 yillar) tomonidan 943-944 yillarda yozilgan «Tahqiqi viloyat» – «(Buxoro) mamlakat(i) haqida aniq tadqiqot» asari Turonzaminning islomdan oldingi va arablar istilosi davridagi tarixiga oid arab tilidagi ilk asarlardan biri hisoblanadi. Mazkur asar «Tarixi Narshaxiy» nomi bilan ham mashhur. Unda Buxoro shahriga qanday asos solinganligi, shahar me'morchiligi va topografiyasi, Buxoro atrofida joylashgan qishloqlar, o'sha davrda yashagan odamlar, olimlar, shoirlar, hukmdorlar haqida hikoya qilinadi. «Buxoro tarixi» Narshaxiy tomonidan yaratilgan ko'rinishda aynan saqlanib qolmagan. Mazkur kitobning bizgacha etib kelgan matni asarning farg'onalik Abu Nasr Kubaviy tomonidan 1128

[287] Qarang: Krachkovskiy I.Yu. Arabskaya geograficheskaya literatura. Izbr. soch., t. IV, M. L., izd-vo AN SSSR, 1957. S. 127-128.

[288] H. Hasanov bergan ma'lumotlarga qaraganda, al-Balxiy 60 ga yaqin turli asarlar yaratib qoldirgan. Ulardan bizgacha «Osmon va olam kitobi», «Kurrai zamin tasviri» va ayrim boshqa asarlari etib kelgan. (Qarang: Hasanov H. O'rta Osiyolik geograflar va sayyohatchilar. Toshkent, «O'zbekiston», 1964. 34-bet).

yilda amalga oshirilgan arab tilidan fors-doriy tiliga muxtasar tarjimasidir. Arabcha matnni o'girish paytida Kubaviy uni qisqartiribgina qolmasdan, balki arab tarixchisi Tabariyning «Tarixi Tabariy» kitobidan va boshqa mualliflarning kitoblaridan, shu jumladan, Abu Hasan Nishopuriyning bizgacha etib kelmagan «Xazoin al-ulum» va Ibrohimning «Akbari Muqanna» asarlaridan olingan boshqa ma'lumotlar bilan ham to'ldirdi. Kubaviy qo'lyozmaga o'z shaxsiy kuzatishlarini hamda voqea-hodisalarning shohidlaridan so'rab olgan ma'lumotlarni kiritib, Buxoro tarixini o'z davrigacha etkazdi. 1179 yili Kubaviyning tarjimasi buxorolik Muhammad ibn Zufar tomonidan qayta ishlandi va qisqartirildi. XV asrda esa anonim muallif qo'lyozmani 1220 yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan ma'lumotlar bilan to'ldirdi. Kitob mana shu oxirgi tahririda bizning davrgacha etib keldi.

Abu Ja'far Muhammad ibn Abduljabbor al-O'tbiy qalamiga mansub «Sulton Mahmud G'aznaviyning hayoti va faoliyati tavsifi» asari taxminan «Buxoro tarixi» yaratilgan davrga mansub. Mazkur asarda 976-1021 yillarda sodir bo'lgan voqea-hodisalarning to'liq sharhi berilgan. Xronologik nuqtai nazardan olib qaraganda, bu asar Abul Fazl al-Bayhaqiyning «Mas'ud tarixi» va Mulla Hojining «Bo'g'raxonning hayoti va faoliyati tavsifi» asarlarini davom ettiradi.

Tarixiy asarlar orasida Abul Hasan al-Bayhaqiy (1100-1170)ning arab va fors tillaridagi tarixshunoslik va adabiyotshunoslikka oid 80 ga yaqin kitobi, Abu Sa'id Abdulkarim as-Sam'oniy (1113-1167)ning tarix, geografiya va kitobshunoslikka oid 50 dan ortiq asari bor.

Mo'g'ullar istilosidan oldingi davrda Turonzamin shaharlarida arab tilida she'riy asarlar yaratilgan. Beruniy va Ibn Sinoning zamondoshi, turonzaminlik yirik tarixshunos olim Abu Mansur Abdulmalik as-Saolibiy (961-1038) o'zining «Yatimat ad-dahr» – «Noyob javohir» nomli antologiyasida Buxoro, Xorazm va Xurosonda yashab, arab tilida ijod qilgan 124 shoirning ijodidan namunalar va ular haqida batafsil ma'lumotlar keltirgan[289].

Tabiiy-ilmiy kitoblar

Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino tomonidan to'la va mukammal ishlab chiqilgan o'rta asrlar ilm-fanining falsafiy tasnifi

[289] Qarang: Abdullaev I. Poeziya na arabskom yazo'ke v Sredney Azii i Xorasane X – nachala XI v. Tashkent, «Fan», 1984. S. 57.

Turonzamin kitob repertuaridagi tabiiy-ilmiy kitoblarning mavzu tuzilishini juda yaxshi aks ettiradi. Uning kontseptsiyasiga muvofiq, mantiq barcha fanlarning ibtidosi va tayanch nuqtasidir. Ibn Sino mantiqni «inson qo'lidagi qurol» deb ataydi. Uning tasnifiga ko'ra, barcha fanlar uch nazariy tarmoq: fizika, matematika va metafizikaga bo'linadi, ularning har biri amaliy jihatlarga ega. «Sof fizika... barcha mavjud narsalar va hodisalar, materiya, shakl, harakat va bosh harakatlantiruvchi, samovotdagi va samo ostidagi oddiy jinslar va ularga xos bo'lgan harakat shakllari, vujudga kelish va yo'q bo'lish, erdagi hayotga samo jinslari va hodisalarining ta'siri, ma'danlar, o'simliklar, hayvonlar va inson ruhi haqidagi masalalarni o'rganuvchi fanlarni qamrab oladi. Amaliy fizikaga tibbiyot, astrologiya, fiziognomika, tushlar ta'biri, tumorlar haqidagi fan, sehrgarlik to'g'risidagi fan va alkimyo kiradi. Sof matematika esa arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasini o'z ichiga oladi. Sof arifmetikaga amaliy fanlar tariqasida hind o'n xonali sanog'i va algebra, geometriyaga – maydonlarni aniqlash to'g'risidagi fan, mexanika, tarozi va toshlar, daraja o'lchaydigan asboblar, optik asboblar va ko'zgular yasash bilan bog'liq san'atlar, shuningdek, gidravlika, astronomiyaga – astronomik va jo'g'rofiy xaritalar tuzish fani, musiqa nazariyasiga – musiqa asboblari yasash san'ati kelib tutashadi»[290].

O'rta asrlarda ilm-fan rivojiga ayniqsa katta hissa qo'shgan turonzaminlik matematik va astronomlarning kitoblari kitob repertuarida ancha salmoqli o'rin egallaydi. Al-Xorazmiy, al-Farg'oniy va Beruniy singari buyuk allomalar mazkur sohalarda yaratgan asarlardan tashqari, Habash al-Xasib nomi bilan mashhur bo'lgan Ahmad ibn Abdullo al-Marvaziyning (vafoti taxminan 864-867 y.) astronomik va trignonometrik jadvallarini qayd etish mumkin. Mazkur olim trigonometriyaga tangens va kotangens tushunchalarini kiritdi hamda mazkur funktsiyalarning fan tarixidagi eng birinchi jadvallarini tuzdi. Bundan tashqari, «astronomiya, geometriya, algebra va ayniqsa trigonometriyani rivojlantirgan» Abul Vafo Buzjoniy (940-998) asarlarini[291], Beruniy zamondoshlaridan al-Xo'jandiyning (vafoti taxminan 1000 y.) asarlarini, xorazmliklar Abu Nasr ibn A'raq va astronomiya, matematikaga doir yigirmadan ortiq asarlar

[290]Qarang: Sagadeev A.V. Ibn Sina (Avitsenna). M., 1980. – S. 73-74.

[291]Matvievskaya G.P. K istorii matematiki v Srednev Azii IX-XV vv. Tashkent, izd-vo AN UzSSR, 1962. – S. 50.

muallifi Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq (vafoti 1034 y.) asarlarini, Umar Xayyomning «Arifmetika mushkulotlari», «Algebra va almuqobala isbotlari to'g'risida», «Evklid kitobiga kirishdagi mushkulotlarga sharhlar», «Malikshoh ziji» asarlarini, XII-XIII asrlar oralig'ida yashagan xorazmlik olim Mahmud Chag'miniyning (vafoti 1221 y.) astronomiyaga oid «Saylanma»sini, tibbiyotga oid «Kichik qonuni»ni, arifmetikaga oid «To'qqizlik arifmetikasi» risolasini, «Merosni taqsimlash masalalaridagi arifmetik usullarga sharhlar»ni, trigonometriyaga oid «Saylanma»sini qayd etish mumkin.

Tibbiy kitoblar

Musulmon madaniy dunyosida tibbiyotga oid asarlar ayniqsa keng muomalada bo'lgan. Mazkur sohaga oid asarlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: alohida kasalliklar, ularning alomatlari va ularni davolash to'g'risidagi asarlar; inson organizmining umumiy xossalari to'g'risidagi asarlar; hakimlar uchun amaliy qo'llanmalar; ar-Roziyning «Al-Xaviy» va Ibn Sinoning «Tib qonunlari»ga o'xshash qomuslar; dori-darmonlar, malhamlar, dorivor giyohlarning alifbeli ro'yxatlari, farmakognoziyaga oid asarlar, masalan, Beruniyning «Kitob as-Saydana»si.

Mazkur sohaga oid kitoblar orasida Gippokrat, Galen, Abu Bakr ar-Roziy, Eron, arab, Suriya tibbiyotchi olimlarining asarlari bilan bir qatorda X asrda yashab ijod qilgan turonzaminlik olimlar – Ibn Sinoning ilk ustozlari buxoroliklar Abu Mansur ibn Nuh al-Qumriy va Ahmad al-Axavayniy asarlarini, Ibn Sinoning zamondoshlari Abu Bakr al-Xorazmiy, Abu Sahl al-Masihiy, Abulxayr al-Hammor asarlarini, XI-XII asrlarda yashab ijod qilgan tibbiyotchi olimlar Hakim Azraqiy, Abdurahmon Hasan al-Marvaziy, Sharafiddin al-Iloqiy (vafoti 1068 y.), Zayniddin al-Husayniy Jurjoniy (vafoti 1137 y.), Badriddin ibn Bahrom Kalonasiy (vafoti 1194 y.) asarlarini, 1222 yili Hirotda mo'g'ul bosqinchilari bilan jangda halok bo'lgan Najibiddin Abu Hamid ibn Umar Samarqandiyning tibbiyot va farmakologiyaga oid o'nga yaqin asarlarini qayd etish mumkin. Mazkur olimlarning asarlari o'rta asrlar tibbiyot fanining rivojlanish darajasini muayyan tarzda o'zida mujassamlashtirgan. Masalan, al-Qumriyning «Orzu qilingan va mukammal kitob», «Tibbiyot atamalari kitobi», al-Ahavayniyning «Tibbiyot toliblari uchun qo'llanma» asarlarida o'sha davr tibbiyotining deyarli barcha sohalari – umumnazariy masalalar,

kasalliklar tavsifi va ularni davolash usullari, dorishunoslikka oid material, shuningdek, o'z tabiblik amaliyotining natijalari yoritilgan.

O'sha davrdagi tibbiyot va farmakologiyaga oid kitoblarning aksariyati bugungi kungacha etib kelgan. Al-Qumriyning «Orzu qilingan va mukammal kitob» - «Kitob al-gina va-l-muna» asari (u «Kunnash» va «Shamsiya al-Mansuriya» nomi bilan ham mashhur) bizgacha ko'p sonli nusxalarda etib kelgan. Sobiq Sovet Ittifoqining shaharlarida mazkur kitobning ikki ro'yxati saqlanadi: biri – Sankt-Peterburgda, ikkinchisi – Toshkentda, O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida (ro'yxat raqami 5708). «Bu ancha katta asar (Toshkent qo'lyozmasida har biri 27 satrdan 155 varaq, bichimi 18x26 sm) inson organizmidagi barcha a'zolarning tavsifi va kasalliklarini davolashga bag'ishlanadi, - deb qayd etadi O'zbekiston FA akademigi U.I.Karimov. – So'zboshida Qumriy tabiiy fanlar, ayniqsa, tibbiyotga qattiq mehr qo'yganligi, unda insonni kasalliklar va azob-uqubatlardan forig' qilish vositasini ko'rganligini yozadi. Tibbiyotga oid turli-tuman kitoblarni mutolaa qilish jarayonida u kasalliklarni davolash usullaridan qisqacha ko'chirmalar olar va ularga o'z amaliyoti natijasida aniqlagan holatlarni qo'shimcha qilar edi. ...Qumriy o'zi keltirgan qoidalar qaysi manbalardan olinganligini qayd etib o'tadiki, bu Ibn Sino davridagi tibbiyotga oid adabiyotlar haqida yorqin tasavvur beribgina qolmasdan, kasalliklarni aniqlash va davolashga doir muayyan fikrlar qaysi muallifga tegishliligini aniqlash imkonini ham beradi. Hammasi bo'lib, Gippokrat (miloddan avvalgi 459-355 yillar)dan tortib Abu Bakr ar-Roziy (865-925)gacha bo'lgan 30 dan ortiq muallifdan iqtibos keltiradi»[292].

* * *

O'rta asrlar kitoblar repertuari yadrosining katta qismini badiiy adabiyotlar tashkil etgan. Biz bu erda mashhur shoirlar va nasriy asarlar mualliflarning nomlarini takrorlab o'tirmaymiz. Har bir tarixiy davrga adabiy-badiiy qo'lyozma kitoblarning o'z repertuari xos bo'lganini qayd etish bilangina kifoyalanamiz.

---

[292]Karimov U.I. Ob uchitelyax Ibn Sino'. (K xarakteristike nauchno'x svyazey Ibn Sino' s sovremenno'mi emu medikami Sredney Azii). – «Obhestvenno'e nauki v Uzbekistane», 1980, №8-9. – S. 45-46.

6.3. IX-XIII asrlardagi buyuk turon-turkistonlik olimlarining asar va kitoblari

O'rta asrlar fanining yirik namoyandalari, Turonzamindan chiqqan va arab tilida ijod qilgan allomalar: al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Forobiy, Beruniy va Ibn Sino asarlari Turonzamin kitob repertuarida, keng ma'noda esa – arab-musulmon kitobat madaniyatida alohida o'rin tutadi. Mazkur allomalarning bundan oldingi davrdagi ilmiy tafakkurning barcha yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan asarlari jahon fani va madaniyatining rivojlanishida tashlangan katta qadam bo'ldi. Nomlari yuqorida zikr etilgan allomalar o'sha davrda ma'lum barcha fan sohalaridagi bilim darajasi, ilmiy aql-zakovatiga ko'ra tom ma'noda qomuschi-olim sifatida e'tirof etildilar. Ularning ko'p sonli asarlari va kitoblari o'tgan asrlar mobaynida qayta-qayta ko'chirilib, har safar Turkiston kitob repertuarini boyitishda davom etdi. Turonzamin kitobat madaniyati tarixining eng muhim va yorqin sahifalaridan birini tashkil qildi.

Abu Abdulloh ibn Muso al-Xorazmiy kitoblari

IX–XIII asrlar oralig'ida yuz bergan madaniy yuksalish davrida jahonga dong taratgan turonzaminlik ulug' allomalar orasida Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Majusiy al-Qutrubbuliy al-Xorazmiy (783-850) alohida o'rin tutadi. Jahon fani tarixida algebraning va algoritm atamasining paydo bo'lishi aynan al-Xorazmiy nomi bilan bog'liq. «Al-Xorazmiy» nasabi buyuk alloma Turonzamin sivilizatsiyasining qadimgi madaniy markazlaridan biri – Xorazmda tug'ilib o'sganidan dalolat beradi. Al-Xorazmiy hayotining dastlabki 28 yilini o'z vatanida o'tkazgan, so'ngra o'sha davrdagi Turonzamin kitobat madaniyati, maorifi va fanining yirik markazi bo'lgan Marvda (bu erda u 36 yoshga to'lguncha yashadi) o'z davrida ma'lum bo'lgan fanlarning asoslarini o'rgandi va olim sifatida shakllandi. Bizning nazarimizda, Turonzamin qadimgi tarixining tadqiqotchisi, prof. S.P.Tolstov quyidagi so'zlarni yozganida, ayni shu holatni nazarda tutgan: «Al-Xorazmiy nafaqat o'zining matematik sohasidagi zakovati bilan, balki sug'orish, sayohatlar, qurilish va savdoning amaliy ehtiyojlari zaminida shakllangan. Tuproqqal'a bezaklari kabi yunon va hind madaniyatining eng yaxshi an'analarini o'zida mujassamlashtirgan va ijodiy o'zlashtirgan Xorazm matematikasining ko'p asrlik an'anasiga tayangani bilan ham

kuchlidir»[293]. «Al-Majusiy» nasabi uning tub xorazmliklardan, balki zardushtiy kohinlar urug'idan chiqqanligidan dalolat beradi («majusiy» so'zi arabchadan tarjimada otashparast degan ma'noni anglatadi). Ma'lumki, zardushtiylik dini Turon-Turkiston zaminida arab istilochilari va mahalliy mutaassib dindorlar tazyiqi susayganidan keyin yana bir necha yuz yil mavjud bo'lgan. Zardushtiylik diniy an'analari mo'g'ullar istilosidan keyingi davrdagina yo'qolgan. «Al-Qutrubbuliy» nasabi al-Xorazmiy o'z hayotining so'nggi yillarida yashagan Bag'dod yaqinida Dajla daryosining qirg'og'ida joylashgan Qutrubbuliy shaharchasiga ishora qiladi.

819 yilda al-Xorazmiy xalifa al-Ma'mun tomonidan taklif qilingan turonzaminlik olimlar guruhi bilan Marvdan Bag'dodga keldi. Al-Xorazmiyning keyingi ilmiy hayoti Bag'doddagi ilmiy-tarjima markazi «Bayt ul-hikma» - «Ilmlar uyi» (G'arbda «Ma'mun akademiyasi» nomi bilan mashhur) faoliyati bilan bog'liq. Xalifa al-Xorazmiyni «Bayt ul-hikma»ga boshliq qilib tayinladi. Al-Xorazmiy bu lavozimda uzoq yillar faoliyat olib bordi.

Tarixiy manbalarda al-Xorazmiy yigirmadan ortiq ilmiy asarlar yozgani ko'rsatilgan, biroq bu asarlardan faqat o'ntasining nomi keltirilgan. Bu algebraga oid risola «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala» - «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob», arifmetikaga oid risola «Kitob al jam va tafriq bi hisob al hind» - «Hind hisob usulida qo'shish va ayirish haqida kitob», geografiyaga oid risola «Kitob surat al-arz» - «Er manzarasi haqida kitob», «Zij» - «Astronomiya jadvallari», «Istixroj taqvim val xafla lil-yahud» - «Yahudiylar taqvimining tavsifi va ularning bayramlarini aniqlash», «Kitob ar-ruxama» - «Quruvchilik asboblari haqida kitob», «Kitob at-tarix» - «Tarix kitobi», astrolyabiyaga bag'ishlangan uch risola: «Kitob fi-usturlab» - «Astrolyabiyaning qo'llanilishi haqida kitob», «Kitob fi noatil usturlab» - «Astrolyabiyani yasash haqida kitob» va «Joyda astrolyabiya yordamida azimutlarni aniqlash haqida kitob».

Al-Xorazmiyga buyuk alloma shuhratini uning matematikaga oid asarlari olib keldi. Al-Xorazmiyning «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» risolasi matematikaning hozirda algebra deb ataladigan bo'limi shakllanishiga zamin hozirladi («algebra» atamasi

[293]Tolstov S.P. Po sledam drevnexorazmiyskoy sivilizatsii. – M.-L., 1948. – 268-b.

fanidagi «al-jabr» so'zining lotincha talaffuz ifodasidan kelib chiqqan). «Hind hisob usulida qo'shish va ayirish haqida kitob» risolasida jahon fani tarixida birinchi marta o'nlik pozitsion sistema va uning amaliy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Bu risola mazkur pozitsion sistema avval Evropada, keyinchalik butun jahonda keng tarqalishiga imkoniyat yaratdi. O'z-o'zidan ravshanki, hind raqamlari bilan ilk bor arab tilida ijod qilgan alloma al-Xorazmiy asari orqali tanishgan evropaliklar ularni arab raqamlari deb, o'nlik hisob sistemasini esa «algorizm» deb nomladilar. XVI asrdan keyingina bu atama «arifmetika» so'zi bilan almashtirildi, «algorizm» yoki «algoritm» deganda har qanday muntazam hisob jarayonlarini tushuna boshladilar. «Al-Xorazmiy asarlari, ayniqsa, uning arifmetika va algebraga oid risolalari matematika fanining keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi, - deb yozadi A.P.Yushkevich o'zining «O'rta asrlarda matematika tarixi» deb nomlangan monografiyasida. – Ular juda ko'p tadqiqotlar uchun tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qildi; ular sharhlandi; ularning qismlari boshqa kitoblarga kiritildi; ulardan o'nlab avlodlar bilim oldi»[294].

Al-Xorazmiy arab-musulmon fanida astronomiyaga oid birinchi asar – «Zij»da tangens va kotangens tushunchalarini ilk bor ilmiy muomalaga kiritadi, shuningdek, sinus va tangens uchun mo'ljallangan birinchi trigonometrik jadvallarni keltiradi.

Al-Xorazmiyning «Er manzarasi haqida kitob» («Kitob surat al-arz») risolasi saqlanib qolgan geografiyaga oid arab tilidagi birinchi asardir. Uning aslidan 1037 yilda ko'chirib olingan yagona qo'lyozma nusxasi bizgacha etib kelgan. Bu qo'lyozma kitob Strasburg universiteti (Frantsiya) kutubxonasida saqlanmoqda. 1926 yilda u chex geografi Mjik tomonidan nashr etilgan. 1983 yilda alloma tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan bu asarning o'zbek tiliga tarjimasi uning «Tanlangan asarlari» nashriga kiritildi[295].

1940 yilda Haydarobod (Hindiston)da al-Xorazmiyning «Yahudiylar taqvimining tavsifi va ularning bayramlarini aniqlash» risolasi topildi va nashr etildi.

Al-Xorazmiyning «Astronomiya jadvallari» ispan astronomi Maslam al-Majritiy 1007 yilda ko'chirib olgan arab tilidagi qo'lyozmada

---

[294] Yushkevich A.P. Istoriya matematiki v srednie veka. – M.: 1961. – 177-b.

[295] Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – T.: Fan, 1983. – 78-b.

bizgacha etib kelgan. Ispaniyada 1126 yil Bat shahrilik tarjimon va olim Adelard asarni lotin tiliga tarjima qilgan. Al-Xorazmiyning asari bizgacha ayni shu lotincha tarjimada etib keldi. Daniyalik olim X.Zuter shu lotincha tarjimaning to'rt nusxalari asosida asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzdi va uni Daniya Fanlar akademiyasi 1914 yilda mufassal ilmiy sharhlar va ma'lumot-bibliografiya apparati bilan nashr etdi. 1962 yilda Kopengagenda «Astronomiya jadvallari» ingliz tilida (tarjimon O.Neygebauer) nashr etildi. Al-Xorazmiy asari uning lotin va ingliz tillaridagi nashrlari asosida rus va o'zbek tillariga tarjima qilindi va 1983 yil Toshkentda nashr etildi[296].

Al-Xorazmiyning algebraga oid «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» risolasining arab tilidagi qo'lyozmalari hozirda Kobul va Madinadagi kutubxonalarda, shuningdek. Oksford universiteti (Buyuk Britaniya)ning Bodleana kutubxonasida mavjud. 1145 yil risola Sevilya (Ispaniya)da Robert Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilindi. Al-Xorazmiyning bu asari XIX va XX asrlar mobaynida arab, lotin, nemis, ingliz, rus va o'zbek tillarida ko'p marta qayta nashr etildi.

Al-Xorazmiyning «Hind hisob usulida qo'shish va ayirish haqida kitob» risolasining XIV asrda ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi bizgacha etib kelgan. Bu qo'lyozma hozir Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya) kutubxonasida saqlanmoqda. U asarning Ispaniyada XII asrda amalga oshirilgan lotincha tarjimasining nusxasidir. Qo'lyozma «Diksit Algorizmi», ya'ni «Al-Xorazmiy aytadiki», degan so'zlar bilan boshlanadi. XII asrda sevilyalik Ioann qo'lyozmaning lotincha variantini qayta ishladi. Keyinchalik al-Xorazmiyning arifmetikaga oid risolasi to Yangi davrgacha bir necha marta qayta ishlandi, qayta bayon etildi va qayta sharhlandi. uning asosida yangi o'quv qo'llanmalari yaratildi. Bu qayta ishlangan nashrlar va qo'llanmalar nomida doim «Algorizmi kitobi» so'zlari mavjud bo'lgan.

1857 yil Rimda B.Bonkompani bu asarning Kembrij universitetida saqlanayotgan lotincha qo'lyozmasini bosma kitob holida nashr etdi. Qo'lyozmaning fotoreproduktsiyasi 1964 yil A.P.Yushkevich tomonidan nashr etildi1. Olim o'zining «O'rta asrlarda matematika tarixi» kitobida al-Xorazmiyning risolasiga alohida paragraf bag'ishladi. B.Bonkompani nashri asosida Yu.X.Kopelevich va B.A.Rozenfeld risolani rus tiliga

[296]Xorezmi M. Astronomicheskie traktato`G` Vstup. statya, per. i komment. A.Axmedova. Otv. red. S.X.Sirajdinov, M.M.Xayrullaev, P.G.Bulgakov. – T.: Fan, 1983. – 142 b.

tarjima qildilar[297]. 1983 yil buyuk alloma tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlab, arifmetikaga oid risola o'zbek tilida nashr etildi[298].

Ahmad al-Farg'oniy kitoblari

Turonzaminlik buyuk astronom, gidrologiya, geodeziya va boshqa ilmiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan qomusiy olim Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy (797-865) al-Xorazmiy zamondoshi va uning Bag'doddagi «Bayt ul-Hikma» («Ilmlar uyi») bo'yicha yaqin hamkasbi edi. Al-Xorazmiy kabi, al-Farg'oniy ham xalifa Ma'mun tomonidan taklif qilingan olimlar guruhi bilan birga 819 yilda Mavrdan Bag'dodga keladi va shundan keyin «Ilmlar uyi»ning astronomiya, geodeziya va gidrologiya sohasidagi tadqiqotlarida boshqa olimlar bilan birga faol ishtirok etadi.

Al-Farg'oniy nomi va asarlari butun musulmon madaniy dunyosida juda mashhur bo'lib, u yaratgan asarlarning qo'lyozmalari o'rta asrlarda yaratilgan nufuzli bibliografik lug'atlarning deyarli barchasida, chunonchi: Ibn an-Nodim (X asr), Ibn al-Kiftiy (XIII asr), Abul Faroj Bar Ibriy (XIII asr), Xoji Xalifa (XVII asr) lug'atlarida keltiriladi. Al-Farg'oniy yaratgan asarlarning qo'lyozmalari bugungi kunda Sharq va G'arbning deyarli barcha yirik kutubxonalarida saqlanmoqda. Al-Farg'oniy ilmiy merosiga, ayniqsa, uning «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» asariga katta qiziqish Evropada butun o'rta asrlarda, Uyg'onish va Reformatsiya davrlarida, Yangi davrning ilk asrlarigacha saqlanib qolgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Al-Farg'oniyning ilmiy ijodi evropalik allomalar Gerard Kremonskiy (XII asr), Regiomontan (XV asr), D'Alamber (XVIII asr), XX asr olimlari K.Brokkelman, E.Videman, X.Zuter, I.Yu. Krachkovskiy, A.P.Yushkevich, B.A.Rozenfeld va boshqalar tomonidan juda yuksak baholangan.

Al-Farg'oniyning ilmiy merosidan bizgacha faqat etti asar arab, lotin, ibriy, frantsuz, italyan, nemis, fors, rus va o'zbek tillaridagi ko'p sonli qo'lyozmalar va nashrlar orqali etib kelgan[299]:

[297] Xorezmi M. Matematicheskie traktato`. Per. Yu.X. Kopelevich, B.A. Rozenfeld. Komment. i predisl. B.A.Rozenfelda. – T.: Fan, 1964. – 130 s., chert. (In-t vostokovedeniya im. Abu Rayxana Beruni AN UzSSR).

[298] Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – T.: Fan, 1983.

[299] Al-Farg'oniy asarlarining qo'lyozmalari haqida ma'lumotlar quyidagi tadqiqotchilarning ma'lumotlari asosida keltirilgan: Rozenfeld B.A., Dobrovolskiy I.G., Sergeeva N.D.

1. «Astronomiya asoslari haqidagi kitob» («Kitob fi usul ilm an-nujum»), shuningdek, «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» («Kitob fi harakat as-samoviyya va javomi ilm an-nujum»), «Astronomiya kitobi. Almagestga kirishning o'ttiz bo'limi» («Kitob al-xaya, al-fusul as-salosin mudhal fi Majistiy»), «Samoviy harakatlarning sabablari» («Ilol al-afloq»), «Almagest» («Al-Majistiy»), «Astronomiya fani» («Ilm al-xaya») nomlari bilan ham ma'lum.

Bu asarning birinchi nomdagi qo'lyozmasi Sankt-Peterburgda (Sharqshunoslik instituti, Buyuk Britaniya, ro'yxat raqami V 3059(3) va Qohirada (Milliy kutubxona, ro'yxat raqami 944), ikkinchi nomdagi qo'lyozmasi – Oksfordda (Bodleana kutubxonasi, ro'yxat raqami I 879(1), uchinchi nomdagi qo'lyozmasi – Parijda (Milliy kutubxona, ro'yxat raqami 2504(3), to'rtinchi nomdagi qo'lyozmasi – Qohirada (Milliy kutubxona, ro'yxat raqami 7034(1), beshinchi nomdagi qo'lyozmasi – Prinstonda (AQSh. Universitet kutubxonasi, Garret kollektsiyasi, ro'yxat raqami 967), oltinchi nomdagi qo'lyozmasi – Fesda (Marokash, Zaviya Sidi Hamza kutubxonasi, ro'yxat raqami 5) saqlanmoqda.

Al-Farg'oniy o'zining bu kitobini Ptolemeyning «Almagest» asari asosida yozgan va ayni vaqtda uni, ayniqsa, Turonzamin bilan bog'liq xronologiya va geografiya masalalarida sezilarli darajada to'ldirgan.

2. «Astrolyabiyaning tuzilishi haqida kitob» - «Kitob fi sana al-usturlab». Bu risolaning etti qo'lyozmasi saqlanib qolgan. Shulardan uchtasi Berlindagi Prussiya kutubxonasida (ro'yxat raqamlari 5790, 5791, 5792), bittadan Parij (Milliy kutubxona, ro'yxat raqami 2546(5), London, Tehron va Mashhadda saqlanmoqda.

3. «Astrolyabiya bilan amallar haqida kitob» - «Kitob amal al-usturlab». Bu risolaning qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston, Raza kutubxonasi, ro'yxat raqami I 428(64) saqlanmoqda.

4. «Al-Farg'oniy jadvallari» - «Jadval al-Farg'oniy». Bu asarning qo'lyozmasi Hindistondagi Bankipur shahrining Sharq kutubxonasida (ro'yxat raqami 2580(2) saqlanmoqda.

5. «Oy Er ustida va uning ostida bo'ladigan vaqtni aniqlash haqida risola» - «Risola fi ma'rifa al-avqot allati yakun al-qamar fixa fauk al-arz au taxta». Risolaning qo'lyozmasi Qohirada (Milliy kutubxona, ro'yxat

---

jizn i tvorchestvo al-FarganiG'G' Axmad al-Fargani. Astronomicheskie traktato'. – T.: Shark, 1998. – 9-12-b.; Ahmedov A. Ahmad al-Farg'oniyG'G' Ma'naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. – 44-49-b.

raqami 7034(2) saqlanmoqda.

6. «Etti iqlim hisobi» - «Hisob al-aqolim as-sabo». Kitob qo'lyozmasi Gotda (GFR, Davlat kutubxonasi, ro'yxat raqami 1523) saqlanmoqda. Beruniyning «Geodeziya» asarida al-Farg'oniyga havola bilan keltirilgan er meridianining gradus ulushi va mil hisobidagi qiymatlari shu risoladan olingan bo'lsa kerak[300].

7. «Quyosh soatini yasash haqida kitob» - «Kitob tasni' as-soat ash-shamsiya». Bu asar qo'lyozmasi Halab (Suriya) va Qohira (Misr) kutubxonalarida saqlanmoqda.

Beruniy o'z asarlaridan birida aytib o'tgan al-Farg'oniyning «Al-Xorazmiy zijining nazariy qoidalarini asoslash» kitobi hozirgacha topilgani yo'q.

Al-Farg'oniyning keltirilgan ro'yxatdagi oxirgi besh asari (dastlabki ikki kitobdan farqli o'laroq) olimlar tomonidan hali o'rganilmagan.

Al-Farg'oniyning «Astronomiya asoslari haqidagi kitob» asari astronomiya, xronologiya va geografiyaga oid ma'lumotlarning matematik isbot hamda kuzatuvlarning natijalariga havolalardan xoli muxtasar to'plamidir. Bu erda keltirilgan ma'lumotlarning aksariyati qadimgi davrning astronomiyaga oid yirik asari – Ptolemeyning «Almagest»idan olingan[301]. Biroq, Ptolemeyning asarida har bir fakt matematik isbot yoki muallif va uning elladalik o'tmishdoshlari, qadimgi Bobil astronomlarining kuzatuvlariga havolalar bilan asoslangan edi. Al-Farg'oniy o'z kitobida kitobxonni dunyoning tuzilishi, samo jismlarining harakati, taqvim va geografiyaning asosiy faktlari bilan tanishtirish maqsadini qo'ygan. Bu kitobning nomlaridan biri u «Almagest»ga kirish bo'lib xizmat qilgani va fan bilan qiziquvchilarning keng doirasiga mo'ljallanganligidan dalolat beradi. Al-Farg'oniy bu kitobi keng dovruq qozonganining sabablaridan biri ham shundadir.

1134 yildan boshlab bu kitob bir necha marta lotin tiliga va Evropaning ayrim tillariga tarjima qilindi. Tarjimada al-Farg'oniy ismi lotincha shaklda Alfraganus deb berildi va u ayni shu transkriptsiyada Evropa fani va madaniyatidan o'rin oldi. Evropalik olimlar orasida birinchi bo'lib al-Farg'oniy asariga sevilyalik Ioann (yoki Jon Xispalensis)

[300] Qarang: Beruni. Geodeziya. Issledovanie, perevod i primechaniya P.G.Bulgakova. Izb. proizv. T. III. – T.: Fan, 1966. – 212-214-b.

[301] Ptolemaus. Handbuck der Actronomie. Bd. I-II, ubers. K.Manitius, Vorwort und Berichtigungen von O.Neugebauer, Leipzig, 1963.

murojaat etdi. U 1134 yilda kitobni lotinchaga tarjima qildi va uni «Alfragani Elementa Astronomica» deb nomladi. Al-Farg'oniy asarining ikkinchi mustaqil tarjimasi arab tilidagi ilmiy asarlarning mashhur tarjimoni va bilimdoni kremonlik Gerard tomonidan 1175 yilda amalga oshirildi. Tarjimaning bu variantida asar «Liber de... Scientie stellorum et principlis celestium motuum» deb nomlandi. 1231 yilda anatoliyalik Iakov al-Farg'oniy asarini ibriy (yahudiy) tiliga tarjima qildi. 1590 yilda Geydelberg (Germaniya) universitetining professori Yakob Kristmann «Astronomiya asoslari haqidagi kitob»ni lotin tiliga tarjima qildi va nashr etdi. Tarjima ustida ishlash jarayonida Ya.Kristmann asarning lotin tiliga tarjimasining dastlabki ikki variantidan va uning ibriy tiliga tarjimasidan foydalandi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, Ya.Kristmann amalga oshirgan tarjima o'zining mukammalligi va keltirilgan raqamlarning aniqligi bilan ajralib turadi.

Evropada kitob chop qilish kashf etilganidan (1445 yil) keyin 1493 yildan 1669 yilgacha Evropaning turli shaharlarida al-Farg'oniyning kitobi 10 marta nashr etildi (jadvalga qarang)[302].

Al-Farg'oniy asarining birinchi nashri Italiyada sevilyalik Ioanning lotin tiliga tarjimasida 1493 yilda hayot yuzini ko'rgan bo'lib, Evropa inkunabulalari[303] faxriy toifasiga kiradi. Bu inkunabulaning nusxalaridan biri Buyuk Britaniyada, Oksford universitetining Bodleana kutubxonasida Ms. Asmole 124 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Bu nashrdan al-Farg'oniy tasviri va Alfraganus yozuvidan iborat reproduktsiya o'rin olgan. Uning ro'parasida mazkur nashrni mablag' bilan ta'minlagan va uning matnini tahrir qilgan monax kiyimidagi Xerimit ismli odamning tasviri joylashtirilgan. Rasmlarda o'rta asrlarda keng tarqalgan ikki asbob: o'ng tomonda – kvadrant, chap tomonda – astronomik lineyka tasvirlangan[304].

---

[302]Egamberdiev Sh.A. Axmad Fargani i ego rol v razvitii mirovoy naukiG'G' Materialo' Mejdunarodnoy konferentsii «Axmad Fargani i ego vklad v razvitie mirovoy nauki». – T. Fan, 1998. – 138-b. Jadvalda Evropaning XIX-XX asr fan tarixchilari asarlarida keltirilgan «Astronomiya asoslari haqidagi kitob» nashrlari to'g'risida mavjud barcha ma'lumotlar jamlangan.

[303]Evropada 1501 yilgacha nashr etilgan bosma kitoblar inkunabulalar (lotincha «cunabula» - «beshik» so'zidan olingan), ya'ni matbaachilik ishining «beshigi»da yaratilgan kitoblar deb ataladi.

[304]Qarang: Abduxalimov B.A. O nekotoro'x evropeyskix izdaniyax «Elementov as-

Nashr etilgan yil	Nashr etilgan joy	Sharhlar
1142 (1145)		Lotin tiliga ispaniyalik Ioann tarjimasi
1175		Lotin tiliga kremonlik Gerard tarjimasi
1231		Ibriy tiliga anatoliyalik Iakov tarjimasi
XIII asrning ikkinchi yarmi		Ibriy tilidagi variantdan frantsuz tiliga tarjima
1313		Frantsuz tilidagi variantdan italyan tiliga Zukkero Benchivenni tarjimasi. 1450 yilda undan ko'p sonli nusxalar ko'chirilgan
1493	Ferrara	Ispaniyalik Ioann tarjimasidagi inkunabulalar
1537	Nyurnberg	Ferrara inkunabulasi nashri
1546	Parij	Ispaniyalik Ioann tarjimasining qayta nashri
1556, 1564	Parij	«Astronomiya asoslari haqidagi kitob»ning 24-bobi «Sakrobosko sferasi» kitobi bilan birga nashri
1590	Frankfurt	Anatoliyalik Iakov tarjimasining nashri
1590, 1618	Frankfurt	Ya.Kristmann ibriycha matndan foydalanib amalga oshirgan tarjima nashri
1652	London	«Astronomiya asoslari haqidagi kitob»dan parchalar «Xaldeylar astronomiyasi» kitobida J.Gravius sharhlari bilan nashr etilgan
1669 1986	Amsterdam Frankfurt	Yakob Golius lotincha tarjimasining arabcha matn bilan birga nashri

...nomii- al-FarganiG`G` Materialo` Mejdunarodnoy konferentsii «Axmad Fargani i ego vklad v razvitie mirovoy nauki». – T.: Fan, 1998. – 175-177-b.

1910	Florentsiya	Kremonlik Gerard tarjimasi R.Kompani sharhlari bilan nashr etilgan
1943	Berkli, Kaliforniya	F.D.Karmodi sharhlari bilan nashr etilgan
1968	Tehron	Forscha nashr
1998	Toshkent	B.A.Rozenfeld, I.G.Dobrovolskiy, N.D.Sergeeva tarjimasidagi ruscha nashr
1998	Toshkent	A.Abdurahmonov tarjimasidagi o'zbekcha nashr

1537 yilda bu inkunabula Nyurnbergda Filipp Milanson so'zboshisi bilan qayta nashr etildi. Kitobning Parijda 1546 yil hayot yuzini ko'rgan uchinchi nashrida al-Farg'oniy asarini lotincha o'girgan birinchi tarjimon sevilyalik Ioann nomi birinchi marta ko'rsatildi. 1669 yil Amsterdamda Yakob Goliusning lotincha tarjimasi asarning arabcha matni va tarjimon al-Farg'oniy asarining dastlabki to'qqiz bobiga bergan sharhlar bilan birga nashr etildi. 1986 yilda Fuot Sezgin Ya.Golius tarjimasini Frankfurtda ingliz va nemis tillaridagi so'zboshi bilan qayta nashr etdi. Kremonlik Gerardning tarjimasi yaratilganidan keyin oradan 735 yil o'tib Florentsiyada, 1910 yilda nashr etildi. Nashrga R.Kompani ilmiy sharh berdi.

Al-Farg'oniyning «Astronomiya asoslari haqidagi kitob» asari AQShda ham nashr etildi. 1943 yil Berkli (Kaliforniya)da kitobning lotincha varianti Frensis J.Karmodi tahriri ostida va uning sharhlari bilan chiqdi.

1998 yil turonzaminlik buyuk alloma tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining «Fan» nashriyotida al-Farg'oniyning mazkur asari, shuningdek, uning «Astrolyabiyaning tuzilishi haqidagi kitob» risolasi ikki tilda – o'zbek va rus tillarida B.A.Rozenfeld, I.G.Dobrovolskiy, N.D.Sergeevaning (P.G.Bulgakov ishtirokidagi) kirish maqolasi va sharhlari bilan nashr etildi. Nashrning mas'ul muharriri – Ashraf Ahmedov.

«Astrolyabiyaning tuzilishi haqidagi kitob» o'rta asrlarda ancha keng qo'llanilgan astronomiya asbobi – astrolyabiyaning tuzilishiga

bag'ishlangan ilmiy risoladir. Kitobning birinchi bobida astrolyabiyaning tuzilishi zamirida yotuvchi matematik nazariya – yunonlar tomonidan yaratilgan, biroq yunonlarning bu masalaga doir asarlari al-Farg'oniygacha etib kelmagani sababli, uning o'zi mustaqil tiklagan stereografik proektsiya nazariyasi yotadi. Kitobning keyingi boblarida astrolyabiya yasash uchun zarur barcha hisob-kitoblar va geometrik chizmalar mufassal bayon etilgan. Risolaning oxirgi bobida astrolyabiya yasashning boshqa usullari bo'lishi mumkin emasligi asoslangan. Kitobga yozgan so'zboshisida al-Farg'oniy astrolyabiyaning tuzilishi zamirida qadimgi allomalar tomonidan ishlab chiqilgan printsiplar yotishini ko'rsatgan. «Biroq ulardan birortasi buni bizga tushuntirib, kitobda tavsiflab bermagan, - deb yozadi u. – Odamlar bundan ularga taqlidan foydalanadilar ... va hisob-kitoblarni asbobning to'g'riligini isbotlamasdan va uning sabablarini ko'rsatmasdan amalga oshiradilar»[305]. Al-Farg'oniy o'ziga zamondosh olimlarning aksariyati ayni shu holat tufayli qo'llanilayotgan printsiplarning to'g'riligiga shubha qilishini aytib, shunday deb yozadi: «Shu sababli biz bu kitobni yozdik va unda qadimgi olimlarning astrolyabiya shakli, uning tuzilishi va undan foydalanish haqidagi ko'rsatmalarining to'g'ri-noto'g'riligini, astrolyabiyada tasvirlangan samovot sohasining barcha davralari kattaliklarini aniqlash usullarini, ularni Er kurrasining barcha tomonlariga o'tkazish tartibini tushuntirishga harakat qildik»[306].

Al-Farg'oniyning «Astrolyabiyaning tuzilishi haqidagi kitob» risolasi quyidagi etti bobdan iborat:

1. Astrolyabiyaning shakli keltirib chiqariladigan geometrik takliflar haqida.
2. Astrolyabiya shaklini izohlash haqida.
3. Astrolyabiya yuzasidagi doiralarning kattaliklarini va ularning markazlarini hisob-kitoblar yordamida aniqlash haqida.
4. Jadvallar tuzish va ularga aniqlanishi lozim bo'lgan barcha ma'lumotlarni joylashtirish haqida.
5. Shimoliy astrolyabiyani chizish tartibi haqida.
6. Janubiy astrolyabiyani chizish tartibi haqida.
7. Qadimgilarning usullaridan chekinishning asossizligi haqida.

---

[305] Iqtibos quyidagi kitobdan olindi: Wiendemann E. Einleitungen zu arabischen astronomischen Werke. Das Weltall. Bd. 20, №3/4. 1919. S. 21-26.

[306] O'sha erda.

«Astrolyabiyaning tuzilishi haqidagi kitob» astronomiya asboblari tarixida, shuningdek, ularni yasashda qo'llanilgan matematik usullar tarixida butun o'rta asrlar uzra muhim rol o'ynadi.

Al-Forobiy kitoblari

O'rta asrlar musulmon Sharqining mashhur mutafakkiri, turonzaminlik buyuk qomusiy olim Abu Nasr Muhammad ibn Uzlug' ibn Tarxon al-Forobiy (873-950) asarlari Yaqin va O'rta Sharqda ayniqsa mashhur bo'lgan. Forobiy Aris daryosi Sirdaryoga quyiladigan erda joylashgan Forob shaharchasida turkiy qarluq qabilasining sarkardasi oilasida tug'ilgan. U shu erda boshlang'ich ta'lim olib, so'ngra tahsilni Buxoro va Bag'dodda davom ettirgan. Xalifalikning poytaxtiga ko'chib borishdan oldin Forobiy Buxorodan tashqari Turonzamin va Eronning Shosh (Toshkent), Samarqand, Isfaxon, Hamadon, Ray (Tehron) shaharlarida bo'lgan. Hayotining katta qismini u Bag'dodda o'tkazgan, shuningdek, Suriyada, Damashq va Halab (Aleppo) shaharlarida yashagan, bu erda uning ijodiy imkoniyatlari va qomusiy olim sifatidagi iste'dodi to'laqonli namoyon bo'lgan.

Forobiyning ilmiy qiziqishlari o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar tizimini qamrab olgan. Olimning xizmati shundaki, u qotib qolgan diniy aqidalarni tish-tirnog'i bilan himoya qiluvchi mutaassib dindorlar hukm surgan sharoitda insonning bilish qobiliyati va mantiqiy fikrlashga asoslangan bilishning ratsionalistik ilmiy metodini nafaqat ishlab chiqdi, balki uni amalda muvaffaqiyat bilan qo'llashga ham erishdi, o'rta asrlarda o'sha davrdagi ilmiy bilimlarning qomusi sifatida e'tirof etilgan birinchi to'liq fanlar tasnifini yaratdi, musiqa nazariyasi, tibbiyot, davlatshunoslik, axloq fanlariga ulkan hissa qo'shdi. Forobiyning diqqat markazida avvalo taraqqiyot va ilmiy bilishning nazariy jihatlari va falsafiy muammolari turgan. Aynan falsafa bilimdoni bo'lgani va murakkab falsafiy muammolarning mohiyatini teran anglagani uchun Forobiy «Al-muallimi soniy» - «ikkinchi (Aristoteldan keyingi) muallim» va «Sharq Aristoteli» degan nomlarga sazovor bo'lgan. Shu davrda Aristotel Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida jahonning eng buyuk allomasi sifatida dovruq taratgan, uning ilmiy dahosi qarshisida barcha taraqqiyparvar kishilar bosh eggan. Forobiyning o'zi Bag'doddagi ilmiy faoliyatining dastlabki yillarida qadimgi davrning ilmiy merosini

o'zlashtirar ekan, yunon olimlarining asarlariga ko'p sonli sharhlar yozgan. Xususan, u qadimgi yunon ilm-fanining bilimdoni sifatida Aristotelning mantiqqa oid «Birinchi analitika», «Talqin qilish haqida», «Topika», «Kategoriyalar» kabi asarlariga, uning tabiiy-ilmiy asarlariga, shuningdek, «Etika», «Ritorika», «Poetika», «Metafizika», «Sofistika» asarlariga, Evklid «Geometriya»sining ayrim boblariga, Porfiriyning «Izagoga» asariga, Ptolemeyning «Almagest»iga, afrodeziyalik Aleksandrning «Jon haqida» deb nomlangan asariga chuqur talqin uslubidagi sharhlar yozgan.

Hozirgi vaqtda fan tarixchilari tomonidan Forobiy qalamiga mansub 160 dan ortiq asarlar aniqlangan. Forobiyning bizgacha etib kelgan risolalarining aksariyatini bilimning turli sohalariga oid original ilmiy asarlar tashkil etadi. Ularni shartli ravishda quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin[307]:

1. Umumfalsafiy muammolarga doir, ya'ni xossalar, qonunlar va har xil kategoriyalarga bag'ishlangan risolalar. Bular «Substansiya haqida so'z», «Masalalar manbai», «Qonunlar haqidagi kitob», «Olam harakatining doimiyligi haqida» va b.

2. Inson bilish faoliyatining falsafiy jihatlariga bag'ishlangan, ya'ni bilish shakllari, bosqichlari va usullari haqidagi risolalar. Ularga Forobiy o'z ijodida katta e'tibor bergan mantiqning har xil muammolariga doir asarlar bog'lanadi. Bu guruh «Aql-idrok mazmuni haqida», «Zakovat» so'zining ma'nosi haqida», «Kattalar aql-idroki haqidagi kitob», «Yoshlar aql-idroki haqidagi kitob», «Mantiqqa oid katta muxtasar kitob», «Mantiqqa kirish kitobi», «Isbotlash kitobi», «Sillogizm shartlari haqidagi kitob», «Jonning mohiyati haqidagi risola», «Tush haqida so'z» va boshqa asarlarni o'z ichiga oladi.

3. Falsafa hamda turli muayyan fanlarning predmeti, mazmuni va mavzulari haqida risolalar: «Fanning kelib chiqishi haqida», «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi haqidagi kitob», «Falsafaning nomi va kelib chiqishi haqida», «Falsafa» tushunchasining ma'nosi haqidagi kitob», «Falsafani o'rganishdan oldin nimalarni bilish kerakligi haqidagi kitob», «Falsafaga sharhlar» va b.

4. Materiyaning miqdor, makon va hajm nisbatlari haqidagi

[307] Biz Abu Nasr Forobiy asarlarining akademik M.M.Xayrullaevning «Forobiy. Yashagan davri va ta'limoti» monografiyasida qabul qilingan bilim tarmoqlari va mazmuni bo'yicha tasnifini (174-174-b.) saqlab qoldik.

risolalar, arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasiga[308] oid asarlar. Ushbu guruhga, masalan, «Hajm va miqdor haqidagi kitob», «Makon geometriyasiga kirish kitobi», «Astrologiyaning to'g'ri va noto'g'ri qoidalari haqidagi kitob», «Musiqaga oid katta kitob», «Musiqa haqida so'z», «Ohanglar tasnifi haqidagi kitob» va boshqa asarlarni kiritish mumkin.

5. Materiyaning turli xossalari va turlari, noorganik tabiat, hayvonlar hamda inson organizmining xossalariga bag'ishlangan risolalar, ya'ni tabiiy fanlar: fizika, kimyo, optika, biologiya, tibbiyot, fiziologiyaga oid asarlar. Ularning qatoriga «Bo'shliq haqidagi risola», «Fizika asoslari haqidagi risola», «Kimyo san'atining zarurligi haqida», «Hayvonlarning a'zolari haqidagi risola», «Inson a'zolari haqidagi risola» va boshqa asarlar kiradi.

6. Lingvistika, poetika, ritorika, kalligrafiyaga oid risolalar: «Yozuv san'ati haqidagi kitob», «She'riy so'z va notiqlik san'ati haqidagi kitob», «Harflar va talaffuzlar haqida», «Notiqlik san'ati haqidagi kitob», «Xattotlik san'ati haqidagi kitob», «Lug'atlar haqida» va b.

7. Ijtimoiy-siyosiy hayot, ijtimoiy tuzumning o'ziga xos xususiyatlari, davlat boshqaruvi masalalari, axloq va uning kategoriyalari, tarbiya muammolariga bag'ishlangan risolalar, ya'ni davlat va huquq, yurisprudentsiya, siyosat, axloq, pedagogika va boshqa ijtimoiy fanlarga oid asarlar. Bu guruhga «Noharbiy siyosat», «Saodatga erishish haqidagi risola», «Urush va tinch hayot haqidagi kitob», «Jamiyatni o'rganish kitobi», «Fazilatli xulqlar», «Ideal shahar fuqarolarining qarashlari haqidagi kitob» va boshqalar kiradi.

Shunday qilib, Forobiy asarlarida o'rta asrlar fanining deyarli barcha muammolari o'z aksini topgan. Ma'naviy madaniyat tarixida yirik hodisa bo'lgan alloma yaratgan ijtimoiy-falsafiy tizim Turonzamin tabiiy-ilmiy va ijtimoiy tafakkurining yanada rivojlanishiga, Beruniy, Ibn Sino, Nosir Xusrav, Nizomiy, Umar Xayyom, Ulug'bek, Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Ahmad Donish va boshqa turonzaminlik mutafakkirlar, yozuvchilar va shoirlar dunyoqarashining shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Forobiyning kitoblari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqaldi. Hozirda ular Sankt-Peterburg, Toshkent, Dushanbe, Boku, Qozon, Qohira, Bayrut, Damashq, Istambul, Leyden, London,

[308]O'rta asrlarda musiqa, musiqa haqidagi nazariy bilimlar matematika fanlari sohasiga kirgan.

Parij, Madrid, Nyu-York, Haydarobod, Tehron va boshqa shaharlarning kutubxonalaridagi ko'p sonli davlat va xususiy qo'lyozma majmualarida saqlanmoqda. Toshkentda, O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutining jamg'armasida XVII asrda qayta ko'chirilgan noyob to'plam qo'lyozmasi saqlanmoqda. Bu to'plamdan Aristotel, afrodeziyalik Aleksandr, Iaodikeyalik Nikolay, Olimpiodor, Femistiy asarlarining tarjimalari, Ibn Sino, al-Kindiy, xurosonlik qomusiy olim Nosiriddin at-Tusiy, Beruniy, Ibn Boja risolalari, Ma'mun saroyidagi suriyalik dastlabki tarjimonlar Hunayn ibn Ishoq va Abu Bashr Matto asarlari (jami 107 risola) bilan bir qatorda Forobiyning 17 risolasi, shu jumladan, uning eng yirik va fundamental asari – 37 mustaqil bobdan iborat «Ideal shahar fuqarolarining qarashlari haqidagi kitob» ham o'rin olgan[309].

Abu Rayhon Beruniy kitoblari

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy (973-1048) qadimgi Xorazm poytaxti Kat shahri yaqinida tug'ilgan[310]. Ota-onasidan barvaqt ayrilgan Abu Rayhon bolalik va o'smirlik yillarini Katda hukmronlik qilgan xorazmshohlar oilasiga mansub bo'lgan yirik matematik va astronom Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq uyida o'tkazdi. Bu erda u zarur ta'lim va tarbiya oldi, tillar va fanlarni o'rgandi, Xorazmning eng yaxshi ilmiy an'analarini o'zlashtirdi. Ibn Iroq mustaqil ilmiy izlanishlarga qiziqishi juda erta uyg'ongan Beruniyning dastlabki ilmiy mashg'ulotlariga rahbarlik qildi. Ibn Iroq rahbarligida Beruniy 990 yilda, 17 yoshidayoq Katda bahor va kuzgi tengkunlik davrlarida Quyosh balandligini o'lchashni amalga oshirdi, bu unga o'z ona shahrining kengligini o'lchash, oradan bir necha yil o'tgach esa Turonzaminda birinchi bo'lib Er kurrasining diametri besh metr bo'lgan ulkan globusini yasash imkonini berdi.

995 yilda Xorazmda avj olgan hokimiyat uchun kurash Beruniyni o'z vatanini tark etish va vaqtinchalik Ray (hozirgi Tehron) shahridan

[309]Qarang: Kaziberdov A.L. Sochineniya Abu Nasra al-Farabi v rukopisyax Instituta vostokovedeniya AN UzSSR: (S prilojeniem russkogo perevoda traktata al-Farabi «At-Ta'likat» (Kommentarii). – T.: Fan, 1975. 119 s. – AN UzSSR In-t vostokovedeniya im. Abu Rayxana Beruni i In-t filosofii i prava im. I.M.Muminova.

[310]Beruniy tarjimai holiga oid materiallar, sharq qo'lyozma manbalaridan tashqari, E.Zaxau, E.Videman, I.Yu.Krachkovskiy, A.A.Semenov, S.P.Tolstov, M.A.Sale, I.M.Mo'minov, P.G.Bulgakov, U.I.Karimov va boshqalarning asarlarida mavjud.

qo'nim topishga majbur qildi. 997 yilda u Katga qaytib keldi va bu erda 998 yilgacha yashadi. 998-1004 yillarda Beruniy Kaspiy dengizining janubi-sharqiy qirg'og'ida joylashgan Gurgon shahrida yashadi. 1004 yilda u yana Xorazmga, biroq Kat shahriga emas, balki birlashgan Xorazm poytaxti Gurganj shahriga qaytib keldi. 1017 yilda G'azna sultoni Mahmud qo'shini Xorazmni bosib oldi. Beruniy Mahmud G'aznaviy hukmiga binoan Ibn Iroq bilan birga G'aznaga (hozirda Afg'onistondagi shaharcha) keldi va umrining oxirgi o'ttiz yilini shu erda o'tkazdi.

Beruniy boy ilmiy meros qoldirdi. Bugungi kunda turli manbalar tahlili asosida tiklangan Beruniy asarlarining ro'yxati 148 nomdan iborat bo'lib, shulardan 28 tasigina bizgacha etib kelgan. Allomaning rang-barang ilmiy faoliyatida astronomiya va matematika sohasidagi tadqiqotlar alohida o'rin egallaydi. Ularga Beruniy oltmishga yaqin asarini, ya'ni barcha asarlarining uchdan bir qismidan ko'prog'ini bag'ishlagan[311]. Ularning eng muhimlari quyidagilardir: «Turar joylar (orasidagi) masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash», «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar», «Hind rashiklari haqidagi kitob», «Mas'ud qonuni» - o'sha davrning astronomiyaga oid bilimlarini o'zida jamlagan 11 kitobdan iborat to'plam.

Beruniy bilimning boshqa sohalarida ham bir qancha asarlar yaratgan. Ularning orasida «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» (1000 yil), «Hindiston» (1030 yil) kabi fundamental tarixiy va tarixiy-madaniy asarlar, «Geodeziya» (1025 yil), «Mineralogiya» (1043 yil), «Saydana» («Farmakognoziya») (1048 yil) asarlari alohida o'rin egallaydi.

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»da Beruniy barcha milodlar hamda o'ziga ma'lum xalqlar va dinlar: yunonlar, rimliklar, forslar, sug'diylar, xorazmiylar, xarronlar, koptlar, xristianlar, yahudiylar, islomdan oldingi arablar, musulmonlarning bayramlariga tavsif beradi. «Bu Yaqin va O'rta Sharq xalqlari, avvalo – O'rta Osiyo xalqlari xo'jalik hayoti, urf-odatlari va e'tiqodlarining o'ziga xos qomusidir», deb baho bergan bu asarga taniqli sharqshunos olim prof. S.P.Tolstov[312].

---

[311] Qarang: Ukazatel sochineniy Beruni. V kn.: Bulgakov P.G. Jizn i trudo' Beruni. – T.: Fan, 1972. – 420-427-b.

[312] Tolstov S.P. Biruni i ego «Pamyatniki minuvshix pokoleniy». V kn.: Abu Rayxan Beruni. Izbranno'e proizvedeniya, T.I, Tashkent, izd-vo AN UzSSR, 1957. S. XVI.

«Hindiston» asari qadimgi va Beruniy yashagan davrdagi Hindistonning tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, madaniyat, tarix, din va falsafa tarixini o'rganishga bag'ishlangan. «Hindiston» asari Beruniy ijodida muhim o'rin egallaydi, - deb yozadi u haqda hozirgi tadqiqotchilar.

Muallif kishilik tarixidagi buyuk allomalardan biri sifatida tan olinishida bu asarning hissasi katta. «Hindiston» asari o'zining asosiy tamoyillari, uslubi va bayon etish usuliga ko'ra o'rta asrlar Sharq adabiyotining buyuk yodgorligi hisoblanadi. Arablarning siyosiy hukmronligi doirasiga yoki Islom dini tarqalgan doiraga kiruvchi biron-bir boshqa mamlakat, xalq, din haqida yozilgan biron-bir asar Beruniyning «Hindistoni»ga tenglasha olmaydi»[1]. Bu asar uni yaratish chog'ida foydalanilgan yozma manbalar tarkibiga ko'ra ham diqqatga sazovordir. Bu manbalar Beruniyni qurshagan kitoblar va IX-X asrlarda mavjud bo'lgan Turonzamin kitob repertuarining rang-barangligi haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shu ma'noda P.G.Bulgakovning quyidagi kuzatishlari diqqatga sazovordir: «Hindiston»ni tarixiy va tarixiy-madaniy manba sifatida baholar ekanmiz, avvalo shuni e'tiborga olishimiz kerakki, bu yodgorlikda bizgacha etib kelmagan juda ko'p, avvalo hind manbalarining parchalari iqtiboslar yoki tavsiflar ko'rinishida mujassamlashgan. Beruniy keng foydalangan bizgacha etib kelmagan hindlarning astronomiyaga oid asarlari orasida avvalo Braxmaguptaning «Kxandakxadyaki», Vijayanandinning «Karanatilaka» asarlari va o'sha Braxmaguptaning «Al-Arkand» deb nomlangan zijini qayd etish lozim. Bizgacha etib kelmagan antik davr yodgorliklaridan Beruniy (arabcha tarjimalar orqali) Galenning «Ilon axloqi» kitobidan, Platonning «Timeyi»ga noma'lum sharhdan va aleksandriyalik Ammoniyning noma'lum asaridan foydalangan.

Beruniy arabcha tarjimalaridan iqtibos keltirgan ilk o'rta asrlarga mansub fors tilidagi yodgorliklar orasida qadimgi Eron etnografiyasiga oid noyob manba hisoblanadigan Tosar (yoki Tansar)ning «Maktubi» alohida o'rin egallaydi. Beruniy bu manbadan Ardasher Papakan tomonidan amalga oshirilgan qadimgi Eron sulolalar tizimining islohoti va qadimgi Erondagi nikoh munosabatlari haqida ma'lumotlar olgan. Bu yodgorlikning milodiy VI asr o'rtalarida amalga oshirilgan arabcha tarjimasi bizgacha etib kelmagan bo'lib, u haqda faqat Beruniy keltirgan

[1] Kaliday A.B., Erdman V.G. Predislovie k russkomu perevodu «Indii». V kn. Abu Rayxan Beruni. Izbranno'e proizvedeniya, t. II, Tashkent, izd-vo AN UzSSR, 1963. – 49-b.

iqtiboslarga ko'ra tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Moniyning «Tiriltirish xazinasi» kitobi ham bizgacha etib kelmagan, shu bois Beruniy undan keltirgan iqtiboslar katta tarixiy-madaniy ahamiyatga ega.

Bizgacha etib kelmagan Sharq musulmon allomalarining asarlaridan Beruniy ar-Roziyning ustozi al-Eronshahriy hamda astronom va matematik Muhammad ibn Ishoq as-Saraxsiy (IX asr oxiri – X asr boshi)ning nomi aytilmagan kitoblaridan iqtibos keltirgan yoki ularga tavsif bergan. Bu kitoblarga Beruniy «Geodeziya», «Mas'ud qonuni» va boshqa ba'zi asarlarida ham ishora qilgan. Beruniy keltirgan barcha iqtiboslar yig'indisi Sharq fani tarixchisiga bu olimlarning ijodiy qiyofasini to'liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Xususan, «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Geodeziya» va «Mas'ud qonuni»ga qaraganda, al-Eronshahriy ajoyib tabiatshunos, «Hindiston» asariga qaraganda – etnograf va din tarixchisi bo'lgan; uning asarlaridan Beruniy Moniy va moniylik haqida ham ayrim ma'lumotlarni olgan»[314].

Beruniyning «Geodeziya» asari astronomiya, geografiya va geodeziya bilan bog'liq masalalarning keng doirasiga bag'ishlangan. Unda muallif joyning geografik kengligi va uzunligini aniqlashning har xil variantlarini keltiradi, ekvator chizig'iga nisbatan ekliptika og'ish burchagining kattaliklarini aniqlash masalalarini, vaqtni aniqlash usullarini ko'rib chiqadi, Er aylanasini o'lchash tarixini bayon etadi, ikki joy o'rtasidagi masofani ularning geografik koordinatlari yordamida aniqlash vazifalarining echimini beradi va h.k.

«Mineralogiya»da 36 qimmatbaho tosh va boshqa qattiq moddalar, shuningdek, 12 metall tavsifi, ulardan har birining fizik va kimyoviy xossalari keltiriladi. Beruniy Turonzamin hududida qazib olingan minerallarga mufassal to'xtalgan, konlar joylashgan erlarni va ma'danlarni qazib olishning mahalliy usullarini ko'rsatib o'tgan. Masalan, Zarafshon daryosining yuqori qismida temir, mis, simob, kuporos, feruza, Farg'ona vodiysida – asfalt, neft qazib chiqarilgani qayd etilgan. Asarning tegishlj boblariga ilovalar sifatida Beruniy ayrim qimmatbaho toshlar haqidagi hikoyatlarni, mineralogiya bilan bog'liq tarixiy, etnografik, lingvistik va geografik mazmundagi har xil tafsilotlarni keltirgan.

Ma'danlarni ularning solishtirma og'irligiga ko'ra aniqlash usulining yaratilishi Beruniyning muhim ilmiy yutug'i bo'ldi. Bu usul

[314]Bulgakov P.G. Jizn i trudo` Beruni. – T.: Fan, 1972. – 226-227-b.

unga ko'pgina ma'danlarning solishtirma og'irliklarini to'g'ri aniqlash imkonini berdi. «Mineralogiya» tadqiqotchisi prof. G.G.Lemleyn bu haqda shunday deb yozgan edi: «Minerallarning konstantalarini aniqlash majburiy va odatiy holga aylangan hozirgi kunda biz allomamizning ulug' xizmatini alohida minnatdorlik tuyg'ulari bilan esga olishimiz kerak»[315].

Beruniyning u faqat qoralama variantda yakunlashga ulgurgan oxirgi asari dorishunoslikka oid «Kitob as-saydana fi-t-tib» - «Dorivor o'simliklar haqida kitob», qisqacha «Farmakognoziya» yoki «Saydana» kitobidir. Bu asarda Sharqda, shu jumladan, Turonzaminda o'sadigan dorivor o'simliklarning tavsifi berilgan. «Saydana»da 750 taga yaqin o'simliklarning turlari, 107 mineral vosita, hayvonlardan olinadigan 101 dorivor vosita, 30 nomdagi murakkab dorilar tilga olingan. «Beruniyning bu asari dorishunoslikka oid odatdagi qo'llanmalardan, masalan, Ibn Sino «Tib qonunlari»ning ikkinchi kitobidan sezilarli darajada farq qiladi, - deb yozadi «Saydana»ni rus tiliga tarjima qilgan olim U.I.Karimov. – Unda asosiy e'tibor dorining xossalari va ta'siri haqidagi ma'lumotlarga emas, balki uning tavsifiga, ya'ni uning ko'rinishi, qanday o'simlik yoki hayvondan olinishi, uning tozaligi va sifatliligini ko'rsatuvchi belgilarni aniqlashga qaratiladi»[316].

«Hindiston» asarida bo'lganidek, «Saydana»da ham foydalanilgan adabiyotlar doirasi juda keng bo'lib, ular xronologik jihatdan qariyb bir yarim ming yilni qamrab oladi. Tilga olingan mualliflarning umumiy soni 250 taga etadi. Beruniy o'z o'tmishdoshlari bu sohada to'plagan rang-barang materialni umumlashtirib, ular chiqargan xulosalarni tanqidiy baholagan va ularni o'zi butun umri davomida to'plagan kuzatishlarining ko'p sonli natijalari bilan to'ldirgan.

Abu Ali ibn Sino kitoblari

Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh al-Hasan ibn Ali ibn Sino (980-1037) moliya amaldori oilasida tug'ildi[317]. Uning bolalik va o'smirligi

---

[315] Abu Rayxan Beruni. Sobranie svedeniy dlya poznaniya dragotsennostey (Mineralogiya). – M.-L., Izd-vo AN SSSR, 1963. – 408-b.

[316] Karimov U.I. Predislovie. V kn.: Abu Rayxan Beruni. Farmakognoziya. – Izbranno'e proizvedeniya, t. IV. – T.: Fan, 1974. – 10-11-b.

[317] Ibn Sino tarjimai holiga oid materiallar, sharq qo'lyozma manbalaridan tashqari, I.E.Berezin, A.Yu.Yakubovskiy, A.E.Shmidt, A.A.Semenov, V.D.Petrov, V.N.Ternovskiy, I.M.Mo'minov, A.Irisov, X.Hikmatullaev, Sh.Shoislomov va boshqalarning asarlarida, shuningdek quyidagi kitobda e'lon qilingan Ibn Sinoning tarjimai holidan ko'chirmalarda

somoniylar davlatining poytaxti Buxoroda o'tdi. O'sha davrda Buxoroda shakllangan yuksak darajada rivojlangan madaniy va ilmiy muhit yosh Ibn Sinoning tabiiy qobiliyati rivojlanishiga ko'maklashdi. Ibn Sinoning o'z iqroriga ko'ra, u 18 yoshdayoq o'z davrining deyarli barcha fanlarini o'zlashtirgan.

1005 yilda Ibn Sino Xorazm poytaxti Gurganjga keldi. Xorazmshohlar Ali ibn Ma'mun (997-1009) va Ma'mun ibn Ma'mun (1010-1017) ilm-fanga e'tiborli hukmdorlar bo'lib, olimlarga ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratib bergan edilar. Shu bois bu davrda Gurganjda zamonasining ko'pgina olimlari, adabiyotchilari, faylasuflari, tabiblari, bir so'z bilan aytganda, o'ziga xos «Akademiya» to'plandi. Bu davraga Beruniy rahbarlik qilardi. Ilg'or ilmiy muhit bilan yaqin aloqa va muloqotlar Ibn Sino ijodining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Gurganjda u fanning turli sohalaridagi bilimlarini boyitdi, o'zining tibbiyot va falsafa sohasidagi ko'p jildli asarlariga tayyorgarlik ishlarini olib bordi. Mahmud G'aznaviy Xorazmga ko'z tikkach, saroy olimi qismati boshiga tushishini istamagan Ibn Sino Xorazmni tark etib, Niso va Obivard orqali Jurjonga keldi va bu erda ikki yil yashadi. 1014 yil Ray va Qazvinda qisqa vaqt yashagach, Ibn Sino Hamadonga keldi va bu erda 1023 yilgacha yashab ijod qildi. So'ngra alloma 1037 yilgacha Isfaxonda yashadi va faqat o'limidan oldin yana Hamadonga qaytib keldi.

Maxsus bibliografik asarlar va fan tarixchilarining tadqiqotlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Ibn Sino asarlarining ro'yxati 456 nomdan iborat[318] bo'lib, shulardan 240 taga yaqini bizgacha etib

mavjud: Materialo' po istorii progressivnoy obhestvenno-filosofskoy mo'sli v Uzbekistane. T.:Fan, 1976. –S.277-279.

[318]Jahonning turli kutubxonalarida aniqlangan Ibn Sino asarlarining ro'yxatini tuzishga juda ko'p asarlar, shu jumladan sharq qo'lyozmalari kataloglari va bibliografiyaga oid maxsus nashrlar bag'ishlangan. Masalan, qarang: Supplementband Bd. I. Leiden, 1937, 812-828 (Ibn Sinoning 250 taga yaqin asarlari ro'yxati keltirilgan); Osman Ergin. Ibn Sina bibliografiyasi. Istanbul, 1937, 1956 (Ibn Sinoning 223 asari qo'lyozmalari haqida ma'lumotlar berilgan); Jorj Shaxata Kanavati. Muallifat Ibn Sino. Qohira, 1950 (Ibn Sinoning 276 asari haqida ma'lumot berilgan); Yahyo Mahdaviy. Fixrist-i nusxayi musannafat-i Ibn Sino. Tehron, 1333 (1954) (Ibn Sinoning 456 asari haqida ma'lumot berilgan); Zavadovskiy Yu.N. Materialo' dlya bibliografii Abu Ali ibn Sino'. – «Izvestiya AN Tadj. SSR». Otdelenie obhestvenno'x nauk, Stalinabad, 1953, vo'p. 2 (17). 91-112-b. (Ibn Sinoning 169 asari haqida ma'lumot berilgan); Shmidt A.E. Rukopisi proizvedeniy Avitsenno' v Gosudarstvennoy publichnoy biblioteke UzSSR. «Trudo' Instituta vostokovedeniya AN SSSR, XXXVI, 2-ya seriya Assotsiatsii arabistov 19-23 oktyabrya 1937 g. M., 1941. 31-33-b.; Mirzoev S. Ibn

bolgan[319]. Ibn Sino asarlarining turli davrlarda qayta ko'chirilgan ko'p sonli qo'lyozmalari hozirda jahonning deyarli barcha qit'alaridagi kutubxonalarda saqlanmoqda. Toshkentda, O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik institutida Ibn Sinoning 55 asarini o'zida mujassamlashtirgan 70 qo'lyozma kitob saqlanadi[320].

Ularning orasida «Tib qonunlari» kitobining to'rt qo'lyozmasi (ularning eng dastlabkisi XIV asrda yaratilgan), «Urjuza» deb nomlangan tibbiyot mavzusidagi she'riy asar, «Yurak dorilari», «Organizmning mavjudlik me'yorlari, sharobning foydasi va zarari haqida», «Fikr-mulohazalar va ko'rsatmalar kitobi», «Ta'riflar haqida risola», «Aqlga asoslangan fanlar tasnifi haqidagi risola», «Barcha mavjudotlar tasnifi haqidagi risola», «Bilim kitobi», «Risolai axloq», Ibn Sinoning adabiy-badiiy asarlari va uning o'z zamondoshlari bilan yozishmalari ifodalangan qo'lyozmalar bor[321].

Bu qo'lyozma kitoblar va asarlarning aksariyati 1952-1975 yillarda nashr etilgan «O'zbekiston Fanlar akademiyasining sharq qo'lyozmalari to'plami» seriyali katalogining dastlabki o'n jildida ilmiy tavsiflangan.

Ibn Sinoning bizgacha etib kelgan asarlaridan 80 ga yaqini falsafaga, 11 tasi – tibbiyotga, 26 tasi – psixologiyaga, 23 tasi – tabiatshunoslikka, 19 tasi – mantiqqa, 9 tasi – axloqqa, 7 – astronomiyaga, 4 tasi – tilshunoslik va adabiyotshunoslikka, 2 tasi – kimyoga, bittadan – matematika va musiqaga bag'ishlangan[322]. Bu raqamlarni uzil-kesil deb bo'lmaydi, albatta. Bu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlar va tadqiqotlar kelgusida ilgari noma'lum yoki faqat nomigina ma'lum asarlarning topilishiga, ularning asl matnlari aniqlanishi va nomlariga aniqlik kiritilishiga olib kelishi mumkin. Ibn Sino o'z «Tarjimai holi»da aytib o'tgan, biroq hali topilmagan asarlar orasida alloma tomonidan Buxoroda tuzilgan «Al-Hosil va-l Mahsul» - «Olinadigan va erishiladigan narsalar»

Sinoning Sharqshunoslik institutida mavjud asarlari. Bibliografiya. T., 1955.

[320] Qarang: Irisov A. Ibn Sino. Hayoti va ijodi. – T.: Fan, 1980. – 5-b.

[321] Qarang: Urunbaev A., Vaxabova B. Rukopisi proizvedeniy Abu Ali ibn Sino` v sobranii instituta vostokovedeniya AN UzSSR. – «Obhestvenno`e nauki v Uzbekistane», 1980, № 4, – 100-b.

[322] Qarang: Urunbaev A., Vaxabova B. Rukopisi proizvedeniy Abu Ali ibn Sino` v sobranii instituta vostokovedeniya AN UzSSR. – «Obhestvenno`e nauki v Uzbekistane», 1980, № 4, – 99-103-b.

[323] Qarang: Karimov U.I. Buyuk alloma. «Sharq yulduzi», 1979, № 1. – 199-b.

deb nomlangan yigirma jildli qomusiy asar, «Al-Birr va-l Ism» - «Yaxshi ish va gunoh» deb nomlangan axloq mavzusidagi risola, shuningdek, Mahmud G'aznaviy Isfaxonni fath etayotgan paytda yo'qolgan «Kitob al-Insof» - «Adolat kitobi» deb nomlangan yirik falsafiy asar bor.

Tibbiyot fanining rivojlanishida Ibn Sino hissasi beqiyosdir. O'z asarlarida u nafaqat tibbiyot fanining ming yillik rivojlanish davrini sarhisob qildi, erishilgan barcha yutuqlarni umumlashtirdi va qayta ishladi, balki tibbiyot fanini yangi, misli ko'rilmagan darajaga ko'tardi, oldingi tajribani o'z tafakkuri va teran bilimlari bilan boyitdi, uning butun bir tarixiy bosqichdagi rivojlanish jarayonini belgilab berdi. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi shoh asari bo'lmish «Tib qonunlari» jahon tibbiyoti tarixidagi eng buyuk kitobdir. Unda inson salomatligi va kasalliklariga oid barcha masalalar o'sha davrdagi bilimlar doirasida ko'rib chiqilgan. «Tib qonunlari» hajman har xil bo'lgan besh kitobdan iborat. Birinchi kitobda tibbiyot umumiy nazariyasi, uning predmeti, vazifalari, maqsadlari, vositalari bayon etilgan, anatomiya, diagnostika, simptomologiya, dietika, profilaktika, jismoniy madaniyat va umumiy davolash masalalari ko'rib chiqilgan. Ikkinchi kitob dorishunoslikka bag'ishlangan. Unda 811 ta har xil dori vositalari alifbe tartibida tavsiflangan, u yoki bu dori qaysi kasalliklarda qo'llanilishi, ulardan har birining xossalari va ta'siri ko'rsatilgan. Uchinchi kitob inson ta'nasining ayrim a'zolari – bosh va miya, hiqildoq, og'iz, quloq, oshqozon, ichak, o'pka, jigar, buyrak, qovuq va hokazolarning kasalliklarini aniqlash va davolash usullariga bag'ishlangan, doyalik xususida maslahatlar ham berilgan. To'rtinchi kitobda jarrohlik masalalari, kasalliklarning sabablari va tananing ayrim tashqi a'zolarini, bezgak, shish, o'sma, teri kasalliklari, kuyish, qizamiq, o'lat, vabo, chechakni davolash usullari ko'rib chiqilgan. Qo'l va oyoq chiqishi, sinishi, zaharlanish, shuningdek, pardoz-andoz masalalariga alohida boblar bag'ishlangan. Beshinchi kitobda murakkab dori vositalari, ularni tayyorlash usullari, qo'llanilishi va ta'siriga tavsif berilgan.

«Tib qonunlari» asari 1012-1023 yillarda yaratildi va tez orada tibbiyotga oid boshqa barcha asarlarni o'z soyasi ostida qoldirib, ko'p sonli qo'lyozmalar ko'rinishida tarqaldi va bir necha asrlar davomida Yaqin va O'rta Sharq tibbiyotchilari uchun dasturilamal bo'lib keldi. XII asrda yashab ijod qilgan turonzaminlik olim Nizomiy Aruziy Samarqandiy: «Tib qonunlari»ni mufassal o'rgangan shifokorlar boshqa asarlarni

o'rganishga muhtoj bo'lmaydi», degan edi. «Tib qonunlari»ning muallifi «Shayx ar-Rais» - «donolar muallimi» unvoniga sazovor bo'ldi. «Tib qonunlari» XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilindi va besh asr mobaynida Evropa universitetlarining tibbiyot fakultetlari uchun majburiy o'quv qo'llanmasi va o'rta asrlar Evropasida tibbiyotchilar uchun dasturilamal bo'lib keldi.

Evropada kitob chop qilish kashf etilganidan (1445 yil) keyin «Tib qonunlari» ilk bosma kitoblar – inkunabulalar qatoridan o'rin oldi. 1473 yilda u ilk bor Strasburgda nashr etildi va 1500 yilgacha turli shaharlarda yana 15 marta lotin tilida va bir marta (1492 yilda) qadimgi yahudiy tilida, Matan Xameatiy (Gammatiy) 1279 yilda amalga oshirgan tarjimada chop etildi.

Keyingi XVI asr davomida «Tib qonunlari»ning yana 20 nashri hayot yuzini ko'rdi. Kitobning eng mukammal nashrlaridan biri 1595 yilda Venetsiyada chop etildi. Umuman olganda, bu asar lotin tilida 40 martadan ko'proq nashr etilgan.

1599 yilda «Tib qonunlari» Rimda birinchi marta Florentsiyada saqlanayotgan qo'lyozma bo'yicha arab tilida nashr etildi. Kitob ikki jilddan (jami 900 sahifadan) iborat holda ajoyib bezaklar bilan chop etildi. Keyinchalik «Tib qonunlari»ning arabcha matni Qohira (1873, 1877, 1879), Tehron (1889), Lohur (1905) va Lakxnav (1906)da qayta-qayta nashr etildi.

Ibn Sinoning bu mashhur asari yaqin vaqtgacha faqat arabcha aslida va lotin va qadimgi yahudiy tillariga tarjimalar orqali ma'lum edi. «Tib qonunlari»dan ayrim parchalar turli davrlarda nemis, ingliz va frantsuz tillarida nashr etilgan. Biroq 250 bosma taboqdan va bir milliondan ortiq so'zdan iborat bu ulkan majmuaning hozirgi tillardagi to'liq tarjimasi mavjud emas edi. Ko'plab tarixiy-madaniy, tekstologik, lingvistik va texnik muammolarni echish, tibbiyot, anatomiya, fiziologiya, farmakognoziya, farmakologiya, botanika, zoologiya, mineralogiya va kimyo sohalariga mansub o'rta asrlarda amal qilgan bir necha ming atamalarning ma'nolarini aniqlash bilan bog'liq mushkul vazifa ilk bor bizning mamlakatimizda qo'yildi va hal qilindi. 1954-1961 yillarda O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutining xodimlari va respublikamiz tibbiyotchilari Moskva va Leningrad olimlari bilan hamkorlikda «Tib qonunlari» o'zbek va rus tillaridagi birinchi nashrini tayyorladilar va

chop etdilar. Ibn Sino tavalludining 1000 yilligiga (1980 yil) bag'ishlab «Tib qonunlari»ning ikkinchi, to'ldirilgan nashri bosmadan chiqarildi. Ikkala nashr ham olti jild (besh kitob)dan iborat holda chop etildi.

Garchi Ibn Sino asosan buyuk tabib, «Tib qonunlari» asarining muallifi sifatida dovruq qozongan bo'lsa-da, allomaning ma'naviy merosini tushunish uchun uning falsafa va mantiq sohasidagi tadqiqotlari, u ishlab chiqqan metodologik tamoyillar tizimi muhim ahamiyatga ega. Aynan tabiat hodisalariga nisbatan teran ilmiy yondashuv unga tibbiyot sohasida yuksak natijalarga erishish va ularni amalga tatbiq etish imkonini berdi, ijtimoiy hayot jarayonlari, oila, ta'lim va tarbiya muammolarini oqilona tushunish esa muqarrar ravishda uni axloq, psixologiya, shaxsni ma'naviy, mehnat bilan, jismonan tarbiyalash va rivojlantirish, davlat qurilishi, ijtimoiy hayot sohasidagi yangi g'oyalar va sermazmun xulosalarga olib keldi. Ibn Sino yaratgan falsafiy qarashlarning o'ziga xos tizimi nafaqat Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, balki Evropa uchun ham o'rta asrlar nazariy tafakkuri rivojlanishining cho'qqisidir.

Ibn Sinoning bizgacha etib kelgan umumfalsafiy mazmundagi asarlari orasida eng yirigi va muhimi 22 jildli «Kitob ash-shifo»dir. O'sha davr fanining barcha asosiy tarmoqlarini qamrab olgan bu asarning qisqacha mazmuni Ibn Sinoning mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan boshqa asari – «Kitob an-najot»da bayon etilgan. «Kitob ash-shifo» 4 qism – «Mantiq», «Tabiiyot», «Riyoziyot (matematika)» va «Metafizika (yoki ilohiyot)»dan iborat. Bu qismlar, o'z navbatida, alohida kitoblar (jildlar) da bayon etilgan mustaqil bo'limlarni o'z ichiga oladi. «Mantiq» bo'limi to'qqiz bob-kitobdan iborat. Bular: «Mantiqqa kirish», «Kategoriyalar», «Talqin», «Sillogizm», «Isbot», «Dialektika», «Sofistika», «Ritorika», «Poetika». «Tabiiyot» bo'limi quyidagi sakkiz jilddan iborat: «Tabiiyot haqida ma'ruzalar», «Osmon va Olam» (Olam deganda Er nazarda tutiladi). «Materiya va uning o'zgarishi», «Ta'sir va ta'sirlanish», «Ma'danlar va meteorologiya», «Jon haqida kitob», «O'simliklar dunyosi haqida kitob» («Kitob an-Nabot» - «Botanika»), «Hayvonot dunyosi haqida kitob» («Kitob al-Hayvon» - «Zoologiya»). «Riyoziyot (matematika)» bo'limi to'rt kitobdan iborat: «Arifmetika», «Geometriya», «Astronomiya» va «Musiqa».

Ibn Sino fors-doriy tilida yozgan muhim falsafiy asar «Donishnoma»da mantiq, falsafa va tabiiyot fanlariga doir masalalar

ko'rib chiqilgan.

Uning oxirgi falsafiy asarlaridan biri «Kitob al-Ishorat va-t-Tanbihot» - «O'gitlar va nasihatlar kitobi» o'ziga xos shaklda va tilda yozilgan. Murakkab falsafiy muammolar va ularga o'z munosabatini Ibn Sino qisqacha hikmatlarda bayon etgan.

Ibn Sino ilmiy qiziqishlarining markazida turgan falsafa va tibbiyotdan tashqari, buyuk qomusiy olim bilimning astronomiya, fizika, matematika, mexanika, geologiya, kimyo, farmakologiya, mineralogiya, mantiq, psixologiya, axloq, sotsiologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, musiqa nazariyasi kabi sohalariga ham ko'p yangiliklar kiritdi. U buyuk adabiyotchi, ajoyib g'azal va ruboiylar, «Hayy ibn Yaqzon», «Tayr qissasi», «Salomon va Ibsol», «Yusuf haqida qissa» kabi teran falsafiy mazmunli qissalar muallifi sifatida ham mashhur. Ibn Sino yaratgan bu badiiy-falsafiy asarlarning ohanglari, ularning bilvosita, ba'zan esa – bevosita ta'siriga fors-tojik, o'zbek va turk adabiyotlari rivojlanishining keyingi tarixiy davrlarida ham duch kelishimiz mumkin. Masalan, fors-tojik mumtoz adabiyotining vakili Abdurahmon Jomiy (1414-1492) ning «Salomon va Ibsol» dostoni Ibn Sinoning shu nomli qissasi asosida yozilgan. «Tayr qissasi» bilan Abu Homid Muhammad G'azzoliy (1058-1111)ning «Risolat at-tayr» («Qushlar haqida risola», Shahobiddin Suhravardiy (vafoti 1191 y.)ning «Risolai musamma ba safari Semurg'» («Qushlarning Semurg'ni izlab qilgan safari haqida risola», Farididdin Attor (1142-1220)ning «Mantiq ut-tayr» («Qushlar suhbati») dostoni, turk shoiri Gulshahriyning shu nomli dostoni va Alisher Navoiy (1441-1501)ning «Lison ut-tayr» («Qush tili») dostoni bog'liq.

Savollar va topshiriqlar:

1. "Kitoblar repertuari" tushunchasini ta'riflab bering.

2. O'rta asrlar davomida kitoblar repertuarining mavzuiy va tipologik jihatdan o'zgarishini tahlil qilib bering.

7-§. O'rta asrlar kutubxonachiligi

7.1. Kutubxonalarning turlari

Kutubxonalarni har xil turlarga ajratish jarayoni Turonzaminda kitobat madaniyati rivojlanishining ilk bosqichidayoq namoyon bo'ladi.

Qadimiyat davrida bu zardushtiylar, buddaviylar va moniychilarning muqaddas diniy matnlari saqlangan kitob omborlari, davlat xazinalaridagi sulolaviy kitob mahzanlari bo'lib, ular g'azna, arxivlar va kutubxonalarga ajratilgunga qadar mazkur xazinalarda kitoblar davlat ahamiyatiga molik yozma hujjatlar, oltin va qimmatbaho buyumlar bilan birga saqlanar edi. Ilk o'rta asrlarda ularga kutubxonalarning yangi turi qo'shildi – shaxsiy (xususiy) kitob mahzanlari paydo bo'ldi. «Avesto» madaniy dunyosi musulmon madaniy dunyosining tarkibiy qismiga qo'shilishi jarayonida, Turonzamin kitobat madaniyati va kitob repertuarining tadrijiy rivojlanishi natijasida bu erda sulolaviy (saroy), diniy va shaxsiy (xususiy) kitob omborlarining ilgari ma'lum bo'lgan turlari ham, kutubxonalarning yangi vujudga kelgan turlari va shakllari ham rivojlandi. O'rta asrlarda kutubxonalar maqsadi va vazifalariga qarab ajratila boshlandi, bir qator maxsus kutubxonalar: madrasai oliya, o'rta va quyi madrasalarning kutubxonalari, jamiyatda hukm surgan diniy mazhablarning o'ziga xos instituti vazifasini bajargan masjid kutubxonalari, shahar, qishloq yoki shahar mavzesi miqyosidagi musulmon jamoalari ommaviy foydalanishi uchun mo'ljallangan kutubxonalar, maqbaralar va so'fiylarning hujralari qoshidagi kutubxonalar, shifoxonalar va xonaqolar qoshidagi kutubxonalari paydo bo'ldi. Bunday kutubxonalar aksariyat hollarda vaqf mulkiga aylantirilar edi. Shuning uchun ham biz yuqorida zikr etilgan muassasalarning kutubxonalarini «vaqf kutubxonalari» nomi ostiga birlashtiramiz.

Turonzaminga islom dini kirib kelgan dastlabki asrlardayoq sulolaviy xazinalarning davlat arxivlari hamda davlat, milliy kutubxonalariga aylantirilishi, so'nggi zikr etilgan muassasalarning davlat muassasalari tizimidagi alohida birliklarga ajratilishi, mazkur kutubxonalarga mustaqil ijtimoiy-madaniy institut maqomining berilishi, shuningdek, juda ko'p maxsus kutubxonalarning paydo bo'lishi ular jamiyatning madaniy rivojlanishida muhim o'rin tutganligi, bilim, kitoblar, fan va maorifga o'sha davrda juda katta ahamiyat berilganligini ko'rsatadi. Turonzamin tarixining o'rta asrlarida, milodiy X asrdan e'tiboran milliy (sulolaviy, davlat, saroy) kutubxonalarining hamda jome masjidlari va yirik masjidlar kutubxonalarining binolari qoida tariqasida maxsus loyihalarga binoan qurila boshlandi.

Muayyan turga mansub kutubxonalar Turonzamindagi deyarli

har bir shaharda, yirik qishloq manzilgohlarida, madrasa, masjidlar, zodagonlar, boylar, o'ziga to'q odamlarning mulklari mavjud bo'lgan barcha joylarda bor edi.

O'rta asrlar Turonzamin jamiyatida kutubxonalarning aksariyati ommaviy qo'letarlik printsipiga asoslangan umumistifoda kutubxonalar vazifasini bajarardi. O'rta va kichik madrasa va masjidlarning kutubxonalari, shahar va qishloqlardagi musulmonlar jamoalarining kutubxonalari eshigi musulmonlarga ham, boshqa dinlarning vakillariga ham ochiq edi. Ayrim yirik masjid va madrasalarning kutubxonalari sistematidan faqat maorif va ilmiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanuvchi odamlargina foydalanishlari mumkin edi. Podsholar va hukmdorlarning saroylari qoshidagi milliy kutubxonalarning jamg'armalaridan podsho sulolasidan, uning a'yonlari, amaldorlari, zodagonlardan bo'lgan shaxslar, ba'zan atoqli olimlar va adabiyotchilar foydalana olardilar.

IX-XIII asrlarda Turonzaminda turli kitoblar orasida tez-tez va eng ko'p miqdorda Qur'oni karim, qiroat, tajvid, tafsir kitoblari, hadislar to'plamlari, fiqh va musulmon aqidalariga oid kitoblar qo'lda ko'chirilib ko'paytirilgan. Tabiiy-ilmiy va bashariy ilmlarga oid kitoblar son va miqdor jihatidan ikkinchi katta guruhni tashkil etgan. Adabiy-badiiy kitoblar esa uchinchi o'rinni egallagan. Ikkinchi guruhga mansub kitoblar orasida o'sha davrda yashagan va arab tilida ijod qilgan turonzaminlik olimlarning kitoblari etakchi o'rinda turgan.

XIV asrning oxirlaridan boshlab Temur va Temuriylar, Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatlari davrida til (xususan, ilmiy til) va etnik munosabatlarda o'zgarish sodir bo'ldi. Bu davr davlat tuzumi va ma'naviy hayotda ham burilish davri bo'ldi. Ilmiy faoliyat, madaniyat, adabiy-badiiy ijodiyotda e'tiborga loyiq yo'nalishlarda ham muayyan siljish ro'y berdi. Kitob majmuasi (repertuari)da Turonzamin milliy, mahalliy tillaridagi kitoblar salmog'i ortdi. Qur'oni karim va boshqa diniy kitoblardan keyingi o'rinni forsiy va turkiy tillardagi adabiy-badiiy kitoblar mustahkam egallay boshladi. Mutanosib ravishda uchinchi va to'rtinchi o'rinlarga bashariy, tabiiy-ilmiy adabiyotga oid kitoblar chiqdi. Forsiy va turkiy tillardagi ilmiy adabiyotlar ham shu guruhdan o'rin oldi. Kitob repertuari taqsimoti, xususan, uning ichida kitob mavzu va turlarining tasnifi, kutubxonalarning turlari butun musulmon madaniy dunyosida bo'lgani singari to XX asr boshlarigacha o'z qiyofasini shu

ko'rinishda saqlab keldi.

7.2. Davlat kutubxonalari yoxud milliy sulolaviy kutubxonalar

Butun o'rta asrlar davri mobaynida Turonzaminda bir-birini almashtirib kelgan shohlar, amirlar, xonlar saroylari qoshida arab, fors, turkiy tillarda yaratilgan kitoblardan tuzilgan sulolaviy kutubxonalar goh paydo bo'lib, goh yo'qolardi va yana qayta jonlanib turardi. Boy zamindorlar, yirik amaldorlar, viloyat hokimlari oliy hokimlarga taqlid qilib, o'z mulklarida kitob majmualari tashkil etardilar. Ko'pincha ularning buyurtmasiga binoan kotiblar dunyoviy va diniy ruhdagi noyob kitoblarni ko'chirishar, sahhoflar ularni kitob qilib tayyorlar, kitobfurushlar esa boy-boyonlarga sotishar edi. Mulkiy va shaxsiy kutubxonalardan ommaviy foydalanishning ko'p hollarda iloji yo'q edi. Chunki ularni ehtiyotlash, xususiylik tuyg'usi bilan qizg'anish ruhi asosan ustun bo'lgan. Kutubxonalardan, ayniqsa, ular podsholar xonadoniga tegishli bo'lsa, ulardan faqat podshoning xos odamlarigina foydalanishi mumkin bo'lgan. Kamdan-kam hollardagina kutubxonalarga oliy mulkdor, zamindor tabaqalar, olim va adiblarning vakillari kirishiga yo'l qo'yilgan. Aftidan, bu cheklashda qadim zamonlardan o'tib kelayotgan kitobga muqaddas va daxlsiz bir xilqat deb qarash an'anasi o'zini namoyon etgan. Bu odat asosida ibodatxonalar va saroy kutubxonalariga kirish astoydil va qat'iy ehtiyotlangan. Shundan xulosa qilsak, kutubxonalarga nisbatan «xazina» so'zi ishlatilishi ham bejiz emas, deyish mumkin.

Xususiy kutubxona tuzish, o'zidan oldingi hokim kutubxonasini to'ldirish, boyitish kabi harakatlar zaminida u yoki bu shaxsning kasbiy qiziqishlari va havaskorlik intilishlari yotishi mumkin bo'lgan. Ammo, aksariyat hollarda, kutubxona tuzishda hokimlarning obro'parastligi va zamondoshlari ko'ziga ma'rifatparvar, orif kishi bo'lib ko'rinishga intilish asosiy omil bo'lib qolgan. Yirik kutubxonalar tuzishni qo'llab-quvvatlash milliy madaniyatning rivojlanishiga xizmat qilish kabi vatanparvarlik g'oyasidan ruhlangan hollar ham ko'p bo'lgan.

Foydalanuvchilar doirasi torligiga qaramasdan, sulolaviy saroy kutubxonalari o'z mohiyatiga ko'ra o'sha davr uchun bosh milliy davlat kutubxonasi maqomiga ega bo'lgan deb hisoblash mumkin. Chunki ular odatda biron davlatning oliy hokimi tomonidan tuzilar, saqlanar va moddiy jihatdan ta'minlanar edi. Muhimi shundaki, bunday kutubxonalarga

davlat munosabati ham shakllangan edi. Mazkur munosabat u yoki bu hukmdor nomi bilan bog'liq holda amal qilardi. Saroy kutubxonalarining saviyasi, ulardagi kitob fondining tarkibi kutubxona ta'sischilarining ma'rifat darajasi, ruhiy, ma'naviy dunyosi va madaniyati bilan bog'liq edi. Shu bilan birga, kutubxonalarning saviyasini jamiyatning ilmiy, ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari, ma'lum madaniy muhit talablari ham belgilagan. Mazkur talablar, o'z navbatida, u yoki bu davrning, ma'lum davlat, undagi madaniyat, ilm-fan markazi bo'lgan shaharlar muhitida shakllangan.

X asrda Somoniylar sulolaviy kutubxonasi Buxoroda eng yirik qo'lyozma kitob majmuasi bo'lgan. 996 yilda Amir Nuh ibn Mansurni davolashda tabobat mo"jizasini namoyish etgani evaziga Abu Ali ibn Sino mazkur kutubxonadan foydalanishga musharraf bo'ladi. Bu kutubxonani alloma o'z tarjimai holida quyidagicha ta'riflaydi: «...Men bir qancha xonalardan iborat kitob xazinasiga kirdim. Har bir xonada ustma-ust sandiqlar qo'yilgan. Bir xonada arab kitoblari, boshqasida – fiqhga oid kitoblar saqlanadi. Har bir xonada ilmning biror sohasiga oid kitoblar to'plangan ekan. Men ilmda o'zimdan oldin o'tganlarning kitoblari ro'yxatini ko'rib chiqib, o'zimga kerak bo'lgan kitoblarni so'radim. Xazinada shunday kitoblar ko'rdimki, ularning nomini hali hech kim eshitmagan. Mening o'zim shunga qadar ham, keyinchalik ham shu kabi kitoblarni boshqa ko'rmadim. Men bu noyob kitoblarni o'qib chiqdim, ulardagi foydali bilimlarni o'zlashtirdim, har bir muallifning o'z ilm sohasida olimligi darajasini bilib oldim»[323]. Ibn Sinoning mazkur guvohligi X asr kitobat madaniyati haqidagi yagona tafsilot manbaidir. U orqali bizga o'rta asrlar kutubxonachilik ishining muhim masalalariga oid aniq ma'lumotlar etib kelgan. Avvalambor, bu xabar bizga o'sha davrdagi eng yirik kutubxonaning tuzilishi haqida ma'lumot beradi.

Yuqorida zikr etilgan tarjimai hol Abu Ali ibn Sino hayotining so'ngida, xususan, u Turon va Eronning Gurganj, Kat, Marv, Hirot, Samarqand, Ray, Hamadon, Isfaxon, Qazvin kabi ko'plab madaniy markazlaridagi kutubxonalarni ko'rganidan keyin yaratilgani hisobga olinsa, Buxoro kitob xazinasining qanchalik boyligi, uning kitob fondi

[323] Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino o'zi aytib turib shogirdi Abu Ubayd Juzjoniy tomonidan yozib olingan hayot yo'li. – «Literaturno`y Tadjikistan». №5. Stalinabad, 1953. 134-bet (rus tilida).

noyobligi va ilm-fan uchun g'oyat qimmatliligi haqida xulosa chiqarib olish mumkin. E'tibor bering-a: Ibn Sino – shuncha kutubxona xazinalarini ko'rgan va bilgan ulkan alloma – Buxoroda hali yosh vaqtida ko'rgan kitoblarini boshqa biror erda keyin ham uchratmagan ekan.

Arab istilosiga qadar to'plana boshlagan yana bir sulolaviy saroy kutubxonasi Gurganjda bo'lgan. Mazkur kutubxona Xorazmshoh Ma'mun va Anushtegin avlodlari davrida g'oyat gurkiragan edi. XI asrning boshlarida Gurganj kutubxonasi Xorazmshohlar tomonidan to'plangan o'ziga xos Akademiyaning olimlariga xizmat ko'rsatgan. Ular orasida Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolar ham bo'lgan[324]. Manbalarning ko'rsatishicha, Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun (1010-1017 yillar) mashhur adabiyotshunos va tarixchi as-Saolibiyga kutubxonaning rasmiy xazinabonligi lavozimi va nazoratini topshirgan[325].

G'aznada X asrning oxirgi choragi va XI asr boshida Mahmud G'aznaviy (998-1030 yillar)ga qarashli saroy kutubxonasi bo'lganligi haqida tarixchi olim Muhammad ibn Abduljabbor al-Utbiy o'zining «Sulton Mahmud G'aznaviyning hayoti va faoliyati tafsiloti» nomli kitobida xabar qilgan[326]. Iroq olimi Naji Ma'rufning xabar berishicha, Mahmud G'aznaviy G'azna shahrida bir masjid qurdirib, uning har bir xonasini qo'lyozmalar bilan to'la kutubxonaga aylantirgan[327].

X-XI asrga kelib Samarqand yana Turonzaminning muhim madaniy markaziga aylandi. Bu erda qog'oz ishlab chiqarish rivojlandi, kitoblarni ko'chirish va ko'paytirish ishlari oldinga siljiy boshladi. Xususiy (shaxsiy) kutubxonalar bilan bir qatorda madrasa va masjidlarda kitob saqlaydigan xonalar tashkil etildi. V.V.Bartoldning ma'lumotiga ko'ra, XI-XIII asrlar sayohatnomalarida Samarqand bozorlar va mashhur kutubxonalarga boy shahar deb tasvirlanadi[328].

[324]Bulgakov P.G. Jizn i trudo' Beruni. T., Fan, 1972. – S.119-131.

[325]Xalidov A.B. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya traditsiya. M., Nauka, 1985. – S. 245.

[326]Qarang: Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. – Soch. T. 2, ch. 1. M., Nauka, 1963. – S. 54.

[327]Naji Ma'ruf. Madaris kabl un-Nizomiya. Bag'dod, 1073. – 67-68-betlar. A.B. Xalidovning «Ocherki istorii arabskoy kulturo' V-XV vv.» kitobidagi «Knijnaya kultura» maqolasidan olindi. M., Nauka, 1982. – 275-bet.

[328]Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. – Soch. T. 2, ch. 1. M., Nauka, 1963. – S. 77.

Turonzamin xalqlarining davlatchiligi bir yarim asr (1220-1370 yillar) mobaynida mo'g'ul istilochilari tomonidan yalpi vayron etilishi, ma'naviyat va moddiy qadriyatlar tashuvchilarining qirg'in qilinishidan keyin xususiy davlatchilikning, milliy forsiygo'y va turkiygo'y madaniyatning qayta tiklanish sharoitida mahalliy hukmdorlar orasida sulolaviy kutubxonalar tuzish, o'tmishdoshlaridan qolgan kitob xazinalarini to'ldirish tarixiy an'anasi yana davom ettirildi. Jumladan, Amir Temur (1336-1405) avval vatani Shahrisabzda, so'ng mamlakat poytaxti Samarqandda saroy kutubxonasi tashkil qildi. Temurning saroy kutubxonasi uchun butun Movarounnahr bo'ylab kitobfurushlardan va shaxsiy kutubxona egalaridan mashhur mualliflarning bejirim bezatilgan kitob nusxalari sotib olindi. Saroydagi olimlar, tabiblar, muarrixlar, shoirlar yangi asarlar yaratdilar. Qo'lyozmalar ko'chirish va kitobat ustaxonalarida milliy kitob san'atining eng yaxshi ustalari to'plandi. Temur istilo qilgan turli mamlakatlardan keltirilgan qo'lyozma asarlarining uzluksiz ko'paytirilishi ham muhim rol o'ynadi. Bundan tashqari, eng yaxshi asarlar matnini to'liq ko'chirib ko'paytirish keng yo'lga qo'yildi. Temurning istilochilik yurishlari paytida kitob omborlariga ko'plab kitoblar keltirildi. Ma'lumki, Temur o'zi bosib olgan mamlakatlardan odamlar, moddiy boyliklar, oltin, qimmatbaho toshlar bilan bir qatorda noyob kitoblarni ham olib kelgan. Samarqandga arab, fors, turk, sanskrit, yunon, lotin, arman tillaridagi ko'plab bebaho qo'lyozmalar Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Armaniston kabi davlatlardan, Istambul, Bruss, Isfaxon, Hamadon, Sheroz, Bag'dod, Basra, Damashq, Xalab kabi qadimgi madaniyat o'chog'i bo'lgan shaharlardan olib kelingan. Jumladan, olimlarning taxminiga qaraganda, Basradan Samarqandga VIII asrning birinchi choragida kufiy xati bilan ko'chirilgan Qur'oni karimning nusxasi olib kelingan. Qur'oni karimning mazkur nusxasi fanda «Usmon Qur'oni» nomi bilan mashhur[329]. Arman tarixchisi Mixail Chamchyanning yozishicha, «Arman va fors tillaridagi kitoblarni imkoni boricha yig'ib, (Temur) Samarqandga jo'naydi va u erda bir minoraga joylaydi. O'qishni xohlovchilarga esa kitoblar bilan minorada shug'ullanishga ruxsat beradi, ammo, shartga ko'ra, u erda ular

[329] Qarang: Shebunin A.F. Kuficheskiy Koran Imperatorskoy Sankt-Peterburgskoy Publichnoy biblioteki G'G' Zapiski Vostochnogo otdeleniya Russkogo arxeologicheskogo obshestva. T. VI. 1892. – S. 124.

uzoq bo'lisholmas edi»[330].

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Samarqandda saroy kutubxonasi uchun maxsus bino qurilgan. Bu erda, X-XIII asrlardagi mashhur saroy kutubxonalarida bo'lgani kabi, qo'lyozma kitoblar fan sohalari bo'yicha tasniflangan va maxsus javonlar, so'kichaklar, sandiqlarga joylashtirilgan, ularning bibliografik hisobi yuritilgan, kutubxonalarning kitobdorlari kitoblarni izlash va joy-joyiga qo'yish qulay bo'lsin uchun faqat o'zlariga ma'lum shifrlar tizimidan foydalanganlar. Aftidan, kutubxonadan podsholarning yaqinlari va saroy a'yonlarigina foydalangan. Mazkur kutubxonaning jamg'armasidan foydalangan ilm va qalam ahlining asarlari orqali u bir qator Evropa mamlakatlarida va Xitoyda keng dovruq qozongan. Amir Temurning saroy kutubxonasi haqida Samarqandga 1404 yilda yuborilgan Ispaniya qiroli elchisi Rui Gonsales de Klavixo ham ma'lumot beradi[331].

Temurning kitob jamg'armasi uning nabirasi Ulug'bekka (1394-1449) meros bo'lib qoldi. Buyuk olim, astronom va matematik Ulug'bekning qiziqish doirasi aniq fanlar bilan cheklanmagan bo'lib, u she'riyatning, eski o'zbek adabiyotining muxlisi ham edi. Navoiyning («Majolis un-nafois») guvohlik berishicha, Ulug'bek o'zi ham fors tilida she'rlar yozib, kitobat san'atiga homiylik qilgan. Uning davrida sulolaviy saroy kutubxonasi to'ldirilib borilgan, kitob ustaxonasida yangi-yangi kitoblar ko'chirilgan. Jumladan, turkiy adabiyot yodgorliklaridan asl nusxalar va shular orasida Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» dostoni ham bor edi[332]. Bir qancha kitoblar arab va fors tillaridan eski o'zbek tiliga tarjima qilinib ko'chirildi. Ular orasida arab muallifi Shatibiyning Qur'oni karimni o'qish san'ati haqidagi risolasi kabi mashhur diniy asar ham bo'lgan[333]. 1448 yilda Yoralibekning Samarqanddagi qo'zg'oloni oqibatida kitob omborxonasi qattiq shikastlandi. Solnomachi-muarrix Abdurazzoq Samarqandiy o'zining «Matla' as-Sa'da'in» asarida bu haqda

---

[330]Kun A.L. Predanie o biblioteke Timura G`G` Materialo` dlya statistiki Turkestanskogo kraya. Ejegodnik. Vo`p. III. – SPb., 1874. – S. 406.

[331]Qarang: Rui Gonsales de Klavixo. 1403-1406 yillarda Temurning Samarqanddagi saroyiga safar kundaligi. T., 1990.

[332]Rustamov E.R. Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV v. M., izd-vo Vostochnoy literaturo`, 1963. – S. 35.

[333]Ko'rsatilgan asar. – 35-bet.

shunday guvohlik beradi: «Dasht suvoriylarining ko'ziga ahamiyatsiz bo'lib ko'ringan kitoblarning bir qismi joyidan sochib yuborilib, oyoqosti qilindi»[114].

Ilmi nujum va boshqa tabiiy-ilmiy fan sohalariga oid kitoblardan tashkil topgan, uncha katta bo'lmagan maxsus kutubxona shubhasiz Ulug'bekning o'zida, uning rasadxona (observatoriya)sida mavjud edi. Uning qo'l ostida bo'lgan zarur kitoblarning noaniq miqdorda bo'lishi uning geometriyaga oid ilmiy izlanishlari, astronomik va trigonometrik jadvallari, yulduzlar xaritasi (zijlar)ni tuzishda ishlatilganligi shubhasiz.

1449 yilda Ulug'bek o'ldirilganidan so'ng, Samarqanddagi madaniy hayot asta-sekin o'z mavqeini yo'qotib bordi. XVI-XVIII asrlar tarixiy manbalarida Samarqandda saroy kitob xazinasi bo'lganligi hatto eslab ham o'tilmagan. Temuriylarning sulolaviy kutubxonasi XVI asr boshlarida Turonzamin taxtiga o'tirgan Shayboniyxonlar davrida, ayniqsa, o'zaro urushlar natijasida talon-toroj qilindi va dunyo bo'ylab tarqalib keta boshladi. Mazkur jarayon 1501 yilda Shayboniyxonning Samarqandni egallashi paytida boshlangan bo'lsa kerak.

Temur vorislari Shohruh, Boysunqur va Husayn Boyqaroning qo'lyozma xazinalari adabiy-badiiy, ilmiy kitoblarining rang-barangligi jihatidan Temurning Samarqanddagi sulolaviy kutubxonasidan qolishmas edi. Yuqorida zikr etilgan hukmdorlar saroy kutubxonalari bilan bir qatorda, kitobxonalar, ya'ni qo'lyozmalarni ko'chirib ko'paytirish bilan shug'ullanadigan ustaxonlarga ham ega edi.

Shohruh Mirzoning tarixiy asarlarga qiziqishi beqiyos edi. Uning topshirig'iga binoan tarixchi Xafizi Abruy 1423 yili jahon tarixiga bag'ishlangan asar – «Zubdat at-tavorix» («Tarix javohirlari»)ni yozishga kirishdi. Mazkur asarni yaratishda muallif at-Tabariyning X asrdayoq fors tiliga o'girilib, ayrim o'zgartish va qo'shimchalar bilan chiqarilgan «Tarix ar-rusul va-l-muluk» – «Payg'ambarlar va podsholar tarixi», Fazlulloh Rashidaddin (XIII asr)ning «Jome' at-tavorix» – «Yilnomalar majmui». Nizomiddin Shoshiyning «Zafarnoma» (1404 yil) asarlarida keltirilgan ma'lumotlardan keng foydalandi. Jo'g'rofiy xususiyatga ega ma'lumotlarni asoslashda Xafizi Abruy turli mualliflarning arab tilida yozilgan asarlariga tayandi.

---

[114] Iqtibos quyidagi manbadan olindi: Garritskiy A. Biblioteki v Sredney Azii do russkogo zavoevaniya G. G. Novo'y Vostok, 1925, №10-11. – S. 381.

Sulton Husayn Mirzoning hukmdorligi yillari (1468-1506 yillar) da davlat poytaxti Hirotda madaniy hayot ancha jonlandi. Shaharda obodonchilik ishlari keng amalga oshirildi, betakror me'morchilik obidalari – saroylar, masjidlar, madrasalar barpo etildi. She'riyat, ilmiy faoliyat, musiqa, miniatyura san'ati va kitob bezash san'ati gullab yashnadi.

Husayn Boyqaroning saroyida katta kutubxona mavjud edi. Uning o'g'li – Faridunning kutubxonasi ham yiriklikda undan qolishmasdi. Kutubxonalarning kitobdorlari uchun maxsus qoidalar – yo'riqnomalar ishlab chiqilgan edi.

XVI asrning 30-yillaridan boshlab shayboniylarning poytaxti Buxoro Turonzamindagi qo'lyozma kitoblarni ishlab chiqaruvchi yirik markaz sifatida maydonga chiqdi. Ilk shayboniylar tomonidan XVI asrning boshlaridayoq asos solingan sulolaviy kutubxonada kitoblarni ko'chirish bo'yicha kitobxona faol ishlar edi. Shayboniylardan Ubaydullaxon (1533-1539), uning o'g'li Abdulaziz (1540-1549), Yormuhammad (1549-1553), Abdullaxon (1557-1598)[335]lar adabiy-badiiy va ilmiy ijodiyot, kitobat san'atining jonkuyarlari, homiylari sifatida ma'lum edilar. Hasan Xoja Nisoriyning adabiy tazkirasi «Muzakkiri ahbob»da (1566) aytilishicha, Abdulazizning noyob kutubxonasi bo'lib, bunday kutubxona «bu yorug' olamning biror burchagida mavjudligi noma'lum»... edi. Mavlono Sulton Mirak Munshiydek ziyoli kutubxonachisi ham bo'lib, u shunday husnixat va tasviriy san'at bilan mashg'ul bo'lardiki, «na nazariy, na amaliy jihatdan uning chizganlarini yozib tasvirlash mumkin emas». Uning husnixatdagi va bezaklardagi bayoni eng yaxshi hikoya uchun ham etishib bo'lmaydigan hodisa edi[336].

Shayboniylar sulolasi kitob xazinasidan ushbu sulola xonlariga bag'ishlovlar bilan tayyorlangan bejirim buyurtma qo'lyozma kitob nusxalarining ko'pi saqlanib qolgan. Ular kitob bezash san'atining betakror, o'ta mohirona bajarilgan namunalaridir. Qayta ko'chirish uchun tez-tez fors-tojik va turkiy adabiyot namunalari, Nizomiy, Jomiy, Sa'diy, Navoiy asarlariga murojaat qilinar edi. Serjilo qo'lyozmalarni yaratishda

---

[335]Ular hukmronlik qilgan yillar.

[336]Qarang: Boldo'rev A.N. Tezkire Xasana Nisari kak novo'y istochnik dlya izucheniya kulturnoy jizni Sredney Azii G'G' Trudo' otdeleniya Vostoka Gosudarstvennogo Ermitaja. T. 3. L., 1940. – S. 298.

Mir Ali Heraviy, Husayn al-Husayniy, Mahmud Muzaxxib, Abdullo, Muhammad Chihra Muxassin va boshqa mashhur xattot va musavvirlar ishtirok etardilar.

Shayboniyxon davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramay she'rlar yozar, xattotlik bilan mashg'ul bo'lardi. Uning qarindoshlaridan amakivachchasi Ubaydullaxon ham shoir bo'lib, Ubaydiy taxallusi bilan she'rlar yozgan. 1583 yili ko'chirilgan uning kulliyoti (ya'ni o'limidan 44 yil keyin) nafis xat bilan ko'chirilgan bo'lib, O'zbekiston Sharq qo'lyozmalarini o'rganish instituti tomonidan 1944 yilda sotib olingan.

Shayboniylarning saroy kitob ombori, temuriylar kutubxonalaridan farqli o'laroq, ularning sulolasi yiqilgach, XVII asr boshlarida ashtarxoniylar tomonidan meros qilib olindi. XVIII asr qo'lyozma manbasi Muhammad Amir Kiroqaroqchi tomonidan yozilgan «Muhit at-tavorix» asarida ashtarxoniy hukmdorlar Abdulazizxon (1654-1680) va Subxonqulixon (1680-1702)larning saroy kutubxonalari haqida hikoya qilinadi. Kutubxonalar qoshida qo'lyozmalarni ko'chirish ustaxonasi – kitobxona mavjud bo'lgan. Bu erda Turon kitobat san'atining ajoyib durdonalaridan Sa'diyning «Bo'ston» (1649), Nizomiyning «Xamsa» (1671) kabi mashhur asarlari ko'chirilgan. Bu ikki kitobning bebaho nusxalari hozirda Dublin shahrida (Irlandiya) Chester Bitti kollektsiyasida saqlanmoqda. Manbalar kitobxonada ishlagan ustalar, xattotlardan Mirzo Barkly, Oxund Mullo Mir Munshiy, musavvirlardan Xo'ja Muqim, Xo'ja Qadoy Naqqosh, Avaz Muhammad Naqqoshlarning nomlarini bizga ma'lum qiladi[337].

Ashtarxoniy Subhonqulixon kitob muxlisi – bibliofil – bo'lish bilan bir qatorda, tibbiyotga ham qiziqar, tibbiyotga oid kitoblarning ma'lum to'plamiga ega edi. U hatto «Ixya at-tib Subhoniy» – «Subhoncha tib jonlanishi» nomli risola ham yozgan. Bu asar hozirda O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda[338].

Xorazm xonlarining sulolaviy kutubxonalari haqida mo'g'ullar bosqinidan keyingi davrlarga oid ma'lumotlar manbalarda saqlanib qolmagan. Faqatgina Xiva xoni Abulg'ozixonning (1643-1663) XVII asr

[337] «Muhit at-tavorix» qo'lyozmasi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti zaxirasi. Inv. №835.

[338] Qarang: Sobranie vostochno'x rukopisey AN UzSSR. Katalog. T. 1. – S. 265.

o'rtalarida, aftidan, keyinchalik Xorazm xonlari sulolaviy kutubxonasiga asos bo'lgan kitob xazinasi haqida ma'lumot saqlangan ko'rinadi. Gap shundaki, Abulg'ozixon o'z kitobiga manba bo'lib xizmat qilgan ko'plab tarixiy kitoblarning nomini keltirib o'tgan[339].

Sulolaviy saroy kutubxonalariga bo'lgan munosabatning avloddan avlodga uzatilishi Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ham davom etdi. Har bir xonlikning hukmdorlari katta miqdorda kitob boyligiga ega edilar. Xon va amirlarning nasliy muhrlari qo'yilgan qo'lyozmalardan tashqari, kutubxonalar faoliyatini bevosita yorituvchi tarixiy manbalar ko'p saqlanib qolmagan. Agar biz Xorazm xonligining kitob xazinasi haqida uning shohididan ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lsak, Qo'qon va Buxoro xonligi saroy kutubxonalari haqida ma'lumotlar juda oz. Buxoro amirlarining kutubxonalari bilan bog'liq shunday ma'lumot mavjud: Amir Nasrulloxon o'z hukmronligining so'nggi davrida, ya'ni 1860 yili, o'ziga va bir qancha mahalliy mulkdor a'yonlariga tegishli bo'lgan kitoblarni Shahrisabz, Kitob, Hisor madrasalaridan olib kelib, Qarshida to'plashga farmon berdi. Shahrisabz uezdining hokimi general-mayor Jo'rabekning guvohlik berishicha, miniatyuralar bilan bezatilgan qo'lyozmalarning katta qismi keyinchalik Qarshidan Buxoroga olib ketilgan[340]. Devonbegi (hukumat bosh vaziri, Buxoro amirligining bosh vaziri) Ostonaqulning 1911 yilda ta'kidlashicha, Buxoro saroy kutubxonasida arab, fors, turkiy, xitoy, rus, pushtu tillarida kitoblar mavjud bo'lgan[341].

Buxoro amirlari kutubxonasi xonlikdagi eng yirik kutubxona edi. Mazkur kutubxona xazinadan alohida joylashgan bo'lib, uni maxsus tayinlangan kitobdor boshqarardi. Bu erda arab kufiy yozuvida bitilgan, ajoyib rasmlar bilan bezatilgan qadimgi adabiyotlar ham, ayrim dongdor sulolalarning shajarasini to'la aks ettiruvchi adabiyotlar ham mavjud edi.

Buxoro amiri Muzaffarning hukmronligi yillari (1860-1868)da kutubxona o'z holiga tashlab qo'yildi. Uning holati haqida rus sayyohlari, jumladan, xonlik ustidan Rossiya protektorati o'rnatilganidan keyin dastlabki yillarda Buxoroga tashrif buyurgan N.P. Stremouxov ma'lumot beradi. Uning yozishiga qaraganda, kutubxona kichkina zax erto'lada

---

[339]Qarang: «Shajarai turk va mo'g'il» kitobining qo'lyozmasi. O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, inv. №851. 2-a varaq.

[340]Logofet D.N. Tamerlanovskaya biblioteka G'G' Turkestanskie vedomosti. 1911, №24.

[341]O'sha joyda.

joylashgan bo'lib, bu erda qo'lyozmalar va boshqa kitoblar namiqqan, turli zararkunanda hasharotlar va kemiruvchilarning «mehnati»dan abgor ahvolga kelgan holatda saqlanardi. O'sha davrda Buxoroda yurgan mishmishlarga qaraganda, mazkur kutubxonadagi kitoblarning bir qismi Amir Temurning Samarqanddagi mashhur kutubxonasi kitoblari bo'lib, ular Samarqanddan Buxoroga tashib keltirilgan edi.

Kutubxona kitoblari bozorda past narxlarda pullab yuborilayotganidan amir Muzaffarning xabari bor edi. Uning o'zi ham ba'zan a'yonlariga noyob qo'lyozmalarni tortiq qilardi.

Mashhur sharqshunos olim A.E.Shmidt (taniqli xattot va qo'lyozma kitoblar muxlisi Ibodilla Odilovning ma'lumotlariga tayanib) shuni ko'rsatadiki, amir Muzaffar buxorolik ayrim hur fikrli olimlardan cho'chigan va ular davlatning negiziga bolta urishi mumkin bo'lgan zararli g'oyalarni kutubxonada saqlanayotgan kitoblardan olishadi deb hisoblagan. Shuning uchun ham Muzaffar qozikalon Sadriddinga ayrim madrasa kutubxonalari va shaxsiy maxzanlardan, masalan, shayx Xoja Muhammad Porso maxzanidan zararli hisoblangan qo'lyozmalarni olib yo'q qilishni buyurgan. Ammo qo'lyozmalarning haqiqiy qimmatini yaxshi bilgan Sadriddin olib qo'yilgan kitoblarni yo'q qilmay, o'z uyida saqlagan. Keyinchalik Sadriddinning kutubxonasi va yuqorida zikr etilgan qo'lyozmalar uning o'g'li - qozikalon Burhoniddinga meros bo'lib o'tgan va unda 1920 yilgacha saqlangan. Bungacha o'tgan uzoq davr ichida ayrim qo'lyozmalar g'oyib bo'lgan, bir qismi o'g'irlanib sotilga pullangan – ko'pgina chet mamlakatlarning kutubxonalarida shayx Xoja Muhammad Porso maxzani qo'lyozmalarining mavjudligi shundan dalolat beradi.

Samarqandda yashagan qadimgi Turonzamin tarixining bilimdoni sharqshunos olim V.L.Vyatkinning akademik V.V.Bartoldga yozgan bir maktubi kutubxonachilik tarixi uchun g'oyat qimmatlidir. Bu maktub tarixnavis olim B.V.Lunin tomonidan e'lon qilingan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Arkdagi sulolaviy kutubxonaning holati haqida V.L.Vyatkinning xati ma'lum tasavvur hosil qiladi. «Mavjudligi meni qattiq qiziqtirgan Buxoro amirining kutubxonasidan boshlayman, - deb yozadi V.L.Vyatkin. – Graf Rostovtsev nomidan janob Ignatevga men tomonimdan yozilgan rasmiy xatga u kishi (Ignatev) shunday javob beradi: Amirda kutubxona yo'q va Buxoro ma'muriyatining bayonotiga

ko'ra, bunday kutubxona qachondir bo'lganligini taxmin qilishga ham asos yo'q. Ammo Samarqandda bir necha bor tasodifan oxirgi Buxoro amirlari muhri qo'yilgan asarlarni ko'rdim va amir Muzaffar xizmatida bo'lgan keksa mahalliy xalqdan kutubxonaning mavjudligi uydirma emasligini eshitdim. Shundan keyin menda Ignatevning javobiga nisbatan shubha tug'ildi. Buxoroga ma'lumotlar yig'ishga odamlar jo'natdim... Shunday qilib, yig'ilgan ma'lumotlar meni amirda kutubxona borligiga to'liq ishontirdi. Buxoro saroy ayonlari mening ehtiyotkorlik bilan surishtirishlarimga javoban amirlikning kutubxonasi bor deb javob berdilar, ammo uni ko'rsatish esa, saroyning «ichkarisi»ga kirish qoidalari kabi, shaxsan amirning ruxsatisiz mumkin emasligini aytdilar. Men puldor kishi bo'lganimda edi, ish amalga oshgan bo'lardi. Keyin o'sha paytda amirning saroyini ta'mir etgan bir tatar menga aytishicha, u erda kitob, o'ram va qog'oz bilan liq to'la uchta xona bor. Muqovasozlardan biri Arkdan keltirilgan kitoblarni va qo'lyozmalarni muqovalar ekan. Buxoro madrasalarida ta'lim olayotgan samarqandlik talabalardan men ko'plab kitoblar madrasalar foydasiga vaqf qilinishiga qaramay, ulardan kutubxonalar tayinli emas, deb so'raganimda, ular bunga javoban amirning ota-bobolari bunday kitoblarni yig'ib olib Arkda saqlashni buyurishgan, deyishdi. Murod shulki, ular yo'qolmasin. Buxoroda bir necha bor eshitdimki, amir ruslardan biror kishiga o'zining kutubxonasini (ayni zamonda bu joy uning arxivi ham bo'lgan) ko'rsatishni xohlamas ekan. Binobarin, amir amaldagi o'z sulolasini taxtda qonuniy emasligidan andisha qilar emish. Shu tufayli kutubxonada ruslar nomaqbul biror narsa uchratib qolishi mumkinligidan cho'chirmish. Umuman, amir o'z sirining fosh bo'lmasligini ma'qul ko'rarmish... Bu taxminga ishonmaslikka u qadar asos bo'lmasa kerak»[342].

Amirlar va o'sha davrdagi kiborlar jamiyatining saroy kutubxonasiga sovuq munosabati haqida oradan ancha vaqt o'tgach, XX asrning boshlarida qadimgi kitoblar va qo'lyozmalar muxlisi Mahmad Kamol Muzaffarov ma'lumot beradi. «Amirlik saroylarida minglab qo'lyozma va toshbosma kitoblar qarovsiz yotardi», deb yozadi u.[343] O'sha davrda Muzaffarov shahardagi barcha kitoblarni bir joyga to'plash

[342] Lunin B.V. Srednyaya Aziya v dorevolyutsionnom i sovetskom vostokovedenii. T., Fan, 1965. – S. 178.

[343] Qarang: Mir islama. Almanax. 1913. T. 2. – S. 99.

va Buxoroda katta kutubxona tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Muallif mazkur kutubxonada turk, turkiy, fors, rus va g'arbiy Evropa tillaridagi kitoblarni jamlash zarurligini qayd etadi.

O'sha davrda kutubxonalar qarovsiz holga kelganligi va umuman madaniyat tanazzulga yuz tutganligi Turonzaminning Rossiya tomonidan bosib olingan va unga qaram qilingan hududlarida yuzaga kelgan siyosiy vaziyat bilan izohlanadi.

Buxoro amirligining ag'darilishi arafasida (1920 yilda) kutubxona Arkda joylashgan bo'lib, unda ajoyib asarlar, qo'lyozmalar to'plamlari, shu jumladan, amir Muzaffarning qo'lyozmalari jamlangan edi. Buxoroliklarning qayd etishicha, amirlar kutubxonasida jami 47,5 ming qo'lyozma va toshbosma kitoblar saqlangan, ular orasida noyob qo'lyozma asarlar ham bo'lgan.

Sharqshunos olim A.A.Semyonov Buxoro amirlari kutubxonasiga katta e'tibor beradi. U kutubxona qo'lyozma jamg'armalarining ahvolini sinchiklab kuzatib boradi va 1915 yilda kitob jamg'armasini tartibga keltirish, ro'yxatlar tuzishga muvaffaq bo'ladi. Olimning qayd etishicha, amirlar kutubxonasi «miniatyuralar bilan bezatilgan qadimgi qo'lyozmalarga boy edi».

Tarix fanimiz Xiva xoni Muhammad Rahim II (1865-1910) ning ikki kitob ombori haqida keng ma'lumotlarga ega. Bu haqda rus turkiyshunos olimi A.N.Samoylovich batafsil ilmiy axborot qoldirgan. U 1908 yili Xorazmda kitobat ishi va adabiyotni o'rgandi. Kutubxonalardan biri Xiva Arkida, ikkinchisi – Tozabog' deb ataluvchi yozgi qarorgohda joylashgan edi. A.N.Samoylovich Arkdagi Xiva kutubxonasini shunday tasvirlaydi: «Ko'rinish xona»ning janubi-g'arbiy burchagida yoxud Xiva sont qarorgohining qabul qilish hovlisida eshik bo'lib, uning ortida tor, aylana tosh zina bor. Bu zina ikkinchi qavatdagi uncha katta bo'lmagan xonalardan biriga olib chiqadi. To'rt tarafdan xona joylashgan bino ko'rinish xona hovlisini o'rab turadi. Shu bino xon kutubxonasi hisoblanadi. Xonaning janubiy devorida kirish eshigi, sharqida esa xon taxti ayvoniga qaratilgan ikki deraza; g'arbiy devorida yog'ochdan yasalgan oynavand eshikli ikki javon, shimoliy devorda bitta eshiksiz javon turibdi. Kitob javonlaridan birida saqlanuvchi mo"jazgina qo'lyozma katalogda 500 raqami bilan belgilangan turli toshbosma, terma va qo'lyozma kitoblar qayd etilgan. Shimoliy javon tibbiyotga oid bosma kitoblar bilan to'liq

band. Orqa tomondagi javonda tarixiy, so'fizmga oid va siyosiy kitoblar taxlangan; bosma kitoblar, taxminan qo'lyozma kitoblar qancha bo'lsa shuncha, balki ko'proqdir ham. Fors tilidagi asarlar ko'proq miqdorni tashkil qiladi; arab tilidagilar nisbatan kam, turkiy tilidagilardan katta qismi O'rta Osiyo adabiy tili - chig'atoy tilida yozilgan asarlar va yana usmoniy turk (rumo) va qozon-tatar (no'g'oy) tilidagi kitoblardir»[344].

«Tozabog' kutubxonasida hammasi bo'lib 200 atrofida qo'lyozma mavjud, - deb Xiva xonining ikkinchi bir kitob omborining tasviriga o'tadi A.N.Samoylovich. – Bosma kitoblarning asosiy ko'pchiligi hind, fors, usmoniy turk, Qozon va Turkiston nashr asarlaridan tashkil topgan. Fors tilidagi asarlar va nazmiy mazmundagi kitoblar ham ko'p sonni tashkil qiladi. Kitoblar kartonga yoki teriga muqovalangan; muqovaga oq qog'oz yorliqcha yopishtirilgan bo'lib, asarning boshlanishi, nomlanishi yoki mazkur jildga kirgan asarlar nomi qayd etilgan. Belgilar qo'yilib: «qo'lyozma», «bosma», «nazm» yoki «nasr» kabi qaydlar mavjud. Kutubxonaning katalogi yo'q»[345].

Xiva xoni kutubxonasidagi qo'lyozma va toshbosma kitoblarning soni taxminan 700 ta (500(200) deb ko'rsatilgan. A.N.Samoylovich ma'lumotlarini to'ldirib shuni qo'shimcha qilib aytish mumkinki, uning Xivaga borishidan 35 yil oldin, 1873 yilda, Xiva xonligini ruslar bosib olib tor-mor etganida musodara qilingan Xiva saroyidan 300 jild sharq qo'lyozmalari yig'ilib Rossiyaga, sharqshunos A.L.Kun tomonidan Peterburgdagi Osiyo muzeyiga jo'natilgan edi[346]. A.N.Samoylovichning Xivaga tashrifidan 37 yil o'tgach, 1945 yili yana Xivadan Toshkentga Sharq qo'lyozmalarini o'rganish instituti tomonidan asosan turkiy tildagi, ungacha Xorazm o'lkashunoslik muzeyida saqlanayotgan 1000ga yaqin qo'lyozma olib chiqib ketildi[347]. Shunday qilib, xulosa yasash mumkinki, rus istilosigacha faqatgina qo'lyozma kitoblar xonlik kutubxonasida bir yarim mingta atrofida bo'lgan, ammo bizning bu hisob-kitoblarimiz

[344]Samoylovich A.N. Xivinskie pridvorno`e knigoxraniliha i knigopechatnaya. L. 16-17. V kn. Izvestiya AN Turkmenskoy SSR. Seriya obhestvenno`x nauk. 1981, №1, s. 74-79. Publikatsiya A. Yazberdieva.

[345]O'sha joyda.

[346]Qarang: Lunin B.B. Srednyaya Aziya v dorevolyutsionnom i sovetskom vostokovedenii. Tashkent, izd-vo «Nauka», UzSSR, 1965, s. 120.

[347]Rukopisnaya biblioteka xana Muxammada Raxima. – Pravda Vostoka. 1945, 16 oktyabrya.

juda aniq deb aytolmaymiz. Zero, keyingi o'n yillar davomida Xorazm vohasidan turli qo'lyozma xazinalarga yuzlab kitoblar kelib tushdi.

XVIII asrda tashkil topgan eng yosh Qo'qon xonligida ham saroy kutubxonalari mavjud bo'lgan. So'nggi xonlar – Umarxon, Murodxon va Xudoyorxon davridagi saroy kutubxonalarini eng katta va qimmat kutubxonalar deb aytish mumkin. Mazkur kutubxonalarda nafaqat mahalliy mualliflar, balki hind, afg'on mualliflari hamda boshqa Sharq mamlakatlarida yashagan mualliflarning tarix va geografiya, tibbiyot va tilshunoslik, grammatika, qonunshunoslik, ilohiyot va boshqa fanlarga doir qadimgi noyob qo'lyozmalari saqlangan.

Qo'qon xonligining ayrim hukmdorlari qo'lyozma kitoblarga, kutubxonalarga ma'lum darajada qiziqish bilan qaragan, shoirlar va adabiyotchilarga homiylik qilgan. Chunonchi, Muhammad Umarxon (1809–1822) o'zi ham she'rlar yozgan, adabiyotning katta muxlisi sifatida dong taratgan, o'z she'rlarini «Amiriy» taxallusi bilan e'lon qilgan. Uning davrida Farg'onada shoirlar davrasi tashkil topgan bo'lib, ular orasida xonning rafiqasi – shoira Nodirabegim ham bor edi. Taxminan 1822 yilda shoir Yusuf Tunqator va xattot Yusuf Muhammad tomonidan «18 shoir to'plami» yaratildi. Unga o'sha davrning 18 nafar taniqli shoirlarining asarlari kiritildi. Mazkur o'ziga xos tazkira (antologiya) kichik tiraj bilan toshbosma usulida ham chop etildi.

Qo'qonning so'nggi xoni – Xudoyorxon davrida saroy kutubxonasiga xususiy shaxslardan sotib olingan ko'plab qo'lyozma kitoblar kollektsiyalari kelib tushdi. Ular orasida shahrisabzlik mulla Muhammad Rahimning tarix faniga oid Sharq qo'lyozma kitoblari to'plamini qayd etish mumkin. Mulla Muhammad Rahim juda katta kitob muxlisi bo'lib, yigirma sakkiz yil mobaynida noyob qo'lyozmalar ilinjida Hindiston, Afg'oniston va boshqa mamlakatlar bo'ylab sayohat qilgan edi.

Saroy kutubxonalaridan asosan saroy a'yonlari va xizmatchilari foydalanardi. Masalan, davlat xizmatida bo'lgan tarixchi Mirza Azizxon kutubxonasidagi qo'lyozmalardan juda ko'p foydalangan. Ko'p yillik izlanishlari natijasida u «Qo'qon xonligi tarixi» degan ancha katta asarni yaratgan.

Qo'qon xonlarining qo'lyozma kitoblardan iborat kitob omborlari va kutubxonalari haqida ba'zi bir ma'lumotlarni biz rus qo'shinining 1875

yilgi Qo'qonga istilochilik yurishi ishtirokchilari xotiralarida uchratamiz. Mazkur yurishda A.L.Kunga qo'lyozmalar va boshqa madaniy boyliklarni yig'ish topshirilgan. A.L.Kunning yozishicha, uning vazifasi «mahalliy tillardagi kitoblar, qo'lyozmalar va hujjatlarni mumkin qadar ko'proq to'plashdan iborat» edi.

Xonning kitob omborlari va kutubxonalaridan arab tilida yozilgan, asosan diniy mazmundagi 103 dan ortiq qo'lyozma kitoblar (Qur'onlar, avliyolarning hayoti va faoliyatiga oid asarlar, hadislar to'plamlari va boshqalar) olib ketilgan. Kitoblar orasida falsafa, mantiq, grammatika, ritorika, tibbiyotga oid qo'lyozmalar (masalan, Otabib Xorviyning «Bahru al-javohir» yoki «Javohirlar dengizi» asari) ham bor edi. Fors tilidagi qo'lyozmalar 16 dan ortiq ro'yxat raqamlarida jamlangan bo'lib, ular orasida islom qonunshunosligiga oid qo'lyozmalar, shuningdek, tarixiy mazmundagi asarlar, jumladan,, «Tuhfat ul-xon» (Muhammad Rahimxonning hukmronligi tarixi), «Tarixi Jahongiri» – «Jahongirlar tarixi», Shohruxxondan Xudoyorxongacha bo'lgan davr oralig'ini qamrab oluvchi Farg'ona va Qo'qon tarixi bor edi.

Qo'qon xonlarining kitob omborlarida arab va fors tillarida, turk-chig'atoy lahjasida bitilgan asarlar ham bo'lgan. Qo'qon kitob omborlaridan topilgan Sharq qo'lyozmalarining katta qismi Peterburgdagi imperator Jamoa kutubxonasiga (bugun Rossiya Milliy kutubxonasi) olib ketilgan.

Buxoro amirligida saroy kutubxonalaridan tashqari, beklar kutubxonalari qoshida qo'lyozma kitoblar mahzanlari ham bo'lgan. Masalan, o'sha davrda Shahrisabz bekligining poytaxti – Kitob shahridagi kutubxona ayniqsa mashhur bo'lgan. 1871 yili Iskandarko'l ekspeditsiyasi davrida chor qo'shinlari shaharni ishg'ol etganlarida, A.L.Kun bek saroyidan topilgan tarix, huquq, tibbiyotga doir, shuningdek, nazmda bitilgan fors, arab va chig'atoy tillaridagi 97 ta Sharq qo'lyozmasini topgan va ularning katta qismini o'zi bilan olib ketgan. Tarixiy asarlar orasida «Temur Husayn Mirzo tarixi», Hofiz Tanishning «Sharafnomai Shohi» yoki «Abdullanoma»si, Abdullaxon va uning ota-bobolari – shayboniylar tarixi, Vosifiyning «Badoe' ul-vaqoe'» («Eng ajoyib voqealar»), «Muqimxon tarixi», Xondamirning «Xulosat ul-axbor» asarlari diqqatga sazovor.

Topilgan qo'lyozmalar orasida she'riy asarlar: Navoiy, Bedil

hamda Turonzaminda yashab ijod qilgan boshqa mashhur shoirlarning asarlari, shuningdek, arab va fors tillaridagi har xil asarlar to'plamlari (Jomiy, Muhiy she'rlari) ham bo'lgan.

Yuqorida zikr etilgan qo'lyozma kitoblar majmui Turkiston o'lkasi general-gubernatori K.P.Kaufman tomonidan Peterburgdagi imperator Jamoa kutubxonasiga hadya qilingan hamda sharqshunos olim P.I.Lerx tomonidan tavsiflangan.

Sharq qo'lyozma asarlari kutubxonasi Andijon begi (Xudoyorxonning o'g'li) Nasriddinning saroyida ham bo'lgan. Shuning uchun ham Qo'qon yurishi ishtirokchisi A.L.Kun 1875 yili mumkin qadar ko'p kitob, qo'lyozma va hujjatlar yig'ish maqsadida Andijonga kelgan. Sharq qo'lyozmalari majmualari Namangan, Marg'ilon beklari hamda boshqa beklar tomonidan ham tuzilgan.

Qo'qon saroy kutubxonasi XX asrning boshida abgor holatga keldi, uning qo'lyozmalari talon-toroj qilinar, aksariyati bozorlarda sotilar edi. 1902 yilda qo'lyozma asarlarni topish va o'rganish maqsadida Qo'qonga kelgan rus sharqshunos olimi, akademik V.V.Bartold xon saroy kutubxonasini ko'zdan kechirib, taassuf bilan shunday deb yozgan edi: «Ayni vaqtda birorta ham qo'lyozmalarning to'plamlari mavjud emas, hatto 1897 yili K.G.Zaleman kutubxona kitobdori Sarimsoqhojining uyida ko'rgan Xudoyorxon kutubxonasining oz sonli qoldiqlari ham g'oyib bo'lgan».

7.3. Vaqf kutubxonalari

Butun musulmon madaniy dunyosida bo'lgani kabi, X asr boshlarida Turonzaminda ham kutubxonalarning yangi bir ko'rinishi – vaqf kutubxonalari vujudga keldi. Bunday kutubxonalarning paydo bo'lishi jamiyatda mulkning maxsus shakli – vaqfning tarqalishi bilan bog'liq. Vaqfga avvalida ko'chmas mulk, keyinchalik ko'char mulk ham, shu jumladan, kitoblar va kitob to'plamlari ham kira boshladi. Vaqf kutubxonalari boy er egalari, hokimlar, amaldorlar va boshqa ixlosmand shaxslar tomonidan tashkil qilinar edi. Vaqfi xayriya mulkiga ko'pincha u joylarda ta'lim berish jarayoni tashkil etilgan, demak, shartli ravishda ma'lum miqdorda kitoblar to'plamlari mavjud bo'lgan masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, maqbaralar, shifoxonalarga aylantirilardi. Ko'rsatilgan muassasalarning qoshidagi kutubxonalardan tashqari, vaqf

kutubxonalari shahar, qishloq va mahallalar jamoalarining umumistifoda kutubxonalari sifatida faoliyat ko'rsatar edi. Ko'p sonli xayriyalar natijasida bu kitob majmualari to'lib borar, vaqt o'tishi bilan jamoatchilik foydalanadigan zarur kitoblarni topish oson, yirik va boy kutubxonalarga aylanardi. Bunday kutubxonalardan foydalanishga har bir odamning huquqi bor edi. Qoida tariqasida, vaqf kutubxonalari qisman ko'chmas mulkdan olingan daromadlar hisobidan yoki vaqf ta'sischisining boshqa daromadlari hisobidan ta'minlanardi. Yirik vaqf muassasalari bilan bir qatorda, tabiiyki, juda ko'p o'rta va kichik vaqf muassasalari ham faoliyat ko'rsatardi. Umuman olganda, Turonzamin hududi, undagi turli davlatlarning chegaralari vaqti-vaqti bilan o'zgarib turganligidan qat'i nazar, kutubxona ishi tarixining ilk mumtoz, mumtoz va so'nggi mumtoz davrlarida, X asrdan boshlab katta-kichik vaqf kutubxonalari tarmog'i bilan qoplangan edi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, o'sha davrda Turonzamin shaharlari va qishloqlarida o'nlab masjidlar, madrasalar, so'fiylarning xonaqolari va maqbaralari faoliyat ko'rsatgan, ularda yuzlab talabalar tahsil olgan. Ammo, barcha madrasalar, masjidlar, xonaqolar va ular qoshidagi kutubxonalar vaqf mulkiga kirgan, deb o'ylash ham to'g'ri bo'lmaydi. Turonzamin kutubxona ishi tarixida, ayniqsa, uning ilk mumtoz va mumtoz davrlarida bu erda ko'plab kichik jamoa kutubxonalari faoliyat ko'rsatgan. Mazkur kutubxonalar davlat hisobidan, shuningdek, mahalliy musulmon jamoalari hisobidan ta'sis etilgan. Ayni shu kabi, musulmon jamoalari foydalanadigan XI asr davlat tomonidan tuzilgan kutubxonalarining biri haqida tarixchi Z.M.Buniyodov tarixiy manbalarga asoslanib shunday yozadi: «Buxorodagi Dehqon mavzeida Xorazmshohlar hukmronligi davrida Kambag'allar uyining kutubxonasi – «Xizanat al-kutub Dar al-fuqaro» mavjud bo'lib, unda noyob qo'lyozmalar saqlanar edi»[348].

Yoki boshqa bir misol:

Ma'naviyatdagi asosiy ma'nosi mahalliy xalqlarning islomgacha bo'lgan davrga oid asriy tub madaniyatini qayta tiklash bo'lgan somoniylar davrida Buxoro va amirlikning boshqa shahar va tumanlarida faoliyat ko'rsatib turgan «Suvon ul-hikmat» («Hikmatlar xazinasi») nomi bilan yuritilgan va davlat tomonidan ta'sis etilib, moliyaviy ta'minlangan umumistifoda kutubxonalar tarmog'i muhim madaniy va tarixiy

[348]Buniyatov Z.M. Gosudarstvo Xorezmshaxov Anushtegenidov. 1097-1231. M.: Nauka, 1986. – S. 127.

ahamiyatga ega[349].

Vaqf kutubxonalari orasida madrasa va masjidlarning kutubxonalari o'z kitob jamg'armalarining boyligi va rang-barangligi, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish shakllarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Masjid ilm toliblari tomonidan hamisha ardoqlanib kelingan. Turonzaminning iqlim xususiyatlarini (darslarni deyarli butun yil mobaynida ochiq havoda o'tkazish mumkin), masjidning me'morchilikka oid xususiyatlarini (xonalari hovli tomonga qaratib qurilgan, hovlisi to'rtburchak shaklda) e'tiborga oladigan bo'lsak, masjid o'sha davrda namozdan bo'sh vaqtlarda turli yig'inlar, mashvaratlar o'tkazish uchun foydalaniladigan jamoat joyi bo'lib xizmat qilgan deb aytish mumkin. Chunonchi, Turonzaminning barcha joylaridagi masjidlarda boshlang'ich ta'lim maktablari tashkil etilgan bo'lib, ular ham ma'lum miqdorda kitoblarga ega edi. Muallimlar va kutubxonasidagi kitoblar etarli bo'lgan yirik masjidlar nisbatan katta bosqich ta'lim muassasasi vazifasini bajarardi. Vaholanki, Turonzamin hududida masjidlar butun o'rta asrlar mobaynida deyarli barcha qishloqlarda, shaharlardagi har bir mahallada faoliyat ko'rsatar edi.

Muhim ijtimoiy muassasalar – madrasalar arab tili, islom huquqi va odob-axloqi asoslari, ba'zi bir dunyoviy fanlar o'qitilgan (Evropa kolleji yoki universiteti funktsiyalari yuklangan) oliy o'quv yurti sifatida musulmon madaniy dunyosida ilk bor aynan Turonzamindagi bilim va madaniyat negizida yuzaga keldi. Bu IX asrning oxiri – X asrning boshlarida sodir bo'ldi. «Madrasa o'quv yurti sifatida hatto musulmon dunyosining poytaxti – Bag'dodda ham faqat XI asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan..., vaholanki, Movarounnahrda madrasalar bu vaqtga kelib ko'pdan beri faoliyat ko'rsatar edi», deb yozadi Turonzamin tarixining yirik bilimdoni, akademik V.V.Bartold[350]. Uning fikricha, buddaviylar vixarasi (mazkur dinga mansub zohidlar jamoa bo'lib yashab tahsil olgan joy) Turonzamin madrasalari uchun namuna bo'lib xizmat qilgan[351]. Arablar istilosiga qadar oxirgi etti asr mobaynida Turonzaminning turli viloyatlarida buddaviylarning ibodatxonalari va vixaralari majmuini o'z ichiga olgan jamoalari hayot kechirgan. Binobarin, buddaviylarning

---

[349] Qarang: Negmatov N.N. Osnovno`e istoricheskie protsesso` epoxi Abu Ali Ibn Sino (G`. G`. Abu Ali Ibn Sino i ego epoxa. Dushanbe, Donish, 1980. – S. 11.

[350] Bartold V.V. O pogrebenii Timura. Soch. T. II. Ch. 2. – S. 429.

[351] Bartold V.V. Ucheno`e musulmanskogo Renessansa. Soch. T. VI. – S. 619.

ta'lim va tahsil amaliyoti ham bu erda yaxshi ma'lum bo'lgan. Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida arab istilochilari Buxoroni ishg'ol qilganlaridan keyin vayron etilgan buddaviylarning me'morchilik obidasi haqida ma'lumot beradi. Yuqorida zikr etilgan buddaviylar diniy ta'lim tizimining asosiy unsurlarini islom dini va fani, arab tili va madaniyatini o'rganishga ko'chirish o'zining tadrijiy rivojlanishi natijasida ilm toliblari birgalikda yashab tahsil oladigan joy – madrasalarning vujudga kelishiga olib keldi.[352]

Tarixiy manbalarda madrasa va uning kutubxonasi haqidagi ilk ma'lumot 937 yilga mansub. Tarixchi Narshaxiy bergan ma'lumotga qaraganda, aynan shu yili Buxoroda yong'in paytida Forojik madrasasi o'zining noyob qo'lyozmalar kutubxonasi bilan birga yonib ketgan. Islomshunos olim Naji Ma'ruf manbalardan musulmon madaniy dunyosiga mansub shaharlarda, shu jumladan, Buxoro, G'azna, Nishopur va Buxanjda X-XI asrlarda faoliyat ko'rsatgan eng birinchi o'ttiz uch madrasa haqida ma'lumot to'plashga muvaffaq bo'ldi[353]. XI asrning o'rtalaridan boshlab madrasa o'quv yurtlarining etakchi turiga aylandi. Aynan shu davrda jamiyatda vaqf madrasalari tashkil etish g'oyasi tug'ildi. Mazkur madrasalar xususiy shaxslar xayriya maqsadlariga yo'naltirgan mablag'lar va mol-mulk hisobiga ta'sis etilar va faoliyat ko'rsatar edi. Saljuqiylar saltanati davridagi qudratli vazir Nizom ul-Mulkning shaxsiy mablag'lariga maxsus loyihaga binoan qurilgan va uning ismi bilan an-Nizomiya deb nomlangan Bag'dod madrasasi keyingi davrda barcha madrasalar tenglashishga intilgan o'ziga xos namuna bo'lib xizmat qildi.

[352]Ma'ruzalar va munozaralar, ya'ni turli-tuman, asosan diniy masalalarni erkin muhokama qilish shaklidagi ta'lim usuli aynan madrasada ishlab chiqildi. Madrasa arab mamlakatlarida tarqalgunga qadar olim va ilm tolibi ustoz bilan yakka mashg'ulotlarda o'qib o'rgangan kitoblar soni, shuningdek ustozning fan olamidagi (olimlar orasidagi) obrosi olim va ilm tolibining bilimliligi mezoni bo'lib xizmat qilib keldi. O'rganiluvchi asarlar majmui turli-tuman o'quv muassasalarida o'ziga xos dastur vazifasini bajarar edi. Ma'lumot darajasi va olimning ilmiy darajasi biron-bir hujjat, rusum-tamoyil bilan rasmiylashtirilmas va mustahkamlanmas edi. Ammo, shu narsa diqqatga sazovorki, bilim berish huquqini asoslovchi arabcha ta'rif (bi-haqq al-rivaya) Evropa universitetlarida ta'sis etilgan bakalavr ilmiy darajasi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Zotan, mazkur bilim yurtlari XII asrda - o'z rivojlanishining dastabki bosqichida Ispaniya orqali arab olamining ma'lum ta'sirini o'zida mujassamlashtirgan. (Qarang: R.Y. Ebied, M.Z.L. Young. New light on the origin of the term "baccalaureate". – "The Islamic Quarterly. A Review of Islamic Culture". L., vol. XVIII, №1-2, January-Julu 1974. – P. 3-7.

[353]Naji Ma'ruf. Madaris qabl an-Nizamiyya. Bag'dod. 1973. – 67-68-betlar.

An-Nizomiya madrasasi 1064-1066 yillarda qurib bitkazildi. Madrasada «bayt al-kutub» («kitoblar uyi»), ya'ni kutubxonaga maxsus bino ajratildi. Nizom ul-Mulk kutubxonalariga ega madrasalarga XI asrning 70-90-yillarida Saljuqiylar saltanatining boshqa ko'pgina shaharlarida (Marv, Hirot, Balx, Nishopur, Isfaxon, Basra, Amul, Mosul, Jazirat Ibn Umarda) ham asos soldi. An-Nizomiya tipidagi madrasalar vaqt o'tishi bilan butun musulmon madaniy dunyosi bo'ylab tarqaldi.

XI-XII va XIII asr boshlarida Sharq qo'lyozmalarining boy majmualari bilan Yaqin va O'rta Sharq bo'yicha Marv shahri vaqf kutubxonalari juda mashhur edi. XI asr boshlarida Marv saljuq sultonlari uchun qarorgohga aylandi. Sulton Ali Arslon (1063-1072) va Malikshohlar davrida vazir bo'lgan yirik davlat arbobi, beqiyos qobiliyat sohibi, mashhur «Siyosatnoma» asarining muallifi Nizom ul-Mulk at-Tusiy (1017-1092) Saljuq davlatining turli joylarida o'quv muassasalari – «an-Nizomiya»lar bilan birga kutubxonalar tashkil qila boshladi.

Rus sharqshunosi V.A.Jukovskiy Nizom ul-Mulkning ma'rifatchilik faoliyatini tavsif qilib quyidagicha yozadi: Nizom ul-Mulk «musulmon sharqining eng buyuk siymolaridan biridir. Uning uyi doimo olimlar, fiqhshunoslar, homiylar va xayriyachilar bilan to'la bo'lardi. Hamisha ma'rifat qayg'usi bilan band bo'lgan Nizom ul-Mulk Isfaxon, Nishopur, Hirot, Balx, Bag'dod kabi shaharlarda maktab va seminariylar tashkil qildi. Uning sharafiga akademiya (madrasa – E.O.) «Nizomiya» deb atalgan. Mazkur o'quv va ilm dargohlarini saqlab turish uchun Nizom ul-Mulk katta mablag' sarflardi, turli sohalarda ilm va fan makonlarini tashkil qilish harakatida bo'lardi. U o'z faoliyati boshlangan joy – Marvda ham shunday o'quv muassasalari tashkil qildi»[354].

1055 yilda saljuqiylar tomonidan bosib olingan Bag'dodda ham kutubxonasi bilan birga «an-Nizomiya» madrasasi ochildi. Bu kutubxona Bag'dodda o'rta asrlar davomida bo'lgan eng katta kutubxonalarning biri edi. Uni tuzgan kishining saxiy mablag' ta'minoti bo'yicha esa birinchi o'rinda turardi. Bag'dod «An-Nizomiya»sining ushbu mavqei keyingi uch yuz ellik yil davomida saqlandi. Olimlar fikricha, kutubxona XV asr boshlarida Temur lashkarlari tomonidan etti yillik Shom mamlakatlariga yurish davrida o'z mavqeini yo'qotgan. Chunki Temurning markazlashgan hokimiyati ilm-fan va madaniyat markazi mavqeini Turon-Turkistonga

[354] Jukovskiy V.A. Razvalino' starogo Merva. Sankt-Peterburg, 1894. – S. 28.

ko'chirish g'oyasiga xizmat qilgandi.

Nizom ul-Mulk o'z faoliyatini Marvda boshlaganidan kelib chiqilsa, bu shahardagi «an-Nizomiya» shu kabi ma'rifat o'choqlarining dastlabkilaridan bo'lgan. Uning kutubxonasida to'plangan kitob xazinasi boyligi va bebaholigi bo'yicha Bag'dod kutubxonasidan kam bo'lmagan. 1216-1219 yillarda Marv kutubxonasida shug'ullangan, Eron, Movarounnahr, Bag'dod, Xalab va boshqa joylarni kezib chiqqan, shu tufayli olim, tarixchi Yaqut al-Hamaviy «Marvda juda ko'p miqdorda mumtoz hamda mukammal ijro etilgan kitoblar mavjud», deb yozgan edi. Yaqut al-Hamaviy 1219 yili Marvdan ketayotganda u erda 10 ta vaqf kutubxonasi bo'lib, «jahonda ularga tengi yo'q» edi. Shulardan ikkitasi al-Kamoliya, al-Aziziya masjidlari qoshida «12 ming jild yoki shunga yaqin» kitobi bo'lgan. Yana bir kutubxona G'aznaviylar saroyida yirik amaldor Bu Mansur Mustavfiy tomonidan tuzilgan. Ikki kutubxona marvlik olim, 8 kitobdan iborat «Kitob ul-ansob» («Nasablar kitobi») muallifi Abu Said as-Sam'aniy tomonidan ochilgan. Yana ikkisi qayd etilgan «an-Nizomiya» madrasasi kutubxonasi va Majid ul-Mulk kutubxonalari bo'lgan. Bulardan tashqari «Amidiya», «Xotuniya», «Dumariya» kabi kutubxonalar bo'lgan. Ularning tashkil topgan vaqti, kim tomonidan ta'sis etilgani ma'lum emas. Lekin, taxmin qilish mumkinki, ularning tashkil etilishiga ham yirik xayriyachilar, olimlar, amaldorlar, din peshvolari qo'l urishgan. Musulmon o'qimishliligi va madaniyati shakllanish, rivojlanish davrining ajoyib an'anasi shu edi.

Yaqut yozishicha, kitoblar hamma uchun bemalol, masalan, uning uyida 200 dinor baholanishi mumkin bo'lgan ikki yuztacha kitob hech qanday garovsiz shu kutubxonalardan keltirilib, foydalanib, qaytarilib turilgan. «Men, - deydi Yaqut al-Hamaviy, - bu kitoblar orasida miriqib yayrab ishladim. Ulardan kerakli, foydali joylarini o'zlashtirdim. Ularga muhabbatim boshqa shaharlarni o'ylashdan meni xoli qildi. Xotin, bola-chaqani unuttirdi. Mening kitobimga kirgan xabarlarning deyarli ko'pchiligi ana shu kutubxonalardan olingan»[355]. Yaqut al-Hamaviyning ilmi adabning 1040 bilimdoni tarjimai holini to'plagan «Irshod al-adib» nomli mumtoz ilmiy asari, «Mu'jam ul-buldon» nomli alfavitli mamlakatlar jo'g'rofiy lug'ati Marv kutubxonalaridagi yuzlab kitoblar, bizgacha etib kelmagan o'nlab manbalar asosida yaratilganidan kelib

[355]Qarang: Materialo' po istorii turkmen i Turkmenii. – T.1. VII-XI vv. Arabskie i persidskie istochniki. – M.-L., 1939. – S. 434.

chiqilsa, bu shahar kitob xazinalarining qanchalik boy bo'lganini tasavvur etish qiyin emas.

XIV asr oxirida Turkiston so'fiylarining ko'zga ko'ringan vakili va tabobotchisi shayx Xoja Muhammad Porso (Muhammad bin Muhammad bin Mahmud al-Hafizi Buxoriy – 1419 yili vafot etgan) Buxoroda umum foydalanishi uchun kutubxona ochgan. Kutubxona barcha ziyolilar va bilimga tashna omma uchun ochiq bo'lgan. Shayx Xoja Muhammad Porso o'zi kitob ixlosmandi bo'lib, ko'plab kitoblar muallifi edi. Masalan, Qur'oni karimga u tuzgan tafsirning o'zi 100 jild kitob bo'lgan. Bundan tashqari, shayx Xoja Muhammad Porso o'nlab kitoblar yozgan. Umrining oxirigacha u o'z kutubxonasini eng boobro' qo'lyozmalar xazinasiga aylantirdi. Xazina turli mazmundagi noyob va qadimiy qo'lyozmalar bilan to'lib bordi. Ko'plari shayx Xoja Muhammad Porso hajga borgan vaqtida va boshqa sayohatlar vaqtida sotib olingan edi. Keyingi asrlarda ham shayx Xoja Muhammad Porso kutubxonasi kitob ixlosmandlari, ruhoniylar, boy-badavlat kishilarning xayr-ehsonlari hisobiga hamda vaqf qilingan kitoblar bilan to'lib bordi. Bunday kitoblarning hoshiyalariga muhrda «Xoja Muhammad Porso kutubxonasi vaqfiga» degan yozuv bitilgan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan shayx Xoja Muhammad Porso kutubxonasidan qolgan kitoblar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, har bir kitobda romb shaklidagi muhrlar bu ulkan xazina tarixidan xabar berib turibdi. Ko'pincha kitoblarning birinchi va oxirgi sahifalarida shayx Xoja Muhammad Porsoning o'z qo'li bilan yozilgan belgilar ham uchraydi.

Avval boshida shayx Xoja Muhammad Porso kutubxonasi XII-XIV asrlar, ya'ni qariyb uch yuz yil davomida to'plangan oilaviy meros qo'lyozma kitoblar majmui edi. Bu xazina shayx Xoja Muhammad Porsoning ota-bobolari tomonidan to'plangan edi[356]. Uning shayx tomonidan vaqf kutubxonasiga aylantirilishi mazkur meros kutubxona umrini yana to'rt yuz yilga uzaytirdi. Shunday qilib, shayx Xoja Muhammad Porso kutubxonasi XIX asrning 40-yillarigacha, tashkil topganidan boshlab etti yuz yildan ko'proq yashadi. Keyin esa asta-sekin tarqalib, sochilib keta boshladi. O'rta asrlarda Turon hududidagi

[356] Qarang: Semyonov A.A. Gosudarstvennaya publichnaya biblioteka i fondo' vostochno'x rukopisey Uzbekistana G'G' Literaturno'y Tashkent. Almanax. №1. Tashkent. 1945. – S. 113.

jamoatchilik foydalanadigan kutubxonalarning eng yirigi bo'lgan shayx Xoja Muhammad Porsoning vaqf kutubxonasidagi barcha kitoblar XIX asrning oxirlariga qadar o'lka kitob bozorlarida sotib tugatilgan deb hisoblanadi. Ammo, o'zbek vaqtli matbuotida 1955 yilda paydo bo'lgan xabarlarga ko'ra, «1930-40-yillarda ham Buxoro yoyma bozorida shayx Xoja Muhammad Porso kutubxonasiga tegishli romb shakldagi muhr bosilgan qo'lyozmalarning ayrim nusxalari uchrab turardi»[357]. Taqdirning turli o'yinlaridan qat'i nazar, mazkur noyob xazinaning bir qismi saqlanib qoldi va ko'plab sharqshunoslik ilmiy muassasalarining qo'lyozma jamg'armalari tarkibiga kiritildi.

Turonzamin madrasalari o'rta asrlarning har bir tarixiy bosqichida qo'lyozma kitoblarning muhim majmualariga egalik qilishardi. Kitobat madaniyati manbalarining bilimdoni prof. A.A.Semyonov ta'kidlaganidek, «Buxoro, Samarqand, Qarshi, Xiva va boshqa shaharlardagi katta madrasalarning hammasida katta-katta kutubxonalar bo'lgan. Hatto nisbatan yosh Qo'qon xonligining Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan shaharlaridagi madrasalarda, Buxorodagi kabi boy bo'lmasa ham, har holda kutubxonalari bor edi»[358].

Madrasa kutubxonalari kitob zahiralarining tarkibi, avvalo, madrasalarning yoshi, qadimiylik darajasiga qarab turlicha edi. So'ngra, kutubxona vaqfiga kim asos solgani bilan mablag' ta'minoti kim tomonidanligi, mudarris va talabalarning aqliy mushohada darajasi va ko'plab ilg'ab bo'lmas omillar xususiyatini belgilar edi. A.A.Semyonov Buxoro madrasalarining kitob majmualari taqdiri haqida qiziq va ibratli bir voqeani keltiradi. Buxoro amiri Muzaffar (hukmronlik yillari 1860-1868) madrasa kutubxonalarining barchasidan qiziqarli kitoblarni xazinaga o'tkazish to'g'risida buyruq chiqardi. «Mazkur buyruqning chiqarilishiga nima turtki berganligi bilan qiziqib ko'rgan edim, - deb yozadi A.A.Semyonov. – Voqeadan xabardor buxoroliklar menga javob berishdiki, bu ishda amirning u qadar qo'li bo'lmagan. Voqea bunday sodir bo'lgan edi: o'sha vaqtda qozikalon bo'lgan Sadriddin katta olim ham emas edi. Egallagan lavozimi talab qilganchalik ilmiy obro'-e'tibori ham yo'q edi. Shu tufayli markaz ulamolari, a'lamlar va

[357] Staxov S. Sennoyshie istoricheskie dokumento` G`G` Pravda Vostoka,1955, №184.

[358] Semyonov A.A. Srednеaziatskie rukopisno`e fondo` i vajnost ix izucheniya G`G` Materialo` I Vsesoyuznoy nauchnoy konferentsii vostokovedov v Tashkente. T.: 1958. -S. 913.

mudarrislar bilan bahslarda u ko'pincha mag'lubiyatga uchrardi. Shu kabi uyatga qolishlar, olimlarning hujumlari, qozikalonning fikricha, a'lamlar, mudarrislar va muftilar turli kitoblarni kavlashlari tufayli ro'y berardi. Qozi madrasalardagi barcha qo'lyozma va toshbosma kitoblarni qozixonaga olib kelish uchun amirning ruxsatini olishga erishdi. Bu erdan kitoblarning bir qismi amir kutubxonasiga kelib tushdi. Qolgan asosiy ko'pchiligi esa qozixona omborida hech qanday qarovsiz va ishlatiqsiz holda qolib ketdi»[359]. Ammo qozikalonning muqaddas Buxoroi sharif kutubxonalaridan kitoblarni yig'ishdagi jonbozligini, kutubxona ishini bo'g'ishdagi rolini juda oshirib yuborish ham yaramaydi. 1913 yilda Turonzaminning ayrim shaharlariga tashrif buyurgan hindistonlik sharqshunos olim va sayyoh Abd ur-Rauf bergan ma'lumotga qaraganda, Buxoroda o'sha davrda kutubxonalariga ega bo'lgan 200 ga yaqin madrasa faoliyat ko'rsatgan.[360]

Turli tarixiy manbalar va tadqiqotlarda turli-tuman madrasalar va ularning kutubxonalari, muayyan davrda faoliyat ko'rsatgan madrasalar soni haqida juda ko'p qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular kutubxonachilik ishi tarixi to'g'risida ma'lum xulosalar chiqarish imkonini beradi. Quyida bunday materiallardan xronologik tartibda tanlab olingan ma'lumotlar keltiriladi.

A.I.Kormilitsin bergan ma'lumotlarga qaraganda, XI asrda Samarqandda turli diniy mazhablarga tegishli bo'lgan 17 ta xususiy madrasa faoliyat ko'rsatgan. Xususiy madrasalardan tashqari, o'sha davrda hukumat tomonidan mablag' bilan ta'minlanib turilgan davlat madrasalari ham bo'lgan. Xurosonning dastlabki davlat madrasalariga G'aznaviylar sulolasiga mansub hukmdorlarning bevosita farmoyishiga binoan X asrda asos solingan[361].

XI-XIII asrlarda Marvda faoliyat ko'rsatgan madrasalarning kutubxonalari haqida biz yuqorida aytib o'tdik.

1272 yili Eronning mo'g'ul hukmdori Xulaguxon Turon zaminiga bostirib kirdi. Kesh va Naxshabni talon-toroj qilib, 1273 yilning yanvarida Buxoroni qamal qildi. Shahar ishg'ol qilingach, qirg'in va talonchilik

---

[359] Semyonov A.A. O'sha joyda.

[360] Abd-ur-Rauf. Rasskazo' indiyskogo puteshestvennika (Buxara kak ona est). Perevod s persidskogo A.N. Kondrateva. Samarkand, 1913. – S. 24

[361] Qarang: Kormilitso'n A.I. Sudbo' knig. T.: Fan, 1994. – S. 17.

boshlanib (22 yanvarda), buning oqibatida «Ma'sudiya» va «Xaniya» madrasalari va ulardagi yirik kutubxonalar yonib ketdi. «Ma'sudiya» madrasasining binosi va kutubxonaning kitob zahirasi Buxoroning o'sha davrdagi hokimi savdogar Ma'sudbek tomonidan tashkil qilingan edi. U kishi vohaning farovonligi uchun ko'p ishlarni amalga oshirgandi[362].

XV asrning birinchi choragida Mirzo Ulug'bek Samarqanddagi Registon maydonida juda go'zal me'morchilik obidasi – o'z kutubxonasiga ega bo'lgan madrasa binosini barpo etdi. Mazkur madrasa keyingi bir asr mobaynida Turonzamindagi eng yirik madrasa bo'lib qoldi. O'z kutubxonasiga ega bo'lgan madrasani Ulug'bek Buxoroda ham barpo etdi.

XVI asrning o'rtalarida Samarqand va Buxoroda bir nechta yirik madrasa va masjidlar qurib bitkazildi va vaqf mulkiga berildi. Samarqanddagi toqiga tilla hal yurgizilgan, ko'p sonli hujralari va katta kutubxonasiga ega bo'lgan Shayboniyxon madrasasi. Abdurahim Sadr madrasasi, Miri Arab madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi, Buxorodagi Abdullaxonning ikkita katta madrasasi shular jumlasidan.

XVII asrning dastlabki ikki o'n yilligida Samarqandda amir Yalangto'shbiy mablag'iga biryo'la ikkita yirik madrasa barpo etildi. Ulardan biri – jahon me'morchilik san'atining mumtoz namunasi bo'lgan Sherdor madrasasi va ikkinchisi – jome masjidi vazifasini ham bajarishi lozim bo'lgan Tillakori madrasasi. Ikkala madrasada ham kitob saqlashga mo'ljallangan xonalar va mutolaa zallari nazarda tutilgan edi.

Ashtarxoniy Imomqulixonning nufuzli a'yonlaridan biri bo'lgan Nodir devonbegi tomonidan XVII asrning 30-yillarida Buxoroda shahar masjidi va madrasasi barpo etildi. U shuningdek, Samarqand yaqinida Xo'ja Ahror Vali maqbarasi yaqinida qurilgan madrasani ham mablag' bilan ta'minladi. XVII asrning ikkinchi yarmida ashtarxoniy Abdulazizxon Buxoroda Ulug'bek madrasasining ro'parasida kutubxonasi bo'lgan juda go'zal bir madrasa binosini bunyod etdi.

XVII asr oxirida ashtarxoniylar sulolasining vakili Subhonqulixon davrida Buxoroda yana bir yirik vaqf ommaviy kutubxonasi ochilgan. Bu haqda prof. A.A.Semyonov xabar berib, kutubxonaning umri, uni

---

[362]Qarang: Istoriya Uzbekskoy SSR. T. 1. T.: Fan, 1967. – S. 431; yana qaralsin: Gafurov B.G. Tadjiki. Drevneyshaya, drevnyaya i srednevekovaya istoriya. Kniga 2. Dushanbe, Irfon, 1989. – S.188-193.

ta'sis etgan shaxslar haqida manbalarda hech qanday ma'lumot yo'qligini ta'kidlaydi[163].

1616 yili «Shajarai turk va mo'g'ul» nomli mashhur tarixiy asar muallifi Abulg'ozixonning otasi Arab Muhammad Xivada uning ismi bilan nomlangan yirik bir madrasa barpo etdi. Oradan yuz yil o'tgach, Sherg'ozixon ham o'z ismi bilan nomlangan katta ikki qavatli g'ishtin madrasa qurdirdi. Ikkala madarasa ham vaqf mulkiga mansub bo'lib, sonlik g'aznasidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan ta'minlanar edi.

Hisordagi madrasalar qoshida ham ancha yirik kutubxonalar faoliyat ko'rsatardi. O'sha davr tarixchilari bergan ma'lumotlarga qaraganda, Buxoro amirining tog'asi Sodiq to'ra eng yirik kutubxonalarning jamg'armalarini to'ldirish bilan shug'ullangan. Buxoro kitob bozorlaridan u kutubxonalar uchun bir necha marta juda ko'p noyob va qimmat kitoblarni sotib olgan. Kitob bozoriga mana shunday safarlaridan birida u kutubxonalar jamg'armalarini to'ldirish uchun xarid qilingan kitoblarga jami 75000 tanga pul sarflagan. Hisor madrasalaridagi kutubxonalar jamg'armalarining katta qismi o'tgan asrning 30-yillarida Buxoro Markaziy kutubxonasi (hozirgi Buxoro viloyat kutubxonasi)ning jamg'armasini to'ldirdi.

1902 yilda Turonzaminning bir necha shaharlariga safar qilgan akademik V.V. Bartold Qo'qon madrasalaridagi kitoblar haqida shunday deb yozgan edi: «Shaharda topish mumkin bo'lgan ozmi-ko'pmi noyob kitoblar va qo'lyozmalarni menga Madalixon madrasida to'plab berdilar».[164] U Sankt-Peterburgdagi Osiyo muzeyi uchun sotib olish maqsadida taqdim etilgan qo'lyozmalar va kitoblarni diqqat bilan ko'rib chiqqan, ammo ularning narxi juda balandligi uchun mazkur kitoblarni xarid qila olmagan.

Qo'qonda Kurxon masjidining kutubxonasida juda noyob qo'lyozmalar to'plami saqlangan. Mazkur to'plam Juchi ulusining ichki tuzilishi, unda va Buxoro xonligida o'zbek qabilalarining joylashishi, Naqshbandiya tariqati arboblari, Xo'ja Ahror Vali vorislarining hayoti

---

[163] Semyonov A.A. Sredneaziatskie rukopisno'e fondo' i vajnost ix izucheniya G'G' Materialo' I Vsesoyuznoy nauchnoy konferentsii vostokovedov v Tashkente. T.: 1958. – S. 214.

[164] Bartold V.V. Otchyot o komandirovke v Turkestan G'G' Zapiski Vostochnogo otdeleniya russkogo arxeologicheskogo obhestva (ZVORAO). T. XV. SPb., 1904. – s. 174.

va faoliyatiga doir asarlarni o'z ichiga olgan. Kitoblardan birida XVI asrning boshidan XVII asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan tarixiy davr tavsifi keltirilgan. Mazkur kitob «so'fizmning ushbu davrdagi tarixinigina emas, balki Movarounnahrning Shayboniylar hamda ilk Ashtarxoniylar davridagi siyosiy tarixini ham o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qilishi mumkin»[365].

Turonzamin hududi chor Rossiyasi mustamlakasi ostida bo'lgan davrda rus olimlari bu erdan juda ko'p kitoblar va qo'lyozma asarlar xarid qilgani madrasalarning kutubxonalarida noyob Sharq qo'lyozmalari bisyor bo'lganligidan dalolat beradi. Masalan, 1915 yilda Turonzaminga kelgan sharqshunos V.A.Ivanov Buxoro madrasalarining vaqf kutubxonalaridan arab, fors va turkiy tillardagi juda ko'p Sharq qo'lyozmalarini sotib olgan. Mazkur xaridlar 1057 qo'lyozmadan iborat «Buxoro kollektsiyasi»ni tashkil etgan. Bu XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Turonzamindan Rossiyaga va boshqa mamlakatlarga olib ketilgan ko'plab qo'lyozma kitoblarning eng noyob to'plamlaridan biri edi. Mazkur to'plamning aksar qismini arab tilidagi kitoblar tashkil etadi. Ummaviylar va Abbosiylar sulolalarining muallifi noma'lum tarixi, arab shoiri Zu-r-Rummaning she'rlar devoni, Zamaxshariyning Qur'oni karimga yozgan tafsiri, al-G'azzoliyning «Faylasuflarni rad etish» va «Diniy fanlarning jonlanishi» asarlari, as-Samarqandiyning mantiq ilmiga oid juda kam uchraydigan asari shular jumlasidan. Boshqa noyob asarlar orasida shayx Xoja Muhammad Porso kutubxonasidan olingan ibn Miskavayx qalamiga mansub jahon tarixi («Tajorib ul-ulum»)ning beshinchi jildini, Ibn al-Haysamning XIV asrga mansub bo'lgan «Geometriya kitobi» asarining noyob qo'lyozmasini, Ibn an-Nafis (vafoti 1288 yil) tomonidan bajarilgan tibbiyot mavzusidagi «Muxtasari Qonun» asari - Ibn Sinoning «Al-qonun al-fit-tib» («Tib qonunlari») asarining qisqartmasini, shayx Xoja Muhammad Porsoning qator asarlarini qayd etish mumkin. Yuqorida zikr etilgan kollektsiyada nazm va nasrda bitilgan asarlar ham bisyor edi. Mazkur kollektsiyaning sifat tarkibini tahlildan o'tkazar ekan, sharqshunos V.I.Belyaev shunday deb qayd etadi: Kollektsiya kitoblari «bir necha asr mobaynida butun O'rta Osiyoning markazi bo'lib kelgan Buxoro madaniyati haqida yorqin tasavvur beradi. To'plam fanlarning an'anaviy doirasi... hamda bir necha

[365] Validov A.Z. Vostochno`e rukopisi v Ferganskoy oblasti G`G` ZVORAO. T. XXII. SPb., 1915. – S. 308.

asrlar mobaynida yaratilgan son-sanoqsiz ilmiy va badiiy adabiyotlar haqida hukm chiqarish imkonini beradi»[366]. Aksariyat kitoblarga bosilgan romsbsimon muhr – shayx Xoja Muhammad Porso nomi ko'rsatilgan tasarruf belgisi (ekslibris)ga qaraganda, kollektsiyadagi kitoblarning ko'pchiligi mana shu zotning kutubxonasidan olingan.

XIX asrning o'rtalarida Toshkentda yashaydigan 50 ming aholiga 100 masjid, 50 dan ortiq madrasa to'g'ri kelgan[367]. Taxminan mana shunday nisbat Samarqandda ham kuzatilgan[368]. Buxoroda yashaydigan 70 ming aholiga[369] 200 taga yaqin madrasa[370], 300 dan ortiq masjid, 38 ta karvonsaroy, to'qqizta timli bozor, 16 ta hammom, shahar ichida 45 ta va uning atrofida 22 ta bozor to'g'ri kelgan[371]. Qo'qonda xuddi shu davrda 30 ming aholi yashagan, 9 karvonsaroy, 6 hammom[372], 36 tadan ortiq madrasa[373], yuzga yaqin masjid faoliyat ko'rsatgan. Xivada XIX asrning 40-yillarida jami 22 ta madrasa bo'lgan, umuman Xorazmda 50 dan ortiq madrasa[374] va 100 dan ortiq masjid faoliyat ko'rsatgan. Andijonda 42 ta madrasa bo'lgan[375]. Yuqorida zikr etilgan madrasa va masjidlarning barchasi katta-kichik kutubxonalarga ega bo'lgan. Mazkur kutubxonalarda qo'lyozma kitoblarning katta yo kichik jamg'armalari to'plangan. Masjidlar qoshidagi maktablarni, madrasai oliya, o'rta va quyi madrasalarni har yili minglab talabalar – potentsial kitobxonlar va kitobsevarlar tamomlagan. Bu Turonzamin xalqi savodxonlik an'analari qadimiy va ilk o'rta asrlardan davom etib kelayotganidan darak edi.

---

[366] Belyaev V.I. Arabskie rukopisi Buxarskoy kollektsii Aziatskogo muzeya Instituta vostokovedeniya AN SSSR G'G' Trudo' IV AN SSSR. T. II. L., 1952. – S.VIII.

[367] Istoriya Uzbekskoy SSR. T. 1. T.: 1967. – S. 627.

[368] O'sha joyda. – 626-bet.

[369] O'sha joyda. – 625-bet.

[370] Qarang: Abd-ur-Rauf. Rasskazo' indiyskogo puteshestvennika (Buxara, kak ona est). Perevod s persidskogo A.N. Kondrateva. Samarkand. 1913. – S. 27.

[371] Istoriya Uzbekskoy SSR. T. 1. T.: 1967. – S. 626.

[372] O'sha joyda. – 627-bet.

[373] Kormilitso'n A.N. Rukopisno'e kollektsii i biblioteki na territorii Uzbekistana epoxi srednevekovya. T.: 1993. – S. 39.

[374] O'sha joyda. – 38-bet.

[375] O'sha joyda.

qiziqtirgan fan sohalariga oid yuzlab kitoblarni o'zida jamlagan shaxsiy kutubxonlarga ega bo'lganlari shubhasiz.

Kutubxonachilik ishi tarixining mumtoz davri (XIV-XVII asrlar) da Sohibqiron Amir Temur, Shohrux Mirzo, Boysunqur Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bahovuddin Naqshband, Misayyid Sharif, Avaz Kirmoniy, Ibn Arabshoh, Taftazoniy, Sharif Jurjoniy, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin al-Qoshiy, Ali Qushchi, shayx Xoja Muhammad Porso, Hofizi Abro', Ya'qub Charxiy, Sakkokiy, Lutfiy, Xoja Ahror Vali, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Qosim Anvar, Davlatshoh Samarqandiy, Kamol Xo'jandiy, Sulton Ali Mashhadiy, Kamoliddin Behzod, Jaloliddin Davoniy, Husayn Xorazmiy, Husayn Voiz Koshifiy, Fasih Xavofiy, Ja'far ibn Husayn Termiziy, Nizomiddin Shomiy, Faxriddin Xo'jandiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobir, Sultonali tabib Xurosoniy, Muhammad ibn Yusuf tabib, Ubaydullo ibn Muhammad Yusuf Qahhor, Muhammad Isfizariy, Zayniddin Vosifiy, Mahmud ibn Vali, Kamoliddin Binoiy, Badriddin Hiloliy, Shayboniyxon, Mirzo Muhammad Haydar Dug'loy, Muhammad Solih, Sayyid Podshoxo'ja, Abdurahmon Mushfiqiy, Ro'zbexon Isfaxoniy, Hofiz Tanish Buxoriy ham o'z shaxsiy kutubxonasiga ega bo'lgan.

Kutubxonachilik ishi tarixinig so'nggi mumtoz davrida, ya'ni XVII asr – XIX asrning birinchi yarmida Yusuf Qorabog'iy, Muhammad Sharif Buxoriy, Subhonqulixon, Muhammad Yusuf Munshiy, Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor, Oxund Muhammad Sharif, shayx Habibullo, Maxtumquli, Andalib, Molla Nepes, Fuzuliy, Fitrat Zarduz Samarqandiy, Sayyid Nasafiy, Muhammad Amin Yaraqchi, Muhammad Badi Samarqandiy, Muhammad Amin Buxoriy, Uvaysiy, Nodira, Maxmur, Gulxaniy, Mirzo Abduqodir Bedil, Abdurahmon Tali, Muhammad Vafoiy, Karminegi, Mirzo Sodiq munshiy, Islomshoh Hoziq, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Ahmad Donish, Ajiniyoz, Berdaq, Muhammad Rahim II – Feruz singari fan va madaniyat arboblarining ham Sharq qo'lyozma kitoblarini o'zida jamlagan shaxsiy kutubxonalari bor edi.

Turonzamin jamiyatida yangi arab tilli, forsiygo'y va turkiygo'y kitoblardan iborat shaxsiy kutubxonalar to'plashga bo'lgan qiziqish, kitobsevarlik mayllari VIII asrning oxiri – IX asrning boshlaridan aholining ma'lum qatlamlari orasida savodxonlik keng yoyilishi, qo'lyozma

kitoblar ishlab chiqarish, xalqaro kitob almashuvining kengayishi munosabati bilan yuzaga kela boshladi. Shahar madaniyatining o'sishi, ularda dunyoviy va ilohiyot olimlarining, shoirlar, adiblar, kitob ustalari, ziyoli hunar ahlining to'planishi kitobga va uni ishlab chiqarishga bo'lgan doimiy va sobit talabni shakllantirdi. Agar shaharlik har bir savodli hunarmand, biror bir diniy ta'limot muxlisi, she'riyat ixlosmandi, ilm tolibi, ilohiyotchi, masjid imom xatibi, tabib yoki dorishunos, olim yoki mudarris va hokazolar qo'lida vaqt o'tishi bilan ko'p bo'lmasa ham, har holda muayyan kitoblar jamlanib qolardi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu kabi fikrni mo'g'ul istilosidan oldingi madaniy yuksalish davriga, temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari davrlariga birdek taalluqli deb aytishimiz mumkin. Turonzamin madaniyati, fani va adabiyotining yuzlab namoyandalarining shaxsiy qo'lyozma majmualari tarixi esa hali jiddiy o'rganilgan emas.

Jamiyatning turli qatlamlaridan chiqqan odamlarning kitobga qiziqishi avvalambor ularning didlari, havas-intilishlari, dunyoqarashlari, olgan tarbiyalari bilan bog'liq bo'lgan. Shu ma'noda Ibn Sinoning o'rta asrlarda Turon shahar o'rtahol qatlami vakillaridan ayrimlarining kitobga munosabatini ko'rsatuvchi quyidagi guvohligi juda ibratlidir: «Abul Husayn Aruziy degan bir kishi men bilan qo'shni edi, - deb yozadi Ibn Sino. – U mendan umumiy masalalarga oid bir kitob yozib berishimni iltimos qildi. Men uning iltimosini bajarib, «al-Majmu» - «To'plam» nomli kitob yozib, unda matematikadan tashqari barcha fanlar haqida ma'lumot berdim. Mening boshqa bir qo'shnim xorazmliklardan edi. Tafsir, uzlat (tarkidunyochilik), aqliy mushohada bilan bog'liq ilmlarga moyil kishi edi. U mendan falsafa muammolariga doir sharhlar kitobini yozib berishimni so'radi. Uning uchun «Al-hosil val-mahsul» nomli yigirma jildli kitob yozib berdim. Yana shu Abu Bakr Barrakiy uchun axloq bo'yicha «Al-Birr val-Ism» – «Xayrli ish va gunoh» nomli kitob yozdim. Bu kitoblar shu kishining o'zidan boshqa hech kimda yo'q. Ularni biror kimsaga berib ham turmadiki, nusxalari ko'chirib olinsa»[378].

[378] Materialo' po istorii progressivnoy obhestvenno-filosofskoy mo'sli v Uzbekistane. Tashkent: Fan, 1976. – S. 279. Ibn Sinoning u hali Buxoroda yashagan davrida yozilgan «al-Majmu» kitobining taqdiri ajoyib. O'n asr davomida manbalar u haqda sukut saqladi. 1960 yillardagina bu kitob Misr kitob xazinalaridan birida ekanligi ma'lum bo'ldi. 1969 yili arab olimi Muhammad Salim bu asarni «Kitob al-majmu aval hikmat al-Arudiya fi maani kitob ash-she'r» («Aruziyning poetika mazmuniga doir hikmatlar yig'indisi kitobi») nomi

Turonzamin kitobat madaniyati tarixiga oid Ibn Sinoning bu kabi hikmatli ma'lumotlari vaqt e'tibori bilan X asrga oid. Lekin manbalarda jamiyatning turli-tuman qatlamlari vakillarining kitob yig'ish, kitob ixlosmandligi, kitobga qiziqish, kitobiy bilimlarga intilishning tarixiy vorisiyligi to'g'risida keyingi ming yil yuzasidan tasdiqlovchi ma'lumotlar uzluksiz uchrab turadi. Tarixiy voqeanavislik (xronika) asarlari, xotiranomalar (memuarlar), tarixnavislik, tabiiy-ilmiy asarlarning manbashunoslik bo'limlari, ijtimoiy (gumanitar) asarlar turkumlari, qomuslar, bibliografik asarlar, qo'lyozmalarda uchraydigan hoshiyalardagi yozuv va belgilar, tasarruf (egalik) belgilari, ekslibrislar va, albatta, zikr etilayotgan kishilarning shaxsiy kutubxonalari haqida bevosita xabarlar beruvchi tazkiralar kitob o'quvchilari, kitobat ishi va adabiy ijod homiylari, xattotlar, sahhoflar, musavvirlar, oddiy hunarmandlar, olimlar va shoirlar – kitob to'plamlari egalari – haqida juda boy va rang-barang ma'lumotlar beradi.

Turonzaminda shaxsiy kutubxonalar haqida manbalar tasdiqlagan ba'zi ma'lumotlarga o'tamiz. Yirik arbob Shahobiddin Xivaqiy (1220 yilda vafot etgan) Urganchning shafe'iylar masjidi uchun kutubxona tuzib bergan. «Unga tengi na avval va na keyin bo'lgan emas»[379].

XIII asrning so'nggi choragida Marvda yashagan tabib Fazlulloh Rashididdin (1247-1318) ixtiyorida yirik shaxsiy kutubxona to'plandi. Xulagular sulolasi (Chingizxon avlodlaridan) vaziri mavqeini egallagan Rashididdin ko'plab qimmatbaho tarixiy, tarixiy-jug'rofiy, tabiiy-ilmiy, tibbiy asarlarni to'plashga erisholdi. Bu adabiyot xalqlarimiz tarixining ajoyib yodnomasi «Jome' at-tavorix» – «Yilnomalar majmui» nomli asarni yozish imkonini berdi. Rashididdin kutubxonasi qoshida kitob ustaxonasi ishlab turgan. Unda xattotlar, lavvohlar, muqovasozlar mehnat qilib, ko'p kitoblar, jumladan, Rashididdinning asarlarini ham nusxalab ko'paytirishgan. Olim vafotidan keyin kutubxona parokanda bo'lib ketgan.

Ulug'bekning zamondoshi Qozizoda Rumiy, yuqorida nomi zikr etilgan shayx Xoja Muhammad Porso, shayxulislom Isomiddin binni Abdulmalik kabilarning shaxsiy kutubxonalari bo'lgan[380]. Kitobiy

---

ostida nashr etdi.

[379]Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. – Soch. T.2. Ch. 1. – S. 233.

[380]Bartold V.V. Ulugbek i ego vremya. – Soch. T. 2. Ch. 2. – S. 122.

bilimlardan hafsalasi pir bo'lgan Abu Said Ubehiy o'z kitoblarini madrasa talabalariga ehson qilgan[381]. Umri davomida Alisher Navoiy qimmatbaho qo'lyozmalarga boy yirik kutubxona tashkil qilgan[382]. Abdurahmon Jomiy shaxsiy kutubxonasi Hirotda mashhur bo'lgan[383].

Alisher Navoiy kutubxonasida ma'lum vaqt mashhur musavvir Xo'ja Muhammad ishlagan. U kashf etgan soat kutubxonaning mutolaa zalida o'rnatilgan. Kutubxonadan keng kitobxonlar ommasi foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan. Mashhur olim Mirxond (vafoti 1498 yil), uning nabirasi Xondamir (vafoti 1535 yil), boshqa ko'pgina tarixchi va adabiyotchilar o'z tarixiy asarlarini yaratishda mazkur kutubxonada jamlangan tarixiy manbalar va o'tmish muarrixlarining asarlaridan foydalanganlar.

7.5. Kutubxonalarning tuzilishi va ularning ishini tashkil etish

Kutubxonachilik tarixi bo'yicha bor materiallar, ma'lumot va manbalar jamuljami (yig'indisi)ga qarab fikr yuritiladigan bo'lsa, umuman musulmon madaniy dunyosidagina emas, balki uning ajralmas qismi Turonzamin o'lkasida ham kutubxona ishining tashkiliy va tarkibiy qonun-qoidalari haqida, printsip va o'ziga xosliklari haqida xulosalar qilishga to'la asos bor ekanligi shubha tug'dirmaydi. Bir qadar yirik kutubxonalar (saroy, madrasa va masjidlar qoshida) kitob saqlash uchun xonalardan tashqari o'rtasi gumbazli, naqshin bezaklar bilan oro berilgan binoga ham ega bo'lgan.

Turonzamin me'morchilik yodgorliklarining tadqiqotchilari akademik G.A.Pugachenkova va L.Ya.Elkovich shunday deb qayd etadilar: «Noharbiy me'morchilik obidalari orasida kutubxonalarning binolari ham bo'lib, ular orasida Marv va Urganch kutubxonalari ayniqsa mashhur edi. Mazkur kutubxonalar baland shiftli mutolaa zallaridan, kitoblar taxlab qo'yiladigan juda ko'p tokchalardan tashkil topgandi»[384].

---

[381] Ko'rsatilgan asar, 126-127-betlar.

[382] Qarang: Yakubovskiy A.Yu. Cherto` obhestvennoy i kulturnoy jizni epoxi Alishera Navoi. – Alisher Navoi. Sbornik statey. M.-L., izd-vo AN SSSR. 1946. – S. 28-29.

[383] O'sha joyda.

[384] Pugachenkova G.A., Elkovich L.Ya. Ocherki po istorii iskusstva Turkmenistana Ashxabad, 1965. – S. 49.

Bunday o'quv zallariga gilamlar to'shalgan, ko'rpacha, yostiq-bolishlar solingan, xontaxta, kitob lavhlari qo'yilgan. Ularda eshik (darcha) va derazalar pardalangan. Ko'pincha bu kabi zallarda turli majlislar, ilmiy musohabalar, mushoiralar, tarixiy-ilmiy, adabiy munozaralar bo'lib turgan. Son-sanoqsiz shaxsiy kitob majmualari, ta'lim muassasalari, masjidlar, kasalxonalar, maqbaralar, xonaqolar, observatoriyalar, so'fiylar makonlari, hatto hokimlarning saroylari qoshidagi kutubxonalar oddiygina tokchalarga, sandiq va javonlarga, taxtalardan yasalgan stellajlarga joylashtirilgan, ba'zan birgina yoki bir nechta kichik xonalarni band etgan.

Kutubxonalarda bo'yra, gilam, ko'rpachalarda chordana qurib o'tirib shug'ullanilar edi. Kitob o'qish, kitobdan foydalanish madaniyati haqida yozilgan ko'plab qo'llanma-risolalarda kitobni aslo gilam (bo'yra) yuziga qo'yish mumkin emas, deb uqtirilgan. Kitob o'qish uchun maxsus lavhdan foydalanish buyuriladi. Kitob satrlari ustidan siyoh yuritish, kitob ustida boshqa qog'ozga xat yozish man qilinadi.

Kutubxona ishining vaqti-soati, kuni, qisqasi, biror jadvali haqida ma'lumotlar rang-barangligi tufayli bir fikrga kelish qiyin. Ba'zan kutubxonalar haftada ikki kun, ba'zan to'rt kun, hatto har kuni ishlagan. Saroy kutubxonalariga kirish qat'iy cheklangan. Vaqf kutubxonalariga kirish esa hamma uchun barobar, erkin bo'lgan. O'quvchilar maxsus ro'yxat qilinmasa ham, har holda kitobni ma'lum muddatga berish odati bo'lgan.

Kitobni qaytarib berish esa kitobning muqaddasligi, u uchun Xudo oldida javobgarlik, vijdon amri, burch tuyg'ulari asosida amal qilgan. Kitobni yo'qotganlik, uni yirtganlik, o'zlashtirib yuborganlik kabi masalalarga maxsus chora belgilanganligi haqida biror ma'lumot yo'q.

Saroy va yirik vaqf kutubxonalariga zamonasining keng bilimli kishilari – adiblar, tarixnavislar, xattotlar yoki ilohiyotchi olimlar, so'fiy shayxlar, muhaddislar kitobdor etib tayinlanardilar. Qayd etib o'tganimizdek, 1011-1017 yillarda xorazmshohlar kutubxonasiga (Ma'mun ibn Ma'mun xorazmshoh davrida) mashhur olim as-Saolibiy (salkam 100 ilmiy asarning muallifi) boshliq bo'lib ishlagan.

Uzoq yillar davomida xattot Xo'ja Nosir Husayn Boyqaroning o'g'li Faridunga tegishli kutubxonada kitobdorlik qilgan[385]. Shayboniyxon

[385]Qarang: Boldo'rev A.N. Ocherki iz jizni geratskogo obhestva na rubeje XV-XVII vv. –

avlodi Abdulaziz (1540-1549) kutubxonasining kitobdori mashhur xattot Miraki Munshiy edi[386].

Madrasa kutubxonalarida kitobdorlik ishini asosan mudarris – domlalar bajarardi. Vaqf kutubxonasiga boshchilik qilishni odatda vaqf mulkini asoslagan shaxs o'z qo'lida tutishi, avlodlariga qoldirishi ham mumkin bo'lgan. Shu yo'l bilan omma uchun ochiq meroslik, oilaviy (avlodga tegishli), vaqf kutubxonalari shakllanar edi.

Kutubxonalarda goh bir odam, goh ikki va undan ortiq odam xizmat ko'rsatar edi. Kitobdorlik mansabi bilan bir qatorda ba'zi kutubxonalarda kitob ko'chiruvchi (kotib) lavozimi ham ko'zda tutilardi. Bundan tashqari farrosh lavozimida ham odam ishlar, u ham kitobxon xizmatiga qarashar edi. Kitobdor odatda kitob oldi-berdisidan tashqari kitoblarning tartibli saqlanishi, kutubxonada joriy tasnif asosida joylashtirish masalalari bo'yicha javobgar bo'lgan. Muqovalash, ta'mirlash, kitoblarni tiklash, ulardan nusxalar ko'chirish kabi ishlarga ham kitobdorlar qarab turgan.

Har bir kutubxona egasining nomi aks etgan yoki vaqf ajratgan shaxs nomi bitilgan muhrga ega bo'lishga intilgan. Shunday muhrlar kitobning birinchi va so'nggi varag'iga bosilgan. Muhr bilan kitob egaligini ta'kidlash odati Turonzamin qo'lyozma kitoblari tarixining o'rta asr ilk mumtoz davridayoq yuzaga kelgan edi.

7.6. Kutubxonada adabiyotlarni tasniflash va joylashtirish

Dunyo kitobat madaniyati tarixida yozma hujjat jamg'armalari doimo u yoki bu tarzda tartibga solish, sistemalashtirish zaruriyatiga duch kelgan. Miloddan avvalgi III-II mingyilliklarda loydan yasalgan qadimgi Shumer, Ossuriya, Bobil kitoblari mazmuniga ko'ra tasnif qilingan. Misr ieroglifili kitoblar ham mazmun jihatidan shunday qilingan. Xitoy, Eron, Hindiston, Yunoniston, Rim, Parfiya, Sug'diyona, Xorazm, Boxtar o'lkalarida miloddan avvalgi I mingyillik – milodiy I mingyillik ichida charm, yog'och, sopol va boshqalar sirtidagi yozuvlar ham mazmuniga ko'ra tasnif qilingan.

Mohiyat e'tibori bilan, u yoki bu davr madaniy taraqqiyot bosqichida kitob tasnifi bevosita o'sha davrda fan va ilmiy bilimlarning

---

[386] Trudo' otdeleniya Vostoka Gosudarstvennogo Ermitaja. T. IV. L., 1947. S. 324.

[386] Qarang: Boldo'rev A.N. Tezkire Xasana Nisari kak novo'y istochnik dlya izucheniya kulturnoy jizni Sredney Azii. – Trudo' otdeleniya Vostoka Gosudarstvennogo Ermitaja. T. III. L., 1940. S. 298.

tabaqalanishi bilan bog'liq.

Umuman olganda, qachonlardir insoniyatning o'zi haqidagi va atrofidagi dunyo haqidagi ilmiy bilimlari yagona tizimni hosil qilgan. Keyinchalik bu bilim maxsus va turli-tuman bilimlar tizimiga, fan va fan bo'limlariga ajrala boshlagan. Ya'ni fan sohalariga taqsimlangan. Mazkur jarayon birinchi galda kitobda o'z aksini topgan. Ayni kitob fanning turli tarmoqlarida erishilgan ilmiy yutuqlarni o'zida mujassamlashtirib, ilmiy tabaqalanishni o'zining tasnifiga olib kirishda ham moddiy asosga aylangan. Shunday qilib, fan sohalarining xulosalari ma'lum tartib bilan ko'chirilib kitob matniga aylanib borgan.

Fanlarning tarixda birinchi ilmiy tasnifini Arastu (Aristotel) (384-322 yillar) yaratgan edi. Mazkur tasnif uning «Metafizika» asari orqali etib kelgan. Turonzamin o'lkasida Arastu qarashlarining Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino kabi muxlislari bor edi. Ular o'z asarlarida Arastu tasnifini davom ettiribgina qolmasdan, uni o'z zamonalarining ilmiy sohalari bilan to'ldirdilar.

Forobiyning fanlarning kelib chiqishi va tizimga solish haqidagi g'oyalari uning bizgacha faqat lotin tiliga qilingan tarjimasi orqali etib kelgan «Fanlarning kelib chiqishi» nomli kitobidan ma'lum. Forobiy bu masalaga «Ixso ul-ulum» («Fanlarni tasniflash») nomli kitobni bag'ishlagan. Mazkur kitobda Forobiy barcha fanlarni besh yirik guruhga ajratadi: 1. Til haqidagi ilm. Bu ilm etti bo'limdan iborat. 2. Mantiq ilmi. 3. Matematika. Bu ilm etti bo'limdan iborat: arifmetika, geometriya, optika, yulduzlar haqidagi ilm, musiqa ilmi, vazn haqidagi ilm, mexanika. 4. Tabiiy va ilohiy bilimlar (yoki metafizika). 5. Shaharni boshqarish haqidagi ilm, huquqshunoslik va kalom[387].

Sharqda qadimdanoq mashhur bo'lgan Abu Abdulloh Xorazmiyning «Mafotih ul-ulum» («Fanlarning kaliti») nomli asarda fanlar dastlab ikkiga bo'linadi: 1. Shariat ilmlari (ulum ash-shari'a) hamda islom dinini boshqarishga xizmat qiluvchi yondosh ilmlar. 2. Arablarda emas, boshqa xalqlarda (yunonlar va boshqalarda) shakllangan ilmlar[388].

[387] Qarang: Ocherki istorii obhestvenno-filosofskoy mo'sli v Uzbekistane. Tashkent: Fan, 1977. S. 68.

[388] Mashhur tarixchi Ibn Xaldun (1332-1405) o'zining tarixga moddiyunchilik qarashlarini ifodalagan etti jildlik dunyo tarixiga oid kitobidagi «Muqaddima» qismida birinchi guruh fanlarni naql (hikoya) fanlari (al-ulum an-naqliyya), ikkinchi guruhni esa aqliy ilmlar (al-ulum al-aqliyya) deb atagan. Qarang: Karimov U.I. Klassifikatsiya nauk po Ibn Sine.

Birinchi guruhga Xorazmiy quyidagi fanlarni kiritadi: 1. Fiqh, musulmon qonunshunosligi. 2. Kalom, ya'ni islom ilohiyotchilik ilmi. 3. Sarfu nahv – grammatika. 4. Mahkamada ish yuritish ilmi. 5. She'riyat va nazm ilmi (metrika). 6. Tarix, ya'ni xronologiya ilmi.

Ikkinchi guruhga quyidagi fanlar kiradi: 1. Nazariy falsafa: a) tabiiy fan – fizika (tibbiyot, ob-havoshunoslik, javohirshunoslik – mineralogiya, alkimyo, mexanika) - quyi daraja ilmlar; b) matematika (arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa ilmi) – oraliq ilmlar; v) ilohiyot, ya'ni metafizika – oliy ilm; g) mantiq. 2. Amaliy falsafa: a) axloq (insonni boshqarish); b) uy boshqaruv ilmi; v) siyosat ilmi (shahar boshqaruvi, davlat boshqaruvi ilmi).

«Mafotih ul-ulum»dagi fanlar tasnifi har bir fanning ta'rifi, mazmunining bayoni va asosiy tushunchalarining siqiq va lo'nda izohi tarzida berilgan[389].

Abu Ali ibn Sino fanlar tasnifiga «Aqsom ul-ulum al-aqliyya» («Aqlga tayanuvchi ilmlarning qismlanishi»)[390] nomli risola bag'ishlagan. Asar nomidan ko'rinib turibdiki, Ibn Sino fan tasnifini faqat hikmat (falsafa ilmi) sohasi bilan cheklab, boshqa fan sohalariga o'tmagan. Barcha falsafiy fanlarni Ibn Sino ikki qismga bo'ladi: nazariy va amaliy falsafa fanlari. Bulardan birinchisi (nazariy falsafa) uch qismga bo'linadi:

1. Quyi (bosqich) fan, tabiiyot deb ham ataladi (yoki fizika – al ilm at-tabi'i deyish mumkin).

2. Oraliq fan, matematika ilmi (al ilm al-riyaziy).

3. Oliy fan, ilohiyot (al ilm ul ilohiy) deb ataladi.

Falsafiy fanlarning amaliy qismi o'z navbatida uch qismga bo'linadi:

1. Birinchi qism ilm shaxs va unga tegishli masalalar bilan shug'ullanadi. Odamning fe'l-xo'yi, hatti-harakati, uning bu dunyo-yu u dunyoda baxtli bo'lmog'i uchun qanday bo'lmog'i kerak.

2. Ikkinchi qism odamlarning o'zaro muloqoti, oila doirasidagi muomalasi masalalari bilan shug'ullanadi.

3. Uchinchi qism ilm odamlarning shahar (yoki mamlakat)

[389] Materialo' Pervoy Vsesoyuznoy nauchnoy konferentsii vostokovedov v Tashkente 1-11 iyunya 1957 g. Tashkent, 1958. S. 987.

[390] Qarang: Baxadirov R.M., Xayrullaev M. Abu Abdallax al-Xorezmi. X vek. M., Nauka, 1988. S. 76-77.

[391] Qarang: Karimov U.I. Ko'rsatilgan asar. 986-bet.

miqyosidagi, jamoasi doirasidagi munosabatlar bilan shug'ullanadi. Bu qism siyosatning turli ko'rinishlari, ijtimoiy guruhlarning namunaviy (ideal) va salbiy (yomon) shahar sharoitida boshqarilishi masalalari haqida ilmiy fikr yuritadi. Ideal va yomon shahar sharoitlarining sabablarini, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishini, o'zgarishlarini tekshiradi. Umuman davlatni boshqarish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

Falsafaning nazariy qismiga tegishli bu uch fan qismi o'z navbatida asl va shoxob qismlarga bo'linadi.

Tabiat ilmining asosiy (asl) qismlari sakkizta. Shundan birinchisi tabiat uchun umumiy masalalarni tekshiradi. Masalan, materiya, shakl, harakat, tabiat (narsaning xossasi ma'nosida), harakatning uni yuzaga keltiruvchi, harakatlantiruvchiga munosabati, boringki, ilk tebratuvchi - ilohiy ibtidogacha.

Ikkinchi qism tanning holatini, ya'ni dunyoning asosini tekshiradi. Bu samo va undagi barcha mavjudot, to'rt unsur, ularning xossalari harakati va o'rni masalalaridir.

Uchinchi qism vujudga kelish va yitish (yo'q bo'lish), paydo bo'lish va o'sish, o'lim (mavt) va boshqa tusga kirish kabi tafsilotga hojat bo'lmagan masalalarni tadqiq qiladi.

Fanning to'rtinchi qismi to'rt unsurda ularning qo'shilishi va turlicha harakatlari tufayli paydo bo'ladigan holatlarini tadqiq qiladi. Bu qism shu bilan birga meteorlar, bulutlar, yomg'ir, momaqaldiroq, chaqmoq, jala, kamalak, yashin, zilzila, dengiz va tog'larning xususiyatlarini tekshiradi.

Fanning beshinchi qismi noorganik dunyo muammolarini o'rganadi. Oltinchi qism esa o'simlik dunyosi bilan shug'ullanadi. Ettinchi qism hayvonot dunyosi masalalarini o'rganadi. Sakkizinchi qism hayvonot va shu jumladan, insonning jonini o'rganish va idrok etish kuchlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Bunda ta'kidlanadiki, insonning tanasi o'lishi bilan uni joni o'lmaydi. Jon ruhiy, ilohiy xilqat (substantsiya)ga aylanadi.

Ibn Sinoning fikricha, tabiatshunoslikning tarmoqlari va shoxobchalariga quyidagilar kiradi:

1. Tibbiyot – uning maqsadi insonning tanasini sog'lom va kasal holatlarida bilishdir. U kasallikning sabablarini va belgilarini aniqlash, bu orqali tanni kasallik sabab va oqibatlaridan tozalash, sog'liqni saqlash bilan shug'ullanadi.

2. Astrologiya (ahkom an-nujum – yulduzlarning hukmlari), bu tarmoqni Ibn Sino taxmin ilmi deb hisoblagan. Bu ilm yulduzlarning

turish holati, ularning burjlar bilan munosabati hamda Erga yuzlanib turish holati bo'yicha dunyo haqida, hokimlar, mamlakat, shahar haqida, tug'ilish vaqti va uning xosiyati haqida, safarga otlanish, biror jiddiy ish boshlash va hokazolar haqida xulosalar chiqaradi.

3. Fiziognomika (ilm ul-farosa), ilmning bu tarmog'i odamning tashqi qiyofasiga qarab uning fe'l-atvori haqida xulosalar chiqaradi.

4. Tush ta'biri ilmi (ilm at-ta'bir).

5. Tilsimot ilmi (ilm at-tilismat).

6. Ilmi nayrang (nayranjan).

7. Ilm al-kimiyo. Bu ilm javohir (mineral) moddalardan ularning sonasini yo'qotish hisobiga boshqa moddalar, xususan, oltin yoki kumush olish yo'llarini izlaydi.

Ibn Sino tasnifi bo'yicha matematika fanining asosiy qismlari to'rtta:

1. Sonlar haqidagi ilm – ilm ul-adad.

2. Geometriya – ilm ul-handasa.

3. Astronomiya – ilm ul-hay'at.

4. Ilm ul-musiqa.

Matematika fanlari, shu jumladan, sonlar haqidagi ilm:

a) qo'shish va ayirish san'ati;

b) algebra (ilm ul-jabr va-l-muqabala) kabi shoxobchalarga bo'linadi.

Geometriya fani tarkibiga:

a) er o'lchash yoki topografiya (ilm-ul-misaxa);

b) harakatlantiruvchi kuch haqidagi ilm (ilm al-hiyal al-mutaharrik);

v) mexanika (ilm jarr al-askal);

g) vazn va tarozu tortish ilmi (ilm al-avzan va-l-mavazin);

d) aniq uskunalar haqidagi ilm (ilm al-alat al-juz'iya);

e) optika (ilm ul-manozir va-l-maraya);

j) suvning harakati haqidagi ilm (ilm naql al-miyax) kabilar kiradi.

Astronomiya ilmining tarmoqlariga astronomiya jadvallari va taqvimlar haqidagi sohalar kiradi (ilm ul-zajat va-t-taqavim).

Musiqa ilmining tarmoqlariga ajib asboblar yasash ko'nikmalari haqidagi bilimlar (masalan, argal) kiradi.

Ibn Sino mantiq ilmini fanlar tasnifidan tashqarida, o'z tasnifining so'ngida joylashtiradi. Bu ilmni odam qo'lida uni xatolardan asrovchi

qurol, vosita sifatida ta'riflaydi. Nazariy va amaliy falsafa bilimlarini to'plashda mantiq ilmi qo'l keladi, deb hisoblaydi[391].

X asrdayoq Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalarning asarlarida o'rta asrlar ilmiy taraqqiyoti darajasiga muvofiq keluvchi fanlar tasnifi yaratilganiga qaramasdan, kitoblarning bilim tarmoqlariga mos ravishda taqsimlanishida, o'zaro farqlashda bu bilimlar o'z aksini topmagan edi. Fanlarning ilmiy tasnifi nazariy jihatdan hal etilganiga qaramay kitoblarning aniq va yagona tasnifi yo'q edi. Lekin bu o'lkamiz kitobdorlari Sharq qo'lyozmalarini tasnif qilish va joylashtirishning loaqal umumiy printsiplarini ham ishlab chiqishmagan, degan ma'noni bermaydi. Kitob tasnifining eng muhim printsiplaridan biri musulmon diniy mafkurasi talablariga javob berish edi. Shunga ko'ra muqaddas Qur'on, tafsirlar, hadis to'plamlari, musulmon qonunshunoslik ilmi – fiqh, musulmon ilohiyot ilmi–kalom kabilar bo'yicha kitoblar birinchi o'ringa qo'yilgan. Ulardan keyin tabiat ilmi va gumanitar (insonshunoslik) ilmlari bo'yicha kitoblar joylashtirilgan. Lekin har bir ilm bo'yicha uning ichki tarmoqlari tartibiga doimo amal qilinavermagan. Ilmiy adabiyotdan keyin adabiy-badiiy va bibliografik adabiyotlar joylashtirilgan.

Musulmon madaniy dunyosi kutubxonalarida adabiyotlarni tizimga solish va joylashtirishda, ularning kataloglarini tuzishda, bibliografik asarlar yaratishda asosan tarixiy-ierarxik ajratish printsipiga amal qilingan. Buning ma'nosi shu ediki, kitoblar ular bag'ishlangan fanlarning tarixan sohalarga ajralish tartibiga hamda o'rta asr jamiyatidagi obro'-e'tiboriga qarab tasnif qilingan. Masalan, Sabur binni Ardsherning bizgacha etib kelmagan katalogida mavzu taqsimoti quyidagicha bo'lgan: Qur'on ko'chirmalari (nusxalari), Qur'oni karim tafsirlari va tajvidga oid kitoblar (Qur'oni karimni turli uslublarda o'qish qoidalari), fiqh, namozliklar, meros taqsimoti, diniy mazhablarning ilohiyotga oid kitoblari, umumiy ilohiyotga oid asarlar, diniy-nazariy masalalar yuzasidan bahslar, Muhammad payg'ambar avlodlari yozgan kitoblar, shajaralar (nasabnomalar), filologiyaga oid kitoblar, maqol to'plamlari, grammatika (sarfu nahv), etimologiya, qofiya to'plamlari, she'riy majmualar, latifalar, naqllar (tarixlar), munshaot, tibbiyot, astronomiya,

[391] Qarang: Karimov U.I. Ko'rsatilgan asar, 987, 988, 989-betlar.

falsafa, geometriya (ilmi handasa)[392].

Yirik kutubxonalarda adabiyotni tasniflash, javonlarga joylashtirish, yangi keltirilgan kitoblarni ro'yxatga olish, kitoblarning mavjudligini ko'rsatuvchi ro'yxatlar (katalog) tuzish kabi mutaxassislik vazifalari kitobdorlar va ularning yordamchilari zimmasiga tushar edi.

Kutubxonalarda kitoblar adabiyot tasnifi printsiplariga mos tartibda joylashtirilar edi. Bunda albatta amaliy qo'llanishda qulaylik, kutubxonaning katta-kichikligi kabilar hisobga olingan. Ko'p hollarda kitoblar vaqf mulkiga o'tkazilishida tuzilgan ro'yxatlar (yoki fixristlar) da qanday yozilgan bo'lsa, shunday tartibda joylashtirilgan. Javon va tokchalarga kitoblar yotqizib ustma-ust taxlab qo'yilgan. Kitoblarning javondagi, sandiq, shkafdagi o'rnini ko'rsatuvchi shifr yoki biror belgi uchramaydi. Kitoblarni ularning muqovasiga yozilgan nomi yoki muallifларning ism-sharifi bo'yicha qidirib topilgan va joyiga qaytarib qo'yilgan. Kitobni joylashtirishda ularning hajmi (bo'yi, eni, qalinligi) katta rol o'ynagan.

Savollar va topshiriqlar:

O'rta asr kutubxonalari turlari.

O'rta asr shaxsiy kutubxonalari haqida gapirib bering.

8-§. Kitob savdosi

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida VIII asrdan keyin qog'oz ishlab chiqarishning taraqqiysi kitobat ishi tarmoqlarining rivojiga, qo'lyozma kitoblarni uzluksiz tayyorlash, ularni jamiyatda tarqatish va musulmon madaniy dunyosining xalqaro kitob almashinuvi bozori paydo bo'lishiga keng yo'l ochdi. Bu davrda arab alifbesi asosidagi xattotlik san'ati va muqovasozlik ishi bir qadar o'zgarishlarga uchrab, qo'lyozma kitoblarning qiymati oshdi. Kitob qadimgi davrdan keyin ilk marotaba tovar - muomala ashyosi sifatida savdoga kirdi. Chiroyli bezatilgan, qimmatbaho qo'lyozma kitoblar bilan bir qatorda, arzon baholi kitoblar ham ishlab chiqarila boshlandi. Bularni asosan diniy mazmundagi asarlar, tabiiy fanlar bo'yicha risolalar, falsafa, tarix, adabiyotshunoslik, jo'g'rofiya sohasiga doir ilmiy asarlar, qomusiy va bibliografik xarakterdagi kitoblar tashkil etadi. Xuddi shu davrda Turon-

[392] Qarang: Xalidov A.B. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya traditsiya. M.: Nauka, 1989. S. 251.

Turkistonda qo'lyozma kitoblarni ishlab chiqarish va ularni tarqatish ishi jonlanib kitobning jamiyat hayotidagi o'rni ortdi. Kitob ayirboshlash musulmon mamlakatlari orasida madaniy aloqalarning muhim qismini tashkil etardi. XI asrda yashagan Turonzamin buyuk mutafakkiri Nosir Xusravning (1004 - 1088) bir oz istioraviy ishorat bilan bergan ma'lumotiga qaraganda shoir va olimlarning kitoblari Yaqin Sharqdan Turkistonga e'tiborli savdogarlarning mollariga nisbatan tezroq olib kelingan.[393] Kitoblar bilan savdo qilish uchun har bir katta shaharda kitob bozori bo'lib, bu kitobfurushlik rastalari kitobga so'nggi ishlov beradigan sahhoflarning ustaxonalari yonidan joy olardi. Turkistonda qo'lyozma kitoblar va yozuv qurollari bilan savdo qiluvchilar kitobfurushlar, tojiri kutublar, kitob sotiladigan maxsus joylar esa "rastai kitobfurushon" deb atalgan. O'rta asrlarda dong taratgan Turonzamin kitob bozorlari - Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon, Xo'jand, Urganch, Xiva, Chorjuy singari madaniy markazlarda bo'lgan edi.

Shu bilan birga istalgan bozorda juma yoki haftaning boshqa kunlari kitob sotib olish mumkin bo'lgan.

Mana shunday kitob bozorlaridan biri Buxoroda bo'lib, Ibn Sino bu erda o'zi uchun zarur bo'lgan Arastu (Aristotel)ning "Metafizika" asariga Abu Nasr Forobiy yozgan sharh kitobni sotib olgan edi. Bu haqda u o'z "tarjimai hol"ida quyidagilarni yozadi: "Men "Metafizika" kitobini o'qib chiqib, hech narsa tushunmadim, muallifning maqsadi menga qorong'uligicha qoldi. Har gal kitobni qayta qo'lga olib o'qib, yod olganimga qaramasdan, hech narsa tushunmasdim. Kunlardan birida sahhoflar bozoridan o'tib qoldim. Sotuvchi baland ovozda o'z kitobini maqtar edi. U kitobni menga ham tavsiya qildi. Men unga achchiqlanib javob berdim va o'z-o'zimga dedim: "bu fandan hech qanday foyda yo'q". Sotuvchi esa qattiq turib ma'qullay boshladi: "Ol, bu kitobni arzon beraman, egasi pulga juda muhtoj". Men bu kitobni uch dirhamga sotib olib qarasam bu kitob - Abu Nasr Forobiyning "Metafizika tezislari (sharhlari)" asari ekan. Uyga kelgan zahoti kitobni o'qiy boshladim. Kitobning asosiy mazmuni ravshan bo'lib, barcha qiyin jihatlari oydinlashdi.

Bu holdan nihoyatda xursand bo'lib, ertasi kuni shukrona sifatida

---

[393]Karang: Nasir - i Xusrau. Safar - name (Kniga puteshestviya). Perevod i vstupitelnaya statya E. E. Bertelsa. M _ L. - Akademia, 1933. - s. 16.

kambag'allarga ko'plab tuhfayu-sadaqalar berdim".[394]

Ibn Sinodan keltirilgan ushbu parcha X asrga taalluqli bo'lib, o'sha davrlarda kitob savdosi keng yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Bozorlarda kitob bilan savdo qilish uchun maxsus sahhoflik ustaxonalari bo'lib, bular o'z navbatida kitob do'konlari vazifasini ham o'tagan.

Bularning birga bo'lishi - bu erda faqat yangi ko'chirilgan kitoblargina sotilgan degani emas. To'g'ri, bu erda yangi ko'chirilgan kitoblar ham sotilgan. Kitob savdosi u davrlarda quyidagicha bo'lgan: mahalliy mualliflar va olimlarning yangi asarlari; Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari shoir, tarixchi, faylasuflarning Turkiston shaharlarida xattotlar tomonidan chiroyli qilib ko'chirilgan va sahhoflar tomonidan ma'lum shaklga solinib ko'paytirilgan asarlari bir necha bor qo'ldan qo'lga o'tgan, ta'mirlangan turonzaminlik va xorijiy mualliflarning kitoblari; mahalliy yoki xorijiy savdogarlar karvonlarda uzoq yurtlardan boshqa tovarlar bilan birga olib kelgan kitoblar.

Kitob do'konining sohibi kotiblar bilan shartnoma tuzib, har qanday buyurtma u yoki bu kitobdan nusxa ko'chirish, matnning uringan o'rlarini ta'mir etishi, suqunni to'ldirishi, yo'qolgan varaqlarni tiklashi va kitob uchun yangi muqova tayyorlab berishi mumkin bo'lgan. So'nggisi sharq qo'lyozmalarining muqovasi tez-tez shikastlanish xosligi natijasida ko'proq bo'lgan. Ba'zan buyurtma bilan ishlaydigan kotiblar o'z kasb-korlari bilan bir qatorda kitob savdosi bilan ham shug'ullanganlar.

Butun musulmon dunyosida qabul etilgan qoida - mahalliy kitob ishqibozlari va kitobni qadrlaydigan odamlar tomonidan doimiy uchrashuv joyi sifatida bir kitob do'koni tanlanib, bu joyda adabiy, diniy, kitobat san'ati, kotiblik sohalar bo'yicha turli bahs va munozaralar bo'lib turardi. Bunday joylarda shoir va olimlar, talaba va mudarrislar, ma'lumotli kishilar to'planganlar. Bu xususda mashhur sharqshunos prof. E.E.Bertels bunday yozadi: «...Bu davr adabiy hayotining qiziqarli jihatlaridan biri

---

[394] "Materialo" po istorii progressivnoy obhestvenno-filosofskoy mo'sli v Uzbekistane. Tashkent, «Fan», 1970.- 278 b. Nomi Ibn Sino tomonidan qayd etilgan kitob munosabati bilan Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining tadqiqotchisi, akademik M.M.Xayrullaev shunday yozadi: «Aftidan Forobiyning Arastu «Metafizika» kitobidan kuzatilgan maqsad haqida tushuntirish» asari ko'zda tutilmoqda. Forobiy bu risolasida qisqa va lo'nda shaklda Arastu «Metafizika»sining mohiyatini va vazifasini, metafizika muammolarining tabiatini hamda kitob boblarining mazmunini ko'rsatib bergan (Xayrullaev M. Farabi. Epoxa i ychenie. Tashkent. «Uzbekistan», 1975. S.173). - rus tilida.

adabiyot jamiyatning hamma tabaqalari orasida tarqalganligidadir... XV asrda adabiyotga qiziqish ommaviy tus olgan bo'lib, ...shoirlar ichida ko'pchiligi savdogarlar bo'lib, hunarmand, sozanda, darveshlar, shayx va qalandarlarning ichida ham shoirlar ko'pchilikni tashkil etar edi. ...U vaqtlar bozordagi kitob do'konlari so'z san'ati ixlosmandlarining sevimli joyi edi"[395]. Boshqa bir o'rinda u shunday yozadi: "...qog'ozning narxi baland bo'lib, kitob qimmat turar edi. Lekin shunga qaramay o'rta hol kishilar uchun ham kitob sotib olish imkoni bor edi. Hirot bozorlarida kitob do'konlari bo'lib, adabiyot ixlosmandlari har qanday yangi asarni topishlari mumkin bo'lgan. Bu do'konlar hirotlik shoir va so'z ustalarining yig'iladigan joyi edi.»[396]

Bu an'ana Turonzaminda XX asrning boshlariga qadar davom etgan. Ma'lumki, Qo'qon ziyolilari Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan 1915-1916 yillarda tashkil etilgan noshirlik va kitob savdosi korxonasi "G'ayrat" va "Birlik" noshirlik uylarida tez-tez uchrashib turishgan.

Ba'zi kitobfurushlar kitob to'plamlari bilan shahardan-shaharga ko'chib yurib, kitob oldi-sotdisi bilan shug'ullanganlar va davlatmand ilm-fan homiylariga noyob kitoblarni taklif etganlar. Bunday faoliyat «tojiri kutublik» deb nomlangan. Kitob muxlislari, yig'uvchi-kollektsionerlar kerakli kitoblarni olib kelish sharti bilan vositachi kishilarni topib yollardilar. Misol uchun, Ibn Sino bag'dodlik tojiri kutub orqali falsafiy mavzudagi bir qancha kitoblarni sotib olgan, lekin bu kitoblar uning oldiga Isfahonga keltirilganda ularning mazmuni va qimmatligidan ranjigan edi [397].

Qo'lyozma kitoblarning qimmat baholanishi bejiz emas edi. Asarning muallifi, noyobligi, uning mashhurligi, yoshi va saqlanishi, estetik tomoni: kotibning xati, badiiy bezaklari, shakli va boshqa bir qancha tomonlari kitobning bahosiga ta'sir etgan.

Qo'lyozma devonlarni sotib olganda har bir 50, 100 yoki 1000 bayt alohida qiymatga ega bo'lib, muqova va bezakning bahosi ham alohida

---

[395]Bertels E. E. Literatura na persidskom yazo`ke v Sredney Azii. Sovetskoe vostokovedenie. V, 1948. S. 219.

[396]Bertels E. E. Navoi, M., 1948. S. 28.

[397]Qarang: Xalidov A. B. Materialo` k izucheniyu tvorcheskoy biografii i nauchnogo naslediya Ibn Sino`. (980 - 1037) Pismenno`e pamyatniki i problemo` istorii kulturo` narodov Vostoka, XV godichnaya sessiya LO IV AN SSSR ch. Sh, M, 1981. - S. 45 - 46.

bo'lgan, shu bilan birga kitobning umumiy badiiy bezagi ham e'tiborga olingan.

Ibn Sinoning «Tarjimai hol»idan keltirilgan parchadan ko'rinadiki, X asrda Buxoroda darslik-qo'llanma sifatida ko'chirilgan ilmiy (bu erda falsafiy) kitob nisbatan arzon bo'lib 3 dirham (20 dirham - 1 dinor) turar ekan. Xuddi shu XI asrning yigirmanchi yillarida Bag'doddan Ibn Sino uchun Isfaxonga keltirilgan kitoblar olim tomonidan qimmat hisoblangan. XII asrda Bag'dodda Forobiyning asarlar to'plami 20 dirhamga sotilib, Gippokrat hikmatlarining 4 jildi Galen sharhlari bilan birga 30 dirham turgan[398].

1404 yilda Temur saroyiga kelgan ispan qiroli Genrix II ning elchisi, sayyoh Ryui Gonzales de Klavixoning xabar berishicha, turli mamlakatlardan keltirilgan tovarlarning ko'pligidan, jumladan, kitoblarning ham, Samarqand bozorlarida ularning narxi arzon bo'lgan[399]. 1636-1639 yillarda Eronda bo'lgan Golshtin elchiligining kotibi Adam Olearyning ma'lumotiga ko'ra, qo'lyozma Qur'on Isfaxon shahrida 15-20 va undan ortiq reyxstaler turgan[400]. Yana uning o'z e'tirofiga, ta'kidiga qaraganda, 60 tuman 460 reyxstalerga teng bo'lib, shunga ko'ra Qur'on 2 tuman va undan xiyol baland turgan. A. Oleariyning shohidligiga ko'ra Mirxondning 7 kitobdan iborat bo'lgan «Ravzatus safo» nomli asarining narxi 26 tumanga teng bo'lib, boshqa narsalar bilan qiyoslaganda bu narx ancha yuqori edi[401].

Hamma vaqt, hamma mamlakatlar uchun doimiy narxning bo'lishi mumkin bo'lmagan hol edi. Lekin, oddiy kitobning narxi bir dinorning to'rtdan biri va bir dinor atrofida bo'lib, ilmiy asarning bahosi badiiy kitobning narxiga qaraganda bir muncha past baholangan.

Chiroyli bezatilgan kitoblarning bahosi ancha yuqori turgan. Kitobning bahosi bir necha xil sharoit haddan ziyod kuchga kirganda

---

[398] Kalidov A.B. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya traditsiya. M. «Nauka». 1985. s. 158.

[399] Ryui Gonzales de Klavixo. Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Temura (1403-1406). M. «Nauka». 1990. S. 169.

[400] Olearty A. Podrobnoe opisanie puteshestviya politicheskogo posolstva v Moskoviyu i Persiyu v 1633, 1636 i 1639 gg., sostavlennoe sekretarem posolstva Adamom Oleariem. Perevod s nem. L.Barsova. M., 1870. S. 792.

[401] O'sha erda. 816 bet.

arzonlashgan: o'ta osoyishtalik davrida, yoki o'zaro urushlar bo'lib turgan vaqtda, ijtimoiy qiyinchiliklar - ochlik, haddan ziyod baland soliqlar, xalq qo'zg'olonlari yoki ajnabiy davlatlarning bosqini davrida.

O'rta asrlarning tarixiy manbalarida kitob savdosiga oid ma'lumotlar nihoyatda oz. Va bu tushunarli bo'lib, kitob savdosi, shahardagi kitob do'konlarining soni, kitobning narxi, uning ulgurji va chakana bahosi kundalik va doimiy ishlardan bo'lib, davr kishilari e'tiboridan chetda qolgan. Shuning uchun ham kitob savdosi, do'konlarning ahvoli, kitobning narxi haqidagi ma'lumotlarni tarixiy, memuar, maktubot va badiiy kitoblardagi adabiyot parchalaridan, shu bilan birga kitob egasi, xaridorlarning kitob varaqlariga qo'ygan belgilaridan olish mumkin.

Kitobfurushlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, kitob bozori va do'konlari haqida XIX asrga oid manbalarda bir muncha ma'lumotlar bor. Turonzamin kitob bozorining umumiy ahvoli haqida rus istilosidan (1865) oldin va undan keyin mustamlaka Turkistonda, Xiva, Qo'qon va Buxoro xonliklari xududida bo'lgan rus, Ovrupo sharqshunoslarining xabarlaridan bilamiz.

1812-1813 yillarda Turkistonda sayohatda bo'lgan Mir Izzatullaning yozishicha, Buxoro shahrining markazida savdo inshootlarining atrofida ko'plab kitobfurushlar joylashgan ekanlar. Ajoyib kitob bozori XVII asrda ashtarxoniylar sulolasidan bo'lgan Abdullaxon tomonidan qurilgan uch gumbazlik bozorning tagida bo'lib, u «Abdullaxon timi» deb nomlangan. Bu ulkan imoratning bir qismini o'ttizdan ortiq kitobfurushlar egallagan edi. Ularning har biri kuniga 50 dan ortiq qo'lyozma kitoblarni do'konidagi tokchaning ustki va quyi qismlariga joylashtirar edi. Buxoro bozorining yonida katta karvonsaray joylashgan bo'lib, ayni paytda u kitob ombori ham edi. Bu erga savdogarlar butun musulmon madaniy dunyosining hamma o'lkalaridan kitoblar olib kelganlar[402].

Ingliz sayyohi Aleksandr Borns 1833 yili Buxoro kitob bozoridan va yaqin atrofdagi qishloqlardan bir qancha forsiy va turkiy tillardagi qadimiy kitoblarni sotib olgan. Bu kitoblar orasida X asrning mashhur tarixchisi Narshaxiyning «Tarixi Narshaxiy» asari ham bo'lgan.

«Bu o'lkaning tarixi yoritilgan «Tarixi Narshaxiy» deb nomlanuvchi qo'lyozmada shunday yozilgan, - deydi bu kitob haqida A.Borns. - Hozirgi

[402]Qarang. Otro`vki iz "Puteshestviya Mir Izzet Ullo` v Srednyuyu Aziyu». Svodno`y tekst po angliyskomu i frantsuzskomu perevodam. Perevod i primechaniya Yu.N. Sokolova. Trudo` SAGU. Novaya seriya Istoricheskie nauki. Kn. 14. Tashkent, 1957. S. 201.

poytaxt shahar qadimda har jihatdan ustun bo'lib, minglab rabotlar, ya'ni qishloqlardan tashkil topgan... Men bu asarni Londondagi Sharq tillaridan tarjima etuvchi komitetga topshirdim»[403].

XIX asr o'rtalaridagi kitob savdosi, ular turli tumanligi haqida mojor (venger) sharqshunosi H.Vamberi xabarlariga tayangan holda xabar berish mumkin. U Turkistonda bo'lgan mahalda shahar va viloyatlardagi maxsus kitob bozorlarini ko'rgan. Buxorodagi shunday kitob bozorlaridan birida esa 26 kitob do'konini sanagan. H.Vamberining kuzatishicha, «Kitob sotuvchilarning uyi kitob omborlari bo'lib xizmat etar», u erda kitob xazinasi bo'lib bu tarixchi va filologlar uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etar edi. Vamberi o'zini sezdirmay, Ovrupoliklar borishi mumkin bo'lmagan joylarga kirish maqsadida darvesh qiyofasida sayohat qilgan.

Turkistonda unga sotib olish mumkin bo'lgan nodir qo'lyozmalar uchragan, lekin o'z qiyofasini oshkor qilish xavfi bunga imkon bermagan. Keyinchalik u Vatani Vengriyaga qaytib borib, bu yo'qotishlardan qattiq qayg'urgan edi. «Qo'lga kiritishim mumkin bo'lgan kitoblar haqida eslaganimda, yuraklarim qon bo'lib ketadi, chunki ular Sharqni tadqiq etishda ko'plab bo'shliqlarni to'ldirishi mumkin edi»[404], - deb yozgandi olim.

Turkistondagi "eng muhim kitob bozori" - Buxoro kitob bozori haqidagi ma'lumotlarni 1897 yilda samarqandlik arxeolog va sharqshunos V.L.Vyatkin nashr etdi[405]. Uning qayd etishicha, ko'pchilik kitob sotuvchilar sahhoflik bilan ham shug'ullanganlar. Bu davrda xattotlik san'atining shuhrati pasayib, xattotlar harf teruvchi mashinalar bilan raqobat qilolmas edilar. Xattot-kotib bozor uchun ishlamay, biror-bir buyurtmani bajarsagina, uning mehnatiga yaxshi haq to'langan, xolos.

«Savdogarlar uchun haqiqiy xazina shunda ediki, - deb yozadi V.L.Vyatkin, - o'n yillab kitob yiqqan biror-bir kitobdor vafot etsa, kutubxonasi nodon merosxo'rga qolardi. Bu vaqt kutubxonani taqsimlash

---

[403] Puteshestvie v Buxaru: rasskaz o puteshestvii, predprinyatom v Kabul, Tatariyu i Persiyu v 1831, 1832, 1833 godax leytenantom ost-indskoy kompaneyskoy slujbo` Aleksandrom Burnsom, chlenom korolevskogo geograficheskogo obhestva. Izdanie I.V. Golubkova, deystvitelnogo chlena russkogo geograficheskogo obhestva. M, 1848, ch.II. S. 492.

[404] Vamberi A. Puteshestvie po Srednev Azii. Opisanie poezdki iz Tegerana cherez Turkmenskuyu step po vostochnomu beregu Kaspiyskogo morya v Xivu, Buxaru i Samarkand v 1863 godu. Spb, 1865. S. 93.

[405] Vyatkin V.L. Buxarskiy knijno`y ro`nokG`G`Turkestanskie vedomosti,1897. №61

uchun savdogarlar kelar, kutubxona arzon bahoda sotilib, qo'ldan-qo'lga o'tib undan hech qanday iz qolmasdi»[406].

Adabiy-badiiy majmua, tarixiy asarlar, astronomiya, geografiya, tabobat va boshqa fanlarga oid kitoblarning asosiy xaridorlari, Vyatkinning ta'kidlashicha, boshqa joydan kelgan afg'on, fors, armani, turklar bo'lib, bular o'z navbatida kitoblarni o'zga mamlakatlardagi kutubxonalar va qiziqqan kishilarga sotar edilar.

Bahosi yo'q nodir qo'lyozma merosning katta qismi - kitoblar, davlat aktlari, rasmiy, huquqiy, vaqf hujjatlari, xo'jalik ishlarini qayd etuvchi ish qog'ozlari, mahalliy xalqlarning meros va oila nikoh aloqalariga doir ma'lumotnomalar, Turkiston hukmdorlariga oid hujjatlar, bular hammasi rus armiyasining Turkistonni bosib olishi davrida musodara etilgan yoki sotib olingan va Rossiya imperiyasining o'sha vaqtdagi poytaxti Sankt-Peterburgga olib ketilgan. "...Bizning taxminiy hisob-kitobimizga qaraganda, hammasi bo'lib 50 yildan ortiqroq (1865 yildan to 1917 yilgacha) vaqt ichida jamoat va shaxsiy kitob saqlaydigan joylardan ko'plab qo'lyozmalar aniqlangan va to'plangan, ularning miqdori 3000 nusxa va undan ham qo'proqdir. Ular orasida ilmda g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan qo'lyozmalarning eng noyoblari bor," - deb yozadi tarixnavis-olim prof. B.V.Lunin[407].

Turkiston xalqlari qo'lyozma merosining chet ellarga oqib ketishida kitob dallol-kontragentlarining faoliyati ham sabab bo'lib, ular chet ellik badavlat kishilarning topshirig'i bilan bozorlarda noyob ilmiy va badiiy asarlarni sotib olganlar. XIX asr va XX asrning boshlarida Rossiya va G'arbiy Evropa kitob fondlariga tushgan Turkiston qo'lyozmalarining kattagina qismi Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Chorjo'y, Xo'jand va Shahrisabzlik mahalliy dallol-kontragentlar qo'lidan o'tgan. Bu qo'lyozmalar faqat Turonzamindagina yozilgan bo'lmay, balki o'rta asrlarda Turkiston sarhadidan tashqari bitilgan, shuningdek, Yaqin Sharq va O'rta Sharq mamlakatlarida, Hindiston va Turkiyada yozilgan edi. .

Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, o'rta asrlarning boshidan oyog'igacha Turonzaminda ichki kitob savdosi va xalqaro kitob ayirboshlash katta ko'lamlarda hamda uzluksiz ravishda amalga oshirila

---

[406] O'sha erda.

[407] Lunin B.V. Srednyaya Aziya v dorevolyutsionnom i sovetskom vostokovedenii. Tashkent: Fan. 1965. S. 179.

bergan. Kitob savdosida jadallik faqatgina urush, nizolar, vayronagarchilik paytlaridagina susaygan. Turkiston kitobfurushlari tomonidan dunyo kitobat madaniyatida ma'lum bo'lgan barcha shakllar va usullar keng istifoda etilgan. Bular doimiy, muqim do'kon tutish, kitob tashkachiligi va tojiri kutubchilik, tutilgan kitoblar bilan savdo qilish, noyob, qadimiy kitoblar savdosi (o'z qimmatini yo'qotmagan ilmiy kitoblarni, ta'mirlangan, tutilib uringan kitoblarni xarid qilib foydasiga sotish), ko'tarasiga va chakana kitob savdosi va boshqalardir. Yaxshi kitob narxi doimo yuqori bo'lgan. Lekin ba'zan osoyishta, to'q, nisbatan farovon zamonlarda shaharlardagina emas, qishloqlarda ham kitob aholi turli qatlamlari uchun holi qudratga loyiq bo'lib qolardi. Chunki kitobat ishi shunday vaqtlarda ravnaq topardi. Kitobga talab, albatta, kitobning narxi ham urush, ko'zg'olonlar, ochlik, qahatchilik, o'lat, vabo kabi ijtimoiy bo'zali vaqtlarda pasayib ketardi. Kitob savdosi ishi aslo tasodifiy odamlar qo'lida bo'lmagan. Bu ish bilan ma'rifatga, ma'naviyat va madaniyat ishiga sadoqatli kishilar shug'ullanishgan. Albatta, yuksak darajada mutaxassis, kasb egasi sifatida Turonzamindan tashqari ellarda ham nomlari mashhur bo'lgan kitob savdogarlari - kitobfurushlari ko'p bo'lgan. Shunga qaramay, hoshiyalarida kitobfurushlarning belgilari qayd etilgan kitoblar juda siyrak uchraydi. Shu tufayli ayrim istisnolardan tashqari kitob savdogarlarining nomlari bizgacha deyarli etib kelmagan. Ammo bu hol XIX asr ikkinchi yarmi - XX asrning boshlarida faoliyat qilgan qo'lyozma va toshbosma kitoblar savdogarlariga tegishli emas. Ularning nomlari ko'p holatlarda toshbosma kitob nashrining buyurtmachisi, nashr uchun mablag' bergan homiy sifatida yoki to'g'ridan-to'g'ri kitobfurush sifatida kitoblarning bosh sahifalarida yozilgan. Bundan tashqari kitob savdogarlari haqidagi ma'lumotlar mustamlaka davri arxiv hujjatlarida, xotiralarda uchraydi.

9-§. Bibliografiya yoxud kitoblarni zikr etish an'analari. Muhim bibliografik asarlar

Fixrist – katalog

Turonzaminda kitoblar hisobini olib borish tarixan birinchi bor yirik davlat (sulolaviy), saroy kutubxonalari, madrasa va masjidlar qoshidagi kutubxonalarda boshlandi hamda bu jarayon mazkur joylarda olib borilgan maxsus kutubxonachilik-bibliografiya faoliyatida o'z aksini

asarlari qo'lyozmalarini tavsif etish jarayonida Sharifjon Maxdum bu shaxslarning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarga keng to'xtaladi, asarlarini tahlil etadi. Masalan, katalog muallifi "Zichi Ko'ragoniy"ning nodir qo'lyozmasi haqida fikr yuritar ekan, o'quvchilarni Ulug'bekning inson, olim va davlat arbobi sifatidagi fazilatlari bilan tanishtiradi, rasadxona qurilishida Ulug'bek bilan birga ishtirok etgan olimlardan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Mavlono Ali Qushchilar haqida hikoya qiladi, astronomik jadvallar to'g'risida ma'lumotlar keltiradi.

Sharifjon Mahdum Sadr Ziyoning olim va ijodkorlar, kitobat ustalariga chuqur hurmat va muhabbat hissi bilan yo'g'rilgan mazkur asari 300ga yaqin qo'lyozma kitob haqida ma'lumotni o'z ichiga oldi.[411]

* * *

Shunday qilib, bibliografiya kitoblar haqida ma'lumot beruvchi fan sifatida, kitoblarni hisobga olish, ma'lum ilm sohasi, biror olimning ijodiy faoliyatiga baho berish bilan bog'liq ijtimoiy zarurat taqozosiga ko'ra shakllandi. Darhaqiqat, XI–XII asrlar mobaynida musulmon dunyosida arab, fors va turkiy tillardagi ilm-fan va badiiy ijod shunday pog'onaga etdiki, u inson bilimlarining turli sohalarida ma'lum xulosalar chiqarish zaruratini tug'dirdi. Bu jarayon, o'z navbatida, ilmiy adabiyotning yangi janrlari, qo'lyozma kitoblarning boshqa ko'rinishlarining shakllanuvida ham namoyon bo'ldi. Bular qomuslar, umumiy yoki muayyan bir sohaga oid qo'llanmalar, biobibliografik va bibliografik lug'at va qo'llanmalar, tazkiralar, olimlarning ular mashg'ul bo'lgan ilm sohasiga qo'shgan hissasining bahosi, asarlarining tavsifi yoki faqat ro'yxati berilgan hasbihollaridir. Bu kabi kitoblar qo'llanma, ma'lumot beruvchi manba sifatida olimlar, adabiyotchilar va davlat xizmatchilari uchun nihoyatda zarur edi. Bibliografik xarakterdagi universal va bir sohaga oid spravochniklar, qomus hamda tazkiralar sof ilmiy asarlardan farqli o'laroq qisqa, sodda va qiziqarli bayoni bilan ham barcha ijtimoiy tabaqalar vakillarining didi va bilim doirasiga mos kelar edi.

Bu davrga kelib Sharq olimlari (tabiblar, faylasuflar, tarixchi va filologlar, geograflar)ning, fiqh ilmining yirik vakillari va adabiyot

[411] Bularning ichida ikki va undan ortiq asar nomlarini jamlagan qo'lyozmalar oz emas. Masalan, Sadr Ziyoning shaxsiy kutubxonasidagi "Majmuatur-rasoili hukamo" nomli XVII asrga oid bir qo'lyozma turli faylasuflarning jami 107 asaridan iborat. Ulardan 36 tasi Ibn Sino, 17tasi Forobiy va h.k. qalamiga mansub.

namoyandalarining kulliyk biografiyalari yaratilgan edi.

Ibn Yaqutning yuqorida zikr etilgan "Irshod ul-adib" (u 1040 olim biografiyasi majmuidan iborat) hamda tavsif etilayotgan barcha o'lka va joylarda istiqomat qilgan mashhur olimlar asarlari nomlarining ro'yxati ilova qilingan "Mujam ul-buldan" ("Mamlakatlar majmui"), Ibn an-Nodimning X asrgacha arab tilida barcha asosiy asarlar tavsifini o'z ichiga olgan "Kitob ul-fixrist" kabilarni bibliografik mazmundagi asarlar sirasiga kiritish mumkin. Jumladan., "Kitob ul-fixrist"da arab yozuvi tarixining dastlabki uch asri mobaynida yaratilgan hamda qo'lyozmalari bizgacha etib kelmagan minglab asarlar haqida ma'lumot beriladi.

Har qanday ilmiy tadqiqotni olib borish sharti sifatida ma'lum soha bo'yicha yaratilgan mavjud adabiyot bilan tanishmoq zarurati olimlarni o'z salaflari asarlarining keng va batafsil ro'yxatini tuzishga da'vat etar edi. Bu jarayon tarixiy, tabiiy fanlar sirasiga kiruvchi sohalarga oid asarlar, yirik tarixiy-jo'g'rofiy va tarixiy-biografik qomuslar (o'lka, shahar va joylar tarixi, tazkira va biobibliografik lug'at tipidagi asarlar), muallifning ustozi yoki ustozlari, biron mashhur salafi haqida esdaliklar yaratishda muhim edi. Mazkur asarlar ma'lum davrning turli sohadagi kitoblar doirasini, kitobxonlik darajasini belgilash, kutubxonalar va kitob do'konlari boyligini aniqlashga yordam beruvchi qimmatli ma'lumotlarga nihoyatda boydir.

Beruniy – bibliograf

Xorazmlik buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ning bibliografik faoliyatini o'z salaflari asarlarining shunchaki "o'zi uchun" ro'yxatini tuzishdan iborat ish deb emas, balki mustaqil ijtimoiy-amaliy hamda ilmiy qimmat kasb etgan yirik yo'nalish edi deyishga to'la haqlimiz. Uning 1036 yili tuzgan va bizgacha noyob Leyden qo'lyozmasi orqali etib kelgan Muhammad Ibn Zakariya ar-Roziy asarlarining "Fixrist"i o'z davrining mukammal va nihoyatda muhim bibliografik manbasidir. "Fixrist"ning asosiy qismini buyuk faylasuf, kimyo, tibbiyot va tabiiy-ilmiy fanlarning yirik namoyandasi Abu Bakr Muhammad ibn Zakariya ar-Roziy (865–925) asarlarining umumiy tavsifini tashkil etadi. "Fixrist"ning ikkinchi qismi Beruniyning 1036 yilga qadar yaratilgan o'z asarlari ro'yxatidan iborat. Mazkur asar ar-Roziy ilmiy merosi haqida ikki asrdan ortiqroq davr mobaynida, ya'ni tarixchi Ibn Abi Usaybi'a

(1203-1270)ning "Uyunu al-anbiya" ("Payg'ambarlar haqida manbalar") fixristi yaratilgunga qadar etakchi manba vazifasini o'tab keldi. Ibn Abi Usaybi'a buyuk olim asarlari ro'yxatini yanada to'ldirdi va ularning sonini 236 taga etkazdi.[412]

Beruniy "Fixrist"ida ar-Roziyning 184 asarining nomi keltirilib, fan sohalari bo'yicha ma'lum tartibda joylashtirilgan. Birinchi o'rin kimyoga oid asarlarga berilgan bo'lib, ularning soni yigirma bittadir.[413] "Fixrist"da ikkinchi o'rinda kelgan tibbiyotga oid asarlar ro'yxatida nomlari zikr etilgan 56 asarning ko'pi bizgacha etib kelmagan. Ular orasida ar-Roziyning o'z davri tib ilmining qomusi bo'lmish va "al-Xavi" nomi bilan yuritiluvchi asosiy asarining tavsifi ham borki, bu tavsifga ko'ra asar hajm jihatdan Ibn Sinoning mashhur "Tib Qonunlari"dan ham kengroq bo'lgan. So'ng "Fixrist"da falsafa, matematika, falakiyot, fizika (kinematika va magnetizmga oid kitoblar), meteorologiya sohalariga oid bo'limlar keladi va ularga mos asarlar ro'yxati beriladi. "Fixrist"dan ma'lum bo'lishicha, ar-Roziy yana anatomiya, fiziologiya, jo'g'rofiya, geologiya va mineralogiya muammolarining tadqiqi bilan ham shug'ullangan.

"Fixrist"ning Beruniy asarlari ro'yxatidan iborat bo'lgan ikkinchi qismida 113 asar nomi keltirilgan. "O'z ishimni Abu Bakr (ar-Roziy)

---

[412]Qarang: Bulgakov A.P. Jizn i trudo` Beruni. T.: «Fan», 1972, 285-bet.

[413]Bizgacha etib kelgan ar-Roziyning kimyoga oid to'rt asaridan oxirgisi "Kitob sirr al-asror" kitobidir. Uning qo'lyozmasi 1950 y. Toshkentda Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari fondida sharqshunos olim Ubaydulla Karimov tomonidan topildi. 1957 y. olim qo'lyozmaning tadqiqi va izohli tarjimasini uning faksimil nusxasi bilan birgalikda nashr ettirdi. O'zbek olimi mazkur asarning ar-Roziyning boshqa asarlari bilan ilmiy muqoyasasi asosida qomuschi olimning kimyo faniga qo'shgan ulkan hissasini quyidagicha baholaydi: "Ar-Roziy o'rta asr sharqining eng yirik ximiklaridan biridir. U kimyo ilmi tarixida birinchi bo'lib moddalar (mineral, o'simlik, hayvonot) ning hozirda keng ma'lum bo'lgan klassifikatsiyasini tuzdi. "Kitob sirr al-asror" ar-Roziyning asosan shaxsiy mustaqil kuzatuvlari natijalarining tavsifidan iborat bo'lib, o'z davri alximiklarining odatdagi asarlaridan, hatto muallifning bo'lak o'z asarlaridan ham tubdan farq qiladi. Unda Roziy o'z davri uchun mutlaq yangilik bo'lgan fikr, ya'ni kimyoviy operatsiyalarni tezlatish fikrini ilgari suradi hamda kimyo ilmi tarixida birinchi marta kimyoviy reaktsiyaga kirishib bo'lgan moddalarni asl holiga keltirish mumkinligi haqida gapiradi. Roziy o'zining bu ilmiy xulosasiga to'liq ishongan holda, bunga amaliy yo'l bilan erishmoqqa intilar edi. Bularning bari Roziy alximik emas, balki tom ma'nodagi ximik olim bo'lganidan dalolat beradi". (Karimov U.I. Neizvestnoe sochinenie ar-Razi "Kniga tayno` tayn". Tashkent. Izd-vo AN UzSSR, 1957, 71-72 - betlar).

asarlari ro'yxatini tuzishdan boshlaganimdek, o'zim 427 (1036) yil oxirigacha yozib tugallashga muyassar bo'lgan kitoblarim nomlari bilan tugallayman"[414], –deb yozadi olimning o'zi. Beruniy o'z asarlari nomini mavzu bo'yicha o'n uch guruhga bo'lib ko'rsatadi (ammo bu printsipga boshdan oxir amal qilinmagan). Guruhlar ichida asarlar nomini joylashtirishda esa na alifbe va na xronologik izchillikka rioya qilinmaydi. Dastlabki guruhga (u hech qanday nomsiz to'g'ridan-to'g'ri boshlangan) 18 asarning nomi kiritilgan bo'lib, ular falakiyot (astronomiya) fanining umumiy masalalari hamda astronomik jadval (zij)larga bag'ishlangan; ikkinchi guruh geodeziya va geodezik astronomiya bilan bog'liq 15 asar nomini jamlagan. Uchinchisi arifmetikaga oid 8 asar, to'rtinchisi astrologik astronomiyaga oid 4 asar, beshinchi guruh usturlob va uni ishlatish usullariga oid 4 asarni o'z ichiga olgan. Keyingi oltinchi va ettinchi guruhlar har biri beshtadan asar nomini jamlagan bo'lib, ular vaqtni belgilash yo'llari hamda falak jismlaridan kometa va meteorlarga bag'ishlangan. Sakkizinchi guruhga asosan geometriya, meteorologiya, fizika va astronomiyaga bag'ishlangan 12 asar, to'qqizinchisiga faqat astrologiya muammolariga oid 7 asar kiritilgan. So'nggi asarlar turkumida Beruniy "... ayrim astrologik kontseptsiyalarning yo faqat tavsifiy yoki tanqidiy bahosini beradi"[415]. O'ninchi guruh tarkibini Beruniyning 13ta tarjima asari tashkil etadi. Bular sharq halqlarining "Vomi va Uzro haqida qissa", "Qosim as-Surur va Ayn ul-hayot", "Urmuzdiyor va Shahriyor", "Homiyonning ikki buti", "Dodmoh va Kramiduxt", "Nilufar" va h.k. kabi qator qissa va afsonalarning arab tiliga tarjimasidir. O'n birinchi guruhda diniy aqidalardan iborat 6 asarning nomi zikr etiladi. Beruniy sarlavhada yozishicha, o'n ikkinchi guruhdagi asarlarning qo'lyozmalari va hatto musavvadalari ham yo'qolgan.[416] Ularga misol sifatida olim asosan falakiyot fanining turli muammolariga bag'ishlangan 5 asar nomini keltiradi. Nihoyat, so'nggi o'n uchinchi guruhda, Beruniy fikricha, o'z ustida ishni davom ettirishni, ya'ni to'ldirishni talab qilgan asarlar nomi keltirilgan.

"Fixrist"ga kiritilgan Beruniy asarlarining 27 tasi olimning Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl ul-Masihiy va Abu Ali Hasan ibn Ali Jiliy kabi

---

[414] Beruni. Mineralogiya, M.: izd-vo AN SSSR, 1963, 285-bet.

[415] Bulgakov P.G. Jizn i trudo` Beruni, 301 bet.

[416] O'sha erda, 30 bet.

ustozlari, o'quvchilari yoki do'stlari bilan birgalikda yaratilgan.

Beruniy asarlariga o'ziga xos qaydlar ham beradi. Ularda muayyan asarning yozilish sabablari bayon etiladi, asar kimning buyurtmasiga ko'ra yozilgani, kimga bag'ishlangani haqida xabar beriladi. Ana shunday qaydlardan birida Beruniy yozadi: "Men al-Xorazmiy jadvaliga sharh tuzdim hamda uni "Foydali so'roqlar va to'g'ri javoblar" dedim. 250 varaq. Tabib Abu Talh bu masala yuzasidan e'tirozga loyiq asar yozdi. Javoban men "Ko'rgazmali isbotlar va hisoblar orqali al-Xorazmiy jadvallariga nisbatan xato aybnomalarning inkori" nomli kitobimni yozdim. U 350 varaq".

Boshqa qaydida olim ta'kidlaydi: "Ushbu masala to'g'risida Abul-Hasan al-Axvaziyning kitobini ko'rdim. Unda muallif al-Xorazmiyga qarshi fikr aytgan. Bu esa meni har ikkovlarini kelishtiruvchi kitob yozishga da'vat etdi. U 600 varaq". "Fixrist"da Beruniyning ushbu kitobi "Abul-Hasan al-Axvaziy va al-Xorazmiy qarashlari orasida dalolatchilik" deb nomlangan.[417]

Bulardan farq qiluvchi qaydlar ham uchraydi. Mana misollar: "Habash jadvallariga qo'shimcha" kitobini tuzdim. Kitobda uning xatolarini tuzatdim. Uning uchdan biri tugadi. 250 varaq." Yoki "Arkand jadvalidagi xatolarni tuzatdim va uni to'g'ri bayon etdim. Hindcha atamalar asl holida bo'lganligi uchun avvalgi tarjimasi tushunarsiz edi". Yana bir misol: "Men "Ibn Qaysumning tajribalari va izohlari haqida" nomli kitob tuzdim. U o'z darajasini bilmay, manmanlik havosiga berilib, o'zining nodonligini va falakiyot ilmida bilimsizligini fosh etgan edi. Mening bu kitobim 100 varaq".

Beruniy o'z asarlariga qayd (annotatsiya) berishdan tashqari, ba'zan kitoblarning ma'lum mavzu yoki ilm sohasiga oidligini ham qayd etib boradi. Masalan, uning tarixiy-etnografik xarakteridagi fundamental "Hindiston" asarining 12 va 14 boblari sof bibliografik xarakterdadir. Bulardan birinchisi hind tilidagi falsafiy va diniy adabiyot ko'zgusiga bag'ishlangan, ikkinchisida esa hind olimlarining falakiyot (astronomiya) ga oid asarlari haqida gap boradi.

Rang-barang bibliografik asarlar

XII asrdan turonzaminlik mashhur tarixchi Abdul Hasan al-

[417] "Fixrist"dan keltirilgan barcha ma'lumotlar A.M. Belenitskiyning "Ocherk jizni i trudov Beruni" (Beruni. Mineralogiya. M., izd-vo AN SSSR, 1963) maqolasidan istifoda etilgan.

Bayhaqi tomonidan 1158–1169 yillar oralig'ida yaratilgan "Tatimma "Sivan al-hikma" ("Hikmatlarni saqlovchilar"ga qo'shimchalar") nomli nihoyatda qimmatli qomusiy asar ham bizgacha etib kelgan. Bu qo'shimchalar Sulaymon bin Tohir bin Bahrom as-Sijoziy (as-Sijistoniy) ning "Hikmatlarni saqlovchilar" nomli tadqiqotiga tegishli bo'lib, unda Yaqin va O'rta Sharqda yashab o'tgan III mashhur olimning hayoti, faoliyati va tadqiqotlari to'g'risida ma'lumot keltiriladi.[418]

Shu asrning o'zida as-Sam'oniy "Kitob ul-ansob" nomli nihoyatda keng "Tazkiratul-mashoyix" tipidagi bibliografik spravochnik tuzadi va unda to'rt mingdan ortiq din arboblari haqida xabar beradi. Bu ro'yxatga fors-tojik mumtoz adabiyotining asoschisi Abu Abdullo Rudakiy nomi tasodifiy ravishda kirib qolgan. Ma'lumki, u diniy ilmlar bilan maxsus shug'ullanmagan.

Muhim bibliografik lug'atlar qatoriga atoqli turk olimi, arab yozuvidagi kitobat bilimdoni Kotib Chalabiy Mustafo (taxallusi Hoji az-Zunnun Xalifa)ning XVII asrda yaratilgan "Kashf az-zunnun" (boshqacha nomi "Kitob va fan nomlaridagi shubhaning bartaraf etilishi") asari kiritilmasa, u sakta bo'lib qolishi shubhasizdir. Chunki bu tadqiqotda alifbe tartibida joylashtirilgan 15007 arab, fors va turkiy tillardagi asarning tavsifi keltirilgan. Boblarda o'tmish shoir, olim va din arboblarining asarlari fan sohalariga ko'ra taqsimlangan. Biografik ma'lumot nisbatan qisqa bo'lib, ular odatda muallifning ismi-sharifi, lavozimi, kasbi-kori yoki unvoni, tavallud va vafot yillari, kelib chiqishi kabi ma'lumotlar bilan cheklanadi. Haji Xalifaning bu asari haqli ravishda sharq madaniyatining o'ziga xos noyob yodgorliklaridan biri hisoblanadi. U hozirga qadar sharqshunoslar uchun o'tmish yozma yodgorliklari yoki ularning muallifi haqida muhim ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilmoqda.[419]

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akakdemiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida bibliografik mazmundagi bir qancha qo'lyozma kitoblar saqlanadi. Ular orasida "Shayxur rais asarlari ro'yxati" – Abu Ali Ibn Sino kitoblariga bibliografik ko'rsatkich

[418] Qarang: Bagirova S.G. Sochinenie "Tatimma "Sivan al-xikma" al-Bayxaki kak obrazets arabskovekovogo entsiklopedicheskogo spravochnika. Tashkent, Fan, 1987. – 239 bet.

[419] Haji Xalifaning mazkur asari XIX asr o'rtalarida nemis olimi G. Flyugel tomonidan lotin tiliga tarjima qilinib nashr etilgan. Asarning ikki nusxasi O'zbekiston RFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanib kelayotir, inv. № 2537 va 2640-1.

(ja'mi 142 asar nomi ko'rsatilgan) 1664 yilda qo'chirilgan bo'lib, muallifi noma'lum.[420] "Olimlarning tarjimai xoli" deb nomlanuvchi qo'lyozma musulmon teologiyasi bo'yicha bibliografik adabiyotlar ko'rsatkichi bo'lib muallifi Muhammad binni Sulaymon.[421] Yana bir asar "Toyifalari va asarlarining soni bo'yicha olimlarning tarjimai xoli" bo'lib, Sayyid Abdurahmon Ashraf Rumiy qalamiga mansub.[422] Asar 1738 yilda tugatilgan bo'lib, ilmiy adabiyotlarning biobibliografik ko'rsatkichidir.

Tazkiralar

Musulmon madaniy dunyosi xalqlarining badiiy ijodiyoti hamda kitobat tarixida alohida tazkira janri va shu nomdagi qo'lyozma kitob tipini tashkil qilgan o'ziga xos asarlar turkumi ajralib chiqdi. Ularning mundarijasini mashhur shaxslar (ko'proq shoirlar, kitobat san'ati ustalari, diniy arboblar va umuman adabiy ijodga u yoki bu tarzda aloqasi bo'lgan shaxslar) haqida biografik ma'lumotlar to'plami tashkil etadi. Mazkur axborotga xabar berilayotgan shaxs qalamiga mansub turli janrdagi asarlar, devonlar (agar shoir devon sohibi bo'lsa), asarlardan namunalar, nihoyat, uning qo'li bilan ko'chirilgan kitoblar haqidagi ma'lumotlar ham ilova qilinadi. Tazkiranavis xabar berilayotgan shaxsning xattotlikdagi va umuman kitobat san'ati bilan bog'liq faoliyatidagi yutuqlariga ham alohida e'tibor qaratgan, shuningdek, uning ayrim asarlarining adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan bahosini bergan. Sharqshunos olimlar tazkiralarning uch xil ko'rinishi haqida so'z yuritadilar. Bular sof adabiy tazkiralar yoki " Tazkiratush shuaro"lar, shayx va avliyolarga bag'ishlangan tazkiralar – "Tazkiratul mashoyix" yoki "Tazkiratul avliyo"lar hamda xattotlar va kitobat ishi bilan bog'liq boshqa san'atkor-usta (musavvir, lavvoh, naqqosh, sahhof)lar xaqidagi tazkiralardir.

"Tazkiratul xattotin" deb nomlangan so'nggi tipdagi tazkiralarning maqsadi o'tmish va zamondosh kitobat san'ati namoyandalarining hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarni jamlashdan iborat. Mazkur guruh manbalari orasida XVI asr xattoti Qozi Ahmad Qumiyning "Xattotlar va musavvirlar haqida risola" nomi bilan shuhrat topgan asari bu kabi

---

[420]Sobranie vostochno`x rukopisey AN Uzbekskoy SSR. Katalog. Tashkent. 1960. T.U.-S.412. Inv. №2385.

[421]O'sha joyda. T.VI.-545 b. Inv.№ 9189.

[422]O'sha joyda. T.XI.-305 b. Inv.№7325.

. ifodalarning eng tipik namunasidir.[423]

Tazkira janridagi asarlar va kitob tipini ovrupo va rus kitobat madaniyatidagi kitob ko'rinishlari bilan qiyoslaganda, ularga adabiy antologiyalar va biobibliografik lug'at-ko'rsatkichlar yaqin turishini kuzatish mumkin. Shuning uchun, nazarimizda, tazkira tipidagi kitoblarni o'rta asr biobibliografik qo'llanmalar doirasiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Turkiy falsafiy she'riyat an'analarining yorqin davomchilaridan biri, fikr doirasi nihoyatda keng bo'lgan shoir va adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzoda tazkira janriga quyidagicha tavsif beradi: "Sharq xalqlarining adabiyot tarixlarini asl manbalar orqali tekshiraman, degan tadqiqotchining asosiy suyanadigan ma'xazi turli zamonlarda, turli shaxslar tomonidan turli sabablar bilan yozilgan tazkiralardir. "Tazkira" so'zi arabcha bir kalima bo'lib, maqsadni unutmaslik uchun yozuv orqali zikr etmoq demakdir. Musulmon Sharqi mamlakatlarida borib-borib keng tarqalgan tazkira janri va umuman tazkirachilik katta muvaffaqiyatlarga va qattiq an'analarga ega bo'lib qolgan. Tazkirachi mualliflar o'z asarlarini turli belgilar va qoidalarga rioya qilgan holda tuzganlar. Mavjud tazkiralarda odatan ma'lum bir davrning yoki ma'lum bir mamlakatning (ko'pincha qator hamsoya mamlakatlarning) shoirlari haqida gap boradi. Yozuvchilar, odatda, bir belgi ostida turkumlashadi. So'ngra bulardan har biri borasida alohida ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlardan har birini maqola yoxud maqolacha, to'g'rirog'i, fiqra desa bo'ladi. Bulardan bir xili uch-to'rt jumladan iborat kichkina xabarga o'xshasa, boshqa bir xillari durustgina mufassal taqriz yoki tanqidiy maqolani eslatadi. Odatda, bu fikralarning sxemasi quyidagichadir: a – shoirning ismi, laqabi, qaerdanligi haqida qisqa ma'lumot; b – shoirning hayoti, xarakteri, ba'zi xususiyatlari to'g'risida qisqa ma'lumot; v – shoirning ijodi, asarlari, asarlaridagi xususiyati, asarlarning o'z davrida qay darajada shuhrat topganligi; g – bu shoirga tazkira muallifining munosabati va yoki, aksincha, shoirning tazkirachiga nisbatan tutgan mavqei (bu ma'lumot shoir bilan tazkirachi o'rtasida shaxsiy tanishlik bo'lgan taqdirdagina beriladi); d – shoir haqida el og'zida yoxud muallif xotirasida saqlangan biron qiziq voqea yoki latifa; e – shoirning nazmidan biron misol (bu, odatda, g'azal yo

[423] Kazi Axmed. Traktat o kalligrafax i xudojnikax. Vvedenie, perevod i kommentarii B.N. Zaxodera. M.-L.: «Iskusstvo», 1947. 210 s.

qasidaning matlai, biron masnaviy yoki ruboiy va yoxud qit'a bo'ladi); j – shoir umrining oxiri (agar o'lgan bo'lsa, qaerda dafn etilgani albatta ko'rsatiladi).

Turgan gap, barcha tazkirachilarda va hamma shoirlar haqida yozilgan fiqralarda aynan shu sxemaning saqlanishi shart emas. Bu moddalar oldinma-keyin bo'lishi, ayrim moddalar tushib qolishi mumkin. Lekin, umuman olganda, biz ko'rsatgan sxema ko'pchilik tazkiralar uchun xarakterli va tipikdir. Tazkiralar ko'pincha yo geografik, yo monografik, yo xronololik, yo sulolaviy, yo ijodiy printsipda quriladi yoki shoir nomlarining oxiridagi harflarga qarab alifbe tartibida beriladi. Ammo bu printsiplarning ikki-uchtasini qo'shib, aralashtirib tazkira tuzgan mualliflar ham bor".[424]

Sharq halqlari adabiyoti tarixida yaratilgan va bizgacha etib kelgan tazkira janridagi dastlabki asar Abu Mansur as-Saolibiyning 1017 yilda arab tilida yozilgan "Yatimat ad-dahr" kitobidir. Uning maxsus bir bobi turonzaminlik va xurosonlik shoirlarga bag'ishlangan. Bu erda Turon-Turkiston zaminida yashab arab tilida ijod etgan 124 shoirning tarjimai holiga oid ma'lumotlar va asarlaridan namunalar jamlangan. Muallif yana o'zi yashagan davrda Buxoro va Xorazmdagi adabiy jarayon holati, zamondosh xattotlar, ular ko'chirgan qo'lyozma asarlarning mualliflari, nomi, ko'chirilgan eri haqida qisqa ma'lumotlar keltiradi.[425]

Muhammad Avfiyning 1221–1222 yillarda yaratilgan "Lubob ul-albob" ("Mag'zlar mag'zi") nomli asari tazkira janrida forsiy tilda yaratilgan dastlabki asar bo'ldi. Muallif asli marvlik bo'lib, Buxoroda tarbiya topdi va tahsil oldi. "Lubob ul-albob" Turon-Turkistonda fors-tojik tilida XI–XII asrlar mobaynida yashab ijod etgan shoirlar haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Bundan keyin tazkira tipida yaratilgan ko'zga ko'ringan asarlar qatorida Abdurahmon Jomiyning mashhur "Bahoriston" asarining badiiy ijod namoyandalariga bag'ishlangan VII bobi turadi. Bu erda X–XV

[424]Shayxzoda M. Tazkirachilik tarixidan. G`G` Navoiyga armug'on. Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent: «Fan», 1968, 39-40-betlar.

[425]Qarang: Abdullaev I.A. Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-daxr fimaxosin ahl al-asr. Tadqiq qiluvchi, tarjimon, izoh va ko'rsatgichlarni tuzuvchi Ismatulla Abdullaev. Toshkent: "Fan", 1976. Asar haqida tadqiqot va uning ayrim qismlari rus tilida ham nashr qilingan: Abdullaev I. Poeziya na arabskom yazo`ke v Sredney Azii i Xorasane X-nachala XI vv. Tashkent: «Fan», 1984-292 s.

asrlar mobaynida yashab ijod etgan o'ttizdan ortiq turkistonlik shoirlar, ular tuzgan devonlar haqida hikoya qilinadi.

XV asrda fors-tojik va eski o'zbek tillarida ijod etgan turkistonlik shoir va adabiyot namoyandalariga bag'ishlangan yana ikki maxsus tazkira yaratildi. Ularning biri Davlatshoh Samarqandiy qalamiga mansub "Tazkiratush shuaro" (1488 yilda yozib tugallandi) asaridir. Unda X–XV asrlar oralig'ida yashab ijod etgan 150 shoir to'g'risida ma'lumot berilgan.

Nihoyat, 1498 yilda turkiyda tazkira yaratish an'anasini boshlab bergan mashhur "Majolis-un nafois" ("Nafis majlislar") tazkirasi yaratildi. Uning muallifi buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy o'z asarida Turon va Xuroson hududlarida istiqomat qilgan 459 shoir haqida ma'lumot beradi. Tazkiraning so'nggi davrga qadar yaratilgan boshqa shu tipdagi asarlardan farqlab turuvchi asosiy o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'ldiki, unda faqat XV asrda ijod etgan adabiyot namoyandalari jamlangan bo'lib, ularning aksariyati buyuk shoirning zamondoshlari edi. Navoiy so'z yuritilayotgan shoirlar va ularning asarlari haqida tazkira uchun zaruriy va an'anaviy bo'lgan ma'lumotdan tashqari, Hirot va Samarqandning adabiy hayoti, adabiy bahs va majlislar, buyuk shoir davrida yaratilgan adabiyotshunoslik va tarixga oid asarlar haqida, o'tmish shoirlarining tarqoq merosini to'plab, majmualarini tuzish, mashhur forsiyzabon va turkigo'y shoirlar asarlarini ko'chirib, nusxalarini ko'paytirish borasida olib borilgan ishlar haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi.

Alisher Navoiy o'zidan avval arab va fors tillarida yaratilgan tazkiralar va boshqa biobibliografik tipidagi asarlarni chuqur tahlil etib, ularga tanqidiy yondashgan holda, "Majolisun nafois" asari bilan Turonzaminda butunlay yangi tipdagi tazkiralar turkumiga asos soldi. Bu yangi tipdagi tazkiralarda bosh o'rinda zamonaviylik printsipi qo'yildi va muallif o'ziga yaqin zamondosh bo'lgan ijod ahlini jamlash, zamonaviy adabiy hayot tarzi va adabiy jarayonni yoritishni asosiy maqsad qilib oldi.

"Majolisun nafois"dan keyin yaratilgan ko'pchilik tazkiralar mualliflari Navoiy asos solgan tazkirachilik an'analarining davomchilari sifatida chiqdilar. Shulardan biri "Muzakkiri ahbob" (1556 y.) tazkirasining muallifi buxorolik Hasan Xoja Nisoriy edi.[426] Bu XVI asrdan bizga

[426] Qarang: Xasan Xoja Nisoriy. Muzakkiri axbob (Do'stlar yodnomasi). Tazkira. Tarjimon sanoa so'z boshi va izoxlar muallifi Ismoil Bekjon. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi

ma'lum yagona tazkira bo'lib, unda XVI asr birinchi yarmida Turon adabiy hayoti nisbatan to'liq yoritilgan va mutaxassislarning bahosiga ko'ra muallifga zamondosh bo'lgan turkiston adabiy muhitining deyarli barcha vakillari o'rin olgan.

XVII asrga oid ikki tazkira – Mutribiyning "Tazkiratush shuaro" (1605 y.) va Muhammad Malexo Samarqandiyning "Muzakkirul ashob" (1692 y.) asarlarida XVI asr oxiri va XVII asrlarda Turon-Turkiston hududidagi adabiy jarayon, uning vakillari va qo'lyozma asarlar to'g'risida ma'lumotlar aks etgan. Mutribiy 323, Malexo Samarqandiy 161 shoir, xattot va kitobat ishi ustalari haqida so'z yuritadilar.

Muhammad Amin bin Nurmuhammad Nasafiyning "Mazxar ul musannifin" (1759 y. tuzilgan) tazkirasi XVIII asr birinchi yarmida Turkiston adabiy muhitining vakillari haqida ma'lumot beruvchi bu asrda yaratilgan yagona asardir.

Son jihatdan eng ko'p tazkiralar (jami o'n ikkita) XIX asrda va XX asrning boshlarida tuzilgan. Bu tazkirachilik tarixidagi so'nggi davr tazkiralarining o'ziga xos tomoni shunda ediki, ular Turkistonning o'zlari yaratilgan joylaridagi adabiy hamda ijod ahli hamda kitob ustalari hayoti va ijodini yoritishga qaratilgan edi. Shulardan uch tazkira Qo'qonda tuzilgan. Bular Qo'qon xoni Amir Umarxon buyrug'iga ko'ra Fazliy Namangoniy boshchiligidagi mualliflar guruhi yaratgan "Majmuai shoiron" (1821 y.), Qori Rahmatullo Vozehning "Tuxfatul ahbob fi tazkirat ul ashob" (1871 y.) va Mirsiddiq Hashmatning "Tazkiratush shuaro" asarlaridir.

Bu davrda Buxoroda yaratilgan oltita tazkira mualliflari va nomlari quyidagichadir: Abdulmutallib Fahmiy - "Tazkirai Fahmiy" (1901 y.), Hoji Abdulazim Shar'iy – "Tazkiratush shuaro" (1886 y.), Hoji Ne'matullo Muhtaram - "Tazkiratush shuaro" (1910 y.), Muhammad Sharif Sadr Ziyo "Tazkorul ash'or" (1910 y.), Afzal Pirmastiy – "Afzal ut tazkor fi zikr ush shuaro val ash'or", Abdullahoji Abdiy – "Tazkiratush shuaro mutaaxxirini Buxoro".

Xorazmda uch tazkira yaratilgan bo'lib, bulardan ikkisi shoir va tarixchi Ahmad Tabibiy ("Majmuai fi shuaroi Feruzshohiy", "Muxammasoti majmuat ush shuaroi Feruzshohiy") va bittasi xattot Hasanmurod Qori Laffasiy ("Xorazm shoirlarining tarjimai holi") qalamiga mansubdir.

XX asrda turonzamin tazkiranavisligining an'analari O'zbekistonda

xalq merosi nashriyoti, 1993. – 343 bet.

xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, adabiyotshunos va tarixchi olim Po'lotjon domulla Qayumov tomonidan davom ettirildi. "Tazkirai Qayyumiy" asarining qo'lyozmasi muallifning o'g'li, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik Azizxon Qayumovning shaxsiy kutubxonasida saqlanmoqda. Po'lotjon domulla Qayumov 1885 yilda Qo'qonning Haydarbek mahallasida dunyoga kelgan. Uning bobosi Abdurahim Mirzo Qo'qon xoni saroyida xizmat qilib, xattotlik bilan mashg'ul bo'lgan. Otasi Abdulqayum Mirzo ham xattot bo'lib, u kishining qo'llari bilan ko'chirilgan Navoiy devonlari Toshkentda litografiya usulida bosilgan. Po'lotjon Qayumov qalamiga mansub bo'lgan qator ilmiy asarlarning yuzaga kelishida (shu jumladan, "Qo'qon tarixi va adabiyoti", "O'zbek shoirlari", Qori Rahmatullo Vozehning mashhur tazkirasini o'zbek tiliga tarjimasi), u tavallud topgan ana shu oila muhiti zamin yaratgan.

"Tazkirai Qayyumiy" asarining qo'lyozmasi oddiy daftar qog'oziga sarhar siyoh bilan mayda arab xatida, o'zbek tilida muallifning o'z qo'li bilan yozilgan, ya'ni Dastxat-avtograf. Qo'lyozmaning oxirgi varag'ida bunday yozuv bor, "I jild. "Tazkirai Qayyumiy". 324 nafar shoirni o'z ichiga olgan bo'lub, 20 nafar shoir zamondoshimiz, hayot shoirlardur. 611 betni tashkil etdi. II jildga yana materiallarimiz bordur. Qayumov Po'lot, 1960G'IV". Demak, mazkur asar 1960 yilda yozib tugallangan. Tazkira qalin qora rangli karton muqovada.

Tazkira o'zbek adabiyotining juda katta davrini qamrab olgan. Qayd etilganidek, unda 324 nafar shoir haqida ma'lumotlar va ularning asarlaridan namunalar keltirilgan bo'lib, bu shoirlar tariximizning turli davrlariga mansubdirlar. Asarni quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. XI – XIII asrlarda yashab ijod etgan adiblar. Tazkiraga bu davr namoyandalaridan Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Rabg'uziylar xususidagi materiallar kiritilgan.

2. XIV asr va XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoirlar. Tazkirada bu avlod vakillaridan Xorazmiy, Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Durbek, Sayid Ahmad, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

3. XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti. Bu davr Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. "Tazkirai Qayyumiy" Alisher Navoiy haqidagi maqola bilan boshlangan. Bu bilan esa muallif ulug' shoirga bo'lgan muhabbati va ehtiromini ifodalaydi.

4. XVI – XVII asrlarda yashab ijod etgan shoirlar. Qayyumiy mazkur davr shoirlaridan Xoja, Majliiy, Baqoiy, Mashrab kabi shoirlar haqidagi ma'lumotlarni keltirgan.

5. XVIII asrda ijod etgan shoirlar. Tazkiradagi Huvaydo, Noseh, Mashrabi soniy, Mansur, Nizomiy, Shavqiy I, Ravnaq kabi shoirlar mazkur davrga mansub ijodkorlardir.

6. XIX asrda yashab ijod etgan shoirlar. G'oziy, Amiriy, Qiyosiy, Ma'dan, Akmal I, Nodir, Fazliy, Nola I, Nodira, Mahzuna, Uvaysiy, Xon, Niyoziy I, Jaloliy, Azimiy, Rojiy, Vola I, Akmal II, Mushtoq, Vazir, Ado, Mahzun, Fayziy, Xotif, Foniy, Ramziy, Kasrat, Zohid, Kiromiy, Fayyoz, Afsus, Dabir, Hoziq, Maxmur, Mahzun III, Shahzoda, G'izoliy, Arshiy, G'aribiy, Shuhrat, Devona, Munis II, Mirzo I, Valiy, Muhayyir, Kaltatoiy, Biymiy, Muqimiy, Furqat, Mushrif, Qoriy, Muhsiniy, Kamiy, Berdiyor, Yusuf, Muhyi, Azizlar, Nasimiy, Muazzam, Ushshoq va boshqalar shu davrda faoliyat ko'rsatgan shoirlar vakillaridir.

7. XX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrda yashab ijod etgan hamda tazkira muallifi bilan zamondosh bo'lgan, tazkira yaratilgan paytda barhayot bo'lgan shoirlar. Nodim, Tajalliy, Sadoiy, Mahdiy, Hazin, G'urbatiy, Toliy, Yusuf III, Dilafkor, Xilvatiy, Vahhoj, Vola II, Partaviy I, Pirim qori, Taslim, Pisandiy, Faqiriy, Mu'tasim, Ko'hiy, Zululiy, Muazzam, Nozima, Xoniy, Asiriy, Mustag'far, Partaviy II, Manziliy, Hayratiy II, Oraziy, Niyoz, Sulaymon, Sobir, Mahjur II, Zarra, Charxiy, Boqiy, Firoqiy, Javdat, Parvona II, Muzaffal mahdum, Habiriy, Davron II, Vasfiy, Davron III, Mahzun, Hushyor, Shukriy, Akmal, Kamiy II va boshqalar.

Tazkira maqolalari ma'lumot-namuna shaklida tuzilgan. Dastlab tasnif etilayotgan u yoki bu shoirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot, keyin esa uning ijodidan namunalar berilgan.

1998 yili O'zR FA Qo'lyozmalar instituti va Navoiy nomli davlat adabiyot muzeyi tazkiraning to'liq matnini zamonaviy bosma kitob shaklida nashr qilib keng o'quvchilar ommasiga taqdim etdilar. Matnni nashrga tayyorlovchi Aziz Qayumov, mas'ul muharrir Laziz Qayumov.

XI asrdayoq Abu Rayhon Beruniy tomonidan asos solingan buyuk salaflar va ustozlar asarlarining bibliografik ro'yxatini tuzish an'anasi XV–XVI asarlarda munosib davom ettirildi. Alisher Navoiyning o'z do'sti, maslakdoshi va ustozi Abdurahmon Jomiy vafotidan so'ng

shaxsan unga bag'ishlab yozilgan "Xamsatul mutahayyiriyn" (1492 y.) risolasi personaliya (shaxsiy biobibliografik ko'rsatkich) tipidagi asarlarning mukammal namunasidir. Muallif risolaning yozilish sababi va tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot beruvchi kirish qismida yozishicha, u muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat. Muqaddimada Jomiyning hayoti, nasl-nasabi, Jomiy va Navoiyning birinchi bor tanishuvlari haqida hikoya qilinadi. Birinchi maqolatda ikki buyuk shaxs hayotida birga kechgan hamda do'stlik va ijodiy hamkorlik haqida guvohlik beruvchi damlar xususida fikr yuritiladi. Ikkinchi maqolat ularning bir-birlariga yo'llagan qator maktublari va ularning yozilish sabablari haqida. Nihoyat, uchinchi maqolatda Jomiy yaratgan 36 ta asar ro'yxati keltiriladi, ularning yozilish tarixi bayon etiladi. Ma'lumki, Jomiy va Navoiyning qator asarlari bir-birlaridan ilhomlanib yoki to'g'ridan-to'g'ri bir-birlarining maslahatlari bilan yaratilgan. Bu maqolatda Navoiy chuqur hurmat va o'ziga xos alohida tavozu' va nazokat bilan ana shunday ijodiy hamkorlik misollarini keltiradi.[427]

Bu tipdagi ikkinchi asar Navoiyning kichik zamondoshi hirotlik tarixchi Xondamir (to'liq ismi G'iyosiddin bin Xumomiddin Muhammad bin Xoja Jaloliddin Muhammad bin Xoja Burhoniddin. 1475-1534.) qalamiga mansub "Makorim ul axloq" – "Olijanob xulqlar" asari bo'lib, u Alisher Navoiyning hayoti, ijodiy faoliyati va asarlariga bag'ishlangan. Asar shoirning vafot etgan yili, ya'ni 1501 yili yozilgan.[428]

Bibliografiyashunoslik va umuman kitobshunoslik nuqtai nazaridan "Xamsatul mutahayyiriyn" va "Makorim ul-axloq" asarlari ichki tuzilishlari va materiallariga ko'ra sharqiy tazkiralar va ovrupocha shaxsiy biobibliografik ko'rsatkichlar (personaliyalar) o'rtasidagi oraliq o'rinni egallaydi. Ular hozirgi zamon mezonlariga ko'ra biobibliografik qo'llanmalarga yaqin turadi. Asarlar o'quvchisi so'z yuritilayotgan

[427] Navoiy Alisher. Xamsatul mutahayyiriyn. Asarlar. O'n besh tomlik. O'n to'rtinchi tom. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967, 5-71 b.

[428] Asarning yagona nusxasi Londonda Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanmoqda. 1939 yilda uning mikrofilmi O'zbekiston xukumati tomonidan sotib olingan edi. Mashhur o'zbek sharqshunos olimi va xushnavis xattot Ibodullo Odilov shu mikrofilmdan ko'chirilgan fotokopiya asosida asarning yangi nusxasini nafis nasta'lik xatida ko'chirdi. Bu nusxa O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (inv. №5340) Uning shu nushasi asosida asarning qisqartirilgan nashri amalga oshirildi va u haqda ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Misol uchun qarang: Ahmedov B. Xondamir. Toshkent, Fan, 1965.

shaxs, u haqdagi adabiyot, uning o'z merosi haqida XIX–XX asr ovrupo biobibliografik ko'rsatkichlari uchun tipik bo'lgan ma'lumotlarni uchratadi. Faqat bu erda ular sharq adabiyoti va matnshunoslik madaniyati qonun-qoidalari talabiga ko'ra joylashtirilgan. "Muqaddima", "Xotima" va o'nta "Maqsad" (bob)dan iborat "Makorim ul-axloq" asarida adabiyot tarixida birinchi bor buyuk insonparvar shoir, davlat arbobi bo'lmish Navoiy haqida batafsil biografik ma'lumot keltirilgan va uning shaxsi har tomonlama ko'rsatib berilgan. Asarda birinchi bor Alisher Navoiyning yigirmadan ortiq kitobi va asarlariga oid ilmiy ma'lumotlar umumlashtirilgan. Xondamir Navoiy asarlarining muallif hayotligi paytida ko'chirilgan nusxalari va shoir ijodiga oid barcha asl manbalarni yaxshi bilgan birinchi navoiyshunos sifatida o'z asarida kelgusi adabiyot tarixchilari uchun nihoyatda qimmatli bo'lgan ma'lumotlarni keltiradi. Xondamir shoirning u yoki bu asarining yaratilish tarixi, devonlarining tuzilish vaqti, "Xazoin ul-maoniy"ning ichki strukturasi, Navoiy hayotligi paytida ko'chirilgan "Xamsa" dostonlari nusxalari va ularda baytlarning soni (jami 27 ming bayt)[429], "Chor devon" yoki "Xazoyin ul-maoniy" devonlarining qo'lyozma nusxalari va baytlarining soni (jami 25 ming bayt)[430] haqida hikoya qiladi, zamondoshlarining shoir haqidagi esdalik va fikrlarini keltiradi. "Ilmning fazilati va olimlarning martabasi haqida" deb nomlangan maqsadda Xondamir "...Amirning nomi shariflariga atab, zamon olimlarining tasnif qilgan kitob ismlari"ni ko'rsatib o'tadi. Ular quyidagi 14 muallifning 21 asaridir:

"Sharhi Faroiz" – Sayfiddin Ahmad Taftazoniy asari;

"Ravzat ul-ahbob" ("Do'stlar bog'i") – Jaloliddin Otoullohi Asiriyning ikki jilddan iborat asari;

"Tafsiri forsiy" - Qur'onning forscha tafsiri, muallifi Husayn ibn Ali Voiz al-Koshifiy;

"Sharhi arbain" ("Qonunlarga izoh") – Imom Navaviy;

"Hoshiyai muxtasar" ("Qisqacha izoh"), "Hoshiyai Chagminiy" ("Chagminiy izohi"), "Hoshiyai sharxi xidoyai hikmat", "Hoshiyai sharh ashqol il ta'sis" ("Shakllar asosi" sharxiga izoh"), "Ta'sis sharxi bist bobi usturlob" ("Usturlobning yigirma bobiga sharh"), "Hoshiyai Mavoqif",

---

[429]Xondamir. Makorim ul-axloq. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967, 42-43 betlar.

[430]O'sha joyda, 49-bet

"Sharhi mi'at ul-omil" – Fasixiddin Nizomiy tasniflari;

"Sharhi Mushkot" – Abdulaziz Abxariy asari;

"Hoshiyai sharhi hikmati ayin" – muallifi Mas'ud Shirvoniy;

"Risola dar ilmi farosat" – Abdurazzoq Kirmoniy tuzgan;

"Hoshiyai sharhi Mujizi Mavlono Nafis" – G'iyosiddin Muhammad tasnifi;

"Tarjimai arabiyoti Nafaxat" – Ahmad Pir Shams asari;

"Tazkirat un-nufus" – muallifi Darvesh Ali Tabib;

"Hoshiyai Mutavval" – Xoja Abulqosim Abullaysiy asari;

"Hoshiyai miftoh", "Hoshiyai Talvih" – Xoja Xovand Abullaysiy asarlari;

"Sharhi mo"jaz" – Mavlono G'iyosiddin asari.[431]

"Makorim ul-axloq"ning uchinchi maqsadida Navoiyning ulug' nomi bilan tugallangan asarlar va ular mualliflarining ro'yxati keltirilgan. Mana shu ro'yxat:

"Risola dar sano' va badoye'i she'riy", "Risolai kofiya" – oliy janob Amir Burxoniddin Atoulloh asari;

"Layli va Majnun", "Xusrav va Shirin" – Mavlono Shihobiddin Abdurahmon Jomiyning masnaviyoti;

Mavlono Axliy Sheroziyning "Qasidai masnu'" asari;

Xoja Mas'ud Gulistoniyning "Yusuf va Zulayho"si;

"Sihri hilol" – Mavlono G'iyosiddin Muhammad asari; Badaxshiyning "Risolai muammo"si;

Mavlono Kamoliddin Mir Husaynning "Risolai muammo"si;[432]

Mazkur ro'yxatning so'ngida Xondamir Navoiyning ko'pgina zamondoshlari unga o'zlarining ajoyib qasidalarini bag'ishlaganlarini sabar qiladi va: "...ularning hammasini bayon qilish so'zning uzayishiga sabab bo'ladi"[433], –deb ta'kidlab o'tadi.

Mazkur kitobda Turonzamin kitobi tarixidan keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kitob va boshqa adabiy manbalarni har xil yo'llar bilan zikr etish an'analari, ya'ni bibliografik an'analar Turon-Turkistonda o'zining chuqur ildizlariga egadir. Bibliografiya, kitobat ishining ajralmas qismi sifatida, kitobat madaniyati tarixining ilk mumtoz

---

[431] Qarang: Xondamir. Makorim ul-axloq..., 42-43 betlar.

[432] O'sha joyda, 58 bet.

[433] O'sha joyda

davrida paydo bo'ldi va mumtoz davrida turli shakllarda muvaffaqiyatli rivojlanib bordi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kitoblarni qo'lyozma usulda ko'paytirish an'anasi asta-sekin so'nib borib, Turon xalqining bosma kitob shakliga o'tish jarayoni bilan bog'liq holda bibliografik faoliyatning ham sifat jihatdan yangi holatga o'tib borishi yuz beradi va u bosma kitoblarni tavsif qilish bilan bog'lanib boradi.

Savollar va topshiriqlar:

Abu Rayhon Beruniyning bibliografik faoliyatini ta'riflab bering.

Tazkiralarning uch turini ta'riflab bering.

XULOSA

1. Turon-Turkiston xalqlarining qadimgi davrdan O'rta asrlarga, zardushtiylikdan musulmonchilikka o'tishi, arab yozuvini qo'llagan mamlakatlarning siyosiy, madaniy, ilmiy, adabiy-badiiy an'analari jarayonlariga qo'shilishi, zardushtiylik, moniychilik va buddizm mazmunidagi eski kitobdan musulmonchilik mazmunidagi yangi kitobga o'tilishi bilan zardushtiylik madaniy dunyosining musulmon madaniy dunyosining tarkibiy qismiga transformatsiyasi ro'y berdi. Turon-Turkiston xalqlari VIII asrdan XX asrning boshlariga qadar bo'lgan bir ming ikki yuz yillik davr mobaynida fanda qadimdan «musulmon madaniy dunyosi» deb ataluvchi ulkan arab-fors-turk superetnosi, tizimining bir qismi, tizimchasi bo'lib keldi. Tarixiy nuqtai nazardan O'rta asrlar Turon-Turkiston uchun an'anaviy xalq madaniyatining zardushtiylik asoslarini hisobga olganda jamiyatda musulmonlik mafkurasi, umumiy musulmonlik etik, estetik, axloqiy-ma'naviy me'yor va qonun-qoidalar, qadriyatlar tizimi, ommaning o'xshash turmush tarzi, diniy va mifologik ongi, kundalik madaniy an'ana va xalq udumlari, avlodlari vorisligi, mulkiy va ijtimoiy tabaqalanish va bu bilan bog'liq har xil mafkuraviy va madaniy oqimlar o'rtasidagi kurash hukmronlik qilgan yagona ijtimoiy-madaniy davr edi. Turonzaminda VI–VIII asrlarda yuzaga kelgan yangi ishlab chiqarish usuli va ishlab chiqarish munosabatlari, ular bilan bog'liq ijtimoiy ong shakllari va ustqurma institutlar IX–XVII asrlardagi rivojlanish va etuklikdan XVIII–XIX asrlardagi turg'unlik va tanazzulgacha bo'lgan barcha evolyutsiya bosqichlarini bosib o'tdi. «Kitob – Kitobat ishi» tizimi «O'rta asr jamiyati madaniyati» tizimining bir qismi edi. Jamiyatda hukm surgan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va taqsimlash usuli va madaniyat tipi kitobning jamiyatda mavjud bo'lish va harakatlanish shakllari, qo'lyozma kitoblarni ishlab chiqarish, ko'paytirish va tarqatish

shakllarining xususiyatini belgilardi.

2. Musulmon madaniy dunyosining tarkibiy qismiga va shu bilan bir vaqtda arab tili hamda arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozma kitoblar vositasida keng xalqaro madaniy aloqalar va ma'naviy qadriyatlarni o'zaro almashish sub'ektiga aylangan Turon-Turkiston xalqlari faqat O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda kechgan keng qamrovli madaniy sintez jarayoniga qo'shilibgina qolmay, balki musulmon madaniyati taraqqiyotini, shu jumladan, kitobat madaniyatini rivojlantirishda ham bevosita ishtirok etdi. O'rta asrlar Turon-Turkiston jamiyatining madaniy-tarixiy rivojlanish jarayonlarida uning musulmon madaniy dunyosiga qo'shilishi natijasida ro'y bergan tub o'zgarishlar, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy va diniy tafakkurning evolyutsiyasi, jamiyatda ilmiy bilimlar va badiiy adabiyotga qiziqishning kuchayishi o'sha davrning universal va o'ziga xos yozma axborot tarqatuvchisi sanalgan qo'lyozma kitoblarga bo'lgan ehtiyoj va talabni kuchaytirdi. Turon-Turkiston xalqlarining ijtimoiy hayotida ilk O'rta asrlardagi alohida feodal mulklarning yakkalanganligi, o'zaro va tashqi dunyo bilan munosabatlarining chegaralanganligidan keng xalqaro aloqalar va faol munosabatlarga, shahar hayotining jonlanishiga tarixiy o'tishning amalga oshishiga qarab, kitobat ishi va butun kitobat madaniyati jarayonlarida ham muhim burilish – kitobning podsholar xazinasi va masjid mehroblaridan shahar va xalqaro kitob bozorlariga chiqishi ro'y berdi. Inson bilimi turli sohalarining jadal rivojlanishi, eng avvalo kitobda o'z aksini topgan fanlarning differentsiatsiyalashuvi sharoitlarida undan kitob ham alohida shaxs (elitaga mansub shaxslardan tashqari), ham jamiyat uchun daxlsiz ekanligini bildiruvchi qadimda yuklangan an'anaviy muqaddaslik yorlig'i olib tashlandi, kitobning bilim manbai sifatidagi asosiy funktsiyasi to'liq darajada rivojlana boshlanadi. Kitobning jamiyat ijtimoiy-madaniy va intellektual rivojlanishidagi tutgan o'rni ham o'zgarib bordi. Asosan diniy ibodat maqsadlariga xizmat qilgan qadimgi va ilk O'rta asrlar kitobi (faqat ibodatxonalardagina saqlangan va tor doirada foydalanilgan «Avesto», buddizm adabiyoti majmualari, moniychilarning etti muqaddas kitobi)dan farqli o'laroq) bu davrda kitobning ijtimoiy muloqot usuli va ommaviy aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati ortib bordi.

3. Turon-Turkiston mahalliy forsiyzabon va turkiyzabon aholisi madaniy evolyutsiyasi o'rta asrlarda yaqin atrofdagi xalqlar madaniyatlari bilan o'zaro ta'sirda va qizg'in o'zaro hamkorlikda ilmiy tafakkur yutuqlari, ijtimoiy ishlab chiqarish texnologiyalari, asbob-uskunalari va vositalarini, shuningdek, qadimgi turkiy, qadimgi pahlaviy, forsiy, doriy, tojik, o'rta

turkiy, arab tillaridagi adabiyotni ham, arab tili orqali esa sanskrit, yunon, suryoniy tillaridagi manbalarni ham jalb etish va keyinchalik o'zlashtirgan holda kechdiki, bunday o'zaro singib borish va o'zaro bir-birini boyitish natijasida esa arab imlosidagi alifbedan foydalangan, yangi fors, pushtu, forsiy-doriy, tojik va turli turkiy tillarda so'zlashadigan bepoyon mintaqa xalqlarining lisoniy va jo'g'rofiy yaqinlik, feodalizm davrida ularning tarixiy taqdiri mushtarakligi, yagona diniy dunyoqarash va yozuvning arab imlosiga asoslangan tizimi bilan shartlangan ishlab chiqarish va texnologiyalar, madaniy, ilmiy va adabiy an'analar, jumladan, kitob yozish va ko'chirib kitob adadini ko'paytirish, kitobni badiiy bezash va kitob jamlab borish an'analarining muayyan umumiyligi maydonga keldi. Aytib o'tilgan an'analar mushtarakligi Turon, Eron, Ozarboyjon va Afg'oniston mintaqalari bilangina cheklanib qolmaydi. Ma'lum ma'noda u ana shu integratsiya jarayoni zamirida aniq-raso milliy va lisoniy toifalanish bilan butun musulmon madaniy olamini qamrab oladi. Aynan ana shu madaniy an'analar muayyan mushtarakligi fan, ta'lim, adabiyot sohasida erkin va to'siqlarsiz ayirboshlashga, o'z mamlakatlarining eng qadimgi davridan va o'rta asrlardan yangi tarixiy sharoitga o'tishida adabiyotning rang-barang turlari va xillarini, yangicha she'riy shakllar va janrlarni, masalan, rivoj topgan forsiygo'y va arab poetikasining forsiyzabon va turkiy tilli xalqlar tomonidan yoki ijtimoiy va tabiiy fanlar sohasidagi yunon va hind ilmiy an'analari, bilish metodlarining musulmon olami xalqlari tomonidan qabul qilinishi va ijodiy o'zlashtirilishiga sharoit yaratib berdi. Bu kabi jarayonlar eng avvalo kitobda: adabiy-badiiy asarlarda, shuningdek, ilm-fanning turli sohalariga oid kitoblarda, qo'lyozma kitoblarda adabiy materialni uyushtirishning xilma-xil usullarida, Turkiston zaminida kitob turlarining rang-barang ko'rinishlari, namunalari va shakllari vujudga kelishida o'z aksini topgan edi.

4. VIII–IX asrlardagi madaniy-tarixiy rivojlanish davomida Turonzaminda kitobat ishining yangi sifatda vujudga kelishi va bu yangi asosda har xil kitobat ishi sohalarining evolyutsiyasi bilan bog'liq jarayonlar ro'y berdi. Kitoblarni qayta ko'chirish va ko'paytirish hunari alohida kasbiy faoliyat sohasiga ajraldi, xattotlik, sahhoflik va kitobfurushlik kasblari paydo bo'ldi. Qo'lyozma kitoblar ishlab chiqarishning o'sishi bilan kitob savdosi hajmlari kengayib bordi, yangi-yangi kutubxonalar, bibliografik asarlar paydo bo'ldi, rang-barang kitob repertuari, kutubxonalarning har xil turlari, qo'lyozma kitoblarning yangi tip va shakllari yuzaga keldi.

5. Ustalarning qo'lyozma kitobni yaratish va bezash ishlarining

asosiy jarayonlari hamda an'anaviy izchilligi va o'zaro bog'liqligi VIII–IX asrlardayoq ma'lum tizimga kirishib, shahar madaniyati va qog'oz ishlab chiqarishning o'sishi bilan keyingi asrlarda yanada rivojlandi. Qo'lyozma kitob badiiy hunarmandchilikning bir nechta turlari vakillarining ijodiy mehnati mahsuli bo'lib, ularning har biri kitobni yaratish jarayonida o'zining qat'iy belgilangan vazifa va funktsiyalariga ega edi. Qo'lyozma kitobni yaratish ustida xattot, bezakchi-lavvoh, miniatyurachi-musavvir va sahhof izchil ish olib borardi.

Xattot kitobning bosh ijrochisi va konstruktori hisoblanardi. Buyurtma qilinuvchi qo'lyozmalar yuzasidan muzokaralar aynan xattot bilan olib borilardi. U faqat matnni qayta ko'chirib, bu bilan kitob yaratish ishining asosiy qismini bajarib qolmay, uning kompozitsiyasini ham batafsil ishlab chiqar, bezak va miniatyuralar uchun bo'sh joy va sahifalar qoldirar, miniatyurachi-musavvir va bezakchi-lavvohning qo'lyozma kitob bo'yicha ishlarini belgilar edi. Kitobning mazmuni va mavzuidan kelib chiqib, xattot u yoki bu dastxat uslubini tanlar, ulardagi ustun va satrlar soni, sahifada turli she'riyat janrlariga mansub matnlarni joylashtirish usullarini mo'ljallar, adabiy-badiiy va tarixiy asarlarga chiziladigan miniatyura va boshqa rasmlarning syujetlarini belgilardi.

Kitoblarni ko'chirish va ko'paytirish bo'yicha xattot faoliyati Turon xalqlarining ijtimoiy va madaniy hayotida butun o'rta asrlar mobaynida muhim o'rin tutdi. Jamiyat savodxon qatlamining eng o'qimishli qismini tashkil qilgan xattotlar Turon kitobat ishining rivojlanishi va qo'lyozma kitoblari repertuarining shakllanishida, ma'rifatda, mintaqada asrlar mobaynida yaratilgan musulmon madaniy dunyosi olimlari, faylasuflari, shoirlarining asarlarini tarqatishda hal qiluvchi o'rin tutdi. Asosan xattotlarning mehnati tufayli mumtoz sharq adabiyoti namunalari, tabiiy-ilmiy va falsafiy asarlar hamda fanning qator boshqa sohalarida yaratilgan asarlar bizgacha etib keldi va umuminsoniy madaniyat mulkiga aylandi.

Shunday qilib, yozma kitob an'anasini rivojlantirishning yagona vositasi kitoblarni qo'lda ko'chirish hisoblangan sharoitlarda uni yaratishda ishtirok etuvchi eng ko'p sonli hunarmandlar xattotlar bo'lib, ular kitob mahsulotining asosiy ishlab chiqaruvchilari hisoblanar edi. Kitoblar shuningdek, ularni o'zlari uchun, bilim olish yoki ilmiy maqsadlarda yoxud oddiy qiziqishdan kelib chiqib qayta ko'chirgan ko'plab kitobiy olimlik muxlislari tomonidan ham yaratilardi.

Qo'lyozma kitoblar bozoridagi talab va undagi umumiy holat bilan belgilangan mehnat taqsimoti kitobat ishi sohasida ham o'z hukmini o'rnatdi.

Kitobni yaratish ustida ish olib boruvchi ustalar mehnatini tashkil qilishning bir nechta shakllari mavjud edi. Avvalambor, kitob ustida xattot bir o'zi yoki shogirdlari bilan o'z uyidagi ustaxonada ish olib borardi. Keyin qo'lyozma kitoblarni yaratish bo'yicha yakuniy ishlar maxsus sahhoflik ustaxonalarida amalga oshirilardi. Sahhoflik ustaxonalari buyurtmalarni bajarish uchun professional xattotlarni chetdan taklif qilgan hollarda ular qo'lyozma kitoblar ishlab chiqarish bo'yicha ustaxonalar birlashmasi vazifasini bajarar edi.

Shu bilan birga, to'qchilik, tinchlik va osoyishtalik yillarida Turon-Turkiston shaharlarida vaqti-vaqti bilan xattotlar, bezakchi rassomlar va sahhoflarning bozorga mahsulot chiqarish bilan shug'ullanuvchi nisbatan turg'un korporativ birlashmalari paydo bo'lib turdi. Bu yo'l bilan o'ziga o'rtacha to'q bo'lgan kishilarning buyurtmasiga ko'ra yaratilgan qo'lyozma kitoblarning aksar qismi juda jo'n va kamtarin bezalgan.

Juda katta did bilan bezalgan, chiroyli dastxatlarda ko'chirilgan, ichki bezakning barcha elementlariga ega, qimmatbaho, tilla suvi yuritilgan muqovaga o'ralgan, atoqli xattotlar, lavvohlar, musavvirlar va sahhoflarning mehnati joylangan, ko'p jihatdan ulkan badiiy qimmatga ega bo'lgan bejirim kitoblar faqat saroy qoshidagi maxsus davlat ustaxonalari - kitobxonalarda yaratilardi. Bu erda ustalar ushbu kitobxonalarning muassislari va egalari buyurtmasiga ko'ra yuksak darajada badiiy kitoblar yaratish bilan shug'ullanar edilar.

6. VIII asrlardan so'ng Yaqin va O'rta Sharq mamlakalarida yagona arab alifbesi asosida qo'lyozma kitoblarning yaratilishi va ko'paytirilish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlagan xattotlik va sahhoflik san'ati hamda qog'oz ishlab chiqarishning keng tarqalishi natijasida kitobning qiymat jihatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Qadimgi davr va ilk o'rta asrlardan keyin kitob keng ko'lamda oldi-sotdi ob'ekti sifatida qatnasha boshladi. Kitob va kitobat ishi tarixining aynan shu ilk mumtoz davrida butun Turkiston hamda musulmon madaniy dunyosi miqyosida qo'lyozma kitoblarining uzluksiz yaratilishi va ularning jamiyatda kitob harakatini ta'minlaydigan kitobat ishi sohalari sifatida taqsimlanishi sodir bo'ldi. Qo'lyozma kitoblarni yaratish va kitob savdosi zardo'shtiylik dunyosining u yoki bu madaniy markazida tasodifan tug'ilib barham topgan, favqulodda va beqaror xususiyatga ega bo'lgan qadimgi davr va ilk o'rta asrdan o'rta asrlarning muhim farqi ana shundadir.

Kitob ayirboshlash musulmon mamlakatlari o'rtasidagi madaniy aloqalarning eng muhim jihatlaridan birini tashkil etar edi. Turkistondagi deyarli har bir yirik shaharda kitob bozori mavjud bo'lib, kitob rastalari ham

alohida, ham sahhoflarning ustaxonalari qoshida faoliyat ko'rsatardi.

Kitob savdosi avval boshdanoq quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan: a) mahalliy va xorijiy (asosan O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridan bo'lgan) mualliflarning original kitoblari, shuningdek, yunon, sanskrit va ayrim boshqa tillardan arab, fors va turkiy tillarga tarjima qilingan kitoblar savdosi; bu kitoblar Turkistonda xattotlar tomonidan ko'plab miqdorda ko'paytirilib, sahhoflarning ustaxonalarida tegishli shakl va tashqi ko'rinishga ega bo'lar edi; b) chet mamlakatlardan kelgan savdogarlar yoki turkistonlik savdogarlar olis mamlakatlardan qaytishda boshqa mollar qatori karvonlarda olib kelgan kitoblar savdosi; v) Turkistonda yaratilgan va chetdan kelgan eski, muomalada bo'lgan va restavratsiya qilingan kitoblar savdosi.

Kitob savdosi ishining tashkiliy masalalarini tarixiy jihatdan o'rganish ichki kitob savdosi va xalqaro kitob ayirboshlash Turkistonda butun o'rta asrlar mobaynida keng ko'lamda va uzluksiz amalga oshirilganidan dalolat beradi. Kitob savdosi sur'ati faqat urush va vayrongarlik yillaridagina pasaygan. Turkiston kitobfurushlari kitob savdosining jahon kitob madaniyatida mavjud barcha shakl va usullarini qo'llaganlar. Bular: statsionar va ko'chma kitob savdosi (kitob tarqatishning o'ziga xos usullaridan biri – tojiri kutublik), bukinistik va antikvar kitoblar savdosi (o'z ilmiy ahamiyati va badiiy qimmatini yo'qotmagan eski va restavratsiya qilingan kitoblarni sotib olish va sotish), chakana va ulgurji savdo. Yaxshi kitoblarning narxi doimo baland bo'lgan. Biroq, tinch rivojlanish, to'qchilik va farovonlik yillarida shahar va qishloq aholisining barcha qatlamlari kitob sotib olish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ijtimoiy beqarorlik – xalq qo'zg'olonlari, ocharchilik va urush yillarida esa kitob narxi tushib ketgan. Kitob savdosi aslo nomsiz bo'lmagan: barcha davrlarda kitob savdosi bilan kitob, maorif va madaniyatga sodiq bo'lgan shaxslar shug'ullanganlar. Kitobat madaniyati tarixida yuksak darajadagi professionalizm namunalarini ko'rsatgan mashhur kitobfurushlar juda ko'p o'tgan, ularning nomlari Turkistondan tashqarida ham mashhur bo'lgan.

7. Kutubxonachilik ishi rivojlanishining aniq tarixiy jarayonlari va kutubxonalar tarixidan konkret dalillarni tadqiq etish O'rta asrlar Turkistonida davlatlar hukmdorlari tomonidan ta'sis etilgan. Biz Turkiston milliy kutubxonalari deb atagan davlat hukmdor sulola kutubxonalari mavjud bo'lgan va rivoj topgan, shuningdek, madrasalar kutubxonasi, masjidlar kutubxonasi, maqbaralar, so'fiylar xonaqolari va shifoxonalar qoshidagi kutubxonalar, musulmon jamoalari kutubxonalari singari maxsus

kutubxonalar tizimi faoliyat ko'rsatgan hamda shaxsiy (xususiy) kutubxonalar tizimi mavjud bo'lganini isbotlaydi.

Turon-Turkiston hukmron sulola xazinalarining IX—X asrlardayoq davlat arxiv saqlovxonalariga va davlat, milliy kutubxonalarga toifalashtirilishi, milliy kutubxonalarning davlat muassasalari tizimida alohida birlik sifatida ajratilishi, ana shu kutubxonalarga mustaqil ijtimoiy-madaniy institut maqomi berilishi, shuningdek, ko'p sonli maxsus kutubxonalar paydo bo'lishi kutubxonachilik ishida ham, umuman Turkiston jamiyatining madaniy taraqqiyotida ham eng qadimgi va ilk o'rta asrlarga nisbatan olganda sifat jihatdan keskin ilgarilash amalga oshirilganini hayotiy voqelikka aylantirgan, shu bilan birga kitob, ilm-fan va ta'limning istisno tariqasidagi muhim o'rnini anglab etish ro'y bergan edi. Turkiston shaharlarida X asrdan boshlab butun o'rta asrlar tarixiy davri mobaynida milliy kutubxonalar hamda yirik madrasalar va jome' masjidlari kutubxonalari binolari odatda maxsus tayyorlangan loyihalar asosida barpo etilgani ham tasodifiy bir hol emas.

Tarixiy-madaniy nuqtai nazardan O'rta asrlar Turkistonida kutubxonalar ommaviyligi va elitarligi tamoyillari amalga oshirilishi ham diqqatga sazovor va ahamiyatlidir. Ayrim yirik madrasalar va masjidlarning xizmatlaridan atigi ta'lim va ilmiy faoliyat bilan professonal tarzda bog'liq bo'lgan kishilargina foydalanadigan kutubxonalaridan, shuningdek, kitobxonlari doirasi nihoyatda cheklangan saroy, milliy kutubxonalardan tashqari musulmon jamoalari, vaqf kutubxonalari, barcha o'rta va kichik madrasalar va masjidlar kutubxonalari eshiklari, qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'i nazar, istalgan odam uchun ochiq edi.

Turkistonlik mutafakkirlar Abu Nasr al-Forobiy, Abu Muhammad Abdulloh al-Xorazmiy va Abu Ali Ibn Sinolarning fan tarmoqlarini tasniflashga bag'ishlangan asarlarida o'rta asr davri ilmiy bilimlari etarlicha darajada aks ettirilganiga qaramay, mavjud fan tarmoqlari va sohalaridan kelib chiqqan holda kitoblarni kutubxonalarda bir xillashtirilgan tasnif sxemalarida mustahkamlab qo'yishdek masala o'z echimiga ega bo'lmagan edi. Biroq, bu narsa Turkiston kutubxonachilari tomonidan ular qo'lyozma kitoblarni tasniflash va guruhlarga ajratishda qat'iy amal qilib kelgan ancha-muncha umumiy tamoyillar ishlab chiqilmaganini anglatmaydi. Bu, eng avvalo, islomning mafkuraviy printsiplari bo'lib, unga muvofiq musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'on, unga yozilgan sharhlar — tafsirlar, hadis to'plamlari, musulmon huquqshunosligi — fiqh, musulmon ilohiyotshunosligi — kalom bo'yicha kitoblar birinchi o'rinda ko'rsatilgan edi. Shundan keyin ijtimoiy va

tabiiy-ilmiy turkumdagi fanlar bo'yicha qo'lyozmalar har bir bo'lim ichida fan soha va tarmoqlari qat'iy ketma-ketligisiz, shuningdek, adabiy-badiiy kitoblar, bibliografik yo'nalishdagi asarlar ro'yxatdan o'rin oladi.

Ortodoksal printsipdan birmuncha farqli holda tarixiy-tabaqaviy printsip fanlar musulmon olamida tarixan rivojlanib borishi va o'rta asrlar jamiyatida kitoblar qanchalik qadrlanishiga qarab tasniflashni talab qilar edi.

8. Bibliografiya ishi inson faoliyati axborot va ilmiy-amaliy sohasi sifatida va kitob ishlab chiqarish jarayonlari mavjudligi, ya'ni turli-tuman uslubiyat vositasida ko'chirish yo'li bilan kitoblarni qayta ishlab chiqarish va ilmiy-axborot faoliyatining shakli sifatida Turkistonda kitob va kitobat ishi tarixining ilk mumtoz davrida vujudga kelgan va Turkiston butun o'rta asrlari davomida turli shakllarda muvaffaqiyatli rivojlangan edi. Turkistonda bibliografiya ishi kitoblarni hisobga olib borish ijtimoiy talabi umumiy o'zanida, bilimlarning ma'lum bir tarmog'i rivojlanishi, u yoki bu ilm ilmiy faoliyati yakunlarini chiqarish va baholash jarayonida vujudga keldi. Kitoblarni bibliografik jihatdan ro'yxatga olib borishni tizimli asosda o'tkazishga amaliy zarurat tarixan ilk marotaba yirik milliy kitob saqlovxonalari, yirik madrasalar va masjidlar kutubxonalari dargohida yuzaga kelgan edi. Aynan ahamiyatli kitob saqlovxonalarida, kitoblar katta miqdori orasida ularni hisobga olib borish ehtiyoji birinchi galda keskin namoyon bo'lgan edi. Abu Ali ibn Sino o'z «Tarjimai hol»ida eslatib o'tgan, Buxoro amirlari — Somoniylar sulolaviy kitob saqlovxonalariga 996 yilda kirganida ko'zdan kechirgan, ilm-fanda uning salaflari bo'lgan olimlar kitoblari ro'yxati o'zida sistematik katalogni namoyon eta oladi. O'rta asrlar kataloglarining boshqa bir ko'rinishi «fixrist» deb atalmish kutubxona ro'yxati bo'lib, kitoblar vaqf ixtiyoriga o'tkazilganida tuzib chiqilar edi. Shunday qilib, o'rta asrlarda Turkistonda bibliografiya ishi vujudga kelishi, rivoj topishi va shakllari o'zgarishi tarixini tadqiq etish kutubxona ro'yxati — kitoblar katalogi bibliografik faoliyat vositalari bilan kitobni qayta yaratishning eng qadimiy va eng birinchi shakli hamda bibliografik axborotlarning mavjudiyat shakli ekanligini namoyon etadi.

Eng avvalo, muomalada bo'lgan qo'lyozmalarda va katta-kichik kutubxonalar yadrosida o'z aksini topgan arab, fors va turkiy tillarda ilmiy va badiiy so'z ijodiyotini rivojlanishi darajasi X—XI asrlar chegarasida musulmon olami mamlakatlarida shunday bir bosqichga ko'tarildiki, bunda inson bilimlarining turli-tuman soha va tarmoqlarida ma'lum bir yakunlarni chiqarishga zarurat tug'ilgan edi. Bu ehtiyoj ilmiy adabiyot yangi janrlari, qo'lyozma kitoblar turlari, bibliografiyaning turli shakllari

va turlari hamda bibliografik va biobibliografik qo'llanmalar: universal entsiklopediyalar, bibliografik yo'nalish unsurlariga ega bo'lgan universal va tarmoq enitsiklopediyalari, bibliografik va biobibliografik lug'atlar, tazkiralar (antologiyalar), fanning u yoki bu sohasiga qo'shgan hissalarini baholash to'g'risidagi sharhlar, ba'zan esa shunchaki ularning asarlari nomlari ilova qilingan olimlar tarjimai hollari to'plamlari vujudga kelishida o'zining real tajassumini topgan edi. Butun o'rta asrlar davomida Turon-Turkistonda bibliografik axborotlar mavjudiyati tarixiy shakllarini tadqiq etish bibliografik va biobibliografik qo'llanmalar namunalari rang-barang turlari va shakllarini aniqlashga imkon berdi. Tadqiqot davomida ularning quyidagi turlari aniqlandi va ko'rib chiqildi, jumladan.

A. Alohida bir shaxsning hayoti va ijodi to'g'risidagi uning asarlari nomlari ro'yxati ilova etilishi sohasi bo'lgan personal (xususiy) ko'rsatkichlar (masalan, Abu Rayhon Beruniy «Fixristi»).

B. Ma'lum bir guruh shaxslar to'g'risidagi materialga ega bo'lgan maxsus lug'atlar (masalan, Ibn Abu Usaybi'aning «Uyunu al-anbiya» (Payg'ambarlar haqida ishonchli manba).

V. Shaxslarning faoliyati va hayot fasllari bo'yicha rang-barang ma'lumotlarga ega bo'lgan milliy lug'atlar — odatda bir mamlakat fan arboblari va ularning kitoblari to'g'risida (masalan, Ibn an-Nodimning to'lig'icha X asrgacha bo'lgan arabiyzabon adabiyotlarning asosiy qismini o'zida mujassamlashtirgan «Kitab al-Fixrist» kitobi).

G. Musulmon olami mamlakatlari bo'yicha materiallarni umumiyligicha xalqaro miqyosda qamrab olgan holda butun boshli bibliografik qo'llanmalar majmui «xalqaro bibliografiya» tushunchasiga mos tushadi (masalan, arab, fors va turkiy tildagi asarlar alifbe tartibotida keltirgan 15007 kitoblar tavsifiga ega bo'lgan Hoji Xalifaning «Kashf uz-zunnun» (Buyuk olimlarni inkishof etish) yoki tasviflanayotgan har bir mamlakat yoki joydan bo'lmish mashhur kishilar asarlari nomlari ilova etilgan Ibn al-Yoqutning «Mujam al-buldon» (Mamlakatlarning alifbe tartibidagi ro'yxati) asarlar).

D. Bibliografik ma'lumotnomalar qatorida o'zlari qamrab olgan shaxslar va ularga bag'ishlangan adabiyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan bibliografik lug'atlar (masalan, Muhammad ibn Sulaymonning «Olimlarning hayot yo'li» va Sayyid Abdurrahmon Ashraf ar-Rumiyning «Toifalarning (olimlarning) (ular yozgan) asarlari soniga ko'ra tarjimai holi» asarlari).

E. «Tatimma «Sivan al-hikma», «Tazkirat al-mashoyix» (Shayxlar

yodnomasi) va «Tazkirat al-xattotin» (Kotiblar yodnomasi) namunasidagi entsiklopedik lug'atlar — ma'lumotnomalar.

J. Biobibliografik lug'atning alohida bir shakli, jumladan,: a) biobibliografik lug'at; b) adabiy antologiya; v) entsiklopedik lug'at — ma'lumotnoma o'rtasida oraliq maqomni saqlab qolgan «Tazkirat ush-shuaro» (Shoirlar yodnomasi). Aytib o'tilgan kitob namunalari barcha uch turi unsurlari «Tazkirat ush-shuaro» kitob turi shakllarida ishtirok etadi.

9. O'rta asrlar davri Turkiston kitob va kitobat ishi tarixining farqlovchi xususiyati va etakchi tendentsiyalaridan biri kitobat madaniyatida turkiyzabon, forsiyzabon va arabiyzabon qo'lyozma kitoblarning mavjud bo'lishi va yonma-yon rivojlanishidir. Musulmon madaniyati va faniga qo'shgan hissasi, shuningdek, o'zining etarlicha umumiy madaniy darajasiga mos ravishda musulmon olamidek bir madaniyat makonining o'z intellektual salohiyati bo'yicha shunday bir qudratli tarkib toptiruvchisiga Turon-Turkiston va uning xalqlari boshqa xalqlar barobarida madaniyat sub'ektlari va madaniy qadriyatlarni yaratish hamda ulardan foydalanish jarayoni faol ishtirokchilari sifatida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida muomalada bo'lgan arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan kitoblar va asarlar butun bir majmuasi vorislari va egalari bo'lib qoldilar. Turon-Turkiston kitob repertuarida va uning kitob bozorida arab, suryoniy, shimoliy afrika, ispan, eron, turkiston, kavkaz, hind mualliflarining ham arab tilida, ham forsiy va turkiy tillarda yozilgan ko'p sonli kitoblari mavjud va muomalada bo'lishi musulmon mamlakatlar o'rtasida amalga oshirilgan madaniy ayirboshlashning asosiy jihatlaridan biri bo'lmish keng miqyosdagi xalqaro kitob ayirboshlash bilan shartlangan edi.

O'rta asrlar Turkistoni kitob repertuari, ya'ni kitob va kitobat ishi tarixining turli davrlarida naqd kitob savdosi assortimenti va kutubxona fondining asosiy farqi shundaki, bu erda ham umuman O'rta Sharqdagi kabi, asosan forsiy-doriy, yangi fors, tojik va eski turkiy tildagi kitoblarning bu tillarning Markaziy Osiyo, Eron, Ozarboyjon, Afg'oniston mintaqalarida, Hindistonning ayrim tumanlari va ularga chegaradosh viloyatlarda tarqalganligi sababiga ko'ra muomalada bo'lishidirki, ayni chog'da ham turkistonlik mualliflarning ham boshqa mamlakatlar vakillarining arabiyzabon ma'naviy, gumanitar va tabiiy-ilmiy mavzudagi kitoblari xalqaro kitob ayirboshlash va arab tili sharofatidan butun musulmon olami bo'ylab muomalada bo'lgani edi. Aynan ana shu kontekstda Turkiston kitob repertuari bilan musulmon olami boshqa mintaqalari kitob repertuari ayniyati va tafovuti xususida so'z yuritishimiz mumkin.

O'rta asrlar Turkistoni har bir alohida olingan davlat tuzilmasi kitobat

repertuari yadrosini inson bilimlari o'sha kezlarda ma'lum bo'lgan barcha tarmoqlari bo'yicha qo'lyozma kitoblar majmuini tuzilmaviy-mavzuiy jihatdan hamda kitob turlari, namunalari, shakllari bobida bir xildagi kitoblar tashkil etgan. Binobarin, kitob repertuari yadrosida adabiyot va adabiy-kitobiy janrlar, ilmiy va ma'naviy bilimlarning barcha sohalari bo'yicha ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar turlari butun boshli xazinasi, qo'lyozma kitoblar turlari va namunalarining butun rang-barangligi o'z aksini topgan edi.

Kitob va kitobat ishi tarixi ilk mumtoz davrida, ya'ni IX—XI asrlardan tortib to mo'g'ullarning 1220 yildagi Turkistonga istilosiga qadar bo'lgan butun boshli tarixiy davr mobaynida adadi ko'paytirilishi intensivligi darajasi va muomalada bo'lgan kitoblarning umumiy miqdoridagi solishtirma salmog'i bo'yicha islom dini muqaddas kitobi Qur'on va ilohiyotshunoslik-qur'onshunoslik fanlari butun boshli majmuiga kiruvchi kitoblar oldingi marrani egallagan edi. Tabiiy-ilmiy mavzulardagi va gumanitar kitoblar shundan keyin keladi, uchinchi o'rin esa adabiy-badiiy kitoblarga nasib etgan edi. Ikkinchi guruhga mansub kitoblar orasida bu davrda Turkiston arabiyzabon mualliflari asarlari ustunlik qilgan edi.

Kitob va kitobat ishi tarixining mumtoz davrida (XIV—XVII asrlar), ya'ni davlat qurilishi va ma'naviy hayotda mo'g'ullar hukmronligi mash'um oqibatlari bartaraf etilganidan keyin boshlangan davrda, Turkistonda etnik va lisoniy vaziyat navbatdagi sezilarli o'zgarishga uchraganidan keyin ilmiy faoliyat, adabiy-badiiy ijodiyot va qo'lyozma kitoblar ishlab chiqarish sohalarida ustuvor yo'nalishlar va eng afzal yo'nalishlar sezilarli o'rin almashinuvi ro'y berdi. Kitobat repertuarida Turkiston xalqlarining milliy tillaridagi kitoblar ko'pchilikni tashkil eta boshladi. Arabiyzabon Qur'on va ilohiyot-qur'onshunoslik fanlari bo'yicha kitoblardan so'ng forsiy va turkiy tillardagi adabiy-badiiy kitoblar ikkinchi o'rinni mustahkam egallay boshladi, uchinchi va to'rtinchi o'rinlarda ham tegishlicha forsiy va turkiy tillardagi gumanitar va tabiiy-ilmiy mavzudagi kitoblar muqim joylashib oldi. Ana shu tillarda ilohiyot va ilmiy asarlar, shuningdek, tafsir-sharh asarlar va mansuba-naziralar miqdori ortib borishi kuzatiladi. Bunday nisbat Turkiston kitobat repertuarida XIX asrning yarmiga qadar, ya'ni kitob va kitobat ishi tarixining so'nggi mumtoz davrigacha saqlanib qolaverdi.

10. Turon-Turkiston kitobat madaniyatida arabiyzabon, forsiyzabon va turkiyzabon qo'lyozma kitoblarning yonma-yon rivojlanishi va mavjud bo'lishi Turkiston kitobat ishi rivojlanishi tarixi davomida arab, fors va turkiy kitobat madaniyati unsurlari integratsiyalashuvi va differentsiyalashuvini taqozo etgan edi. Bu narsa natijada arab, fors va turkiy kitobat madaniyat

unsurlarining yagona Turkiston kitobat madaniyati tarkib toptiruvchi unsurlariga sinkretizmi, sintezi va shakl o'zgartirishiga olib keldi. Shu bilan birga, Turkiston xalqlari milliy madaniyatining keyingi rivojlanishi integratsion jarayonlar barobarida kitobat madaniyatining tojik, o'zbek, turkman, qozoq va qirg'iz kitobat madaniyatiga bo'linish tendentsiyasini ham shartlab qo'ygan edi.

11. Kitobat repertuari tarkibini tahlil qilish va qo'lyozma kitoblarni ham de visu (vizual, bevosita), ham sharq qo'lyozmalari kataloglari bo'yicha tadqiq etish asarni nashrga (ya'ni qo'lyozma kitobga) aylantirishni tashkillashtirishning turli usullari orqali qo'lyozma kitoblar rivojlanishining ichki qonuniyatlarini aniqlash. Turkiston qo'lyozma kitoblari turlari, namunalari va shakllari butun rang-barangligini tadqiq etishga imkon berdi. O'rta asrlar Turkistoni kitobat madaniyatida nashrga (yoki biz ko'rib chiqayotgan holdagi kabi qo'lyozma kitobga) aylantirilayotgan asar janri bilan nashr turi o'zaro bir-biriga bog'liqligi va o'zaro bir-birini taqozo etishidek kitobat rivojlanishi umumiy qonuniyati, nashr turi va uning janrga munsubligining asar (asarlar) shakli bilan shartlangani to'liq va ishonarli namoyon bo'lgan edi. Tarixiy-tipologik tahlil Turkiston xalqlari kitobat madaniyatida jahon kitobat madaniyatida barcha uchta mashhur nashr turi, ya'ni aynan «Asarlar to'plami», «To'plam» va «Alohida asar nashri», ya'ni bitta alohida asarni o'z ichiga olgan qo'lyozma yoki bosma nashr, shuningdek, ilmiy va ilmiy-ommabop tipidagi nashrlar yuzaga kelgan va tadrijiy rivojlanib borganini ko'rsatadi. Qo'lyozma kitoblarning «xamsa», «devon», «bayoz», «tazkira», «majmua», «kachkul», «g'azaliyot», «muxammasot», «qasoid», «ruboiyot», «fardiyot», «mufradot», «muqattaot», «muraqqa», «munshaot», «muntaxab», «risola», «qit'a», «urjuza», «muxtasar», «qomus», «fixrist», «lug'at», «farhang», «sharh» kabi qo'lyozma kitoblar tiplari shakllarining ko'rinishlari, shuningdek, kitoblarning alohida tipi — Hadislar to'plami — musulmon olamida bilimlarni etkazib berishning alohida bir shakli sifatida va Tafsir — musulmon dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'onga sharhlar sifatida vujudga kelgan va rivojlangan edi.

Turkiston qo'lyozma kitoblari u yoki bu turi, namunasi va shaklini hamda kitobat ishi hodisasini ifodalovchi barcha terminlar o'z tarixiy kelib chiqishiga, muayyan etnik madaniyatga oidligiga ko'ra «musulmon olami»ning arab-fors-turkiy superetnosi madaniyatining kichik bir tizimi sifatida va, nihoyat, etimologiya sifatida arabzabon (yoki arabcha), eroniyzabon (yoki fors-tojik) va turkiyzabon (yoki turkiy) turlarga bo'linadi. Turkiston kitobat madaniyatida terminlar yagona tizimiga va o'zlari ifoda

etgan kitobat ishi hodisalariga integratsiyalashib, ular ayni mahalda go'yo superetnos darajasidan etnos darajasiga pasayib borgan holda Turkiston xalqlaridan har birining kitobat ishi tushunchasini o'zgartiradi. Boshqacha aytganda, arabcha, fors-tojikcha, turkiycha terminlar mujassam bir ko'rinishda Turkiston xalqlaridan har birining kitobat madaniyatidagi terminlar yagona tizimini vujudga keltiradi. Ushbu holat ana shu yagona terminologiya tizimini aynan «Turkiston kitobat madaniyati» tizimining ajralmas uzviy unsurlaridan biri sifatida «turkistoniy» tarzida malakalashtirishga imkon beradi.

IV bob. MUSTAMLAKA TURKISTONDA KITOBAT ISHI (1867–1917 yillar)

1-§. Jamiyat siyosiy va ijtimoiy hayotini belgilovchi asosiy omillar

Chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning istilo qilinishi, Rossiya imperiyasining nisbatan mustaqil ma'muriy-xo'jalik birligi va odatdagi mustamlaka hududi sifatida Turkiston general-gubernatorligining (chor ma'murlari Turonzaminga shunday nom qo'ydilar) shakllanish jarayoni qariyb yigirma yil – 1865 yildan 1884 yilgacha davom etdi. Qonli janglardan keyin 1865 yilda chor qo'shinlarining Toshkentga kirishi, 1867 yil 11 iyulda dastlab ikki viloyat – Sirdaryo (Turkiston) va Ettisuvni o'z ichiga olgan, markazi Toshkentda joylashgan Turkiston general-gubernatorligining ta'sis etilishi, Turonzamin xonliklarini (1868 yilda Qo'qon xonligi va Buxoro amirligini, 1873 yilda esa – Xiva xonligini) jangda engish yo'li bilan ularni o'zini Rossiya imperiyasining vassali deb tan olishga majburlash, 1876 yilda Qo'qon xonligi qo'shinining tor-mor keltirilishi va xonlikning tugatilishi, uning hududida Farg'ona viloyatining tashkil etilishi va, nihoyat, uzoq davom etgan urush va turkman xalqi qarshiligining engilishi natijasida 1884 yilda Turonzaminning g'arbiy va janubi-g'arbiy hududlari – Turkmanistonning bosib olinishi chor Rossiyasi Turonzaminda olib borgan istilochilik siyosatining asosiy bosqichlari bo'ldi[434]. 1886 yilda chor hukumati tomonidan qabul qilingan «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq, uning tarkibiga uch viloyat: Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlari kiritildi. Turkiston o'lkasi tarkibidan turli yillarda Ettisuv (1867–1882 va 1899–1917 yillar) va Kaspiyorti (1899–1917) viloyatlari ham o'rin oldi. Shu tariqa chor Rossiyasi tomonidan istilo qilingan hududlarga birinchi marta rasman «Turkiston o'lkasi» degan nom berildi.

Umumiy boy tarix, o'ziga xos bir-biriga yaqin madaniy an'analar, diniy-axloqiy qarashlar va qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan, asrlar davomida turkiy va fors-tojik tillarini o'z ona tilidek qabul etib baravariga muloqot vositasi sifatida ishlatib kelgan va yagona Turonzamin xalqini

---

[434]Bu haqda batafsil axborot va zamonaviy tahlil «Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. T.: «Sharq», 2000. – 464 bet» nashrida keltirilgan. Kitobga shu tarixiy davrga bag'ishlangan 266 asarni o'z ichiga olgan adabiyotlar ro'yxati ham ilova qilingan.

(superetnosini) tashkil etgan etnik birlashmalar va ular yashab turgan ona Vatan – Turon-Turkiston chor Rossiyasi mustamlakasiga aylandi.

Rus mustamlaka istibdodi tizimi siyosiy va iqtisodiy zo'ravonlik, tabiiy va mehnat resurslaridan vahshiyona foydalanishning barcha mavjud usullarini to'liq ishga soldi, tub aholining milliy davlat-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida o'z hukmronligini o'rnatdi. Ishlab chiqarish kuchlarining sifat jihatidan yangilanishi va rivojlanishiga ochiq-oydin qarshilik ko'rsatish, Turonzamin xalqining yagona etnogenetik ildizlari va superetnos sifatidagi belgilarini qabul qilmaslik va inkor etish, bu xalqni subetnik farqlariga qarab ongli tarzda ajratish va bir-biriga qarshi qo'yish, uning ma'naviy ehtiyojlari va ma'rifiy talablariga, madaniy-tarixiy o'tmishiga bepisand qarash, keng ko'lamda ruslashtirish siyosatini olib borish va ayni vaqtda eski feodal, o'rta asrlarga xos tartib-qoidalar va xurofiy aqidalarning tarafdorlari, mutaassib shaxslarga homiylik qilish, erkin va hur fikrlilikka yo'l qo'ymaslik – xullas, mustamlaka hukmronligi tizimining tarkibiy qismi hisoblangan barcha ob'ektiv va sub'ektiv omillar majmui chor Rossiyasi Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosatiga ham xos edi.

Turonzamin xalqini harbiy kuch vositasida istilo qilib, o'lkani mustamlakaga aylantirish borasida Rossiya imperializmi bu erni xom ashyo manbaiga va o'z sanoatining mollari pullanadigan tobe bozorga aylantirish siyosatini o'tkazdi. Turkiston general-gubernatorligi ijtimoiy adolatsizlik va milliy jabr-zulmga asoslangan hokimiyat edi. Bu erda chorizm zulmi, o'lkani boshqarishda shafqatsizlik va zo'ravonlik, ruslashtirish va rus nufusini ko'paytirish siyosati, mahalliy zodagonlarning feodal jabr-zulmi, jamiyatning ma'lum qatlamlariga xos bo'lgan mutaassiblik va jaholat, o'rta asrlar darajasidagi ta'lim, qashshoqlik, kasallik va epidemiyalar mujassamlashgan edi. Chor mustamlaka ma'muriyati byudjetning 87% ni ochiq va maxfiy politsiyani ta'minlashga va atigi 1,8% ni maorif, shunda ham faqat rus ta'lim tizimi ehtiyojlariga sarflar edi. Milliy ta'lim tizimi esa xususiy tadbirkorlik, o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash va o'z xarajatlarini o'zi oqlash hamda xayr-ehsonlar hisobiga faoliyat ko'rsatar, unga byudjetdan bir tiyin ham ajratilmas edi.

Hozirgi Markaziy Osiyo davlatlarining yaqin tarixidagi hodisalar jarayonida (ayniqsa, XX asr boshidan boshlab) rus chorizmining milliy mustamlakachilik siyosati hukm surgan sharoitda Turon zaminiga intellektual, iqtisodiy va ma'rifiy rivojlanish, texnologik va madaniy

andozalarning evropacha yangi usullari va metodlari kirib keldi. Ob'ektiv tarzda, ayrim hollarda esa hatto mustamlaka siyosatiga zid ravishda xalqaro savdo, qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarishlari uchun yangi shart-sharoitlar vujudga keldi. Xonliklar o'rtasida ichki urushlar chiqishi ehtimoli kamaydi, oldingi feodal parokandalik tugatildi, milliy o'zlikni anglashning o'sishi va Turonzamin xalqlarining milliy birlashishi jarayonlari kuchaydi.

XIX asrning oxirgi yigirma yili va XX asrning dastlabki o'n besh yilida Turonzamin xalqlarining madaniy hayotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shaharlarda yangi qurilgan masjidlar va madrasalar qoshida, chor ma'murlarining farzandlari uchun tashkil etilgan maktablar, tub aholi vakillarining bolalari uchun mo'ljallangan rus-tuzem maktablari qoshida kutubxonalar ochildi. Turonzamin kitobat madaniyati uchun yangi bo'lgan, qiroatxona va kitob do'konlariga ega noshirlik uylari, rus va Evropa tillaridagi adabiyotlarni o'zida jamlagan jamoa kutubxonalari paydo bo'ldi.

1870 yilda Turonzaminda birinchi ovrupocha kutubxona – Toshkent, keyinchalik Turkiston Jamoa kutubxonasi ish boshladi. Bu kutubxona faoliyati, o'z nomiga ko'ra, burjuacha ommaviylik printsipiga asoslanishi lozim edi. Mazkur printsip kutubxona fondlaridan mulkiy va ijtimoiy holati, milliy mansubligidan qat'i nazar, barcha shaxslar foydalanishi mumkinligini nazarda tutardi. Lekin amalda bu printsip to XX asrning 20-yillari boshlariga qadar ham to'liq amalga oshirilmay keldi.

1870 yilda Turkistonda davriy matbuotga asos solindi. 1870 yil 28 aprel (10 may)da Toshkentda rus mustamlakachi ma'murlarining rasmiy gazetasi – «Turkestanskie vedomosti»ning birinchi soni chiqdi. Gazeta terilgan va chop etilgan Turkiston general-gubernatorligi okrug harbiy shtabining bosmaxonasi arabcha shriftga ham ega bo'lib, undan «Turkestanskie vedomosti»ning o'zbek va qozoq tillaridagi ilovalarini chop etishda foydalanildi. 1883 yildan boshlab ilovalar «Turkiston viloyatining gazeti» nomida o'zbek tilida chiqadigan mustaqil rasmiy nashrga aylandi.

80-yillarda tub millat vakillarining farzandlari uchun mo'ljallangan, rus tilida va mahalliy tillarda ta'lim beriladigan rus-tuzem maktablari, 90-yillarda esa yangi usuldagi milliy maktablar – usuli jadid maktablarining paydo bo'lishi xalqning ijtimoiy ongida, Turkiston jamiyatining umumiy ma'rifiy va madaniy darajasida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga zamin hozirladi, yangi kitobxonning shakllanishiga, nafaqat qo'lyozma kitoblar

muxlislari, balki bosma kitoblar muxlislari sonining ko'payishiga ham imkoniyat yaratdi. Turkiston shaharlarining ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar dunyoviy bilimlar tarqalishi jarayonining chuqurlashishiga, Turkistonga ovrupacha madaniyat, shu jumladan, kitobat madaniyati unsurlari kirib kelishiga yo'l ochdi.

Turonzamin xalqlarining ijtimoiy-madaniy evolyutsiyasi XIX asrning 70-yillarida milliy matbaachilikning paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbek va turkman tilidagi dastlabki kitoblar XIX asrning boshida Turonzamindan tashqarida – Rossiya va Tataristonda chop etilgan edi. Chunonchi, 1802 yilda Rossiya Fanlar akademiyasining bosmaxonasida o'zbek tilidagi birinchi darslik – XVIII asr oxirida o'zbek ma'rifatparvari Inoyat Boqi Atnometov tomonidan tuzilgan «Alifbe» chop etildi[435]. 1814 yilda Qozon universiteti bosmaxonasi turkman muallifi Alining «Kitobi qissai hazrati Yusuf» – «Yusuf alayhissalom qissasi» asarini chop etdi[436]. Oradan o'n yil o'tgach, 1824 yilda Qozonda Turonzamin xalqining tugab borayotgan o'rta asrlardagi tarixiga oid boy manba - o'zbek muallifi Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asarining bosma shakli hayot yuzini ko'rdi[437].

Turkistonda birinchi bosmaxona 1868 yilda Toshkentda, Turkiston harbiy okrugining shtabi qoshida ochildi. Shu yili bosmaxonada birinchi kitob – sayyoh va olim N.A. Severtsovning «Chu va Norin cho'qqilari ostonasidagi tog'li mamlakat va undan sobiq Xitoy Turkistoniga olib boradigan yo'llar to'g'risida» asari (rus tilida) chop etildi. 1871 yilda shu bosmaxonada Turkistonda birinchi o'zbek tilidagi kitob – «1871 yil taqvimi» bosmadan chiqdi. Bu taqvim «Turkiston viloyatining gazeti» xodimi tarjimon Shohimardon Ibrohimov tomonidan tuzilgan edi. 1868–1917 yillarda Turkiston o'lkasi hududida turli davrlarda jami 70 dan ortiq bosmaxona va tosh bosmaxona faoliyat ko'rsatdi[438]. Bosmaxonalar hunarmandlik ustaxonasi ko'rinishida bo'lib, kam quvvatli dastgohlar

---

[435]Qarang: Ziyaev X. Bukvaryu – dvesti let. Pravda Vostoka. 1984, 31 iyulya.

[436]Qarang: Yazberdiev A. Turkmenskaya kniga na arabskoy grafike. Ashxabad, O'lo'm, 1981, s. 79.

[437] O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar jamg'armasi, inv. №12611.

[438]Qarang: Chabrov G.N. Iz istorii poligrafii i izdatelstva literaturo' na mestno'x yazo'kax v dorevolyutsionnom Turkestane (1868-1917). – V kn.: Istoriya nauki. Kn. 7. Tashkent, 1954, s. 82 G' Trudo' SAGU. Novaya seriya. Vo'p. 57.

bilan jihozlangan edi. Bu bosmaxonalarning barchasi kapitalistik tipdagi xususiy korxonalar bo'lib, ularning egalari eng avvalo daromad olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Faqat harbiy okrug shtabi, Harbiy-xalq boshqarmasi, general-gubernator kantselyariyasiga qarashli davlat bosmaxonalari hamda Xiva xoni Muhammad Rahim II ning saroy tosh bosmaxonasi bundan mustasno edi.

Turkiston o'lkasida bosmaxonalar va tosh bosmaxonalar rus savdogarlari, iste'fodagi harbiylar va amaldorlar, tub millat vakillari tomonidan tashkil etilardi. Agar rus tilidagi kitoblar faqat bosmaxona usulida va faqat ruslarga qarashli bosmaxonalarda chop etilsa, fors va turkiy tillardagi kitoblar ruslarga va o'lkaning tub aholisi vakillariga qarashli bosmaxonalarda va tosh bosmaxonalarda chop etilar edi.

Chop etish usuli texnologik jihatdan sodda va arzon bo'lgan, ko'rinishdan an'anaviy qo'lyozma kitoblarni eslatadigan toshbosma kitoblar (nashrga tayyorlash chog'ida ularning matni qo'lda ko'chirilar edi) kitobxonlar ommasining asosiy talablariga javob berardi. Ammo, toshbosma nashrlar faqat bosmaxonalarning egalari, kitobfurushlar va noshirlarning foyda olishga intilishlariga javob berardi desak noto'g'ri bo'ladi. Ob'ektiv tarzda ular keng aholi orasida ma'rifat tarqatishga xizmat qilardi. Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalarining she'riy to'plamlari, ilmiy asarlari, usuli jadid maktablari va eski maktablar uchun mo'ljallangan darsliklar, Turonzamin tarixiga oid kitoblar, ma'rifiy va demokratik yo'nalishdagi nashrlar, qo'shni Sharq mamlakatlari va Rossiya ma'rifatparvarlarining tarjima asarlari, Qur'oni karim nashrlari, unga yozilgan tafsirlar, madrasalar va diniy maktablar uchun darsliklar Turkiston milliy kitob repertuarida muhim o'rin tutar edi.

Milliy matbaachilik va nashriyot ishining rivojlanishi Turonzamin xalqining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratdi. Jamiyatning turli tabaqalari va ijtimoiy guruhlari vakillari bu imkoniyatdan o'z manfaatlarida foydalanishga harakat qildilar. Asosiy g'oyaviy-siyosiy kurash bir nechta g'oyaviy oqimlar o'rtasida kechdi: 1. Chor mustamlakachi ma'muriyatining g'ayrimilliy assimilyatorlik (hokim xalq tili va madaniyatini boshqa xalqlarga zo'rlik bilan singdirish, etnografik ma'noda – bir xalqning o'z tili, madaniyati va milliy o'zligini yo'qotgan holda boshqa xalqqa qo'shilishi), izolyatsionistik (xalqlar va millatlarni dunyo hamdo'stligidan va bir-biridan ayirish, bir-biriga qarshi gij-gijlash) siyosati ruhi bilan sug'orilgan rus buyuk davlatchilik shovinizmi

mafkurasi. 2. Aholining muayyan qismi, chunonchi, ruhoniylar, yirik va o'rtahol er egalarining o'rta asrlarga xos xurofiy, eskicha qarashlarini ifodalovchi patriarxal-feodal mafkura. 3. Ahmad Donish (1827–1897), Furqat (1859–1909), Muqimiy (1850–1903), Sattorxon Abdulg'afforov (1843–1901), Berdaq (1827–1900), Avaz O'tar (1884–1919), Zavqiy (1853–1921), Anbar Otin (1870–1914) singari yirik ma'rifatparvarlarni maydonga chiqargan feodalizmga qarshi ma'rifatchilik mafkurasi. 4. XIX asrning 90-yillari – XX asrning dastlabki yigirma yilida keng faoliyat ko'rsatgan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Siddiqiy Ajziy, Abdulla Avloniy, To'lagan Xo'jamyorov (Tavallo), Sadriddiy Ayniy, Ahmad Zaki Validiy, Ubaydulla Asadullaxo'jaev, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi Vatan mustaqilligi uchun otashin kurashchilarni tarbiyalagan, feodalizmga va mustamlakachilikka qarshi yangi milliy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifatchilik harakati – jadidchilik[439]. Shuningdek, 5. Rossiya sotsial-demokratlari. 6.

[439]Turonzamin xalqining chuqur fundamental o'ziga xosliklari, uning teran, sermazmun ma'naviy va axloqiy qadriyatlari, asrlar osha shakllangan madaniy an'analari zamirida vujudga kelgan, tub xalq manfaatlarini ifoda etuvchi birdan-bir ijtimoiy-siyosiy va milliy harakat – jadidchilik va uning vakillari ma'naviy madaniyat va ma'rifatni yangilash va rivojlantirishga juda katta hissa qo'shdilar, xalq tafakkuri va ma'naviy salohiyatini boyitdilar, XIX asr oxiri – XX asr boshidagi yangi tarixiy sharoitda strategik ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha dolzarb masalalarni o'rtaga tashladilar va ularga muvofiq echim topdilar. Jadidchilikka oid eng yangi tadqiqotlardan biri – «Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik» asarining muallifi, prof. Begali Qosimov ma'rifatchilik va madaniy-tarixiy vorisiylik sohasida jadidlar o'z oldiga qo'ygan ayrim vazifalarni shunday tavsiflaydi: «Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi edi. Bu tabiiy. Hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, etishtirmoq lozim. Eski, an'anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin, chunki zamon o'zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o'quvchi tarix, jug'rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. So'nggi uch-to'rt asr dunyo taqdirini boshqacha o'zanga solib yubordi. Ovrupani oldinga olib chiqdi. Uning qo'lini sarbaland qildi. Endi Ovrupa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo'lmaydi. Bu ilm-fanni o'zlashtirmoq uchun Ovrupa tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o'zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchala jihatni ham ushlamoq kerak bo'ladi. Ushlaganda ham hech birini suiiste'mol qilmasdan. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa, yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, yolg'izgina din ushlansa, dunyo qo'ldan ketadi. Faqat o'zlik, millat desak, yana dunyodan ajrab qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo'lmaydi. Ovrupalashsak, o'zlik yo'qoladi. Bu ham foiia. Muvozanat kerak. Buni jahon tajribasi daf'alarcha sinovdan o'tkazgan» (Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent, «Ma'naviyat», 2002. – 17-18-betlar).

Konstitutsion demokratlari. 7. Monarxistlar. 8. Sotsial revolyutsionerlar va, nihoyat, 9. Bolsheviklar mafkurasi. Mazkur har xil g'oyaviy oqimlar o'rtasidagi kurash kitobat ishida, chunonchi, bilimning turli sohalarida chop etilgan bosma kitoblarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishida (kitob ko'paytirish qo'lyozma usulining tez barham topishi bilan baravar) va kutubxonachilik ishining rivojlanishida ham o'z aksini topdi.

2-§. Kitob nashriyotchiligi

2.1. Kitoblar adadini ko'paytirish an'anaviy qo'lyozma usulidan milliy bosma kitob noshirligiga o'tilishining o'ziga xos jihatlari

Arab imlosidagi alifbeda mahalliy tillarda bosma kitoblar litografik–toshbosma usuli bilan kitob ko'rinishida nashr etilishi Turkistonda kitob noshirligi ishi ravnaq topishining o'ziga xos jihati bo'ldi. Rus tilida esa kitoblar harf terish usuli bilan tipografiya (bosmaxona)da chop etilar edi.

Milliy kitob noshirlari nega aynan litografik matbaachilik usulini tanlagani ham o'z tarixiy sababiga ega. Gap shundaki, har qanday jamiyatdagi kitobat ishi bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar odatda konservativ, ya'ni muhofazakor va barqaror tabiatga ega bo'ladi. Tarixan shakllangan barqaror yozma, kitobat an'analari izdan chiqishi, kitobat ishi shakllari va ko'rinishlari, kitoblar nusxalarini ko'paytirish usullari almashishi har bir sivilizatsiyada, har qaysi xalqda hamisha murakkab va og'riqli kechadi. Turkistonda va hech bir istisnosiz barcha musulmon mamlakatlarida bosma kitob matbaachiligi G'arb mamlakatlariga qaraganda tarixan ancha keyinroq vujudga kelganligi ham bunga yorqin bir misoldir. Mazkur sotsio-madaniy fenomen yoki sifatiy tafovut tahlili Turkistonda va unga chegaradosh bo'lgan bir-biriga o'xshash ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniy-mafkuraviy muassasalar va an'analarga ega mamlakatlarda bosma kitob matbaachiligiga o'tilishini tizginlab turgan bir qator umumiy ob'ektiv va sub'ektiv omillar mavjudligini namoyon etadi. Bu, eng avvalo, ikki ming yildan ziyodroq davr mobaynida bir o'zi chek-chegarasiz ustuvor hukmronlik qilib kelgan qo'lda xat yozish, kitoblar adadini ko'chirib ko'paytirish zabardast qo'lyozma usuli, xattotlik, kotiblik san'ati va hunarmandchiligi an'analaridir. Bu ayni mahalda jamiyatning texnologik yangiliklarga ehtiyotkorlarcha munosabati, texnikaviy tafakkur darajasi va ijtimoiy ong shakllari holatidir. Va, nihoyat, musulmon ruhoniylarining ilm-fan, texnika, ishlab chiqarishning yangi progressiv ixtirosi sifatida bosma kitob noshirchiligiga keskin salbiy

munosabati hisoblanadi. «Musulmonlar evropaliklardan o'qotar qurollarni hech ikkilanmasdan qabul qilishgan edi, biroq g'ayridinlarning boshqa bir ixtirosi bo'lmish bosma kitob matbaachiligini o'zlashtirish uchun esa shariat rahnamolarining alohida maxsus qarori talab etilardi, negaki bosma kitoblardan foydalanish din bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maktab hayotiga tub to'ntarishni olib kirgan bo'lur edi»[440] deya, asrlar davomida kitoblar adadini ko'paytirish yangi usuliga musulmon ruhoniylari va islom davlatlari hukmron tabaqalarining aniq bir tizimga solingan munosabati eng muhim sabablaridan birini sharhlab o'tadi akademik V.V.Bartold «Musulmon madaniyati» asarida.

Sharq va G'arb madaniyatlari chorrahasida joylashgan Turkiyadek bir mamlakat misolida hunarmandchilik taraqqiyoti davrining bosma kitob matbaachiligidek chinakamiga buyuk kashfiyoti bartaraf etishga to'g'ri kelgan mohiyat-e'tibori bilan sub'ektiv bo'lmish barcha to'siqlar va qiyinchiliklar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ilk evropacha tipografiya (bosma matbaa) Istambul shahrida 1494 yilda ochilgan edi. XVI asrda bu erda arman. XVII asr boshlarida esa grek tipografiyasi vujudga kelgan. XVIII asrda Usmonli imperiyasi sarhadida endilikda katoliklar, armanlar va greklar jamoalariga qarashli bo'lgan o'nlab bosmaxonalar ishlab turmoqda edi. Biroq, ayni mahalda, Usmonli imperiyasida turk tilida ham, boshqa sharq tillarida ham bosma kitoblarni nashr etish davlat tomonidan taqiqlab qo'yilgani ma'lum. Boshqa mamlakatlarda turli tillarda nashr etilgan din va ilohiyot mavzusidagi kitoblarni mamlakat hududiga olib kelishga ham ruxsatnoma berilmagan edi. Faqat Usmonli sultoni Ahmad III ning 1727 yil 5 maydagi Turkiyada bosma kitob matbaachiligini joriy etish to'g'risidagi farmonidan keyingina birinchi turk matbaachisi Ibrohim Mutafarrih o'sha yil dekabrida Istambul shahrida dastlabki turk bosma matbaasini ochishga muvaffaq bo'ldi[441].

Shunga o'xshash mahalliy aristokratiya va musulmon din peshvolari tomonidan bosma arab imlosidagi matnni xushlamaslik fenomeniga biz Turkistonda ham duch kelamiz. Ularning bosma kitob noshirligiga salbiy munosabatiga jamiyatda ustuvor hukmronlik qilgan qo'lyozma ko'chirish ana'analari ham, akademik V.V.Bartold tarafida ta'kidlab o'tilgan omillar ham ta'sir o'tkazgan edi. Shunga qaramasdan, musulmon olamiga mansub mualliflar kitoblarining bosma nashrlari Turkistonda XVIII asr oxiridayoq

[440] Bartold V.V. Kultura musulmanstva. Soch. T. 6. M.: 1966. - S. 200.

[441] Ersoy O. Turkiyeye matbaaynin girisi ve ilk bosilan eserler. Ankara, 1959. S. 33.

paydo bo'la boshlaydi.

Turkiston xalqlari milliy eski bosma kitoblari repertuarining salmoqli qismini toshbosma kitoblar tashkil etadi, qo'lyozma, bosma (harf teruv) va toshbosma kitoblari ayni bir mahalda yonma-yon rivojlanishi esa mustamlaka Turkistonda kitobat madaniyati taraqqiyotining o'ziga xos jihati hisoblanadi. Harf terilmaydigan, oldindan qog'ozga qo'lda yozib chiqilgan va tosh qolipga tushirilgan aynan o'zidek aks ettirilgan matndan nusxa izlar — «ottisklar» olinadigan, poligrafiya terminologiyasi bo'yicha aytganda, yassi bosma usuli bo'lmish toshbosma matbaachilik amaliyoti Turkiston shaharlarida keng qo'llandi va tarqaldi. Milliy kitob noshirlari tomonidan bosmaning aynan ana shu usuli tanlab olinishi va uning milliy kitob matbaachiligida mustahkam o'rin egallashi asosiy sabablaridan biri esa litografiya bosma usuli kitobni bosmadan chiqarish jarayonida xattot mehnatidan ajralmas komponent tariqasida foydalanilishi, mohiyat-e'tibori bilan qo'lda kitob ko'chirish ming yillik an'analari silsilasini uzib tashlamasligi hodisasida mujassamlashgan edi. Boz ustiga, litografiya xattotning ko'p asrlik qo'lyozma kitoblar yaratilishi sohasidagi bilimlarini matnshunoslik nuqtai nazaridan ancha to'liq va sifatli qo'lyozmalarni qayta ko'chirish uchun tanlab olishda ham, shuningdek, qo'lda kitob ko'chirganda xuddi burungidek kitobat qadriyatlarini boyitish va ko'paytirishga o'z malaka va mahoratini sarflashi uchun ham yangi imkoniyatlar sari yo'l ochib berdi. Shu tufayli toshbosma matbaa usuli milliy kitobat ishi va bosma kitob ishlab chiqarishning umumiy o'ta konservativ an'analariga og'riqsiz kelib qo'shildi. Harf teruvga asoslangan bosma matbaa usulidan farq qilaroq toshbosma matbaa usuli harf teruvchilar, muharrirlar, musahhihlar ishi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab sermehnat jarayonlarni amalga oshirishni talab qilmas, harf teruv va bosma dastgohlari, qimmatbaho va nodir arab shriftlarini sotib olishga xarajatlardan xalos etar edi. Xususiy tadbirkorlik barqaror va ustuvor bo'lgan bir sharoitda toshbosma matbaa usuli harf teruv bosma matbaa usuliga qaraganda ancha arzonga tushar, bu ham nihoyatda ahamiyatli bir hol edi.

Litografiya kitob bosmasi vujudga kelishi va rivoj topishi Turkiston xalqlari taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Bosma litografiya usuli keng tarqalishi faol kitob noshirchiligini boshlab bergan holda o'zida salmoqli tarixiy ahamiyatni ham mujassam etgan edi. Birinchi navbatda litografiyalash uchun «material» bo'lib xizmat qilgan tarix, falsafa, leksikografiya bo'yicha avvallari qo'lyozma holida ommabop bo'lgan

ishlar, mumtoz adabiyotga oid asarlardan endilikda ko'p sonli kitobxonlar bemalol foydalanadigan bo'ldi. Ana shu nashrlar tufayli biz qo'lyozmalari saqlanib qolmagan yoki nodir qo'lyozmalardagina mavjud bo'lgan asarlar haqida ham bilib olamiz.

Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, Turkiston milliy bosma kitob noshirchiligida litografiya bosma usuli mustahkam o'rin egallashi va ravnaq topishida xattotlik (kotiblik) san'atida turli-tuman maktablar va oqimlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, binobarin, usta xattotlar ancha arzon haq evaziga har qanday qo'lyozmani qayta ko'chirib bera olishardi, kitoblar adadini ko'paytirish qo'lyozma usuli endilikda xalqning kitoblarga nisbatan ortib borayotgan talab va ehtiyojlarini qondirolmasligi hodisasi ham muhim omil hisoblanadi.

XIX asr 80-yillarining o'rtalari — 90-yillarining boshlarida Turkiston shaharlarida vujudga kelgan qo'lyozma kitoblarga nisbatan arzon toshbosma kitoblarga barqaror talabdan o'z bosmaxonalarini ishga tushirgan xususiy tadbirkorlar, xususiy litografiya orqali u yoki bu nashrni bosmadan chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z zimmasiga olgan noshirlar va shunchaki buyurtmachilar, kitoblar adadiga buyurtma tayinlash, ulgurji sotib olish va chakana sotish bilan shug'ullangan kitobfurushlar foydalanib qolishdi. Kitobga bo'lgan talabni mavzu va tipologik jihatdan e'tiborga olib, fan va adabiyot tarixidan xabardorligidan, shuningdek, kitob ko'chiruvchi xattot mehnati va uning sharq qo'lyozmalari matnshunosligidagi bilimlaridan, sharq xalqlari kitoblari repertuarini bilishidan foydalanib, noshirlar va kitobfurushlar rang-barang mavzudagi kitoblarni nashr etishga kirishdilar.

Hindiston, Turkiya, Eron va Turon singari turli mamlakatlar noshirchilik amaliyoti, kitob savdosi, kitob bozori va repurtuarining o'ziga xosligi va tipik jihati bu o'lkalarda ularning xalqlari uchun mushtarak bo'lgan mualliflar doirasi — shoirlar, faylasuflar, din peshvolari, tarixchilar asarlari nashr etilishi va muomalada bo'lishidir. Bu hol esa mualliflar asarlari tillari (fors, tojik, umumturkiy yozma-adabiy til yoki turkiy tilning chig'atoy dialekti (lahjasi), o'zbek, ozarboyjon va turk, shuningdek, arab tili) bu mamlakatlar aholisi savodxon qismining ko'pchiligiga bemalol va erkin tushunarli ekanligidek bir hol bilan izohlanadiki, jamiyat qatlamlari savodxonligi to'g'risida so'z yuritishga esa hojat yo'q, zero, hech bo'lmaganda ikki tilni — turkiy va forsiy tilni bilish savodxonlikning barqaror alomati va sharti edi. Zullisonaynlik, ya'ni billingvizm yoki ikki

tillilik (turkiy va forsiy tillar nazarda tutilmoqda) yoki hatto uch tillilik hali IX—X asrlar davridanoq Turon va Eronning ko'plab olim va shoirlariga xos edi. Masalan, buyuk Abu Ali ibn Sino o'z asarlarini arab va fors tillarida dunyoga keltirgan, o'zbek va turkman mumtoz adabiyotlari klassiklari Navoiy va Bayramxon o'z asarlarini turkiy va forsiy tillarida, Nasimiy va Fuzuliy esa turkiy, forsiy va arab tillarida yaratgan edi.

Aytib o'tilgan omillar Hindiston, Eron, Turkiya, shuningdek, Tatariston (Qozon)dan keltirilgan turkiy, forsiy va arab tillaridagi bosma kitob mahsulotlari mahalliy nashrlar bilan muvaffaqiyatli raqobat qila olishining asosiy sababi bo'ldi. 1940 yilda Alisher Navoiy asarlari toshbosma nashrlarini tavsiflay turib, sharqshunos A.A.Semyonov Hindiston, Eron va Turkiya litografiyalarida Turkistondan bo'lmish kitobfurushlar buyurtmasi bo'yicha katta miqdorda kitoblar chop etilganiga e'tiborni qaratgan edi. Jumladan, u Istambul litografiyalarida toshbosma kitoblar chop etishga buyurtmalar bergan buxorolik kitobfurush Eshon Solihxo'ja nomini tilga olib o'tadi.

XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning dastlabki ikki o'n yilligida Turkiston kitob bozoridagi xorijiy toshbosma kitoblarning asosiy qismini Bombay, Lakhnav, Lahor, Dehli, Istambul, Qozon va Tehrondan keltirilgan nashrlar tashkil etgandi. Bular «Muzaffariy», «Karimiy», «Haydariy», «Muhammadiy», «Hasaniy», «Nasimiy», «Safdariy», «Yusufiy», «Mohtobiya», «Panjobiy», «Hamidiya», «Husomiy», «Islomiya», «Intizomiy», «Iftixor» va boshqa litografiyalar nashrlaridir. Import bosma kitob nashrlarining tarkibiy-mavzuiy tahlil qilinishi ular orasida diniy-ilohiyot adabiyotlari — asosan Qur'on va unga yozilgan tafsirlar, ilohiyot, shariat qonunchiligi va huquqi bo'yicha kitoblar ko'pchilikni tashkil etganidan dalolat beradi. Ikkinchi o'rinni adabiy-badiiy kitoblar — forsiyzabon va turkiy tilli mualliflarning to'plamlari (devon, bayoz, tazkira, bir jilddagi asarlar to'plami (kulliyot) egallaydi. Uchinchi o'rin o'quv adabiyoti va tarixiy asarlarga (saroy tarixiy solnomalari, risolalar, xronikalar, ularning tarixiy majmui), to'rtinchi o'rin — tibbiyot, farmakologiya bo'yicha kitoblar, lug'atlar, maxsus bibliografik asarlar, beshinchi o'rin esa geografiya, astronomiya va matematikaga oid kitoblarga tegishlidir.

2.2. Milliy kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etish tizimi

Bosma kitob matbaachiligi toshbosma usuliga o'tilishi bilan kitob

ishlab chiqarish qo'lyozma usulida ko'p asrlar davomida mavjud bo'lgan matnni nashrga tayyorlash va uni chop etish butun boshli tartibi o'zgarishga uchradi. Toshbosma kitob nashr etish jarayoni to'rt asosiy amaliyotdan iborat edi. Jumladan, kitob matni originali xattot tomonidan adadini ko'paytirish uchun tayyorlanishi, kotib tayyorlangan matnning tosh qolip (forma)ga o'tkazilishi, tosh qolipda aynan o'zidek aks ettirilgan matndan nusxa ko'chirib olish va, nihoyat, taboqlash va muqovalash jarayonlari.

Bosmaxona xo'jayinlari ma'lum miqdordagi to'lov evaziga foydalanib turish uchun dastgohlar va asbob-uskunalarni havola etishar, bosmadan chiqarish jarayonini matbaachilik (poligrafiya) materiallari (maxsus eritmalar, qog'oz, bo'yoqlar), texnik personal bilan ta'minlashni o'z zimmasiga olishar, buyurtmachilar va noshirlar bilan shartnomalar tuzishar edi. Ko'p hollarda litografiya egasi va noshir vazifalari bitta shaxsda o'rindoshlashgan bo'lar edi.

Toshbosma korxonasi egasi bo'lish har doim ham ayni mahalda matbaachilik ishlab chiqarishi texnologiyalarini yaxshi bilishni anglatmas, ko'pgina bosmaxona xo'jayinlari bilimdon mutaxassislar orasidan texnik direktorlarni moddiy ta'minlab turishar, texnik direktorlar esa u yoki bu kitobni chop etish bilan bog'liq bo'lgan hamma ishlarni yurgizar edi. Masalan, 1889 yilda Toshkent shahrida o'z toshbosma korxonasini ochgan V.M.Ilin nashriyot-matbaachilik jarayonlariga hech mahal chuqur kirib bormagan, bu bilan esa V.M.Ilin tomonidan texnik direktor lavozimiga tayinlangan Sergey Ivanovich Jabskiy shug'ullanar edi. Qo'qon shahridagi G.Shumakov va I.Vayner toshbosma matbaachiligi korxonalarida ham xuddi shunday ahvolni ko'rish mumkin. Biroq bu narsa ularga korxona mulkdori maqomida o'z familiyalarini kitoblarda qayd etilgan tipografiya yoki litografiya nomiga qo'shib qo'yishga monelik qilmagan.

Litografiyalarning rus egalaridan farq qilaroq mahalliy millatga mansub bo'lmish toshbosma ishlab chiqarish korxonasi tashkilotchilari litografiya bosma usuli sir-asrorini mukammal egallagan, vaziyat taqozo qilib qolgan taqdirda ottisklar — nusxa izlar olish uchun originalni o'zlari qayta ko'chirishlari mumkin, o'zlari iste'dodli va tolmas xattot bo'lgani uchun matnni tanlab olishi va tahrir qilishi, hatto o'z asarlarini kitob ko'rinishida bosmadan chiqarishi muqarrar edi.

Qo'lyozmani bosmadan chiqarishga tayyorlash bosqichida noshir noshirchilik jarayonining markaziy figurasi bo'lgan. Noshir nafaqat o'z shaxsiyatida muharrir va musahhih funktsiyalarini birlashtirgan, qolaversa,

nashr etilishi rejalashtirilgan qo'lyozma kitoblar matnlari matnshunoslik talablari masalasida yaxshi sifatli bo'lishi, qayta ko'chirilgan va nashr etilgan, shuningdek, qayta nashr etilayotgan kitoblarning badiiy va ilmiy saviyasi uchun bosh javobgar shaxsga aylangan edi.

Ayrim hollarda nashr etishga tayyorlanayotgan asar matnini noshirlar o'zi qo'lda ko'chirishgan. Turkiyzabon, forsiyzabon va arabiyzabon qo'lyozma kitoblar ko'p asrlik repertuarini obdon biladigan va tushunadigan malakali va boy tajribali xattotlar — kotiblar aytib o'tilgan ana shu barcha jarayonlarda noshirlarning eng yaqin yordamchisi va maslahatchisi sifatida ish ko'rishgan. Noshirlar litografiyalar egalari bilan barcha muzokaralarni yuritishgan, nashr mualliflari, xattotlari, homiylari bilan kontraktlar tuzishar, kitoblarning badiiy bezalishi, ularning bichimlari, ichki va tashqi ko'rinishlarini belgilagan holda qayta ko'chirish uchun qo'lyozmalarni tanlab olishar edi.

Nashrga tayyorlash, kitobni bosmadan chiqarish va uni sotishni tashkillashtirish butun jarayonini moliyaviy mablag' bilan ta'minlash qoida tariqasida buyurtmachilar tomonidan amalga oshirilgan. Noshirlarning o'zi, litografiya egalari, kitob mualliflari, kitobfurushlar, paychilikka asoslangan nashriyot-matbaa shirkatlari, shunchaki oddiy odamlar, kitobsevarlar va kitob shaydolari buyurtmachi bo'lishi mumkin edi. Ular ilmli, ziyoli va o'z davrining ma'rifatparvar kishilari bo'lgan. U yoki bu kitobni nashr etishga undovchi motivlar turlicha bo'lgan: eng shuhratparastona va mayda obro'parastona qutqular — mo'may foyda undirish, jamiyat a'zolari orasida o'z asarlarini keng tarqatish, shon-shuhrat qozonishdan tortib xalqni ma'rifatli qilishga imkon yaratib berish, uning intellektual salohiyatini, milliy madaniyatga ravnaq bag'ishlash, ilmiy bilimlarni tarqatishgacha bo'lgan eng olijanob va vatanparvarlik maqsadlarigacha uchraydi.

Toshbosma kitoblar noshirlari va buyurtmachilari ism-sharifi nashrlarning titul varag'ida yozib qo'yilgan.

Toshbosma kitoblar tadqiqotchisi R.Mahmudova tomonidan adabiy-badiiy va o'quv nashrlarini o'rganish jarayonida nashrni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash, ko'pincha qo'lyozmani nashrga tayyorlashni ham o'z zimmasiga olgan 80 dan ziyod kitob noshirlari, buyurtmachilari va homiylari nomlari aniqlangan[442]. Yigirmanchi asrning dastlabki

[442] Mahmudova R.M. Toshbosma asarlar va ularning o'zbek adabiyoti tarixidagi ahamiyati (XIX asr oxiri — XX asr boshlari). Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati.

o'nyilliklarida toshkentlik noshir va kitobfurush Mulla Mirza Ahmad Mirza Karim o'g'li rang-barang adabiyotlarni bosmadan chiqarishga tayyorlash bo'yicha o'z faoliyati tufayli adabiy doiralarda keng tanilgan edi. Mulla Mirza Ahmad Mirza Karim o'g'lining nomi 30 dan ziyod kitoblarda sharaflangan. Ana shu kitoblardan ayrimlari ikki-uch marta nashr etilgan, shu bois uning nomidan nashr etilgan ellikka yaqin kitob xususida so'z yuritish mumkin. Ko'pgina kitoblarda toshkentlik boshqa noshirlar — Mulla Ya'qubxo'ja binni Poshshoxo'ja, Qavomiddin Maxdum, Mulla Zufar Shukurmuhammad, Mulla Zuhuriddin maxsum qori, Mulla To'ychi, Saidrasulxo'ja Azimxo'ja maxsum o'g'li, Mulla Abdurahmon, Mulla Muhammad Musa qori Toshkandiy, Mulla Akmalxon Islomboy o'g'li, Saidakbarxo'ja Saidumarxo'ja, Mulla Abduraufxon Toshkandiy, Mulla Muhammad qori mullazoda, Mulla Mir maxdum binni Shoh Yunus, Qori Usmon binni Abdulxoliq Toshkandiy, Abdulla hoji (binni) Asadulla hoji, samarqandlik Sayyid Abdusalim, Mulla Sharifxo'ja Xujandiy va boshqalarning ism-shariflari uchraydi. Milliy bosma kitob noshirchiligi ishiga Farg'ona vodiysidan bo'lmish noshirlar Azim hoji Marg'iloniy, Ishoqxon Ibrat, Ashurali Zohiriy, Mirzo Xayrulla Xo'qandiy, Ibrohim Davron, Oxundzoda Abdurauf Mashhadiy, Husayn Makaev, Mulla Mahmud Hakim Shodi Muhammad o'g'li Yayfoniy, Mulla Iskandar Barotboy o'g'li, Saidnosir Mirjalil o'g'li, Mirza Umid Marg'iloniy betakror hissalarini qo'shishgan edi.

Toshbosma kitob matbaachiligi paydo bo'lishi bilan xattotning mavqei va ahamiyati ham o'zgarishga uchradi. Garchi uning qo'lyozmalarni qayta ko'chirish bo'yicha mehnati kitobni nashr etishga tayyorlash jarayoni bosh komponenti bo'lib qolaversa-da, xattot ishtirokisiz bironta ham litografiya ish yurita olmasa-da, xattot bilim va tajribalarini qo'llash sohasi sezilarli darajada torayib boraverdi. Badiiy bezaklarni tanlab olish, sahifaning kompozitsion qiyofasini hal qilish, ichki naqshlar xarakterini belgilash funktsiyalari, qayta ko'chirish uchun eng maqbul matn originalini tanlab olish bo'yicha matnshunoslik ishlari, uni tahrir qilish va solishtirib o'qish vazifalari endilikda noshirga o'tgan edi. Asta-sekin xattot mutlaqo texnik xarakterdagi ishlarini bajargan holda qo'lyozmalarni oddiy qayta ko'chiruvchisiga aylanib boraverdi. Biroq uning bilim va tajribalari ko'p hollarda o'ziga nisbatan ehtiyoj tug'dirmasdan qolmasdi — yirik xattot

---

Toshkent, 1971. 31-bet.

hammavaqt noshirlar maslahatchisi sifatida ish ko'rishi mumkin, injiq san'at sohibining fikr-mulohazalari inobatga olinar, o'z kasbi ustasi maqomida e'zozlanar, estetik didiga to'liq ishonishar, shuning uchun ham ko'pincha xattotni qo'lyozmaning zarur bo'lgan variantini, nashrning uzil-kesil mukammal matnini, nashr bichimini, badiiy bezaklarini, husnixat uslubini va hokazolarni oldindan tanlash va tanlab olishdek murakkab jarayonda ishtirok qilishga jalb etishar edi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlari ko'plab o'zbek va tojik xattotlari o'z hunari bobida yuksak san'at an'analariga amal qilishni davom ettirdilar, toshbosma kitoblar matni ko'chirayotganda qo'lyozma kitoblarning an'anaviy estetikasini — tashqi va ichki nafosatini saqlab qolishga harakat qildilar. Toshbosma kitoblar matnini nashrga tayyorlashda qaysidir darajada ishtirok etgan barcha xattotlar ism-sharifiarini shu o'rinda birma-bir aytib o'tish iloji yo'q, albatta. Turkistonda toshbosma kitob matbaachiligi mavjud bo'lgan kezlarda ularning yalpi miqdori 140—150 kishi chegarasida o'zgarib turganini aytib o'tish mumkin, xolos. R.Mahmudova, masalan, nashrlarning faqat bir turini — o'zbek tilidagi adabiy-badiiy kitoblarni tavsiflaganda 70 dan ziyod ism-sharifini aniqlagan edi.

Toshbosma usulida kitob nashr etish jarayonida Komil Xorazmiy (1822 yilda tavallud topgan), Domla Ibrohim binni Domulla Qalandar hoji, Bayoniy, Ibrohim Sulton, Saidxo'ja, Shomurod Shone'mat o'g'li (1850—1922), Shohislom Shoh Muhammad o'g'li, Husniddinxon Shamsiddinxon o'g'li, Mirza Ahmad Rizo Muhammad o'g'li, Abdushukur Shomuhammad o'g'li, Mirbarot Mirvoris o'g'li, Hojiakbarxon Muhiddinxon o'g'li, Sirojiddin maxdum Siddiq Mirzohid, Oxund o'g'li Xondayliqiy, Mulla Ortiq Haybatulla Xislat, Abdulqodir Murodiy, Rojiy Xo'qandiy, Mirzo Hoshim Xo'jandiy, Mahmudjon sahhof Muhammad Niyoz, Ishoqxon Ibrat, Mirzo Xayrulla Xo'qandiy, Ibrohim Davron, Muhammad Zufar Muhammad Hasan, Yusufjon Zokirjon o'g'li, Yo'ldosh Jumavoy o'g'li, Abdulla maxdum Muhammad Nosih — Abdulla Nosirov, Muhammad Temir Mirzo Muhammad o'g'li va boshqa o'z ishining ustalari milliy xattotlik san'ati an'analari ravnaq topishiga hissa qo'shdilar.

2.3.1. Xiva saroy "Xurshid" toshbosma matbaasining faoliyati (1874-1910)

Turkistondagi birinchi toshbosma matbaasi — litografiya XIX asr 70-yillari boshlarida Xiva xoni Sayyid Muhammad Rahimxon II saroyi

qoshida vujudga kelgan edi. Bu toshbosma matbaasiga nafis adabiyot oshuftasi, ilm-fan va san'at homiysi, «Feruz» taxallusi bilan ijod qilgan shoir bo'lmish xonning tashabbusi bilan asos solingan edi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda litografiya dastgohlari xon tomonidan Jenevadan (Shveytsariya), boshqasiga ko'ra, Erondan olib keltirilgan edi. Turkman kitobshunosi O.Yazberdiev isbotlab berganidek[443], Xiva toshbosma matbaasining eng birinchi nashri 1874 yilda amalga oshirilgan. Bu o'zbek tilida nashr etilgan ilk toshbosma kitob bo'lib, xorazmlik shoir va tarixchi Shermuhammad Munis (1778—1829) she'riy asarlari to'plami «Devon ul-Munis» (Munis devoni) edi. Shermuhammad Munis Xorazm tarixiga oid «Firdavs ul-iqbol» (Iqbol gulshani)dek mashhur solnoma muallifi bo'lib, 1812 yilga qadar hikoya qiluvchi bu solnoma keyinchalik shoirning jiyani va shogirdi Muhammad Rizo Ogahiy (1809—1874) tomonidan to'ldirilgan va poyoniga etkazilgan edi. Xorazmda dunyoga kelgan kitoblar orasida davr jihatidan ikkinchisi esa Abdunosir Farohiyning fors va arab tillariga oid bolalar darsligi bo'lib, u «Nisob us-sibiyon» (Bolalar nasibasi) deb nomlangan (1876). «Xivada saroy qoshidagi bosmaxona borligi haqida xonlik sarhadidan tashqarida ancha paytgacha ma'lum bo'lmasdan kelgan edi», deb yozadi O.Yazberdiev aytib o'tilgan tadqiqotida. 1908 yilda Toshkent, Buxoro va Xiva xonligiga tashrif buyurgan sharqshunos — turkolog A.N.Samoylovich bu toshbosma matbaasi haqida «hatto Toshkentda, hech bo'lmaganda, general-gubernator kantselyariyasida» hech vaqoni bilishmasdi, u haqda «hech kim xabar ham jo'natmagan» edi, deya alohida ta'kidlaydi[444]. Toshbosma kitoblar tarixi bilan birinchi bo'lib shug'ullangan va 1912 yilda Turkiston Xalq kutubxonasi tasarrufida bo'lgan toshbosma kitoblar qo'lyozma katalogini tuzib chiqqan taniqli sharqshunos A.A.Semyonov Xiva bosmaxonasida chop etilgan kitoblar favqulodda nodirligiga ishora qilgan edi. A.A.Semyonovning e'tirozli ta'kidlovi mutlaqo haqqoniy, chunki saroy toshbosma matbaasi tijorat muassasasi bo'lmasdan, unda bosmadan chiqarilgan kitoblar adadi ming nusxadan ham oshmas edi. Shuning uchun ham Xiva toshbosma matbaasi kitoblari bosmadan chiqqanidan keyinoq nodir kitobga aylanib qolardi. A.N.Samoylovich o'zi esa mazkur toshbosma matbaasi haqida quyidagilarni

[443]Yazberdiev A. K voprosu o nachalnom periode knigoizdatelskoy deyatelnosti Xivinskoy litografii (1874 – 1880) G'G' Izvestiya AN Turkmenskoy SSR. Seriya obhestvenno'x nauk. 1971, №4 – S. 58.

[444]O'sha erda

xabar qiladi: «Xiva xonligida toshbosma matbaasi mavjudligi yoki mavjud bo'lganligi to'g'risida men xivalik (xorazmlik Shermuhammad) Munis devonining 1874 yildagi Xiva nashridan (Armaniy) Vamberi tanlab olgan iqtiboslar bilan tanishib chiqqan kezlarimdanoq bilar edim. Faqat Xivaga etib kelganimdan keyingina bitta-yu bitta Xiva toshbosma matbaasi (ming sakkiz yuz) etmishinchi yillardan buyon mavjudligini va xonga tegishli ekanligini bilib oldim. Toshbosma matbaasi doimiy inshootga ega emas, chetdan buyurtmalar qabul qilmaydi, tanaffuslar bilan bir necha yil ishlayapti. Nashr etilgan kitoblar savdoga chiqarilmaydi, xon tomonidan sovg'a tariqasida tarqatib beriladi. 1908 yil bahorida xonning toshbosma matbaasi Tozabog' bog'ining markaziy chordarasida (pavilonida), **chordaraning kungay tarafini egallagan holda ishlab turgan edi. Chop etilishi kerak bo'lgan asar xattot undan toshbosma siyohi bilan nusxa ko'chiradigan bir xonaga kelib tushadi. Boshqa bir xonada nusxa sahifama-sahifa toshga tushiriladi va undan nusxa izlar olinadi. Hozirgi kundagi tosh o'zida to'rt sahifani sig'diradi, avvalgisida esa faqat bitta sahifa sig'ishgan, xolos. Bosma dastgohi qo'lda harakatga keltiriladi, uning oldida ikki ishchi turadi: birisi charxni aylantirib turadi, boshqasi esa sahifalarni almashtirib turadi. Uchinchi bir ishchi esa alohida stolda bo'yoqni valikka aylantirib surkab chiqadi. Ish borishi ustidan usta ko'z-quloq bo'lib turadi»**[445].

Xiva saroy toshbosma matbaasiga 1874 yilda asos solindi va ba'zi chiqarilgan kitoblarida saroy matbaasining "Xurshid" nashriyot markasi ham qo'yilgan. Xiva "Xurshid" toshbosma matbaasining birinchi ustasi Otajon Abdalov litografiyaning taxmin qilingan ellik yilligida, 1924 yili, ana shu sanani aytgan edi[446]. Xorazm Xalq Sotsialistik Respublikasi ilk gazetasi «Inqilob quyoshi»ning bir maqolasida «bosmachi» Otajon Abdalov tarjimai holiga oid ayrim ma'lumotlar keltirilgan. U 1856 yilda tavallud topgan ekan. Boshlang'ich ta'limni, o'sha zamon bolalari singari, odatdagidek istiqomat manzilidagi mahalliy domulla qo'lida olgan. 1873 yilda Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l shahri) rus-tuzem maktabida o'qigan. Toshbosma kitob matbaachiligi san'atini Otajon Abdalovga Xiva xoni tarafidan Erondan taklif etilgan usta Ibrohim Sulton o'rgatgan. Saroy

[445] Samoylovich A.N. Xivinskie pridvorno`e knigoxraniliha i knigopechatnya. 50-varaq. «Izvestiya AN Turkmenskoy SSR. Seriya obhest. nauk». 1981, № 1, 82-bet. O.Yozberdiev tomonidan e'lon qilingan.

[446] Inqilob quyoshi. 1924, № 16.

toshbosma matbaasidagi xizmatining ilk to'rt yilida (1874—1878) Otajon Abdalov shogirdlikda bo'lgan, keyin esa mustaqil ishlay boshlagan. Gazetadagi maqolaga xivalik Umar Qurbonov tomonidan chizilgan birinchi o'zbek «bosmachi»si portreti ham ilova qilingan[447].

Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, Xiva "Xurshid" toshbosma matbaasida oxirgi kitob 1910 yilda nashr etilgan. Shundan keyingi muddat bilan sanalashtirilgan Xiva toshbosma nashrlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida ham, Qo'lyozmalar instituti to'plamlarida ham uchramaydi. 1910 yil 10 oktyabrdan to 1911 yil 26 fevralgacha bo'lgan muddatda Turkiston o'lkasida nashr etilgan adabiyotlar bibliografik tavsifnomalarida bironta ham Xiva nashri tilga olinmagan[448]. Xiva xoni Muhammad Rahim II 1910 yil vafot etgan edi. Uning o'g'li va vorisi Isfandiyorxon noshirlik faoliyati bilan endi shug'ullanmay qo'ydi. Shunday qilib, Xivadagi saroy toshbosma matbaasining noshirchilik faoliyati 1874—1910 yillarda davom etdi deya qat'iy xulosa chiqarish mumkin.

Shoir, xattot, muharrir va bastakor Muhammad Rasul mirzaboshi (taxallusi Komil) litografiyani tashkilida muhim rol o'ynadi. Litografik kitob nashrlarining o'zini tahlil qilishdan xon Muhammad Rahim II ko'plab kitoblar nashrga tayyorlanishi va bosmadan chiqarilishini, shuningdek, litografiyaning noshirlik faoliyati va ishi ustidan umumiy nazoratni amalga oshirishni aynan Komil Xorazmiyga ishonib topshirgan edi deya xulosa yasash mumkin. Komil Xorazmiy nashr etish uchun qo'lyozmalarni tanlab olar, ba'zan ularni o'zi qayta ko'chirar, matnni tahrir qilar va xatolarini tuzatar, nashrlarga so'zboshi yozar, kitoblar bosmadan chiqarilishi, taboqlash va muqovalash ishlarini nazorat qilar edi.

Komil Xorazmiyning zamondoshi u haqda shunday yozadi: **«Muhammad Rasul mirzaboshi musiqiyshunoslikda ham mashhur edi. Ta'liq va nasx xatlarini xiylagina chiroyli yozar edi. Muhammad Rahimxon va Isfandiyorxonlarning amri bilan bir necha kitoblarni yozib chiqqandir. Taqriban besh yuz kishiga xat ta'lim bergandir»**[449].

---

[447] Otajon Abdalov portreti berilgan gazeta sahifasi fotosuvrati professor G.N.Chabrov tomonidan «Sotsialisticheskiy Uzbekistan» jurnalida e'lon qilingan. 1956, № 2, 19-bet.

[448] Zimin L. Bibliografiya G`G` Srednyaya Aziya. Ejemesyachnoe literaturno-istoricheskoe izdanie. Kn. II. Toshkent, 1911, 144-bet.

[449] Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Xorazm, Narkompros nashriyoti, 1925. 42-bet.

1880 yilda Komil Xorazmiyning uch sahifalik so'zboshisi bilan Yoqubxo'ja ibn Ibrohimxo'ja Xolisning «Devoni Xolis» to'plami nashr etildi. Unga shoir, xattot, yirik tarjimonning g'azallari, ruboiylari va muhammaslari kirgan edi.

Komil Xorazmiy o'zbek milliy kitobat ishi tarixida birinchi bo'lib ikki ulkan ishni amalga oshirdi. 1878 yil davomida Alisher Navoiy «Xamsa»sini nashrga tayyorlash va bosmadan chiqarishga bosh-qosh bo'ldi, lekin shu yili «Xamsa»ning faqat birinchi «Hayrat ul-abror» dostoninini bosmadan chiqarishga ulgurildi. Kelasi 1879 yilda «Xamsa»ning to'liq kitobi nashrdan chiqdi. 1879 yilda Komil Xorazmiy muharrirligida va uning mufassal so'zboshisi bilan Alisher Navoiyning xalq orasida «Chahor devon» nomi bilan mashhur «Xazoyin ul-ma'oniy» kitobi bosmadan chiqdi (1666 sahifa). Ana shu kitoblarni nashrga tayyorlash jarayonida Komil Xorazmiy tomonidan xon kutubxonasidan Alisher Navoiy hayotligidagi qo'lyozmalarga yaqin va eng to'liq asarlar qo'lyozmalarini tanlab olish bo'yicha ulkan matnshunoslik ishi amalga oshirilgan edi. Keyinchalik esa «Xazoyin ul-ma'oniy» nashri shu turdagi noshirchilik ishlari orasida birinchisi va so'nggisi ekanligi ma'lum bo'ldi. O'zbek xususiy noshirlaridan birontasi Alisher Navoiyning hamma to'rt devonini biryo'la nashr etishga jazm qilmagan. Faqatgina alohida devonlar nashr etilgani ma'lum, xolos. Alisher Navoiy «Xamsa» va «Xazoyin ul-ma'oniy» asarlari nashr etilishi nafaqat o'sha kezlardagi Xorazm, balki butun Turkiston madaniy hayotida salmoqli voqeaga aylandi, zotan, bunday voqea o'zbek kitobat madaniyati tarixida ilk marotaba ro'y bergan edi.

1882 yilda Komil Xorazmiy buyuk turkman shoiri Fuzuliyning (1494–1556) devonini «Devoni Fuzuliy Bag'dodiy» nomi ostida nashrga tayyorlaydi va chop etadi. Bu nashr Turonzaminida chiqqan Fuzuliyning birinchi bosma kitobi edi. 1897 yilda Komil Xorazmiy shoir Feruz — Xiva xoni Muhammad Rahim II she'rlar to'plamiga ham debocha yozib nashrdan chiqargan.

Bugungi kunda Xiva saroy toshbosma matbaasida chop etilgan 40 dan ziyod kitoblar ma'lum. Ularning ko'pchiligi adabiy-badiiy nashrlar, Alisher Navoiy, Munis Xorazmiy, Muhammad G'oziy, Muhammad Rizo Ogahiy, Ahmad Tabibiy, XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhitiga mansub boshqa shoirlar asarlar to'plamlaridir. Ana shular

orasida Muhammad Rizo Ogahiy «Ta'viz ul-oshiqiyn» (Sevishganlar tumori) devoni ikki nashri ham mavjud. Ikki kitobdan birinchi nashri 1882 yilda amalga oshirildi (536 bet, 18 sahifa muallif debochasi), ikkinchisi esa 1906 yilda chop etildi (434 bet, 16 sahifa debocha).

Komil Xorazmiy devonining ham to'rt nashri ma'lum. Birinchisi 1880—1881 yillarda Komil Xorazmiyning o'g'li Muhammad Rasul mirzo (taxalllusi «Mirzo») tomonidan «Devoni Komil» sarlavhasi ostida e'lon qilindi (184 bet, 8 sahifa debocha). Qolganlari esa 1895, 1905 yillarda amalga oshirilgan.

1900 yilda Ahmad Tabibiy Xorazm shoirlari she'rlarini «Majmuat ush-shuaro» (Shoirlar to'plami) nomi bilan nashrga tayyorlaydi. «Feruz» taxallusi bilan she'rlar yozgan Xiva xonidan tashqari to'plamda 33 shoir o'z asarlari bilan qatnashdi. Kitob faqat alifbe tartibida berilgan g'azallardan tuzilgan. Muhammad Rahim II g'azallaridan keyin barcha 23 shoirning aynan o'sha vazn yoki radifda yozilgan g'azallari berilgan. Har bir g'azaldan oldin qisqagina masnaviy berib boriladi. Ahmad Tabibiyning nashrga debochasi ham xuddi shu masnaviy vaznida yozilgan. Masnaviyda to'plam mualliflari nomlari va taxalluslari keltirilgan, ular orasida xonning o'g'illari va nevaralari ham bor. To'plamdagi 3099 g'azal 1655 sahifalik kitobdan joy olgan.

Hasanmurod Qori Laffasiy «Xorazm shoirlarining tarjimai xoli» tazkirasida berilgan ma'lumotga ko'ra, Xiva xoni Muhammad Rahim II "Haft shahzoda" nomi ostida bayoz ham tuzdirgan. Unda u o'z jiyanlari va og'aynilari ijodidan she'rlar keltirgan. 1906–1909 yillarda bayoz Xiva litografiyasida to'rt marta nashr etildi.

1906—1909 yillarda Xorazm shoirlarining «Majmuat ush-shuaro» devoni to'plamining to'rt nashri amalga oshirildi. Uning birinchi nashri 1906 yili chop etildi (598 bet), ikkinchi nashri 1907 yilda (451 bet), uchinchisi 1908 yilda (1192 bet). Shuningdek, "Xurshid" saroy nashriyotining mahsuli sifatida Munisning "Devoni savodi ta'lim" (1878), Muhammad Yusuf Maxdumning "Devoni Rojiy" (1879), "Devoni Xolis" (1880), "Chor kitob" (1880), Muhammad Rahimxonning "Devon"i (1880), Alisher Navoiyning "Badoyi' ul-vasat" (1881, 1882), "G'aroyib us-sig'ar" (1881), "Navodir ush-shabob"i (1881), "Devoni Bedil" (1883, Umar Xayyom ruboyilari bilan birga), XV asr muallifi Ali Safiyning "Rashahotu ul-hayot" asari (1890), Lutfullo Nasafiyning "Sharh va tarjimai fiqhi Kaydoniy musammi ba targ'ir ul musammin" asari (1890), "Fiqhi Kaydoniy

ma'shurh"ning o'zbekcha tarjimasi, "Devoni Ogahiy" (1905), "Devoni Hayoniy" (1906), "Devoni Komil va tavorix shohon Xorazm" (1909), "Devoni Tabibiy forsiya" (1909), Rizobek Xivaqiyning "Muntaxab ul-lug'at Rizoiy" asari (sanasi qo'yilmagan), "Devoni Sultoniy" (1906, 1907, 1908), "Devoni Sanoyi" (1909), "Devoni Sodiq" (1906, 1918), "Devoni Tabibiy" (1909, 1910), "Hayrat ul-oshiqin" (1910), "Devoni Oqil" (1906), "Devoni G'ujjiy" (1907, 1908, 1909), "Devoni Farrux" (1906), "Devoni Nazir" (1907, 1909), "Zayn al-arab" (1911), "Mazhar al-ishtiyoq" (1909) nashrlarni keltirish mumkin.

1895 va 1900 yillarda Ahmad Tabibiyning o'zbek va fors tillaridagi «Hayrat ul-oshiqin», «Munis ul-ushshoq» va «Mir'ot ul-ushshoq» devonlari chop etildi.

2.3.2. Toshkentlik noshir Esanboy Husaynboev

Toshkent shahrida ilk toshbosma kitob 1883 yilda S.I.Laxtin tipografiya va toshbosma matbaasida chop etilgan edi. Ana shu toshbosma kitob toshkentlik Esanboy Husaynboev tashabbusi va sarmoyasi hisobiga bosmadan chiqarilgandi. Bu haqda o'zbekistonlik taniqli kutubxonashunos va bibliograf, Turkiston kitobat madaniyati yirik bilimdoni E.K.Betger (1887-1956) ilmiy adabiyotda birinchi bo'lib xabar qilgan[450]. Aytib o'tilgan noshirning o'g'li Nurmuhammad Esanboevning 1939 yilda taniqli xattot, tarjimon va arabshunos olim Abdulla Nosirovga aytgan ma'lumotlariga qaraganda, toshbosma matbaasi asbob-uskunalari Rossiyadan tuyalarda olib kelingan edi. Kasb-kori temir-tersak sotuvchi savdogar bo'lgan Esanboy Husaynboev kitobni chin yurakdan sevadigan, ilm-fan va ma'rifatga sodiq bir kishi bo'lgan. Aynan uning yordami va qattiq iltimosi bilan S.I.Laxtin toshbosma matbaasi asbob-uskunalarini o'rnatdi, bu erda ilk xususiy o'zbek noshiri o'z ona tilida kitoblar nashr etish bilan shug'ullana boshladi. Esanboy Husaynboev chop ettirgan birinchi toshbosma kitob XVII asr oxirlarida yashagan taniqli o'zbek adibi So'fi Olloyorning «Sabot ul-ojiziyn» (Ojizlar sobitligi) asaridir. Kitob nihoyatda bejirim va nafis chop etilgan, uni ko'chirgan kotib Saidxo'ja chiroyli, aniq-tiniq, o'qilishi oson, ancha yirik harflardagi nasta'liq xat usuli bilan hamkasblaridan ajralib turar edi. Esanboy Husaynboevning o'g'li Nurmuhammad Esanboev so'zlariga

[450] Qarang: Betger E.K. Iz istorii knijnogo dela v Uzbekistane G'G' Izvestiya AN UzSSR, 1951, №2. – 76-77.

qaraganda, kitob tayyor bo'lganidan keyin noshir o'zi uchun shunchalik muhim bo'lgan voqeani nishonlash uchun «Sabot ul-ojiziyn»ning naq 100 nusxasini bepul tarqatgan ekan. Shuningdek, kelasi 1884 yilda S.I.Laxtin toshbosma matbaasida Esanboy Husaynboev o'z sarmoyasi hisobiga Toshkent shahrida birinchi bo'lib Alisher Navoiy asarlari nashrini ancha katta hajmda (258 bet) shoirning terma devoni ko'rinishida chop ettirgani ham ma'lum.

2.3.3. S.I.Laxtin toshbosma matbaasining turkiston milliy kitoblari (1883—1893)

S.I.Laxtin bosmaxona ochishga ruxsatnomani 1877 yilda olgan edi. Uning korxonasi Turkiston o'lkasidagi ikkinchi xususiy bosmaxona bo'lgan. Birinchi xususiy bosmaxona bir yil oldin — 1876 yil 20 iyulda V.F.Pastuxov tomonidan ochilgan edi. 1879 yilda har ikkala bosmaxona «S.I.Laxtin va V.F.Pastuxov bosmaxonasi» firmasiga birlashdi. Biroq kelasi yildan boshlab S.I.Laxtin firmaning yagona to'la huquqli egasiga aylandi. 1883 yilda toshbosma ustaxonasi tashkil qilinganidan keyin sohibi vafot etguniga qadar firma «S.I.Laxtin bosma va toshbosma matbaasi» deb yuritib kelindi.

«Turkestanskie vedomosti» gazetasida 1892 yili chop etilgan nekrolog — ta'ziyanomadan S.I.Laxtin tarjimai holiga oid ma'lumotlar va fe'l-atvorining ayrim qirralari haqida bilib olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. S.I.Laxtin 1845 yilda Petropavlovsk dasht shahrida dunyoga kelgan edi. 1869 yilda u aka-uka Kamenskiylar savdo uyida Toshkent shahrida xizmat qilgani ham ma'lum. Bunga qadar u savdo-sotiq bilan shug'ullanishga urinib ko'rgan, shuningdek, metalldan yasalgan turli-tuman buyumlarni ta'mirlash bilan mashg'ul bo'lgan edi. 1870 yillarning boshlarida Laxtin Toshkent shahrida eng yaxshi korxonalardan biri hisoblangan birinchi paxta tozalash zavodini ochdi. Paxta tozalash korxonasi chiqindilaridan bu erda tol, karton va o'ramabop qog'oz ishlab chiqarishda ancha-muncha yutuqlarga erishdi. S.I.Laxtinga «ishonuvchanlik va yaxshilik» xos bo'lsa-da, o'zi «jimit va sarkash» bir odam edi. Turkistonda uzoq yillar yashagani tufayli mahalliy aholi tilini ham durustgina bilar edi.

Temirfurush va kitobsevar Esanboy Husaynboev noshiri bo'lmish So'fi Olloyorning «Sabot ul-ojiziyn» asari va Alisher Navoiyning terma «Devoni»dan tashqari S.I.Laxtin toshbosma matbaasida Alisher Navoiyning "Badoyi' ul-vasat" (1888), «Navodir un-nihoya» (1888),

«Layli va Majnun» (1889), «Chihil hadis» (1893) asarlari. 1889 yilda esa Ibn Hojibning «Qofiya» va «Chor kitob» kitoblari bosmadan chiqarilgan, "Misr mamlakatining muxtasar tavorixi" (1889). 1890 yilda «Bahr ul-manofe'» va «Zubdat ul-masanat» kitoblari. 1893 yilda Laxtin toshbosmaxonasi markasi ostida (egasining vafotidan so'ng) nashriyotning oxirgi nashrlari – Bedilning "Devon"i va "Sharhi Fiqihi Kaydoniy" kitoblari nashrdan chiqqan.

S.I.Laxtin toshbosma matbaasining ikki tarjima nashri ham ma'lum. Ulardan birinchisi Lev Tolstoyning «Odamlar nima bilan barhayot?» hikoyasining o'zbek tiliga tarjimasi nashridir (1887). Ikkinchisi esa N.P.Ostroumov tahriri ostida nashr etilgan «Kolumbning turmushi» asaridir (1892). Unda «Amerika iqlimini topg'on Kolumb degan bir Ovrupo xalqini ulamo odamini ne tariqa umr ko'rganining xususida» degan so'zlar sarlavha ostida berilgan, asar tarjimoni esa ko'rsatilmagan.

S.I.Laxtin vafotidan bir yil keyin uning vorislari korxonani aka-uka F. va G.Kamenskiy savdo uyiga sotib yubordi. Yangi firma «Aka-uka Kamenskiylar bosma va toshbosma matbaasi» degan nom bilan atala boshlaganiga qaramasdan, tipografik kitoblardan farq qilaroq toshbosma kitoblar bu erda arzimas darajada kam miqdorda chop etilgan edi. Faqatgina Alisher Navoiy asarlarining to'rtta toshbosma nashrlari ma'lum, xolos. Bular — 1898 yilda bir shaxs — Sirojiddin maxdum ibn Domla Mirza Ahmad oxund tomonidan ko'chirilgan va nashr etilgan «Chihil hadis» (Qirq hadis) asari, «Amir Alisher Navoiy navarillohu marqadahu devonlari» deb sarlavha qo'yilgan Alisher Navoiy terma «Devoni» (1894), «Amir Alisher Navoiy devonlari» deb nomlangan Alisher Navoiy terma kitobi (1894), va «Amir Alisher mullaqab bi Navoiy» degan nomga ega bo'lgan Alisher Navoiy terma devoni (1894)dir.

O'zi mavjud bo'lib ishlab turgan etti yil davomida, aftidan, tipolitografiya aka-uka Kamenskiylarga ular kutgan darajadan kamroq daromad keltirgan edi. Bu narsa ularni korxonani sotib yuborishga majbur qilgan sabablardan biri bo'lgan. 1898 yilda toshkentlik birinchi gildiya savdogari Vasiliy Mefodievich Ilin tipolitografiyani sotib oldi.

2.3.4. Muhammad Azim Hoji Marg'iloniy toshbosma matbaasining faoliyati (1884—1891)

Xronologik jihatdan Farg'ona vodiysida milliy kitoblar bosib chiqargan birinchi toshbosma matbaa ustaxonasi Marg'ilon shahrida

1884 yilda Muhammad Azim hoji Marg'iloniy tomonidan ochilgan edi. Muhammad Azim savodxon shaharliklar, o'rtahol odamlar ichidan etishib chiqqan, o'z davri va o'z davrasiga nisbatan progressiv qarashlarga ega bo'lgan bir inson bo'lgan. O'zbek yozuvchisi va o'ttizinchi yillar nashriyot xodimi bo'lmish Husayn Shamsning O'zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan 1936 yilda chop etilgan «Matbaachilik ham uning qisqacha tarixi» kitobi noshir Muhammad Azim tilga olib o'tilgan birdan-bir manba bo'lib qolmoqda. Muallif, shunday yozadi: Haj safaridan qayta turib marg'ilonlik Muhammad Azim hoji Hindistonda to'xtaydi va litografiya ustaxonalaridan birida bosma kitob matbaachiligi san'atini o'rganib oladi. 1867 yilda Bombay shahrida litografiya uchun jihozlar sotib oladi. Turkistonga qaytib keladi va toshbosma dastgohlarini Qo'qon shahrida o'rnatadi, bu erda u hukumatning ruxsatisiz o'g'illari bilan birga maxfiy ravishda ishlaydi. Bir qancha vaqt o'gganidan keyin litografiya butunlay yonib ketadi. Shaharning rus ma'muriyatiga litografiya mavjudligi ma'lum bo'lib qoladi, uning qolgan barcha asbob-uskunalari musodara qilinadi. Muhammad Azimning faoliyati shu taxlit poyoniga etadi[451].

Husayn Shams o'zi bu ma'lumotlarni olgan manbani ko'rsatmagan. Muallif Azim hoji toshbosma ustaxonasida chop etilgan kitoblar to'g'risida ham eslatib o'tmaydi.

Qo'qon Adabiyot muzeyi xodimi, filologiya fanlari nomzodi Ahmadjon Madaminov tomonidan 1980 yillar boshlarida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Azim hoji Marg'iloniy toshbosma matbaasi ish boshlagan aniq bir sanani tayinlash, uning faoliyati xronologiyasini aniqlashga imkon berdi. Uning Muhammad Azim hoji Marg'iloniy tomonidan chop etilgan unutilgan va muqaddam noma'lum kitoblarni topishi va sotib olishi o'zbek eski bosma kitoblari silsilasida mavjud bo'lgan uzilishlarni ma'lum darajada to'ldirdi.

G'afur G'ulom nomidagi Farg'ona viloyat Adabiyot muzeyida № 234 raqam ostida saqlangan va noshirning o'zi tomonidan ko'chirilgan «Devoni Hofiz» Azim hoji toshbosma nashri titul varag'ining orqa tarafida keltirilgan annotatsiyadan u 1860 yil boshida haj safariga jo'nab ketgani ma'lum bo'ladi. Qaytib kelayotganida ma'lum vaqt Bombay shahrida

---

[451] Qarang: Shams H. Matbaachilik ham uning qisqacha tarixi. Toshkent-Samarqand, O'zdavnashr, 1936.

to'xtaydi. Bu erda u «Muzaffariy» toshbosma matbaasida u bosma kitob matbaachiligi mahoratini o'rganadi. 1884 yilda u litografiya uchun jihozlar to'liq komplekti bilan birga vatanga qaytib keladi va ularni Marg'ilon shahrida o'rnatadi. Husayn Shams har ehtimolga qarshi bu tafsilotlarning hammasini ham bilmagan va Azim Hojining toshbosma matbaachilik faoliyati 1887 yilda Qo'qon shahrida boshlangan deb hisoblagan. Shunday qilib, Azim Hoji o'zi yozgan keltirilgan manba, shuningdek, uning mufassal annotatsiyalari bo'lgan boshqa nashrlari Husayn Shams tomonidan ilgari surilgan versiyani barbod qiladi. Bu narsa tarix fanida barqaror tus olgan Farg'ona vodiysida bosma kitob matbaachiligi faqatgina XX asr boshlarida vujudga kelgan edi degan nuqtai nazarni ham rad etadi.

Muhammad Azim hoji Marg'ilonda o'z toshbosma matbaasini tashkil qilgan o'sha yillarda (1884) butun Turonzaminda atigi ikkita toshbosma matbaasi mavjud bo'lib, birinchisi — Xiva xoni Muhammad Rahim II saroyi qoshida 1874 yildan, ikkinchisi esa Toshkent shahrida S.I.Laxtin bosmaxonasi qoshida 1883 yildan beri mavjud edi. O'zbek taraqqiyparvar ziyolilari litografiya kitob matbaachiligini keng miqyosda tashkil qilishga hali kirishmagan edi. Shu ma'noda Muhammad Azim hoji Marg'iloniy birinchi qaldirg'och bo'ldi.

Marg'ilon shahrida Muhammad Azim o'z faoliyatini to'liq imkoniyat bilan yo'lga qo'ya olmadi. Bu erda Hindiston, Turkiya, Eron, Misrdan nisbatan arzon bosma kitoblari importini yo'lga qo'yilgan sharoitda kitobfurushlar bilan raqobatga dosh berish oson ish emasdi. Muhammad Azim hoji, albatta, foyda topishni istardi. Biroq, kichik shahar bo'lmish Marg'ilon xaridorlari uning hamma mahsulotlarini sotib olishga qodir emasdi. Ana shuning uchun ham Muhammad Azim hoji o'z toshbosma matbaasini o'sha kezlarda butun Farg'ona vodiysi madaniyat va adabiyot markazi bo'lmish Qo'qon shahriga ko'chirishga qaror qildi. Faqat birgina Chorsu tumanida bu erda yigirmadan ziyod muqovasozlik ustaxonasi mavjud edi. Kitobfurushlar rastalari esa shahar bozorlari va mahalliy bozor-guzarlardan har birida besh-oltitadan bo'lgan. Har bir yangi kitob Qo'qon shahri so'z san'ati muxlislari orasida tezda qo'lma-qo'l bo'lib tarqalib ketar edi.

Muhammad Azim hoji o'z toshbosma matbaasini Qo'qon shahri katta Chorsu tumanida o'rnatdi. Bu erda 1887—1891 yillarda 20 nomdagi kitoblar bosmadan chiqarildi.

Marg'ilon shahrida Muhammad Azim hoji faqat ikkita kitobni nashr

etishga ulgurgan edi, xolos. Shulardan birinchisi bo'lmish «Devoni Hofiz» marg'ilonlik kitobfurush va muqovasoz Hoji Abdullabek Sahhof maslahati bilan 1884 yilda bosmadan chiqarilgan. Muhammad Azim hojining Marg'ilon nashri ikkinchi kitobi esa So'fi Olloyorning «Kitobi Sabot ul-ojiziyn» asari bo'ldi (1885).

Muhammad Azim hoji toshbosma matbaasida chop etilgan birinchi kitob buyuk fors-tojik shoiri Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziy she'rlar to'plami — «Devoni Hofiz»dir. Bu kitob hijriy 1302 yil sha'bon oyining 6 kunida (1884) xattot Abdulkarim Nasafiy tomonidan ko'chirib tugatilgan. O'sha 1884 yildayoq kitob Muhammad Azim hojining Marg'ilon shahridagi toshbosma matbaasida bosmadan chiqarilgan edi. Kitob muqovasiga jigarrang uch ottiskasi tushirilgan. Titul varag'i ham mavjud, unda «Hofiz» so'zi unvonda hoshiyalangan. Unvon ostida esa «Hasabi Hoji Abdullohbek sahhof dar boldayi Marg'ilon dar korxonayi Hoji Azimjon tab' yoft» jumlasi keltirilgan (Marg'ilon shahrida Hoji Azimjon korxonasida Hoji Abdullohbek sahhof buyurtmasi bo'yicha chop etilgan). Kitob 272 sahifadan iborat bo'lib, shundan 8 sahifasi an'anaviy «debocha» — so'zboshiga ajratilgan.

Muhammad Azim hojining vaqt jihatidan keyingi nashri Alouddin ibn Muhammad an-Najotiyning arab tili bo'yicha qo'llanmasi bo'lib, u Olimxon madrasasida Fayzullaxon ibn Muhammad Rizo al-Xo'qandiy tomonidan ko'chirilgan. Titul varag'ida quyidagi jumla keltirilgan: «Dar boldayi Xo'qand dar sob'oati Hoji Azimjon tab' gardida, mashhuri jahon shud» (Qo'qon shahrida Hoji Azimjon toshbosma matbaasida chop etilib, butun dunyoga mashhur bo'ldi). Kitob 240 betdan iborat bo'lib, ayrim sahifalarda tushunilishi qiyin bo'lgan arab so'zlariga izohlar berilgan. Oxirida kolofon keltirilgan, unda «Alfozi nasiba» sarlavhasi ostida grammatika foydasi haqida 61 misra she'r ilova qilingan.

Qo'qon Adabiyot muzeyi xodimi Ahmadjon Madaminov Qo'qon shahrida yashovchi A.Ahmedovdan sotib olgan «konvolyut»[452] kitob Muhammad Azim hojining boshqa nashrlari orasida eng diqqatga sazovoridir. Bu kitob 5 ta mustaqil nashrlardan tashkil topgan, ulardan har biri o'z titul varag'iga ega, ana shu titul varaqlarda asar nomi, muallif va litografiya nomi bronza bilan ko'rsatilgan. Konvolyut kitobga kirgan

[452]Konvolyut – egasi tomonidan turli mustaqil nashrlardan (kitoblar, jurnallar, broshyuralar, ottisklar, maqolalar) tuzilgan va muqovalangan to'plam.

birinchi asar buyuk shoir va olim Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» asari bo'lib, 144 sahifaga joylashtirilgan. Titul varag'ida asar Abdulqodir Sahhof puli hisobiga va Muhammad Azimjon Marg'iloniy tashabbusi bilan Qo'qon shahrida, hijriy 1307, milodiy 1889 yilda uning korxonasida chop etilgani ko'rsatib o'tilgan. So'nggi sahifada esa ushbu asar xattoti Abdulqayum binni Mulla Muhammad Umar ekanligi ko'rsatilgan.

To'plamga kirgan ikkinchi kitob «Ta'binomai Xorun ar-Rashid» asaridir. To'plamning uchinchi kitobi So'fi Olloyorning «Sabot ul-ojiziyn» asari bo'lib, 176 sahifadan iborat. Kitobning so'nggi sahifasida So'fi Olloyor vafotiga bag'ishlangan xronogramma, kitob nashr etilgan sana keltirilgan. Keyingi, to'rtinchi kitob «Favz un-najot» diniy-didaktik xarakterda bo'lib, 248 sahifadan iborat, oxirida kitob yaratilishi tarixiga bag'ishlangan so'ngso'z berilgan. Beshinchi, oxirgi kitob «Farzi ayn» ham diniy mazmunda bo'lib, u 11 sahifadan iborat, garchi barcha sahifalar raqamlab chiqilgan bo'lsa-da, har bir sahifa oxirida «hofizlar» mavjud. Kitobning barcha sahifalari to'la saqlangan. «Mantiq ut-tayr» dostonini ko'chirgan xattotnikidan tashqari boshqa xattotlarning ism-sharifi ko'rsatilmagan. Barcha kitoblar husnixati bir xilligi e'tiborga olinsa, hamma kitoblar bitta xattot, ya'ni Mulla Abdulqodir binni Mulla Muhammad Umar tomonidan ko'chirilgan deya ta'kidlash mumkin.

Muhammad Azim hoji toshbosma matbaasida chop etilgan keyingi kitob «Toshbosma kitob» deb ataladi. Bu to'plam 14 mustaqil asardan tashkil topgan. Kitob 1891 yilda chop etilgan. Kitobning xattoti Mulla Abdullajon Mahmud, tuzuvchisi esa Muhammad Niyoz Xo'qandiydir. Uning jigarrang muqovasi besh rombsimon tishlama bezaklidir. Kitob 488 sahifadan iborat.

Muqovaning ichki beti juda chiroyli naqsh bilan bezatilgan. To'plamga arab tilini o'rganish bo'yicha «Bidon» (Bilgil) va «Kofiya» o'quv qo'llanmalari, astronomiyaga oid «Shamsiya» kitobi, Abdulloh ibn Mas'ud ibn Tojning «Muxtasar ul-viqoya fi masn ul-Hidoya» asari, «Mulla Jalol», «Tahzid» (bolalar uchun grammatika bo'yicha kitob) va boshqalar kiritilgan. Oxirgi kitobning so'nggi sahifasida xotima qismi mavjud bo'lib, unda kitob nashri Muhammad Azim hoji tashabbusi bilan amalga oshirilgani ko'rsatib o'tilgan.

Ehtimol, Muhammad Azim hoji toshbosma matbaasi, Husayn Shams ishora qilib o'tganidek, 1891 yilda ro'y bergan yong'indan keyin o'z mavjudiyatiga chek qo'ygandir. Ammo harholda bu litografiyada

1891 yildan keyin nashr etilgan kitoblar haligacha topilgani yo'q. Balki Muhammad Azim hojining bizga hali noma'lum nashrlari xususiy kollektsiyalarda saqlanayotgan va hali o'z tadqiqotchilarini kutayotgandir. Bularning barchasi kelib chiqishi asli Farg'ona vodiysidan birinchi xususiy o'zbek milliy noshiri bo'lmish Muhammad Azim hoji faoliyati xronologik maydonini 1884—1891 yillar bilan chegaralashga imkon beradi.

2.3.5. O.A.Portsev toshbosma matbaasining milliy turkiston kitoblari (1888—1918)

S.I.Laxtin bosmaxonasi ochilganidan besh yil keyin Toshkent shahrida yana bir xususiy bosmaxona tashkil qilindi. Uning egasi Osip Alekseevich Portsev yuqori toifadagi mutaxassis — harf teruvchi edi. Harbiy xizmatni o'tash uchun u Toshkent shahriga jo'natilgan. Turkiston harbiy okrugi shtabi bosmaxonasida o'z harbiy xizmat muddati davomida ishlagan edi. Askarlikdan zaxiraga bo'shatilganidan keyin u Toshkent shahrida o'z shaxsiy ishini yo'lga qo'ydi — bosmaxona ochdi. Bir necha yildan so'ng tipografiya qoshida litografiya tashkil qilindi. 1912 yilda O.A.Portsev bosma va toshbosma matbaasida 85 nafar ishchi va mutaxassislar mehnat qilgan, V.M.Ilin bosma va toshbosma matbaasi qatorida u ham Toshkent shahri yirik korxonalaridan biri hisoblanar edi[453]. Aynan shu erda ko'p sonli shogirdlarni barcha matbachilik kasblariga o'rgatish yo'lga qo'yilgan edi.

O.A.Portsev korxonasida birinchi litografik kitob 1893 yili chop etilgan. Bu Alisher Navoiyning «Xamsa» asaridir. 1898 yilda Xoja Hofiz g'azallari to'plami, 1900 yilda «Chor darvesh» va «Devoni Mashrab» bosmadan chiqarildi. 1904—1905 yillarda Alisher Navoiy «Xamsa»si O.A.Portsev toshbosma matbaasida ikki marta nashr etildi.

Toshbosma eng muhim nashrlari orasida Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma» asarining o'zbek tiliga tarjimasi ham bo'lib (1905), bu kitob chet el bosqinchilariga qarshi mardona kurash, vatanparvarlik, xalq qahramonligi, samimiy sevgi va odob-axloqqa doir nasihatlar va maslahatlarni o'zida mujassamlashtirgan bir ulkan epopeya ekanligi ma'lum.

1898 va 1905 yillarda Umarxonning «Devoni», 1902–1903 yillarda Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat»i, 1904 va 1906 yillarda

[453]Qarang: Dobrosmo'slov A.I. Toshkent v proshlom i nastoyahem. Toshkent, 1912. 293-bet.

Rabg'uziyning «Qissas ul-anbiyo» asari ikki marta nashr etildi. 1911 yili «Bayozi Xaziniy» kitobi.

Toshbosma kitoblar orasida «Kulliyoti Jomiy» (1903), hind xalqining mashhur asari, xalqning sevimli kitobiga aylanib qolgan «To'tinoma» asarining o'zbekcha varianti (1908), Mulla Mira'zam Mirsulton tomonidan nashr etilgan Hoziq «Masnaviy»si (1907), «Devoni Huvaydo» (1907), Gulxaniy «Zarbulmasal»i (1908), Bedil «Devon»i (1910) va «G'azaliyot»i (1913), «Devoni Muhyi» (1911), «Devoni Yusuf Saryomiy» (1913), «Devoni Majzub Namangoniy» (1911), «Devoni Muqimiy maa hajviyot» (1917), 1914-1915 yillarda Vasliyning «Qabul etimli», «Tohir va Zuhra», «Gulu Bulbul», «Savg'oti Xislat» va boshqa nashrlardir.

1912 yilda «Devoni Muxyi» kitobi Mullo Abdurauf Toshkandiy ixtimomi bilan chop etilgan. U ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisida muallifning forsiy-turkiy she'rlari, ikkinchi qismida faqat o'zbekcha g'azallari berilgan. Nashr matnini 360 sahifali qilib kotib Mullo Shoh Islom ko'chirgan. (O'zRFAShI, inv.№ 1202).

1914 yilda «Devoni Yusuf Saryomiy» kitobi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Mulla Abdushukur o'g'li Yusuf Saryomiyning shogirdi Tavallo tomonidan nashr etilgan she'rlar to'plamidir. Kitob 160 sahifali (O'zRFA Sharqshunoslik instituti, inv.№ 117). Unda 150 g'azal, 5 musaddas, 8 muxammas, 2 tarji'band, 1 qasida (fors tilida), 5 qit'a, 10 ruboiy, 23 fard hamda Saryomiyning Fuzuliy g'azaliga 4 ta, Hofiz g'azaliga 1 ta, Ozariyga 1 ta, Navoiyga 3, Sayibga 1 ta, Boqiyga 1 ta, Sultoniyga 1 ta, Amiriyga 1 ta, Najib Hinduga 1 ta, Yassaviyga 1 ta, Andalibga 1 ta va Kamiy g'azaliga 1 ta taxmisi berilgan. Kitobning oxirida Vasliy Samarqandiy, Kamiy, Xislat, Sidqiy Xondayliqiy va Tavallolarning mazkur nashr haqidagi tarixlari va Tavalloning Saryomiy g'azaliga bog'langan muxammasi keltirilgan.

O.A.Portsevning hayot yo'li fojiali yakun topdi. 1918 yilda uning korxonasi natsionalizatsiyaga tortilgan edi. U korxonani begona qo'llarga ko'ngilli ravishda berib qo'yishdan bosh tortdi, bunga turli yo'llar bilan qarshilik ko'rsatdi, matbaachilik materiallarini bekitib qo'ydi, dastgohlar va asbob-uskunalarni ishdan chiqaraverdi. U 1919 yilda chor ofitseri Osipov rahbarligida bolsheviklarga qarshi Toshkent shahridagi qo'zg'olonda faol qatnashgani uchun ishchilar yig'ilishi tomonidan otuvga hukm qilingan edi.

2.3.6. G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasi faoliyati (1893—1923)

Toshkentlik noshir G'ulom Hasan Orifjon o'g'li (1874—1947) kitobat ishi maydonidagi o'z faoliyatini muqovalash ustaxonasi tashkil qilishdan boshlagan, bu ustaxonada qo'lyozma va bosma kitoblar, asosan yangi bosilib chiqqan litografiya nashrlari ta'mirlanar va qayta muqovalanar edi. Bu ustaxona 1890 yillarning boshlarida Kallaxona mahallasida, G'ulom Hasan Orifjonov uyida ochilgan edi. Bu o'sha zamonlarga nisbatan olganda anchagina katta korxona bo'lib, unda yigirmaga yaqin professional muqovasozlar mehnat qilgan. Bu erda ko'p ming adadli kitoblar bosmadan chiqaruvchi Toshkentning ko'plab tipografiya va litografiyalari uchun muqovalar tayyorlab berishga buyurtmalar bajarilar edi. Tadqiqotchi Aziz Boboxonov o'zining «O'zbek matbaasi tarixidan» kitobida G'ulom Hasan Orifjonovning kitobatchilik sohasidagi faoliyati voqealariga guvoh bo'lganlar va ishtirok etganlarning so'zlaridan qimmatli tarixiy guvohliklar va xotiralar to'plagan. Jumladan, keksa o'zbek matbaachisi Abdurahmon Saidboev shunday xotirlaydi: «Men 1898 yili, o'n olti yoshimda Kallaxonadagi G'ulom Hasan Orifjonovning shaxsiy uyida (hozirgi Saqichmon ko'chasidagi birinchi tunukali boloxona) ochilgan muqovaxonaga ishga yollangandim. O'sha vaqtda muqovaxonada bir uy odam eski kitoblarga muqova ishlash va titilib ketgan kitob sahifalarini tartibga solib qayta tikish, elimlash bilan shug'ullanardilar»[454]. G'ulom Hasan Orifjonov o'zi Abdurahmon Saidboevga bergan guvohnomada quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: «Shayxontahurning 1-Qo'rg'ontagi mahallasida yashovchi Saidboy o'g'li Abdurahmon haqiqatan ham 1898 yildan boshlab Kallaxona mahallasi, mening uyimda 1907 yilning oxiriga qadar maxsus ustaxonada muqovachi bo'lib ishladi. 1908 yili poligrafiya Saqichmon mahallasiga o'tganidan so'ng A.Saidboev 1913 yilning oxirigacha muqovalash bo'limida muqovalovchi, 1914 yildan bosmaxona natsionalizatsiya qilingunga qadar xatni tosh formaga ko'chiruvchi vazifasida ishladi. U ish vaqtida o'z vazifasini hiyla-nayrangsiz ado etdi, topshirilgan har bir ishni yaxshi va o'z vaqtida bajarib keldi. Litografiyaning o'tkinchi shaxsiy mulkchisi Orifjon o'g'li Hasan. 1918 yil, 17 may. Imzo»[455].

---

[454]Boboxonov A. O'zbek matbaasi tarixidan. T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979, -167-168-b.

[455]Boboxonov A. Ko'rsatilgan asar. 173-bet.

G'ulom Hasan Orifjonov noshirlik markasi uch xil nomga ega bo'lgan. Uning toshbosma matbaasidan kitoblar «G'ulomiya matbaasi», «Orifjonov matbaasi», «G'.H.Orifjonov toshbosma matbaasi» markalari bilan bosmadan chiqarilgan. 1893 yilda u o'z uyida litografiya stanogini o'rnatadi va o'sha yiliyoq o'zining birinchi kitobi — Qoriy she'rlar to'plami bo'lmish «Jomi' ul-Qoriy»ning nashrini amalga oshiradi[456]. Orifjonovning hozirgacha ma'lum ikkinchi chiqargan nashri 1897 yildagi «Al qofiya ma'fiqx» kitobidir. Bugungi kunda ma'lum bo'lgan G'ulom Hasan Orifjonovning «G'ulomiya» nashriyoti markasi bilan chop etilgan uchinchi bizgacha ma'lum kitob o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk vakili Alisher Navoiyning she'rlar to'plami — terma devonidir. Kitob bosilgan sana 1900 yilga to'g'ri keladi[457]. Keyingi, 1901 yilda Mirzo Abdulqodir Bedilning she'rlar to'plami «G'azaliyot» nomi bilan bosilib chiqqan[458]. 1902 yilda G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasi markasi bilan Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» va «Devon» kitoblari chop etildi[459], 1905 yilda Zahiriddin Muhammad Boburning «Mubayyin», Ibn Hojibning «Mushkuliyot» kitoblari chiqdi[460].

1908 yilda G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasi Saqichmon mahallasidagi yangi binoga ko'chib o'tdi. Senzura qo'mitasining kitoblar nashr etishga rasmiy ruxsatnomasi olindi. Bu erda 1907 yili Moskvadan 700 rublga sotib olingan litografiya stanogi qo'shimcha o'rnatildi[461]. Bu dastgoh G'ulom Hasan Orifjonov va uning tog'asi savdogar Qosimboy hojining qo'shma mablag'i evaziga sotib olingan edi. 1908 yili matbaaga ishga yollangan Eshonqul Qodirov quyidagi ma'lumotlarni beradi: «Men 1908 yili Saqichmon mahallasida ishlab turgan G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasining bosma bo'limiga shogird tushdim. Dastlab

---

[456]Qarang: Mahmudova R. O'zbekistondagi toshbosma matbaalarida Navoiy asarlarining nashr etilishi tarixidan. G'G' Adabiy meros, 1968, № 1. 100-bet.

[457]Qarang: Qosimxonov B. Alisher Navoiy asarlarining toshbosma nashrlari tavsifi. Katalog. Toshkent, 1988. 20-bet.

[458]Xattot Muhammad Shohmurod tomonidan toshbosma uchun ko'chirilgan Bedil g'azallari nashri (1901) «G'ulomiya» matbaachisi M.Saidovning uyida saqlanmoqda. Toshkent shahri, Huvaydo ko'chasi.

[459]Qarang: Boboxonov A. Ko'rsatilgan asar. 168-bet.

[460]Bu kitob Movarounnahr musulmonlari diniy boshqarmasi kutubxonasida saqlanmoqda. Daftar № 9, tartib raqami № 11.

[461]Turkiston viloyatining gazeti. 1907, 25-son.

menga avstriyalik mutaxassis ish o'rgatdi. O'sha vaqtda bosmaxonaning bosma va ko'chiruv bo'limlarida Karim aka, Kul aka, Solih, Tohir, Obid Olimboevlar ishlardi. Oradan ko'p o'tmay litografiyaga rus mutaxassislari Danilin bilan Vasilevlar kelishdi. Ular toshbosma mashinalarga 26, keyinchalik 40 kilovattli neftda ishlovchi motorlar o'rnatishdi. Litograf mashinalar elektr-bug' yordamida ishlaydigan bo'ldi. U mahalda shogird bolalarga xo'jayin yiliga 40—60, mutaxassislarga oyiga 60 so'mgacha maosh to'lardi. Besh tiyinga bir qadoq go'sht, 30 tiyinga bir pud un yoki guruch olsa bo'lardi»[462].

Abdurahmon Saidboevning aytishicha, 1907 yilda G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida to'rt litograf stanok, uchta nusxa ko'chiruvchi qurilma, zarhallovchi, qirquv mashinalari bo'lib, ularda xattot va sahhoflardan tashqari yigirmaga yaqin mutaxassis ishlagan.

Toshbosma nashrlarining mavjud ro'yxat, ko'rsatkich va kataloglari asosida 1907-1908 yillardan boshlab Orifjonov matbaasida kitoblar chiqarilishi o'sganligi haqida xulosa chiqarish mumkin: 1908 y. –15 nomda 18 nashr, 1909 y. –13 nomda 14 nashr, 1910 y. –22 noda 27 nashr, 1911 y. –31 nomda 38 nashr. 1912 y. –20 nomda 27 nashr. 1913 y. –25 nomda 33 nashr, 1914 y. – 12 nomda 16 nashr, 1915 y. –11 nomda 16 nashr. 1916 y. –14 nomda 19 nashr, 1917 y. –8 nomda 8 nashr.

1918 yil aprel oyida G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasi musodara qilinib, natsionalizatsiyaga tortildi. Litografiya asbob-uskunalari Saqichmondan Eski Jo'vaga, 1-bosmaxona binosiga ko'chirildi. Ammo bunga qaramay tinimsiz chiqayotgan tayyor mahsulotga uning eski nomi qo'yila borildi. 1920 yilda nashr etilgan «Soli taxtin» (tojik tili «Alifbe»si, Said Rizo Ali Zoda Bog'ishamoliy Samarqandiy tomonidan nashrga tayyorlangan) va 1923 yilda «Bibi Mushkul kushod» kitoblarga G'ulom Hasan Orifjonov nomi so'nggi marta qo'yilgan.

Yirik o'zbek noshiri G'ulom Hasan Orifjonov yuksak madaniyatli bir inson bo'lib, kitoblarda mujassamlashgan bilimlar ahamiyatini teran tushunadigan, kitoblarni badiiy bezash va litografiya kitob matbaachilik texnikasining butun o'ziga xosliklarini nozik his etuvchi ziyoli bo'lgan. 1907 yili «G'ulomiya» matbaasiga ishga yollangan»[463].

G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma ustaxonasining faol kotiblaridan biri va G'ulom Hasan akaning qarindoshi Musovir Odilov ta'kidlashicha,

[462]Boboxonov A. Ko'rsatilgan asar, 171—172-betlar.

[463]O'sha joyda. 169-bet.

Orifjonov o'zi zamonasining durustgina xattotlaridan bo'lgan[464]. U o'z korxonasiga davrining eng yaxshi kotiblari, musavvir va naqqoshlari, muqovasozlari va boshqa kitobat ishi ustalarini to'plab, toshbosma uslubiyati bilan kitob ko'paytirish sharoitida husnixat, kitob bezagi va muqovasozlik san'atlarini yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shgan.

G'ulom Hasan Orifjonov yuksak badiiy did bilan bezaklangan qo'lyozmalar go'zalligini jon-dildan sevar va nozik his etar, asrlar davomida jamlangan kitobat ustalari an'analarini saqlash va boyitishga hamisha g'ayrat bilan intilar edi. U ayniqsa xattotning individual husnixatiga, qo'lyozmalarni badiiy bezaklash an'analarining toshbosma kitoblar yaratilishi jarayoniga ko'chirilishiga katta e'tibor qaratar edi. Shuning uchun ham uning nashrlari boshqa noshirlarning toshbosma kitoblaridan tashqi bejirimligi, ayniqsa muqovalarining bezatilishi va yaratilishi bilan farqlanib ajralib turadi, kitobni bezaklarining umumiy yuksak badiiy saviyasi tamoman sahifalarga ham, naqsh lavhalari elementlariga, rasmlarga, naqshlarga ko'chib o'tadi.

Milliy kitobat ishi tashkilotchisi sifatida G'ulom Hasan Orifjonov o'zbek madaniyati tarixida o'zining betakror izini qoldirdi. G'ulom Hasan Orifjonov nomi u tomonidan tashkil qilingan muqovasozlik ustaxonasining yuqori malakali ustalari XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Toshkentdagi qator tipografiyalar va litografiyalarga xizmat ko'rsatib kelganligi bilanoq shon-sharafga burkanishi muqarrar. G'ulom Hasan Orifjonov nafaqat deyarli chorak asr davomida gullab-yashnagan yirik nashriyot-matbaa firmasi tashkil qildi, balki, ayni mahalda o'zining mohirona sa'y-harakatlari bilan ana shu firmada eng yaxshi o'zbek husnixat ustalarini, muqovasozlik san'atini, musavvirlar va naqqoshlarni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, G'ulom Hasan Orifjonovning milliy kitobat madaniyati rivojiga qo'shgan bosh hissasi baribir u tomonidan nashr etilgan kitoblar, shuningdek, u yoki bu kitobni bosmadan chiqarishni tashkillashtirish bo'yicha faoliyati bo'lib qolaveradi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasida chop etilgan 200 dan ziyod turli nomdagi nashrlar saqlanmoqda. Nashrlar nomlarining bunday salmoqli miqdori G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasi Turkistonning

[464]Musovir Odilov — O'zbekistonning keksa nashriyot xodimlaridan biri. Qarang: Rustamov M. O'zbek kitobi. 40-bet.

boshqa litografiyalaridan ancha o'zib ketgan edi, deya xulosa yasashga imkon beradi. Milliy adabiy-badiiy kitoblar, diniy-axloqiy mavzudagi kitoblar, nasihat-didaktik, shuningdek, o'quv-biluv mazmunidagi kitoblar nashr etish G'ulom Hasan Orifjonov noshirchilik faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridandir.

G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasi kitoblari orasida Alisher Navoiy asarlari nashri miqdoriy jihatdan muhim o'rin egallaydi. Bular orasida «Devon» (1900), «Mavlono Amir Navoiy» (1910), «Amir Navoiy» (1914), «Kulliyoti devoni Amir Alisher Navoiy» (1915) kabi turli nomlar ostida shoirning terma devonlari, she'rlar to'plamlari, «Nasri Xamsayi benazir» (1908) nomi bilan «Xamsa» dostonlarining nasrga tabdil qilingan dostonlari, «Chihil hadis» (1910), «Majolis un-nafois» (1917) asarlari bosmadan chiqarilgan edi.

Buyuk Alisher Navoiy asarlaridan tashqari G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasida Sharq adabiyotining boshqa vakillari asarlari ham nashr etildi, jumladan, Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr», Zahiriddin Muhammad Boburning «Mubayyin» (1905), «G'azaliyoti Bedil» (1901), «Huvaydoyi Chimyoniy» (1911), «Devoni Fuzuliy» (1912), «G'azaliyoti Muxlis» (1908), «Devoni Majzub Namangoniy» (1911)[465]. Toshbosma bayozlarda Muqimiy, Furqat, Gulxaniy, Hamza, xullas, Alisher Navoiydan oldin yashaganlaridan tortib noshir zamondoshlarigacha bo'lgan boshqa o'zbek shoirlarining she'rlari e'lon qilindi. Binobarin, yo muallif nomiga qarab, yoki tuzuvchi ismi sharifidan, yoxud she'riy mavzuga ko'ra ana shu bayozlar ham nihoyatda turlicha nomlanishi kuzatiladi. «Bayozi Mulla O'tab» (1907), «Tuhfayi Xislat» (1914), «Bayozi Haziniy» (1915), «Bayozi Muhallo» (1911), «Savg'oti Shavkat» (1914), «Bayozi mahbul ul-mahbub» (1913), «Bayozi Xoja Sobir Samarqandiy» (1914), "Bayozi Mulla To'ychi" (1918) Mulla To'ychi hofiz ashula qilib aytgan barcha g'azallar to'plami[466].

G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasida o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti asarlari nashrlari ham salmoqli miqdorda amalga oshirildi. Bu erda alohida kitob ko'rinishida yigirmaga yaqin folklor asarlari, jumladan, «Nasriddin afandi» (1908, 1910, 1916), «Yusufbek, Ahmadiy va bo'z

[465]Hojieva R. Toshbosma devonlar o'zbek klassik adabiyotini o'rganishda muhim manba. G'G' Adabiy meros, 1984, № 31. 62—69-betlar.

[466]Hojieva R. Toshbosma bayozlar o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishda muhim manba. G'G' Adabiy meros, 1980, № 13. 87—96-betlar.

o'g'lon» (1909), «Malikai Dilorom» (1912), «Bobo Ravshan», «Malikayi donishmand», «Hurliqo», «Gulfarah» (1913), «Go'ro'g'li sulton» (1916), «Tohir va Zuhra» (1914) va boshqalar dunyo yuzini ko'rdi.

G'ulom Hasan Orifjonov o'quv va diniy-axloqiy adabiyotlar nashr etishga ham katta ahamiyat bergan edi. 1911 yilda uning matbaasida mudarris Sayyid Ahmad Vasliyning «Adab id-din» yoki «Milliy she'rlar majmuasi» o'quv qo'llanmasi nashr etilgan edi. Kitob noshiri jadidchilik harakati taniqli darg'alaridan biri Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li bo'lgan. Darslik mazmuni «Na o'lg'ay?», «Ittifoq nadur?», «Millati islomiyaning ahvoli xotirasi», «Ahvoli muslimiyn», «Isloh haqinda iltijo», «Maktabga muhabbatli bola» kabi sarlavhalar ostida berilgan. Kitobda Sayyid Ahmad Vasliyning o'z g'azal, muxammas va musaddaslari keltirilib, ularda muallif o'zbek xalqining ilmsizlik va jaholatda qolib ketayotganidan qayg'uradi, yoshlarni ilm-ma'rifatga da'vat qiladi.

G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasida 1912 yil davomida ikki marta taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» to'plami bosmadan chiqarildi, shuningdek, uning «Adabiyot», «Birinchi muallim», "Turkiy «Guliston» yoxud axloq" darsliklari nashr etildi. G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasida taraqqiyparvar muallim Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» darsligi bir necha marta chop qilindi.

Diniy-axloqiy adabiyotlar nashrlari orasida Ibn Hojibning «Mushkuliyot» (1907), Abdurahmon Sayyohning uzoq safarga chiqqan farzandlar o'z padarlariga qanday mazmun va odob bilan yozilishi kerak bo'lgan maktublar namunasi berilgan birinchi kitobi — «Mazmuni insho» (1909), Mulla Zuhuriddin maxsum qori o'g'lining harakati bilan chop etilgan «Chor kitob» (1911), So'fi Olloyorning «Maslak ul-muttaqiyn» asari boshqa she'rlari majmui bilan birga e'lon qilingan shu nomdagi kitobi (1913), Zohidxon Hakim o'g'li tomonidan nashr ettirilgan «Manba' ul-maorif» kitobi (1913), Mulla Muhammad qori Shokir Muhammad o'g'li harakati bilan nashr etilgan «Risolayi marg'uba» asari (1914), Tavallo Xo'jamyorovning «Ravnaq ul-islom» kitobi (1916), Vositxon Zohidxon Hakim o'g'li tomonidan nashr etilgan va chiqqan sanalari qo'yilmagan «Favoyid ul-muslimiyn» va «Haqoyiq ul-asror» kitoblari mavjud.

«O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida» kitobida Orifjonovning noshirlik faoliyati haqida ham so'z yuritiladi. Jumladan,, kitobda shunday deyilgan:

«1911 yilda Toshkentda G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida «Sadu yak bandi Mushfiqiy» degan kitob nashr etiladi. XVI asr voqealari bilan boshlanuvchi bu asar mundarijasidan rus istilosiga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi she'rlar ham o'rin olgan. Matbaachilar senzurani chalg'itib, vatanparvarlik ruhidagi asarlarni ham chop etishga muyassar bo'ladilar. Masalan, kitobda Muhammad Amin Xo'qondiy va Hofiz Ro'ziboy Mashrab manzumalari beriladiki, ularda istilochilarning mudhish qiyofasi fosh etiladi»[467].

Matbaada 1915 yili Mullo Olim Mahdumho'janing «Turkiston tarixi» kitobi nashr etildi.

O'zbek noshirlari orasida birinchilardan bo'lib G'ulom Hasan Orifjonov tarjima kitoblar nashr etishga ham kirishgan edi[468]. 1905 yili «Nazm aytuvchi Hodi To'ra binni Jahongir Turk» sarlavhasi bilan boshlangan «Chahor darvishi nazm» — «Chor darvesh» kitobi o'zbek tilida Karimjon Hakimjon o'g'li va Sayyid Ahmad hoji Sulaymonxo'ja o'g'li sa'y-harakati bilan «G'ulomiya» matbaasida chop etildi. 1908 yili Xomushiy tarjimasida o'zbek tilida Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sining ayrim qismlari nasriy variantda bosmadan chiqarildi. Bu kitob durustgina badiiy bezatilgan, hajmi esa 648 sahifadan iborat. 1909 yili G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asari o'zbek tiliga tarjimasi «Shavqi «Guliston» nomida ilk marotaba bosmadan chiqarildi. «Bu asarning tarjimoni Mulla Murodxo'ja eshon binni Solihxo'ja eshon bo'lib, — deb yozadi toshbosma nashrlar tadqiqotchisi R.Hojieva, — asar tarjimasiga ancha e'tibor bergan. Kitobda tarjimaning sababi, Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning tarjimayi holi, debochalar berilgan. «Guliston» tekstlari katta qora harflar bilan, uning tarjimasi esa tekst ostida mayda yozilgan harflar bilan keltiriladi. O'quvchi uchun qiyinroq bo'lgan so'zlar esa varaqlar hoshiyasida izohlangan. 380 sahifali mazkur kitob tarkibida «Guliston»dagi sakkiz bobning hammasi keltirilgan bo'lib, undagi hikoyatlarning mazmuniga mos qilib rasmlar

---

[467] O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000 – b. 186.

[468] Arab, fors-tojik va rus tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilinib toshbosmalarda nashr etilgan asarlar va ularning tarjimonlari to'g'risida batafsil ma'lumot mashhur olim va yozuvchi Jumaniyoz Sharipovning (1907-2008) O'zbekistonda tarjima tarixidan. Revolyutsiyadan oldingi davr. T.: Fan, 1965 kitobida keltirilgan.

chizilgan»[469]. Kitob tarjimonning o‘z sarmoyasiga nashr etilgan.

1911 yili «G‘ulomiya» matbaasida «Ro‘mon» nomi bilan ingliz yozuvchisi Daniel Defoning «Robinzon Kruzo» romani tarjimasining qisqartirilgan varianti chop etildi. Kitob titul varag‘ida Mulla Muhammad Qosim qori maxdum va Mulla Sulton maxdum tomonidan nashr etilgani ko‘rsatilgan. Kitob tarjimoni Muhammad Fozilbek Otabek o‘g‘li o‘z muqaddimasida «Robinzon degan bir inglizning boshdan o‘tgan ajoyibu g‘aroyib bir hikoya»si deb boshlaydi va asarning ko‘pgina tillarga tarjima bo‘lganini aytib, «sartiya zaboniga tarjima qildim» deb o‘zbek tiliga ag‘darganligini ta’kidlaydi. 40 sahifali asar kotibi Mulla O‘tabdir[470].

G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida hammasi bo‘lib o‘ndan ziyod nomda tarjima kitoblar nashr etilgan.

O‘z umrining eng etuk yigirma yildan ko‘proq davrini Sharq mumtoz adabiyoti asarlarini, diniy va dunyoviy kitoblarni nashr etish va xalq orasida tarqatishga bag‘ishlagan G‘ulom Hasan Orifjonov noshirlik faoliyatini umumiyligicha baholay turib, uni o‘zbek milliy kitobat madaniyatining chinakam fidoiysi deb tan olmoq kerak. G‘ulom Hasan Orifjonovning noshirlik faoliyati o‘zbek milliy kitob noshirchiligi ishi XX asrning dastlabki ikki o‘n yilligida erishgan eng yuksak rivojlanish darajasida o‘zing eng teran va har tomonlama mukammal qiyofasiga ega bo‘lgan edi. Va, mabodo G‘ulom Hasan Orifjonov korxonasi 1918 yilda musodara qilinib, natsionalizatsiyaga tortilmaganda, so‘ngra sovet tarixiy davri boshlanmaganida, balki G‘ulom Hasan Orifjonovning noshirlik faoliyati eng yangi tarixning nemislar F.A.Brokgauz va I.Shpringer, inglizlar aka-uka Makmillanlar va «Pergamon press», frantsuz firmalari «Kalman Levi», «Libreri Ashett», «Laruss», ruslar A.A.Suvorin, I.D.Sitin, aka-uka I.V. va S.V.Sabashnikovlar va boshqa ko‘plab butun dunyo taniydigan milliy noshirlar va noshirchilik firmalari darajasigacha ravnaq topgan bo‘lur edi. Biroq, milliy kitob noshiri sifatida G‘ulom Hasan Orifjonov amalga oshirishga ulgurgan ishlar uning fuqarolik jasorati va o‘zbek kitobat madaniyati an’analariga sadoqatini yuksak baholashga imkon beradi. Turkistonda kitob noshirchiligi ravnaqiga qo‘shgan shaxsiy hissasi G‘ulom Hasan Orifjonov nomi va «G‘ulomiya» korxonasi nashriyot-matbaa markasini jahonning yirik noshirlari va noshirchilik firmalari bilan yonma-yon qo‘yishga haqli ekanligini isbotlaydi.

[469] Hojieva R. Litografik tarjima asarlar. G‘G‘ Adabiy meros, 1983, № 5, 77-bet.

[470] O‘sha joyda. 75—76-betlar.

2.3.7. V.M.Ilin toshbosma matbaasining turkiston milliy kitoblari (1896—1918)

Toshkentlik birinchi gildiya savdogari Vasiliy Mefodievich Ilin aka-uka Kamenskiylardan tipolitografiya sotib oldi. Bu voqea 1896 yil ro'y bergan va birinchi u chiqargan kitobning nomi «Zaynul arab» edi (1896 y., noshir Mulla Muhammad Zufar). 1898 y. ikki kitob – «Mabdan nur» va «Sanubar» nashrdan chiqdi. 1909 yili esa Alisher Navoiyning terma devoni toshbosma usulida chop etildi. Terma devon noshiri G'ulom Rasulxo'ja, xattoti esa Muhammad Shohmurod kotib bo'lgan[471]. Birgina 1900—1906 yillarni qamragan davrda bu matbaada Alisher Navoiy turli terma devonlarining sakkiz nashri amalga oshirilgan edi. Tipolitografiya egasi o'z muhandisi S.I.Jabskiy orqali ishlab chiqarishni durustgina tashkil qilishga muvaffaq bo'ldi va uning korxonasi ma'lum bir vaqt Turkiston o'lkasida eng yaxshi matbaa korxonalaridan biri hisoblanib keldi. 1912 yilda tipolitografiyaning yillik aylanmasi ikki yuz ming rublga etdi, sof foyda esa yiliga qariyb o'n besh ming rubl miqdorida ifodalanar, bu esa o'sha kezlarda yuqori darajadagi daromad hisoblanar edi[472]. Garchi toshbosma kitoblar tipolitografiya bosma kitob mahsulotlari umumiy hajmiga nisbatan uncha katta bo'lmagan qismni tashkil etgan bo'lsa-da, ular baribir V.M.Ilinni noshirlar, kitobfurushlar, nafis adabiyot muxlislari va toshbosma nashrlar o'quvchilari orasida keng tanitdi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida hozirgi kunda mazkur tipolitografiyaning oltmishdan ziyod Turkiston milliy kitoblari saqlanmoqda.

Alisher Navoiy asarlarining yuqorida aytib o'tilgan sakkiz nashridan tashqari bu matbaa korxonasida Abdulla Avloniyning adabiyot darsligi besh marta, Saidrasul Saidazizzodaning «Ustodi avval» degan taniqli maktab darsligi ikki marta chop etildi. V.M.Ilin toshbosma matbaasida Ishoqxon Ibratning «Lug'ati sitta al-sina» degan olti tilli lug'ati nashr etildi (1902), Abdulla hoji Asadulla o'g'li sarmoyasi va iltimosi bilan «Qur'on», «Qissai Hamroh va Hurliqo» (1908), Sobir Sayqaliyning («Qissai Sayqaliy» (1907), «Axtamnoma» (1910) asarlari, «Ajoyib ul-hikoyot» kitobi bosmadan chiqarildi. 1901 yilda noshir Mulla Muhammad Zufarbek

---

[471]O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi sobiq Qo'lyozmalar institutining toshbosma kitoblar fondi, inv № 1960.

[472]Qarang: Dobrosmo`slov A.I. Tashkent v proshlom i nastoyahem. Toshkent, 1912. 298-bet.

Muhammad o'g'li Fuzuliy «G'azaliyot»ini, o'sha yiliyoq Farg'oniy «Devon»i, Bedil «Devon»i nashr etildi. 1902 yilda esa Qo'qon xoni Amir Umarxon hukmronligi davri (XIX asrning birinchi choragi) shoirlarining she'rlari jamlangan «Majmuat ush-shuaroi Umarxoniy» kitobi. 1905 yilda Mulla Akmalxon sa'y-harakati va tashabbusi bilan «Devoni Huvaydo», «Devoni Mashrab», «Devoni Yassaviy» kitoblari. 1907 yilda «Qissayi Sayqaliy» nashr etilgan bo'lsa, 1908 yili Qori Fazlulloh Toshkandiy — Almaiyning forsiydan tarjimasida «Kalila va Dimna» asari tarjimon tomonidan «Kalila va Dimnayi turkiy» nomi bilan bosmadan chiqarildi. 1909 yilda Abdulla Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» kitobi. Fazliy Namangoniyning «Majmuat ush-shuaro»si nashr etildi.

2.3.8. Ishoqxon Ibrat toshbosma matbaasi faoliyati (1908—1918)

Ishoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat (1862—1937)ning 1908 yil dastlab Namangan uezdi To'raqo'rg'on qishlog'ida asos solingan, keyin esa, 1910 yili Namangan shahriga ko'chirilgan toshbosma matbaasi Farg'ona vodiysida xronologik jihatdan ikkinchi xususiy matbaa korxonasi bo'lib, o'zbek bosma kitob noshirchiligi vujudga kelishi va rivoj topishida katta ahamiyat kasb etgan edi.

Taraqqiyparvar ma'rifatparvar shoir, o'z zamonasining yirik tilshunos olimi, iste'dodli xattot, pedagog, otashin publitsist Ishoqxon Ibrat ayni mahalda ilk o'zbek noshirlaridan biri edi.

Ishoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat (Ibrat uning taxallusi) Namangan shahridan uncha uzoq bo'lmagan To'raqo'rg'on qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topdi. Uning otasi Junaydullaxo'ja o'g'li o'z zamonasining savodxon va madaniyatli kishisi bo'lib, uch tanob er va chorboqqa egalik qilar, ularga ishlov berar, shu taxlit o'z oilasini ta'minlab kelar edi. Junaydullaxo'ja o'g'li adabiyotga qiziqar, «Nodim» taxallusi bilan she'rlar yozar edi. Ishoqxonning onasi Hurbibi savodxon, ziyoli, qo'li gul ayol bo'lib, o'z uyida qishloq qizlarini savdoxonlikka o'rgatar, musulmonlikka o'tilganidan keyingi davrda Turkiston shahar va qishloqlarida odat bo'lganidek otinoyilik qilar edi.

Ishoqxon boshlang'ich ta'limni avvalboshda onasi qo'l ostida oldi, keyin esa madrasada o'qidi. 1878 yili tahsilni davom ettirish uchun u Qo'qon shahriga keldi. Bu erda u Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasida o'qidi. U madrasa fanlari bilan kifoyalanib qolmasdan, Sharq mumtoz ijodkorlari

asarlarini o'rganish bilan mustaqil ravishda shug'ullana boshladi. Arab va fors tillari bilan bir qatorda rus tili, rus adabiyoti asarlarini ham o'rgandi, rus va o'zbek tillarida nashr etilgan «Turkestanskie vedomosti» va «Turkiston viloyatining gazeti» gazetalarining doimiy o'quvchisiga aylandi. U xattotlik san'atiga qiziqdi va bu san'at sir-asroriga oshno tutindi.

«Lug'ati sitta al-sina» va «Jomi' ul-xutut» kitoblaridan ma'lum bo'lishicha, u yigirma besh yoshlarga kirgan kezlarda, ya'ni 1887 yilda uzoq davom etgan sayohatga otlangan edi. 1895 yilga qadar u Sharq va G'arbning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. O'z sayohati chog'ida Ishoqxon Ibrat ana shu mamlakatlar xalqlarining hayoti va turmushi bilan yaqindan tanishdi. U ana shu xalqlarning olimlari va shoirlari bilan, ularning yashash joyi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, do'stona munosabatda bo'lgan edi. Ishoqxon Ibrat shunday yozadi: «Begona mamlakatdan bo'lmish savodxon kishini uchratganimda men undan yangi narsalarni bilib olishga, uning bilimlari qanchaligini anglab etishga harakat qilar edim».

Ishoqxon Ibratni ayniqsa bu xalqlarning tillari va yozuvlari qiziqtirib qo'ygan edi. «O'z hayotimning salmoqli qismini men ularning yozuvi va tilini o'rganishga baxshida etdim, islom mamlakatlari barcha yozuvlarini o'rgandim, — deb yozadi u. — Hindiston, Bombay, ibroniy (ivrit, eski yahudiycha), suryoniy, yunon, ingliz tillarini o'rgandim»[473].

Evropaliklarning madaniy boyliklari, ularda dunyoviy fanlar va texnika yutuqlaridan foydalanilishi Ishoqxon Ibrat ko'nglida o'chmas iz qoldirdi. Ishoqxon Ibratning Evropa madaniyati, fani va texnikasi bilan tanishuvi unga juda ko'p narsalarni taqqoslab ko'rish imkonini berdi. O'z sayohati davomida Ishoqxon o'zining bo'lg'usi «Lug'ati sitta al-sina», «Jomi' ul-xutut», «Farg'ona tarixi» va boshqa ilmiy ishlari uchun qimmatli material to'pladi.

Ishoqxon Ibratning fan va madaniyat sohasidagi ko'p qirrali faoliyatini yuksak baholagan qo'qonlik shoir, ma'rifatparvar va publitsist Ibrohim Davron shunday yozgan edi: **«Ishoqxon to'ra ulumi diniyya va adabiyyada ustozi komilligi butun Farg'ona va digar jihati Osiyoda ustoda inkor o'lunmas darajada bir mavqei mumtoz tutmishdur. Ishoqxon to'ra fununi dunyoviyda, billoshubha, injener, arxitektor, texnika va mexanik va fizikiyya ilminda, telefonist, telegrafist va ximik desak yana ozdur. Chunki bu ilmlarni bilur. Ishoqxon to'ra, olim va fozil bir zoti oliy o'lib, fazoili insoniyyaga molik. Ba'zi ixtirolari ham**

[473] Ishoqxon Ibrat. «Jomi' ul-xutut». Matbaai Ishoqiya. Namangan, 1912, 4-bet.

bordur»[474].

Xorijiy mamlakatlar bo'ylab sayohatdan qaytib kelishi bilan Ishoqxon Ibrat «Lug'ati sitta alsina» olti til lug'ati (arab, fors, sanskrit, turk, o'zbek va rus)ni yaratishga qizg'in kirishib ketdi. Bu asarni 1890-yillar o'rtalarida yozib tugatdi va nashr etish uchun Toshkent shahriga jo'natdi. Chorizm senzurasi butun qattiqqo'ligi va hokimiyatdagi amaldorlarning butun to'ralarcha sansolarligini engib o'tib, oradan olti yil o'tib, nihoyat, 1901 yil 23 sentyabrda lug'atni V.M.Ilin bosma va toshbosma matbaasida nashr etishga ruxsatnoma berilgan edi.

Mahalliy Turkiston senzura qo'mitasi bo'lmaganligi barcha masalalar bo'yicha Peterburgga murojaat qilish zaruratini tug'dirar edi. Bosh senzura qo'mitasi esa milliy tillarda yangi kitoblar chop etish va yangi bosmaxona va litografiyalar tashkil qilishni rosa murakkablashtirar va muddatlarini cho'zib yuborar, milliy bosma kitob noshirchiligini kamsitish uchun ko'plab byurokratik tuynukchalar qoldirgan edi. Ma'rifat tarqatishga, xalqning madaniy saviyasi va savodxonligini ko'tarishga intilgan Ishoqxon Ibrat o'z asarlarini chop etish yo'li bilan bu olijanob ishga o'z hissasini qo'shishni astoydil xohlar edi. Bosma kitob noshirchiligi madaniy-tarixiy ahamiyatini teran anglash va o'z lug'atini nashr etish bilan bog'liq bo'lgan ko'p yillik sarson-sargardonlik Ishoqxon Ibratda shaxsiy bosma kitob noshirligini tashkillashtirish fikrini qat'iylashtirdi.

Ishoqxon Ibratning xususiy toshbosma matbaasida nashr etilgan «Ilmi Ibrat» to'plamiga kiritilgan «Ta'rixi chopxona» she'rida u shunday yozadi:

Ming uch yuzu yigirma oltida chopmaxona[475],
Ochmoqqa bo'ldi ruxsat va so'z berib zamona,
Maqsad bu ishdan erdi olamga ilm kasri,
Ham qo'ymoqda asarlar yodovari jahona.

Ishoqxon Ibrat sarmoyasini ko'paytirish payida bo'lgan tipografiyalar va litografiyalar sohiblari bo'lmish rus savdogarlari va mahalliy boylardan farq qilaroq kitoblar nashr etishdan mutlaqo o'zgacha, ma'rifatparvarlik maqsadlarini ko'zlar edi.

---

[474] Turkiston viloyatining gazeti.1908, № 56.

[475] Ayrim lahja va shevalarda «bosmaxona» hozir ham shunday ataladi. Keng tarqalmagan, adabiy tilga kirmagan, XX asr boshlaridagi jadidlar istilohi.

Litografiya uchun asbob-uskunalarni Ishoqxon Ibrat 1907 yilda Orenburg shahridan olib keldi. Bu asbob-uskunalar mahalliy savdogar Gaufmandan to'lovni 11 yilda amalga oshirish sharti bilan sotib olingan edi. Qo'qon shahrigacha asbob-uskunalar poezdda olib kelingan bo'lsa, Qo'qon shahridan To'raqo'rg'on qishlog'igacha tuyalarda tashilgan edi. Orenburg shahridan Ishoqxon Ibrat bir komplekt toshbosma va bir komplekt tipografiya jihozlari olib kelgan.

Ruxsatnoma olinganidan so'ng u tipolitografiyani o'z uyida o'rnatdi. U sohibining nomi bilan atalgan edi — «Matbaayi Ishoqiya» (Ishoqxon bosmaxonasi). Dastlabki kezlarda bu erda uch kishi ishlagan edi. Shulardan biri O'rta Povoljedagi Kuznetskiy okrugi Noviy Mostok qishlog'i farzandi, 1902 yilda Namangan shahriga kelgan Husain Zayniddinovich Makaev (1875—1943) edi. Ishoqxon Ibrat taklifiga ko'ra Husain Makaev uning yangi usuldagi jadid maktabida muallim bo'lib ishlayotgan edi. 1908 yildan boshlab u toshbosma korxonasida sahifalovchi, keyinchalik esa harf teruvchi bo'lib ishladi. Tipolitografiyaning ikkinchi xodimi Oxundzoda Abdurauf Mashhadiy edi. Bu kishi kitoblar noshiri bo'lib, u o'zi haqida ayrim ma'lumotlar qoldirgan. Jumladan,. Ishoqxon Ibratning «Ilmi Ibrat» to'plamida (1908) «Bayoni manzuriya» degan e'lon berilgan bo'lib, unda shunday ma'lumotlar keltiriladi: «Nashrga tayyorlovchi va noshir «Matbaayi Ishoqiya» mudiri muhtaram Oxundzoda Abdurauf Mashhadiy».

Bundan tipolitografiya faoliyatining ilk kezlarida Ishoqxon rahbarlikni Oxundzoda bilan baham ko'rgan edi deya xulosa chiqarish mumkin. Tipolitografiyaning uchinchi xodimi esa to'raqo'rg'onlik tarjimon Jaloliy bo'lgan.

Dastlabki kezlarda litografiya e'lonlar, taklifnomalar, yozuv-chizuv jihozlari ishlab chiqargan, mayda buyurtmalarni bajargan edi. To'raqo'rg'ondek bir qishloqda tipolitografiya o'z sohibini qarzdorlikdan xalos eta olmas, shuning uchun ham Ishoqxon Ibrat 1910 yilda uni Namangan shahriga ko'chirishga qaror qildi. 1910 yil 25 yanvarda Ishoqxon Ibrat viloyat boshqarmasi nomiga o'tinchnoma yozgan, unda Namangan shahri To'raqo'rg'on mahallasida istiqomat qilguvchi Boydadaboy Matmusaboev uyiga litografiyani ko'chirib joylashtirishga ruxsatnoma berishni iltimos qilgan edi[476]. Ana shu o'tinchnomada uning korxonasida bitta tipografiya, bitta litografiya dastgohi, 90 pud shrift borligi haqida so'z yuritiladi. Sardoba mahallasi ahlidan bo'lmish 1911 yilda Ishoqxon Ibrat toshbosma

[476]O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, 19-f., 1-r., 2883-s., 17-v.

matbaasida ishlagan Abdusattor Abduxalilov o'z o'g'li Abdufattohga hikoya qilishicha, tipografiyada tag'in qo'lda harakatga keltiriluvchi «Amerikanka» dastgohi ham bo'lgan. A.Abduxalilov ana shu mashinada 1913 yilga qadar sahifalovchi, keyin esa harf teruvchi bo'lib ishlagan.

Namangan shahrida Ishoqxon Ibrat bosma va toshbosma matbaasi tag'in uch yil ishladi. Biroq tez orada butunlay kasodga uchragan Ishoqxon Ibrat 1915 yilda Namangan shahri ahlidan bo'lmish Nurullaboy Abdusattorovga sotib yuborishga majbur bo'ldi.

Tipolitografiya egasi endilikda Nurullaboy Abdusattorov bo'lib qolganiga qaramasdan, Ishoqxon Ibrat uning ishida faol ishtirok etaverdi. kitoblar bu erda xuddi avvalgidek «Matbaayi Ishoqiya» markasi ostida chiqaverdi. Ishoqxon toshbosma matbaasida asosan ilmiy, ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng tarqatgan kitoblar, risolalar, to'plamlar, alohida ishlar nashri amalga oshirilar edi. Binobarin, agar Turkistonning boshqa litografiyalarida asosan o'tgan zamonlar mualliflari asarlari nashr etilgan bo'lsa, bu toshbosma korxonasida esa ko'p hollarda Ishoqxon Ibratning o'zi va uning zamondoshlari asarlari bosmadan chiqarilganini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

1908 yilda Ishoqxon Ibrat tomonidan yaratilgan, Mirrajab Bandiy tarafidan ko'chirilgan «San'ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy Mufradot» (Mirrajab Bandiy qo'li bilan ko'chirilgan Ibrat husnixat san'ati haqida Mufradot kitobi) risolasi chop etildi. 26 sahifadan iborat bo'lgan risola xattotlik san'atiga qiziquvchilar va unga o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan. Risolada xattotlik san'ati namunalari berilgan. Kitob noshiri Oxundzoda Abdurauf Mashhadiy bo'lgan. Kitob oxirida so'ngso'z berilgan, unda xaridorlarga murojaatnomada uning ahamiyati to'g'risida so'z yuritilgan. So'ngso'zda, jumladan,, «Eski usul maktab va madrasalarida ilm olish bilan mashg'ul bo'lganlar, kitoblar adadini ko'paytirish bilan qiziquvchilar uchun biz o'zimizning ilk sovg'amizni tortiq etayapmiz», deyilgan.

1909 yilda litografiya «Ilmi Ibrat» risolasini nashr etdi, unda Ishoqxon Ibratning etti she'ri ham e'lon qilingan edi. Bu she'rlar ma'rifatparvarlik mazmunida bo'lib, arab, fors va o'zbek tillarida yozilgan.

1910 yilda litografiya Husayn Makaevning 72 betdan iborat bo'lgan «Ilmi hol» darsligini bosmadan chiqardi. Muallif va noshir Makaevning o'zi bo'ldi. Darslik yangi usuldagi jadid maktablari uchun mo'ljallangandi. Unda bolalarini ta'lim va tarbiya berish uchun ko'pgina tavsiya va

maslahatlar berilgan. Kitob so'ngida «Matbaayi Ishoqiya»da chop etilgan, sotib olish mumkin bo'lgan kitoblar ro'yxati keltirilgan, ulardan ayrimlariga qisqacha annotatsiyalar ham berilgan.

1912 yilda Ishoqxon Ibratning «Jomi' ul-xutut», «Yozuv umumiy tarixi» (Yozuvlar majmuasi) ilmiy risolasi, jahon xalqlari turli yozuv tizimlarining kelib chiqishi, rivojlanishi va hozirgi ahvoli to'g'risida hikoya qiluvchi kitobi bosmadan chiqarildi. Bu kitobning noshiri Husayn Makaev bo'ldi. Kitobda jahonning qirqdan ziyod qadimiy va zamonaviy alifbelari: finikiya, oromiy, yunon, sanskrit, pahlaviy, yahudiycha kvadrat yozuv, suryoniy, lotin va uning hosilasi bo'lgan hozirgi zamon alifbelari, arman, gruzin, uyg'ur, slavyan va uning turli xalqlarning zamonaviy alifbesi bo'lmish hosilalari va boshqalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ishoqxon Ibrat zamonaviy fanlar, jahon madaniy merosini egallashda lotin, ingliz, nemis, frantsuz va rus tillarining roli va ahamiyatini alohida ta'kidlab ko'rsatadi.

O'z tadqiqotiga muqaddimasida Ishoqxon Ibrat shunday yozadi: «Bul xatlarni boqiy va tarix qarori muddao bo'lib, ham millatimizga yagona bir tarix qoldirmoq niyat etib, mujibi:

Asardurki, olamg'a o'lg'ay nishon,
Kishi beasardur ketar benishon,

...Millatga nishona qoldirib ham millatimiz lisoni turkiy uchun umumiy turkiy ilan sartiyya xalqini naf olmoqqa muddao bo'lib, adabiy milliyona qilmay, ravshan turkiy qildim... Jami xatlarga jomi' uchun «Jomi' ul-xutut» tasmiya etib, o'z xatimiz va o'z tilimiz va o'z matbaamizda tab' qilmoq maqsad bo'lib, ta'bi sharif, aqli raso va qalbi latif, ahli zakolarga peshkash qildim»[477].

Yozuvning ko'plab rang-barang tizimlari yozilishini aks ettirish talab etilgan «Jomi' ul-xutut» risolasining bosmadan chiqarilishi noshirlar tomonidan muvaffaqiyat bilan bartaraf etilgan bir qator texnikaviy ko'rinishdagi qiyinchiliklar bilan birga kechgan edi. Bu kitob ham o'zining mundarijasi, ham texnikaviy ijrosi bilan o'sha olis zamonada o'zbek kitobat ishi tarixida noyob bir hodisaga aylandi. Darvoqe, uning noyobligi, basharti, haligacha o'zbek tilida bunday nashrga ega emasligimizni inobatga olsak, hozirgi kunda ham saqlanib qolmoqda.

1909 yilda Namangan shahri ahlidan bo'lmish Hoji Usmonbek

[477] Ishoqxon Ibrat. «Jomi' ul-xutut». Matbaai Ishoqiya. Namangan, 1912, 6—7-betlar.

zargarning «Ajoyib af'ol ul-fuzalo va ulamo» (Fozillar va olimlarning ajoyib fazilatlari) asari nashr etildi. 72 sahifadan iborat risola chin ma'noda ilmiy-ommabop bir asar edi. Kitob 13 qismdan iborat bo'lib, Turkistondagi yangidan-yangi hodisalar va narsalar haqida so'z yuritiladi, bular: tikuv mashinasi, fotografiya, inkubatorlar. Bundan tashqari, unda xalq amaliy san'atining zargarlik ishi, kitobat ishi, sangtaroshlik, misgar va xattotlik hunarlari haqida ham hikoya qilinadi. Kitob so'ngida «Hikoyat» deb nomlangan so'ngso'z bo'lib, unda muallif o'zi haqida ma'lumotlar beradi, olim ham, noshir ham emasligi, oltinga sayqal beruvchi zargar ekanligi haqida so'z yuritadi. Bundan tashqari, 60 yillik umri davomida ko'pgina mamlakatlarga borgani, o'z sayohati chog'ida ko'z bilan ko'rganlari haqida hikoya qilib beradi.

1917 yilda Qoraxoniylar davlati asoschisi Sotuq Bug'raxonga bag'ishlangan «Tazkirayi Uvaysiy» asari chop etildi. Kitob namanganlik **Mulla Qodirxon** va **Mulla Egamberdi** sarmoyasiga nashr etilgan edi Kitob xattoti esa Saidjalol Vosifiy bo'lgan.

«Matbaayi Ishoqiya» bosmaxonasining so'nggi nashrlaridan biri Muhiddin Ibrohim tomonidan tuzilgan «Loshmon» she'rlar to'plami bo'ldi (1917). 1916 yilda, Birinchi jahon urushi janglari qizigan kezlarda, chor hukumati Rossiyadagi frontorti ishlariga Turkiston tub aholisi orasidan yoshlarni safarbar qilgan edi. Biroq, badavlat odamlarning farzandlari pora evaziga qoldirilgan, balki, qashshoq kishilar bolalari safarbar qilingan ediki, bu narsa mehnatkashlar noroziligi va qo'zg'oloniga sababchi bo'ldi. To'plamga kiritilgan asarlar o'sha kezlarda dolzarb bo'lgan ana shu mavzuga bag'ishlangan edi. To'plam noshirlari **Mashrabiy** va **Muhiddin Ibrohimiy** bo'lishgan.

2.3.9. G.Shumakov toshbosma matbaasining turkiston milliy kitoblari (1910—1918)

Turkiston, shu jumladan,. o'zbek milliy kitoblari repertuariga Qo'qon shahrida 1910—1918 yillarda faoliyat ko'rsatgan G.Shumakov toshbosma matbaasi muayyan hissa qo'shdi. Ushbu litografiya faoliyatining farqlovchi jihati uning istisno tariqasida mahalliy millatlar tillarida kitoblar bosib chiqarishga yo'naltirilganligidir.

O'z faoliyatini G.Shumakov toshbosma matbaasi sifatida 1910 yilda boshlagan korxona oradan 4 yil o'tganidan keyin «Tovarihestvo G.Shumakova, M.Chekanina i Ko» markasi ostida kitoblar nashr eta

boshladi, ya'ni paychilikka asoslangan aktsiyadorlik jamiyatiga aylandi.

G.Shumakov toshbosma matbaasida nashr etilgan xronologik jihatdan eng birinchi kitoblardan biri Ahmad Rumiyning 496 sahifalik «Daqoyiq ul-haqoyiq» asaridir (1912). Undan keyin o'zbek ma'rifatparvari Mirzo Xayrulla Xo'qandiy tomonidan tuzilgan «Tuhfat ul-atfol» (Bolalarga sovg'a) xrestomatiya tipidagi o'qish uchun kitobi keladi. Kitobga yozilgan so'zboshidan kitob maktab yoshidagi bolalarga mo'ljallangani, xrestomatiya asosan bolalar yosh darajasi va psixologiyasi o'ziga xosligini e'tiborga olgan holda o'zbek tiliga boshqa tillardan tarjima qilingan matnlardan tuzilgani oydinlashadi. Kitobga Furqat, Muqimiy, Xo'qandiyning o'zi, boshqa qo'qonlik shoirlarning didaktik mazmundagi baytlari kiritilgan. Kitob oxirida nashriyot so'ngso'zi berilgan, undan kitob 1913 yilda tuzilgani, ko'chirilgani va nashr etilgani ma'lum bo'ladi. Mirzo Xayrulla Xo'qandiy tashabbusi bilan asos solingan «Ma'rifat» Kitob Uyi bu kitobning noshiri bo'lgan.

1913 yilda Qo'qon tevaragidagi Yayfan qishlog'idan bo'lmish iste'dodli shoir, dorugar tabib, faylasuf va ma'rifatparvar Mahmud Hakim Hojimuhammad o'g'li Yayfaniyning Qo'qon xonligi tarixi haqida hikoya qiluvchi «Xulosat ut-tavorix» (Tarix xulosalari) asari nashr etilgan edi. Kitob xattoti mulla Shohnazar hoji. Kitob muallif shaxsiy mablag'i hisobidan nashr etilgandi. Asarda so'zboshi bo'lib, unda kitob Qo'qon xonlari, Arab xalifalari, Turk sultonlari va Eron shahanshohlari tarixi haqida hikoya qilib berishi haqida so'z yuritiladi. Xuddi o'sha yili Mahmud Hakim Yayfaniyning tabobatga oid «Tariq ul-iloj» (Davolash yo'llari) tadqiqoti nashr etilgan edi. Kitob muallifning shaxsiy mablag'i hisobiga va uning tashabbusiga ko'ra nashr etilgandi. So'zboshida keltirishicha, kitob 4 qismdan tarkib topgan. Ammo kitobda 4 qismdan faqat uchinchi va to'rtinchi qismlari e'lon qilingan edi. Muallif o'sha kezlarda aholi orasida keng tanilgan tabiblar va azayimxonlarni qattiq tanqid ostiga oldi.

Kitobning uchinchi qismi o'n to'rt bobdan iborat bo'lib, ularda o'pka xastaliklari, shamollash kasalliklari tavsiflanadi, to'rtinchi qism esa . olti bobdan tarkib topgan, ularda teri kasalliklari va ularni davolash usullari haqida hikoya qilinadi. Kitobda Sharqda keng tarqalgan eng yangi dorilar haqida materiallar berilgan, shuningdek, Rossiya va Evropa retseptlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

G.Shumakov toshbosma matbaasida 1913 yilda «Bayoz hajviyoti mavlono Muqimiy maa Furqat» (Mavlono Muqimiy va Furqat hajviyoti

bayozi) to'plami chop etildi. Kitob 132 sahifadan iborat bo'lib, Abdulqodir qori Xo'qandiy tomonidan ko'chirilgan, Mahmud Hakim Yayfaniy mablag'i hisobiga bosmadan chiqarilgan. Garchand titul varag'ida kitobga faqat Muqimiy va Furqat she'rlari kiritilgani ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, Muhyi va Tajalliy ijodiy merosi namunalari, Zavqiyning «Dukchi eshon» she'ri, Muhammad Noqisning xalq orasida mashhur bo'lib ketgan «Hajringda zor o'ldim-u, g'amg'in, dimog'man» misrasi bilan boshlanuvchi lirik she'ri ham chop etilgan edi.

1914 yilda G.Shumakov toshbosma matbaasida qo'qonlik o'qituvchi Mulla Salohiddin binni Sirojiddin al-Majidiyning «Muallimi kusur» — «Kasrlar muallimi» asari nashr etildi. Kitob noshiri mulla Ishoqxon binni muallim Pirmuhammad bo'lgan. Ushbu o'quv qo'llanmasi «Rashidiya» maktabi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda 30ga yaqin savollar va ularga javoblar keltirilgan.

1917 yilda G.Shumakov toshbosma matbaasida o'qituvchi Shokir al-Muxtoriyning «Kim qozi bo'lsin?» deb nomlangan kitobi chop etildi. Uning xattoti Mirzo Xo'qandiy, noshiri esa «Birlik» Kitob Uyi edi. 24 sahifadan tashkil topgan bu kitob feodal tuzumning barcha illatlariga mubtalo bo'lgan amaldorlar va qozilar vakillarini fosh etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Muallif qashshoq odamlar chekiga tushgan istibdod va johillikni, qozilar poraxo'rligi va shafqatsizligini yaqqol ko'rsatib bergan. U o'zining odamlarni ma'lumotli, ma'rifatli, halol va insonparvar ko'rishdek orzusi haqida hikoya qiladi. Bu kitob Rossiyadagi 1917 yilgi Fevral inqilobidan keyinoq yaratilgan, quyidagi so'zlar shundan dalolat beradi: «Erkinlik e'lon qilindi va zolimlar va yaramaslar istibdodidan ozod bo'lishga yo'llar ochildi». Muallif bundan keyin qozilarni faqat xalq o'zi saylashi kerakligi haqida so'z yuritadi. Kitobning 22-sahifasida xattot Xo'jandiyning «Kichkina tanqid» deb sarlavha qo'yilgan taqrizi e'lon qilingan, unda bu kitobning maqsad va vazifalari to'g'risida so'z boradi.

Ma'lumki, inqilobdan oldingi ijodida Hamza Hakimzoda Niyoziy xalq qo'shiq va musiqasiga tez-tez murojaat qilgan edi. Hamza ommaviy xalq qo'shiqlarini to'pladi, ularni tartibga soldi, o'zi ham xalqchil ruhda matnlar yaratdi. 1913—1917 yillarda «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi» degan umumiy sarlavha ostida o'z lirik she'rlaridan bir qator to'plamlarni nashr ettirdi. Bu turkumga Hamzaning Qo'qonning turli litografiyalarida chop etilgan «Oq gul», «Qizil gul», «Yashil gul», «Sariq gul», «Pushti gul» va «Safsar gul» to'plamlari kirgan edi. Biroq

ana shu to'plamlarning titul varaqlarida u yoki bu to'plamlar aynan qaysi litografiyada chop etilgani to'g'risida ma'lumot ko'rsatib o'tilmagan.

«Pushti gul» to'plami bundan mustasno bo'lib, unda Vayner toshbosma matbaasida chop etilgani ko'rsatib o'tilgan. Respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, adabiyotshunos, Hamza Hakimzoda Niyoziyni yaqindan bilgan Po'lotxon Qayyumiy 1957 yil 22 dekabrdagi To'xtasin Jalolovga maktubi Hamza to'plamlari aynan qaerda chop etilgani masalasiga oydinlik kiritadi. Jumladan, Po'lotxon Qayyumiy shunday yozadi: «Davronning kichik do'konchasi bo'lib, unda Hamzaning Shumakov litografiyasida 1914—1917 yillarda bosmadan chiqarilgan «Sariq gul» va «Safsar gul» to'plamlari sotilar edi»[478]. Shunday qilib, Hamza Hakimzoda Niyoziyning «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»ga kirgan hamma to'plamlari Qo'qondagi G.Shumakov va I.Vayner litografiyalarida chop etilgan edi deya xulosa yasash mumkin.

Qo'qonlik badavlat homiylar Mulla Iskandar Barotboy o'g'li va Sayid Nosir Mirjalol o'g'li aytib o'tilgan to'plamlar noshiri sifatida ish ko'rgan bo'lsa, Mirza Xayrulla Ho'qandiy uning xattoti bo'lgan edi.

1912 yilda G.Shumakov toshbosma matbaasida rus-tuzem maktabi o'qituvchisi Sarkaboy Okaev va Ashurali Muhammad Zohir o'g'li tomonidan tuzilgan «Xrestomatiya» nashr etildi. Xrestomatiyaga 77 didaktik hikoyalar va maqollar kiritilgan, ulardan teng yarmi tarjima qilingan asarlar edi. I.A.Krilov, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy asarlari tarjimasi alohida diqqatga sazovor. Bu kitob va uning tuzuvchilar to'g'risida «Sho'ro» (Kengash) jurnalida maqola e'lon qilingan, bu kitob Qozonda ham nashr etilgani haqida ma'lumot berilgan.

I.N.Venchikovning «Azbuka — xrestomatiya s uprajneniyami» («Alifbe - mashqli xrestomatiya») o'quv qo'llanmasi rus maktablarida o'zbek tilini o'rganish uchun mo'ljallangan edi. Bu kitob G.Shumakov toshbosma matbaasida I.N.Venchikov mablag'i evaziga 1917 yilda chop etildi. Avvalboshda «Sart tilini amaliy o'rganish uchun ilk dasturilamal» deb nomlangan bu kitob Abdulqodir qori Bahodirali o'g'li Ho'qandiy tomonidan qayta ko'chirilgan. Kitobda muallif so'zboshisi mavjud: So'zboshidan keyin rus tilida tuzilgan gaplar keltirilgan. Arab raqamlari, barcha arab harflari uchun misollar, shuningdek, masallar va hikoyalar ham keltirilgan.

---

[478]Jalolov T. O'zbek shoirlari. 2-nashr. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1980, 27-bet.

2.3.10. I.Vayner toshbosma matbaasining turkiston milliy kitoblari (1914—1918)

1914 yilda Qo'qon shahri Boybo'ta mahallasida yahudiy savdogari I.Vayner toshbosma matbaasi ochildi. Husayn Shams «Matbaachilik va uning qisqacha tarixi» broshyurasida yozishicha, «Keyinchalik I.Vayner harf teruv bosmaxonasi ochdi. Bu erda tipografiya bo'limi bo'lib, unda Ortiqboy va Nazirjon degan mahalliy ishchilar mehnat qilar edi». I.Vayner bosma va toshbosma matbaasi 1915 yildan e'tiboran «Parovaya tipografiya» (Bug'da ishlaydigan bosmaxona) sifatida ishlay boshladi. Ana shu tipolitografiyada Qo'qon ziyolilari va muallimlari tomonidan adabiy va ilmiy kitoblar nashr etilgan edi. Ular qatorida Hamza Hakimzoda Niyoziy muharrirlik qilgan «Kengash» va «Hurriyat» jurnallari, boshqa gazeta va jurnallar ham chop etilgan.

Ibrohim Davron tomonidan to'plangan, qo'lda qayta ko'chirilgan va nashr etilgan «Madaniy jumboqlar» to'plami ancha diqqatga sazovor. To'plamda ikki yuzta savol-jumboq va ularning javoblari keltirilgan. So'zboshida muallif jumboqlar bolalarning chanqoq zehnini shakllantirishda juda muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritadi. Jumboqlarga muallifi Ibrohim Davronning o'zi bo'lgan beshta realistik rasmlar ilova etilgan. Kitobda nashriyot reklamasi ham keltirilgan — Ibrohim Davronning 15 ta e'lon qilingan va bosmadan chiqarilishi kutilayotgan asarlari haqida e'lon chop etilgan.

1914 yilda I.Vayner bosma va toshbosma matbaasida Ibrohim Davron tomonidan tuzilgan «Ash'ori nisvon» (Xotin-qizlar she'rlari) to'plami e'lon qilingan edi. To'plam noshiri «Madora» Kitob Uyi, xattoti esa Ibrohim Davron bo'lgan. Bu milliy kitob noshirligi tarixida shoiralar asarlari to'plami ilk bor chop etilishidek muhim bir voqea bo'ldi. To'plam 60 sahifadan iborat bo'lib, yigirma uch shoira she'rlari kiritilgan. So'zboshi sifatida «Bir so'z» va «Xotinlar haqinda bir nutq» deb nomlangan ikki maqola keltirilgan. Ularda ona maqomidagi ayol ulug'lanadi, insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyotida ayollarning salmoqli roli haqida so'z yuritiladi. To'plamda Ibrohim Davron o'zi yozgan tagso'z va izohlar bilan birga bir necha realistik rasmlar ham ilova etilgan. «Ash'ori nisvon» to'plami oxirida esa o'zbek toshbosma kitoblari uchun an'anaviy tus olgan e'lon keltirilgan, unda Ibrohim Davron asos solgan «Madora» Kitob Uyi tomonidan nashr etilgan kitoblar ro'yxati taqdim qilingan.

I.Vayner toshbosma matbaasida dorigar tabib Mahmud Hakim

Yayfaniyning geodeziya bo'yicha «G'aniyat ul-masohat» (Mamlakatlar boyligi) degan o'ziga xos original o'quv qo'llanmasi nashr etilgan, uning xattoti esa Abdulqodir qori Ho'qandiy edi. 16 sahifadan iborat risola uch bobga ajratilgan, bu boblarda er o'lchashning turli-tuman usullari bayon etilgan. Risola sahifalarida ana shu usullarni yaxshiroq tanishtirish maqsadida 35 ta chizma ham berilgan. Risola oxirida so'ngso'z e'lon qilingan bo'lib, muallif unda har bir o'quvchi er o'lchash malakasini egallashi lozim deb alohida ta'kidlaydi. Xotima o'rnida to'rtlik keltirilgan, unda har bir odam yuksak darajada savodli bo'lishi, faqat shu taqdirdagina bu kishi el-yurt hurmatiga sazvor bo'lishi haqida so'z yuritiladi.

1915 yilda Hamza Hakimzoda Niyoziyning «Yangi saodat» deb nomlangan milliy romani e'lon qilingan, uning noshiri «Madora» Kitob Uyi, xattoti esa Mirza Xayrulla Ho'qandiy edi. Kitobning titul varag'ida bob nomi va ma'rifat foydasi haqida ikki misra she'r keltirilgan. Kitobga yozilgan so'zboshida esa asar tushunarli sodda tilda yozilgani va maktablar uchun mo'ljallanmagani, balki «Jamshid», «Zarqum», «Aldar ko'sa», «Bayozi Dilxon Muxtor» kabi xalq kitoblari bilan keng tanish bo'lgan ma'rifatsiz erkaklar va ayollar uchun yozilgani haqida so'z boradi. Bu kitob yuqorida sanab o'tilgan kitoblar o'rnini egallaydigan degan bir umidda yozilgan edi. So'ngso'zda esa Hamzaning quyidagi so'zlar bilan tugaydigan yigirma misralik bir she'ri keltirilgan:

Ul haqiqat oynasiga sayqal istarsan, Nihon,
Ilm ista, ilm ista, istagil zinhor ilm.

Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan 1916 yilda yaratilgan va Saidnosir Mirjalol o'g'li tomonidan nashr etilgan «Pushti gul» to'plami ham I.Vayner toshbosma matbaasida bosmadan chiqarilgan. Kitob xattoti Mirza Xayrulla Ho'qandiy bo'lgan. To'plamga Hamzaning yaxshilik, ezgulik, ma'rifat, sof insoniy muhabbatni tarannum etuvchi, qoloqlik, johillik va erksizlikni qoralovchi she'rlari kirgan. Har bir she'r avvalida muallif bu ashulaning musiqasi qanaqaligi, qaysi xalqqa mansubligi va qachon yaratilgani haqida ma'lumot berib o'tgan.

I.Vayner toshbosma matbaasida 1916 yilda Alisher Navoiyning alohida ilmiy qiziqish uyg'otuvchi «Muhokamat ul-lug'atayn» (Ikki til haqida mulohazalar) kitobi nashr etildi. «G'ayrat» Kitob Uyi bu asar noshiri bo'lgan. Iste'dodli tilshunos va adabiyotshunos Ashurali Zohiriy bu asarni

qayta ko'chirgan va nashrga tayyorlagan edi. Kitobda keltirilgan so'zboshi Shamsiddin Somiyning «Qomus ul-a'lom» (Ilmlar entsiklopediyasi) asaridan olingan bo'lib, «Mavlono Shamsiddin Somiy yuqorida sanab o'tganlardan tashqari Alisher Navoiyning boshqa ko'plab asarlari ham mavjuddir. Ana shundan kelib chiqib, xudo xohlasa, biz «Risolai vaqfiya» kitobini ham chop etishni mo'ljallayapmiz», degan jumlalar ham shundan dalolat beradi.

1917 yilda I.Vayner toshbosma matbaasida Zahiriddin Muhammad Boburning «Mubayyin» (Bayonnoma) asari «Mubayyin ul-Islom» (Islom bayonnomasi») nomi bilan nashr etildi. Bu kitob nashri qo'qonlik taniqli kitobfurushlar va muqovasozlar Mirza Abdul Sami va Mulla Muhammad Alim tashabbusi bilan amalga oshirilgan edi.

Boburning «Mubayyin» asari davlat boshqaruvi, aholini soliqqa tortish, toifalar haqidagi byurokratik tabel masalalarini islom aqidalari nuqtai nazaridan sharhlaydi. Bobur bu asarni o'z o'g'li Humoyunga bag'ishlagan. Kitob Humoyunga va boshqalarga davlat ishlarini boshqarish bo'yicha dasturilamal sifatida mo'ljallangan. «Mubayyin» dastlab Toshkent shahrida, G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasida 1905 yilda litografiya usulida nashr etilgan.

1917 yilda I.I.Vayner bosma va toshbosma matbaasida Mirza Rahim Mirza Bobozoda tomonidan tuzilgan «Tahsil ul-insho» (Insho tahsili) to'plami bosmadan chiqarildi. Bu kitob noshiri Qo'qondagi «Ma'rifat» Kitob Uyi egasi F.M.Rasulzoda, muqovalovchisi esa Mirza Xayrulla Ho'qandiy bo'lgan. Bu kitob darslik bo'lib, unda ish yuritishga oid xatlardan 24 namuna keltirilgan, xat yozish va ish qog'ozlarini yuritishga oid turli-tuman qoidalar berilgan. 18-betda esa Zavqiyning «Millatimizdan bir rijomiz» va noma'lum muallifning «Asl islom avlodlariga xitob» deb nomlangan ikkita she'r ilova qilingan.

Xuddi o'sha yili I.Vayner toshbosma matbaasi «Rahbari tadris» (Dars o'tishga oid dasturilamal) darsligini bosmadan chiqardi. Darslik tarjimoni qo'qonlik ma'rifatparvar, muallim Muhammadjon Abduxalil o'g'li, noshir va xattot esa Mirza Xayrulla Ho'qandiy bo'lgan. Mirza Xayrulla Ho'qandiy kitob yaratilishi tarixi haqida so'ngso'z yozgan. Bu kitob o'zida ta'lim berish metodikasini mujassamlashtirgan.

I.Vayner toshbosma matbaasida nashr etilgan yana ikki kitob mashhur bo'lgan, bular: «Madxali fanni nujum» (Astronomiya ilmiga kirish, 1916) va «Jumboq majmuasi» (Jumboqlar to'plami, 1917). Boshqa tipografiyalar

va litografiyalar qatorida I.Vayner va G.Shumakov korxonalari ham 1918 yilda natsionalizatsiyaga tortilgan edi.

* * *

Bobda ko'rib chiqilayotgan tarixiy davrning turli sanalarida Turkiston o'lkasi shaharlarida, yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, milliy kitoblarni bosmadan chiqargan yigirmadan ziyod litografiya korxonalari mavjud bo'lgan. Ulardan ayrimlari qator yillar davomida ishlagan va o'nlab toshbosma kitoblar nashr etib ulgurgan, ba'zilari esa to'rt-beshta nashrni bosmadan chiqarish bilan kifoyalangan, uchinchi bir toifaga mansublari haqida esa shunday litografiya mavjud bo'lganidan tashqari qandaydir ma'lumot ham yo'q. Biroq, bu narsa uchinchi toifaga mansub korxonalar kitoblar chop etmagan yoki ularga noshirlar va buyurtmachi kitobfurushlar murojaat qilmagan deyishga imkon bermaydi. Ana shu nashr etilgan toshbosma kitoblar nusxalari davlat saqlovxonalarida saqlanib qolmagan, xolos. Ammo ular xonadon kutubxonalarida saqlanayotgani, ancha yillar oldin vafot etgan egalarining ko'hna kitoblari orasida chang bosgancha unutilishga yuzlangani, yangi avlodlarga tegishli bo'lsa-da, ular eski milliy alifbeni bilishmagani tufayli, afsuski, o'qilmasdan qolib ketayotgani ham ehtimoldan yiroq emas.

Ana shunday korxonalar orasida Toshkent shahrida Ilhomjon Inog'omjonov, A.Abduraufov, P.F.Breydenbax (1894—1898), S.I.Petuxov (1894—1895), I.Kostelev (1898—1900), G.Ya.Yakovlev, aka-uka Kamenskiylar, Brail, A.L.Kirsner litografiyalari, Turkiston harbiy okrugi shtabi va «Turkestanskiy kur'er» gazetasi bosmaxonalari ham bor.

P.F.Breydenbax toshbosma matbaasida 1894 yilda Xoja Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» kitobi «Xayrulxon mulla Abdulmalik hoji ibn Abdunabi say' va ehtimomi bilan», 1895 yilda esa «Kalila va Dimnai turkiy» (Turkiy Kalila va Dimna) nashr etilgan edi. 1897—1898 yillarda litografiyada Alisher Navoiy devonlari to'plamining to'rtta nashri amalga oshirilgan. Ulardan birinchisi shunchaki «Navoiy» deb atalgan, uning noshiri mulla Abdulmalik hoji ibn Abdunabi, xattoti esa Abdulqayum Ho'qandiy bo'lgan. Ikkinchisi «Amir Alisher Navoiy devonlari» deb nomlangan, uning noshiri mulla Akmalxon Islomxon o'g'li bo'lib, xattoti ko'rsatilmagan. Uchinchi to'plam «Navoiy devonlari» deb atalgan, noshir Ubaydulla hoji Asadulla o'g'li, xattot esa Abdulqayum Ho'qandiydir. To'rtinchi to'plam «Amir Navoiy» deb nomlangan, unga mulla Abdulla hoji Asadulla hoji o'g'li

noshirlik, Xo'ja Najmiddin Ho'qandiy xattotlik qilgan.

S.I.Petuxov toshbosma matbaasida 1894 yili noshir mulla Akmalxon Islomboy o'g'li tomonidan «Xulosai fiqhi Kaydoniy» (Kaydoniy fiqh asariga xulosalar) kitobi nashr etilgan.

I.Kostelev toshbosma matbaasida 1898 yilda «Tibbi Yusufiy» (Yusufiy tibbiyoti), So'fi Olloyorning «Sabot ul-ojizin», Amir Umarxon «Devon»i bosmadan chiqarilgan.

A.L.Kirsner toshbosma matbaasida 1910 yilda Fuzuliy «Devon»i va Nurmuhammad Namangoniyning «Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin» deb nomlangan devoni chop etilgan.

G.Ya.Yakovlev toshbosma matbaasida "Had'yai Xislat" (1910), "Bayozi gulshani ash'or", "Bayozi yangi", "Malikai Dilorom", "Devoni Mashrab", «Firoqiyai Ahroriya» (1910), Sa'diy Sheroziyning «Bo'ston» va «Guliston» asarlari bir jildda (1912), Abdurahmon Jomiyning «Haft avrang» (1913), pskentlik shoir Dilafgor — Abdulboriy Sherhoji tomonidan tuzilgan va nashr etilgan «Gulshani Dilafgor» she'rlar to'plami (1914) bosmadan chiqarilgan edi[479]. «Bayozi gulshani ash'or» — eng yirik toshbosma bayozlardan biridir. Muhammad Nosih ibni Ali Muhammad domla uning tuzuvchisi va noshiri bo'lgan. Bayoz matni mulla Shohislom tomonidan chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan, kitob nafis zarhallangan, 288 betdan iborat. Bayozda 70 ga yaqin shoir 270 she'ri bilan qatnashgan[480]. "Turkestanskiy kurer" gazetasining toshbosmasida "Nasriddin Afandi" latifalar to'plami, "Qissai Go'ro'g'li Sulton botasviri", Turkiston general-gubernatori matbaasida "Devona Muqimiy" chop etilgan.

XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragida Toshkent shahri butun Turon-Turkiston zamini kitobat madaniyatining haqiqiy poytaxtiga aylandi. Bu erda boshqa shaharlarga nisbatan eng ko'p bosmaxona va toshbosmaxona (hammasi bo'lib 20 tadan ziyod) muntazam ishlab turar, ular chiqargan nashrlar repertuari rang-barangligi bilan ajralib turar, har bir kitobning adadi 2 mingdan 8-10 ming nusxagacha etardi. Eng ko'p miqdorda – taxminan 125 marta va umumiy adadi 600-650 ming nusxada – Alisher Navoiy asarlari nashr etilgan. Ularning asosiy qismi Toshkent toshbosmaxonalarida chiqarilgan. Alisher Navoiydan keyin nashrlar soni

---

[479] R.Hojieva. Toshbosma devonlar o'zbek klassik adabiyotini o'rganishda muhim manba. O'zbek adabiy meros, 1984, № 31, 68-bet.

[480] R.Hojieva. Toshbosma bayozlar o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishda muhim manba. O'zbek adabiy meros, 1980, № 13, 93-bet.

va umumiy adadi Fuzuliy kitoblari turadi. Fuzuliy devonining birinchi nashri Xiva saroy toshbosmaxonasida 1882 yili chiqarilgan, keyingi 1884–1916 yillar ichida esa shoir asarlari to'plamlari 71 marta Toshkent shahrida dunyo yuzini ko'rgan. Shu mavzuda chuqur tadqiqot o'tkazgan kitob tarixchisi Olmos Yazberdiev quyidagi jadvalni keltiradi:

Fuzuliy asarlari Toshkent nashrlarining dinamikasi

Yil	Nashrlar soni	Yil	Nashrlar soni	Yil	Nashrlar soni
1882	1	1899	1	1909	2
1884	1	1900	5	1910	1
1888	1	1901	2	1911	1
1889	2	1902	1	1912	2
1891	2	1903	2	1913	4
1892	2	1904	2	1914	4
1893	4	1905	3	1915	1
1895	2	1906	1	1916	3
1896	3	1907	6	чиққан йилсиз	18
1897	2	1908	1		

Kitoblar quyidagi shahar tipolitografiyalarida chiqarilgan: G'ulom Hasan Orifjonov – 19 nashr, O.A.Portsev – 6, V.M.Ilin – 4, aka-uka Kamenskiylar – 4, S.I.Laxtin – 4, P.F. Breydenbax – 3, I.Kostelev –3, Turkiston general-gubernatorligi bosmaxonasida – 3, G.Ya.Yakovlev – 2, Brail – 1. Boshqa kitoblarda nashr etgan tipolitografiyalar ko'rsatilmagan.[481]

Turkistonda birinchi tarixiy mavzudagi toshbosma kitob ham Toshkentda nashr etilgan. Bu 1885 yili chiqarilgan "Intihob tavorix mamlakat Russiya" kitobidir. So'ngra kitob yana bir bor Qo'qonda nashr etilgan. 1889 yilda Laxtin matbaasida "Misr mamlakatining muxtasar tavorixi", 1893 yilda Husayn Shayxning "Turkistonga ruslar kelganda Chimkent voqeasining hikoyasi", 1906 yilda Rossiya sharqshunoslari jamiyati Toshkent bo'limi a'zolari nashrga tayyorlagan o'zbekcha "Tarixi Russiya qadim" kitobi, 1910 yilda forschadan o'zbekchaga Salohiddin Xoja Alouddin tarjimasida nashr etilgan "Temurnoma" kitobi, Nasiriddin

[481] Yazberdiev A. Vozvrahenie FuzuliG`G` Kulturno`e sennosti: Mejdunarodno`y ejegodnik: 2004-2006: Sentralnaya Aziya v proshlom i nastoyahem G` Pod red. R.G.Muradova. -Spb.: Filologicheskiy fakultet SpbGU, 2008. -S.178.

Rabg'uziyning "Qisas ul-anbiyo" asari Toshkentda ikki marta 1896 va 1907 yillarda nashr etilgan. Toshkentda chiqqan tarixiy asarlar orasida yana G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida chop etilgan Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahimning "Kitobi Salimiy" asaridir (forscha. 1913). Kitobning birinchi qismida Chingizxon va uning o'g'illaridan Buxoro amiri Muzaffargacha bo'lgan davri tarixi yoritilgan bo'lsa, ikkinchi qismi 1860–1912 yillar voqealarini o'z ichiga olganligi bilan qimmatlidir. Asar birinchi marta Toshkentda 1912 yilda Mullo Abdulkarim sarmoyasi va noshirligida chiqqan. Asar "Kashkul-i Salimiy va tarix-i muqaddimin va mutaoxirin" nomi bilan ham chop etilgan (O'z FA Shl. inv. № 18597).

Yirik tarixiy asarlardan Toshkentda Mullo Mahdum Hojining "Tarixi Turkiston" (1914. 1915), Niyoz Muhammad Xo'qandiyning "Tarixi Turkiston" (1917), Mahmudxo'ja Behbudiyning "Tarixi islom" (1910), Abdulla Avloniyning "Muxtasar tarixi anbiyo" (1913, 1914, 1916). Shokirjon binni Abdurahimning "Tarixi muqaddas" (1913, 1916, 1917) nashr etilgan.

Yangi jadid maktablari o'quvchilari uchun mo'ljallangan darslik. o'quv qo'llanma va xrestomatiya toifasidagi kitoblar chiqarilishiga ham Toshkent toshbosma matbaalari katta hissa qo'shishgan. Birinchi yangi usuldagi darslik "Ustodi avval" toshkentlik ziyolilaridan biri Saidrasul Saidazizov tomonidan yaratilgan va 1900–1917 yillar mobaynida har yili bir martadan chop etilgan. 1911–1917 yillarda toshkent toshbosmalarida shoir va pedagog Abdulla Avloniyning yangi jadid maktab bolalariga mo'ljallangan qator darslik va xrestomatiyalari har biri ikki-uch martadan bosmadan chiqarilgan.

Boshqa darsliklar orasida Rustambek Yusufbekovning "Ta'limi avval" (1910, 1913), G'ulomiddin Akbarzodaning "Ta'limi soniy" (1913), Shoxiy forschadan tarjima qilgan "Avvali ilm" (1907). Xilvatiy Namangoniyning "Maktab charog'i", Inoyatullo qori Mirzajon tuzgan "Tuxfat us-sibiyon" xrestomatiyasi (1908, 1911), Abdurahmon Sayyohning "Xazinai donish" (1915) nomli kitobi, Muhammad Olimxon tomonidan tuzilgan "Miftox ul-nahv", Hoji Muinning "Yangi" adabiyot" (1915), Mulla Ibrohim Sayid Kamolzodaning "Tuhfat ul-ahbob" kitoblari bor.

Toshkent va Samarqand toshbosmalarida 1884–1916 yillar oralig'ida ishlab chiqarish texnikaviy adabiyotlar turiga kiruvchi va risola deb nomlanuvchi kitoblar minglab nusxalarda nashr etildi. Risolalar – XIV asrdan ma'lum turli xil hunar va mutaxassislik sohiblari jamoa va

guruhlarining o'z kasb-korligi piriga sig'inishidan to ishini tashkil etgan ichki tartiblari bayon etilgan muayyan ustaxona a'zolarining shaxsiy va oilaviy hayot tarzi, xulq-atvori, o'zini tuta olmoq va o'zaro munosabatlari mezonlarigacha belgilovchi qonunlashtirilgan qoidalari majmuidir. XIX asrga kelib ular hunar va mutaxassislik bo'yicha ko'rsatmalar tizimi bilan to'ldira borilib o'z asl janriy mundarijasini o'zgartirdilar va o'ziga xos ishlab chiqarish texnikaviy rahbarnoma-bildirgichlarga aylandilar. Ular orasiga o'zbek va tojik tillaridagi "G'o'za xususida" (T., 1884, o'zbek tilida), "G'o'za xususida risola" (T., 1885, o'zbek tilida), "Tajribanoma ipak qurti va tuti haqida" (T., 1891, o'zbek tilida), "Risolai asalari" (T., 1897, o'zbek tilida), "Baqqollik risolasi" (T., 1906, o'zbek tilida), "Nonvoylik risolasi" (T., 1906, o'zbek tilida), "Risolai hayotiy ya'ni tikuvchilik" (T., 1907, o'zbek tilida), "Asalarining tarbiyati bayoni" (S., 1908, o'zbek tilida), "Dehqonchilik risolasi" (T., 1908, o'zbek tilida), "Temurchilik risolasi" (T., 1909, o'zbek tilida), "Duradgorlik risolasi" (T., 1910, o'zbek tilida), "Ipak qurtini hammadan yaxshi boqmoq" (S., 1912, o'zbek tilida), "Juvozkashlik risolasi" (S., tojik tilida), "Devorzanlik risolasi" (S., tojik tilida), "Kafido'zlik risolasi" (T., o'zbek tilida), "Qassoblik risolasi" (S., o'zbek tilida), "Sartaroshlik risolasi" (S., o'zbek tilida), "To'quvchilik risolasi" (T., o'zbek tilida) kabi kitoblar kiradi.

Buxoro amirligi sarhadida birinchi litografiya 1901 yil Buxoro shahrida Baranovskiy tomonidan ochilgan edi. 1904 yilda Buxoro amirligida I.Gavsinskiy va M.Bendetskiyning xususiy toshbosma matbaasi, 1906 yilda esa A.Levin toshbosma matbaasi ochilgan. Har ikkala litografiya ham qator yillar davomida unumli ishladi. 1906 yilda mahalliy aholiga mansub Eshon To'raxo'ja shaxsiy toshbosma matbaasini tashkil qildi. Buxoro shahri yaqinidagi Kogon shaharchasida sakkiz yil davomida (1910—1918) uncha katta bo'lmagan tanaffuslar bilan milliy tillarda kitoblar chop etgan «Kogon» toshbosma matbaasi ishlab turdi. Buxoro toshbosma matbaalarida Turkiston boshqa litografiyalari nashrlari orasida uchramaydigan Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari, tarixiy asar "Tarixi Mullozoda", «Devoni Mashrab» (1900), «G'arib va Shohsanam» (1904), «Gul va bulbul», «Bahrom va Gulandom» (1908) kitoblari nashrlari bor. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida hammasi bo'lib buxoro toshbosma kitoblarining 65 ta nashri saqlanadi.

Alisher Navoiy qalamiga mansub «Mahbub ul-qulub» asari nashri

I.Gaysinskiy va M.Bendetskiy toshbosma matbaasida amalga oshirilgan edi. Kitob noshiri Muhammad Yusuf ibn Hoji Muhammad Toshkandiy, xattoti muftiy Mirahmaddir[182]. 1906 yilda ana shu litografiyada "Bo'z o'g'lon" Sobir Sayqaliyning «Qissai shahzoda Bahrom va Gulandom» asari «Bahrom va Gulandom» nomi ostida bosmadan chiqarilgan. A.N.Levin toshbosma matbaasida «Devoni Mavlono Amir Navoiy» (1913), «Axtamnoma» (1911), Sobir Sayqaliyning «Chor darveshi turkiy» asarining shahrisabzlik Mirzo Qurbon Xiromiy turkiyga o'girgan tarjimasida (1913) (noshir va xattot Mirzo Oston qorovulbegi Dabiriy), «Bobo Ravshan», «Bahr ud-durur», «Pahlavon Ahmad Zamjiy» kabi kitoblar nashr etilgan. 1910 va 1916 yilda «Kogon» toshbosma matbaasida Alisher Navoiyning terma devonlari chop etildi. Ulardan birinchisining noshiri mulla Saidxo'ja, ikkinchisiniki To'raxo'ja Buxoriy edi. 1904 yili Buxoroda Mullo Sulton ismli kishi ixtimomi bilan va noshirligida X asr tarixchisi Narshaxiyning "Tarixi Narshaxiy" kitobi nashr etilgan.

Samarqand shahridagi birinchi toshbosma matbaa korxonasini 1896 yilda Zakaspiy harbiy temir yo'li boshqarmasining sobiq xodimi V.P.Poltoranov ochgan. Korxona 1896 yilga qadar ishlab turdi. Bu litografiyada kitoblar «Tipolitografiya V.P.Poltoranova» va «Tipolitografiya A.N.Poltoranovoy» markalari bilan bosmadan chiqarilar edi. 1900 yilda Samarqand shahrida G.N.Demurov bosmaxonasi vujudga keldi, uning qoshida 1914 yili litografiya ochildi. 1911—1917 yillarda Samarqandda ishlab turgan B.Gazarov va A.Sliyanov tipolitografiyalarida yigirmata nashrdan ko'proq kitoblar chiqarilgan, ularning orasida Alisher Navoiyning «G'aroyib us-sig'ar" asari, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" asari, Hoji Muinning "Mazluma xotun" asari, "Tohir va Zuhra" asari varianti bor.

G.N.Demurov toshbosma matbaasining «Amir Navoiy» (1904) nomi ostida chiqqan terma devon nashri ancha mashhur bo'lib, kitob noshiri Solixo'ja Buxoriy, kotibi mulla Muhammad Usmon edi. Shuningdek, Mirzo Abdulqodir Bedil «G'azaliyot»i, Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi usuldagi jadid maktablari uchun yaratgan «Kitob ul-atfol» (Bolalar kitobi) o'quv qo'llanmasi, Sobir Sayqaliyning «Qissai Ibrohim binni Muhammad» kitobi ham keng tanilgan edi. B.Gazarov va K.Sliyanov toshbosma matbaasida noshir Abdurauf Odinaevning «Chor kitob»i, noshir

[182]Qosimxonov B. Alisher Navoiy asarlarining toshbosma nashrlari tavsifi. Katalog. T.: 1988. 41—42-betlar.

Mirzo Sayid Abdulsalimning «G'azaliyoti Muxlis», Sobir Sayqaliyning «Zayn ul-arab» asari «Dostoni Zayn ul-arab» nomi bilan chop etilgan.

Xorazm va Farg'ona vodiysi shaharlarida chiqarilgan kitoblar to'g'risida yuqoridagi fasllarda batafsil ma'lumot berilgandi.

Savollar va topshiriqlar:

1. Turkistong kitob chop etish usulini kirib kelishi jarayoni.
2. Kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etish qoidalarini ta'riflang.
3. Xivada nashriyotchilik va chop etilgan kitoblar.
4. Muhammad Azim Hoji Marg'iloniy va uning noshirlik faoliyatini ta'riflang.
5. G'ulom Hasan Orifjonovning noshirlik faoliyatini ta'riflang.
6. Isxoqxon Ibratning noshirlik faoliyatini ta'riflang.

3-§. Turkistonda rus tilida kitob noshirchiligi

3.1. Noshirchilikning umumiy masalalari

Kitob nashrlari adadini ko'paytirish toshbosma usuliga asoslangan milliy bosma kitob noshirchiligi ishidan farq qilaroq rus tilida kitoblar ba'zi istisnolardan tashqari faqat harf terish yo'li bilan bosmaxonada chop etilar edi. Turkiston harbiy okrugining 1868 yilda Toshkent shahrida ochilgan bosmaxonasi Turkistonda rus bosma kitob matbaachiligi asosini yaratib berdi. Mustamlaka Turkistondagi ikkinchi bosmaxona ham Toshkent shahrida 1872 yili Harbiy-xalq boshqarmasi qoshida ochildi. Har ikkala bosmaxona davlat korxonasi bo'lib, ham o'z muassasalari, ham boshqa tashkilotlar buyurtmalarini bajarib berar edi. Ammo tez orada ular chetdan kelayotgan buyurtmalarning hammasini bajarib berishga qodir bo'lmay qolishdi. Bu holat esa xususiy bosmaxonalarni tashkil qilishga turtki berdi. XIX asrning 90-yillari boshida Turkiston o'lkasi yirik shaharlarining deyarli barchasida rang-barang mavzu va mazmundagi kitoblar va broshyuralar chop etadigan bosmaxonalar ishlamoqda edi. Bu bosmaxonalarning nashrlari ham xususiy shaxslar, ham davlat va jamoat tashkilotlari nomidan chop etilardi. Tipografiyalar va tipolitografiyalar aksariyat ko'pchiligi (qariyb 60 foizi) Toshkent shahrida joylashgan edi.

Turkiston rus tilidagi bosma kitob mahsulotlarining asosiy qismi S.I.axtin, V.Pastuxov, O.Portsev, V.Ilin, aka-uka F. va G.Kamenskiylar, I.Inog'omjonov, A.Abduraupov, G.Shumakov, I.Vayner, P.F.Breydenbax, S.I.Petuxov, I.Kostelev, A.L.Kirsner, G.Ya.Yakovlev, P.Nemtinov,

I.Geyer, G.N.Demurov, aka-uka Ignatevlar, B.Gazarov va K.Sliyanov, V.Poltoranov, M.Katsnelson, B.Edelman, P.Petrov, S.Groman, P.Komarov, Sh.Graevskiy, M.Vilner, V.Minakov, Ya.Fridman, A.N.Levin korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan. Bu korxonalarda tahririyat-nashriyot ishini tashkillashtirish kitobni nashrga tayyorlashning barcha bosqichlarida mualliflar va qo'lyozmalar bilan ishlagan muharrirlar va musahhihlar tomonidan amalga oshirilgan. Bosmaxonalar qoshida kitob nashrining tahririy jihatdan tayyorlanishi va bosmadan chiqarilishi uchun javob beradigan personal mavjud bo'lganligi aytib o'tilgan korxonalarni nashriyot-matbaa firmasi deya malakalashtirishga imkon beradi[483].

Toshkent shahrida rus tilida kitob nashr etish barqaror o'sib borishi quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi (1871—1880 yillarda, ya'ni birinchi o'nyillikda nashr etilgan kitoblar miqdori birlik sifatida qabul qilingan)[484]:

1871—1880	1880—1890	1890—1900	1901—1910	1911—1917
1	7	10	11	11

[483]Taniqli o'zbekistonlik bibliograf N.A.Burovning «Dorevolyutsionnaya pechat Turkestana. Spisok knig, vo`shedshix v Turkestane v 1868—1879 g.g.» (Nauchno`e trudo` TashGU. 1964, vo`p. 251. str. 62—67.) (Inqilobdan oldingi Turkiston matbuoti) asari, N.A.Burov tomonidan tuzilgan «Kartoteka pechatno`x izdaniy dorevolyutsionnogo Turkestana» (Inqilobdan oldingi Turkiston bosma nashrlari kartotekasi), mustamlaka Turkiston vaqtli matbuoti materiallari, Turkistonda 1917 yilga qadar nashr etilgan nashriyot va kitob savdosi kataloglari va bibliografiya qo'llanmalari, M.P.Avsharovaning «Russkaya periodicheskaya pechat v Turkestane» 1870—1917 g.g. Bibliograficheskiy ukazatel literaturo`». Pod redaktsiey M.Viridarskogo. Tashkent, 1960, s. 196.) (Turkistonda rus vaqtli matbuoti. 1870—1917 yillar) asari mazkur paragrafni yozish uchun asosiy manbalar bo'lib xizmat qildi. Biz tomonidan aytib o'tilgan nashrlarning bir qismi esa taniqli o'zbekistonlik kitobatshunos professor G.N Chabrovning «Knigoizdatelskoe delo v oblastno`x gorodax dorevolyutsionnoy Sredney Azii (1882—1916 g.g.) (Inqilobdan oldingi O'rta Osiyo viloyat shaharlarida kitobat ishi (1871—1917 yillar) G`G` Ucheno`e zapiski Tashk. ped. ins-ta, t. 71. 1966, str. 8—17; ««Knigoizdatelskoe delo v dorevolyutsionnoy Sredney Azii (1871—1917 g.g.) (Inqilobdan oldingi O'rta Osiyoda kitobat ishi (1871—1917 yillar) G`G` Ucheno`e zapiski Tashk. ped. ins-ta, t. 112. 1974, str. 72—84; Vklad Turkestanskogo kraya v knigoizdatelstvo dorevolyutsionnoy Rossii (1882—1912 g.g.). (Turkiston o'lkasining inqilobdan oldingi Rossiya kitob noshirchiligiga qo'shgan hissasi). G`G` Knigovedenie i ego zadachi v svete aktualno`x problem sovrmennogo knijnogo dela. Sektsiya istorii knigi. Teziso` dokladov 2-y Vsesoyuznoy konferentsii po problemam knigovedeniya. M., 1974 - S. 105—108. ishlari bo'yicha keltirildi.

[484]Chabrov G.N. Knigoizdatelskoe delo v dorevolyutsionnoy Sredney Azii (1871-1916). G`G` Uchyono`e zapiski, 1966. T.71. –
S. 8-9. Tash.gos.ped.inst.

Mustamlaka davri o'n yilliklarida rus tilida nashr etilgan kitoblar miqdorini aniq-tiniq tasavvur etish uchun N.A.Burovning 1868—1879 yillar nashrlarini qamragan bibliografik ko'rsatkichining e'lon qilingan qismida rus tilida nashr etilgan kitoblarning 174 ta nomi hisobga olingan[485]. Ana shu raqamlar va professor G.N.Chabrov tomonidan taklif etilgan Toshkentda kitob bosmadan chiqarilishi dinamikasidan, shuningdek, Turkistonning boshqa shaharlarida ishlagan bosmaxonalar miqdoridan kelib chiqib, basharti, agar 1881—1890 yillarda Turkistonda rus tilida 1200 dan ziyod nomda kitob chop etilgan bo'lsa, keyingi 1891—1917 yillarda har yili 170—180 nomda rus tilida kitoblar nashr etilgan deb xulosa yasashga imkon beradi. XX asrning dastlabki ikki o'n yilligida, milliy kitob noshirchiligi eng intensiv rivojlangan bir davrda, bu ko'rsatkichlar o'zbek tilida har yili nashr etilgan kitoblar miqdoridan uch-to'rt baravar ko'p ekanligi ma'lum bo'ladi.

1868—1917 yillarda Turkistonda rus tilida bosmadan chiqarilgan barcha kitoblarni mavzu jihatidan bir qancha guruhlarga ajratish mumkin. Bu tarix, o'lkashunoslik, madaniyat va din tarixi bo'yicha nashrlar, qishloq xo'jaligi bo'yicha kitoblar, shuningdek, o'quv-pedagogik, adabiy-badiiy, tibbiyot, ma'lumotnoma va harbiy kitoblar ana shu nashrlar silsilasini tashkil etadi. 1917 yilga qadar Turkistonda nashr etilgan olti mingdan ziyod nomdagi kitoblardan tahlil va sharhlash uchun biz tomonimizdan ularning muhim, ammo kichik bir qismi ajratib olindi, xolos.

3.2. Rus tilidagi kitoblar repertuari

3.2.1. Tarix, etnografiya, huquqshunoslik, din va madaniyat tarixiga oid kitoblar

Turkiston o'lkasi tarixi bo'yicha tadqiqotlarning dastlabki nashrlari XIX asr 90-yillarining debochasiga to'g'ri keladi. 1890 yilda dastlabki ikki kitob — M.Lyutovning «Aleksandr Velikiy v Turkestane» (Buyuk Aleksandr Turkistonda) va frantsuz sharqshunosi D.Langlening «Jizn Timura» (Amir Temur hayoti) monografiyasi N.Suvorov tarjimasida nashr etildi. Sharqshunos N.Petrovskiy 1894 yilda nemis sharqshunosi Shpringerning «Pochtovo`e soobheniya na Vostoke» (Sharqda pochta

[485]Burov N.A. Dorevolyutsionnaya pechat Turkestana. Spisok knig, vo`shedshix v Turkestane v 1868-1879 gg. i soderjahixsya v nix statey G`G` Nauch. trudo` Tash.gos.un-ta. 1964. Vo`p. 261. Bibliografiya.- Str. 62-87.

xizmati) kitobidan parchalarni nemis tilidan rus tiliga tarjima qilib nashr ettirdi.

Sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold 1895 yildan Turkiston arxeologiya muxlislari to'garagiga ilmiy rahbarlikni amalga oshira boshladi[486]. 1896 yildan boshlab to'garak a'zolari «Protokolo' zasedaniy i soobheniy» (Majlislar va xabarlar bayonnomasi)ni alohida kitobchalar ko'rinishida chop etishga kirishib, ularda to'garak a'zolari tomonidan o'lka tarixini ilmiy o'rganish natijalari e'lon qilindi. 1917 yilgacha hammasi bo'lib 21 son e'lon qilindi. V.V.Bartold 1896 yilda «O'rta Osiyoda ariylar madaniyati haqida qisqacha» deb nomlangan ma'ruzasini alohida kitobcha holida nashr ettirdi.

V.V.Bartold bir qancha ishlarini «Turkestanskie vedomosti» gazetasida e'lon qildirdi: «Turkiston o'lkasi XIII asrda» (1894, № 43—44), «Mahalliy muallif rus istilosi haqida» (1898, № 13, 14—35, 37, 40), «XIV asrda Xorazm tarixiga doir» (1902, № 20). XX asr boshlarida to'garak a'zolari arxelogiya ishlari to'g'risidagi hisobotlarni nashr etishga kirishdilar. Birinchi bo'lib A.Klare «Drevniy Utrar» (Qadimgi O'tror) kitobi bosmadan chiqdi (1905).

V.Salkovning «Andijanskoe vosstanie 1898 g.» (1898 yildagi Andijon qo'zg'oloni) kitobchasi XIX asr oxirida ro'y bergan xalq fojiasi sovib ulgurmagan izlaridan borib yozilgan ixchamgina nashr edi (Marg'ilon, 1898). Risola voqealarning asl sabablarini oshkora tahlil qilishga ilk urinish bo'lgani bilan ayniqsa qimmatlidir.

1897 yilda Toshkent shahrida birinchi marta rus tilida Turkistonning eng qadimiy shaharlaridan biri tarixi bo'yicha X asrga oid muhim manba — Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobi bosmadan chiqarildi. Fors tilidan tarjima N.S.Likoshin tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, nashrga ilmiy rahbarlikni V.V.Bartold o'z zimmasiga olgan edi. Muqaddimada N.S.Likoshin, V.V.Bartold fikricha, «Mamlakat tarixini eng qadimgi zamonlardan boshlab to amir Sa'id Abulqosim hukmronligi davriga qadar qamrab olgani holda o'rta asrlar Buxorosi tarixi va topografiyasi uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan asar» ekanligini alohida ta'kidlaydi. Taniqli sharqshunos N.I.Veselovskiy Likoshin tarjimasini halol mehnat mevasi, unga tuzilgan sharhlarni «Narshaxiy hikoyalarini tushunib

[486] Turkiston arxeologiya muxlislari to'garagi faoliyati tubandagi kitobda mufassal tahlil qilingan: Lunin B.V. Iz istorii russkogo vostokovedeniya i arxeologii v Turkestane. Turkestanskiy krujok lyubiteley arxeologii (1895—1917), Tashkent, 1958.

etish uchun favqulodda foydalidir» deb e'tirof etadi[487]. Matnni tarjima qilish va ilmiy sharhlash borasida Likoshin tomonidan amalga oshirilgan mehnatni baholay turib, tarixchi V.I.Lunin bu ish «Turkiston sharqshunosligi tarixida har doim eng yorqin sahifalardan biri bo'lib qoladi», deya alohida ta'kidlagan edi[488].

1897 yilda Ashxobodda Abulg'oziyning «Shajarai turk» degan tarixiy asari sharqshunos A.G.Tumanskiy Turkiston Xalq kutubxonasi tasarrufida bo'lgan asar qo'lyozmalaridan biridan rus tiliga tarjimasi «Rodoslovnoe drevo tyurok» nomi bilan bosmadan chiqarildi. 1959 yilda boshqa etti qo'lyozma asosida asarning yangi qo'shimcha tarjimasini nashr ettirgan turkolog A.N.Kononov «A.G.Tumanskiyning ko'pchilik turkiy xalqlar tarixi ilmiy ishlami nisbatan past saviyada bo'lgan kezlarda amalga oshirilgan tarjimasi yuksak bahoga loyiqdir», deya ta'kidlaydi[489].

Turkiston o'lkasi shaharlari tarixi bo'yicha bir qancha kitoblar ham nashr etildi. 1891 yilda harbiy muhandis I.T.Poslavskiyning «Gorod Buxara» (Buxoro shahri) kitobi bosmadan chiqdi. O'lkashunos A.I.Dobrosmo`slov 1912 yilda «Sirdaryo viloyati shaharlari» degan ocherklar to'plamini chop ettirdi. Xuddi shu A.I.Dobrosmo`slovning keng tanilgan «O'tmishda va hozirgi kunda Toshkent» kitobi 1911 va 1912 yilda ikki marta nashr etildi. Toshkent shahar hokimi N.G.Mallitskiy 1911 yilda «Rus Toshkenti» deb nomlangan ixcham kitobcha e`lon qildirdi. Shuningdek, L.I.Brodskiyning «Toshkent shahar jamoat boshqaruvi 35 yilligiga doir» (1912), I.K.Lugovskoyning «Toshkent 50 yil muqaddam va bugungi kunda» (1914), N.P.Ostroumovning «Toshkentning ellik yilligiga» (1914) kitoblari ham bosmadan chiqarildi. Sharqshunos Ahmad Zaki Validiy 1915 yilda «XVIII asrda Farg'ona tarixidan ayrim ma`lumotlar» tarixiy-madaniy mavzudagi tadqiqotini nashr ettirdi. 1907 yilda N.G.Mallitskiy «Turkiston shahridagi Hazrati Yassaviy masjidining tarixiy-me`moriy ahamiyati» deb nomlangan ishini e`lon qilgan edi.

N.G.Pavlovning 1911 yilda nashr etilgan «Turkiston tarixi» kitobi yurtimiz tarixini umumiy holda yoritib berishga birinchi urinish bo'lgan

---

[487]Lunin B.V. Srednyaya Aziya v dorevolyutsionnom i sovetskom vostokovedenii. . Tashkent, 1965, 216-bet.

[488]O'sha joyda.

[489]Kononov A.N. Sochineniya Abulgazi xana xivinskogo kak istochnik dlya istorii turkmen i kak pamyatnik uzbekskoy literaturo` i yazo`ka. V knige: Materialo` Pervoy Vsesoyuznoy nauchnoy konferentsii vostokovedov. Tashkent, 1956. 908-bet.

edi. «Turkiston Xalq kutubxonasining yigirma yilligi» broshyurasida ana shu kutubxonaning birinchi direktori N.V.Dmitrovskiy kutubxonachilik ishi tarixining eng muhim voqealarini aks ettirdi.

Antik davr muallifi Arrian Flaviyning «Aleksandr fathnomasi yoki Buyuk Aleksandr yurishlari va bosib olgan mamlakatlari tarixi» asari etti kitobdagi nashri 1912 yili Toshkent shahrida A.L.Kirsner bosmaxonasida amalga oshirilishi tarix fani ravnaqi uchun g'oyatda qimmatli hissa bo'ldi. Kitob tarjimoni Toshkent Erlar gimnaziyasi muallimi N.Korenkov o'z muqaddimasida tarixchi Arrian Flaviy haqida hikoya qilgan, uning asariga baho bergan va etti kitob mazmunini batafsil bayon etib bergan. Tarjima, N.Korenkov ko'rsatib o'tganidek. «Buyuk Aleksandr jasorati bilan qiziquvchi kishilarga ular bilan birlamchi asl manbaa orqali tanishishga imkoniyat berish» maqsadida amalga oshirilgan. Kitobga ilova etilgan bibliografiyada rus va chet tillardagi 42 ish ko'rsatib o'tilgan. Binobarin, Arrian Flaviy kitobining rus tiliga galdagi tarjimasi va nashri faqat oradan yarim asr o'tib 1962 yilda amalga oshirilgan edi.

V.P.Nalivkinning 1881 yilda nashr etilgan ixchamgina «Namangan uezdi qirg'izlari» kitobi Turkiston xalqlari etnografiyasi bo'yicha ishlardan biri bo'ldi. Qozoq olimi H.Qustanaev 1894 yilda «Perovsk va Kazalinsk uezdi qirg'izlarining etnografik ocherki» kitobini e'lon qildirdi (eski terminologiya bo'yicha «qozoqlar» «qirg'izlar» deb atalgan). 1899 yili I.V.Anichkov «Shimoliy Turkiston xalq hayoti ocherki» — o'zbek va qozoq xalqlari turmushi kuzatuvlariga oid kitobini e'lon qildirdi. Xuddi o'sha yili N.I.Grodekov «Sirdaryo viloyati qozoq millatiga mansub aholisining yuridik hayoti haqida» kitobini nashr etdi. 1914 yilda V.V.Do'ninning «Yuqori Zarafshon tog'liq aholisi turmushi haqida ocherk» kitobi bosmadan chiqqan edi.

O'lkashunos N.P.Ostroumov uch nashrda «Sartlar» degan umumiy sarlavha ostida etnografik materiallar e'lon qildirdi (1890, 1893, 1895). Havaskor etnograf, meditsina fanlari doktori A.P.Shishov ham «Sartlar» sarlavhasi bilan o'z tadqiqotlarini nashr ettirdi. U birinchi jildda o'zining etnografiyaga oid ishlarini (1904), ikkinchi jildda esa antropologik materiallarini to'plagan edi (1905). 1910 yilda A.P.Shishov «Tojiklar» degan kitobini yaratdi.

A.A.Divaevning mahalliy xalqlarni etnografik tadqiq etishi, u tomonidan yig'ilgan ertaklar, afsonalar, cho'pchaklar, masallar, maqollar va topishmoqlar, shuningdek, o'zbeklarning «Alpomish» eposidan

tarjimalar 1895—1903 yillarda uning asarlari sakkiz nashrida bosmadan chiqarilgan edi.

1900 yili Ashxobodda kapitan K.Mixaylovning «Kaspiyorti viloyati mahalliy aholisi va ularning hayoti», 1901 yilda esa o'lkashunos M.M.Fedorovning «Kaspiyorti viloyati, uning o'tmishi va hozirgi ahvoli» deb sarlavha qo'yilgan etnografik tadqiqotlari nashr etilgan edi.

Viloyatlar statiska qo'mitalarida vaqti-vaqti bilan nashr etib kelingan to'plamlarda tarixiy-madaniy va diniy-axloqiy mavzudagi asarlarning salmoqli miqdori turkiy va forsiy tillardan tarjima qilinib chop etildi. Chunonchi, 1891—1907 yillarda «Sirdaryo viloyati statistikasi uchun materiallar to'plami»ning 13 jildi, 1893—1912 yillarda «Samarqand viloyati ma'lumotnoma kitobchasi»ning 10 jildi bosmadan chiqarildi. 1895 yil Sirdaryo to'plamining IV jildida «Sharq axloq-odob kodeksi» sarlavhasi ostida Muhammad Koshg'ariyning «Odob us-solihiyn» asari turkiy tildan Nil Likoshin tarjimasida e'lon qilingan edi. Tarjimon e'tirofiga qaraganda, muallif Muhammad Koshg'ariy «shariatga doir turli-tuman kitoblardan kishi o'zini viqorli tutishi mahoratiga oid bo'lgan hamma foydali narsalarni tanlab olish va bularning barchasini qat'iy bir izchillikda bayon etish» uchun ancha-muncha mehnat sarflagan. 1901 yilda N.Likoshinning xuddi shu to'plamining IX jildida Ahmad Yassaviy hikmatlari olti bobi e'lon etildi.

«Samarqand viloyati ma'lumotnoma kitobchasi» jildlari nashr etilishida samarqandlik o'lkashunoslar, arxeologlar va sharqshunoslarning ishlari salmoqli o'rin egallaydi. 1884 yildagi to'rtinchi jildda qadimiy va o'rta asrlar Samarqandi taniqli bilimdoni V.L.Vyatkin «Boburnoma» asaridan parchalar tarjimasini «Sulton Bobur mirzo tavsifiga ko'ra Samarqand va uning atrofi o'tmishda» sarlavhasi bilan chop ettirdi. 1896 yilda «Ma'lumotnoma kitobi» oltinchi jildida V.L.Vyatkin Samarqand arxitekturasi tarixi bo'yicha qimmatli tarixiy manba bo'lmish Mir Abu Tohirxo'ja sadr Samarqandiyning «Samariya» kitobi tarjimasiga joy ajratdi. Oradan etti yil o'tib, ma'lumotnomaning 1905 yildagi sakkizinchi jildida Imom Abulfazl as-Samarqandiyning (XII asr) Samarqand va Buxoro mozorlari tavsifidan tashqari arab istilosi, arablarga qarshi qo'zg'olonlar ma'lumotlari, Samarqand va uning atrofi to'g'risida geografik va topografik ma'lumotlarga ega bo'lgan «Kichik Qandiya» («Qandiyayi xurd») asarini V.L.Vyatkin fors tilidan tarjima qilib nashr ettirdi.

Musulmon shariat huquqi va musulmon olami xalqlari ijtimoiy va

madaniy hayotining o'ziga xos jihatlariga oid ishlar rus tilidagi kitoblar orasida alohida bir turkumni yuzaga keltiradi. Bu turkumga mansub original va tarjima adabiyotlarni nashrga tayyorlash va bosmadan chiqarish ham rus mustamlaka ma'muriyatining musulmon diniy ta'limotining asosiy qonun-qoidalari bilan tanishishdek amaliy vazifasiga ko'ra, ham Turkiston zaminida bir-biriga yuzma-yuz bo'lgan ikki dunyoqarash, turlicha ijtimoiy-madaniy aqida, ikki olam — musulmon va xristian dunyosi vakillari o'rtasida teran, har tomonlama ijtimoiy muloqot qilish, yuksak saviyali aloqalarni yo'lga qo'yish (ma'muriy-buyruqbozlik muloqoti dag'al va oddiy usullaridan farq qilaroq) zaruratiga ko'ra dolzarb tus olgan edi.

1893 yilda Rossiya armiyasi generali sharqshunos N.I.Grodekov Shayx Burhoniddin Ali Marg'inoniyning «Al-Hidoya» (To'g'ri yo'l) asarida (1152) bayon etilgan musulmon shariat huquqi qonun-qoidalariga sharhlarni ingliz tilidan rus tiliga o'z tarjimasini nashr ettirdi. Toshkent shahri qozisi Muhiddinxo'ja tarjimaga maslahatchilik qilgan edi. Kitobning to'rt jildi pirovardida hammasi bo'lib 1700 sahifani tashkil etdi. Akademik V.V.Bartold kitobning rus tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishining amaliy ahamiyatini maxsus ta'kidlagan edi[490]. Turkiston mustamlaka ma'muriyati vakillari musulmon shariat huquqi masalalariga daxldor bo'lganlarida ana shu kitobdan doimiy ravishda foydalanib kelishdi. Tarkibida V.P.Nalivkin, N.S.Likoshin, M.M.Virskiy, G.Usov, V.L.Vyatkin, F.Mixaylov va S.Lapin bo'lgan mualliflar jamoasi tomonidan 1898—1899 yillarda nashr etilgan alohida «Musulmonlikka oid materiallar»ning olti jildini bosmadan chiqarish ishida Rossiya mustamlaka ma'muriyati vakillari salmoqli yordam ko'rsatdi. A.Kremerning nemis tilidan rus tiliga tarjima qilingan «Musulmon shariat huquqi» kitobi (D.R.Eyxgorn tarjimasi, 1888), I.Gaurining «Islom va uning musulmonlar hayotiga ta'siri» (P.I.Xomutov tarjimasi, 1893), «Islomda maktab, fan va san'at» (D.R.Eyxgorn tarjimasi, 1897) degan ikki kitobi, turk tilidan tarjima qilingan Savvas poshoning «Shariat huquqi nazariyasi» (A.Vigornitskiy tarjimasi, 1910), «Shariat va sud» (P.Tsvetkov tarjimasi, 1911) kitoblari kabi tarjima asarlar ana shu maqsadga xizmat qildi.

XX asr boshlarida turkistonshunos rus olimlari islom dinini ilmiy nuqtai nazaridan tadqiq etishga kirishdilar. «Turkestankie vedomosti» gazetasida va Turkiston arxeologiya muxlislari to'garagi «Ishlar»ida N.P.Ostroumov islom bo'yicha bir qator maqolalar turkumini e'lon qildi.

[490] Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Soch. T. I, ch. I. M., 1963. – S. 386.

Ana shu turkumni uning «Qur'on matni tarixi» maqolasi (1900) va «Qur'on va taraqqiyot. Hozirgi zamon rossiyalik musulmonlarning aqliy uyg'onishi masalasi yuzasidan» kitobi (1902) boshlab bergan edi. Keyinchalik N.P.Ostroumov o'zining e'lon qilingan maqolalarini «Islomshunoslik» degan umumiy sarlavha ostida jamladi va ularni uch jildda — «Arabiston — Islom beshigi» (1910, № 1), «Qur'on. Musulmonlarning diniy-qonunchilik kodeksi» (1912, № 3), «Shariat» (1912, № 4) nashr ettirdi. «Islomshunoslik»ning ikkinchi jildi esa nashr etilmagan. 1912 yilda N.P.Ostroumov Toshkent harbiy yig'ilishida 1912 yil 7 fevralda o'qigan o'z ommaviy ma'ruzasini «Islom dunyosi» sarlavhasi ostida o'sha yiliyoq nashr ettirdi (24 sahifa). 1906 yilda K.Kazanskiyning «Islomda mistitsizm» kitobi Toshkent shahrida bosmadan chiqarilgan edi. 1906 yilda turkistonshunos V.P.Nalivkin o'zining «Islom tarixi va musulmon huquqi bo'yicha ma'ruzalar konspekti»ni nashr ettirdi.

3.2.2. Qishloq xo'jaligi, sanoat va iqtisodiyot masalalariga oid kitoblar

Chor mustamlaka ma'muriyati va Rossiya savdo-sanoat doiralarining Turkiston tabiiy boyliklari, rangli nodir metallar va turli-tuman ma'danlarga, ko'mir, neft, gazning had-hisobsiz zaxiralariga ega bo'lgan o'lka er ostini o'rganish muammolariga, mintaqa qishloq xo'jalik va iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishga qiziqishi qishloq xo'jaligi, sanoat va iqtisodiyot masalalari bo'yicha ancha ko'p sonli nashrlar turkumi dunyoga kelishini belgilab berdi. Bu turkum 1868—1917 yillarda Turkistonda amalga oshirilgan nashrlar nomlari umumiy miqdorining oltidan bir qismini tashkil etadi. Shu o'rinda faqat aytib o'tilgan mavzular yo'nalishidagi eng xarakterli nashrlarni tilga olamiz. Bu kitoblar — «Rus Turkistoni haqida materiallar to'plami» (1871), V.Vilkinsning «Tabiiy-tarixiy nuqtai nazardan qaraganda Farg'ona viloyati iqtisodiy sharoitining umumiy jihatlari» asari (1892), «Turkiston o'lkasida oltin saralash sanoati» to'plami (1871), konchilik muhandisi I.V.Mushketovning «Turkiston o'lkasidagi oltin va boshqa foydali qazilmalar konlari haqida» hisoboti (1877), A.S.Tatarinovning «Turkiston o'lkasi ma'danli boyliklari haqida» kitobi (1871), A.I.Vilkinsning «Turkiston o'lkasida amerika paxta navlarini etishtirish asoslari» degan paxtachilikka oid kitobi (1889), S.V.Ponyatovskiyning «Turkistonda va Shimoliy Amerikada paxtachilik daromad keltirishi darajasi» kitobi (1914), M.Bushuevning «Turkiston paxtachilik mintaqalari bo'ylab»

kitobi (1912), qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining boshqa tarmoqlariga oid kitoblar — F.M.Anishkevichning «Turkiston o'lkasida bog'dorchilikka oid qaydnomalar»i (1898), B.Adamollining «O'rta Osiyoda ipak qurti parvarishlash» (1871), N.N.Raevskiyning «Turkiston o'lkasidan ipak qurti urug'ini tashib chiqish to'g'risida» (1871), N.N.Shavrovning «O'rta Osiyo ipak qurti zotlari haqida» (1907), N.V.Pischikovning «Sirdaryo viloyatida qo'lbola tog' o'rmonchiligi» (1908), A.I.Aleksandrovning «Turkiston asalarichiligi asal yig'ish tizimi», V.P.Kolosovskiyning «Turkiston ot zotlari» (1910), N.F.Ulyanovning «Irrigatsiya bo'yicha materiallarga doir» (1879), N.A.Petrovning «Turkiston o'lkasida irrigatsiya to'g'risida» (1894), K.Sinitskiyning «Farg'ona viloyatidagi bo'sh turgan erlarni sun'iy sug'orish to'g'risida masalaga doir» kitoblaridir (1909).

3.2.3. Darsliklar va o'quv qo'llanmalari

Darsliklar va o'quv qo'llanmalari nashrlar alohida guruhini yuzaga keltiradi. Ilk darslik — M.A.Terentevning «O'rta Osiyo maktablari uchun rus alifbesi» 1875 yilda nashr etilgan edi. Shundan keyingi yilda yana ikki qo'llanma — V.P.Nalivkinning «Turkiston o'lkasi o'troq aholisi rus-musulmon maktablari uchun alifbe», G.S.Yaichnikning «Turkiston o'lkasi erli aholisi farzandlari uchun alifbedan keyingi birinchi kitobcha» o'quv qo'llanmalari chop etildi. I.Orakulovning 1887 yilda chop etilgan «Rus-musulmon maktablari uchun rus tili darsligi» to'rt marta nashr etishga dosh berdi. Pedagog S.I.Gramenitskiyning «O'qish kitobi» (3 kitobda) darsligi alohida yutuqqa erishdi — 1-kitob 1899—1905 yillarda 15 marta, 2 va 3-kitoblar esa 5 martadan qayta-qayta nashr etildi. S.A.Gramenitskiy yozgan «Misollar va masalalar sistematik to'plami» uch marta, «Boshlang'ich arifmetikani o'rganish uchun masalalari to'plami» o'n marta, «Boshlang'ich sinflar dasturlari bo'yicha arifmetikadan qo'llanma» olti marta nashr qilindi. Texnika va temir yo'l bilim yurtlari uchun ashxobodlik pedagog A.A.Komov tomonidan «Mexanika kursi» va «Qurilish materiallari» degan maxsus darsliklar, A.Rudinskiy tarafidan esa «Irrigatsiya kursi» maxsus darsliklari yaratildi. O'zbek va fors tillariga oid bir qancha darsliklar va lug'atlar tuzildi. Ular orasida, jumladan, Z.I.Alekseevning «Sart tili darsligi» (1884), M.S.Andreevning «O'zbek tiliga ilk o'rgatish uchun dasturilamal» (1895), S.G.Makovetskiyning «Sart tili darslari», N.P.Ostroumovning «Sart tili etimologiyasi» (1910), A.Efimovning «Fors tarjimoni» va «Fors tili amaliy grammatikasi» (1907),

L.Afanasevning «O'zbek tili yangi lug'ati» (1909), F.Shtengassning «To'liq ruscha-forscha lug'at» (1910) kitoblari, S.Lapinning «Ruscha-o'zbekcha qisqacha lug'at» kitobi esa uch marta nashr etildi.

Umumiy va o'rta maxsus ta'lim tarixining asosiy bosqichlari S.M.Gramenitskiyning «Turkiston o'lkasida xalq ta'limi rivojlanishi haqida ocherk» kitobida (1896) tanishtirilgan edi.

3.2.4. Adabiy-badiiy kitoblar

Turkistonda ruslar mustamlakachilik hukmronligining yarim asrlik davrida mahalliy mualliflarning rus tilida original adabiy-badiiy ijodiyoti bu o'lkada sezilarli ravnaq topmadi. Mahalliy shoirlar va nosirlar kam sonli guruhidan bo'lmish kamdan-kam nomlarnigina kitobxonlarga tanish bo'lgan va ularni faqat Turkiston sarhadidagina bilishardi, xolos. Darvoqe, ularning asarlari asosan vaqtli matbuot nashrlarida — gazetalar, jurnallar, almanaxlarda e'lon qilinar edi. Turkistonlik mualliflarning ruscha adabiy-badiiy kitoblari alohida nashrlari esa nihoyatda kam uchraydigan bir hodisa edi. Ayni mahalda Turkistonda Markaziy Rossiyadan bo'lmish mualliflar kitoblari deyarli nashr etilmasdi. Bularning hammasi birgalikda olganda Turkistonda rus tilida adabiy-badiiy kitoblar noshirchiligi umumiy manzarasini belgilab beradi.

Turli yillarda bu erda to'rtta adabiy jurnal — «Sredneaziatskiy vestnik» (1898, O'rta Osiyo xabarnomasi), «Krasnoe solnishko» (1909, Qirmizi oftobjon), «Srednyaya Aziya (1910—1911, O'rta Osiyo) va «Turkestanskiy Kara-Kurt» (1911—1913; 1913 — «Kara-Kurt»; Turkiston qoraqurti; Qoraqurt)[491] va uch almanax (bayoz) nashr etilgan edi. Xronologik jihatdan eng birinchi «Srednyaya Aziya» almanaxi 1896 yilda E.T.Smirnov muharrirligida nashr etilgan va «unchalik tanish bo'lmagan va ko'p jihatlarda betakror mamlakat bo'lmish O'rta Osiyo haqidagi yangidan yangi ma'lumotlarni to'plash va imkoni boricha mavjudlarini yanada kengaytirish» maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi[492]. Unda etnograf (elatshunos) A.A.Divaev, sharqshunos N.S.Likoshin, o'lkashunos M.Brodovskiy maqolalari, turkistonlik yozuvchi M.Aydarov va boshqalarning asarlari chop etilgan edi. 1914 yilda «Stepno'e miraji»

[491] Avsharova M.P. Russkaya periodicheskaya pechat v Turkestane. 1870—1917 gg. Bibliograficheskiy ukazatel literaturo'. Tashkent, O'zgosizdat, 1960. 24, 100—101, 128, 134-betlar. (Inqilobdan avvalgi Turkistonda rus vaqtli matbuoti).

[492] O'sha joyda. 125-bet.

(Dasht saroblari) va «Pod nebom Turkestana» (Turkiston osmoni ostida) deb nomlangan tag'in ikki almanax nashr etildi. Ana shulardan birinchisiga A.V.Almaatinskaya, A.Balagin, turkistonshunoslar N.P.Ostroumov, M.S.Andreev, A.A.Divaev tomonidan yozilgan she'rlar, ertaklar, novellalar, ocherklar, maqolalar kiritilgan edi[493]. Ikkinchisida esa turkistonlik uch yozuvchi — Pavel Porshakov, Aleksandr Shiryaevets va Dmitriy Kiryanov tomonidan yozilgan hikoyalar, afsonalar, she'rlar chop etilgan edi[494].

Turkistonlik mahalliy shoirlar va nosirlar A.Anichkov, M.A.Vidrevich, A.M.Gavrilov, F.F.Gavrilchenko (ukrain tilida), I.I.Geyer, V.I.Golovin, D.M.Gordon, E.Dikson, P.Duchinskiy, N.D.Ilin, K.K.Kazanskiy, D.N.Logofet, N.S.Likoshin, V.Losev, K.V.Lyubsh, L.Poroshin, B.L.Tagiev kitoblari Turkistonda alohida nashrlar qatorini tashkil etdi.

3.2.5. Tibbiyotga oid kitoblar

Turkistonda tibbiyot mavzuiga oid nashrlar turli-tuman namunalari va shakllarida bosmadan chiqarilgan. Bular har xil yo'riqnomalar, dasturilamallar, amaliy maslahatlar, tibbiy statistika bo'yicha ishlar, ommabop broshyuralar bo'lgan. Tibbiyot mavzuidagi ilmiy monografiyalar va o'quv qo'llanmalari amalda deyarli nashr etilmagan.

1901—1904 yillarda Toshkent shahrida «Protokolo` meditsinskogo obhestva» (Tibbiyot jamiyati bayonnomalari)da nashr etilgan ilmiy xarakterdagi materiallar va 1895 yilda «Ferganskoe meditsinskoe obhestvo» (Farg'ona tibbiyot jamiyati)ga birlashgan farg'onalik shifokorlarning bir qancha kitoblari bundan mustasno, albatta. Viloyat shifokori G.F.Loginovichning «O preduprejdenii i ogranichenii razvitiya xolero` mejdu jitelyami gorodov i seleniy So`r-Darinskoy oblasti» (1872, Sirdaryo viloyati shahar va qishloqlari mahalliy aholisi orasida o'lat tarqalishini bartaraf etish va avj olishini cheklash to'g'risida) yo'riqnomasi, muallifi ko'rsatilmagan «Soveto` zarazivshimsya techyu» (1874, Ichburuqqa chalinganlarga maslahatlar), A.E.Satinskiyning 98 sahifalik «K voprosu o tashkentskoy lixoradke» (1878, Toshkent bezgagi to'g'risidagi masalaga doir), I.Sviyajskiyning «K ucheniyu o proisxojdenii i razvitii rishto`» (1882, Rishta kelib chiqishi va avj olishi haqidagi ta`limotga doir), A.L.Shvartsning 1886—1897 yillardagi ma`lumotlarni umumlashtirgan «Zabolevaemost tuzemnogo naseleniya g.Tashkenta» (Toshkent shahri

[493]O'sha joyda. 129-bet.

[494]O'sha joyda. 109—110-betlar.

tub aholisi kasalliklarga chalinishi to'g'risida», V.A.Yurgelisning «Prakticheskoe rukovodstvo ospoprivivaniya dlya persov, buxartsev i tuzemtsev Turkestanskogo kraya» (1900, Turkiston o'lkasi eroniylari, buxoroliklari va tub aholisi uchun qizamiqqa qarshi emlashga oid amaliy dasturilamal) broshyurasi, A.Efimovning «Sputnik russkogo vracha v Srednev Azii» (1909, O'rta Osiyoda rus shifokoriga eslatmalar kitobi), shifokorlar A.Poslavskiy va E.Mendelshtamning «Obzor desyatiletney deyatelnosti ambulatornoy lechebnitso' dlya tuzemno'x jenhin i detey g.Tashkenta» (1894, Toshkent shahri mahalliy milatga mansub ayollar va bolalari uchun mo'ljallangan ambulator shifoxonaning o'n yillik faoliyati to'g'risida sharh) kabi ishlar tibbiyotga oid nashrlarga misol bo'la oladi.

3.2.6. Ma'lumotnoma kitoblar

Turkistonda nashr etilgan ma'lumotnoma kitoblar ixtisoslashtirilgan ma'lumotnomalar, sayohatnomalar, manzilli taqvimlarda ko'rinishida vujudgan kelgan edi. Ma'lumotnoma yo'nalishida birinchi kitob — «1880 yil uchun Turkiston taqvimi. Ma'lumotnoma kitob» 1879 yilda nashr etilgan edi. Nashr tuzuvchisi V.Pyankov o'z muqaddimasida ko'rsatib o'tganidek, kitobda «Turkiston o'lkasi to'g'risidagi tarixiy, ilmiy, hukumat, savdo-sotiq va boshqa yo'nalishlardagi turli-tuman ma'lumotlar, shuningdek, Manzilli taqvim. Turkiston yo'llari haqida ma'lumotlar, Turkiston harbiy okrugi xaritasi, Okrug qo'shinlari ta'minot olishi to'g'risidagi taqsimotnoma e'lon qilingan[495].

1884 yilda «Turkestanskaya spravochnaya kniga na 1885 god s kalendarem» (1885 yilga mo'ljallangan taqvimli Turkiston ma'lumotnoma kitobi) V.A.Sokolov muharrirligida nashr etildi. Bu kitob ikki: ma'lumotnoma va iqtisodiyot bo'limlariga to'plangan maqolalar va qaydnomalardan iborat bo'lgan[496]. Shunga o'xshash galdagi nashr 1899 yilda K.N.Predinskiy tomonidan «Sputnik turkestantsa. Karmanno'y kalendar i spravochnaya knijka na 1900 god» (Turkistonlikning yo'ldoshi. 1900 yilga mo'ljallangan yon taqvimi va ma'lumotnoma kitobcha) sarlavhasi ostida bosmadan chiqarilgan edi. Kitobdan Turkiston haqidagi

---

[495]Avsharova M.P. Russkaya periodicheskaya pechat v Turkestane. 1870—1917 gg. Bibliograficheskiy ukazatel literaturo'. Pod redaktsiey M.S.Viridarskogo. Tashkent, 1960. - S. 132. G'Ministerstvo kulturo' UzSSR, Gosudarstvennaya publichnaya biblioteka im. A.Navoi).

[496]O'sha joyda. 135-bet.

qisqacha tarixiy ma'lumotlar, ma'lumotnoma yo'nalishidagi materiallar va Turkiston o'lka muassasalarida xizmat qiluvchi shaxslar ro'yxati o'rin olgan[497].

XX asrning dastlabki ikki o'n yilligida nashr etilgan Turkiston bo'yicha ma'lumotnomalar yangi materiallar va salmoqli ma'lumotlar bilan sezilarli boyidi, ularning ichki strukturasi ham ancha takomillashdi. Toshkent shahridagi mashhur bosmaxona egasi I.I.Geyer o'zi tomonidan Rossiyada chop etiladigan «Vsya Moskva», «Ves Sankt-Peterburg» ma'lumotnomalari namunasida tayyorlangan «Putevoditel po Turkestanu» (1901, Turkiston bo'ylab yo'lnoma) va «Ves Russkiy Turkestan» (1908, 1909, Butun Rossiya Turkistoni) chop etgan edi. 1912 va 1913 yillarda S.R.Konopkaning «Turkestanskiy kray» (Turkiston o'lkasi) ma'lumotnomalari chop etilgan bo'lsa, 1905 yilda u tomonidan «Tashkentskiy nastolno'y kalendar na 1905 god» (1905 yil Toshkent varaqlama taqvimi) bosmadan chiqarildi[498]. V.V.Stratonov muharrirligida «Turkestaskiy kalendar na 1904 god» (1904, 1904 yilga mo'ljallangan Turkiston taqvimi) ma'lumotnomasi ham chop etildi. Uning birinchi bo'limida pravoslav xristian va musulmon taqvimlari, astronomiyaga oid, viloyatlar bo'yicha meteorologik va statistik ma'lumotlar, Turkiston o'lkasidagi voqealar xronikasi va 1902—1903 yillardagi nekrologlar — ta'ziyanomalar keltirilgan bo'lsa, ikkinchi bo'limida Stratonovning «Putevoditel po Sredneaziatskoy jeleznoy doroge» (O'rta Osiyo temir yo'li haqida ma'lumotnoma). N.S.Likoshinning «Rezultato` sblijeniya russkix s tuzemtsami» (Ruslarning mahalliy xalq bilan yaqinlashuvi natijalari). V.S.Geyntselmanning «K voprosu o postroykax v oblasti zemletryaseniy» (Zilzilalar sodir bo'ladigan joylarda imoratlar qurish masalasiga doir) va boshqalarning maqolalariga o'rin berilgan edi. Uchinchi bo'limda harbiy yo'nalishdagi ma'lumotlar, pochta-telegraf qoidanomalari, o'lka o'quv muassasalari haqida materiallar, Turkiston kurortlari va yo'llari haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. To'rtinchi bo'lim shaharlar va viloyatlardagi muassasalar va ularning shaxsiy tarkibi ro'yxatlaridan tashkil topgan[499].

1912 va 1915 yillarda «Turkestanskiy selskoxozyaystvenno`y kalendar» (Turkiston qishloq xo'jalik taqvimi) va 1914 yilda «Spravochnaya kniga xodokov i pereselentsev» (Vakillar (xodoklar) va ko'chkindilar

[497]O'sha joyda. 131-bet.

[498]O'sha joyda. 124-bet.

[499]O'sha joyda. 135-bet.

ma`lumotnoma kitobi) nashr etilgan edi.

3.2.7. Harbiy mavzudagi kitoblar

Turkiston harbiy mavzudagi kitoblari nashrlarning alohida salmoqli qismini tashkil etadi. Harbiy mavzudagi kitoblar o'lkada rus bosma kitob noshirchiligi avval boshidayoq nashr etila boshlangandi. 1871 yilda Toshkent shahrida Sharqiy Turkistonda Rossiya qo'shinlari harbiy harakatlari to'g'risida hajman uncha katta bo'lmagan olti broshyura «Materialo` dlya opisaniya Kuldjinskiy ekspeditsii 1871 g.» (1871 yildagi G'ulja eskpeditsiyasini tavsiflash uchun materiallar) degan umumiy nom ostida nashr etildi. Binobarin, turkumdagi birinchi kitob aynan shunday nomlangan edi. Uning muallifi esa G'uljadagi Rossiya qo'shinlari qo'mondoni general-leytenant G.A.Kolpakovskiy bo'lgan[500]. Xuddi o'sha yili okrug shtabi bosmaxonasida A.V.Pistolkorning «Zapiska o znachenii russkoy konnitso`» (Rus otliq qo'shinlari ahamiyati haqidagi qaydnomalar, 114 sahifa) kitobi nashr etilgan edi. 1879 yilda harbiy mavzuda bir yo'la bir qancha kitoblar bosmadan chiqarildi. Bular — D.A.Ivanovning «Ocherk voenno`x deystviy v Sredney Azii s 1847 do 1869 goda» (O'rta Osiyoda 1847—1869 yillardagi harbiy harakatlar ocherki), familiyasi ko'rsatilmagan noma'lum muallifning «Deystviya eskadro` sudov Aralskoy flotilii v Xivinskuyu ekspeditsiyu 1873 goda» (1873 yildagi Xiva ekspeditsiyasi chog'ida Orol flotiliyasi kemalari eskadrasining harakatlari), A.I.Gluxovtsevning «Opisanie deystviy orenburgskogo otryada v Xivinskuyu ekspeditsiyu 1873 goda» (1873 yildagi Xiva ekspeditsiyasi chog'ida Orenburg otryadining harakatlari), familiyasi ko'rsatilmagan noma'lum muallifning «Ocherk Teke-Merva» (Teke-Marv ocherki) va, nihoyat, A.A.Shepelevning «Ocherk voenno`x i diplomaticheskix snosheniy Rossii so Sredney Aziey» (O'rta Osiyo bilan Rossiyaning harbiy va diplomatik aloqalari ocherki, 67 bet) kitoblaridir.

Harbiy mavzudagi nashrlarning katta bir guruhi Turkiston o'lkasi va unga chegaradosh Sharq mamlakatlari hududini harbiy nuqtai nazardan tavsiflashga bag'ishlangan. Masalan, 1882 yilda «Voenno-strategicheskiy obzor Xivinskogo xanstva» (Xiva xonligi haqida harbiy-strategik sharhnoma) kitobi, oradan bir necha yil o'tgach esa, kapitan Girshfeldning

---

[500] Burov N.A. Dorevolyutsionnaya pechat Turkestana. Spisok knig, vo`shedshix v Turkestane v 1868—1879 g.g. i soderjahixsya v nix statey. G`G` Nauchno`e trudo` TashGU. Vo`p. 261. Bibliografiya. T., 1964. 70—71-betlar.

«Statisticheskoe opisanie Xivinskogo xanstva» (Xiva xonligi statistik tavsifnomasi), Zaychenkoning «Pamir i Saro`kol» (Pomir va Sariko'l) kitoblari. polkovnik Dyugaevning ko'p yillik tadqiqotlari mevasi bo'lmish «Voenno-strategicheskie svedeniya ob Iliyskom krae» (Iliy o'lkasi to'g'risidagi harbiy-strategik ma'lumotlar) kitobi bosmadan chiqarildi. 1905 yilda «Voenno-geograficheskoe opisanie Turkestanskogo voennogo okruga» (Turkiston harbiy okrugining harbiy-geografik tavsifnomasi) majmua to'plami chop etildi. 1898 yildan boshlab to 1906 yilgacha harbiy okrug shtabi «Svedeniya. kasayuhiesya stran. sopredelno`x s Turkestanskim voenno`m okrugom» (Turkiston harbiy okrugiga chegaradosh bo'lgan mamlakatlarga oid ma'lumotlar)da uncha katta bo'lmagan kitobchalar 85 jildini nashr etdi. ularda ana shu chegaradosh mamlakatlarda qurolli kuchlari rivojlanishini xarakterlovchi turli-tuman ma`lumotlarga o'rin ajratilgan. 1909 yilda «Svodka svedeniy, dobo`to`x o sopredelno`x stranax razvedchikami shtaba okruga» (Turkiston harbiy okrugi shtabi razvedkachilari tomonidan qo'lga kiritilgan chegaradosh mamlakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami) maxfiy nashr sifatida bosmadan chiqarildi. Turkiston va unga chegaradosh xorijiy Sharq mamlakatlari tadqiqotchisi va sayyoh ofitser B.L.Grombchevskiy Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) shahrida 1891 yilda ikkita e'tiborga loyiq kitob nashr ettirdi: «Sovremennoe politicheskoe polojenie Pamirskix xanstv i pogranichnoy linii s Kashmirom. Voenno-strategicheskiy otchet» (Pomir xonliklari va Kashmir bilan chegara liniyalaridagi hozirgi siyosiy ahvol. Harbiy-strategik hisobot, 58 sahifa) va «Nashi intereso` na Pamire. Voenno-politicheskiy ocherk» (Pomirdagi manfaatlarimiz. Harbiy-siyosiy ocherk).

O'ndan ziyod kitoblar Xiva xonligi yoki Xorazm bosib olinishiga bag'ishlangan edi. Ayrimlari haqida yuqorida eslatib o'tgandik. 1881—1882 yillarda voqealar qatnashchisi bo'lmish general-leytenant V.N.Trotskiy muharrirligida «Opisanie Xivinskogo poxoda 1873 g.» (1873 yilgi Xiva yurishi tavsifnomasi) turkumining 12 jildi nashr etildi. Boshqa bir ko'p jildlik asar bo'lmish «Turkestanskiy kray. Sbornik materialov dlya istorii ego zavoevaniya» (Turkiston o'lkasi. Uning bosib olinishi tarixi uchun materiallar to'plami») Rossiya imperiyasi Harbiy vaziri A.N.Kuropatkin tashabbusi bilan boshlangandi. Aynan Harbiy vazir topshirig'iga ko'ra harbiy muhandis, polkovnik A.G.Serebrennikov Sankt-Peterburg, Tbilisi, Omsk, Orenburg va boshqa shaharlar arxivlarida zarur bo'lgan materiallarni to'plagan edi. Ushbu fundamental arxeografik nashrda

1848—1885 yillardagi harbiy-siyosiy voqealar to'g'risida materiallar to'plash rejalashtirilgan. Ammo ko'zlangan hamma ishni amalga oshirib bo'lmadi. 1909—1914 yillarda ikkinchi-sakkizinchi jildlar, 1914—1918 yillarda esa o'n ettinchi-yigirma ikkinchi jildlar bosmadan chiqarildi. Ana shu kitoblarga 1848—1852 va 1864—1885 yillarga oid materiallar kiritilgan edi[501].

Savollar va topshiriqlar:

1. Turkistonda rus kitob noshirchiligini ta'riflang.

4-§. Bibliografiya ishi

O'sha zamonlar taqozosicha, endilikda qo'lyozma kitoblarni emas, balki bosma nashrlarni tavsiflash bilan bog'liq bo'lgan bibliografiya rivojlanishidagi yangi bir bosqich Turkiston zamini Rossiya tomonidan mustamlakaga aylantirilishidan boshlanadi2. O'rta Osiyo va u bilan chegaradosh Osiyo davlatlarini jiddiy va har tomonlama tadqiq etishga zarurat (mustamlakachilar uchun bu ham geosiyosiy, ham harbiy, ham iqtisodiy jihatdan juda muhim edi), olimlarni ilmiy materiallarni keng miqyosda to'plash va tizimlashtirishga undadi. Bibliografiya esa bu ishda ishonchli va barqaror yordamchi bo'ldi.

Jami 594 jilddan tashkil topgan «Umuman O'rta Osiyoga va xususan Turkiston o'lkasiga oid bo'lgan asarlar va maqolalar Turkiston to'plami» ilk eng yirik va ahamiyatli bibliografik ishga aylandi. O'ziga xos nodir nashr bo'lmish bu to'plamning dastlabki 416 jildini yirik rus bibliografi V.I.Mejov tayyorlagan edi. Vaqtli matbuotda e'lon qilinadigan barcha maqolalar hamda Turkiston va unga chegaradosh mamlakatlar to'g'risidagi rus va xorijiy tillarida chiqadigan barcha kitoblar kiritilishi ko'zlangan bunday to'plamni tuzishga buyurtmani V.I.Mejov, avval eslatib o'tilganidek, 1867 yilda Turkiston o'lkasi birinchi general-gubernatori K.P. fon Kaufmandan olgan.

Hamma vaqt Peterburgda yashab turib, shu taxlit bosmadan chiqarilayotgan kitoblar va vaqtli nashrlar ustidan kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'lgan V.I.Mejov o'ziga ajratilgan pul mablag'iga Turkiston va unga chegaradosh mamlakatlarga oid bo'lganlarining

[501] Mazkur nashrning manbashunoslik va arxeografik yutuqlari va kamchiliklarining analitik tavsifi E.N.Kushevaning «Ob odnoy dorevolyutsionnoy publikatsii po istorii Sredney Azii» (O'rta Osiyo tarixi bo'yicha inqilobdan avvalgi bir nashr to'g'risida) ishida mavjud. Qarang: «Problemo` vostokovedeniya» kitobida. Leningrad, 1940. 409—421-betlar.

hammasini sotib oldi va to'pladi. Gazeta maqolalari qirqib oq qog'ozga yopishtirib chiqildi, jurnallar va kitoblardan olingan maqolalar ajratib olinib, qog'oz ramkalarga varaqma-varaq yopishtirib borildi. Yopishtirib chiqilgan butun material bir xil muqovalar orasiga joylashtirilgan bir xildagi jildlarga joylashtirildi, shuningdek, tipografiyada chop etilgan titul varaqlari bilan ta'minlandi. Barcha nashrlar chop etilish sanasiga qarab tanlab olingan, shu tariqa xronologik izchillikka qat'iy rioya etilgan edi. 1868 yilda to'plamning 1867 yildagi materiallarni qamragan 4 jildi tayyor bo'ldi. Shundan keyin 1887 yilga qadar Peterburgda to'plamning barcha jildlari tayyorlanib kutubxonaga jo'natildi. 1888 yilga kelib 4713 nomni o'z ichiga olgan 416 jild tayyorlandi. Ayni mahalda barcha maqolalarni alohida jildlarga yopishtirib chiqish va muqovalash bilan birga V.I.Mejov tomonidan ana shu maqolalar nomlari 1888 yilga kelganda uch jildni tashkil etgan Ko'rsatkichga kiritib borildi.

To'plamda etishmaydigan kitoblar va maqolalar nihoyatda kam, bosmadan chiqqan nashrlarning zo'rg'a o'ndan bir qismini tashkil etadi, xolos. Shundan ham «Turkiston to'plami» qanday qimmatga egaligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Yigirma yil davomida Rossiya va chet mamlakatlarda Turkiston haqida nashr etilgan hamma narsa unga kiritilgan edi.

«Turkiston to'plami»ni tuzish va nashr etish 1887 yilga qadar doimiy asosda davom etdi. Har yili o'rtacha yigirma jilddan nashr etildi. V.I.Mejov uni tuzish bilan yigirma besh yil davomida mashg'ul bo'ldi, ammo Turkiston ma'muriyati (general-gubernator Rozenbax) qaroriga ko'ra qimmatligi bahonasida to'plamni nashr etish to'xtatib qo'yilgan edi.

To'plamning 416 jildida aks ettirilgan salmoqli va rang-barang materialida mo'ljal olishda V.I.Mejov tomonidan tuzilgan «Rus va xorijiy tillardagi asarlar va maqolalar sistematik va alifbeli ko'rsatkichi» imkon beradi. Alifbeli ko'rsatkich uch qismga bo'linadi: Bibliografiyada uchraydigan mualliflar, tarjimonlar va kishi ismlarining ko'rsatkichi; joylar va nomlar ko'rsatkichi; xorijiy bibliografiyada uchraydigan mualliflar va predmetlar ko'rsatkichi. Ana shu Ko'rsatkichlarda «Turkiston to'plami»ning tegishli jildida havola qilish barobarida u yoki bu material chop etilgan nashrga ham havola berib borilgan. Bu narsa nafaqat o'zi saqlanayotgan Toshkent shahrida, boshqa joylarda to'plamga kiritilgan adabiyotlardan foydalanish imkonini beradi. To'plamga tuzilgan Sistematik ko'rsatkichdagi butun material quyidagi guruhlashtirilgan:

1) «Umuman O'rta Osiyo: 1 — tarixiy, geografik va siyosiy xarakterdagi asarlar. 2 — O'rta Osiyo mamlakatlari bo'ylab sayohat va turli ilmiy ekspeditsiyalar»;

2) «Xususan O'rta Osiyo: 1 — O'rta Osiyodagi rus mulklari; 2- O'rta Osiyodagi Rossiyaga bo'ysunmagan mulklar».

1887 yildan keyin 20 yil davomida to'plam nashr etilmadi. Faqat 1907 yilda uni tuzish ustida ishlar qaytadan boshlandi. N.V.Dmitrovskiy, A.A.Divaev, Bonch-Osmolovskiy, Zikov bu ishga jalb etildi, A.A.Semyonov alohida rol o'ynadi.

1907 yilda — 34 jildi, 1908 yilda — 45 jild, 1909 yilda esa 44 jild tayyorlandi. 1888 yildan keyingi davrdagi barcha eng muhim materiallar iloji boricha to'plangan edi. To'plamni tuzish 1917 yili 591 jildda to'xtatildi, keyinchalik E.K.Betger tag'in uch jildni qo'shib qo'ydi.

V.I.Mejovning boshqa bir muhim ishi 1891 yilda ikki jildda bosmadan chiqqan «Osiyo bibliografiyasi» bo'ldi. Unda rus va xorijiy tillarda O'rta Osiyoda haqida XVII—XIX asrlarda (1880-yillarning so'ngi) adabiyotlar haqidagi ma'lumotlar keng tanishtirildi.

Ko'rsatkichda materiallar joylashuvi tartibi quyidagicha:

1) Umuman O'rta Osiyo.

2) Xususan O'rta Osiyo. Har bir bob ichida — sistematik tartib. Boblarda qaydnomalar joylashuvi yagona tartibi yo'q. Ba'zan tuzuvchi xronologik ketma-ketlikni tanlaydi (masalan, «Angliya va Rossiya O'rta Osiyoda», «O'rta Osiyo tarixi» boblarida), boshqa hollarda esa voqealar adabiyotida bayon etilgan xronologiyani asos qilib oladi (masalan, «Sayohat» bobi). «Osiyo bibliografiyasi»dan foydalanish yordamchi ko'rsatkichlar yo'qligi tufayli qiyinlashgan edi. 1947 yilda bibliograflar E.K.Better va E.D.Svidina V.I.Mejovning «Osiyo bibliografiyasi»da uchraydigan mualliflar, kishi va geografik nomlar Ko'rsatkichi»ni tuzgan edilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida Turkistonda bibliografiya rivojlanishi kutubxona-bibliografiya ishi tashkilotchisi, kutubxona ishi bo'yicha kuzatuv qo'mitasi va «Turkiston to'plami»ni davom ettirish bo'yicha byuro rahbari, ajoyib rus bibliograf-o'lkashunosi N.V.Dmitrovskiy nomi bilan chambarchas bog'liq. U bir qator bibliografiya ko'rsatkichlari tuzgan edi, jumladan, 1874 yilda har yilgi «Turkiston o'lkasi statistikasi uchun materiallar»da e'lon qilingan «1862—1870 yillarda Rossiyada rus tilida chop etilgan O'rta Osiyo to'g'risidagi asarlarning bibliografik ko'rsatkichi», «Turkiston to'plami» mavjud bo'lgan davrda

(1867—1907 yillar) unga kiritilmay qolgan O'rta Osiyo to'g'risidagi maqolalar ko'rsatkichi» va boshqalar[502].

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O'rta Osiyo haqidagi adabiy manbalarni aks ettiruvchi bir qator yirik bibliografiya ko'rsatkichlar nashr etildi. Binobarin, 1902—1903 yillarda Peterburg botanika bog'i bosh botanigi V.I.Lipskiyning ikki jildda «O'rta Osiyo florasiga oid adabiyotlar» — Turkiston florasi va botanik tadqiqotlariga bag'ishlangan ko'rsatkichi chop etildi.

Mazkur bibliografiyaning birinchi qismida 1796—1902 yillarda Turkiston va qo'shni mamlakatlar florasi to'g'risida to'plangan. Peterburg va Moskvaning yirik kutubxonalarida saqlangan barcha manbalar, shuningdek, xususiy kollektsiyalardan botanika bo'yicha kam sonli ishlar jamlangan edi. Ko'rsatkichning ikkinchi qismi esa O'rta Osiyoning botanik jihatdan o'rganilishi tarixiga bag'ishlangan.

Turkiston to'g'risidagi adabiyotlarni P.P.Semyonov-Tyanshanskiy muharrirligida bosmadan chiqarilgan «Rossiya» ko'pjildlik turkumining XVIII va XIX jildlarida joylashtirilgan «Turkiston o'lkasi bo'yicha eng muhim manbalar va qo'llanmalar ko'rsatkichlari»dan ham topish mumkin. Ularda rus va xorijiy tillardagi O'rta Osiyo haqida tarix, arxeologiya, geografiya, madaniyat va boshqa bilim sohalari bo'yicha adabiyotbop materiallarning 1,5 mingga yaqin nomlari keltirilgan. 11 tarmoqqa oid boblarda guruhlashtirilgan adabiyotlar XVII asr o'rtalaridan 1913 yilga qadar bo'lgan davrni qamraydi.

Taniqli O'rta Osiyo o'lkashunosi V.D.Gorodetskiyning M.P.Gorodetskaya ishtirokida tuzilgan «Turkiston bibliografiyasi» (Rossiya Geografiya jamiyati Turkiston bo'limi kutubxonasi va Turkiston xalq kutubxonasi materiallari asosida) ko'rsatkichi ham ana shu qatorda turadi. Ko'rsatkich rus va xorijiy tillardagi vaqtli va davom etayotgan nashrlardan kitoblar va maqolalarni o'z ichiga oladi. Tavsifnomalar bo'limlar bo'yicha sistematik tartibda joylashtirilgan: geografiya, tarix, mineralogiya, botanika, zoologiya, astronomiya, qishloq xo'jaligi va boshqalar.

O'rta Osiyo intensiv o'zlashtirilishi munosabati bilan 1888 yilda Z.M.Penkina Zakaspiy temir yo'li Qurilish boshqarmasi topshirig'iga ko'ra avvalgi bibliografik nashrlarga zaruriy qo'shimchaga aylangan «Zaskaspiy

[502] Qarang: Maslova O.V., Fradkina Z.L. Bibliograficheskaya deyatelnost N.V.Dmitrovskogo G'G' Sovetskaya bibliografiya, 1970,№ 2. — 38—46-betlar.

o'lkasi» bibliografik ko'rsatkichini tuzdi. Ko'rsatkich 1865—1885 yillarda rus va xorijiy tillarda tarix, geografiya, etnografiya, tabiatshunoslik, statistika bo'yicha vaqtli nashrlardan kitoblar va maqolalarning 2416 tavsifnomasi va 238 taqrizni o'z ichiga olgan edi.

1911 yilda o'zbek, qozoq, tojik va turkman tillaridagi mahalliy nashrlarning joriy hisobga olinishini tashkillashtirishga urinish amalga oshirildi. Turkiston Xalq kutubxonasi Kuzatuv qo'mitasining a'zosi L.A.Zimin Toshkent shahrida nashr etiladigan «Srednyaya Aziya» jurnalida yuqorida aytib o'tilgan nashrlarning joriy ro'yxatlarini har oy e'lon qila boshladi.

«Srednyaya Aziya» jurnalining 1911 yildagi 3-sonidan joy berilgan Ro'yxatga so'zboshida L.A.Zimin shunday yozadi: «Ushbu bo'limni yuritishga kirisha turib, bundan ko'zlangan maqsadlarni va hal etilishi chamalangan vazifalarni ko'rsatib o'tishimiz zarur deb hisoblaymiz. Turkiston va unga bevosita tutash chegaradosh mamlakatlar tarixi, geografiyasi va adabiyoti bo'yicha Evropa va Sharq tillaridagi alohida nashrlarning iloji boricha to'liq ro'yxatini har oy tuzib borish birinchi vazifadir. Ikkinchi vazifa esa, Turkiston o'lkasi sarhadida rus va Sharq tillarida chiqadigan barcha bosma va toshbosma nashrlar ro'yxatlarini tuzishdir»[503].

Aytib o'tilganlardan, L.A.Zimin tushunchaning keng ma'nosida joriy mamlakatshunoslik bibliografiyasini, ya'ni butun mahalliy matbuot va o'lka to'g'risidagi adabiyotlarni qo'shgan holda yuritish to'g'risidagi masalani o'rtaga tashlagani ma'lum bo'ladi. Afsuski, «Srednyaya Aziya» jurnalida bibliografik ro'yxatdan o'tkazish tez orada to'xtab qolgan — 1911 yilda hammasi bo'lib to'rtta ro'yxat joylashtirilgan edi.

Shunday qilib, Turkiston nashrlarini bibliografik ro'yxatga olishga urinish muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqdi. Buning asosiy sabablari esa, taniqli kitobatshunos olim Olmos Yazberdiev fikricha, «mahalliy nashrlarning kitob saqlovxonalarida jamlangani va chorizm ma'muriyatining o'lkaning o'zida ularni to'plash va saqlashga panja orasidan munosabatda bo'lishidirki, bu narsa pirovardida nafaqat bu adabiyotdan ilmiy maqsadlarda foydalanishni qiyinlashtirgan, qolaversa ularning ro'yxatga olinishini to'xtatib qo'ygan edi»[504]. Shunga qaramay, umumiyligicha nashr

[503]Zimin L.A. Bibliografiya. Izdaniya nemestno`e i mestno`e (s 10 oktyabrya 1910 g. po 24 aprelya 1911 g.) G` Srednyaya Aziya (Tashkent), 1911, № 3. 130—132-betlar.

[504]Yazberdiev A. K voprosu o bibliografirovanii dorevolyutsionno`x turkestanskix izdaniy

etilgan bibliografik ko'rsatkichlar shubhasiz foydali edi, shuning uchun ham O'zbekiston kitoblari retrospektiv umumiy bibliografiyasini tuzish chog'ida ular inobatga olinishi zarur.

Savollar va topshiriqlar:

1. Turkistonda bibliografiya ishining rivojlanishi.

5-§. Kitob savdosi

5.1. Turkistonda kitob savdosining umumiy masalalari

Turkistonda kitobni chop etish usuliga o'tilishi (XIX asrning 60-yillaridan e'tiboran) kitob savdosi ishida ham yangi sahifa ochdi. Garchi dastlabki toshbosma – litografik nashrlari Turkiston erlariga chet eldan XVIII asr oxiridan kirib kela boshlagan bo'lsa-da, biroq ularning bu erda keng tan olinishi uchun bir necha o'n yillar o'tmog'i kerak bo'ldi. Gap shundaki, dastlabki davrlarda o'zga yurtlardan keltirilgan litografik nashrlar kitobxonlar nazdida qo'lyozma kitoblar bilan qiyosga dosh berolmasdi va oqibatda uning bilan raqobat qilolmasdi. Bunda asrlar davomida kitobga nisbatan kitobat ustalarining noyob va betakror san'ati namunalari sifatida qaror topgan muayyan munosabat o'z aksini topdiki, bir qolipda chiqarilgan ko'p nusxali va ma'lum ma'noda qadrsizlangan litografik – toshbosma kitob unga anchayin shubha bilan qarashga da'vat etardi. 1880–90 yillardan o'z milliy kitob nashriyotchilik ishining rivoji hamda keng ommaning ijtimoiy ongida kitobga nisbatan aytib o'tilgan qat'iy munosabat asta-sekin engib borilishi tufayli Turkiston kitob bozori toshbosma kitoblar bilan to'la boshladi.

Kitoblarni toshbosma usulida ko'paytirish, ularni ilgarigiga nisbatan ancha tez va ko'plab nusxalarda nashr etish, tarqatish kitobfurush va tojiri kutublar faoliyatiga ham o'ziga xos yangiliklar kiritdi. Kitob faqat qo'lyozma usulda ko'paytirilgan davrda kitobfurush asosan vositachi vazifasini bajarib, iste'molda bo'lgan va ta'mirlangan kitoblarni sahhoflar aholidan, yangi ko'chirilganlarini esa xattotlardan sotib olib, qayta sotish bilan shug'ullangan bo'lsa, toshbosma nashriyotchilik davriga kelib u kitobni aholining turli qatlamlari orasida tarqatishdan tortib, nashrlarning mavzui, janri hamda tipologik ko'rinishlarini belgilashda ham hal qiluvchi

---

na mestno'x yazo'kax. G'G' Izvestiya AN Turkmenskoy SSR. Seriya obh. nauk. 1970, № 3, 38-bet.

shaxs bo'lib qoldi. O'quvchilar manfaati va ehtiyojini chuqur anglab etgan. kitobga bo'lgan talab o'zgarishlarining kattayu kichigini sezgirlik ila ilg'ab ololgan kitobfurush shu onda mavjud bo'lgan kitobfurushlik mahsuloti talab-ehtiyojlarini muttasil o'rganib boradi. U o'zigagina ma'lum kuzatuvlar, umumlashmalar va tahlildan kelib chiqib, bosmaxona egasi yoki noshirga buyurtma beradi, xorijiy nashriyot korxonalari bilan u erlardan kitob etkazib berish haqida bitimlar tuzadi hamda shahar va qishloqlarda kitob sotishni tashkil etadi. Toshbosma usulida kitob bosishning butun tarixiy davri davomida u bosilib chiqayotgan adabiyotlarning asosiy buyurtmachisi bo'lib qoladi va milliy kitob repertuari (dasturi)ni belgilab beradi. Toshbosma nashrlarning zarvarag'ida ismlari ko'p uchraydigan, kitob savdosining faol tashkilotchilari bo'lgan kitobfurushlar quyidagilardir: Mullo Mirzaahmad Mirzakarim o'g'li, Hoji Abdullobek sahhof, Sayid Akbarxo'ja imom Zayniddinxo'ja o'g'li, Abdusamixo'ja, Muhammad Alixo'ja, Ibrohim Davron, Siddiqxo'ja Xo'jandiy, Mullo Zufar Shukurmuhammad, Mullo Abdurahmon, Mullo Muhammad Ali Vali o'g'li, Mullo Mirmahdum Shoh Yunus, Mullo Mir Sobir, Mullo Muhammad Olim, Eshon Solih xoja. Bular va ismlari zakr etilmagan yana o'nlab boshqa kitobfurushlar ikki, uch va undan ham ortiq kitob do'konlarining egasi edilar. Turkistonlik kitobfurushlar kitoblarni chet ellarga sotish bilan ham shug'ullanar edi. Mahalliy nashrlar Hindiston, Turkiya, Tatariston, Boshqirdiston, Ozarboyjon kabi mamlakatlarga chiqarilar edi. Ayrim kitobfurushlar mazkur mamlakatlarning qator shaharlarida o'z kitob do'konlariga ega edilar. Chunonchi, taniqli kitobfurush Siddiqxo'ja Xo'jandiyning do'konlari Xo'jand, Buxoro, Qo'qon, Marg'ilon shaharlari bilan bir qatorda Istanbulda ham bor edi. Turk tipografiyalari va litografiyalari uning buyurtmalariga binoan turkistonlik mualliflar asarlarini chop etar edi.[505]

Chor mustamlakasi davrida kitob savdosini tashkil qilish an'analari butun Turkiston hududini qamrab oldi. Inchunin, bu ish o'z kasbining ustalari va bilimdonlari tomonidan o'z davri uchun anchayin baland saviyada, jahon kitob savdosi amaliyotida ma'lum bo'lgan va qo'llanilgan barcha tashkiliy shakl va usullardan foydalangan holda olib borilar edi. Kitobfurushlikda ulgurji va chakana savdo, turg'un va harakatdagi savdodan

[505]Bunga misol qilib O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari fondidagi 13378 raqamli "Chihil xadis"ni ko'rsatish mumkin.

tashqari, eski va nodir qo'lyozmalar bilan shug'ullanuvchi alohida kitob do'konlari ham mavjud edi. Tojiri kutublar shaharu qishloqlarni kezib, kitoblarning chakana savdosini va bir paytning o'zida ularning targ'ibotini ham uyushtirar edi.

Turkistonlik kitobfurushlar aholiga sharq va g'arb xalqlari tillaridagi toshbosma va qo'lyozmalarning turli xilini taqdim etar hamda kishilarning kitobga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan birga bu ehtiyojni o'stirishga, uni muayyan maqsadga yo'naltirishga ham erishar edi. Ro'znoma sahifalari, kitob va jurnallarning so'nggi varag'ida bosilajak u yoki bu nashr haqidagi axborotlar chiqib turar, nashriyotlar va kitob savdosi tashkilotlarining ro'yxatlari, kitob do'konlari, nashriyotlar va yangi chiqarilayotgan maxsus kitoblar jadvallari reklama sifatida alohida chop etilar edi.

Ikki asr oralig'idagi Turkiston kitob bozorining xo'jalik holatini bir necha omil belgilab berdi. Bir tomondan kitobat madaniyatida qo'lyozma va toshbosma kitoblarning yonma-yon rivojlanib borishi dastlabki paytda ular o'rtasidagi keskin raqobatga sabab bo'ldi. Bu jarayonning avj olishida mahalliy va chet el savdogarlari, kitobfurushlari bu erga Hindiston, Erondan olib kirgan ko'plab arzon baholi litografik nashrlari, Turkiyadan keltirilgan harf terish usuli bilan bosilgan kitoblar ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ikkinchi tomondan, Turkistonning umumrossiya bozoriga asta-sekin kirib borishi va Turkiston shaharlarida ko'psonli rus tilli kitobxonlarning paydo bo'lishi bu erga Rossiyadan rus hamda ba'zi evropa tillaridagi kitoblarning kirib kelishiga yo'l ochdi. Shuningdek, mamlakat kitob bozori Boku va Qozonda nashr etilgan harf terish usuli bilan bosilgan turkiy tillardagi, fors-tojik va arab tillaridagi kitoblar evaziga boyib bordi. Bu jarayonlar pirovard natijada muomalada bo'lgan kitoblarning mavzu va til tizimiga, kitob savdosi do'konlarining assortimentiga hamda davlat, ijtimoiy, shaxsiy kutubxonalarning o'zagini yaratishda hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi.

O'z xususiyatlari va kitob assortimentiga ko'ra kitob savdosi muassasalari bir necha xilga bo'linar edi: faqat turkiy, forsiy va arab tillaridagi qo'lyozma kitoblarning savdosi bilan shug'ullanuvchi do'konlar; qo'lyozma va litografik nashrlar bilan savdo qiluvchi do'konlar; sharq qo'lyozma va toshbosmalar bilan bir qatorda, cheklangan miqdorda bo'lsa-da, harf terish usuli bilan bosilgan rus tilidagi kitoblar sotuvchi do'konlar; faqat rus va evropa xalqlari tillaridagi kitoblarni jamlagan do'konlar; evropa va sharq tillaridagi kitoblar aralash holda sotiladigan

do'konlar. Kitob savdosi muassasalarining ulardagi kitob assortimentiga ko'ra farqlanishi haqida so'z borar ekan, shuni ham diqqat-e'tiborda tutmoq kerakki, bu erdagi kitob do'konlarining aksariyat qismi tub aholi vakillaridan bo'lmish kitobfurushlarga tegishli edi. Bu do'konlar asosan sharq tillaridagi kitoblarning savdosi bilan shug'ullanib, o'zining milliy xususiyatlari bilan ajralib turar edi. Rus va evropa xalqlari tillardagi kitoblarning savdosini olib boruvchi do'konlar asosan Rossiyadan ko'chib kelgan shaxslar qo'lida edi.

5.2. Sharq tillaridagi kitoblar savdosi

Turkiston shaharlarida milliy kitoblar savdosining rivojlangan silsilasi haqida o'sha davrning adabiy manbalari ko'plab ma'lumot beradi. Chunonchi, etnograf, o'zbek, tojik va arab tillari bilimdoni, pedagog va yozuvchi G.V.Andreevning o'zbek adabiyotiga bag'ishlangan va 1908 yili "Turkestanskiy kurer" ro'znomasida chop etilgan maqolasida shunday ta'kidni uchratamiz: "Har bir shaharchada kamida o'nga yaqin maxsus kitob do'konlarini topish mumkin, shuningdek, biron bir ko'zga ko'ringan qishloq yo'qki, unda aqalli bir nechta shunday do'konlar bo'lmasin".[506]

Toshkentdagi XIX asrning so'nggi choragi – XX asr boshidagi qo'lyozma va bosma kitoblar bozorining qay holda ekanligini N.Likoshinning "Yarim umr Turkistonda" nomli asarida ham uchratish mumkin. Muallif bu haqda shunday ma'lumot beradi: "Toshkentning eski shahar qismidagi kitob savdosi keng miqyosda olib boriladi va asosan faqat kitob do'konlaridan tashkil topgan sohib bozorda markazlashadi... O'ttiz kitobfurush kitob tovari bilangina band bo'lgan savdo qatorining ikki tarafidan joy olgan. Qolgan kitobfurushlar - ularning soni sakkiz kishidan iborat - ulgurji savdogarlardir. Ular karvonsaroylarda savdo qiladilar va boshqa tovarlar savdosi bilan bir qatorda sohib bozor do'konlarini ham kitob bilan ta'minlaydilar".[507]

O'tgan asrning 90-yillari Toshkentning eski shahar qismida chor hukumati tomonidan kitob savdosini tartibga solish maqsadida kitob sotish huquqini beruvchi ruxsatnoma – shahodatnomalar tarqatildi. Bu, o'z navbatida, kitobfurushlarning umumiy sonini ham aniqlashga imkon berdi. Yana shu narsa ayon bo'ldiki, kitobfurushlarning deyarli hammasi sahhoflik va yozuv anjomlarini sotish bilan shug'ullanar ekan. "Bundan

[506] Andreev G.V. Sartovskaya literatura G'G'Turkestanskiy kurer. – 1908, № 38.

[507] Lo'koshin N. S. Poljizni v Turkestane. Sankt-Peterburg. 1906. – B.241.

tashqari, - yana davom etadi N.Likoshin, - temir, manufaktura, attorlik va boshqa tovarlarni sotuvchilarga ko'p hollarda o'z ixtiyoriga zid ravishda, ba'zida esa mutlaq kutilmagan sabablarga ko'ra, kitob savdosi bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi: ichki Rossiya bozorlaridagi savdogarlarning asosan tatarlardan bo'lgan qismi buyurtma tovar hisobida bizning sartlarga ma'lum miqdorda "Qur'on" va "Haftiyak" kitoblarini ham yuboradi va shunday qilib ularni o'z mahsulotiga qo'shimcha yana kitob sotishga ham undaydi. Bu odat shunday qoida tusini oldiki, bizning sartlarga Turkistonda Qozon nashrlari oqimini keng tarqatishga to'g'ri kelmoqda".[508]

A.I.Dobrosmislovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Toshkentning eski shahar qismida joylashgan kitobfurushlar rastasidagi 30–35 kitob do'konidan tashqari, "... shaharning turli qismlarida yana o'nlab mahsus do'konlar mavjud bo'lib, ularda sartlar kitob sotadilar. Shaharning sartlar yashovchi qismidagi kitob savdosi bo'yicha moliyaviy muomalasi yiliga 300 ming rublni tashkil etadi".[509]

Farg'ona vodiysida ham ikki asr oralig'ida kitobfurushlik tarmoqlari kengaya bordi. Masalan, kitob do'konlarining soni Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona shahri)da 1901 yilda uchtani tashkil etgan bo'lsa, 1910 yilga kelib 27 ta bo'ldi. 1917 yilda esa 33 taga etdi. Birgina Namanganning o'zida va unga yaqin joylarda 1910 yilda 12 kitob do'koni mavjud edi. Yirik madaniy markazlardan bo'lmish Qo'qon shahrida ham o'nlab kitob do'konlari faoliyat ko'rsatar edi. Bu erda "Madora", "Ma'rifat", "G'ayrat", "Birlik" kabi Kitob Uylari o'zlarining maxsus kitob do'konlariga ega edilar.

1909 yili Qo'qonga badavlat savdogar Ishoq Koshifovich Sharipov Orenburgning Orsk shahridan doimiy yashash uchun ko'chib keladi. Shu yilning o'zida u Katta Chorsu dahasida "Koshifiya" nomli kitob do'koni ochdi. Unda Turkiston, Qozon, Boku nashriyotlarining turkiy tillardagi mahsulotlari, rus tilidagi kitoblar, qo'lyozmalar va yozuv anjomlari savdosi olib borilar edi. Qo'qon uezdi hokimi I.K.Sharipovning kitob do'koni ochishni so'rab yozgan arizasini Farg'ona viloyati Harbiy gubernatoriga yubora turib, unga bunday ruxsatnoma bermoqlik nomuvofiq ekanligi haqida yozadi, sababi: "Mavjud ma'lumotlarga ko'ra u panislomchilik tarafdoridir, shu tufayli o'ziga berilgan kitob savdosi huquqidan mazkur

[508]Lo'koshin N. S. O'sha asar. B. 241.

[509]Dobrosmo'slov A. I. Tashkent v proshlom i nastoyahem. Istoricheskiy ocherk. Tashkent, 1912. – B. 284. 1912 yildagi 1 rubl bugungi taxminan 10 AQSh dollariga teng.

g'oyalarni targ'ib etish uchun foydalanishdan o'zini tiyib turishi maholdir".[510] Biroq gubernator uezd hokimining bu ogohlantiruvida biron jiddiy xavf ko'rmadi va I.K.Sharipov ko'zlagan ruxsatnomasini oldi. Bir yildan so'ng u "Quyosh" nomli yana bir kitob do'koni ochishga ruxsat oldi. Qo'qon uezdi hokimining bu galgi maxfiy raportida mazkur do'konni ochish maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlanar edi, chunki bu politsiya uchun "... unda sotilayotgan kitoblar bilan bir qatorda, ularning xaridorlari ustidan ham nazorat olib borish"[511] imkonini berar edi. 1914 yili I.K.Sharipov Namanganda bir xususiy kitob do'koni ochdi. Uning kitobfurushlik faoliyati 1918 yilga qadar davom etdi.

Buxoroning maxsus kitob bozorida o'sha kezlar 25–30 kitob do'koni faol ishlab turgani haqida V.A.Vyatkin 1897 yili chiqqan maqolasida ta'kidlab o'tgan.[512] Uning guvohlik berishicha, bu erda asosan qo'lyozmalar sotilgan. Oradan o'n ikki yil o'tgach, taniqli rus publitsisti, Turkiston masalalari bo'yicha mutaxassis D.N.Logofet o'z kitobida Buxorodagi kitob bozorining batafsil tavsifini beradi[513]. U Eski Buxoro kitob bozorida savdo juda chaqqon ekanligini ta'kidlab, shuning bilan birga bu erda mahalliy turkiston bosmaxonalarining nashrlari uncha shuhrat qozonmaganini yozadi. Bozorda asosan hind nashrlari keng tarqalgan, shuningdek, eron va turk toshbosma (litografik) nashrlari ham tez-tez uchrab turar edi. D.N.Logofet chet eldan "...Turkiston o'lkasi aholisida noxush zararli qarashlarni" tarqatuvchi kitoblarning ko'plab kirib kelishidan bezovta ekanligini aytadi va bu holatni oldini olishning hal qiluvchi keskin chorasi sifatida bu erga "... chet eldan sharq tillaridagi har qanday qo'lyozma yoki bosma kitoblarni olib kirishni"[514] qat'iy man etishni taklif qildi.

D.N.Logofet asari nashr etilgandan so'ng qirq besh yil o'tgach, nashriyotchilik ishi tarixining tadqiqotchisi prof. G.N.Chabrov, o'zining bu sohadagi ilmiy kuzatuvlaridan kelib chiqib, Turkiston shaharlarida kitob savdosining faol rivojini o'lkada Turkiyadan kelaetgan panislomiya g'oyalari tashviqotining jonlanuvi bilan bog'liqlikda ko'radi. "Ma'lumki, - yozadi u, - 1910 yili Turkiyada hatto maxsus "O'rta Osiyoda ziyo tarqatish

[510] O'zR IIV Arxiv bo'limi, fond 19, arx. № 28921, 10, 21, 29 varaq.

[511] O'sha joyda, arx. № 29185, 62 varaq.

[512] Vyatkin V. L. Buxarskiy knijno`y ro`nokG`G` Turkestanskie vedomosti, 1897. № 61-62.

[513] Logofet D. N. Na granitsax Sredney Azii, Sankt-Peterburg1909.

[514] O'sha asar, - B. 189.

jamiyati" ham paydo bo'ladi".[515] N.Likoshin 1901 yildayoq ta'kidlagan ediki: "Turk kitoblari va hatto gazetalari bizning tub aholimizga rus kitoblariga tenglab bo'lmas ko'p sonda etib kelmoqda".[516]

Bevosita litografik nashrlar, arxiv hujjatlari va vaqtli matbuot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy kitob bozorida turkiston nashrlari chet eldan keltirilgan kitoblarga nisbatan oz edi. Haqiqatan ham ichki bozorda ajabtovur holat yuzaga kelgan edi: bir tomondan nashr uchun tayyor mahsulot sifatida qo'lyozmalarda saqlanayotgan ko'p asrli nihoyatda boy adabiy meros, ikkinchi tomondan faol ish olib borishga tayyor turgan noshirlar, kitobfurushlar, buyurtmachilar, homiylar bo'la turib, litografiyalarning ozligi, mahalliy poligrafiya moddiy-texnika asosining zaifligi va rivojlanmaganligi milliy nashriyotchilik ishining rivojiga to'sqinlik qiluvchi bosh sabab bo'ldi.

Sharqning qo'shni mamlakatlaridan forsiy hamda turkiy tillardagi turli adabiyotlarning ko'p sonda Turkiston bozoriga kelib tushishi, nazarimizda, mahalliy xalqlarning milliy madaniyatiga hech bir ziyon keltirmas, aksincha, qo'shni va ko'p jihatdan qardosh xalqlar uchun ham tarixiy, ham madaniy-ijtimoiy jihatdan juda tabiiy hodisa edi. Bu kitoblarning kitobxonlarning turli qatlamlari tomonidan tez fursatda xarid qilinishi ularning mazkur hodisani ma'qullaganlarini ko'rsatadi va bizning fikrimizning ham bosh dalili bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro kitob almashuvi jadal rivojlanayotgan o'lkada kitobga bo'lgan talabning yuqori darajada bo'la turib, poligrafiya bazaning umumiy hajmi va saviyasi talab darajasidan ancha past bo'lgan bir sharoitda tili, dini, adabiy merosi bir-biriga yaqin bo'lgan qo'shni o'lkalardan keltirilgan kitoblarning keng tarqalishi, shubhasiz, katta ijobiy hodisa edi.

Turkiston kitobfurushlari Hindiston, Eron va Turkiya noshirlari, dalollari va savdogarlari bilan yaqin aloqa o'rnatdilar. Masalan, Qo'qon kitobfurushlaridan Abdusami xoja va Muhammad Ali xojalar hind noshirlari bilan ish olib bordilar. Hindistonda istiqomat qilgan turkistonlik savdogar Musulmonqul at-Turkistoniy qo'qonlik hamkasbi Muhammad Ali afandiga yo'llagan maktubida, jumladan, shunday yozadi: "Siz

---

[515] Abrov G. N. Iz istorii poligrafii i izdatelstva literaturo` na mestno`x yazo`kax v dorevolyutsionnom Turkestane (1868-1917. Istoriya nauki, Kn. 7. Trudo` SAGU. – Vo`p. 57. – B. 92.

[516] Lo`koshin N. S. Ehe o knigax dlya tuzemtsev G`G` Turkestanskie vedomosti, 1901, № 13.

yuborgan kitoblarni oldim. Siz uchun uchi kesilmagan qalamlardan har bog'i 2 so'mdan 50 bog' olib qo'ydim".[517] Bu so'zlardan ayon bo'lishicha, turkistonlik kitobfurushlar chetdan kitob olib kelibgina qolmay, balki o'zlari ham mahalliy nashrlardan horijiy mamlakatlarga yuborib turganlar. O'sha maktubning o'zida yana boshqa bir qo'qonlik kitobfurush Abdusami Abdumo'min o'g'liga 442 so'm 42 tiyinga 200 kalendar yuborilganligi xabar qilinadi.[518] Abdusami xoja nomiga hind kitobfurushi Chalabiydan kelgan yana bir maktubda shunday deyilgan: "Iltimosingizni bajarib, yuborgan aqchangizga 200 bog' qalam va Siz so'ragan kitoblardan olib qo'ydim. Yaqin orada barini yuborurman".[519]

Yangi Marg'ilon kitob bozorining kitobfurushlaridan biri Qosimjon Ishoqjon o'g'li nomiga birgina 1905 yilning o'zida Istanbuldan 1876-1904 yillar oralig'ida chop etilgan kitoblardan iborat 55 posilka yuborilgan.[520]

Hindistondan keltirilgan ko'pgina nashrlarning zarvarag'ida "Tojiri kutub Siddiq xoja Xo'jandiy ixtimomi ila bosildi" degan yozuv bor. Yoki "Kitobfurush Mullo Sobir buyurtmasi bilan bosildi" degan yozuv ham uchraydi. Bular Samarqand, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlari kitob bozorlarida kitobfurushlik qiluvchi yirik savdogarlar bo'lib, XIX asrning 80-yillaridan to 1918 yilgacha Hindistondan muttasil katta-katta kitob partiyalarini olib turgan. Faqat 1893 yilning uch oyi davomida Siddiq xoja Xo'jandiy Qashqar orqali 400 dona kitob olgan.[521]

1913 yil arxiv materiallarining guvohlik berishicha, shu yili Qo'qonning kitob bozorlariga Hindistondan arab va fors tillaridagi 2000 ta litografiya nashridagi kitoblar kelib tushgan.[522]

Xorijiy nashrlar Turkistonga turli yo'llar bilan keltirilar edi. Bitta yo'l Shimoliy Hindistondan Afg'oniston orqali (Kobul – Mozori Sharif – Amudaryoning Kalif va boshqa kechuvlaridan) o'tib kelar edi. Boshqa bir yo'l dengiz yo'li bo'lib, kitoblar avval Fors portlaridan Bandar Bushirgacha keltirilar va so'ng bu erdan Eronning Yazd va Mashhad shaharlari orqali Ashxabodga keltirilar edi. Turkiya va Bombaydan Batumigacha ham

[517] Qo'qon adabiyot muzeyida saqlanayotgan xatdan (asl nusxa) iqtibos qilindi. Inv. № 258.

[518] O'sha joyda.

[519] O'sha joyda. Inv. № 396.

[520] O'zR IIV Arxiv bo'limi, fond 19, arx. № 28963.

[521] O'zR MDA, f.v. 1, op. 36, d. 26, - 137, 138, 181, 194 varaq.

[522] O'zR IIV, f. 19, arx. № 29393.

dengiz yo'li bor edi. Batumidan esa u Ozarboyjon va Kaspiy dengizi orqali Krasnovodsk (bugun Turkmanboshi shahri)gacha kelar edi. Shu bilan birga Hindistonning shimoli-sharqidan Kashmir orqali O'rta Osiyoga to'g'ri o'tib keluvchi tog' yo'li ham bor edi.

O'rta Osiyo – hind madaniy aloqalari tarixining tadqiqotchisi G.A.Dmitrievning bojxona materiallari tahlili asosida tuzgan jadvaliga ko'ra bu erdan birgina Samarqand viloyatiga 1882 yili 112 pud, 1883 yili 424 pud, 1884 yili 368 pud, 1885 yili 74 pud, 1886 yili 115 pud, 1887 yili 38 pud kitob keltirilgan.[523]

Farg'ona viloyatiga 1881 yili xorijdan 1350 rubllik kitob keltirilgan. 1883 yili 13 o'ram jami 1600 rubllik, 1884 yili 23 o'ram jami 8370 rubllik, 1885 150 rubllik 1 o'ram, 1886 yili 160 rublga 1 o'ram, 1898 yili 900 rublga 22 pud kitob keltirilgan.[524]

Turkiston o'lkasiga 1891 yili xorijdan jami 210 pud, 1892 yili 75 pud kitob keltirilgan.[525]

Turkiston kitob mahsulotining asosiy qismi o'sha davr musulmon madaniyatining eng muhim markazlaridan bo'lmish Turkiya, Eron va Hindistondan kirib kelar edi. Tatariston, Ozarboyjon, Misr va Suriyadan esa nisbatan ozroq kitob kelar edi. Ular jumlasiga fiqh, kalom, musulmon axloqiga oid kitoblar, Qur'oni karim, uning tafsirlari, sharhlari, hadislar majmualari, falsafa, tibbiyot, adabiyot nazariyasi, tarix, jo'g'rofiya, leksikografiya, grammatika, harb ilmiga oid nashrlar, tabiiy ilmlar sohasiga oid risolalar, adabiy-badiiy nashrlar kirar edi. Tili jihatdan bu boy kitob mahsuloti uch asosiy guruhga bo'linar edi: forsiy, doriy, tojik; turkiy – umumturkiy adabiy, turk-ozarboyjon, tatar, o'zbek, chig'atoy; arab. Nashrlarning mavzuiy, tipologik, janri, tili jihatidan rang-barangligini belgilashda ham kitob etkazuvchi turli mamlakatlar o'rtasida ma'lum chegaralanish ko'zga tashlanar edi. Masalan, Turkiya, Tatariston, Misr, Suriyadan ko'proq diniy-axloqiy va diniy-falsafiy mazmundagi musulmon huquqshunosligi, ilohiyotga oid kitoblar, arab huquqshunoslari klassik asarlarining turk, tatar, arab tillaridagi sharhlari, Hindiston, Eron va Ozarboyjon noshirlari Turkiston o'lkasini, odatda, turli sohalardagi zohiriy

[523] Dmitriev G.A. Rasprostranenie indiyskix izdaniy v Sredney Azii v kontse XIX - nachale XX vv. G`G`Kniga. Issledovaniya i materialo`. – M.: Kniga, 1962. – Sb. 6. – B. 240.

[524] O'sha joyda.

[525] O'sha joyda.

ilmlarga oid asarlar, shuningdek, forsiy va turkiy tillardagi adabiy-badiiy nashrlar bilan ta'minlar edi.

Xorijdan keltirilgan kitob mahsulotining tipologik tahlili ko'rsatishicha, nashrlarning umumiy oqimida asosiy o'rinni diniy ilmlar hamda musulmon huquqiga oid adabiyot egallaydi. Ikkinchi o'rinda adabiy-badiiy nashrlar – she'riy to'plamlar (devon, bayoz, majmua va h.k.) hamda forsiy va turkiy klassik shoirlarining kulliyotlari turadi. Keyingi o'rinni o'quv qo'llanmalar va tarixiy asarlar egallaydi. To'rtinchi o'rinda tibbiyot va dori tayyorlash ilmiga oid kitoblar, lug'at va maxsus bibliografik nashrlar, beshinchi o'rinda jo'g'rofiya, falakiyot, riyoziyot ilmlariga oid risolalar turadi. Turli ilmlarga oid sanab o'tilgan sohalardagi nashrlar o'nlab alohida kitob nomlaridan iborat bo'lib, ular o'z navbatida Turkistonga yuzlab donada yuborilar edi. Ular qatoriga minglab dona Qur'ondan tashqari yana quyidagi asarlar nashri kiradi: musulmon huquqshunosligining keng tarqalgan va mashhur sharhlari majmui bo'lmish "Hidoya" (yurtdoshimiz yirik xuquqshunos olim Burhonuddin Marg'inoniy asari), "Yaqub Charxiy sharhlari", "Muxtasar ul-viqoya" kabi asarlar, Qur'on sharhlaridan "Tafsiru kabir", "Ruhul bayon" asarlari. Xorijiy bosma kitoblarning umumiy hajmida asli turonu-turkistonlik bo'lmish taniqli fan arboblari asarlarining nashrlari muhim o'rin tutdiki, bular asosan Abu Nasr Forobiyning "Majmua" nomli asarlari to'plami, Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" hamda "Geodeziya" asarlari, Abu Ali ibn Sinoning "Al-qonun fi-t-tib", az-Zamaxshariyning "Muqaddimatul-adab" asarlaridir.

Badiiy adabiyotga oid asarlar sirasida salmoqli o'rinni XI–XII asr turkiy nasr va nazmining buyuk yodgorliklaridan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnaykiyning "Hibatul-haqoyiq", Rabg'uziyning "Qisasi anbiyo" asarlari, jahon adabiyoti durdonasi bo'lmish Firdavsiyning "Shohnoma" asari, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoni, Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"si hamda alohida jildlarda "Layli va Majnun", "Iskandarnoma" dostonlari, Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari, uning kulliyotining bir nechta nashrlari, Jaloliddin Rumiy, Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zebunniso, Mirzo Abduqodir Bedil devonlari, "To'tinoma", "Chor darvesh" asarlari.

Turkistonda chet eldan keltirilgan bir necha o'nlab nomidagi tarixiy asarlar ham keng sotuvda bo'lgan. Ulardan eng muhimlari va o'quvchilar

talabini qozonganlari orasida arab olimi Abu Ja'far Taboriyning (923 y. v. etgan) turk (Istanbul nashri) va tatar (Qozon nashri) tillariga tarjima qilingan umumiy tarixga oid "Tarixi Taboriy" asarining nashrlari, yurtdoshlarimiz asarlari orasida XI asrning nodir yodgorligi bo'lmish Abul Fazl Bayhaqiyning (1077 y. v. etgan) g'aznaviylar sulolasining dastlabki hukmronlik davriga bag'ishlangan "Tarixi Mas'udiy" asari, Ibn al-Asirning (1230 y. v. etgan) "Kitob ul-komil fi-t-tarix" asari; Rashididinning (1318 y. v. etgan) mo'g'ullar hukmronligi davrida Turkiston, Eron, Qofqoz xalqlarining tarixiga oid "Jome' ut-tavorix" asari, Hofizi Abro'ning (1430 y. v. etgan) "Zubdat ut-tavorix" nomli tarixiy-jug'rofiy asari, Ahmad ibn Muhammad Arabshohning (1450 y. v. etgan) Amir Temur faoliyatining tanqidiy baho va talqinini beruvchi "Ajoyib ul-maqduf fi navoib Temur" asari, "Temur tuzuklari", Mirxondning (1498 y. v. etgan) etti jildli "Ravzatus safo" asari, Xondamirning (1539 y. vafot etgan) uch jildli "Habib us-siyar" umumtarixga oid asari, Abulg'oziy Bahodirxonning (1664 y. v. etgan) "Shajarayi turk"i, Mavlono Ahmad ibn Muhammadning turli musulmon sulolalaridan hikoya qiluvchi "Tarixi Nigoriston" kitoblarini keltirish lozim.

5.3. Rus va ovrupo tillaridagi nashrlarining savdosi

Turkiston o'lkasida rus kitoblarini birinchilardan bo'lib sota boshlagan shaxs iste'molda bo'lgan eski narsalar va attorlik mollari bilan savdo qiluvchi mayda savdogar yahudiy Leyba Shvarts edi. Toshkentning Romanovskaya ko'chasida XIX asrning 70-yillari boshida ochilgan do'konida[526] u attorlik mollari bilan bir qatorda rus lubok namunalari (ular diniy va axloqiy mazmundagi rasmlar hamda rus ertaklari, bilinalari, ritsar romanlariga ishlangan rasmlardan iborat bo'lib, tushuncha beruvchi matn bilan ta'minlanar edi), gimnaziya va turli pog'ona maktablari uchun ayrim darslik va qo'llanmalar, rus nashrlarining iste'molda bo'lgan mahsulotlari, milliy tillardagi ayrim litografik nashrlari bilan savdo qilar edi. 1881 yilda Toshkentda sotuvda bo'lgan kitoblar ro'yxatidan iborat "L.Shvarts kitob magazinining katalogi" bosilib chiqdi. Uning asosiy qismini Markaziy Rossiyada nashr etilgan kitoblar tashkil etar edi. 80-yillar o'rtasida L.Shvarts do'koni joyini o'zgartirib, Voskresenskiy bozoridagi[527] yangi

[526] V. S. Knijnaya torgovlya v Tashkente. G'G' Turkestanskie vedomosti. – 1883. – 6 dekabr, № 48.

[527] Dobrosmo'slov A. I. Ko'rsatilgan asar. – B. 283. Voskresenskiy bozori hozirgi Alisher

binoga ko'chib o'tdi hamda ancha yirik va obro'li korxonaga aylandi. XIX asrning 90-yillari boshigacha, ya'ni qariyb 20 yil davomida, L.Shvarts magazini o'z sohasida Turkiston o'lkasidagi yagona, ixtisoslashgan desa bo'ladigan korxona bo'lib qoldi. Bu masalaga yanada aniqlik kiritish uchun, shuni ham aytish kerakki, o'lkada mustamlaka ma'muriyatiga qarashli rus o'quv muassasalari qoshida ham kitob savdosi tashkil qilingan edi. Biroq bu erda ma'lum o'quv kursi uchun zarur bo'lgan kitoblargina faqat shu muassasa talabalariga sotilar edi. O'lkada kitob savdosining holati (gap rus nashrlari haqida boradi) fikrlovchi odamlarni ancha tashvishga solar edi. "Turkiston o'lkasining Toshkentdan boshqa bironta shaharida biron bir kitob do'koni yoki rastasi bo'lsa-ya: bu erda ham faqat qandaydir L.Shvarts do'konidangina ba'zida turli kitob chiqitlarini xarid qilish mumkin, xolos", - deb kuyunib yozadi "V.S." harflari bilan imzolangan "Toshkentda kitob savdosi" (1883) maqolasining muallifi. "O'lkamizda, - yana davom etadi u shu maqolasida, - o'n ikkita vino va araq zavodi, o'n bitta pivo pishiruvchi, ettita vino tayerlovchi korxonalar hamda yuzdan ortiq kabaklar va turli xil boshqa ichkilik muassasalari bo'la turib, bironta ham kitob magazini yo'q ekanligini o'ylasang, beixtiyor uyatdan qizarib ketasan kishi".[528]

Turkistonda ruscha nashrlar bilan savdo qiluvchi ikkinchi kitob do'koni Toshkentda 1892 yili ochildi. Uning egasi mashhur noshir va bosmaxona egasi yahudiy Abram Leybovich Kirsner edi. A.L.Kirsner do'konining peshtoqida "Bukinist" firmasi yozuvli lavha osig'liq edi. Do'kon ishi ha deganda yurishavermadi. shu tufayli to'rt yil o'tar-o'tmas A.L.Kirsner uni mustamlaka ma'muriyati xizmatchisi G.S.Reysner, vrach K.K.Kazanskiy hamda savdogar va tipografiya egasi V.M.Ilinlardan iborat shirkatga 6,5 ming so'mga sotib yuborishga majbur bo'ldi.[529] Ular esa, o'z navbatida, do'konning sobiq egasini uning boshqaruvchisi lavozimiga taklif etdilar.[530] 1903 yildan e'tiboran do'kon M.I.Svishulskiy qo'liga o'tdi. 1912 yildan u Kaufman ko'chasida joylashib, peshtoqida "M.I.Svishulskiy

---

Navoiy nomidagi Davlat opera va balet Katta teatri va Poytaxt mehmonxonasi o'rnidagi maydonda joylashgan va shahar xalqi orasida ko'proq "Piyon bozor" nomi bilan atalar edi.

[528] V. S. Knijnaya torgovlya v Tashkente. G`G`Turkestanskie vedomosti, 1883, – 6 dekabr, № 48.

[529] Boboxonov A. X. O'zbek matbaasi tarixidan. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiet va san'at nashrieti, 1979. – B.150.

[530] O'sha joyda.

kitob savdosi" yozuvi ostida ish olib bordi.[531]

Uchinchi kitob do'konini 1894 yilda meshchanka Jijina ochdi. U Toshkentning Romanovskaya ko'chasidagi keng binoda joylashdi. Keyingi 1895 yili do'konni Martsel Feliksovich Soberrey degan kishi sotib oldi. Doimo namunali tartibda saqlangan bu magazin "Soberrey" firmasi" yozuvi ostida ishladi. Zamondoshlarning fikricha, do'kon 1912 yilda savdodagi kitoblarning soniga ko'ra ham, sifati hamda mualliflarning tanlanganligiga ko'ra ham, nashrlarning mavzuviy-tipologik tizimiga ko'ra ham "faqat Toshkentdagina emas, balki butun o'lkada peshqadamlik qildi".[532]

Rus va G'arbiy Evropa nashrlarini jamlagan to'rtinchi maxsus do'kon 1899 yilda "Znanie" ("Bilim") firmasining markasi bilan ochildi. Uning ishini hamon o'sha "Bukinist" magazinining sobiq egasi tinib-tinchimas A.L.Kirsner tashkil etdi. A.I.Dobrosmislovning ta'kidlashicha, A.I.Kirsnerning yangi do'koni ancha-muncha katta, biroq kitoblar "hamma vaqt ham birdek yaxshi tanlanmagani tufayli, uchinchi o'rinni egallaydi (bu erda faqat Toshkent shahri nazarda tutiladi – E. O.). Aytish kerakki, darsliklar savdosi unda ancha chaqqon boradi".[533]

Toshkentdagi uchala kitob do'konini (M.I.Svishulskiy, M.F.Soberrey va A.L.Kirsner)ning yillik savdo aylanuvi 1911 yilda 110 ming rublni tashkil etdi.[534]

XX asr boshlarida rus va evropa nashrlarining savdosi bu paytga kelib shaharning ruslar yashaydigan qismining o'ziga xos markaziga aylangan Voskresenskiy bozori hududida jamlandi. Rossiya Pushkin jamiyatining Toshkentda qaytadan tashkil topgan Turkiston bo'limi 1902 yili shahar Dumasidan shu bozorda kitob kioskasi ochishga ruxsat oldi. "Russkiy Turkestan" ro'znomasida bu haqda berilgan xabarda shunday deyiladi: "Jamiyat sotilajak kitoblarni olib bo'lgan. Sotuv oktyabr oyidan boshlanadi... Toshkentdagi taxta omborlarining egalari Avakiyants va Ak–Nazarov janoblari qurilayotgan kiosk uchun etarli taxtalarni xayriya qildilar".[535]

Shuningdek, A.I.Dobrosmislovning guvohlik berishicha,

---

[531]O'sha joyda.

[532]Dobrosmo`slov A. I. Ko'rsatilgan asar. – B. 284.

[533]O'sha joyda.

[534]O'sha joyda.

[535]Russkiy Turkestan. – 1902. – 13 oktyabr, № 224.

Voskresenskiy bozorida "o'zbeklar" ham kitob savdosi olib borgan.[536]

1907 yili Voskresenskiy bozorida I.G.Kovalev degan kishi ham kitob savdosini boshlab, asosan tutilgan va eski kitoblarni sotish bilan shug'ullandi.[537] 1909 yili shu erning o'zida ochilgan Ogorodnikov va Godinlarning ikkita magazinida ham asosan tutilgan va eski kitoblar savdosi olib borildi.[538] Bu magazinlarda sharq tillaridagi nashrlar ham uchrab turar edi. A.I.Dobrosmislov hisobiga ko'ra. Voskresenskiy bozoridagi kitob magazinlarining eski kitoblarni sotish bo'yicha yillik pul aylanuvi jami 15 ming rublni tashkil etar edi.[539]

1910–1917 yillar davomida Toshkentda va o'lkaning boshqa shaharlarida rus nashrlari savdosi bilan shug'ullanuvchi yana bir nechta do'kon ochildi. Sovet davri arxiv materiallari, xususan Turkiston ASSR Xalq Maorifi Komissariati fondi hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, 1918 yili Toshkentda rus kitob tojirlaridan Ogorodnikov, Molibojko, Nikitenko va Dragunskiy, V.G.Bek, Kupriyanov, Aydarov, Desenko, Semenov, Kozlov, Ivanov, Korobkov, Rodionovlarning kitob magazinlari faoliyat ko'rsatgan.[540]

6-§. Kutubxonachilik ishi

6.1. Sharqona milliy kutubxonalar

6.1.1. An'anaviy (o'rta asrlarga xos) kutubxonalar

XIX asrning ikkinchi yarmida va XX asrning dastlabki yigirma yilida Turonzamin shahar va qishloqlarida masjidlar, madrasai oliya, o'rta va quyi madrasalarning, ular qoshidagi boshlang'ich maktablarning kutubxonalari, shahar va qishloq mavzelari miqyosidagi musulmon jamoalari ommaviy foydalanishi uchun mo'ljallangan kutubxonalar, maqbaralar va so'fiylarning hujralari qoshidagi kutubxonalar, shifoxonalar va xonaqolar qoshidagi kutubxonalar faoliyat ko'rsatishda davom etdi. Ularning aksariyati vaqf mulki egalarining mablag'lari yoki boy kishilarning xayr-ehsonlari hisobiga kun ko'rardi. XIX asrning 80-yillari

[536]Dobrosmo`slov A. I. Ko'rsatilgan asar. – B. 284.

[537]O'sha joyda.

[538]O'sha joyda.

[539]O'sha joyda.

[540] O'zR MDA, f. 34, op. 1, d. 2154, l. 10.

oxiri – 90-yillarining boshida vaqf masjidlari, madrasalar, xonaqo va shifoxonalar qatori, yuqorida zikr etilgan kutubxonalar ham qattiq iqtisodiy inqirozga uchradi. Bu inqirozni mustamlakachi ma'murlarning vaqf erlari va boshqa mol-mulkning katta qismini markaziy Rossiyadan ko'chirib kelingan aholiga berish bo'yicha ko'rgan chora-tadbirlari keltirib chiqardi. Buning natijasida vaqf muassasalari ta'sischilarining moliyaviy ajratmalari miqdori qisqardi, xayriya faoliyati bilan shug'ullanuvchi, masjidlar, madrasalar, shifoxonalar va xonaqolarni qo'llab-quvvatlab turuvchi mahalliy boylar soni kamaydi. XI–XIII asrlarda vujudga kelgan o'rta asrlar kutubxonachilik ishi tizimiga keng miqyosda putur eta boshladi. Ammo og'ir sharoitga dosh berolmay, o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan kutubxonalar o'rniga hukumat ham, jamoatchilik ham yangi hech narsa taklif qila olmadi. Kutubxonachilik ishini davlat tomonidan tartibga solish va unga rahbarlik qilish tizimi mavjud bo'lmagan sharoitda bu tabiiy bir hol edi.

Chor Rossiyasi tomonidan Turonzaminning istilo qilinishidan oldingi yillarda bo'lganidek, yangi madrasa va masjidlar yoki ularning majmualari (masjid, madrasa, maktab va kutubxona) qurish an'anasi Turonzaminda, mavjud qiyinchiliklarga qaramay, XIX asrning oxiri – XX asrning boshida ham davom etdi. Bu davrda qurib bitkazilgan va ish boshlagan madrasalardan Toshkentdagi Beklarbegi, Mo'yi Muborak, Eshonqul dodxoh, Yunusxon va Abulqosim madrasalarini, Xiva xonligidagi Arab Muhammadxon, Amirto'ra, Muhammad Rahimxon, Muhammadmurod devonbegi, Otajon to'ra, Qadam yasovulboshi, Qozikalon, Ibrohimxoja, Yusuf yasovulboshi, Husayn Muhammadboy, Do'st Olim, Polvon qori, Qozi Muhammad Salim, Islom Xo'ja, Isfandiyorxon madrasalarini, Xudoyorxonning Qo'qon (1870), Namangan (1875), Shohobod (1874) va Chust (1875)dagi madrasalarini, O'shdagi Hakimoyim (1869) va Olimbek madrasalarini, Andijondagi Nasriddinbek madrasasini qayd etish mumkin. Shu yillarda Buxoro xonligida ham o'nlab yangi madrasa va masjidlar barpo etildi.

Butun Turonzamin hududida masjidlar va madrasalar qoshida minglab maktablar faoliyat ko'rsatgan, o'z uylarida domla va otinlar bolalarni o'qitgan, yuzlab madrasalar ish olib borgan bo'lsa-da, ularda ta'lim eski usulda berilar, o'qitiladigan fanlar doirasi ancha tor bo'lib, ularning mazmuni XI–XIII asrlardagi jahon fani darajasini aks ettirar edi. Maktablarda ta'lim berishning birdan-bir maqsadi o'quvchilarga harf

tarzi», «yangi maorif» degan ma'nolar mujassamlashgan[545].

Ismoil Gasprali 1884 yildayoq Qrimda, Boqchasaroy shahrida o'z mablag'iga bolalar uchun maktab ochgan bo'lib, unda eski maktabga taqqoslaganda mutlaqo boshqa, yangi ta'lim usullarini qo'llagan edi. «Xojalarga ta'limot» («Muallimlarga yo'llanma») qo'llanmasida u yangi maktabning mohiyatini va «usuli qadim»dan «usuli jadid»ning

[545]Jadidchilik mohiyatini ochib berar ekan, prof. Begali Qosimov shunday deb yozadi: «Jadidchilik Turkistonda XIX asrning oxirlarida maydonga kelgan, XX asr boshlarida shakllanib, qisqa muddatda o'zining haddi a'losiga ko'tarilgan, 1917 yilgi bolsheviklar to'ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o'rnatilgunga qadar o'z mavqe va yo'nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir. U ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan edi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, mazkur davrda yuzaga chiqqan na siyosiy, na madaniy biror hodisa yo'qki, uning e'tibor va ta'sir doirasidan chetda qolgan bo'lsin.

Jadidchilik g'oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po'panak bosib, biljirab ketgan o'rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momaguldirak bo'lib, Millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo'yilgani haqida bong urdi. Chaqmoqdek chaqnab, uning bag'ridagi jarohatlarini yoritdi. Obirahmat bo'lib, ona Turkiston ko'ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etdi. Bu g'oyalarning asosida milliy uyg'onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi. Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo'lgan qizg'in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko'tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab etdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar.

Xalq esa, Po'latxon va Dukchi Eshon voqealaridan «Turkiston (Qo'qon) muxtoriyati» mohiyatini anglash va qo'llashgacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Jadidlarimiz siyosiy ishlar – haq-huquq, milliy davlat, hokimiyat masalalari bilan muntazam shug'ullandilar. Ayni paytda, maktab-maorif isloh qilina boshlandi. Milliy matbuot yo'lga qo'yildi. Teatr paydo bo'ldi. Yangi adabiyot shakllandi, bir so'z bilan aytganda, yangi tafakkur maydonga keldi. Bu – millatning o'zligini anglash va mustaqillik mafkurasi edi.

Bu hol, shubhasiz, millatning keyingi 3-4 asrlik tarixiy taraqqiyotida misli ko'rilmagan hol edi. Uning hayotida uzoq turg'unlikdan keyin yangi bosqich boshlanishiga dalolat edi».

Jadidchilik harakatida prof. Begali Qosimov uch yo'lni ajratadi: 1. Rossiyaga tobelikdan zo'rlik bilan qutulish, kuch bilan istiqlol olish (Dukchi Eshon qo'zg'oloni, 1916 yil mardikorlik harakati, bosmachilik). 2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalasida haq-huquq olish, milliy o'ziga xoslikni tiklash (Ismoil Gasprali, Mahmudxo'ja Behbudiy). 3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'murlari, so'ng esa Sho'ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlik ko'rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy)» (Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent, «Ma'naviyat», 2002. – 4, 8-betlar).

farqi va afzalliklarini tushuntirib berdi. Kitobda, shuningdek, oddiydan murakkabga yoki xususiydan umumiyga yuksalish, o'qish bilan yozishni qo'shib olib borish, har bir harfni tovush usuli (usuli savtiya) asosida (ya'ni sadosi bilan, ovoz chiqarib) o'rgatish, quruq yodlatishdan voz kechish, har bir so'z, har bir tabiiy hodisaning va ijtimoiy hayot hodisalarining mazmunini tushuntirish, uy vazifalari hamda olingan bilimlarni tekshirish uchun savollar berish usuli, sinovdan o'tkazish va imtihon qilish usulining mohiyati ochib berilgan. Ismoil Gasprali o'z qo'llanmasida maktabda bolalarga necha yoshdan boshlab ta'lim berish lozimligi (6-7 yoshdan), o'quv yili choraklarida o'quv soatlarining taqsimlanishi va choraklar oralig'idagi ta'tillar, dars jadvali tuzish va darslar oralig'ida tanaffuslar belgilash tartibi, maktabning joylashishi va dars xonalarining o'rni, sinflarni jihozlash va hatto ularni yoritish darajasi to'g'risida ham so'z yuritadi. Bu qo'llanma yangi milliy maktabning ham dasturi, ham modeli edi. XX asr boshida bunday maktablar butun Turonzamin bo'ylab keng tarqaldi va «usuli jadid maktabi» nomi bilan dong taratdi. Har bir shunday maktabda kutubxona tashkil etish odat tusiga aylangan edi.

Usuli jadid maktablari Turon zaminida ilk bor Samarqand va Buxoro shaharlarida paydo bo'ldi. Ularni Ismoil Gaspralining o'zi bu erga 1893 yilgi safari vaqtida mahalliy ziyolilar ko'magida ochgan edi. Uning hamrohi va shogirdi Majid G'anizoda Samarqandda qirq kun qolib, «usuli savtiya»ni (savod chiqarishning yangi tovush usulini) qator o'quvchi va o'qituvchilarga o'rgatdi[546].

Samarqand va Buxorodan keyin usuli jadid maktablari 1898 yilda To'qmoqda, Qo'qonda (Salohiddin domla tashabbusi bilan), 1899 yilda Toshkentda Mannon qori tomonidan va Andijonda Shamsiddin domla ixtimomi bilan ochildi. 1901 yilda Munavvarqori Abdurashidxonov birinchi usuli jadid maktabini ochdi. Bu maktabdagi o'qitish darajasi Munavvarqori Abdurashidxonovning zamondoshlari tomonidan ancha yuksak baholangan. Masalan, jadidchilik ruhidagi «Oyna» jurnalining 1914 yilgi sonlaridan birida mushtariylarning Turkistonda oliy milliy ta'lim istiqboli haqida bergan savoliga jurnal noshiri va bosh muharriri Mahmudxo'ja Behbudiyning javobi berilgan. M.Behbudiy unda Toshkentdagi Munavvarqori Abdurashidxonov maktabi mana shunday oliy tahsilga zamin bo'la olishi mumkinligini qayd etgan.

---

[546]Qarang: Temur Xo'ja Usmonjon o'g'li. Turkistonda jadid maktablari ((Hur Turkiston uchun. Anqara, 1976 yil, 15 may.

1900 yilda Buxoroda Jo'raboy qori degan kishi yangi usulda maktab ochdi. 1903 yilda Mahmudxo'ja Behbudiy ixtimomi bilan Jomboyda va Samarqand atrofidagi Rajab Amin qishlog'ida usuli jadid maktablari ishga tushirildi. Bu maktablarda jadidlar Hoji Muin va Abduqodir Shakuriylar saboq berar edi.

1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi qishlog'ida jadid shoir Siddiqiy Ajziy yangi usulda maktab ochadi. 1928 yilda Siddiqiy Ajziy faoliyatining ilk tadqiqotchilaridan biri Tursunqul mazkur maktab binosini «bu kun Samarqand tumanidagi eng muntazam maktab binolaridan» deb ta'riflagan va Siddiqiyning keyingi paytlargacha shu erda «mudir va muallim» bo'lib turganini aytgan edi. Halvoyi maktabining bu «muntazam binosi» keyingi paytlargacha saqlanib keladi[547]. «Turkistonning turli-tuman joylaridan bu maktabni ko'rgani kela boshladilar. Yorug', bahavo xona. Bo'yra o'rnidagi partalar, darslarning muayyan tartib – programma bilan olib borilishi, umumiy, milliy jug'rofiya, tarix, hisob, handasa, tabiiyot o'qitilishi, xarita, kurrai arz (globus) kabi ko'rgazmali qurollardan keng foydalanilishi ko'pchilikni hayratga soldi. Eng qizig'i, darslarning asosiy qismi rus tilini o'rganishga qaratilgan, mullavachchalar orasida ruslar ham bor bo'lib, ular o'zbeklar va tojiklar bilan yonma-yon o'tirib tahsil olishadi (Samarqand meditsina institutining professori, taniqli medik, marhum G.N.Aleksandrov Siddiqiyning Halvoyidagi maktabidan chiqqanini 70-yillarda «Toshkent oqshomi» sahifalarida iftixor va minnatdorlik bilan yozgan edi)»[548].

1904 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida ma'rifatparvar shoir va pedagog Abdulla Avloniy usuli jadid maktabini tashkil etadi. «Maktabimda er, odamlar, tog'-toshlar, daryo, osmon haqinda suhbatlar o'tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo'lding deb, maktabimni yopdilar», deb yozadi A.Avloniy o'z tarjimai holida. Bu voqea 1908 yilda sodir bo'ldi. Ammo 1909 yildayoq adib Toshkentning Degrez mahallasida yana bir usuli jadid maktabini ochadi. Ko'p o'tmay Mirobod mahallasidagi maktab ham qayta ishga tushiriladi. Va nihoyat, «1915 yilda mahalla xalqi domlamiz «teatrchi bo'ldi, masxaraboz bo'ldi» deb meni maktabdan quvib, Mirobod mahallasidagi boshlang'ich maktabni yopdilar» (A.Avloniy. Tarjimai hol).

---

[547] Bu haqda qarang: Ibrat, Ajziy, So'fizoda. T., «Ma'naviyat», 1999. – 116-b.

[548] Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent, «Ma'naviyat», 2002. – 205-b.

Samarqand adabiy muhitidan chiqqan iste'dodli shoir, fors, turk, rus, ozar tillarida erkin so'zlashish va yozish salohiyatiga ega bo'lgan, Ovrupa madaniyatini mustaqil o'zlashtirgan Hoji Muin 1903 yilda o'z mahallasida usuli jadid maktabi ochgan. Ushbu maktab uchun 1908 yili «Rahnamoi savod» nomi bilan alifbe nashr ettirgan. 1914 yilda u o'z uyida «Tarbiyat» nomi bilan yana bir xususiy usuli jadid maktabi ochgan.

Bir oz vaqt tatar maktabida tarjimon bo'lib ishlagan va shu asnoda muayyan malaka orttirgan Sadriddin Ayniy do'sti Mirza Abdulvohid bilan birga uning hovlisida maktab ochadi. 1909 yilda «Tazhib us-sibiyon» («Bolalar tarbiyasi») degan o'qish kitobini ham yozadi.

Yangicha maktab ta'limi ishiga o'zbek shoiri va dramaturgi Hamza Hakimzoda Niyoziy ham o'z hissasini qo'shdi. O'zining birinchi usuli jadid maktabini u 1910 yili Toshkentdagi Qashqar mahallasida ochdi. 1911–1914 yillarda u Qo'qon va Marg'ilonda yana uch usuli jadid maktabining ishini tashkil etdi. Hamza o'zi tashkil etgan maktablarda dars beribgina qolmasdan, «O'qish kitobi», «Engil adabiyot», «Qiroat kitobi» kabi darsliklar ham yozdi.

1918 yilda Toshkentning Langar mahallasida «Ta'limi alifbe», «Ta'limi soniy» darsliklarining muallifi Rustambek Yusufbekov xotin-qizlar uchun mo'ljallangan dastlabki jadid maktablaridan birini ochdi.

1911 yilda jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo'lib, ularda 4106 bola o'qigan. Toshkentning o'zida 24 ta jadid maktablarida 1740 bola tahsil olgan. 1917 yil boshlarida o'lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o'quvchi bo'lgan1. Bunday maktablarning har birida vaqt o'tishi bilan muayyan miqdordagi kitoblar to'plami shakllanar, u keyinchalik kutubxona fondiga aylanar edi. Adabiy-badiiy, ijtimoiy va tabiiy ilmiy mazmundagi kitoblar bilan bir qatorda, mazkur maktab kutubxonalari o'zagini milliy o'quv adabiyotlari – darsliklar va qo'llanmalar tashkil etardi. Tabiiyki, o'sha davrda o'quv adabiyotlarini hozirgidek davlat homiyligi ostida yozish, tuzish, nashrga tayyorlash va chop etish bo'yicha markazlashtirilgan ilmiy faoliyat haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. Usuli jadid maktablari uchun darsliklar va qo'llanmalar o'sha davrda Turonzamin ziyolilarining eng ilg'or vakillari tomonidan yaratilardi. Turonzamin ziyolilari ilg'or vakillarining o'zagini esa jadidlar tashkil etardi. Yangicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari, shuningdek, fan va ishlab chiqarishning o'sha davrda mavjud barcha tarmoqlari bo'yicha ularning rivojlanishi va holatining zamonaviy darajasini aks

ettiruvchi, maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan ilmiy-ommabop adabiyotlarning yaxlit tizimini yaratish zarurligini jadidlar juda yaxshi his qilar edilar[549].

Toshkentning etuk ziyolilaridan biri, taniqli o'lkashunos va etnograf olim Saidrasul Saidazizov tomonidan 1900 yilda nashr etilgan «Ustodi avval» kitobi yangi avlod darsliklarining birinchisi edi. Garchi bu kitob rus-tuzem maktablari uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, u usuli jadid maktablarida qabul qilingan ta'lim qoidalariga muvofiq yozilgan edi. Bu darslik 17 marta qayta nashr etildi.[550]

Turonzaminda jadidchilik harakatining etakchilaridan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy usuli jadid maktablari uchun oltita darslik yaratdi. Bular: «Risolai asbobi savod» («Savod chiqarish kitobi», 1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish», 1905), «Muntahabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya», 1906), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar xati», 1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909). Bu darsliklar ham bir necha marta qayta nashr etildi.

Turonzamin jadidchilik harakatining yirik vakili Munavvarqori Abdurashidxonov jadid maktablari uchun «Adibi avval» (1907), «Adib us-soniy» (1907), «Usuli hisob», «Tarixi qavm turk», «Tajvid» (1911), «Havoyiji diniya», «Tarixi anbiyo», «Tarixi islomiya» (1912) kabi darslik va xrestomatiyalar, «Qur'on qiroati», «Er yuzi» (1916–17) singari qo'llanmalar tuzib nashr etadi. Bu darsliklar va qo'llanmalar 1907–1917 yillar oralig'ida kamida 2–3, ko'p bilan 9–10 martagacha alohida holda nashr etilgan.

Otashin o'zbek ma'rifatparvari, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy yangi maktablar uchun o'ndan ortiq nomda darslik, qo'llanma va o'qish kitoblari yozib, nashr qildirdi. «Birinchi muallim»

[549]O'sha davr eski maktabida o'qitilgan fanlar va o'quv qo'llanmalarining mazmuni tom ma'nodagi ilmiy maktab ta'limi maqsadlaridan qanchalik uzoq bo'lganini Abdulla Avloniy o'sha davrda muomalada bo'lgan o'quv materialiga baho berish asnosida aytgan quyidagi so'zlardan bilish mumkin: «Bizim Turkiston makotibi islomiyasinda avvaldan oxira qadar ta'lim qilinajak kitoblar «Chor kitob», «Sabotul ojizin», «Fuzuliy», «Navoiy», «Xo'ja Hofiz», «Bedil», «Maslak ul-muttahin»lar kabi she'r kitoblari o'ldig'i jumlaning ma'lumidir. Bu kitoblarning ba'zilari e'tiqod va amaliyoti islomga taalluq mushkul masalalardan iborat o'lg'onlaridin hamda aksarlari forsiy tilda yozilg'onlari uchun yosh bolalarning onlardan istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi» (Qarang: Avloniy A. Adabiyot yoxud milliy she'rlar, ifodai maxsusa. 1-juz, 1-tab'. Ilin toshbosmaxonasi, 1909. – 1-b.).

[550]O'zbekiston SSR tarixi, 1 tom, 2 kitob. T.: O'zSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1956. – 330 b. (rus tilida)

(1911), «Ikkinchi muallim» (birinchi kitobning bevosita davomi, «Alifbe»dan keyin o'qitish uchun mo'ljallangan, 1912), axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar ila ziynatlangan, tarbiya va axloq masalalari birinchi marta XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan kitoblar – «Turkiy guliston yoki axloq» (1913), 4 juzd (qism)li «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» to'plami (1909-15), «Maktab gulistoni» (1915) shular jumlasidan. Avloniy Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo'jaev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jaev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan birgalikda tashkil qilgan «Nashriyot» (1914), «Maktab» (1916) shirkatlari orqali usuli jadid maktablariga yordam tariqasida o'nlab nomdagi o'quv adabiyotlarini nashrga tayyorladi va chop etdi.

Yosh bolalar uchun mo'ljallangan darsliklar va har xil mavzudagi ilmiy-ommabop kitoblar birinchi navbatda maktab kutubxonalari fondini to'ldirar edi.

6.1.3. Umumistifoda jamoa kutubxonalari

XX asrning dastlabki yigirma yilida Turonzamin shaharlarida turli ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, xayriya tashkilotlari hamda noshirlik va kitob savdosi shirkatlari qoshida yangi jadidchilik mazmunidagi adabiyotlarni o'zida jamlagan ko'plab umumistifoda jamoa kutubxonalari tashkil etildi, faoliyat ko'rsatdi, o'z faoliyatini to'xtatdi va qayta ochildi. Umumiy demokratik, hurriyat va ma'rifatparvarlik yo'nalishida faoliyat ko'rsatgan bu kutubxonalarni tashkiliy mansubligiga va ular jamiyatda bajargan alohida vazifalarga qarab uch toifaga ajratish mumkin.

Birinchi toifaga xalqqa ma'lum konstitutsiyaviy-demokratik erkinliklar, shu jumladan, matbuot erkinligi va siyosiy tashkilotlar tuzishga ruxsat bergan chor hukumatining 1905 yil 17 oktyabr Manifesti e'lon qilinganidan keyin Turonzamin shaharlarida tashkil etilgan jamoat tashkilotlari va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning kutubxonalari kiradi. Mazkur Manifest e'lon qilinganidan keyin Turonzamin shaharlarida «Ittihod va taraqqiy», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar», «Jamiyati xayriya», «Tarbiyati atfol», «Turon», «Umid», «Padarkush», «Taraqqiyparvar», «Sho'royi Islomiya» uyushma va jamiyatlari birin-ketin tashkil topdi. Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tayotgan mustamlakachilikka qarshi harakatlar ta'sirida Turonzaminda ham hukmron rus mustamlakachilik tuzumi maqsadlariga zid bo'lgan jadidchilik harakati rivoj topib, ma'rifiy

masalalar bilan birga siyosiy talablarni ham olg'a sura boshladi. Siyosiy tashkilotlar sifatida yuqorida qayd etilgan ba'zi jamiyatlarda sharq tillarida yozilgan ilg'or ruhdagi adabiyotlardan tashkil topgan kichik bo'lsa ham kitob to'plamlari vaqt o'tishi bilan paydo bo'lar edi. To'g'ri, yuqorida zikr etilgan ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar o'z kitob to'plamlarini ommaviy foydalanishga berar edi deb bo'lmaydi. Ammo bu tashkilotlarning ayrimlari milliy va xorijiy bosma adabiyotlar va davriy nashrlarni o'zida jamlagan bir nechta namunaviy yangi umumistifoda jamoa kutubxonalari tashkil etib, milliy kutubxonachilik ishining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi.

Bunday ilk gurunglar qatorida birinchi bo'lib o'tgan asr boshlarida O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridan Kavkaz va Turonzaminda keng tarqala boshlagan va xalqning madaniy-ma'rifiy darajasini ko'tarishga katta ta'sir ko'rsatgan bobiylik va bahoiylik falsafiy-diniy oqimlari namoyandalari guruhlarini qayd etish mumkin. Ular Turonzamin shaharlarida faqat bir nechta gazeta va jurnal, shu jumladan, «Al-Isloh», «Al-Izoh», «Ulug' Turkiston» gazeta va jurnallarini ta'sis etibgina qolmasdan, balki umumistifoda jamoa kutubxonalari va qiroatxonalar ham ochib, xalqning turli qatlamlari orasida ma'rifat tarqatish, ularning madaniy saviyasini o'stirish, siyosiy va milliy ongini uyg'otish ishiga katta hissa qo'shdilar. Birgina Toshkentning o'zida bobiylar va bahoiylar gurunglari tarafidan «Turkiston», «Isloh», «Osiyo» (2006 yilgacha Chorsu bozorida joylashgan viloyat kutubxonasi) va boshqa kutubxonalar binolari qurildi va to'liq jihozlanib, kitoblar va vaqtli matbuot nashrlari bilan to'ldirildi[551].

1913 yilda o'sha davrning bir guruh ilg'or ziyolilari – jadidlar xayr-ehsonlar va o'z mablag'lari hisobidan Toshkentda «Turon» jamiyatini ta'sis etdilar. Jamiyat «Turon» gazetasini nashr eta boshladi. Jamiyat qoshida «Turon» siyosiy klubi hamda «Turon» umumistifoda jamoa kutubxonasi ochildi. Toshkentning Chorsu maydonida kitobxona va qiroatxonaga ega bo'lgan kutubxona binosi qurildi[552]. «Turon» klubi ham shu binoda joylashgan edi. Toshkentdagi mazkur kutubxona muassislari qatorida Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulaxo'ja

[551]Qarang: O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T., Sharq, 2000. – 261-b.

[552]Kutubxona binosi Chorsu maydonining Samarqand darvoza tomonga qarab yo'l ketgan erida joylashgan edi (keyinchalik bu ko'cha «Samarqand darvoza» deb nomlandi). Mazkur kutubxona 1940-yillarning boshida ham «Turon» nomi bilan faoliyat ko'rsatib turgan. (Ma'lumot o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi, maorif a'lochisi Odiljon Oxunjonovning ushbu satrlar muallifiga og'zaki hikoyasidan keltirildi.)

Asadullaxo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Komilbek Norbekov, Abdulla Avloniy, Muhammadxon Podshoxo'jaev, Kattaxo'ja Boboxo'jaev, Bashrullaxon Asadullaxo'jaev, Nizomiddin Asomiddinxo'jaev, Karimbek Norbekov, Oxunjon Abdulrahimov kabi jadidchilik harakatining atoqli namoyandalarini tilga olish mumkin.

Umumistifoda jamoa kutubxonalarining ikkinchi toifasini Kitob uylari qoshidagi kutubxonalar tashkil etadi. Turonzamin shaharlarida o'tgan asrning 10-yillarida faoliyat ko'rsatgan paychilik asosidagi nashriyot-kutubxona-kitob savdosi shirkatlari Kitob uylari deb atalar edi. Nashriyot, kitob savdosi muassasasi, kitob do'koni va umumistifoda jamoa kutubxonasi funktsiyalarining bir korxonada mujassamlashishi jahon kitobat madaniyatida juda kam uchraydigan hodisadir. Turonzamin kitobat ishining bu o'ziga xos xususiyatini haqli ravishda o'zbek ma'rifatparvarlari – jadidlar kashfiyoti, jahon kitob menejmenti va marketingining rivojlanishiga ular tomonidan qo'shilgan munosib hissa deb aytish mumkin.

Bunday shirkatlarning tashkilotchilari va paychilari sifatida, qoida tariqasida, milliy ziyolilarning ilg'or vakillari ishtirok etardilar. A'zolarning paylari, ko'p sonli xayr-ehsonlar va olinuvchi daromad hisobiga faoliyat ko'rsatuvchi Kitob uylari o'z mablag'lariga kitoblar nashr etar, ularni sotish va tarqatish bilan shug'ullanar, o'z paychilari orqali muayyan kitobning buyurtmachilari va noshirlari sifatida ishtirok etar (odatda noshir nomi kitobning titul varag'ida ko'rsatilardi), xususiy kitob do'konlari, pullik umumistifoda kutubxonalar va qiroatxonalar ochar, kitob qo'lyozmalarini toshbosma nashrga tayyorlash, ularni tahrir qilish va tuzatish uchun mo'ljallangan binolar qurar edilar.

Ma'rifatparvarlik bilan bir qatorda Kitob uyi targ'ibot va tashviqot vazifalarini ham bajarar edi. Noshirchilik ishidan olinadigan foyda hisobiga mavjud bo'la turib, Kitob uylari ayrim nashrlarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlashni keyinchalik sotish va o'tkazish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan, o'z paychilari orqali u yoki bu kitobning noshiri yoki buyurtmachisi sifatida ish ko'rgan, o'z kitob do'konlari va pullik kutubxonalarini ochib, ularda o'qish, qo'lyozmalarni ko'chirish, ularni tahrir qilish, kitoblarni ta'mirlash uchun xonalar jihozlagan edi.

Bevosita toshbosma kitoblarning o'zidagi titul varaqlarida, nashriyot so'zboshi va so'ngso'zlarida, shuningdek, o'sha yillardagi davriy nashrlarda joylashtirilgan noshirchilik va kitob savdosi reklama

e'lonlarining manbashunoslik tahlili va tadqiqoti Kitob uylarining noshirchilik, kutubxonachilik va kitobfurushlik faoliyati maydoni, maqsad va vazifalari haqida tasavvur beradi. Turkiston kitobat ishi tarixida Kitob uylari tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi 1910—1917 yillardagi qisqa tarixiy pallaga to'g'ri keladi. Bu davrda Toshkent shahrida «Maktab», «Madaniyat», «Xayriya», «Turkestanskoe tovarihestvo pechatnogo dela» (Turkiston matbaachilik shirkati), «Turon», Samarqand shahrida «Turkiston kutubxonasi». Farg'ona vodiysining an'anaviy madaniy va adabiy markazi bo'lmish Qo'qon shahrida esa «Ma'rifat», «Madora» (Kuch-quvvat), «G'ayrat», «Birlik» Kitob uylari noshirchilik, kitobfurushlik va kutubxonachilik faoliyati bilan shug'ullangan edi.

«Maktab» shirkati ishida uning tashkilotchilari, o'sha kezlarda taniqli ma'rifatparvar bo'lgan Abdulla Avloniy, badavlat metsenatlar — xalqni ma'rifatli qilish tarafdori bo'lgan **Nizomiddin qori Mulla Husayn o'g'li, Rustambek Yusufboev, Toshxo'ja Xo'jaboev, Saidahmad Saidazimboy o'g'li, Muhammadxon Poshshoxo'ja o'g'li, Abdusalom Abdurahmon o'g'li, Nizomiddin Isomiddin o'g'li, Habibulla Solihboy o'g'li, Yunus Muhammad Tuyoqboy o'g'li, Shokirjon Rahimjon o'g'li** kabilar faol qatnashdilar.

«Ma'rifat», «Birlik», «Madora» va «G'ayrat» shirkatlari ham kitob noshirligi faoliyati, kitob savdosi, kutubxonachilik ishi bilan shug'ullanuvchi Kitob uylari bo'lgan. Bu shirkatlar qisqa tarixiy davr – 1912–1918 yillarda faoliyat ko'rsatdi. Ularning barchasi Farg'ona vodiysi madaniy va adabiy hayotining an'anaviy markazi - Qo'qon shahrida ochildi va ish olib bordi.

Farg'ona vodiysida noshirlik faoliyati, kitob savdosi va kutubxonachilik ishi bilan shug'ullanuvchi birinchi Kitob uyi – «Ma'rifat» shirkati adabiyot bilimdoni, kitobat madaniyati va ma'rifatdagi yangilik tarafdori, noshir R.Rasulzoda tashabbusi bilan 1912 yilda ochildi. Ikkinchi Kitob uyi – «Madora» 1914 yilda Qo'qonning Beshariq mahallasida, taniqli o'zbek ma'rifatchisi, shoiri va publitsisti Ibrohim Davron tomonidan tashkil etildi. Hamza Hakimzoda Niyoziy qisqa vaqt ichida birvarakay ikkita – «G'ayrat» (1915) va «Birlik» (1916) kitob uylariga asos soldi. U 1917 yili «Hurriyat» jurnalida bu haqda shunday deb yozadi: «...1915 yil men majlis chaqirdim. Unda biz aholi orasida kitob tarqatish maqsadida «G'ayrat» nomli kutubxona, qiroatxona va nashriyot uyi tashkil etishga

qaror qildik. Shu paytgacha men kitoblarimni o'z pulimga chop etib keldim, ular hajman uncha katta emas edi. Endi men o'zimning boshqa kitoblarimni mana shu Kitob uyi nomidan nashr etmoqchi bo'ldim».

«Turkiston viloyatining gazeti» 1915 yil 5 iyun sonida Hamzaning «Yangi saodat» romani haqida quyidagi xabarni keltiradi: «Yangi saodat» romanining e'lon qilinishi bizni behad mamnun etdi. Xalqqa ma'rifat tarqatish g'oyasini targ'ib qiluvchi bu roman Turkiston tilida yozilgan bo'lib, 46 sahifadan iboratdir. Bu roman muallifi janob Hamza Hakimzoda Niyoziy, uning noshiri - Qo'qondagi «Madora» Kitob uyi. Roman bir nusxasining narxi 25 tiyin».

Mirza Xo'qandiy «Risolayi iymon» (Iymon haqida risola) 1914—1915 yillarda «Ma'rifat» Kitob uyi yordami bilan muallifning o'zi tomonidan nashr etilgan edi.

Ibrohim Davron tomonidan tuzilgan va nashr etilgan «Ash'ori nisvon» (Xotin-qizlar she'rlari) kitobi so'ngida «Madora» Kitob uyi tomonidan nashrga tayyorlangan kitoblar ro'yxati berilgan. «Birlik» Kitob uyi esa Shokir al-Muxtoriyning «Kim qozi bo'lsin?» kitobi noshiri bo'lgan edi (1917).

Kitob uylari faoliyatiga ko'plab misollar keltirish mumkin. O'sha davrda nashr etilgan kitoblarning titul varaqlari, nashriyotlar va kitob savdosi muassasalari tomonidan berilgan reklama e'lonlarini, nashr etilgan va sotishga tayyorlangan kitoblarning o'sha yillardagi davriy nashrlarda va kitoblarning o'zida keltirilgan ro'yxatlarini, shuningdek, kutubxonalarning fondlaridagi kitoblarni manbashunoslik tahlilidan o'tkazish va qiyosiy-tarixiy o'rganish mazkur Kitob uylari nisbatan qisqa vaqt faoliyat ko'rsatganiga qaramay, hammasi bo'lib uch yuzdan ortiq nomdagi kitoblarni nashr etganidan, ularning qoshidagi kutubxonalar fondlarida esa minglab nusxada kitoblar jamlanganidan dalolat beradi.

Kitob noshirligi va savdosi, ayrim hollarda esa – kutubxonalar va qiroatxonalar tashkil etish bilan o'sha davrdagi boshqa shirkatlar ham shug'ullangan. Ammo faoliyat maqsadlarida mavjud ayrim tafovutlar ularni Kitob uylari qatoriga qo'shish imkonini bermaydi. Bunday korxonalar orasida «Nashriyot» (Toshkent, 1914), «Maktab» (Toshkent, 1916), «Barakat» (Buxoro, 1914), «Zarafshon» (Samarqand), «Nashri maorif» (Toshkent) shirkatlarini qayd etish mumkin. Abdulla Avloniy toshkentlik boshqa jadidlar bilan hamkorlikda («Maktab» shirkati qatori) tashkil etgan «Nashriyot» shirkatining ta'sis shartnomasida shirkatning maqsadi

«Turkiston o'lkasidagi musulmon aholi o'rtasida umumovrupa madaniyati va ma'rifatini gazetalar, jurnallar, kitoblar va ularning savdosi orqali yoyish» ekanligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tilgan[553]. Samarqanddagi «Zarafshon» shirkati ham kitoblar nashr etish, kitob savdosini tashkil etish, kutubxonalar va qiroatxonalar ochish orqali aholi o'rtasida ma'rifat urug'ini sochishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Choroxrankasi xufiya xodimining 1914 yil 10 avgustdagi ma'lumotida Buxorodagi «Barakat» shirkati faoliyatining g'oyaviy, moliyaviy va tashkiliy tomonlari to'g'risida so'z yuritiladi: «Konstantinopolda (Istambulda – E.O.) yashab, ma'lumot olgan buxorolik ba'zi bir amaldorlar va obro'li savdogarlar tomonidan musulmonlarni birlashtirish va tub aholi o'rtasida madaniyatni ko'tarish maqsadida «Barakat» manufaktura shirkati niqobi ostida taraqqiyparvar musulmonlar uyushmasi tuzildi. Uyushma muassislari «Barakat» shirkatini tuzishga dastlab 15 ming rublga yaqin pul to'pladilar, keyinchalik ular bu sarmoyani bir necha yuz ming rublga etkazish niyatidalar... Uyushma Buxoro amirligining turli yirik markazlarida o'z bo'limlarini ochishni mo'ljallamoqda... Shirkatning ichki tuzilishi va boshqaruvini ovrupacha yo'sinda tashkil etish nazarda tutilgan. «Barakat» shirkatining asosiy a'zolari: Fazliddin Mahzum, Mirza Izzatulla Afandi va Mirza Abdulvohid...»[554].

Umumistifoda jamoa kutubxonalarining uchinchi toifasiga alohida shaxslarning o'z mablag'lari hisobidan yoki jamoatchilik tomonidan to'plangan xayr-ehsonlarga tashkil etilgan kutubxonalar kiradi. Bu toifaga mansub kutubxonalar uncha ko'p bo'lmasa-da, ularning ayrimlari o'z davrining madaniy hayotida chuqur iz qoldirdi.

Jadidchilik harakatining dastlabki davrida - 1907 yilda Samarqandda Turonzamin jadidlarining rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy boshchiligidagi mahalliy ziyolilarning tashabbusi bilan shaharliklarning xayr-ehsonlariga Registon maydonidagi Mirzo Ulug'bek madrasasining binosida katta qiroatxonaga ega umumistifoda jamoa kutubxonasi ochilgan edi. Mazkur kutubxona kitob fondining mazmuni haqida «Turkestanskie vedomosti» gazetasida e'lon qilingan maqolaga qarab tasavvur hosil qilish

---

[553] Qarang: Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent, «Ma'naviyat», 2002. – 252-b.

[554] Iqtibos quyidagi maqoladan olindi: Abdullaev R.M. Integratsionno'e protsesso' v musulmanskom mire i turkestanskie djadido' G'G' Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T.: Universitet, 1999. – 77-78-betlar.

mumkin[555]. Unda aytilishicha, kutubxona faoliyatining dastlabki oylarida uning fondi bir necha ming jild kitobdan iborat bo'lgan. Shularning 200 tasidan ko'prog'ini Qur'oni karim, tafsirlar va hadislarning asosan shaxsiy kutubxonalardan hadya qilingan qo'lyozma va bosma nashrlari tashkil qilgan. Kutubxona fondining qolgan qismi dunyoviy mazmundagi nashrlar – tarix, geografiya, tabiiy va ijtimoiy fanlarga oid kitoblardan, Turonzamin, Rossiya va chet elda chiqadigan musulmoncha davriy nashrlardan tashkil topgan. Kutubxonadan turkiy, fors, arab, rus, frantsuz va nemis tillaridagi kitoblar va davriy nashrlar o'rin olgan. Mazkur kutubxona sho'ro hokimiyatining dastlabki yillariga qadar faoliyat ko'rsatdi.

Turonzaminning yirik shoiri. Andijonda jadidchilik harakatiga asos solgan Abdulhamid Cho'lpon o'z yurtida tashkil qilgan «Turon kutubxonasi» ham ancha uzoq vaqt faoliyat ko'rsatdi.

6.1.4. Mahmudxo'ja Behbudiy va turkiston kitobat madaniyati

Turonzamindagi jadidchilik harakatining etakchilaridan biri, yangi davr milliy madaniyatining asoschisi, atoqli dramaturg, publitsist, din va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy milliy kutubxonachilik ishi, noshirligi va kitob savdosining rivojlanishiga, oddiy xalq o'rtasida ilmiy bilimlarni tarqatish ishiga ulkan hissa qo'shdi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning siymosi va faoliyatida yuksak darajada bilimdonlik, xalqqa ma'rifat va ziyo tarqatish uchun o'zining bor kuchi va hayotini baxshida etishga intilish mujassamlashgan. Behbudiy shunchaki ma'rifatchilikning nazariyotchisi va targ'ibotchisi emas, balki butun Turonzaminda axborot va bilimlar tarqatishning izchil tizimini yaratgan shaxs edi. Uning birgina publitsistik merosi har xil hisob-kitoblarga ko'ra 200 tadan 300 tagacha maqolani o'z ichiga oladi. 1913 yil apreldan Behbudiy «Samarqand» gazetasini chiqara boshlaydi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida, haftada ikki marta chop etilar edi. «Samarqand» dastlab ikki sahifadan iborat bo'lsa, keyinchalik to'rt sahifada chiqa boshladi. Gazetaning 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to'xtadi. Shu yil 20 avgustdan Behbudiy «Oyna» jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan o'zbek tilida bo'lib, unda she'rlar, maqolalar (forscha), e'lonlar (ruscha) ham berib borildi. «Oyna» jurnali 1915 yil 15 iyungacha nashr etildi va 68-sonida o'z faoliyatini to'xtatdi. Jurnal tahririyati uning bosh muharriri M.Behbudiyning Yangi shahardagi uyida

[555] Qarang: Turkestanskie vedomosti, 1908. №146.

joylashgan edi. Jurnal nafaqat butun Turonzamin bo'ylab, balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi.

Shu yillarda Mahmudxo'ja Behbudiyning noshirlik, kitobat ishi tashkilotchisi va kitob marketingi bilimdoni sifatidagi qobiliyati ham to'la darajada namoyon bo'ldi. Chunonchi, 1913 yilda u o'z xususiy nashriyotini ochadi va uni otasining ismi bilan «Nashriyoti Behbudiya» deb nomlaydi. Ayni vaqtda Behbudiy kitob do'konlari tarmog'ini tashkil etish bo'yicha katta ish olib bordi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Qo'qon va Namanganda kitob do'konlari ochdi. Samarqandda kitob do'koni Behbudiyning o'z uyida joylashgan edi.

Behbudiy tomonidan Samarqandda umumistifoda jamoa kutubxonasining tashkil etilishi ham Turonzaminning madaniy hayotida jiddiy hodisa bo'ldi. Kutubxona Samarqandning ruslar yashaydigan qismida joylashgan bo'lib, «Kutubxonai Behbudiya» deb atalar edi. Kitobxonadan tashqari bu erda keng va shinam qiroatxona ham mavjud edi. Behbudiyning nevarasi - Nodim Behbudiyning xotirlashicha, kitob yoki gazeta-jurnallar o'qish uchun qiroatxonaga tashrif buyurgan har bir kishiga M.Behbudiyning shaxsiy ko'rsatmasiga binoan qaynoq shakarli choy tortilgan. M.Behbudiy har qanday aqliy, ilmiy mehnat chog'ida qand miya va xotiraga quvvat bo'ladi deb hisoblagan. Bu Mahmudxo'ja Behbudiy naqadar dilkash, fidoyi inson bo'lganini, har qanday aqliy faoliyatga hamda bilimga intiluvchi odamlarga qanchalik hurmat va e'tibor bilan qaraganini yana bir karra isbotlaydi.

«Kutubxonai Behbudiya» kutubxona funktsiyalari bilan bir qatorda, kitob savdosi korxonasi vazifalarini ham bajarar edi. Soddaroq qilib aytganda, bu yangi tipdagi muassasa – kutubxona-do'kon edi. Mazkur muassasaga tashrif buyurgan har bir kishi o'ziga ma'qul bo'lgan istalgan kitobni kutubxonaning alohida fondidan pulga sotib olishi mumkin edi. Bu fondda jamlangan kitoblarning bir qismini Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining 1899–1900 yillardagi va 1914 yilgi haj safarlaridan keltirgan, qolgan kitoblar esa «Kutubxonai Behbudiya» manziliga Turonzaminning turli burchaklaridan, Rossiya imperiyasining Peterburg, Qozon, Boqchasaroy, Boku, Orenburg shaharlaridan, shuningdek, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Hindiston, Misr, Livandan yuborilgan edi[556]. O'sha davrda turli mamlakatlardan bunday kitob «eksporti»ni uyushtirish oson ish emasdi. Bu kishidan omilkorlikni, tadbirkorlikni, ishbilarmonlik uquvini,

[556]Bu haqda batafsilroq qarang: Behbudiy M. Kitobatul atfol. Samarqand, 1914.

kitob marketingi va menejmenti sohasida chuqur bilimlarni, keng xalqaro aloqalar va katta moddiy imkoniyatlarni talab etardi.

O'zining kimligini oshkor etishni xohlamagan Behbudiy zamondoshi guvohlik berishicha, Behbudiyning o'limidan keyin u yaratgan «Kutubxonai Behbudiya» unda jamlangan noyob kitoblar, kitobshunoslik va kutubxonashunoslik manbalari miqdoriga ko'ra Turonzamindagi eng katta kutubxona ekanligi barchaga ayon bo'lgan[557]. Бу ерда Қуръони каримнинг нар хил нашрларини, турли надис то'пламларини, фан ва билимнинг турли тармоқларига оид дунёвий мазмундаги туркий, форс, турк, араб, рус, немис, француз, инглиз тилларидаги китобларни харид қилиш мумкин бо'лган. Китобларнинг нархлари бу ерда бозордаги нархлардан анча арзон бо'лган.

«Kutubxonai Behbudiya» kitob fondining o'zagi va kitob do'koni assortimenti haqida mufassal ma'lumotni M.Behbudiy tomonidan nashr etilgan «Oyna» jurnali sahifalaridan, aniqrog'i, jurnal sonlari muqovalarining ichki va tashqi tomonida berilgan e'lonlardan olish mumkin. Jurnal muqovalarida vaqti-vaqti bilan Behbudiy kitob do'konida sotuvga qo'yilgan, binobarin, kutubxona fondida mavjud bo'lgan kitoblarning ro'yxatlari va e'lonlar berib borilardi. Mazkur ro'yxatlarni tahlil qilish Behbudiy kutubxonasi va kitob savdosi fondining tematik va tipologik tuzilishi haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bu erda tarix (umumiy tarix, jahon tarixi, alohida mintaqalar va mamlakatlar tarixi, islomgacha bo'lgan davrdagi sivilizatsiyalar tarixi, musulmon madaniyati tarixi), geografiya (fizik geografiya, jahon geografiyasi, Rossiya geografiyasi, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharq mamlakatlari geografiyasi)ga oid kitoblarga, adabiy-badiiy kitoblarga (turkiy va fors tillaridagi to'plamlarda jamlangan mumtoz va hozirgi zamon she'riyati va nasri namunalariga), dramaturgiya – pesalar, sahna asarlarining nashr etilgan matnlariga (jurnalda ular «tiatru risolasi» deb nomlangan), iqtisodiyot, joriy jahon siyosati va mintaqaviy siyosat, jamiyatshunoslikka oid nashrlarga, umumjahon madaniyati haqida ma'lumot beruvchi (asosan Evropa tillaridan tarjima qilingan), Misr, Livan, Hindiston, Rossiya, Turkiya, Yunoniston, Turkiston, Evropa tabiati, shahar va qishloqlari manzaralarining rangli rasmlari, imoratlari, ko'chalari va kishilarining suratlari, mazkur mamlakatlarning hamda Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Evroosiyo kabi qit'alarning jug'rofiy xaritalari va atlaslari jamlangan kitoblarga duch kelish mumkin.

[557] Qarang: M.F. Maxmudxodja Bexbudiy G`G` Nauka i prosvehenie, 1922, №1.

Tabiiy va ijtimoiy fan sohalari majmuiga oid monografiyalar va ilmiy-ommabop nashrlar (jurnalda ular arabchada «fununi mutanave'» deb nomlangan) ro'yxati alohida ajratilgan. Bu ro'yxatga tibbiyot va fiziologiyaga oid kitoblar, ko'rgazmali qo'llanmalar, odamning asab, oshqozon, qon aylanish sistemalari, suyak tuzilishi, oftalmologiyasi jadval va atlaslari, kimyo, tabiatshunoslik, kosmografiya, zoologiya, botanika, madaniyatshunoslik, turli xalqlar etnografiyasiga oid kitoblar, har xil ilmiy kashfiyotlar (masalan, fotografiya, aviatsiya, sinematograf, avtomobil) haqidagi, O'rol va Oltoy xalqlarining tillari haqidagi, «umum va funun»ga – fanga va bilim sohalariga turkiy xalqlar qo'shgan hissa haqidagi risolalar kiritilgan. Turonzaminlik mualliflar usuli jadid maktablari uchun maxsus yaratgan alifbe va darsliklar, musulmonchilik urf-odatlari bo'yicha amaliy qo'llanmalar, din, e'tiqod, islom haqidagi risolalar, tahorat qilish, namoz o'qish, ro'za tutish, haj qilish qoidalari to'g'risida so'z yuritilgan kitoblarning ro'yxatlari ham jurnalda muttasil berib borilgan.

«Oyna» jurnalining 1913–1915 yillarda chiqqan 68 sonining har birida «Kutubxonai Behbudiya»da o'qishga tavsiya etilgan va kutubxona qoshidagi kitob do'konida sotilgan adabiyotlar ro'yxatida har safar 70–80 nomdagi kitob va boshqa bosma nashrlar e'lon qilinar edi. Agar Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan boshqa shaharlarda ochilgan kitob do'konlari kitoblarni Samarqand shahridan markazlashtirilgan tartibda olib turganini hisobga olsak, Behbudiyga har yoqdan qancha ko'p kitoblar yuborilib turilganligi, shuningdek, Behbudiy tomonidan butun Turonzamin bo'ylab tarqatilgan adabiyotlar ko'lami haqida tasavvur hosil qilishimiz qiyin emas. Zotan, har bir nomdagi bosma mahsuloti Behbudiyga o'nlab, ba'zan esa hatto yuzlab nusxalarda yuborilar edi.

«Kutubxonai Behbudiya» fondi va kitob do'konidagi adabiyotlarning qariyb uchdan ikki qismini tarixga oid kitoblar tashkil etganligi tarixni bilishga Behbudiy qanchalik katta e'tibor berganligini ko'rsatadi. Oxirgi XX asr voqealari Behbudiy «Moziy – istiqbolning tarozisidir» deganida naqadar haq ekanligini tasdiqladi. Mana, «Oyna» jurnalining 43 va 47-sonlarida keltirilgan tarixga oid adabiyotlarning qisqacha ro'yxati: «Buyuk umumiy tarix», 3 jildli «Madaniyat tarixi», «Tarixiy istiqbol», «Islom tarixi», «Islom olami va Ovrupa XX asrda», «Turkiy xalqlar tarixi», «Shohlarning g'alabalar kitobi», «Usmoniylar saltanati ko'zgusi», «Islom madaniyati tarixi», «Amir Temur», «Eron tarixi», «Buyuk Eron tarixi», «Baxtiyor tarixi», «Amerikaning kashf etilishi tarixi».

Quyida Mahmudxo'ja Behbudiy nashr etgan «Oyna» jurnalida

berilgan e'lonlardan ayrim namunalar keltirilgan.

«Toshkentda «Maktab» kutubxonasi... Kutubxonamizda maktab kitoblari ham maktablarga keraklik narsalar ko'blab mavjuddur. Ko'blab oluvchilarga arzon baho birlan sotiladur. So'rovchilarga har qaysi tarafga yuborilur. Yo'l xarojoti oluvchidan bo'lib... Murojaat uchun unvon: Staro'y Tashkent, knijnaya torgovlya «Maktab'».

Behbudiya kitobxonasi. Ushbu nom ila Samarqandda «Oyna» majallasi idorasida bir nav' kutubxona ochilib, har nav' qadim va jadid, turkiy, arabiy, forsiy kitoblar, diniy, fanniy, lug'aviy, adabiy, ijtimoiy, tibbiy, tarixiy, katta va kichik kitoblar va har nav' «Solnoma»lardan iborat mavjuddur. Yana har nav' xarita, atlas va kurrai mustahlar hamda tashrixiy va tabiiy xaritalar va har nav' munavvar majallalar va olami islomning mashhur manzaralik kitob va xaritalari mavjuddurki, mazkur kitoblarni ismi va narxi «Oyna» majallasida orqasida yozilgandur. Kitobxonada Hind, Istambul, Beyrut, Misr, Rusiya va Turkistonda bosilgan kitoblardan topilur. Bir miqdor suporish qilganlarga pochta ila yuborilur.

Mahmudxo'ja Behbudiy kitobxonasinda va «Oyna» idorasinda sotilaturgan forsiy kitoblarning bir qismi: Shohnoma, Nizomiy (kulliyot), Bedil (kulliyot), Shayboniy (kulliyot), Masnaviy Sharif, Masnaviy va kashful-lug'at, Mantiq-ut-tayr, Xat va xattot, Tarixi Eron, Rubo'iyoti mavlono Umar Xayyom, Zaboni forsi, Tarzi navini nasihoti al-hukamo» (jami qirqta nom keltirilgan).

Shunday qilib, XX asrning dastlabki yigirma yili mobaynida jadidlarning ma'rifatparvarlik mazmunidagi yangicha adabiyotlarni o'zida jamlagan umumistifoda jamoa kutubxonalari Turonzaminning deyarli har bir yirik shaharida faoliyat ko'rsatdi. Bu holat O'zbekiston yangi tarixining eng so'nggi nashrida ham qayd etiladi: «Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Andijondagi jadid tashkilotlari, bir tomondan, istiqlol harakatlarini olib bordilar, ikkinchi tomondan esa minglarcha jildlik asarlarga ega bo'lgan kutubxonalar tashkil etdilar»[558].

6.1.5. Shaxsiy kutubxonalar

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning dastlabki yigirma yilida turonzaminlik boylar, zodagonlar va nufuzli amaldorlarga, aqliy mehnat vakillari va ijodiy kasb egalariga, oddiy kitob muxlislari – ko'p sonli savodli

[558] Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. T.: Sharq, 2000. – 267-b.

hunarmandlar, olimlar, mudarrislar, toliblar, masjid imom xatiblari, tabiblar, dorishunoslar, usuli qadim va usuli jadid maktablarining o'qituvchilari va boshqalarga tegishli bo'lgan shaxsiy kutubxonalar o'z kitob fondlarining tarkibiga ko'ra oldingi davr – o'rta asrlardagi shaxsiy kutubxonalardan deyarli farq qilmas edi. Yangi davrdagi shaxsiy kutubxonalarning katta qismini osori atiqaga aylanib borayotgan o'rta asrlar qo'lyozma kitoblari tashkil etardi. Bunga ko'p jihatdan milliy matbaachilikning rivojlanishi, toshbosma usulda kitob chop etish ishining tarqalishi va kitob ko'paytirishning qo'lyozma usuli asta-sekin yo'qolib borishiga imkoniyat yaratdi. Qo'lyozma kitoblar yangi davrda, bir tomondan, o'z muxlisini, o'rta asrlar fani va adabiyoti, yuksak darajada badiiy bezatilgan qo'lyozma kitob bilimdonini yo'qotib borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular jadidlarning yangi, dunyoviy mazmundagi bosma kitoblari bilan keskin raqobatga dosh berolmadi. Rossiya va Sharq mamlakatlarida chop etilgan turkiy va fors tillaridagi bosma kitoblarning Turonzaminga ko'p miqdorda eksport qilinishi ham bunda muhim omil bo'ldi. Natijada milliy tillardagi bosma va toshbosma kitoblar shaxsiy kutubxonalardan tobora ko'proq o'rin ola boshladi. Tez orada, 1920-yillarning oxiridan boshlab, Turonzamin xalqining yozuvi arab alifbesidan lotin alifbesiga, 1940 yilda esa – kirillchaga o'tkazilishi munosabati bilan toshbosma va eski bosma kitoblar ham osori atiqaga aylanadi va jahon kitobxonalari va muzeylarida qadimgi Sharq qo'lyozmalari qatoridan o'rin oladi.

Mashhur sharqshunos olim, Turonzamin kitobat madaniyatining bilimdoni A.A.Semyonov XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi shaxsiy kutubxonalar haqida shunday deb yozadi: «Qo'lyozmalarni yig'uvchilar va xarid qiluvchilar eng avvalo mahalliy ixlosmandlar – ruhoniylar, ma'muriyat xodimlari, savdogarlar, ba'zan sayyoh sharqshunos olimlar, u yoki bu chet el kitob kollektsiyachisining gumashta – agenti kabilar bo'lishardi... Shaxsiy kutubxonalarning taqdiri umuman achinarli. Kitob ixlosmandi o'lsa, uning mulki shariatga muvofiq uning vorislari o'rtasida taqsimlanardi. Bu holda ko'p jildlik kitobning butunligi hech kimni qayg'urtirmasdi. Bir kitobning jildlari har xil kishilarga tegishi mumkin edi. Merosning qismlari sotish uchun bozorga chiqarilardi. Kitob savdogarlari ularni sotishar, bozor kasod bo'lsa arzimas narxlarda muqovasozlarga muqova qilish uchun pullashardi. Shunday bir misol bor. O'rta asrlarning Ibn Miskavayx qalamiga mansub XII asrda bir xattot qo'li bilan, bir xil o'lchamda kesilgan qog'ozga ko'chirilgan ko'p tomlik jahon

tarixiga oid asar – «Tajorib ul-Ummom» («Xalqlarning – ommaning – sinovlari») kitobi shu darajada parokanda bo'lganki, uning III va VI jildlari bugungi kunda Toshkentda, V jildi esa Qozon shahrida saqlanmoqda. Qolgan I–II jildlari hanuz topilgan emas»[559].

Ibn Miskavayxning topilgan kitoblarining har biriga shayx Xoja Muhammad Porsoning nomi zikr etilgan rombsimon muhr – tasarruf belgisi (ekslibris) qo'yilgan. Qozon kutubxonasidagi nusxasida esa tarixchi Yaqutning shaxsiy qaydi mavjud[560].

1913-1914 yillarda «mahalliy qo'lyozma majmualari haqida ma'lumotlar» yig'ish maqsadi bilan ikki marta Turkistonda bo'lgan professor Ahmad Zaki Validiy XX asrning boshlarida hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, Farg'ona vodiysi, Toshkent, Buxoro kabilarda xususiy kutubxonalar bo'lganligi haqida xabar beradi[561]. U o'zining Farg'ona vodiysiga birinchi sayohati haqida yozgan hisobotida qo'qonlik Yunusjon Dadamuhamedov, Andijonda Otabek, O'shda Qudratulla Toirboev va Fozilbekning, Namangan, Marg'ilonda yana bir necha kishining xususiy kitob majmualari bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. A.Z.Validiy Namanganda Xoja Eshon Lolaresh kutubxonasida turkiy adabiyotning buyuk yodgorligi Yusuf Bolasog'uniyning «Qutadg'u bilig» asarining noyob nusxasini topgan[562] (bu asar 1069 yili yozib tugatilgan). A.Z.Validiy o'zining ikkinchi sayohatida Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, G'uzor, Boysun, Devon, Sariosiyo, Qoratog' kabi joylarda bo'lib, bu haqda hisobot yozgan. Unda mulla Xizir To'qsoba, G'uzordagi Bek madrasasi

[559]Semyonov A.A. Sredneaziatskie rukopisno'e fondo' i vajnost ix izucheniya G'G' Materialo' I Vsesoyuznoy nauchnoy konferentsii vostokovedov v Tashkente. T.: 1958. – S. 914.

[560]Tarixchi Yaqut Hamaviy Marvda yashagan davrida Ibn Miskavayxning mana shu kitobini o'qigan va o'z asarlari uchun undan ko'chirmalar olgan bo'lsa kerak. Yaqut Hamaviy Marvdan 1219 yilda, bu erga mo'g'ul istilochilari bostirib kelishidan olti oy oldin jo'nab ketgan. Besh jildli «Tajorib ul-Ummom» asari Marvning ko'p sonli kutubxonalaridan birining jamg'armasida saqlangan va keyinchalik Xoja Muhammad Porso vaqf kutubxonasiga uning ajdodlari, o'zi yokivorislari tomonidan sotib olingan bo'lsa kerak. Zotan, mazkur vaqf kutubxonasi XII asrda tashkil etilgan va XIX asr o'rtalarigacha, ya'ni 700 yildan ziyod faoliyat ko'rsatgan.

[561]Validov A.Z. O sobraniyax rukopisey v Buxarskom xanstve (Otchet o komandirovke) G'G' Zapiski Vostochnogo otdeleniya Russkogo Arxeologicheskogo obhestva. T. XXIII. Petrograd, 1916. – S. 245.

[562]Validov A.Z. Vostochno'e rukopisi v Ferganskoy oblasti G'G' Zapiski Vostochnogo otdeleniya Russkogo Arxeologicheskogo obhestva. T. XXII. Petrograd, 1915. – S. 303-320.

qoshida. mulla Najmiddin va Karimboy (Qarshida), Buxoroda qozikalonga tegishli va boshqa o'n to'rt kutubxona haqida xabar beradi[563].

O'sha davrda qozikalon Burhoniddinning otasi qozikalon Sadriddindan qolgan kitoblar to'plami Buxoroda mashhur bo'lgan. Unda asosan tarixiy adabiyotlar: Chingizxon va uning avlodlari tarixi, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Mang'itlar tarixiga oid asarlar jamlangan. Buxoroda taniqli kitob muxlisi Muhammad Vafo va mashhur kitobfurush Mirsolih Mirkaboev ham noyob qo'lyozma asarlardan iborat to'plamlarga ega bo'lganlar.

Turkiston o'lkasining yuzlab noma'lum qolgan kutubxonalari orasida bir xususiy kutubxona haqida sharqshunos va arxeolog V.L.Vyatkinning V.V.Bartoldga yozgan xatidan bizga ma'lum. «Men tasodifan bilib qoldimki, - deb yozadi V.L.Vyatkin, - ikki yilcha burun Mirzo Solih ko'plab kitob, shu jumladan, Abu Alining «Qonun»ini ham Jo'ybor eshonlaridan sotib olgan. Haqiqatan ham Jo'ybor shayxlari hayoti haqidagi menga qarashli qo'lyozma - manoqiblardan birida turli boyliklar qatorida boy kutubxonasi bor shayx haqida ma'lumot uchratdim. Agar pul bo'lib qolsa, bahorda Buxoroga otlanmoqchiman va Jo'yborlarni qidirib topmoqchiman. Jo'yborlarning kitobxonligi haqida juda ko'p eshitganman»[564]. Vyatkinning bu maktubida, aftidan, yana bir oilaviy meros kutubxona haqida gap boradi. Bu kutubxona ham, albatta, o'nlab, balki yuzlab yillar davomida rivojlanib, boyib kelgan.

Jo'ybor shayxlari sardori Yahyoxo'ja Sadrning shaxsiy kutubxonasi, xususan, unda shayboniy Abdullaxon davridan boshlab Jo'ybor shayxlarining tarixiga oid qo'lyozmalar, Muhammad Islom Hoji Jo'yboriy solnomasi, uning Abdullaxon va qarindosh-urug'lari, shuningdek, Ashtarxoniylar sulolasining ilk vakillari bilan yozishmasi jamlanganligi haqidagi ayrim ma'lumotlarni A.Z.Validiy maqolasidan o'qib bilishimiz mumkin[565]. Ushbu yozishma Jo'ybor shayxlari xonlarga qanday ta'sir ko'rsatgani va hokimiyat Ashtarxoniylar qo'liga o'tishida ular qanday rol o'ynagani masalasini aniqlashda noyob manba bo'lib xizmat qildi.

---

[563]Validov A.Z. O sobraniyax rukopisey v Buxarskom xanstve (Otchet o komandirovke) G`G` Zapiski Vostochnogo otdeleniya Russkogo Arxeologicheskogo obhestva. T. XXIII. Petrograd, 1916. – S. 245-262.

[564]Qarang: Lunin B.V. Srednyaya Aziya v russkom i sovetskom vostokovedenii. T.: Fan, 1965. – S. 179.

[565] Qarang: Validov A.Z. O sobraniyax rukopisey v Buxarskom xanstve. – S.252.

XX asr boshida general-mayor Jo'rabek o'zining qimmatbaho kitoblari bilan ma'lum edi. 1902 yili V.V.Bartold uning kutubxonasi bilan tanishgan. Jo'rabekning kitob majmuasi tarkibiga o'sha vaqtda oltmish kitob kirardi. 1906 yilda Jo'rabek o'ldirilgach. kutubxonasining yarmi o'g'irlangan. 1918 yili qolgan kitoblari Turkiston Sharq instituti ixtiyoriga, keyinroq esa Toshkent Davlat universitetining asosiy kutubxonasiga kelib tushdi. Bu majmuaning 23 kitobi haqida A.A.Semyonovning tavsifidan bizga ma'lum[566]. Jo'rabekning kitoblaridan bizgacha etib kelganlari orasida «Axloqi Muhsiniy», «Kalila va Dimna»ning forscha talqini (Voiz Koshifiy XV asrda yozgan), Jomiyning «Haft avrang» («Etti yulduz») dostonlari, Navoiyning «Xamsa»si, Narshaxiyning «Tarixi Buxoro»si, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro»si, Shohrudiyning «O'tmish faylasuflar tarixi», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»si, Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy»i va boshqa qimmatbaho kitoblar bor edi.

Shahrisabzda Maliki Ajar madrasasining mudarrisi mulla Muhammad Rajabning, shuningdek, Abror Hoji Xatabiy va Kamolbey Bezozning kutubxonalari mashhur bo'lgan. Katta kitob muxlisi, turli-tuman noyob qo'lyozmalar to'plamlarining egasi Qushbegi Ostonaqulning ham Hisor shahrida yirik kutubxonasi bor edi. Uning kutubxonasidan hattoki qadimgi dunyo tarixiga oid yunon tilida bitilgan o'ram shaklidagi kitoblar ham topildi. Ostonaqulning vafotidan so'ng mazkur noyob kitoblar to'plami Buxoro amirining saroy kutubxonasidan o'rin oldi[567].

Qarshilik mulla Najmiddin ham noyob kitoblarga boy kutubxonaga ega edi. Kutubxona jamg'armasida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning zamondoshi - hirotlik Voiz Koshifiy asarlarining deyarli to'liq to'plami, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy singari buyuk shoirlarning she'riy to'plamlari, ilmi nujum, fiqh, ilohiyot fanlariga oid arab va fors tillaridagi XII–XV asr qo'lyozmalari saqlanardi.

1898 yili rus ma'muriyati tomonidan Andijon qo'zg'olonining tashkilotchisi «Dukchi Eshon» nomi bilan mashhur Muhammad Ali Sobirovning xususiy kutubxonasi «Turkiston arxeologiya muxlislari to'garagi» fondining foydasiga musodara qilindi. Kutubxona tarkibiga,

---

[566]Semyonov A.A. Opisanie persidskix, arabskix i turetskix rukopisey fundamentalnoy biblioteki Sredneaziatskogo gosudarstvennogo universiteta. Trudo` SAGU. Seriya II. Vo`p. 4. Tashkent, 1935. – S. 88.

[567]Validov A.Z. O sobraniyax rukopisey v Buxarskom xanstve. – S. 262.

N.S.Likoshinning yozishicha, 194 qo'lyozma kirgan. Ular dunyoviy va diniy mazmunlardagi arabcha, forscha, turkiy tilli kitoblar edi[568]. Bir yil o'tgach, eshon kutubxonasi kitoblari Turkiston Jamoa kutubxonasiga topshirildi. Yana uch yildan keyin bu kitoblarning asosan ilohiyotga oidlaridan 20 tasi Rossiya arxeologiya jamiyati ixtiyoriga Peterburgga jo'natildi[569]. 1924 yili V.V.Bartold Madali eshon (Dukchi eshon) Sobirovning kutubxonasi qo'lyozmalarini o'rganib chiqib, jami 213 qo'lyozma haqida tavsifiy ma'lumotlar beradi[570]. Demak, musodara qilingan vaqtda Muhammad Ali (Dukchi eshon) kutubxonasida 230 dan ziyod qo'lyozma bo'lgan ekan.

Marg'ilonda Ibrohimxo'ja Muhammadxo'jaevning kutubxonasi mashhur edi. Unda Xondamirning qo'lyozma kitoblari, Sulton Husayn Boyqaro, XV-XVI asrlar boshqa shoirlarining she'riy to'plamlari jamlangandi. Mustamlakachilar ma'muriyati Farg'ona viloyat boshqarmasining tilmochi Yu.K.Kazbekov qadimgi qo'lyozmalar va hujjatlarning diqqatga sazovor kollektsiyasini to'plashga muvaffaq bo'ldi. Akademik V.V.Bartoldning qayd etishicha, kutubxonada «ancha ko'p qo'lyozmalar jamlangan», ular orasida Qo'qon xonligi tarixiga oid eng yangi (o'sha davr uchun) tarixiy asarlar (1866 yilda yozilgan), Xo'ja Ahrorning Abdurahmon Jomiy va Abu Said ruboiylariga yozgan sharhlari, Jamol Qarshi asarlari, Xudoyorxon davriga mansub vaqf hujjatlari va boshqa rasmiy hujjatlar jamlangan edi[571].

Matbuotda e'lon qilingan materiallardan bizga Toshkentdagi bir nechta shaxsiy kutubxonalar haqida ma'lumotlar etib kelgan. XIX asr oxirida Turonzamin kitoblari va madaniy obidalarining katta muxlisi va yig'uvchisi qadrian qo'lyozma kitoblarning noyob to'plamiga ega bo'lgan. Musulmon madaniy dunyosida ma'lum barcha fanlar haqida qisqacha ma'lumotlar jamlangan fors tilidagi ko'p jildli qomus – «Matla' ul-ulum» – «Fanlar manbai» (XVI asr)ni u mazkur to'plamdagi eng noyob asar deb hisoblagan. Turkistonda ellik yildan ortiq yashagan sharqshunos olim Nil Likoshin qadrianni yuksak baholagan va unga bag'ishlab maqola yozgan[572].

[568]Lo'koshin N.S. Biblioteka Min-tyubinskogo ishana G`G` Russkiy Turkestan,1899.

[569]Qarang: Zapiski Vostochnogo otdeleniya Russkogo arxeologicheskogo obhestva. T. XV. Peterburg, 1903. – S. 22.

[570]Bartold V.V. Turkestanskaya gosudarstvennaya biblioteka i mestnaya musulmanskaya pechat G`G` Zapiski kollegii vostokovedov. T. 1. Leningrad, 1925. – S.97-99.

[571]Qarang: Bartold V.V. Otchyot o komandirovke v Turkestan. – S.277-278.

[572]Qarang: Likoshin N.S. Entsiklopedist G`G` Turkestanskie vedomosti. 1898. - №96.

Toshkentlik boy Muhiddin Xo'ja ham ancha katta kutubxonaga ega bo'lgan. U rus tilini yaxshi bilgan, ko'pgina rus olimlari bilan yaxshi munosabatlarda bo'lgan, bir qator ilmiy jamiyatlar a'zosi bo'lgan. Uning kutubxonasida Sharafiddin Ali Yazdiyning ajoyib miniatyuralar bilan bezatilgan «Zafarnoma»si, at-Tabariyning jahon tarixiga oid asari, Sa'diy Sheroziyning nazm devoni singari noyob qo'lyozmalar bor edi[573].

Toshkentlik Boqijonboyning shaxsiy kutubxonasida ham muhim tarixiy va jug'rofiy asarlar, bir qator turkiygo'y va forsiygo'y shoirlarning she'riy to'plamlari bo'lgan[574].

6.1.6. Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo shaxsiy kutubxonasi

XX asr boshlaridagi Buxoro ziyolilarining atoqli vakillaridan biri Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo nomi va u to'plagan noyob qo'lyozma kitoblar majmui shaxsiy kutubxonalar haqidagi bobimizda alohida hurmat va diqqat-e'tibor bilan tilga olishga loyiqdir. Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar jamg'armasida saqlanayotgan Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo shaxsiy kutubxonasining qo'lyozmalar to'plami bugungi kunda mazkur jamg'armadagi ilmiy va noyoblik jihatidan bebaho qo'lyozmalarning negizini tashkil etadi. Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo tomonidan tuzilgan mazkur kutubxona esa Turonzamin madaniyatidagi muhim hodisa, xalqning madaniy o'tmishi va kelajagi yo'lida sodir etilgan yuksak jasorat namunasidir.

1920 yil oxirida Turkiston ASSR Xalq maorifi komissarligida Buxoroda Sharq qo'lyozmalarining uchta yirik kutubxonasi borligi haqida ma'lumot paydo bo'ldi. Abdurauf Fitrat boshchiligidagi filolog-sharqshunoslardan O'ktam, tarixchi Po'lat Soliev ishtirokidagi komissiya 1921 yilning boshida Buxoroga keldi va quyidagi xabarni yo'lladi: «Biz Buxoroga kelib, o'z ishimizni boshladik. Buxoroda eng mashhur, eng boy uch kutubxona bor ekan. Birinchisi - marhum Qozikalonning[575] kutubxonasi, ikkinchisi – (shahzoda) Muhammad Siddiqxon[576]

---

[573]Qarang: Turkestanskie vedomosti. 1902. - №43.

[574]Qarang: Bartold V.V. Otchyot o komandirovke v Turkestanskiy kray letom 1916 g. G`G` Izvestiya Akademii nauk. Petrograd. 1916. – S. 1239-1242.

[575]Ya'ni Mulla Burhoniddin Sadr qoziul kuzot. – K.Hamroev izohi. Qarang: Bir shaxsiy kutubxona va uning katalogi haqida (Ilmiy asarlar va axborotlar. 6-chi kitob. Toshkent, O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963. 388-bet.

[576]Muhammad Siddiqxon ibn Muzaffar yoki Nosirxon To'ra, adabiy taxallusi «Hishmat»,

kutubxonasi, uchinchisi - qozi Muhammad Sharif Sadr degan bir kishining kutubxonasi»[577]. Bizning zamonimizgacha shulardan Sharifjon Maxdum Sadr Ziyoga tegishli bitta kutubxona majmuigina butun saqlanib qolgan. Kutubxonaning fondi va qo'lyozmalarining katalogi ilk bor sharqshunos olim U.Hamroev tomonidan 1963 yilda tahlil qilingan[578]. Mazkur olimning maqolasiga hamda Sadriddin Ayniyning xotirasiga suyanib (bu xotiraning uchdan bir qismi Sharifjon Ziyoga bag'ishlangan) yuqorida zikr etilgan ulkan xususiy kitob majmuini kitobshunoslik nuqtai nazaridan baholash masalasiga diqqatimizni qaratamiz.

Egallagan lavozimiga ko'ra Sadr qozikalon, adabiy taxallusi Ziyo bo'lgan Mirza Muhammad Sharifjon Maxdum 1872 yili Buxoroda tug'ilib, shu shaharda voyaga etgan. Uning otasi Buxoro qozikaloni domulla Abdushukur Sadr (1889 yilda vafot etgan) taniqli ilohiyotchi olim, adabiyot bilimdoni, Oyat taxallusi bilan bitilgan adabiy mashqlari bilan ham tanilgan kishi edi[579]. Muhammad Sharifjon Maxdum boshlang'ich ta'limni milliy diniy maktabda, madrasa ta'limini esa otasining ruhiy va ilmiy ustozligi ostida oldi. Ilohiyot bilan bir qatorda u mumtoz adabiyot, Turonzamin va unga qo'shni o'lkalar xalqlari tarixi bilan chuqur tanishib bordi[580]. Fors tilidan tashqari, Muhammad Sharifjon arab va turkiy tillarni mukammal bilar edi.

Muhammad Sharifjon XIX asrning yirik olimi va ma'rifatchisi Ahmad Donish (1827–1897) bilan yaqin aloqada bo'lgan. Uning yaqin do'stlari doirasi Iso Mahdum, Yahyo Hoji, Mulla Sharif Soat, iste'dodli shoir Ahmad Donishning shogirdi Qori Abdulmajid Zufunun (1903 yili vafot etgan), o'z zamonasining mashhur tarixchisi Mirzo Abdulazim Somiy (1907 yili vafot etgan), XIX asrning ikkinchi yarmida ko'zga ko'ringan shoir va olim Muhammad qori Rahmatullo Vozeh (1893 yili vafot etgan), Shamsiddin Maxdum Shohin (1894 yili vafot etgan), bu kishi ulkan shoir o'tgan, S.Ayniyning madrasadosh do'sti Muhammad Siddiq

---

Buxoro amiri Muzaffarning o'g'li.

[577] «Qizil bayroq» gazetasi. 1921, 29-son.

[578] Hamroev U. Bir shaxsiy kutubxona va uning katalogi haqida (Ilmiy asarlar va axborotlar. 6-chi kitob. Toshkent, O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963. 387-395-betlar.

[579] Oyat (shoir) haqida qarang: S.Ayniy. Namunai adabiyoti tojik. Stalinobod, 1954. – S. 209-210-betlar.

[580] R. Xodi-zade. Istochniki k izucheniyu tadjikskoy literaturo` vo vtoroy polovine XIX v. – Stalinabad, 1956. – S. 63.

Hayrat (1902 yili vafot etgan), Siddiq Hoji Gulshaniy (1910 yili vafot etgan) – tanobchilik qilgan, riyoziyotchi, lirik she'rlar ham yozgan, Ahmad Donishning shogirdi va boshqa ko'plab fozil kishilardan iborat edi[581].

XIX asrning 90-yillari o'rtalarida Sharifjon Maxdum xonadonida tojik va o'zbek adabiyotining mumtoz vakili bo'lib etishgan Sadriddin Ayniy yashagan edi. U o'z esdaliklarida Sharifjon Maxdumning uyida har haftaning seshanba, chorshanba, payshanba kunlari shoirlar, adabiyot muxlislari, kitobsevarlar, qiziq hikoyalarni aytib beruvchi noqillar yig'ilishardi, deb xotirlaydi. «Bu odamlarning barchasi Sharifjon Maxdum majlislarini bezagan eng yaxshi gullar, men esa shu gullar atridan bahramand edim», deb yozadi S.Ayniy. U adabiyot va tarixning haqiqiy bilimdonlari fikrlariga chanqoqlik bilan quloq solar, xalq zukkoligi ruhini o'ziga singdirar, chin ma'nodagi oqillar suhbatidan ibrat olardi. Sharifjon Mahdum xonadonidagi ma'naviy muhit Sadriddin Ayniy uchun o'ziga xos maktab bo'ldi, shu erda uning adabiy didi, ijodga ixlosi shakllana boshladi. Sharifjon Maxdum «odamlarga muomalada kamtar, hech kimga takabbur, mensimas qarashda bo'lmasdi»[582]. Tez-tez u mumtoz shoirlardan birortasining asarini o'qir ekan, Sadriddinni va u bilan birga istiqomat qilgan Mirzo Abdulzohidni o'z yoniga chaqirib olar, o'qiyotgan asarining muhim joylarini ko'rsatar, asar nafosatidan birgalikda zavqlanar edi. «Ba'zan, - deb yozadi S.Ayniy, - bizlarni ovoz chiqarib o'qishga buyurar edi. O'qishimizdagi talaffuz xatolarimizni tuzatar, bizlarga hali tushunarsiz bo'lgan narsalarni tushuntirardi... Men unga hurmat bilan qarardim, uni o'zimning birinchi ma'naviy ustozim deb bilardim»[583].

Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ko'zga ko'ringan fan va madaniyat arboblaridan birigina emas, balki katta kitob muxlisi-bibliofil ham edi. Bir necha tarixiy-madaniy, tarixiy-badiiy asarlar uning qalamiga mansub. Sharifjon Maxdum 1910 yilda she'riy yo'lda «Tazkir ul-ash'or» nomli tazkira yaratgan. Yigirmadan ortiq asarni Sharifjon Maxdum o'z qo'li bilan husnixatda ko'chirgan.

Sharifjon Maxdumning o'z so'zlari bilan aytganda, uning kitobga muhabbati cheksiz bo'lgan. Bilimning turli sohalariga oid qo'lyozmalarni o'plashga kuch ham, mablag' ham ayamagan. «Har qachon, kimda bo'lmasin yaxshi kitob ko'rsam, uni qo'lga kiritishga harakat qildim», deb

[581]S. Ayniy. Vospominaniya. M.-L., 1960. – S. 584.

[582]O'sha joyda. – 415-bet.

[583]O'sha joyda. – 580, 421-betlar.

yozadi Sharifjon Maxdum[584]. Ba'zi bir kitoblar unga sovg'a qilingan[585]. Shunday qilib, u ilmning muayyan sohalari bo'yicha noyob yoki turli zamonlarning mashhur xattotlari ko'chirgan kitoblarning misli ko'rilmagan beqiyos xazinasini yaratdi. «Hozirgi vaqtda, - deb yozadi kutubxonasining katalogiga kirish so'zida Sharifjon Maxdum, - turli davrlarda yashagan mashhur xattotlarning nomlari noma'lum bo'lib qolmoqda va ularning nomlari unutilib yuborilmoqda. Endi biror xattotni biladigan yoxud uning xatini taniydigan va uning qadr-qimmatiga etadigan kishi qolmayapti»[586].

Sharifjon Maxdum kutubxonasining katalogiga kirish so'zida har bir qo'lyozmaning xislatlari, u yoki bu kitobning qo'lga kiritilishi tarixi, unga ma'lum bo'lgan hollarda qo'lyozmaning kotibi haqida katta bir ixlos va muhabbat bilan tavsif berib o'tadi. Ko'pincha u qo'lidagi kitobning (yoki nusxaning) qancha pulga olinganini ham ko'rsatadi. Sharifjon Maxdumning kitobga sarflagan mablag'ini tasavvur qilish uchun ba'zi bir kitoblarning yuzlab oltin so'mlar bilangina emas, balki minglab oltin so'mlarda narxlanganini ko'rsatib o'tish kifoyadir. Masalan, «Kalila va Dimna»ning qo'lyozmasi uchun u 15 ming oltin tanga yoki 3000 rubl sarflagan[587]. Jomiyning «Haft avrang»i uchun ham u 3000 rubl, «Bahr ar-roiq» kitobining etti jildlik qo'lyozmasi uchun esa o'ttiz ming tanga (6000 rubl) to'lagan[588].

Sharifjon Maxdum kutubxonasining sovg'a qilingan kitoblardan tashqari, yana bir manbai uning o'zi tomonidan yoki uning buyurtmasi bilan ko'chirilgan kitoblar bo'lgan. Shu ma'noda Ahmad Donishning «Navodir ul-vaqoe» («Nodir voqealar») asarining ko'chirilishi haqida S.Ayniy esdaliklari diqqatga sazovordir. «Fan va adabiyotga aloqador kishilarga ma'lumki, Ahmad Donishning «Navodir ul-vaqoe» nomli yirik asari bo'lgan. Lekin men bilgan biror kimsada mazkur asarning nusxasi

[584]O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining fondi. 2460-son qo'lyozma, 1-b varaq. Katalogga kirish so'zi.

[585]Ziyo Chorjo'yda qozi bo'lib turganida «Aqqoyid» nomli qo'lyozmani qori domla mulla Abdurahim Kurro unga sovg'a qilib yuboradi. Garchi kitobni sovg'aga olgan bo'lsa ham, katalogida bu qo'lyozmani 20 ming tangaga olish mumkin edi, deb ko'rsatadi (2460-son qo'lyozma, 121-bet).

[586]O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining fondi. 2460-son qo'lyozma, 1-b varaq. Katalogga kirish so'zi.

[587]Bu pullar 1880-90 yillardagi Buxoro puli va uning rus puliga qiyosi asosida tushunilmog'i kerak. XX asr boshidagi 1 (bir) rubl bugungi (2010 yil) 20 000 so'mga teng.

[588]Sobranie vostochno'x rukopisey AN UzSSR. Katalog. T. 5. Tashkent, 1960. – S. 415.

yo'q edi. Keyinroq ma'lum bo'ldiki, Ahmad Donish shu kitobining o'z qo'li bilan ko'chirilgan nusxasini Siddiqxon Hashmatga sovg'a qilgan ekan. Ahmad Donish asarlarining ishqibozi bo'lgan Sadr Ziyo Hashmat bilan yashirin munosabatlarga kirishib, shu kitobni undan nusxa ko'chirib olish uchun vaqtincha undiradi. «Navodir ul-vaqoe»ni ko'chirish vazifasi husnixati bor Mirzo Abdulvohid Munzimga (1935 yili vafot etgan) topshiriladi[589]. Ish yakunlangach, Sharifjon Maxdum kitobning nusxasini A.Donish dastxatida ko'chirilgan nusxa bilan solishtirib chiqishda ishtirok etishni S.Ayniydan iltimos qiladi[590].

Sadr Ziyo kutubxonasini ko'rgan va undan foydalangan Sadriddin Ayniyning baho berishicha, bu majmuada fan va madaniyatning tiniq va go'zal xat bilan ko'chirilgan eng noyob yodgorliklari, hatto asar mualliflarining qo'llari bilan ko'chirilgan nusxalari bor edi[591]. «Sharifjon Maxdum kutubxonasi Buxoroda eng boy va eng yaxshi xususiy kutubxona edi», deb yozadi S.Ayniy[592].

Hozir Sharifjon Maxdum kutubxonasining 300 ga yaqin, ba'zan har bir jildida o'nlab noyob asarlar bo'lgan kitoblari O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar majmui tarkibida saqlanmoqda. Kutubxonaning kichikroq boshqa bo'lagi Tojikiston FA Sharqshunoslik bo'limi va yozma meros fondida turibdi. Sharifjon Maxdum kutubxonasining O'zbekistondagi qo'lyozmalari 1936 yili uning vorislaridan sotib olingan[593].

Sharifjon Maxdum kutubxonasining tarkibi bilan tanishgan kishini, avvalo, kitobsevarning serqirra ilmiy qiziqish doirasi, nozik didi hayratga soladi. Bu xislatlar kitoblarning mazmun va mavzu rang-barangligida, fan va madaniyat tarixi uchun qimmatli hamda noyobligida o'z aksini topgan. Kutubxona qo'lyozmalari orasida kalom (ilohiyot) ga, fiqh (islom qonunshunosligi)ga, tarixiga, tasavvuf, tabiatshunoslik, tibbiyot, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, adabiyot nazariyasi, filologiya,

[589]S.Ayni. Vospominaniya. – S. 779.

[590]O'sha joyda.

[591]Ko'rsatilgan asar. – 417-bet.

[592]Ko'rsatilgan asar. – 416-bet.

[593]Qarang: Sobranie vostochno'x rukopisey AN UzSSR. Katalog. T. 1. Tashkent, 1951. – S. 6. Mirza Muhammad Sharifjon Mahdum Sadr Ziyoning kitoblar kollektsiyasi O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining fondida 2178-2460 inventar raqami bilan ro'yxatga olingan.

sarfu navh (grammatika), mantiq, falsafa, axloq, tarix va geografiyaga oid kitoblar bor. Bundan tashqari, turli xil lug'atlar, qomuslar, ma'lumotnoma kitoblar ham bir talay. Bu kutubxona kitoblaridan «Sharafnomai shohiy» (Hofiz Tanish Buxoriy asari, ko'proq «Abdullanoma» nomi bilan mashhur) kitobi[594], Davlatshoh Samarqandiyning muhtasham bezakli «Tazkirat ush-shuaro» asarining nusxasi[595], XVII asrga oid «Majmuat ur-rasoyili hukamo» ilmiy to'plami (uning tarkibida turli mamlakatlar, hatto Yunoniston faylasuflarining 107 ta asari joylashgan), Amir Xusrav Dehlaviyning XIV asrda ko'chirilgan «Xamsa»si (uning ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi dostonlari shoir Shamsiddin Muhammad Hofizning o'z qo'li bilan ko'chirilgan)[596], Ulug'bekning sobit yulduzlar jadvali – «Zijji Ulug'bek» («Zijji jadidi Guragoniy») asari[597],Alisher Navoiyga yozilgan maktublarning noyob qo'lyozma to'plami – «Majmuai murosalot» («Jo'natmalar yig'indisi»)[598] kabilar O'zbekiston ma'naviyati xazinasining ko'rki bo'lib saqlanmoqda.

Sharifjon Maxdum kutubxonasining qimmatini yanada oshirgan narsa undagi kitob majmuining izohli katalogi va tavsifidir. Tavsifda har bir kitob alohida ta'riflangan. Bu katalog O'zbekiston Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 2460 raqami ostida saqlanmoqda. Har bir qo'lyozmaning mufassal paleografik, kodikologik, geraldik (dastxatshunoslik), bibliografik va tarixiy-madaniy tavsifi berilgan mazkur katalog professional o'ziga xosliklarga ega bo'lish bilan bir qatorda, Turonzaminning XX asr boshidagi yirik kitob muxlisining yuksak bibliografik madaniyatidan ham dalolat beradi.

Ushbu katalogning o'ziga xos qo'lyozmasi Qo'qon qog'oziga

[594]Qarang: Opisanie rukopisi. SVR, 1. – S. 65-66.

[595]Ko'rsatilgan asar. - 124-bet.

[596]Ko'rsatilgan asar. – 65-69-betlar.

[597]Ko'rsatilgan asar. - 228-bet. Ammo bu ilmiy tavsif juda qisqa. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining katta ilmiy xodimlari A.Nosirov va A.Rasulevlar keyinchalik qo'lyozmani sinchiklab o'rganib, bu nusxaning juda ham noyob ekanligini aniqlashdi. Bu shunday bo'lgan: bir ta'mirchi qo'lyozmani ta'mirlayman deb bir muhim ma'lumot ustidan qog'oz yopishtirib yuborgan. Abdulla ota Nosirov buni ko'chirib qarasa, asarga muallif (ya'ni Muhammad Tarag'ay – Ulug'bek) o'z tuzatishlarini kiritgan, Ali Qushchi qo'lidan ham o'tgan degan mazmundagi qimmatli ma'lumot topilgan. Sadr Ziyo ham o'z katalogida bu qo'lyozmaning asl nusxa ekanligini qayd etgan.

[598]O'sha asar. 149-bet. Majmuada 566 dastxat-maktub, jumladan, Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy va boshqalarning maktublari to'plangan.

nasta'liq dastxati bilan yozilgan. Sarlavhalar qizil rang dastxati bilan ajratilgan. Muallifning ayrim izohlariga qaraganda, ro'yxat XX asrning 20-yillarida to'ldirilgan. «O'zSSR FA Sharq qo'lyozmalari to'plami» katalogida ilmiy tavsiflashda Sharifjon Mahdumning mazkur ro'yxati «Qo'lyozmalar katalogi» deb nomlangan. U shuningdek, «Asomi ul-kitobi kitobxonai xususiyi Sharifjon Maxdum» («Sharifjon Maxdumning shaxsiy kutubxonasidagi kitoblar ro'yxati») nomi bilan ham ma'lum. Muallifning o'zi katalogga nom qo'ymagan, shu bois yuqorida zikr etilgan nomlarni shartli deb hisoblash kerak[599].

O'z shaxsiy kutubxonasidagi kitoblar ro'yxatining kirish qismida Sharifjon Maxdum o'zi to'plagan adabiy va ilmiy asarlarning noyob qo'lyozmalari katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligi, bu qo'lyozmalarda aksariyatining nomi hozirgi avlod vakillari tomonidan unutila boshlangan mohir xattotlar mehnati mujassamlashgani to'g'risida so'z yuritadi.

Katalogni tuzishda muallif muayyan xronologik yoki tematik printsipga rioya qilmagan. Ma'naviy madaniyat uchun u yoki bu qo'lyozmaning ahamiyati, uning badiiy-estetik fazilatlari, ilmiy mazmuni, adabiyot va fan tarixida asarning o'rni va ahamiyati muallif uchun bosh mezon bo'lib xizmat qilgan.

Katalog Qur'oni karimning yuksak did va mahorat bilan bezalgan va ko'chirilgan besh nusxasining tavsifi bilan boshlanadi. Qur'oni karimning boshqa ikki nusxasining tavsifi katalogning boshqa joylarida berilgan. Fiqh va kalom (musulmon qonunshunosligi va teologiyasi) ga, sufizm va din tarixiga, bilimning turli tarmoqlariga oid kitoblar va badiiy adabiyotlarning tavsifi qo'lyozmaning ilmiy va estetik ahamiyati printsipiga asosan keltirilgan.

Sharifjon Maxdumning qo'lyozmalarni tavsiflash usuli ham juda o'ziga xosdir. Tavsiflarda u qo'lyozma nomini, muallif va xattotning ism-sharifini keltiradi, qog'oz navi va u ishlab chiqarilgan joyni (Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Hirot va b.) ko'rsatadi, muallifning zamondoshlari, uning yaqin va uzoq qarindoshlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiradi. Ko'pincha kitob narxini, uni necha pulga sotib olganini qayd etadi. Navoiy, Jomiy, Nizomiy, Ulug'bek, Bedil, Amir Xusrav Dehlaviy, Ahmad Donish kabi mashhur shoir va olimlarning asarlarini tavsiflashda Sharifjon Maxdum ularning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarga batafsil to'xtaladi,

[599] Qarang: Sobranie vostochno`x rukopisey AN UzSSR. Katalog. T. 5. Tashkent, 1960. – S. 412-415.

ularning asarlariga tavsif berib o'tadi. Masalan, Mirzo Ulug'bek qalamiga mansub «Zijji jadidi Guragoniy» asari qo'lyozmasining noyobligi to'g'risida so'z yuritar ekan, Sharifjon Maxdum o'quvchini olim va davlat arbobining shaxsi bilan tanishtiradi, Ulug'bek bilan birga rasadxona qurilishida ishtirok etgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Mavlono Ali Qushchi kabi olimlar haqida hikoya qiladi, Ulug'bekning yuqorida zikr etilgan astronomik jadvali haqida ma'lumotlar keltiradi[600].

Fan, adabiyot va kitobat madaniyati namoyandalariga nisbatan muhabbat va hurmat hissi bilan sug'orilgan Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo katalogida bittadan bir necha o'ntagacha asarni o'z ichiga olgan uch yuzga yaqin qo'lyozma haqida mufassal ma'lumot berilgan[601].

Mazkur katalogda qo'lyozmalarni tavsiflash printsiplari va tuzilishini chuqur tahlil qilish, uni tuzish usulini «O'zSSR FA Sharq qo'lyozmalari to'plami» katalogida qabul qilingan qo'lyozmalarni tavsiflash usuli, printsiplari va tarkibiy unsurlariga solishtirish «O'zSSR FA Sharq qo'lyozmalari to'plami»ning dastlabki besh jildiga kiritilgan qo'lyozmalar tavsifini tuzgan sharqshunos prof. A.A.Semyonov Sharifjon Maxdumning qo'lyozmalarni tavsiflash usulining ba'zi unsurlarini o'zlashtirgan va ular tartibi va tuzilishini bir xillashtirgan deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Shu bois biz bugun «O'zSSR FA Sharq qo'lyozmalari to'plami»da qabul qilingan sharq qo'lyozmalari tavsifini tuzish usulining asosiy g'oyasi haqli ravishda Sharifjon Mahdum Sadr Ziyoga tegishli deb ayta olamiz.

* * *

XX asr bo'sag'asida mahalliy ziyolilar qo'lida bir necha yirik kutubxona shakllandi. Masalan, Samarqandda nomi zikr etilgan V.L.Vyatkin hammasi bo'lib 272 asarni o'z ichiga olgan 190 qo'lyozma kitobdan iborat, vrach professor G.M.Semyonov 130 qo'lyozmadan iborat4 kitob majmualari to'plashdi. Qo'qonda asosan tarixiy, adabiy-badiiy kitoblardan tuzilgan Ashurali Zohiriy kutubxonasi, Toshkentda professor Abdurauf Fitratning 150 kitobdan iborat kutubxonasi, 148 kitobdan iborat Rahmonov

---

[600]Qarang: Hamroev K. Bir shaxsiy kutubxona va uning katalogi haqida (Ilmiy asarlar va axborotlar. 6-chi kitob. Toshkent, O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963. 394-b.

[601]Masalan, Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo kutubxonasidagi XVII asrga mansub «Majmuotu rassoyil-i hukamo» («Olimlar asarlari to'plami»)da turli faylasuflar qalamiga mansub 107 asar, shu jumladan Abu Ali ibn Sinoning 36 asari, Forobiyning esa 17 asari jamlangan.

majmui[602] va boshqalar shular jumlasidandir. Turonzamin adabiyoti va tarixini o'rganish uchun g'oyat muhimligi, noyobligi va juda kamyob asarlar borligi jihatidan prof. Abdurauf Fitratning shaxsiy kutubxonasi favqulodda qimmatga egadir. Bu majmua tarkibida yuksak badiiy darajada kitobat qilingan Sayfi Isfarangi (XIII asr) devonining qo'lyozmasi, Durbekning mo"jaz suratlar bilan bezatilgan «Yusuf va Zulayho» dostoni, Jomiyning mo"jaz suratli «Yusuf va Zulayho»si kabi kitoblar kiradi. Lekin katta dovruqqa sabab bo'lgan voqelik shu ediki, A.Fitrat kutubxonasida Yusuf Bolasog'uniy (Yusuf Xos Hojib)ning «Qutadg'u bilig» kitobi qo'lyozmasi bor ekan. Bu qo'lyozma 1913 yili professor A.Z.Validiy Namanganda Muhammad Xoja Lolaresh kutubxonasida ko'rgan qo'lyozma nusxaning aynan o'zi edi. Bu qo'lyozma hozir «Qutadg'u bilig»ning dunyoda ma'lum uch qo'lyozmasidan biri, ayniqsa, uning eng to'liq nusxasi sifatida tan olingan.

Qayd etilgan barcha qo'lyozma majmualari 1930–1950 yillar davomida Toshkentdagi O'zSSR Davlat kutubxonasi, 1944 yildan e'tiboran O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti tomonidan sotib olingan[603].

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning dastlabki yigirma yilida shaxsiy kitob to'plamlari va kutubxonalarning sohiblari orasida Muhammad Solih Toshkandiy, Mulla Muhammad Niyoz Xo'qandiy, Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy, Muhammad Aziz Marg'iloniy, Muhammad Sodiq Munshiy, Muhammad Abdulazim Somiy, Mirzo Olim Mushrif, Mirzo Olim Toshkandiy, Muhammad Fozilbek, Muhammad Hakimto'ra, Mavlono Xayoliy, Xolbek ibn Muso Andijoniy, Muhammad Amin Ho'qondiy, Hofiz Ro'ziboy, Mashrab, Kamina, Nosir, Tarjimon, Mulla Olim Mahdumxo'ja, Hakimxoja Eshon, Solihbek Oxund, Abulqosim Eshon, Muhammad Muhiddinxoja, Sattorxon Abdulg'afforov, Abubakr Divaev, Saidg'ani Saidazimboy o'g'li, Muqimiy, Furqat, Berdaq, Zavqiy, Bayoniy, Anbar otin, Mirzo Buxoriy, Saidrasul Saidazizov, Siddiqiy Ajziy, Nozimaxonim, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Salimxon Tillaxonov, Said Ahroriy, Rustambek Yusufbekov, Tangriqul hoji Maqsudov, Najmiddin Shermuhamedov, Eshonxo'ja Xoniy, Hasanxo'ja Xoniy, Shokirjon Rahimiy, Sobirjon Rahimiy, Nizomiddin Xo'jaev, G'ofirjon Musaxonov, Abdulla Avloniy, Avaz O'tar, Abu Said Mahzum, Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Akrom Asqarov,

[602] O'sha joyda.

[603] Qarang: Azimdjanova S.A., Voronovskiy D.G. Ko'rsatilgan asar.

Muhammadsharif So'fizoda, Rahim Inog'omov, Komilbek Norbekov, Muhammadxon Poshshoxo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Kattaxo'ja Boboxo'jaev, Nizomiddin Asomiddinxo'jaev, Oxunjon Abdulrahimov, Hasanxo'ja Dadaxo'ja o'g'li, Saidabdullo Saidkarim o'g'li Saidazimboev, Mulla Qo'shoq, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Miskin, Xislat, Pahlavon Niyoz, Qori Komil, Bashirulla Asadullaxo'jaev, To'lagan Xo'jamyorov (Tavallo), Sharifxo'ja Poshshoxo'jaev, Hoji Muin, Sirojiddin Sidqiy, Mirmulla Shermuhammedov, Abdurahmon Fitrat, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Abdul Vohid Burxonov, Usmon Xo'jaev, Muhiddin G'afaat, Musa Saidjonov, Ahmad Zaki Validiy To'g'on, Mustafo Cho'qaev, Mirmuhsin Shermuhammedov, Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulqodir Shakuriy, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Abdulvohid Rafiy, Sodiq Ashur o'g'li, Sadriddinxon Sharifxo'jaev, Qo'ng'irxo'ja Hojinov, Ismatulla Ubaydullin, Saidnosir Mirjalilov, Said Ja'farboy Saidov, Islom Sulton o'g'li Shoahmedov, Abdurahmonbek O'razaev, Hidoyatbek Yurali Agaev, Mirodil Mirzaahmedov, Toshxo'ja Ashurxo'jaev, Abdulqodir Qushbegiev, Jamshidboy Qorabekov, Abdusamad Abdusalimov, Ubaydulla Dorbisalin, Sherali Lapin, Muso Akchurin, Mustafo Mansurov, Muhammadjon Tinishpaev, Ibrohim Dolshin, Xalil Shirinskiy, Tolibjon Musaboev, Alixonto'ra To'raev, Sobirjon Yusupov, Odiljon Umarov, Muqim Boyjon, Abdulaziz, Ahmadjon Mahdum, Olimjon Idris, Ahmad Boytursun, Miryoqub Dulat, Hoji Rafiy, Mirzo Abduvohid, Hamidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Maxdum, Kamiy, Xislat, Mirmulla, Abdurauf Shahidiy, Mukammaliddin Mahdum, Otajon Abdalov, Muhammad Azim Hoji Marg'iloniy, Ishoqxon to'ra Ibrat, R.Rasulzoda, Oxunzoda Abdulrauf Mashhadiy, Mirzo Xayrullo Xo'qandiy, Ashurali Zohiriy, Ibrohim Davron, G'ulom Hasan Orifjonov, Ilhomjon Inog'omjonov, Obidjon Mahmudov, Mirkomil Mo'minboev, Saidrizo Alizoda, Lutfulla Olimiy, Turdi Mirg'iyos o'g'li, Hoji Yusuf Mirfayozov, Jo'rabek Qalandar qori o'g'li, Shohimardon Mirg'iyos o'g'li, Mahmud Hakim Yayfaniy, Abay Qo'nonboev, Cho'qon Valixonov, To'xtagul Sotilganov, Sevinboy Akaev, Muhiddinxo'ja Hakimxo'jaev, Muhammad Rahimxo'ja Muhiddinxo'jaev, Shamsiddin Sharifiddinov (Xurshid), Sa'dulla Sharafiddinov, Ismoil Obidov, Ahmadjon Bektemirov, Po'lat Soliev, Nosirxonto'ra Kamolxonto'raev, Fansurullohbek Xudoyorxonov, Muhammad Siddiqxon Ibn Muzaffar (Xashmat), Mo'minjon Muhammadjonov, Saidahmad Vasliy, Sidqiy Xondayliqiy, Abduhakim mulla Ikromov, Fathiddin Maxsum Ismatullaev,

Ilhom Islomov, Asadulla Hojixonov, Zayniddin qori Nasriddinov, Abdusami qori Hidoyatboev, Otaxon Nazar Xo'jaev, Karim qori Azimboev, Nizomiddin qori Husainov, Saydulla Xo'jaev, Olimjonxo'ja Yunusov, Mirali Umarboev, Latifjon Madali Qoziev, Qo'chqorboy Miraliev, G'ozi Yunus, Abdulla Qodiriy, Majid Qodiriy, A'zam Ayubov, Saidg'ani Valiev, Sanjar Siddiqov, Botu, Elbek, Turor Risqulov, Aziz Lazizzoda, Hasanmurod Laffasiy, Po'latjon Qayyumiy, G'ulom Zafariy, Mannon Uyg'ur, Qayum Ramazon, Abdusami' qori Ziyoboev, Haydar Shavqiy, Abdulvohab Murodiy, Abdulla Rahimboev, Ahmad Shukriy, Eshonxo'ja Xoniy, Ilhom Odilov, Maryam Sultonova, Zaynab Shamsuddinova kabi va boshqa o'nlab har xil tabaqadan chiqqan ziyolilarning, madaniyat, fan va maorif arboblarining nomlarini qayd etish mumkin.

6.2. Ovrupocha kutubxonalar

Turonzaminda chor mustamlaka tuzumi qaror topganidan keyin bu erda paydo bo'lgan madaniy-axborot yo'sinidagi yangiliklar orasida Ovrupo, shu jumladan, rus tillaridagi adabiyotlar jamlangan universal va maxsus turlaridagi kutubxonalar muhim o'rin tutadi. Turkiston general-gubernatorligi byudjetidan mablag' bilan ta'minlangan universal tipdagi umumistifoda Jamoa kutubxonasi, a'zolik badallari hisobiga kun kechirgan har xil ilmiy jamiyatlarning maxsus kutubxonalari, chor mustamlaka ma'muriyati o'quv yurtlarining kutubxonalari, harbiy qismlarning kutubxonalari, umumistifoda xususiy (pullik) kutubxonalar, muayyan shaxslar guruhining xayr-ehsonlari yoki mahalliy mustamlakachi ma'murlarning mablag'lari yoxud davlat korxonalari va tashkilotlarining mablag'lari hisobidan tashkil etilgan jamoa kutubxonalari shular jumlasidandir.

6.2.1. Turkiston Jamoa kutubxonasining faoliyati

Chorizm mustamlakachilik va ruslashtirish siyosatini Turonzaminda izchil amalga oshirgan Turkiston o'lkasining birinchi general-gubernatori (1867–1882 yillar) K.P.fon Kaufman, o'z davrining keng bilimli odami (ixtisosligi bo'yicha – harbiy muhandis) sifatida, kitoblar, o'lka haqida har xil ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda e'lon qilinuvchi ma'lumotlar endigina istilo qilingan hududni o'rganish va o'zlashtirish ishida naqadar ulkan rol o'ynashi mumkinligini juda yaxshi tushunar edi. Shu bois u hali Peterburgdalik vaqtidayoq, general-gubernator lavozimiga tayinlangani

zahoti, 1867 yilning yozida, shuningdek, poytaxtga 1868 yilgi tashrifi chog'ida Xalq maorifi vazirligiga yozma ravishda murojaat etdi. Bundan tashqari, fon Kaufman o'sha davrda faoliyat ko'rsatgan barcha ilmiy jamiyatlar va yirik kutubxonalarni ilmiy mazmundagi kitoblarning ikkinchi nusxalarini yangi tashkil etilayotgan Turkiston kutubxonasiga hadya etishga chorladi. O'zining mazkur murojaatlarida fon Kaufman «Osiyo masalalari»ga, ya'ni butun Sharq, birinchi navbatda Markaziy Osiyo mintaqasining keng muammolariga taalluqli adabiyotlarni Toshkentda jamlash zarurligi haqidagi fikrni aniq va lo'nda qilib ifoda etdi. Turkiston general-gubernatorining 1868 yilda taniqli rus bibliografi V.I.Mejovga O'rta Osiyo haqidagi adabiyotlar bibliografiyasini tuzish to'g'risidagi taklifi zamirida ham mana shu o'lkani o'rganish va o'zlashtirish vazifasini engillashtirish g'oyasi yotar edi. V.I.Mejov bu vazifa doirasini ancha kengaytirdi – u kitoblar, risolalar va maqolalar nomlarining shunchaki ko'rsatkichini emas, balki «O'rta Osiyoga, ayniqsa, Turkiston o'lkasiga oid asarlar va maqolalar Turkiston to'plami»ni tuzishga ahd qildi. «Turkiston to'plami»ning o'ziga xosligi shundaki, u kitoblar, risolalardan hamda rus tilidagi jurnallar, gazetalardan qirqib olinib, katta bichimdagi qalin qog'oz varaqlariga yopishtirilgan va muqovalangan ulkan kitoblardan tuzilgan. V.I.Mejov to'plamning 416 jildini tayyorladi. Bu jildlarga 1867–1887 yillarga oid materiallar kiritilgan. So'ngra to'plam ustida ish ma'lum vaqt to'xtab qoldi. 1907–1917 yillarda turli bibliograflar va olimlar tomonidan to'plamning yana 178 jildi tuzildi. Shunday qilib, bu to'plam jami 594 jilddan iborat. «Turkiston to'plami»da o'lka xalqlarining tarixi, iqtisodiyoti, turmushi va madaniyatiga oid qimmatli va ba'zi holatlarda bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlar umumlashtirilgan.

Toshkentda kutubxona tashkil etilishi haqidagi xabar Peterburg va Moskva tashkilotlari tomonidan xayrixohlik bilan qarshi olindi. Fanlar akademiyasi, universitetlar, kutubxonalar, Rus geografiya jamiyati, Arxeologiya komissiyasi va boshqa tashkilotlar o'z kitob fondlarini tashkil etilayotgan yangi kutubxona bilan baham ko'rishga rozi bo'ldilar. 1867 yilda kutubxona uchun yuborilgan dastlabki kitoblar 1868 yilda qiyinchilik bilan Toshkentga etib keldi, chunki u paytda temir yo'l hali yo'q edi. Mana shu bir necha yuz kitob Toshkentda Turkiston Jamoa kutubxonasi tashkil etilishi va 1870 yil mayda uning ochilishiga asos bo'ldi. Bu o'lkani tadqiq qilish va o'zlashtirish ishini engillashtirish yo'lida tashlangan ilk qadamlardan biri edi.

O'рта Осиёлик таниқли китобшунос олим, библиограф ва кутубхонашунос Е.К.Бетгер Алишер Навоий номидаги O'збекистон Давлат кутубхонасининг 75 йиллигига бағишлаб ёзган ва нашр этилмаган асарида архив манбаларига асосланиб, Туркистон Жамоа кутубхонаси (ҳозирги Алишер Навоий номидаги O'збекистон Республикаси Миллий кутубхонаси)нинг ташкил этилиши тарихини тахминан шундай тавсифлайди.

Turkiston Jamoa kutubxonasi o'lkadagi birinchi ilmiy tashkilot bo'ldi. Ammo kutubxona faoliyatining ilk davrida uni ta'minlashga arzimas pul ajratilar, kutubxona xodimlari soni 5 kishidan oshmas edi. Kutubxonaning birinchi direktori etib o'lka bilimdoni N.V.Dmitrovskiy tayinlandi. U kutubxona tarixida ancha katta rol o'ynadi. Kutubxona asosan Turkiston va unga qo'shni mamlakatlarni o'rganish bilan bog'liq nashrlar bilan to'lib bordi. Kutubxona fondi deyarli mutlaqo rus tilida bo'lib, u amalda faqat Toshkentda yashaydigan rusiyzabon aholiga xizmat ko'rsatar edi. Chunonchi, 1870 yil may oyidan 1871 yil sentyabrgacha bo'lgan davrda kutubxonaga jami 75 kitobxon a'zo bo'lib, shundan 45 nafari ofitser, 19 nafari amaldor, 5 nafari savdogar, 2 kishi harbiy kotib, 2 kishi ruhoniy, bir kishi mahalliy maktab talabasi edi. 75 kitobxon orasida faqat birgina ayol bor edi[604].

1882 yil dekabrida Turkiston general-gubernatori M.G.Chernyaev buyrug'iga binoan kutubxonada taftish o'tkazildi. Bu ish alohida topshiriqlar bo'yicha amaldor va yozuvchi V.V.Krestovskiyga topshirildi. U taftish natijalari bo'yicha Chernyaevga taqdim etgan raportida kutubxona faoliyatini qoniqarsiz deb baholadi, taftish vaqtida rus demokrat yozuvchilarining asarlariga talab kuchli ekanligi aniqlanganini ko'rsatdi. «Rus mualliflaridan Shchedrin (Saltikov), Dobrolyubov, Pisarev, Nekrasov va Mixaylov (Sheller) asarlariga talab ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi»[605].

General-gubernator M.G.Chernyaev Krestovskiyning raporti bilan tanishib chiqib, «vaqt o'tishi bilan mazkur kutubxona tutayotgan yo'l Turkiston o'lkasi oliy ma'muriyati bu kutubxonani ta'sis etish chog'ida nazarda tutgan jiddiy va foydali maqsadga unchalik muvofiq emas, buning ustiga kutubxonaning ishlab turishi uchun har yili xazinadan ancha pul mablag' sarflanmoqda», deb topdi va 1882 yil 13 dekabrda Turkiston

[604]Dmitrovskiy N.V. Dvadtsatipyatiletie Turkestanskoy publichnoy bibliotcki. G'G' «Turkestanskie vedomosti», 1895, №15.

[605]Turkestanskie vedomosti, 1882 yil, 14 dekabrь.

Jamoa kutubxonasining mustaqil tashkilot sifatidagi faoliyatiga 1883 yil 1 yanvardan e'tiboran barham berish to'g'risida buyruq chiqardi.

Shu davrga kelib kutubxonaning 13040 jilddan iborat fondida o'lkashunoslik ahamiyatiga molik nashrlar 9184 jildni tashkil etar edi. General-gubernatorning yuqorida zikr etilgan buyrug'idan keyin bu nashrlar Toshkent muzeyiga berildi. Mana shu nashrlar negizida muzey qoshida maxsus kutubxona tashkil etildi. Osiyoni o'rganish bilan shug'ullanuvchi odamlar shu kutubxona materiallaridan foydalanishlari mumkin edi. Qolgan kitoblar Turkiston harbiy okrugi, Toshkent harbiy gospitali kutubxonalariga, oz qismi – o'quv yurtlari kutubxonalariga tarqatildi. Jamoatchilik talabiga binoan 1884 yilda Turkiston Jamoa kutubxonasi qayta тикланди. Кутубхонага тегишли барча китоблар унинг фондига қайтарилди.

Turkiston o'lkasini o'rganish bilan shug'ullangan taniqli rus olimlari – arxeolog V.L.Vyatkin, akademik V.V.Bartold va boshqalar kutubxona faoliyatiga yaqindan yordam berdilar[606]. Natijada kutubxona qimmatli nashrlar va materiallar bilan to'lib bordi.

Turkiston xalq kutubxonasi o'z faoliyatining 1917 y. oktyabr davlat to'ntarishidan oldingi 47 yili davomida o'z kitob va qo'lyozma fondlarini tuzish va ularni boyitish borasida ancha katta ishlarni amalga oshirdi. Chunonchi, dastlabki 30 yilda kutubxonada jami 20000 kitob to'plangan bo'lsa, keyingi 6–7 yil ichida uning fondi 57800 kitobdan oshib ketdi. 1917 yilga kelib kutubxona fondida 80000 dan ortiq kitob mavjud edi.

Bu davrda kutubxonada Sharq qo'lyozmalari fondiga asos solindi. Kutubxonani noyob qo'lyozmalar bilan to'ldirishda Kuzatuv kengashi a'zolari entomolog V.F.Oshanin, o'lkashunos sayyoh N.A.Maev, pedagog S.M.Gramenitskiy, tabiatshunos I.I.Krauze va boshqalarning xizmati katta bo'ldi.

1891 yilda N.V.Dmitrovskiy tomonidan Turkiston Jamoa

---

[606]Bu haqda qarang: Bartold V.V. Neskolko slov o Turkestanskoy publichnoy biblioteke G'G' Turkestanskie vedomosti. 1902, 7 iyunya. Shu muallif. Turkestanskaya gosudarstvennaya biblioteka i mestnaya musulmanskaya pechat G'G' Zapiski kollegii vostokovedov pri Aziatskom muzee Rossiyskoy Akademii nauk. M.: 1925. T. 1. – S. 97-105; Lunin B.V. V.V. Bartold i Turkestanskaya Publichnaya biblioteka G'G' Biblioteki Uzbekistana. Sbornik teorii i praktiki bibliotechnogo dela. Vo'p. 5. T.: 1978. – S. 123-149; Yazberdiev A. Akademik V.V. Bartold i Turkestanskaya Gosudarstvennaya biblioteka G'G' Izvestiya Akademii nauk Turkmenskoy SSR. Seriya obhestvenno'x nauk. ashxabad, 1979, №1. – S. 27-36.

kutubxonasi rus bo'limi kitoblarining katalogi tuzildi. E.K.Betgerning fikricha, bu katalog «ayrim sohalar bo'yicha jamoa kutubxonalari kataloglariga namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki tuzuvchi katalogning universal xususiyatini uning o'lkashunoslik vazifasi bilan ajoyib tarzda uyg'unlashtirgan: Turkiston yoki O'rta Osiyoga oid materialning mavjudligi har bir kitobga va jurnallarning har bir soniga belgilab qo'yilgan»[607].

N.V.Dmitrovskiy «Turkiston Jamoa kutubxonasining yigirma besh yilligi» nomli maqolasida Turkistondagi fondi mutlaq rus tilida bo'lgan shaxsiy kutubxonalar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beradi. Bu shaxsiy kutubxonalar Turkiston Jamoa kutubxonasi fondlari tarkibiga kiritilgan. Toshkent sudyasi P.P.Pukalov birinchi bo'lib o'z kitoblarini, chunonchi, Kantemirdan Gogolgacha bo'lgan rus klassik yozuvchilarining asarlaridan 400 jildini kutubxonaga hadya qilgan[608]. 1873–1877 yillarda kutubxonaga Bosh shtabdan tarix, geografiya va harbiy ishga oid 5978 jild olingan. Mazkur kitoblarning 189 jilddan ko'prog'i 1826 yilda A.S.Pushkin tanishgan tarixchi I.P.Liprandining Kishinyov kollektsiyasidan edi[609]. 1896 yilda o'sha payt Toshkentda yashagan rus podshosining amakivachchasi N.K.Romanovdan kutubxonaga rus va Evropa mualliflarining 5000 taga yaqin kitobi kelib tushdi[610]. 1870 yilda Toshkentga kelgan sharqshunos P.I.Pashinodan ilmiy mazmundagi 48 ta kitob sotib olingan. 1865–1868 yillarda Toshkentda xizmat qilgan general-mayor A.N.Geyns o'z shaxsiy kutubxonasi bilan Turkiston kutubxonasini to'ldirishga munosib hissa qo'shdi. Uning kutubxonasida rus, frantsuz va nemis tillarida 450 jild kitob mavjud bo'lib, ular orasida Turkiston to'g'risida asarlar ham bisyor edi[611].

Turkiston Jamoa kutubxonasi keyinchalik ham fuqarolardan shaxsiy kutubxonalar va alohida kitoblarni sotib olish hisobiga boyib borgan. Masalan, 1890 yilda vrach I.A.Derevyanko to'plagan tibbiyotga oid 174 kitob sotib olingan[612]. 1907 yilda sharqshunos N.F.Petrovskiyning

[607]Betger K.K. Trichetvertiveka kulturnoy raboto` k75-letnemu yubileyu Gosudarstvennoy publichnoy biblioteki UzSSR, 1870-1945. Mashinopis. T., 1945, s. 64.

[608]O'zR MDA, 1-jamg'arma, 11-ro'yxat, 1694-yig'majild, 8-varaq.

[609]Qarang: Betger E.K. Redkie knigi, svyazanno`e s imenem A.S.Pushkina G`G` Zvezda Vostoka, 1949, №6. – S. 111.

[610]O'zR MDA, 1-jamg'arma, 11-ro'yxat, 1259-yig'ma jild, 1-4-varaqlar.

[611] Turkestanskie vedomosti, 1895 yil, №33.

[612]O'zR MDA, 1-jamg'arma, 11-ro'yxat, 594-yig'ma jild, 145-varaq.

shaxsiy kutubxonasi (5000 jildga yaqin)[613], 1911 yilda Toshkent arxitektori S.V.Lixanov (1500 jilddan ziyod) va siyosiy arbob P.I.Xomutovdan kitoblar (2000 jildga yaqin)[614] sotib olingan.

1891 yilda Toshkentda ilk o'zbek arxeologlaridan biri Akrom Asqarov vafot etdi. Marhumning merosxo'rlari qo'lyozma Qur'oni karim va uning tavsifini, Mirzo Bedilning she'rlar to'plamini va boshqa kitoblarni Turkiston Jamoa kutubxonasiga sotdilar. V.V.Bartold kitoblar orasida ingliz tadqiqotchilarining Hindiston va Afg'oniston tarixiga oid asarlaridan tuzilgan ko'pgina nodir va qimmatli nashrlar bor edi, deb qayd etadi. Kutubxona tomonidan shaxsiy kitob majmualarini sotib olish keyinchalik ham uning fondlarini to'ldirishning muhim manbai bo'lib qolgan.

1906–1910 yillarda Turkiston Jamoa kutubxonasi faoliyati ancha jonlandi. Bu davrda kutubxonadan foydalanuvchilar soni, kutubxonaga qatnash hamda foydalanishga berilgan kitoblar soni ko'paydi. 1906 yildan boshlab foydalanuvchilar 5, 4 va 2 rubldan garov puli to'laydigan uch toifaga ajratilgan. Har kuni mutolaa zaliga 40 dan 80 tagacha kitobxon tashrif buyurar edi. Chunonchi, 1916 yilda kutubxona kitoblaridan 1500 kitobxon foydalangan. Ayni vaqtda, kutubxonaga keluvchilar soni qariyb 30 ming kishini tashkil etgan, 38 mingdan ortiq nomdagi kitoblar foydalanish uchun berilgan.

6.2.2. Ilmiy jamiyatlarning kutubxonalari[615]

Mustamlaka ma'muriyati XIX asrning uchinchi choragidan e'tiboran Turkiston o'lkasini o'rganish va o'zlashtirish maqsadlarida Rossiya fanining vakillarini keng jalb qila boshladi. Buning natijasida Turkistonga

[613] Turkestanskiy kurer, 1909 yil, №253.

[614] Turkestanskie vedomosti, 1911 yil, №6.

[615] Turkiston o'lkasi ilmiy jamiyatlari va ularning kutubxonalari faoliyatini tadqiq qilishga alohida kitob va bir nechta ilmiy maqola bag'ishlangan: Lunin B.V. Nauchno`e obhestva Turkestana i ix progressivnaya deyatelnost. Konets XIX – nachalo XX vv. Tashkent, izd-vo AN UzSSR, 1962; Kaso`mova A.G. Dorevolyutsionno`e biblioteki Uzbekistana G`G` Ucheno`e zapiski (Tashkentskiy ped. institut), 1966. T. 71. – S. 64-72; Kormilitsin A.I. Biblioteki nauchno-meditsinskix obhestv dorevolyutsionnogo Turkestana G`G` Trudo` (Tashkentskiy universitet), 1966. Vo`p. 287. – S. 132-136; Shu muallif. Biblioteki nekotoro`x nauchno`x obhestv dorevolyutsionnogo Turkestana i ix znachenie v rasprostranenii nauchno-texnicheskix znaniy G`G` Materialo` nauchnoy konferentsii aspirantov TashGU. Gumanitarno`e nauki. Tashkent, 1966. – S. 52-64; Yaxontova N.V. Iz istorii nauchno`x bibliotek dorevolyutsionnogo Turkestana G`G` Ucheno`e zapiski (Tashkentskiy ped. institut). 1966. T. 71. – S. 73-80.

bir qancha ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. Ularning hisobotlari, materiallari va ma'lumotlari keng e'lon qilina boshlandi. Ko'pgina boshlovchi olimlar Turkiston o'lkasiga o'qituvchilik, vrachlik, agronomlik va boshqa shunga o'xshash ixtisosliklardagi faoliyatni ilmiy ish bilan qo'shib olib borish uchun keldilar. Rossiya ilmiy jamoatchiligi vakillari Turkistonda o'z ilmiy muassasalari va jamiyatlarining bo'limlarini tashkil etdilar, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda mahalliy aholi orasida tashviqot ishlari olib bordilar. Ko'pgina olimlar o'lkaning tabiiy boyliklarini tadqiq qilibgina qolmasdan, uning tarixi, madaniyati, tili va turmush tarzini ham chuqur o'rgandilar.

O'rta Osiyoda o'troqlashgan rus olimlari vaqt o'tib bu erda turli ilmiy jamiyatlar tuzish tashabbusi bilan chiqa boshladilar. Turkiston ilmiy jamiyatlari faoliyatida taniqli fan namoyandalari: geograflar P.P.Semyonov-Tyanshanskiy va A.I.Krasnov, geologlar I.V.Mushketov va G.D.Romanovskiy, zoolog va zoogeograf N.A.Severtsev, botanik A.P.Radchenko, entomolog V.F.Oshanin, arxeolog V.L.Vyatkin, sharqshunoslar V.V.Bartold, V.A.Jukovskiy, N.I.Veselovskiy va boshqalar ishtirok etdi.

Turkiston ilmiy jamiyatlari qisqa vaqt ichida o'lkani o'rganish sohasida asosiy o'rinni egalladi. Asosan jamiyat a'zolari tomonidan hadya etilgan ilmiy mazmundagi kitoblardan tashkil topgan ilmiy jamiyatlarning kutubxonalari rus fani va madaniyati yutuqlarini targ'ib qilish, bepoyon Turkiston o'lkasi aholisining hayoti va turmush tarzi bilan jamoatchilikni tanishtirishga katta hissa qo'shdi.

Turkistondagi dastlabki ilmiy jamiyat – O'rta Osiyo ilmiy jamiyati 1869 yilda tashkil etildi va 1872 yilgacha ish olib bordi. Bu jamiyat juda qisqa, lekin samarali faoliyat ko'rsatdi. Chunonchi, jamiyat o'lkada xalq muzeyi tashkil etdi, ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha lug'atlarni nashrga tayyorladi, o'zbek va tojik tili darsliklarini yaratdi. Jamiyat yig'ilishlarida kutubxona to'g'risidagi masala bir necha marta muhokama qilindi. Jamiyatga keluvchi ilmiy mazmundagi kitoblarni Turkiston Jamoa kutubxonasiga tekinga berish, jamiyat a'zolariga kutubxona fondlaridan bepul foydalanish huquqini berish to'g'risida qaror qabul qilindi.

1891 yilda Rossiya texnika jamiyatining Turkiston bo'limi tashkil topdi. Bo'lim tashabbusi bilan o'lkada birinchi ixtisoslashgan texnik nashrlar kutubxonasi tashkil etildi. Mazkur kutubxona asosan obuna nashrlar hamda hadya qilingan kitoblar hisobidan tashkil topgan bo'lib,

1896 yil 1 yanvargacha bo'lgan holatga ko'ra, unda 235 jild kitob va texnikaga oid vaqtli nashrlarning yillik majmualari bor edi. Jamiyatning markaziy bo'limi Turkiston bo'limi kutubxonasiga o'z nashrlarini hadya qildi. 1897 yilning 31 dekabriga kelib kutubxonada 400 jilddan ortiq kitob mavjud edi.

Rossiya bog'dorchilik jamiyatining Turkiston bo'limi ham o'z kutubxonasiga ega edi. Bo'lim 1894 yilda Turkiston qishloq xo'jalik jamiyatiga aylantirildi. Bu jamiyat mahalliy qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirish va takomillashtirishga katta hissa qo'shdi, zamonaviy agronomiya bilimi va usullarini targ'ib qildi, paxtachilik, bog'dorchilik, asalarichilik va boshqa sohalarga oid eng yangi adabiyotlarni tarqatish bilan shug'ullandi. Jamiyat a'zolaridan tashqari, kutubxonadan boshqa shaxslar ham foydalanishlari mumkin edi. Kutubxona yildan yilga yangi nashrlar bilan to'lib bordi.

Turkiston o'lkasining ilmiy-tibbiy jamiyatlari ham muhim ish bilan shug'ullanardilar. Bu jamiyatlar o'zlarining ko'p yillik samarali mehnati bilan Turonzamin xalqi turmushida sezilarli iz qoldirdilar. Ilmiy-tibbiy jamiyatlar orasida Farg'ona tibbiy jamiyati, Turkiston shifokorlar jamiyati (keyinchalik Turkiston tibbiy jamiyati deb nomlangan), tabiatshunoslar jamiyatlarining faoliyati ham diqqatga sazovordir. Bu jamiyatlarning barchasi xalq sog'lig'ini saqlashda, mahalliy aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda, o'lkada tibbiy bilimlarni ommaviylashtirishda faol ishtirok etdilar. Mazkur jamiyatlarning sa'y-harakatlari bilan o'lkada maxsus tibbiy kutubxonalar tashkil etila boshlandi.

Farg'ona tibbiy jamiyati (1892-1910) Turkiston o'lkasidagi dastlabki ilmiy-tibbiy jamiyatlardan biri edi. Jamiyat o'z faoliyatining dastlabki kunlaridanoq ixtisoslashgan kutubxona tashkil etishga kirishdi. 1904 yilning boshiga kelib kutubxonada jamlangan kitoblar, risolalar, ilmiy asarlar 1155 taga etdi, shuningdek, Rossiya va chet elda nashr etiladigan 40 nomdagi tibbiy jurnal va gazetalarning bir necha yilga oid majmualari to'plandi.

1899 yilda Toshkentda tuzilgan Turkiston shifokorlar jamiyati ham tez orada o'z kutubxonasini tashkil etdi. Bu kutubxonada tibbiyot, tabiatshunoslik va tarixga oid juda ko'p kitoblar jamlandi. Jamiyatga a'zo shifokorlar saxiylik bilan kutubxonaga kitoblar hadya qilishi, uning fondiga turli tibbiyot muassasalaridan kitoblar kelib turishi, kitob ayirboshlash tadbirlari keng ko'lamda amalga oshirilishi natijasida bu kutubxona qisqa

vaqt ichida Turonzamindagi eng yirik kutubxonalardan biriga aylandi.

1901 yilda Sharqshunoslar jamiyatining Toshkent bo'limi tashkil etildi. Bo'lim qoshida rus tili va xorijiy tillardagi sharqshunoslik adabiyotlari kutubxonasi ham bor edi. Rus geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi ayniqsa boy kutubxonaga ega edi. Mazkur jamiyat Turonzaminni jug'rofiy o'rganishga asos soldi va Orol dengizini tadqiq qilish. Turkiston daryolarini suv bilan ta'minlovchi muzliklarni o'rganish, foydali qazilma konlarini topish va tadqiq qilish, zilzilalarning sabablari va oqibatlarini aniqlash sohasida katta ishlarni amalga oshirdi. Kutubxonaning bir qismini Rus geografiya jamiyati Orenburg bo'limi tomonidan berilgan kitoblar tashkil etardi. Kutubxona fondlari yildan yilga ko'payib va kengayib bordi. Chunonchi, kutubxonaga 1897 yilda 90 nomdagi nashr, 1903 yilda 193 kitob, 1905 yilda 246 kitob, 1906 yilda esa 534 nomda kitob olindi.

Kutubxonaga taniqli o'lkashunos va bibliograf A.V.Pankov va E.K.Betger kelishi bilan uning ishi yanada rivojlandi. 1912–1915 yillarda bu xodimlarning sa'y-harakati bilan kutubxonada adabiyotlar bilan ishlash takomillashtirildi va mavjud kitob fondlari tartibga keltirildi. 1916 yilga kelib kutubxonada 10 mingdan ortiq kitob, jurnal va boshqa nashrlar mavjud edi. O'lkashunoslikka oid adabiyotlar bo'yicha bu kutubxonaga Turkistondagi birorta ham kutubxona tenglasha olmasdi. Natijada kutubxona nodir kitoblar saqlanadigan boy kitob maxzanlaridan biriga aylandi.

Toshkentda 1901 yilda ochilgan Pushkin jamiyatining faoliyati ham samarali bo'ldi. Bu jamiyat o'lkada keng ko'lamda madaniy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirdi: maktablar va bilim yurtlari ochdi, kitob va risolalar nashr etdi, nihoyat, kutubxonalar va qiroatxonalar tashkil qildi. Jamiyatning kitob do'konlari, omborlari ham bor edi. 1911 yilning fevralida jamiyat bepul qiroatxonali xalq kutubxonasini ochdi. Unga ulug' rus yozuvchisi Lev Nikolaevich Tolstoy nomi berildi. Kutubxona uchun kitoblar hadyalar hisobiga va ayrim nashrlarni sotib olish yo'li bilan to'plandi. Shahar xotin-qizlar xususiy gimnaziyasi direktori L.F.Gorizdro kutubxonaga 254 jild kitob hadya qildi. Ular orasida juda ko'p qimmatli va nodir nashrlar bor edi. Turkiston arxeologiya havaskorlar to'garagining faol a'zosi V.Kallaur turli nomdagi 74 jild kitobni kutubxonaga hadya qildi. Jamoat arbobi Z.A.Chernyavskaya Samarqanddagi sobiq xususiy kutubxonasining 2446 jild kitobini Pushkin jamiyati kutubxonasiga topshirdi. 1912 yilning 1 oktyabriga kelib Pushkin jamiyatining kutubxonasi fondida 2800 jild

kitob jamlandi. Jamiyat iltimosiga binoan mahalliy va markaziy gazeta va jurnallar tahririyatlarining aksariyati unga o'z nashrlarini bepul yuborib turdilar.

1911 yilda L.N.Tolstoy nomidagi bepul qiroatxonadan 8545 kishi, ya'ni har oyda o'rta hisobda 700 dan ko'p kishi foydalandi. 1912 yilda Z.A.Chernyavskaya tomonidan kutubxonadagi kitoblarning katalogi tuzilgach, kitoblar uyga ham berila boshlandi.

Kutubxonani mablag' bilan ta'minlash va yangi adabiyotlar sotib olish uchun jamiyat tomonidan har xil pullik madaniy-ma'rifiy tadbirlar: ommaviy lektsiyalar, adabiy kecha va o'qishlar o'tkazilar, kontsert va spektakllar tashkil etilardi. Tushgan pul kutubxonani ta'minlashga yo'naltirilardi. Ammo, shunga qaramay, mablag' etarli emas edi. Shu bois kutubxonada ma'lum haq evaziga uyga kitob berish tartibi joriy etildi.

Pushkin jamiyati kutubxona-qiroatxonasining foydali faoliyatini e'tirof etishga majbur bo'lgan shahar ma'muriyati 1913 yildan kutubxona uchun har yili 300 rubldan pul ajrata boshladi. Lekin bu pul ham kutubxona-qiroatxona ehtiyojlarini qondirish uchun etarli emas edi. Kutubxona-qiroatxona rahbariyati kitobxonlar sonining ko'payishi qiroatxonani kengaytirish, yangi adabiyotlar bilan to'ldirish, shuningdek, xodimlarni ko'paytirishni taqozo etishini ko'rsatib, shahar ma'muriyatidan ajratiladigan yillik mablag' miqdorini oshirishni so'radi. Ammo bu iltimosga rad javobi olindi.

Kutubxona-qiroatxona aholi orasida keng ko'lamda ma'rifiy ish olib bordi. 1916 yilda Pushkin jamiyati shahar bog'ida yozgi qiroatxona ochdi. Birgina shu yilning yoz oylarida bu qiroatxonaga 12648 kishi keldi. Ular orasida o'quvchilar, ishchilar, amaldorlar va boshqalar bor edi. Keyinchalik kutubxona fondi Turkiston Jamoa kutubxonasiga berildi, so'ngra, 1919 y. mustaqil ommaviy kutubxona qilib ajratildi.

Ilmiy jamiyatlarning kutubxonalari o'z kitob fondlarining ommabopligi bilan Turkiston aholisining hurmat-e'tiboriga sazovor bo'ldi. 1917 yilgi oktyabr davlat to'ntarishidan keyin bu kutubxonalardagi boy kitob fondlari Toshkentdagi ilmiy va ommaviy kutubxonalarga tarqatildi. Bu kitoblarning aksariyati hozirga qadar saqlanib qolgan va O'zbekiston tarixi, fani va o'lkashunosligiga oid qimmatli manba bo'lib xizmat qilmoqda.

6.2.3. O‘quv yurtlari kutubxonalari[616]

Turkistonda birinchi rus maktabi 1866 yilda Toshkentda tashkil etildi. Oradan ikki-uch yil o‘tgach, bunday maktablar Turkiston o‘lkasining boshqa shaharlarida ham ochildi. XIX asrning oxirida gimnaziyalar, real bilim yurtlari, mahalliy tilni biladigan o‘qituvchilar tayyorlash uchun Turkiston o‘qituvchilar seminariyasi tashkil etildi. Rus maktablarida oz miqdorda mahalliy millatga mansub bolalar ham o‘qiy boshladi. Ruslashtirish maqsadlarida mahalliy millatga mansub bolalar uchun rus va rus-tuzem maktablari ham tashkil etildi.

Maktablar, gimnaziyalar, bilim yurtlari, o‘qituvchilar seminariyasi qoshida kutubxonalar tashkil etila boshlandi. Ammo bu kutubxonalarning kitob fondi juda kichkina edi. Bu o‘sha davrda kitoblar va darsliklar sotib olishda qiyinchiliklar mavjudligi bilan izohlanardi. Toshkentda darsliklar bilan savdo qiladigan kitob do‘konlari mavjudligiga qaramay, zarur darsliklar va qo‘llanmalar u erda doim ham topilavermas edi.

O‘quv yurtlarining kutubxonalari kitoblar bilan qanday to‘ldirilganligi va ularning miqdori to‘g‘risida ma’lumot deyarli yo‘q. Ayrim o‘quv yurtlari, gimnaziyalar qoshidagi bir necha kutubxona haqida juda oz ma’lumot saqlangan. Chunonchi, 1876 yilda Toshkentda o‘g‘il bolalar uchun to‘rt sinfli gimnaziya ochilgan. 1879–1880 yildan boshlab u olti sinfli gimnaziyaga aylantirilgan. 1883 yilda Toshkentdagi bu gimnaziyada 8 ta sinf bo‘lgan. Gimnaziya qoshidagi kutubxona asosiy kutubxonaga va o‘quvchilar kutubxonasiga ajratilgan. Asosiy kutubxonada 4294 nomda 8651 jild, o‘quvchilar kutubxonasida esa ozroq: 1697 nomda 3767 jild kitob bo‘lgan[617].

1876 yilda Toshkentda xotin-qizlar progimnaziyasi ochildi. 1877 yilda u gimnaziyaga aylantirildi. O‘sha davrda yashagan A.I.Dobrosmislov gimnaziyaning asosiy kutubxonasida 10000 jildga yaqin kitob mavjudligini, kutubxona juda batartib bo‘lganligini qayd etadi. O‘quvchilar kutubxonasi

---

[616]Turkistondagi rus o‘quv yurtlari va ularning kutubxonalari haqida yana qarang: S.M.Gramenitskiy. Otchet o sostoyanii Tashkentskoy mujskoy gimnazii za 1882(3 uchebno`y god. Tashkent, 1883; Ocherk razvitiya narodnogo obrazovaniya v Turkestanskom krae. Tashkent, 1896; A.I. Dobrosmo`slov. Tashkent v proshlom i nastoyahem. Tashkent, 1912, str. 253-274: K.E. Bendrikov. Ocherki po istorii narodnogo obrazovaniya v Turkestane (1865-1924). M., izd. APN RSFSR, 1960.

[617]Qarang: Gramenitskiy S.M. Ocherk razvitiya narodnogo obrazovaniya v Turkestanskom krae. T., 1896. - S. 34.

esa o'sha vaqtda atigi 158 nomdagi kitobga ega bo'lgan[618].

Turkiston o'qituvchilar seminariyasi qoshida, o'quvchilar kutubxonasidan tashqari, 7000 jilddan iborat kitobga ega asosiy kutubxona faoliyat ko'rsatardi.

1894 yil 1 avgustda ochilgan real bilim yurtidagi asosiy kutubxonada 5059 nomda 9006 jild kitob bor edi.

1879 yilda Toshkent shahar xotin-qizlar bilim yurtida tashkil etilgan kutubxonada 1887 yilga kelib 700 nomda 1000 jild kitob jamlangan. Mablag' ko'payishi bilan 1910 yil 1 yanvarga kelib kutubxonadagi kitoblar soni 4 ming jildga etgan.

Toshkentdagi o'quv yurtlari boshqarmasi qoshida tashkil etilgan kichkina pedagogika muzeyi xalq ta'limi uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Kutubxona muzeyida darsliklar va qo'llanmalar bo'limi, ilmiy pedagogik va ijtimoiy adabiyotlar bo'limi, vaqtli nashrlar bo'limi va bolalar adabiyoti bo'limi ish olib borardi. Kutubxona qoshida yangi adabiyotlar byurosi tashkil etilgan bo'lib, undan yuqorida zikr etilgan bo'limlarga oid biblografik ma'lumot olish mumkin edi. Bundan tashqari, byuroda yangi olingan kitoblarning doimiy ko'rgazmasi tashkil etilgandi. Kutubxona qoshida qiroatxona ham bor edi.

Xullas, o'lkaning deyarli barcha o'quv yurtlarida katta-kichik kutubxonalar tashkil etilgan. Ular o'qituvchilar uchun mo'ljallangan fundamental kutubxonalarga hamda o'quvchilar kutubxonalariga bo'lingan. O'quvchilarning kutubxonalarida darsliklar va o'quv qo'llanmalaridan tashqari, ta'lim dasturida nazarda tutilgan badiiy adabiyotlar ham bo'lgan. Ammo bu kutubxonalarning fondlari juda kichkina bo'lgan; ularda tarix, adabiyot va tabiatshunoslikka oid qo'llanmalarning taqchilligi ayniqsa sezilib turgan.

1871 yil 30 iyulda tasdiqlangan «Turkiston o'lkasi o'rta o'quv yurtlarining kutubxonalarini tartibli saqlash qoidalari»ga binoan o'quvchilar kutubxonalarining kitoblari sinf murabbiylari va kutubxonachi tomonidan o'quvchilarning yoshi va rivojlanish darajasiga qarab sinflarga va bo'limlarga bo'lingan. Har bir bo'lim kitoblarining ro'yxati har yili o'qituvchilar kengashi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan. O'quvchilarning kitob o'qishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilgan. O'quvchi faqat bitta kitobni, shunda ham sinf murabbiysi ko'rsatgan kitobni olishi mumkin bo'lgan. Bu o'quvchilarda norozilik uyg'otgan. Erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari,

[618]Qarang: Dobrosmo`slov A.I. Tashkent v proshlom i nastoyahem. T., 1912. - S. 226.

real bilim yurti va hatto shahar bilim yurtlarining o'quvchilari maktab tartiblariga qarshi yakdillik bilan qarshi chiqqanlari haqida guvohlik beruvchi hujjatlar mavjud. Boshqa talablar bilan bir qatorda, o'quvchilar o'zlari tuzgan ro'yxatlarga ko'ra kutubxonalarni to'ldirishni talab qilganlar. Samarqand erlar gimnaziyasining o'quvchilari esa o'z direktorlariga kutubxonalarga erkin kirishga ruxsat berish talabini qo'yganlar.

O'quvchilar kutubxonalarini kengaytirish masalasi keyinchalik ham ko'p marta ko'tarilgan.Chunonchi, «Turkestanskiy kurer» gazetasi sahifalarida bu masalaga bir necha marta e'tibor berilgan. 1910 yilda bo'lib o'tgan o'qituvchilar qurultoyida barcha maktablar uchun umumiy o'quv adabiyotlari kutubxonasi tashkil etish, uni kengaytirish va qiziqarli, kerakli nashrlar bilan to'ldirish taklif etilgan. Bilim yurtlari komissiyasi o'qituvchilar uchun markaziy kutubxona tashkil etishni ham mo'ljallagan. Bilim yurtlarining mudirlariga bunday kutubxona qaerda joylashishi kerakligini birgalikda muhokama qilish taklif etilgan. Ammo ish muhokamadan nariga o'tmagan.

6.2.4. Harbiy qismlar kutubxonalari

Yuqorida zikr etilgan kutubxonalardan tashqari, Turkistonda rus harbiy qismlar kutubxonalari ham tashkil etildi. Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufmanning 1868 yil 7 apreldagi buyrug'iga binoan barcha alohida batalonlarda, sapyorlar rotasida, lazaretlarda va doimiy tarkibida o'ntadan ortiq ofitser bo'lgan boshqa alohida qismlarda harbiy kutubxonalar ochildi. Bu kutubxonalar asosini harbiy, tabiiy fanlar, matematikaga oid nashrlar tashkil etardi. Ammo kutubxonalar tarkibiga bilimning boshqa sohalariga oid kitoblar, shuningdek, badiiy adabiyotlar, jurnallar, xaritalar, rejalar va hokazolar ham kirardi.

Bu kutubxonalarning kitob fondlari odatda uncha katta bo'lmas edi. Masalan, kutubxonasi eng yirik harbiy kutubxona hisoblangan 11-Turkiston muntazam batalonida kitob fondi 1327 nusxadan iborat. 17- Turkiston muntazam batalonining kutubxonasida esa atigi 116 nomdagi adabiyotlar jamlangan edi. Harbiy kutubxonalardan faqat ofitserlar foydalanardi, askarlar uchun esa kitob va gazetalar qo'yilgan burchaklar tashkil etilardi. Lekin bir qancha harbiy kutubxonalar o'z eshiklarini noharbiy shaxslarga ham ochib qo'ygan edi. Toshkentda 11 ta, Samarqandda esa – 9 ta shunday kutubxona faoliyat ko'rsatardi, ularning beshtasi pullik edi.

6.2.5. Xususiy kutubxonalar

Xususiy kutubxona tashkil etish tashabbusi bilan asosan jismoniy shaxslar, shuningdek, har xil ma'rifiy jamiyatlar chiqardi. Toshkentda birinchi xususiy kutubxona 1870 yilda Polovtseva degan ayol tomonidan ochilgan edi. Bu kutubxonaning kitob fondida 1500 jildga yaqin nashrlar to'plangan bo'lib, ularning negizini entsiklopedik mazmundagi eski nashrlar va asosan boshqa tillardan tarjima qilingan belletristik asarlar tashkil etardi. Kutubxonada qiroatxona ham bo'lib, unda «Oskolki», «Igrushechka», «Ogonyok» kabi gazeta va jurnallar bilan tanishish mumkin edi. Bu kutubxona kitoblari kitobxonlarga ancha katta haq evaziga berilardi[619].

1903 yilda Toshkentda O.G.Geyer 3000 jildga yaqin kitobdan iborat ikkinchi pullik kutubxona ochdi. 1907 yilda bu kutubxonani shahar Dumasi kotibi L.I.Brodskiy sotib oldi. U asta-sekin kutubxona fondini ko'paytira boshladi. 1912 yilga kelib bu fond 5500 jildga etdi. Kutubxona a'zolari soni ham ancha ko'paydi. Kutubxonadan foydalanish haqi ancha yuqori ekanligiga qaramay, unga a'zolar soni 850 kishiga etdi.

1904 yilning yozida A.N.Yakubovskaya Samarqandda bolalar va o'smirlar uchun birinchi xususiy kutubxona ochdi. «Samarqand» ro'znomasining 1904 yilgi 343-sonida bu kutubxona haqida jumladan, shunday deyiladi: «Kutubxona kichkina bo'lishiga qaramay, kitoblar yaxshi tanlangan, fondlar oqilona tuzilgan. Ammo Samarqanddek katta shaharda faqat o'smirlar oz haq to'lab, aqliy oziq olish imkoniyatiga ega, kattaroq yoshdagi aholi esa bunday imkoniyatdan mahrum. Agar kattalar uchun ham kutubxona ochadigan ishbilarmon topilganida, ayni muddao bo'lur edi».

Rossiyada bo'lganidek, Turkistonda ham barcha kutubxonalar, shu jumladan, xususiy kutubxonalar ham politsiya nazorati ostida edi. Shunga qaramay, aholining ma'rifatga intilishi o'lkada yangi-yangi kutubxonalar ochilishiga turtki berardi.

1905 yilda Z.A.Chernyavskaya «Samarqand» gazetasi tahririyati qoshida xususiy kutubxona ochdi. Bu kutubxonada 3000 jilddan ortiq kitob bor edi. Kutubxona markaziy Rossiya va mahalliy gazeta va jurnallarga obuna bo'lgan, kitobxonlar bu erda mazkur nashrlar bilan tanishish imkoniyatiga ega edilar. Kutubxona a'zolari soni oydan oyga ko'payib bordi. Chunonchi, 1905 yilning 1 aprelidan 20 iyunigacha kutubxonaga

[619] Qarang: Dobromso'slov A.I. Tashkent v proshlom i nastoyahem. T., 1912. – S. 260.

1500 dan ortiq kitobxon tashrif buyurdi. Kitoblardan foydalanganlik uchun uch razryad bo'yicha haq to'lash tartibi belgilandi. Kambag'allardan esa garov puli olinmas edi.

6.2.6. Jamoa kutubxonalari

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining bo'lis va uezd shaharlarida ham jamoatchilik yoki mahalliy ma'muriyat tomonidan tuzilgan kutubxonalar va kutubxona-qiroatxonalar tashkil etila boshlandi. Chunonchi, 1899 yilda Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona)da shahar jamoa kutubxonasi ochildi. Sal vaqt o'tib Qo'qon va Namanganda ham shahar jamoa kutubxonalari ish boshladi.

1909 yilda O'ratepa uezdi aholisining faol ishtirokida jamoa kutubxonasi ochildi. 1910 yilda Jizzax, Xo'jand va Kattaqo'rg'onda ham jamoa kutubxonalari tashkil etildi.

1911 yilda Samarqand shahridagi eng katta jamoa kutubxonasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Kutubxona uchun maxsus qurilgan yangi binoda muzey ham joylashgan edi. Bu binoni qurishga shahar ma'muriyati tomonidan 1901 yilda mablag' ajratilgan edi. Kutubxonaning kitob fondi 2000 jilddan iborat bo'lib, kitoblar asosan muassasalar, idoralar va alohida shaxslar tomonidan in'om qilindi. Bular ko'pincha asarlar to'plamlarining ayrim jildlari yoki jurnallarning alohida sonlari bo'lardi. Kutubxona mahalliy ma'muriyatdan oz miqdorda moddiy yordam olib turar, asosan xayriya mablag'lari hisobiga ish olib borardi.

Bu davrda dastlabki ixtisoslashgan jamoa kutubxonalari ham tashkil etila boshlandi. Bunga misol qilib Toshkentda 1909 yilda ochilgan teatr kutubxonasini ko'rsatish mumkin. Mazkur kutubxonaning maqsadi teatrlarga hamda teatrga oid adabiyotlar bilan qiziquvchilarga xizmat ko'rsatish va ularni axborot bilan ta'minlashdan iborat edi.

1910 yilda shahar mahkamasi qoshida sanitariya kutubxonasi ochildi. Kutubxonada Rossiyaning Evropa qismidagi ko'p shaharlardan to'plangan adabiyotlar jamlandi. Sal ilgariroq, 1907 yilda Toshkentda ovchilar jamiyati qoshida kutubxona tashkil etilgan edi. 1914–1916 yillarda shaharda yana bir nechta kichkina ixtisoslashgan kutubxonalar ochildi.

1902 yilda O'rta Osiyo temir yo'llari bosh ustaxonasi (Toshkent shahri) xizmatchilari tomonidan tashkil etilgan jamoa kutubxonasi ham pullik xizmatlar ko'rsatardi. Kutubxonadan nafaqat bosh ustaxona, balki Toshkent stantsiyasi boshqa xizmatlarining ishchi va xizmatchilari ham

foydalanardilar. 1910 yilda kutubxona kengaytirildi va uning qoshida qiroatxona ochildi. Amalda bu dastlabki rasmiy jamoat kutubxonalaridan biri edi. Kutubxona saylab qo'yiladigan kutubxona qo'mitasi tomonidan boshqarilardi. Qo'mita tarkibiga ishchilar ham kirardi. Shahar jamoatchiligining ilg'or vakillari kutubxona faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlar edilar. Kutubxona a'zolik badallari, xayr-ehsonlar hamda yo'l Boshqarmasi tomonidan ajratiladigan oz miqdordagi mablag'lar hisobidan ta'minlanardi. Mablag'larni oshirish uchun har xil oqshomlar va kontsertlar o'tkazilardi. Bu tadbirlardan tushgan mablag'lar kutubxona va qiroatxonani ta'minlash uchun topshirilardi. Natijada kutubxona fondi yildan yilga ko'payib bordi. 1914 yilga kelib kutubxonada bilimning turli sohalariga oid 12,5 mingdan ortiq jild kitob mavjud edi. Qiroatxonaga keluvchilar soni esa 7 ming kishidan oshib ketdi.

Asrning dastlabki yillarida Qo'qon stantsiyasi deposi (1903 yil), Chernyaevo (1905 yil) va Turkiston stantsiyalari qoshida temiryo'lchilar jamoa kutubxonalari va qiroatxonalar ochildi. Masalan, Chernyaevo stantsiyasida faoliyat ko'rsatgan bepul kutubxona fondida 700 jildga yaqin kitob, shu jumladan, rus va chet el mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari bor edi. Kutubxonada haftada ikki marta kitob berilardi. Bu kutubxona 1917 yilgacha ish olib bordi.

1917 yilning mayida Toshkentda savdo va savdo-sanoat xodimlari kasaba uyushmasi a'zolari uchun qiroatxona tashkil etildi. Xuddi shu vaqtda talabalar va kurslarning tinglovchilari tashabbusi bilan o'qituvchilar seminariyasi qoshida yangi bepul qiroatxona ochildi. Kavkaz musulmonlari koloniyasi shu davrda «Birlik» degan nomda jamoa kutubxona-qiroatxona tashkil etdi.

Savollar va topshiriqlar:

1. Jadidchilik ruhidagi milliy turkiston kitobat madaniyatini ta'riflang.

XULOSA

1. Turonzaminni chor Rossiya istilo qilganidan so'ng Vatanimiz davlat-huquqiy maqomida, siyosat va madaniyat sohalarida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ishlab chiqarish sohasida yangi kapitalistik munosabatlarning unsurlari paydo bo'la boshladi, milliy matbaachilik rivojlandi, noshirlik,

kutubxonachilik, kitob savdosi, bibliografiya ishi sohalariga yangicha shakllar kirib keldi. Ayni vaqtda, XIX asr oxiriga borib eski o'rta asrlar milliy madaniyatining shakllari chuqur inqirozga uchradi. Bu inqiroz o'sha davrdagi Turonzamin jamiyatining ma'rifiy va ma'naviy sohalariga ayniqsa jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ta'lim mazmuni va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jamiyat hayotining ma'naviy-intellektual tomoni yangi davr talablariga javob bermay qo'ydi. Ma'lumki, har qanday inqiroz inson shaxsi, butun jamiyat, shu jumladan, uning madaniyati rivojlanishining zarur shartidir. Inqiroz tufayli qadriyatlarni har tomonlama, teran tushunib etish va qayta ko'rish sodir bo'ladi, madaniyat yangi sifat holatiga o'tadi.

Jadidchilik harakati va uning eng yorqin vakillari qadriyatlarni qayta ko'rib chiqdilar va yuqorida zikr etilgan ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy va huquqiy inqirozdan chiqish yo'llarini mufassal tahlil qildilar. Jadidlar Turonzaminni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turonzaminda muxtoriyat davlatini barpo etish uchun kurash, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirishni o'z oldiga bosh vazifa qilib qo'ydilar. Milliy mustaqillik uchun kurash olib borar ekanlar, jadidlar inson hayotini, ijtimoiylik, ma'naviyatni, o'zini xalqining va butun insoniyatning zarur va ajralmas qismi deb anglashni yangi axloqiy qadriyatlar deb e'lon qildilar.

2. XX asr boshidagi Turkistonda asosiy g'oyaviy-siyosiy kurash bir nechta g'oyaviy oqimlar o'rtasida kechdi: 1.Chor mustamlakachi ma'muriyatining g'ayrimilliy assimilyatorlik (hokim xalq tili va madaniyatini boshqa xalqlarga zo'rlik bilan singdirish, etnografik ma'noda – bir xalqning o'z tili, madaniyati va milliy o'zligini yo'qotgan holda boshqa xalqqa qo'shilishi), izolyatsionistik (xalqlar va millatlarni dunyo hamdo'stligidan va bir-biridan ayirish, bir-biriga qarshi gij-gijlash) siyosati ruhi bilan sug'orilgan rus buyuk davlatchilik shovinizmi mafkurasi; 2.Aholining muayyan qismi, chunonchi, ruhoniylar, yirik va o'rtahol er egalarining o'rta asrlarga xos xurofiy, eskicha qarashlarini ifodalovchi patriarxal-feodal mafkura; 3.Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy, Sattorxon Abdulg'afforov, Berdaq, Avaz O'tar, Zavqiy, Anbar Otin singari yirik ma'rifatparvarlarni maydonga chiqargan feodalizmga qarshi ma'rifatchilik mafkurasi; 4.XIX asrning 90-yillari – XX asrning dastlabki yigirma yilida keng faoliyat ko'rsatgan, Vatan mustaqilligi uchun otashin kurashchilarni tarbiyalagan, feodalizmga va mustamlakachilikka qarshi yangi milliy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifatchilik harakati – jadidchilik mafkurasi; 5.Rossiya sotsial-demokratlari mafkurasi; 6.Rossiya konstitutsion demokratlari mafkurasi; 7.Rossiya Monarxistlar mafkura-

si: 8.Rossiya sotsial-revolyutsionerlar mafkurasi; va nihoyat, 9.Rossiya bolsheviklari mafkurasi. Mazkur har xil g'oyaviy oqimlar o'rtasidagi kurash kitobat ishi sohalarini ham chetlab o'tmadi, albatta. Bu kurash xususan bilimning turli sohalarida chop etilgan bosma kitoblarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishida kutubxonachilik ishining rivojlanishida o'z aksini topdi.

3. Vatanimiz milliy madaniyati va kitobat ishi sohalarining Yangi davrdagi asosiy masalalarini tahlil qilar va umumlashtirar ekanmiz, shuni e'tirof etish kerakki, XIX asr oxiri XX asr boshi Turonzamin milliy madaniyatida iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o'rta asrlarga xos qoloqlik va turg'unlikdan, madaniy va ma'rifiy faoliyatning qat'iy tartibga solingan shakllari va mazmunidan mustamlakachilikka va feodalizmga qarshi kurash ruhi bilan sug'orilgan demokratik ma'rifatchilik mafkurasi va madaniyatiga, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning yangi sharoitlariga, burjua erkinliklari, inson huquqlari va demokratiya uchun kurashga o'tish etakchi tamoyilga aylandi. Bu esa Turonzamin xalqining madaniy hayotida sodir bo'lgan tarixiy o'zgarishlarda o'z aksini topdi. Turonzamin kitobat madaniyati uchun mutlaqo yangi omillar, chunonchi, milliy matbaachilik va vaqtli matbuotiga asos solinishi, kitob nashrlarining milliy kitobat ishi uchun yangi turlari – darsliklar, qo'llanmalar, tabiiy fanlar majmuiga oid ilmiy-ommabop adabiyotlar, adabiy-badiiy nashrlar, kutubxonalarning yangi turlari – davlat mablag'i hisobidan faoliyat ko'rsatuvchi umumistifoda ommaviy kutubxonalari, yangicha mazmundagi adabiyotlardan tuzilgan usuli jadid maktablarining kutubxonalari, ovrupocha o'quv yurtlarining kutubxonalari, muayyan sohaga oid maxsus adabiyotlardan iborat ilmiy jamiyatlar kutubxonalarining paydo bo'lishiga yuqorida zikr etilgan tamoyillar sabab bo'ldi.

4. Turonzamin xalqi umumiy ta'lim, madaniy, texnik-texnologik darajasining oshishi voqelikka nisbatan uning munosabati o'zgarishiga, shaxs sifatida o'sishi va dunyoqarashining kengayishiga, yangi kitobxonning shakllanishiga va uning soni ortishiga imkoniyat yaratdi. Bu usuli jadid maktablari tizimi, rus-tuzem maktablari, umumistifoda jamoa kutubxonalari, shaxsiy kutubxonalar va kitob to'plamlarining rivojlanishida o'z aksini topdi.

5. Turkiston xalqi matbaachiligining eng muhim o'ziga xos jihati va xususiyati qo'lyozma, terma va litografik bosma usullarining bir vaqtda, parallel rivojlanishi hisoblanadi. Bunda Turkiston xalqlari usullarida chop etilgan kitoblarining aksar qismini litografik bosma usulida chop etilgan kitoblar tashkil qiladi. Turonzamin shaharlarida eng oddiy, qulay va arzon kitob chop etish usuli sifatida aynan litografik bosma usuli keng qo'llandi

va tarqaldi.

Milliy noshirlar tomonidan aynan shu bosma usulining tanlanishi va uning milliy matbaachilikda mustahkam o'rin egallashining asosiy sababi shu bilan izohlanadiki, litografik bosma usuli, kitob bosish jarayonining ajralmas komponenti sifatida xattot mehnatidan foydalanib, ming yillik xattotlik an'analarini buzmas edi. Aksincha, u qayta ko'chirish uchun matn jihatidan eng to'liq va sifatli qo'lyozmalarni tanlab olishda xattotlarning qo'lyozma kitoblarga oid ko'p asrlik bilimlari, o'quv va mahoratlaridan foydalanish, ularni kitob boyliklarini oshirishga xizmat qildirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib berardi. Buning sharofati bilan litografik bosma usuli milliy kitobatchilikning umumiy o'ta konservativ an'analari qatoriga beziyon qo'shilardi. Buning yana bir sababi shundan iborat ediki, qo'lda teriladigan bosma usulidan farqli o'laroq, litografik usul harf teruvchilar, muharrirlar va musahhihlarning mehnati bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayonlarni talab qilmay, harf terish va bosish dastgohlari, qimmat va kamyob arab shriftlarini sotib olish xarajatlaridan ozod etardi. Xususiy tadbirkorlik sharoitlarida litografik bosma usuli qo'lda teriladigan bosma usuliga qaraganda ancha arzon tushardiki, bu yana bir muhim omil bo'lib xizmat qildi.

6. Tadqiqot o'tkazish jarayonida Turkistonda ham, xuddi shuningdek, bir-biriga o'xshash ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniy-mafkuraviy muassasalar va an'analarga ega bo'lgan vatanimizga sarhaddosh mamlakatlarda ham (Eron, Hindiston, Turkiya) milliy bosma kitob noshirchilikni joriy etishni jilovlab turgan umumiy ob'ektiv qonuniyatlar aniqlandi. Birinchidan, bu ana shu jamiyatlarda ustuvor hukmronlik qilgan ishlab chiqarish va moddiy ne'matlarni taqsimlash usuli va u bilan shartlangan ijtimoiy ong shakllari, ustqurmaviy institutlar xosiyatlari, texnikaviy tafakkur va ilmiy-texnikaviy yutuqlarni ishlab chiqarishga tadbiq etishga tayyorgarlik darajasidir. Ikkinchidan, bu – ikki ming yildan ziyod ustuvor hukmronlik qilib kelgan qo'lda kitob ko'chirish, kitoblar adadini ko'paytirish usuli, xattotlik san'ati va hunarmandchiligi an'analaridir. Uchinchidan, bu – musulmon ruhoniylarining din bilan chambarchas bog'liq intellektual hayotda nazorat qilish qiyin bo'lgan burilish yasagan fan, texnika, ishlab chiqarishning yangi taraqqiyparvar ilg'or kashfiyoti sifatida bosma kitob noshirchiligiga salbiy, konservativ munosabatidir.

7. Tadqiqot jarayonida 1868–1917 yillar mobaynida Turkiston o'lkasi hududida turli davlatlarda hammasi bo'lib 70 ga yaqin bosmaxona va litografiyalar faoliyat ko'rsatgani aniqlandi. Ularning barchasi o'zbek, rus, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz va qoraqalpoq tillarida vaqtli matbuot nashrlari va

kitoblar chop etish bilan shug'ullangan. Barcha matbaa muassasalari kapitalistik rusumdagi xususiy tadbirkorlik korxonalari bo'lgan, demak, avvalboshdan o'z oldiga daromad olishni maqsad qilib qo'ygan. Faqat Xiva xoni Muhammad II ning litografiyasi va Turkiston general-gubernatorligining bosmaxonasi bundan mustasnodir.

8. Kitob chop etishning litografik usuliga o'tilishi bilan kitoblarni qo'lda ko'chirish va ko'paytirish usuli sharoitlarida mavjud bo'lgan matnni tayyorlash va chop etish tartibida tubdan o'zgarish yasaldi. Matbaachilikda yangi kasblar va shaxslar – litografiyalarning egalari, matbaachilari, noshirlari, u yoki bu nashrni mablag' bilan ta'minlovchi homiylar paydo bo'ldi. Xattotlar, sahhoflar va kitobfurushlarning faoliyatida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Agar avval kitoblarni qo'lda ko'paytirish usulida kitobfurushlar asosan vositachilik faoliyati – sahhoflar va aholidan eski, restavratsiya qilingan, xattotlardan esa yangi ko'chirilgan kitoblarni olib sotish bilan shug'ullangan bo'lsalar, endi kitoblarni litografik usulda chop etishda ular kitoblarni aholining turli qatlamlari orasida tarqatish bosqichida, nashrlarning mavzusi, janri va tipologik rang-barangligini belgilashda asosiy shaxslarga aylandilar.

Qo'lyozmani nashrga tayyorlash bosqichidagi asosiy shaxs noshir bo'lib qoldi. U muharrir va musahhih funktsiyalarini o'zida birlashtiribgina qolmay, chop etishga rejalashtirilgan yangi qo'lyozmalarni yoki eski qo'lyozma kitoblarning tekstologik jihatdan sifatli matnlari, yangi yozilgan va chop etilgan kitoblarning badiiy va ilmiy saviyasi uchun ham asosiy mas'ul shaxs hisoblanardi. U mualliflar, xattotlar, buyurtmachilar, kitobfurushlar, nashrlarning homiylari bilan muzokara olib borar va ular bilan shartnoma tuzar, kitoblarni badiiy bezash xususiyatlari, ularning bichimi, ichki va tashqi ko'rinishini belgilar edi. Xattotni ham noshirlar tanlardi. Ayrim hollarda matnni ham ularning o'zlari ko'chirardi. Bu jarayonlarning barchasida malakali xattotlar o'zlarining maslahatlari bilan ularga yaqindan ko'mak berardi.

9. Ushbu tarixiy davrdagi kitobat madaniyati tarixini o'rganish ko'plab unutilgan noshirlar, xattotlar, homiylar, kitobfurushlar, matbaachilik korxonalarining egalari, sahhoflar qatori yirik milliy noshir va litografiya egasi, o'zining noshirlik sohasidagi fidokorona faoliyati bilan o'zbek demokratik matbaachiligiga ulkan hissa qo'shgan Muhammad Azim Hoji Marg'iloniy nomini ham aniqlash imkonini berdi.

Uning hayoti va faoliyatini bizga ma'lum bo'lgan dastlabki manbalar (xususan, Azim Hojining litografik nashrlari) va narrativ (izohlangan,

ikkilamchi) manbalar asosida qiyosiy-tarixiy va manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish o'zbek milliy madaniyatining ushbu arbobi haqida ma'lumotlarimizni jiddiy to'ldirishga imkoniyat yaratdi. Azim Hoji o'zining birinchi litografiyasini (bu noshirning hayoti va faoliyati haqida yagona manba – Husayin Shamsning broshyurasida aytilganidek) 1887 yili Qo'qonda emas, balki 1884 yili Azim Hojining vatani bo'lgan Marg'ilon shahrida ochilganini isbotlashga muvaffaq bo'lindi.

Shuningdek, G'ulom Hasan Orifjonov va Ishoqxon Ibrat kabi yirik milliy noshirlarning noshirlik faoliyatini ham nisbatan to'liq tadqiq qilishga muvaffaq bo'lindi. Komil Xorazmiy, Esonboy Husayinboev, Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Hoji Muin, Abduqodir Shakuriy, Rustambek Yusufbekov, Tavallo, Muhammadjon Podshoxo'jaev, Saidrasul Saidazizov, Nizomiddin Xo'jaev, Shokirjon Rahimiy, Oxunzoda Abdurauf Mashhadiy, Husayin Makaev, Mahmud Yayfaniy, Mirzo Xayrullo Xo'qandiy, Ibrohim Davron, R.Rasulzoda, Ashurali Zohiriy va boshqa ko'plab kishilarning mualliflik, noshirlik, kutubxonachilik va kitobfurushlik faoliyatini birinchi marta yaxlit bir monografik tadqiqotda jamlash va ta'riflashga erishildi.

Litografik bosma usulida chop etilgan kitoblarni manbashunoslik nuqtai nazaridan va paleografik jihatdan o'rganish bu shaxslarning noshirlik faoliyati va ularning ishtirokida chop etilgan kitoblar haqida fanda mavjud bo'lgan ma'lumotlar doirasini jiddiy to'ldirish imkonini berdi. Bundan tashqari, Turkiston litografiyalarining kitob repertuarini birinchi marta nisbatan to'liq ta'riflashga muvaffaq bo'lindi.

10. Turkistonda eski bosma usulida kitob chop etish repertuarini tarixiy-tipologik va madaniyatshunoslik jihatdan o'rganish asosida litografik bosma usulida chop etilgan kitoblarning adabiy-badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop, darslik singari turlarining tipologik xarakteristikalari aniqlandi. Eski litografik bosma usulida kitob chop etish repertuarining mazmuni Turkiston xalqlarining XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi ma'naviy turmushining eng muhim o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Real turmushda kechgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar – aholining ijtimoiy va mulkiy tabaqalarga bo'linishi, ular ongining o'zgarishi va o'sib borishi hamda bu jarayonlar bilan izohlanuvchi turli mafkuraviy va madaniy oqimlarning kurashi aynan kitoblarda o'z aksini topadi.

11. Turkiston jamiyatida sodir bo'layotgan har xil g'oyaviy oqimlar o'rtasidagi kurash kitobat ishi sohalarini ham chetlab o'tmadi, albatta. Bu

kurash xususan bilimning turli sohalarida chop etilgan bosma kitoblarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishida (kitob ko'paytirish qo'lyozma usulining tez barham topishi bilan baravar kechdi) va nashriyotchilik, kitob savdosi, kutubxonachilik va bibliografiya ishlarining rivojlanishida o'z aksini topdi.

Mazkur g'oyaviy kurashga muvofiq Turkistonda chop etilgan barcha bosma usulidagi kitoblarni bir nechta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni diniy-ilohiy mazmundagi adabiyotlar va musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni karim hamda diniy mazmundagi nashrlar, avliyolar va anbiyolarning hayotiga doir agiografik adabiyotlar tashkil qiladi.

Ikkinchi guruhga o'zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq mumtoz badiiy adabiyoti nashrlari, turkiy, forsiy va arab tillarida chop etilgan ma'rifiy va demokratik mazmundagi falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va tarixiy adabiyotlar kiradi.

Uchinchi guruhni jadidlarning vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan kitoblar tashkil etadi.

To'rtinchi guruhni tabiiy va texnik fanlarga doir ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlar, dunyoviy maktablar uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalari tashkil qiladi.

Beshinchi guruhga g'ayri milliy assimilyatorlik va izolyatsionistik siyosati ruhi bilan sug'orilgan rus buyuk davlatchilik shovinizmi mafkurasi va monarxizm g'oyalari o'z ifodasini topgan kitoblar kiradi.

Oltinchi guruhni Rossiya konstitutsion demokratlari, sotsial-demokratlari, sotsial-revolyutsionerlari va bolsheviklari mafkurasi bilan sug'orilgan asarlar nashrlari tashkil etadi.

12. Turkistonda litografik bosma usulida chop etilgan kitoblarni bezashning badiiy-poligrafik o'ziga xosliklarini o'rganish shunday xulosa chiqarish imkonini beradiki, o'zining badiiy tuzilishi, matnning bezalishi va badiiy-grafik istifoda qilinishi, o'zining butun arxitektonik tuzilishiga ko'ra u o'sha davr ruhiga ko'proq javob beruvchi kitobat madaniyatining demokratik an'analarini o'zida aks ettirgan va ularni rivojlantirgan. Toshbosma kitob qo'lda yozilgan kitoblarni shunchaki esga solib qolmaydi. Genetik jihatdan u boshqacha, litografik usulda bosilgan holda, qo'lda yozilgan kitoblardan bevosita o'sib chiqadi. O'zining eng sara namunalarida u qo'lyozma kitoblardan uzoqlashishga emas, balki aynan ularga yaqinlashishga intiladi. Bunda ularga o'ziga xos bir etalon sifatida yondashadi. Kitoblarni litografik usulda chop etishda bu ham kitoblarni qo'lda ko'chirishning uzluksiz an'anasi sanalgan xattot mehnatidan, ham boshqa ustalari – bezovchi rassom-musavvirlar, sahhoflar mehnatidan foydalanish yo'li bilan ta'minlanadi.

13. Turkiston litografik matbaachiligida titul varag'i, mundarija, noshirlar va kitobfurushlarning chop etishga tayyorlangan va chop etilgan kitoblar haqida reklama e'lonlarining paydo bo'lishini Evropa kitob madaniyatining kuchli ta'siri bilan izohlash mumkin.

14. Ayrim litografik nashrlarning titul varaqalarida noshirlar, homiylar, buyurtmachi-kitobfurushlar sifatida odatda ko'pgina nashrlarda kuzatilgani singari alohida shaxslar emas, balki "Kitob uylari" – hissadorlik asosida tashkil qilingan, kitob nashr etish, noshirlik ishini mablag' bilan ta'minlash hamda kitob savdosi va kutubxonachilik bilan shug'ullangan, ya'ni yangi dunyoviy litografik va qo'lda harf terish usulida chop etilgan mahalliy tillardagi kitoblar bilan savdo qiluvchi kitob do'konlari, kutubxonalar va qiroatxonalar tashkil qilish bilan shug'ullangan o'ziga xos noshirlik – kutubxona – kitob savdosi shirkatlari qayd etiladi. Litografik nashrlarning titul varaqlarini, noshirlarning so'zboshilari va so'ngi so'zlarini, o'sha yillardagi litografik kitoblarning o'zida va vaqtli matbuot nashrlarining sahifalarida joylashtirilgan reklama e'lonlarini qiyosiy-tarixiy va tarixiy-filologik o'rganish, Kitob uylari joylashgan erlarni, ularning maqsadlari, vazifalari va ish usullarini aniqlash, ularning noshirlik, kitob savdosi va kutubxonachilik faoliyatini tadqiq qilish imkonini berdi. Kitob uylarining tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi 1910 yildan 1918 yilgacha bo'lgan qisqa tarixiy davrga to'g'ri keladi. Bu davrda noshirlik, kitob savdosi va kutubxonachilik faoliyati bilan "Ma'rifat", "Madora", "G'ayrat", "Birlik", "Maktab", "Nashriyot", "Madaniyat", "Xayriya", "Turon", "Turkiston matbaa o'rtoqligi", "Turkiston kutubxonasi" singari Kitob uylari shug'ullangan. Ular Turkistonning Toshkent, Qo'qon va Samarqand kabi an'anaviy madaniy va adabiy markazlarida faoliyat ko'rsatgan.

15. Turkistonda litografik matbaachilikning paydo bo'lishi kitob savdosi tarixida yangi bosqichga asos soldi. XVIII asrning oxirlaridan boshlab bu erga Hindiston, Eron, Turkiya va Tataristondan Sharq mumtoz badiiy adabiyotining namunalari va diniy-ilohiy kitoblarning litografik usulda chop etilgan dastlabki nashrlari kirib kela boshladi. Turkistonda bo'lgan bosma nashrlarning repertuarida Qozonda chop etilgan kitoblar ma'lum ahamiyat va tarixiy o'ringa ega. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Xo'jand, Chimkent, Avliyo Ota, Almati, Taroz, Ashxabod, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Yangi Marg'ilon (Farg'ona)da xususiy kitob do'konlariga ega bo'lgan mahalliy kitobfurushlar Hindiston, Eron, Turkiya, Ozarboyjon, Tatariston noshir va kitobfurushlari bilan chuqur o'zaro aloqalar o'rnatgan edilar.

16. Butun Turkiston hududini qamrab olgan holda hamma joyda kitob savdosini yo'lga qo'yish an'anasi Yangi davr mobaynida o'zining keyingi rivoji va davomiyligiga ega bo'ldi. U o'z ishining ustasi bo'lgan professionallar tomonidan o'sha zamon uchun etarlicha yuksak darajada jahon kitob savdosi amaliyotida ma'lum bo'lgan ishni tashkillashtirish barcha shakllari va uslublaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi. Chakana va ulgurji, muqim va sayyor savdodan tashqari bukinistik va antikvar kitoblar savdosi bilan shug'ullanuvchi maxsus rastalar ham mavjud bo'lgan. To'la sandiqchalarni ko'targancha kitob sotuvchi, tanlab olishga, xoh qo'lyozma va bosma bo'lsin, xoh sharq va evropa tillarida bo'lsin, har qanday kitobni reklama va taklif qiluvchi kitobbardorlar – tojiri kutub – kitobfurushlar shahardan shaharlarga, qishloqdan qishloqlarga ko'chib yurar edilar. Toshbosma nashrlar titul varag'ida nomlari eng ko'p uchraydigan kitobfurushlar orasida Mulla Mirzaahmad Mirzakarim o'g'li, Hoji Abdullohbek sahhof, Said Akbarxo'ja Imom Zayniddinxo'ja o'g'li, Abdusamixo'ja, Muhammad Alixo'ja, Ibrohim Davron, Siddiqxo'ja Xo'jandiy, Mulla Zufar Shukurmuhammad, Mulla Abdurahmon, Mulla Muhammad Ali Vali o'g'li, Mulla Mirmaxdum Shoh Yunus, Mulla Mir Sobir, Mulla Muhammad Olim, Eshon Solihxo'ja kabi kitob savdosi faol tashkilotchilari bo'lgan. Rus ziyolisi, etnograf-olim, pedagog va yozuvchi, arab, fors-tojik va o'zbek tillarini mutaxassisi, turkiston xalqi turmushining bilimdoni G.V.Andreevning "har bir shaharchada kamida o'nga yaqin maxsus kitob do'konlarini topish mumkin, shuningdek, biron-bir ko'zga ko'ringan qishloq yo'qki, unda aqalli bir nechta shunday do'konlar bo'lmasin"[620] - degan e'tirofi chuqur ma'noga ega. U hech bo'lmasa o'tgan asr boshlaridagi (Birinchi jahon urushi boshlangunga qadar) iqtisodiy ahvol va milliy ijtimoiy hayot, omma savodxonligi darajasi va kitobga bo'lgan talab haqida atroflicha xulosa chiqarishga imkon beradi.

17. Kitob savdosi tashkilotlari ularning kitob mahsulotlari assortimenti xarakteriga bog'liq holda bir necha ko'rinishda bo'lgan: istisno tariqasida faqat turkiy, forsiy va arab tillaridagi qo'lyozma kitoblar sotiladigan rastalar; qo'lyozma va toshbosma kitoblar aralash assortimentiga ega bo'lgan rastalar; assortimentida qo'lyozma va toshbosma kitoblar ustuvor bo'lgan, ammo rus tilidagi bosma harf teruv kitoblar ham mavjud bo'lgan rastalar; istisno tariqasida faqat rus va evropa tillaridagi kitoblar sotilgan do'konlar; evropa va sharq tillaridagi kitoblar aralash assortimentiga ega bo'lgan do'konlar.

18. XIX asr va XX asr bo'sag'asida Turkiston kitob bozori

[620] Andreev G.V. Sartovskaya literaturaG'G' Turkestanskiy kurer, 1908, № 38.

kon'yunkturasini bir necha omillar belgilab bergan edi. Bir tomondan, kitobat madaniyatida qo'lyozma va toshbosma kitoblar paralel rivojlanishi va mavjud bo'lishi ilk kezlardan ularning keskin raqobatiga olib kelgan edi. Bu jarayonga mahalliy va ajnabiy savdogar va kitobfurushlar tomonidan ko'p miqdorda Hindiston va Erondan keltirilgan arzon toshbosma nashrlar, Turkiyadan olib kelingan harf teruv-bosma nashrlar ham qo'shildi. Boshqa bir tomondan, Turkistonning Umumrossiya bozori orbitasiga birin-sirin jalb etilishi va Turkiston shaharlarida rusiyzabon o'quvchilar kontingenti vujudga kelishi mamlakatda Rossiyadan olib kelinadigan rus va ayrim evropa tillaridagi kitoblarga, shuningdek, Boku, Qozon va Qrimda chop etilgan ozarboyjon, qrim tatar, tatar, boshqird va arab tillaridagi arab imlosidagi harf teruv-bosma kitoblarga yo'l ochib bergan edi. Pirovardida bu jarayonlar mavzuiy va lisoniy masalada muomalada bo'lgan kitoblar tuzilmasiga, kitobfurushlik rastalari assortimenti va davlat, jamoat va xususiy kutubxonalar kitob yadrosi shakllanishiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi.

19. O'sha kezlardagi Turkiston voqeligi sharoitida noshirlar ham xattotlar, kitobfurushlar, toshbosma nashrlarning boshqa homiylari va buyurtmachilari kabi xalqni ma'rifatli aylagan holda ob'ektiv bir tarzda ulkan ahamiyatga ega bo'lgan madaniy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirdilar. Kitobat ishi namoyandalarining progressiv roli umumiy kontekstida taniqli rus adabiy tanqidchisi V.G.Belinskiyning XVIII asr oxiri ajoyib rus noshiri, jurnalisti va kitobfurushi N.I.Novikov sha'niga aytgan quyidagi so'zlari alohida jaranglaydi: "Har bir faoliyat sohasi rang-barang va turli-tuman arboblarni talab etadi. Bir qaraganda, faqat olim – ilm-fan, shoir – she'riyat, adabiyotshunos – adabiyot qaddini ko'tarishi va olg'a harakatlanishi mumkindek tuyuladi. Hech bir shak-shubhasiz, olimlarsiz ilm-fan nafaqat qad rostlay va olg'a harakatlana olmasdi, huddi she'riyat shoirlarsiz, adabiyot yozuvchilarsiz bo'lmaganidek, balki hatto mavjud bo'lolmasdi. Ammo, shunga qaramasdan, o'zlari hech nima yozmagan va olim ham, shoir ham, adabiyotchi ham bo'lmagan odamlar ilm-fanga, she'riyatga, adabiyotga ba'zida eng buyuk xizmatlarni ko'rsatgani ham adolatlidir. Adabiyot yutuqlariga ba'zida kitobfurush-noshir qanday buyuk ta'sir o'tkaza olishi haqida gapirish shartmikan?" Kitobat ishi namoyandalarining ijtimoiy-tarixiy roliga berilgan bu yuksak bahoni o'zbek noshirlari, xattot-kotiblari, kitobfurushlari, kutubxonachilari toshbosma kitoblar chop etish va tarqatish jarayoni barcha ishtirokchilariga taaluqli deb bilishga to'la haqlimiz.

MUNDARIJA

KIRISH....3

I BOB. KITOBSHUNOSLIK VA KITOB TARIXI: NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

1-§.«Kitob» so‘zi va tushunchasining kelib chiqishi va ma’nosi....5
2-§.«Kitob» tushunchasi funktsional yondashuv va metod nuqtai nazaridan....7
3-§.«Kitob» va «kitobat ishi» tushunchalari sistemali yondashuv hamda kitobshunoslikning sistemali-tipologik metodi nuqtai nazaridan....9
4-§. Kitob va kitobat ishi tarixi kitobshunoslik tarixiy-tipologik tadqiqotining ob‘ekti va predmeti sifatida....17
5-§. Kitob va kitobat ishining rivojlanish qonuniyatlari....20
6-§. Kitob va kitobat ishi tarixini tadqiq qilish printsiplari va metodlari....22
7-§.O‘zbekistonda kitob va kitobat ishi tarixini davriylashtirish....30
8-§.O‘zbekistonda kitob va kitobat ishi tarixining asosiy ilmiy muammolari tizimi....37

II BOB. QADIMIYAT VA ILK O‘RTA ASRLARDA YOZUV VA KITOBAT MADANIYATI

Miloddan. avv. V – milodiy VII asrlar

1-§. “Turon” va “Turkiston” atamalari Vatanimiz nomlari sifatida....42
2-§. Turon-Turkiston jahon yozuvi va kitobati tarixida....48
3-§. Turonzamin xalqlari yozuv madaniyati va kitobat ishi an‘analarining yuzaga kelishiga xizmat qilgan tarixiy-madaniy shart-sharoitlar....51
4-§. Turon–Turkiston harfli-tovushli yozuv tizimlarining kelib chiqishi va shakllanish qonuniyatlari....59
5-§. Kitob va kitobat madaniyati tarixida «Avesto»ning tutgan o‘rni va ahamiyati....71
6-§. Turonzaminda turli yozuv tizimlari rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlari va etakchi tamoyillari. Eng muhim yozuv yodgorliklari....90

7-§. Turonzamin kitob va yozma yodgorliklar ilk maxzanlari.....144
8-§. Turonzaminda qog'oz ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va rivojlanishi.....150
9-§. Arablar istilosi va qadimgi davrdan o'rta asrlarga o'tish jarayonida Turonzamin xalqlari yozuv madaniyati va kitobat an'analarining vorisiyligi masalalari.....157

III BOB. TURON-TURKISTON O'RTA ASR KITOBAT MADANIYATI

1-§. O'rta asrlarda kitobat madaniyati: rivojlanish yo'llari va xususiyatlari.....183
2-§. Qo'lyozma va toshbosma kitoblar turlari.....193
3-§.Qo'lyozma kitoblarni ko'chirish va nusxalarini ko'paytirish.....205
4-§. Qo'lyozma kitoblarning estetik va texnologik tavsifi.....211
5-§. Alisher Navoiy va milliy turonzamin kitobat madaniyati.....243
6-§. O'rta asr Turonzamin kitoblar repertuari.....248
7-§. O'rta asrlar kutubxonachiligi.....283
8-§. Kitob savdosi.....327
9-§. Bibliografiya yoxud kitoblarni zikr etish an'analari. Muhim bibliografik asarlar.....335

IV BOB. MUSTAMLAKA TURKISTONDA KITOBAT ISHI (1867–1917 yillar)

1-§. Jamiyat siyosiy va ijtimoiy hayotini belgilovchi asosiy omillar.....367
2-§. Kitob nashriyotchiligi.....373
3-§. Turkistonda rus tilida kitob noshirchiligi.....424
4-§. Bibliografiya ishi.....440
5-§. Kitob savdosi.....445
6-§. Kutubxonachilik ishi.....458

XULOSA.....508

ERKIN AXUNJANOV

KUTUBXONASHUNOSLIK, ARXIVSHUNOSLIK, KITOBSHUNOSLIK: NAZRIYASI VA TARIXI

Bosh muharrir: M.Saparov

Muharrir: R.Jomonov

Musahhih: F.Safaralieva

Rassom: D.O'rinova

«TAFAKKUR-BO'STONI» nashriyoti
Toshkent sh., Yunusobod 9-13.

Litsenziya № AI 190. 10.05.2011 y.

Bosishga ruxsat etildi: 15.07.2011 y. Bichimi 60x84 1/16.
"Times New Roman" garniturasi. Shartli bosma tabog'i 32,5.
Adadi 500 dona. Buyurtma № 04/05.

«TAFAKKUR» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi 1.